

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI OLIY VA OʻRTA
MAXSUS TAʼLIM VAZIRLIGI
OʻRTA MAXSUS, KASB-HUNAR TAʼLIMI MARKAZI

**H. M. Muhamedov, O. T. Husanov,
B. M. Muhamedov**

OʻZBEKISTON DAVLATI VA HUQUQI TARIXI

Kasb-hunar kollejlari uchun oʻquv qoʻllanma

TOSHKENT
«TASVIR» NAHRIYOT UYI
2009

67.3(50‘)

M96

*Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o‘quv metodik
birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash
nashrga tavsiya etgan*

Taqrizchi

- H. Boboyev** – O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi,
huquqshunoslik fanlari doktori, professor;
- M.A. Hamidova** – yuridik fanlari nomzodi, dotsent;
- A. Mirzabekov** – Toshkent yuridik kolleji o‘qituvchisi;
- A.A. Hasanov** – yuridik fanlari nomzodi.

O‘quv qo‘llanma «O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi» fani dasturi asosida huquqiy va tarixiy fanlarning eng so‘nggi yutuqlari hisobga olingan holda yozildi. Unda O‘zbekiston hududida qadimgi davrda, o‘rta asrlarda, yangi va eng yangi davrlarda davlat va huquqning rivojlanishi xususiyatlari va qonuniyatlari xronologik izchillikda yoritildi.

O‘quv qo‘llanma kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarning huquq, tarix yo‘nalishlari o‘quvchilari, o‘qituvchilari hamda O‘zbekiston davlatchiligi va huquqi tarixi bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasi uchun mo‘ljallangan.

ISBN № 978–9943–342–14–9

© «TASVIR» nashriyot uyi, 2009.

www.ziyouz.com kutubxonasi

KIRISH

XXI asr ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish borasida barcha fanlar, jumladan, huquqiy fanlar oldiga ham yangi-yangi vazifalarni qo'yimoqda. Olimlar zimmasiga esa tegishli o'quv fanlarining zamonaviy dasturlari, o'quv qo'llanmalari va darsliklarini hozirgi davr talabi va ilm-fanning so'nggi yutuqlarini hisobga olgan holda yangilab borish vazifasini yuklaydi.

Huquqshunoslik ta'lim tizimida «O'zbekiston davlati va huquqi tarixi» fani alohida o'rin tutadi. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi ijtimoiy fanlar turkumiga kiruvchi tarixiy-huquqiy fan hisoblanadi. O'z mazmun-mohiyati bo'yicha u huquqiy (yuridik) fandir, shu bois ushbu fan huquqshunoslik yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarida, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari asosiy o'quv kurslaridan biri sifatida o'rganiladi. Ammo shu kunga qadar ushbu fan dasturlarini to'liq yoritib beruvchi darslik yoki o'quv qo'llanmalar hanuzgacha yaratilmagan. To'g'ri, mamlakatimizda bu fanning o'qitilishini takomillashtirish va birinchi darslik hamda o'quv qo'llanmalar yozish borasida o'zbek olimlaridan O.E. Eshonov, X.S. Samatova, Z. Muqimov, A.X. Saidov, J. Toshqulov va boshqa olimlar bir qancha samarali ishlarni amalga oshirganlar. Lekin ular tomonidan yozilib, chop etilgan o'quv darsliklar va o'quv qo'llanmalar yo asosan sovet davrigacha, yoki mustaqillikkacha bo'lgan davrdagi davlat va huquq masalalarini bayon qilishga bag'ishlangan. Buning ustiga ular faqat oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan. Biroq ushbu ahamiyati jihatidan barcha huquqiy fanlarga poydevor vazifasini bajaruvchi fan bo'yicha akademik litsey va kasb-hunar kollejlari talabalari uchun shu vaqtgacha hali hech qanday darslik yoki o'quv qo'llanmasi tayyorlanmagan edi. Ushbu kitob kasb-hunar kolleji va akademik litseylar talabalari uchun yaratilgan dastlabki darslik hisoblanadi.

Darslik fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishdek demokratik oliy maqsad tomon borayotgan mustaqil O'zbekiston davlati, uning qadimgi Turon zaminida davlatchilik va huquqning paydo bo'lishi boy tarixini o'rganish, tahlil qilish va davlatchilik-huquqiy merosini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Unda insoniyat tarixining turli davrlarida O'zbekiston hududida davlat va huquqning rivojlanish xususiyatlari, hozirgi davrda O'zbekiston davlati, davlat-huquqiy

instituti haqida, O'zbekistonda amalga oshirilishi jarayonlari to'g'risida izchil ma'lumotlar beriladi.

Mazkur o'quv qo'llanmaning boshqa o'quv qo'llanmalardan muhim farqi shundaki, unda davlat-huquqiy masalalar xronologik izchilikda keng va atroflicha yoritilishga harakat qilingan, har bir muayyan davlatning kelib chiqishi va davlat tuzumi hamda huquq tizimi chuqur bayon qilingan, shuningdek, u tarixiy-huquqiy fanlarning eng so'nggi yutuqlari hisobga olingan holda yozilgan.

Darslik uning mualliflari tomonidan bu sohada amalga oshirilgan dastlabki ishlardan bo'lganligi uchun ayrim kamchiliklardan xoli bo'lmasligi tabiiy. Bu haqda xolisona fikr va mulohazalar bildirgan olimlar va mutaxassislar o'quv qo'llanmaning kelajakda yanada takomillashishiga o'z hissalarini qo'shgan bo'ladilar.

O‘ZBEKISTON DAVLATI VA HUQUQI TARIXI FANINING MAQSAD-VAZIFALARI, PREDMETI VA O‘RGANISH USHLARI

1. O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi — ijtimoiy, tarixiy va huquqiy fan.
2. Fanning maqsad-vazifalari, predmeti va ahamiyati.
3. O‘zbekiston davlati va huquqi tarixining huquqiy fanlar tizimida tutgan o‘rni.
4. O‘zbekiston davlati va huquqi tarixini davrlarga bo‘lib o‘rganilishi.
5. O‘quv fani bo‘yicha manbalar haqida qisqacha ma‘lumot.

D‘zbekiston davlati va huquqi tarixi — ijtimoiy, tarixiy va huquqiy fan

O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi ijtimoiy fan bo‘lib, uni asosan tarixiy-huquqiy fan deb ataymiz. Chunki u bevosita ham tarix faniga, ham davlat va huquq haqidagi fanga aloqador.

O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi o‘z tabiati bo‘yicha yuridik (huquqiy) fan hisoblanadi. Shu bois u oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida o‘rganiladigan asosiy o‘quv kurslaridan biridir.

Tarix o‘tmishning yig‘ilgan, konsratsiyalashgan tajribalarini saqlovchi, uni avlodlarga asrab yetkazib keluvchidir. Hozirgi zamonning har bir yirik masalasi hayotning qaysi sohasida bo‘lmasin, jumladan, davlat va huquqiy qurilish sohasida ham mavjud bo‘lgan tarixiy tajribalarni hisobga olmasdan, undan unumli foydalanmasdan, chuqur o‘rganmasdan samarali hal etilishi mumkin emas. O‘tmish voqea-hodisalarini bilmasdan turib, hozirgi voqelikni to‘g‘ri tushunish, kelajakni ko‘ra bilish mumkin emas. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, **«O‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi... Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o‘rgatadi, irodasini mustahkamlaydi... Inson uchun tarixdan judo bo‘lish — hayotdan judo bo‘lish demakdir»**.¹ Tarix fan sifatida jamiyat taraqqiyotining obyektiv qonunlari haqidagi bilimlar tizimini o‘zida mujassamlashtiradi, ularni tushunish jamiyatning kelajakdagi rivojlanishini ko‘ra bilishga imkon yaratadi.

O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi davlat va huquqni bir butun ijtimoiy hodisa sifatida bir-biri bilan o‘zaro aloqadorlikda o‘rganadi. Davlat va huquq tarixi har qaysisi alohida bo‘lgan davlat tarixining va huquq tarixining mexanik ravishda qo‘shilishi emas. Davlat va huquq

¹I.A.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. —T., «Sharq» NMK, 1998.

tarixi bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liq va o'zaro aloqador. U yuridik fanlarning muhim poydevori hisoblanadi. Davlat va huquq tarixi keng tarixiy materiallarga asoslanib davlat va huquqning vujudga kelishini, ular turlarining biridan keyin ikkinchisi kelishi izchilligining sabablarini, turli tarixiy turdagi va bosqichdagi mohiyatini, mazmuni va shakllarini, turli rivojlanish bosqichidagi va turli shakldagi davlatlarning o'ziga xos tomonlarini, huquqiy manbalarning paydo bo'lishini, tuzilishini, amal qilishining shakllarini qo'llanilishini, ularda mustahkamlangan huquq sohalari va institutlarining mohiyatini hamda shu singarilarni ochib beradi. Davlat va huquq tarixi o'rganadigan masalalar yuridik fanlar tizimida markaziy o'rinni egallaydi.

Shu tariqa O'zbekiston davlati va huquqi tarixi ham tarixiy, ham yuridik fandir. U O'zbekiston jamiyati tarixining bir qismi hisoblanadi hamda ijtimoiy fikrlar tarixi, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi tarixi, madaniyat tarixi va boshqalar bilan bir qatorda turadi.

Fanning maqsad-vazifalari, predmeti va ahamiyati

«Umuman, — deb ta'kidlaydi I.Karimov, — men fanni ilg'or, taraqqiyot, progress degan so'zlar bilan yonma-yon qabul qilaman. Fanning vazifasi kelajagimizning shakli-shamoyilini yaratib berish, ertangi kunimizning yo'nalishlarini, tabiiy qonuniyatlarini, uning qanday bo'lishini ko'rsatib berishdan iborat, deb tusbunaman. Odamlarga mustaqillikning afzalligini, mustaqil bo'lmagan millatning kelajagi yo'qligini, bu tabiiy bir qonuniyat ekanini isbotlab, tushuntirib berish kerak. Fan jamiyat taraqqiyotini olg'a siljituvchi kuch, vosita bo'lmog'i lozim»¹.

O'zbekiston davlati va huquqi tarixini bilish avvalo hozirgi mustaqil o'zbek davlatchiligining mohiyatini chuqur anglash va uni kelajakda rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini oldindan aytib bera olish uchun kerak.

Hozirgi davlat va huquq tarixini bilish uchun ularning qanday kelib chiqqanligini, o'z rivojlanishida qanday bosqichlarni bosib o'tganligini, ularning paydo bo'lishiga, tashkil topishiga, rivojlanishiga, shakli va mazmunining o'zgarishiga qanday sabablar ta'sir ko'rsatganligini bilish juda muhim.

O'zbekiston davlati va huquqi tarixi fanining asosiy vazifasi — o'zbek davlatchiligi va huquqiy tizimining taraqqiyot qonuniyatlarini va ularning alohida davrlardagi rivojlanish xususiyatlarini o'rganishdan iboratdir. Shuningdek, ushbu fan O'zbekiston hududida ilk davlatlarning vujudga kelishi va rivojlanishi, huquqning kelib chiqishi va taraqqiy etishi,

¹ I.A.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -T., «Sharq» NMK, 1998.

ularning turli tarixiy bosqichlarda turlicha shakllarga ega bo'lishi, takomillashib borshi, mustaqil O'zbekiston davlati va huquqning o'rnatilishi kabi masalalarni o'rganish ham muhim vazifalardan qilib oigan. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi fanining predmeti davlat va huquqning, shuningdek, ma'lum tarixiy davrda muayyan davlat organlari hududida davlat va huquqning vujudga kelishi, rivojlanishi hamda tip va shakllarining o'zgarishi hisoblanadi. Bu fan mamlakatimiz hududida davlat va huquqning kelib chiqishi, rivojlanishi va amal qilishini tekshirish bilan cheklanib qolmaydi, balki shular bilan birga ma'lum vaqtda va muhtida rivojlanadigan davlat-huquqiy jarayonlarining mazmunini tahlil qiladi, ularning o'ziga xos sabab-oqibat aloqalarini tekshiradi va muayyan tarixiy g'oyalarni ochib beradi.

Bu fan umumiy tarixdan farq qilib, jamiyatni to'la va butunligicha o'rganmaydi, balki davlat va yuridik muassasalarning murakkab tizimini tarixiy rivojlanish jarayonini hamda huquq, uning alohida sohalarini va institutlarining kelib chiqishi va taraqqiy etishi jarayonini o'rganadi. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi davlat va huquqqa, xususdan, ularning ma'lum rivojlanish bosqichidagi ko'rinishlari, shakllari va rivojlanish jarayonlariga muayyan tarixiy yondashar ekan, juda ko'p dalillarga, siyosiy hayotning amiq hodisalariga, davlatlar, hukumatlar, sinflar, tabqalar, partiyalar va boshqalar faoliyatiga tayanadi. Biroq davlat va huquq tarixi davlat va huquqning o'rinishi haqidagi bilimlarni yig'ish bilanгина cheklanib qolmaydi. U o'z oldiga davlat va huquqning tarixiy rivojlanish g'oyalarni aniqlashni asosiy vazifa qilib qo'yadi. Davlat va huquq rivojlanishining muayyan tarixiy g'oyalarga jamiyat rivojlanishi g'oyalari bilan bog'lanadigan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Zero, davlat va huquq jamiyatda alohida o'rin tutadi, nisbatan mustaqillikka ega.

O'zbekiston davlati va huquqi tarixi yuqoridagi muammolarni tekshirish bilan to'xtab qolmaydi. U muhim muammolar gatorida inson va fuqarolar huquqlari, hokimiyatlar taqsimlanishi, parlamentarizm, siyosiy tashkilotlar, asosiy huquqiy institutlar va shu kabilarning kelib chiqishi va rivojlanishini o'rganadi. U o'rinishda erishilgan yutuqlardan o'tak olishga imkoniyat yaratadi, shuningdek, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni takrorlamaslikka o'rgatadi.

Shunday qilib, O'zbekiston davlati va huquqi tarixi mamlakatimiz hududida davlat va huquqning vujudga kelishi va ma'lum muayyan tarixiy sharoitda rivojlanishini xronologik izchillikda, bu jarayonlarining umumiy tarixiy g'oyalari, shuningdek, muayyan vaziyatlarida (mustaqillik, mustamlakachilik davrlarda) rivojlanish yoki rivojlanmaslik xususiyatlarini, ayrim tarixiy bosqichlar doirasida harakat qiluvchi g'oyalarni aniqlash asosida o'rganadi.

mohiyatini ilmiy asoslangan tarzda ochish bu fanlarning o'zaro aloqasini nazarda tutadi.

Tarix o'tmishni o'rgansa, nazariya hozirgi davrni va kelajakni o'rganadi, tarix tarixiy material bilan bog'langan bo'lsa, nazariya ham tarixiy material bilan, shuningdek, davlat va huquqning hozirgi ahvoli bilan ham bog'langandir. Umuman olganda, nazariyasiz tarix, tarixsiz nazariya bo'lmaydi.

Mazkur fan umumiy tarixdan farq qilib, jamiyatni to'la va butunligicha o'rganmaydi, balki davlat va yuridik muassasalar murakkab tizimining tarixiy rivojlanish jarayonini hamda huquqning kelib chiqishi va taraqqiy etishi jarayonini o'rganadi. Shuni yodda tutmoq lozimki, umumiy tarixda o'rganiladigan ba'zi masalalar (masalan, urushlar, madaniy rivojlanish, sulolalar tarixi va boshqalar), agar davlat va huquqda o'zgarishlarga sabab bo'lsagina, davlat va huquq tarixining predmetiga taalluqli bo'lib qoladi. Aks holda, davlat va huquq tarixi unday masalalar bilan maxsus shug'ullanmaydi.

O'zbekiston davlati va huquqi tarixi fani huquq sohalarini o'rganuvchi konstitutsiyaviy huquq, fuqarolik huquqi, jmoyat huquqi, ma'muriy huquq va hokazo huquqiy fanlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning tarixini o'rganadi. Shu tariqa mazkur fan huquqiy fanlar uchun poydevor vazifasini o'taydi.

O'zbekiston davlati va huquqi tarixini davrlarga bo'lib o'rganilishi

O'zbekiston davlati va huquqi tarixini davrlarga bo'lganda xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixini o'rganishdagi singari 4 ta katta davrga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq. Bunga asosan mazkur fanni quyidagi davrlarga bo'lish mumkin:

1. Qadimgi davrda O'zbekiston davlati va huquqi tarixi (m.a. II ming yillikning o'rtalari – milodiy I mingyillik o'rtalari).

2. O'rta asrlarda O'zbekiston davlati va huquqi tarixi (V asr – XIX asrning II yarmi).

3. Yangi davrda O'zbekiston davlati va huquqi tarixi (XIX asrning II yarmi – XX asr boshlari).

4. Eng yangi davrda O'zbekiston davlati va huquqi tarixi (XX asr boshi – XXI asr).

Yuqoridagi yirik tarixiy davrlar O'zbekistonda davlat va huquqning shakllanishi va rivojlanib borishi bilan tavsiflanib, ularning har bir bosqichida o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy va huquqiy o'zgarishlar yuz berganligi kuzatiladi. Har bir tarixiy davrda o'zbek davlatchiligi va huquqiy tizimi rivojlanishining alohida tarixiy bosqichlarini ajratib

o'rganish muhim ahamiyatga ega. Ko'pgina tarixiy-huquqiy adabiyotlarda qadimgi davrdagi o'zbek davlatchiligi va huquqi tarixini quyidagi bosqichlarga bo'lib o'rganish ko'rsatiladi:

1. Ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi, davlat va huquqning paydo bo'lishi (m.a. II ming yillikning o'rtalari – m.a. II ming yillikning ikkinchi yarmi).

2. Ilk davlat uyushmalari va dastlabki huquq manbalarining shakllanishi (m.a. I ming yillikning birinchi yarmi).

3. Qadimgi davr davlati va huquqi (m.a. IV asr oxiri – milodiy IV asr).

O'zbekistonda o'rta asrlar mobaynida davlat va huquq sohasida juda katta o'zgarishlar yuz berdi. Bu asosan chet el bosqinchiliklari va mustaqillik uchun kurashlar hamda mustaqil, markazlashgan davlatlarning tashkil topishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'ldi. Umuman, o'rta asrlarda O'zbekiston davlati va huquqi tarixining rivojlanishidagi quyidagi bosqichlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Ilk o'rta asrlar davlati va huquqi (V – VIII asrlar).

2. Rivojlangan o'rta asrlar davlati va huquqi (IX – XIII asrlar).

3. Amir Temur va temuriylar davlati va huquqi (XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asr boshlari).

4. XVI asr – XIX asrning birinchi yarmida O'zbekiston davlati va huquqi.

O'zbekiston davlati va huquqining yangi davrda rivojlanish jarayoni ancha qiyin kechgan. Bu asosan chor Rossiyasining istilosi va mustamlakachilik tizimining o'rnatilishi bilan bog'liq bo'ldi. Shu sababli Rossiyaning ijtimoiy-siyosiy tuzumida va huquqiy tizimida yuz bergan o'zgarishlar, tabiiyki, O'zbekiston davlati va huquqiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi.

O'zbekiston davlati va huquqi tarixining eng yangi davrini quyidagi ikki bosqichga ajratish mumkin:

1. Qizil imperiya hukmronligi davrida O'zbekiston davlati va huquqi.

2. Mustaqil O'zbekiston davlati va huquqining shakllanishi va taraqqiy etishi.

O'quv fani bo'yicha manbalar haqida qisqacha ma'lumot

O'zbekiston davlati va huquqi tarixining fan sifatida shakllanishida va rivojlanishida O'zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi, professor X.S.Sulaymonova (1913–1992), O'zbekiston Fanlar Akademiyasining muxbir a'zosi O.E.Eshonov (1916–1992), O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi X.S.Samatova (1917–1993), akademik Sh.Z.O'razayev, professorlar A.X.Saidov, Z.Muqimov, J.Toshqulov, H.Boboyev va boshqa olimlar salmoqli hissa qo'shganlar.

Hozirgi kunda O‘zbekiston davlati va huquqi tarixiga oid bir necha darslik va o‘quv qo‘llanmalari yaratilgan. Shuni ta’kidlash joizki, bu sohadagi ishlarni amalga oshirishga faqat mustaqillik tufayli keng imkoniyatlar paydo bo‘ldi.

Mustaqillikka qadar mazkur fan bo‘yicha birinchi va yagona darslik O.Eshonov, X.Samatova, Sh.O‘razayevlar tomonidan rus tilida yozilib, 1969-yilda chop etilgan edi. To‘g‘ri, ushbu darslik sho‘rolar davrida yozilgan va markscha-lenincha nazariyaga asoslangan bo‘lsa ham, lekin unda O‘zbekiston hududida ilk davlat va huquqning kelib chiqishi va XX asr boshlarigacha taraqqiy etib borishi jarayoniga oid juda muhim hamda qimmatli ma’lumotlar beriladi.

Mazkur fan bo‘yicha Z.Muqimovning 1992 va 2003-yillarda e‘lon qilgan «O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi» darsligi, A.Saidov va J.Toshqulov tomonidan yozilgan va 1996-yilda IIV Akademiyasi nashriyotida chop etilgan «O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi» o‘quv qo‘llanmasi, 2004-yilda TDYuI nashriyotida e‘lon qilingan M.Hamidovanning o‘quv qo‘llanmasi, Azamat Ziyo qalamiga mansub «O‘zbek davlatchiligi tarixi» monografiyasi (2000-yil), H.Boboyevning 2004-yilda e‘lon qilgan «O‘zbek davlatchiligi tarixi» I kitobi, A.Sagdullayev, B.Aminov, O‘.Mavlonov va N.Norqulovlar qalamiga mansub «O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti» (2000-yil) kitobi va siz mutolaa qilayotgan ushbu darslik asosiy manbalar hisoblanadi.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

1. *O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi fani nimalarni o‘rganadi?*
2. *O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi fanining predmetiga nimalar kiradi?*
3. *O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi fanining maqsad-vazifalari nimalardan iborat?*
4. *O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi fanini o‘rganishning nazariy va amaliy jihatlari nimalardan iborat?*
5. *O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi fanining huquqiy fanlar tizimida tutgan o‘rnini aytib bering.*
6. *O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi fani qanday davrlarga bo‘linib o‘rganiladi?*
7. *O‘rta asrlarda O‘zbekiston davlati va huquqi tarixining rivojlanish bosqichlarini sanab bering.*
8. *O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi fani bo‘yicha qanday manbalarni bilasiz?*

Birinchi bo'lim

QADIMGI DAVR DAVLATI VA HUQUQI (Miloddan avvalgi II mingyillikning o'rtalari – milodiy IV asr)

I BOB. ILK DAVLATLARNING TASHKIL TOPISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

1-mavzu: O'zbekiston hududidagi qadimgi davlatlarning tashkil topishi xususiyatlari

1. Insoniyat tarixida jamiyat ustidagi qurilmalarning paydo bo'lishi va ilk davlatlarning tashkil topishi.
2. O'zbekiston hududidagi ilk davlatlarning kelib chiqishi shart-sharoitlari, sabablari va xususiyatlari.
3. Ilk voha davlatlarning barpo etilishi va rivojlanishi.
4. O'zbekiston hududidagi dastlabki davlatlarning ijtimoiy-siyosiy tuzumi.

1.1. Insoniyat tarixida jamiyat ustidagi qurilmalarning paydo bo'lishi va ilk davlatlarning tashkil topishi

Insoniyat tarixi ikki asosiy davrga: ibtidoiy jamiyat va sivilizatsiyaga bo'linadi. Insoniyat rivojlanishining dastlabki (boshlang'ich) va qonuniy bosqichi hisoblangan ibtidoiy tuzum juda uzoq vaqt, hozirgi zamon fani ma'lumotlariga qaraganda, ikki million yildan ortiq vaqt hukm surgan. Ibtidoiy jamiyat tarixi odamzodning paydo bo'lishidan to davlatning tashkil topishigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, bu vaqtda hali davlat va huquq bo'lmagan edi. Lekin davlat va huquqning paydo bo'lishi jarayoni aynan shu davrdan boshlanadi. Hali davlat va huquq mavjud bo'lmagan jamiyat tarixini o'rganish insoniyat taraqqiyoti boshlang'ich bosqichining umumiy qonuniyatlarini aniqlashga imkon beradi. Davlat va huquqni vujudga keltirgan tarixiy sharoitlar va sabablarni bilish ularni yanada rivojlantirishning konkret usullarini topishga yordam beradi.

Davlat va huquqning vujudga kelishi ijtimoiy va iqtisodiy shart-sharoitlarini tushunish uchun ibtidoiy jamiyatdan ikki asosiy bosqich: o'zlashtiruvchi xo'jalik va ishlab chiqaruvchi xo'jalik bosqichini ajratib olish juda muhim ahamiyatga ega. O'zlashtiruvchi xo'jalik (terib-termachlash, ovchilik, baliqchilik)dan ishlab chiqaruvchi xo'jalik (dehqonchilik, chorvachilik)ka o'tish neolit davriga to'g'ri kelib, bunga

neolit inqilobi deyiladi. Bu davr taxminan miloddan avvalgi VIII—III minginchi yillarga to‘g‘ri keladi.

Neolit inqilobi va miloddan avvalgi VII—V minginchi yillarda insoniyatning ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka o‘tishi turli xalqlarda turlicha bo‘lgan va chuqur oqibatlar keltirib chiqargan.

Avvalo kishilarning yashashi va muvaffaqiyatli xo‘jalik faoliyati uchun qulay mintaqalarda dastlabki o‘troq dehqonchilik jamiyatlarining paydo bo‘lganligini, shuningdek, aholining soni va zichligi birdaniga o‘sganligini ta’kidlash lozim. Dehqonchilik jamoalari o‘sib borgan. Bu jarayon hammadan avval oila-urug‘ guruhlarining ajralib chiqishida namoyon bo‘lgan. Yirik dehqonchilik-urug‘chilik jamoalari hududlarida bir necha turar-joylar tashkil topishi mumkin edi. Ulardagi xo‘jalik hayotining o‘sishi va jonlanishi oqibatida shahar tipidagi turar-joylarning shakllanishi sodir bo‘lgan.

Vaqt o‘tishi bilan oila-urug‘ guruhlarining ichki tashkiliy tuzilishi murakkablashgan, ularning a‘zolari yangi madaniy va ishlab chiqarish bilimlarini egallab olganlar, mehnat taqsimoti (dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va hokazolar) boshlangan. Bularning hammasi jamoa va birgalikdagi ishlab chiqarish samaradorligining o‘shishiga olib kelgan. Ishlab chiqaruvchi xo‘jalik urug‘chilik jamoalari a‘zolarining nafaqat eng zarur ehtiyojlarini qondirgan, balki ortiqcha mahsulotning paydo bo‘lishiga olib kelgan. Bu ortiqcha mahsulotlar dastlab urug‘ning ichida yana qaytarib olish mumkin bo‘lgan sharoitda ayirboshlangan. Lekin ular asta-sekin qabilalararo aloqalar doirasiga tushib, tovarga aylanib borgan. Tovar ishlab chiqarishning paydo bo‘lishi o‘z navbatida ortiqcha mahsulotning yanada o‘shishiga, boylikning to‘planishiga olib kelgan (bu esa qadimiy urug‘doshlik jamiyatida yo‘q edi). Oqibatda alohida oila-urug‘ jamoalari, shuningdek, urug‘chilik guruhleri orasida mulkiy tengsizlik kelib chiqishi uchun obyektiv asos paydo bo‘lgan.

Ijtimoiy mahsulotning ko‘payib borishi mulkiy tafovutlarning chuqurlashuviga, shu bilan birga, urug‘-jamoat yuqori qismi qo‘lida mulkiy va ijtimoiy imtiyozlarning mustahkamlanishiga olib kelgan. Yangi sharoitlarda oila-urug‘ guruhida urug‘chilik lavozimlarini egallab turish yo‘lboshchilarga faqat obro‘ va nufuz keltiribgina qolmay, balki jamoa tuzumining o‘tgan bosqichiga xos bo‘lgan, lekin maxsus va ancha yuqori mavqe bergan. Bunda ularni saylab qo‘yish tartibi hali saqlanib qolgan edi.

Yo‘lboshchiga taqdim etilgan va tobora ko‘payib borayotgan mulkiy va boshqa imtiyozlar (masalan, bir necha xotinga ega bo‘lish huquqi)ni ularning endilikda amalga oshirayotgan ancha murakkab vazifalari va zimmlariga olgan jiddiy majburiyatlari evaziga berilgan deb qaralar

edi. Oila-urug' jamoalari yo'lboshchilarining majburiyatlari tobora ko'payib borgan. Ular qatoriga ijtimoiy ishlarni tashkil qilish, yer uchastkalarini qayta taqsimlash, qo'shni oila-urug' jamoalari bilan munosabatlar olib borish kabilar kirgan. U yoki bu darajada an'anaga aylanib qolgan ushbu vazifalarga butun jamoa tomonidan ishlab chiqarilgan ortiqcha mahsulotni qayta taqsimlashdan iborat yangi va juda muhim vazifa qo'shilgan. Bu yerda endi kelajakka, davlatchilik asosida tashkil etilgan jamiyatga xos unsurlar, ekspluatatsiya tizimi paydo bo'la boshlagan.

Neolit inqilobi va jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishining murakablashuvi natijasida oila-urug' guruhlarining ichida hokimiyatni amalga oshirish borasida chuqur o'zgarishlar yuz bergan.

Oila-urug' guruhida yo'lboshchi hokimiyati ilgariydek potestar xarakterini saqlab qolgan. Lekin u tomondan amalga oshiriladigan vazifalar uning hokimiyatini siyosiy davlat hokimiyatiga yaqinlashtirgan, chunki u oila-urug' jamoasi a'zolari bajarishi shart bo'lgan katta kuchga ega bo'lib olgan edi. U endi ilgariydek shaxsiy sifatlariga bog'liq bo'lmay, ko'proq eng oliy boshqaruvchi maqomiga ega shaxs bo'lib qolgan. Aynan shu bois yo'lboshchilikka intiluvchi guruh a'zolarining ko'z o'ngida yo'lboshchining obro'-e'tibori emas, balki hokimiyatchilik vazifalari eng oliy qadriyat kasb eta boshlagan. Hokimiyatga intilish jamoaga o'z irodasini o'tkazishga, hokimiyatdan ma'lum mulkiy va shaxsiy imtiyozlar olishga bo'lgan xohish-istak orqali mustahkamlangan.

Davlat va huquqning paydo bo'lishiga bevosita aloqasi bo'lgan neolit inqilobining muhim oqibatlaridan biri urug'lararo aloqalarning rivojlanishi va jamiyat ustidagi qurilmalarning shakllanishi bo'lgan. Bu qurilmalarning vujudga kelishi va evolutsiyasi ma'lum darajada tashqi ta'sirsiz (o'z-o'zidan) kechgan va konkret-tarixiy dalillar ta'sirida turli shakllarga ega bo'lgan. Ulardan ba'zilar ayrim xalqlar uchun tipik bo'lgan, biroq boshqa xalqlarda rivojlanmagan. Davlatchilikning tashkil topishi jarayonida jamoalararo aloqalar va tashkiliy qurilmalarning shakllaridan biri – qabilaviy tuzum alohida mavqega ega bo'lgan. Biroq hozirgi adabiyotlarda uning umumiyliigi va ahamiyati ba'zan shubha ostiga olinadi.

Jamoa tuzumining, ayniqsa, so'nggi urug'chilik jamoasining tabiiy evolutsiyasi (tadrijiy rivojlanishi) natijasida ko'pgina yangi oila-urug' jamoalari vujudga kelgan. Bu esa ancha yirik ijtimoiy tashkilotlar – ittifoqlar (fratsiyalar) va qabilalarning, ba'zan esa qabilalar ittifoqining paydo bo'lishiga olib kelgan. Qabila, odatda, o'z hududiga, nomiga, tiliga (shevasiga), diniy va maishiy urf-odatlariga ega bo'lgan. Astasekin qabilaning o'zini-o'zi boshqarish organlari, avvalo qabila kengashi tashkil topa boshlagan. Uning tarkibiga, odatda, qabiladagi barcha

urug'larning oqsoqollari (dohiyolari) kirgan. Qabila kengashi a'zolari, shuningdek, qabila yo'lboshchisi (dohiyisi) qabila a'zolari tomonidan saylangan va almashtirilgan. Qabilaning har qanday a'zosi Kengash majlisida so'zga chiqish imkoniyatiga ega bo'lgan va majlis qarorlari yuzasidan yoki qabila boshlig'ining xatti-harakatlari bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildira olgan.

Qabila organlarining faoliyati jamoa ishlarini tashkil etishga, oila-urug' guruhlari o'rtasidagi aloqalarning kengayishiga (jumladan, jamoalararo mahsulotlar ayirboshlashga), urug'lararo nizolarni, shuningdek, boshqa qabilalar bilan o'zaro munosabatlarni tartibga solishga yordam bergan. Dastlab bu organlar faqat ayrim oila-urug' guruhlari manfaatlari doirasidan chetga chiqadigan ba'zi masalalarnigina hal qilgan.

Taqsimotchilik munosabatlari uzoq vaqtgacha qabila kengashi tomonidan yuritilmagan va qabila odatlari bilan emas, balki urug'chilik odatlari bilan tartibga solingan. Lekin asta-sekin ishlab chiqaruvchi iqtisodning rivojlanishi, ichki qabilaviy tashkilotning murakkablashuvi natijasida o'zini-o'zi boshqaruv urug'-qabila doirasidan qabila darajasiga o'sib chiqqan. Endilikda urug' jamoalari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi, lekin, albatta, ularning ichki hayotiga ham ta'sir etuvchi (bu so'zsiz jamoa demokratiyasining ahamiyati va mustahkamligiga putur yetkazgan) qabila me'yorlari (odatlar, marosimlar, rasm-rusumlar va boshqalar) ham katta ahamiyat kasb eta boshlagan.

Davlat va huquq tarixidan oldingi davrning muhim bosqichi – bu jamoa tepasida turuvchi murakkab tuzilmalarning va ularga mos bo'lgan ijtimoiy-me'yoriy tartibga solish mexanizmlarining tashkil topishi bilan bir qatorda o'z mazmuniga ko'ra davlatdan oldingi jamiyatni boshqarishning tamomila yangi asoslarining shakllanishi bo'lgan.

Boshqaruvchilik faoliyatining yangi qiyofasi jamiyat hayotining ehtiyojlari, xo'jalik faoliyatining murakkablashuvi va odamlarning ijtimoiy-madaniy aloqalarining butun tizimi natijasida shakllangan. Ijtimoiy ishlarni tashkil etish va nazorat qilish, oziq-ovqat va boshqa resurslarni saqlash va taqsimlash, qo'shni guruhlar bilan ayirboshlash munosabatlarini ushlab turish zaruriyati kerakli bilimlarga va mahoratlarga ega bo'lgan maxsus ishlab chiqarishni tashkil etuvchilar qatlamining ajralib chiqishiga olib kelgan.

Ijtimoiy mehnat taqsimotining muhim turlari (dehqonchilikdan chorvachilik va boshqalarning ajralib chiqishi) bilan bir qatorda boshqaruvchilik faoliyatining ham ajralib chiqishi va asta-sekin ixtisoslashib – doimiy kasbga aylanib borishi sodir bo'lgan. Odamlarning son jihatdan ikkita noteng guruhlarga (boshqaruvchilar va boshqariluvchilarga) bo'linishi juda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Bu davlatning

tashkil topishidagi oxirgi bosqich hisoblangan. Boshqaruvchilik mansablari ularning egalariga katta moddiy foydalar bergan, ularning butun jamoaga o'z xohish-irodalarini o'tkazishlariga imkoniyat yaratgan. Shakllanayotgan boshqaruvchilar tabaqasi o'z hokimiyatidan va imtiyozlaridan ajralib qolishni aslo xohlamas edi, uni o'z oilasi va urug'i bilan mustahkamlashga intilardi. Tashkilotchilik faoliyati siyosiy xarakter kasb etgan. Jamoaning ma'muriy oqsuyaklari (aslzodalari) davlat zodagonlariga aylangan. Jamoaning yuqori doiralari o'z an'anaviy obro'e'tiboridan va diniy-mifologik asoslar tizimidan foydalanib, tez-tez boshqalar uchun berk bo'lgan yopiq tabaqaga yoki kastaga birlashishga harakat qilgan.

Tashkil topayotgan ilk davlatchalarda yo'lboshchi (dohiy)ning mavqeyi ham o'zgargan, u borgan sari ko'proq ma'muriy mansablarga tayanadigan bo'lib qolgan va shu tariqa o'z hokimiyatini kuchaytirib borgan. Shunday qilib, ilk davlatchalar urug'-qabila tizimiga tashqaridan zo'rlab kiritilgan kuch sifatida emas, balki jamoa tuzilmalarining mantiqiy va tabiiy rivojlanishi natijasida uning tadrijiy davomi sifatida vujudga kelgan. U oila-urug' guruhlarining umumiy manfaatlari va ehtiyojlari bilan mustahkamlangan, lekin ilgari ijtimoiy boshqaruv tizimidan murakkab ma'muriy iyerarxiya¹ tashkil etganligi bilan farq qilgan. Bu iyerarxiyaning eng tepasida yo'lboshchi (dohiy) turgan, uning hokimiyati avtoritar² va muqaddas xarakterga ega bo'lib qolgan.

Ko'p tarixiy-huquqiy adabiyotlarda jamoa ustida turuvchi dastlabki qurilmalarning va ilk davlatchalarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan qator omillar ko'rsatiladi. Bunday omillarga, odatda, ekologik muhit (issiq iqlim, hosildor tuproqlar, suv resurslari va boshqalar), nisbatan ko'p ortiqcha mahsulot beruvchi barqaror ishlab chiqarish darajasi, demografik optimum³ kabilar kiritiladi. Bosqinchiliklar va urushlar, garchi ikkinchi darajali bo'lsa ham davlatning tashkil topishida muhim omil hisoblanadi. Ular jamoa aloqalari tadrijiy rivojlanishining ichki jarayonlariga ta'sir eta olmaydi, lekin ilk davlatchalarning tashkil topishini tezlashtiradigan qudratli harbiy-tashkiliy qurilmalarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Ilk davlatlarning tashkil topishi, ayniqsa qulay tabiiy sharoitlarga ega bo'lgan mintaqalarda ko'proq uchraydi. Bunday joylarda birdaniga bir necha ilk davlatchalar vujudga kelganligi tarixdan ma'lum. Shunday dastlabki davlat tashkilotlari ilk shahar-davlatlar nomini olgan. Tez

¹ *Iyerarxiya* – quyi mansabdorlarning yuqori mansabdorlarga bosqichma-bosqich bo'ysunishi.

² *Avtoritar* – hokimiyat, diktatura va shu kabilarga ko'r-ko'rona va so'zsiz bo'ysunishga asoslangan hokimiyat.

³ *Demografik optimum* – aholining eng qulay sharoitlarda joylashishi.

orada ushbu shahar-davlatlar o'rtasida keskin qarama-qarshiliklar va so'ngra harbiy to'qnashuvlar kelib chiqqan. Oxir oqibatda harbiy tashkiloti ancha kuchli va samarali bo'lgan davlat g'alabaga erishgan. Natijada harbiy-iyerarxiya tuzilmalari ko'rinishiga ega bo'lgan davlatlar ancha keng tarqalgan. Aynan shu harbiy demokratiya bo'lgan bo'lsa ehtimoldan xoli emas. Ammo mazkur harbiy demokratiyaning ahamiyati va keng tarqalganligi L.Morganning¹ asarlaridan boshlab adabiyotlarda uzoq vaqtgacha bo'rttirib ko'rsatilgan. Bizningcha, o'zga davlatlarni zo'rlik yo'li bilan qo'shib olishga, boshqa xalqlar ustidan hukmronlikka, zo'rvonlikka asoslangan davlatlarni — harbiy demokratiyalarni bo'rttirib ko'rsatish, ularni ilk davlatlarning tashkil topishidagi asosiy omil sifatida qayd etish unchalik to'g'ri emas.

Urushlar va tabiiy o'sish davomida, shuningdek, ikkinchi darajali davlatlar ham vujudga kelgan, ular o'z tarkibiga bir necha ilk shahar-davlatlarni birlashtirgan yoki ba'zan urug'-qabilalari hamda allaqachon tashkil topgan davlat qurilmalari bilan birga katta-katta hududlarni qo'shib olgan. Bunday davlatlar ancha murakkab tashkiliy-boshqaruv qurilmalariga ega bo'lib va juda xilma-xil ma'muriy funksiyalarni bajarib, sinfiy xarakterga ega emas edi, bu vaqtda hali sinflar bo'lmagandi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, shahar-davlatlar (ilk davlatchalar) dastlabki va oddiy davlat tashkilotlari sifatida hali jamiyat sinflarga bo'linishni bilmagan davrda tashkil topgan. Ular jamiyat rivojining ancha yuqori bosqichida davlat hokimiyatining faol ta'siri natijasida kelib chiqqan.

Shunday qilib, hozirgi zamon tarixiy, etnografik, arxeologik va boshqa ma'lumotlarning yorqin guvohlik berishicha, davlat adabiyotlarda ko'p vaqt markscha-lenincha ta'limot asosida e'tirof etib kelinganidek, simfiy hukmronlik asosida emas, balki ibtidoiy jamoa tuzumining tabiiy rivojlanishi davomida ichki sabablar natijasida paydo bo'lgan va jamoa tepasida turuvchi tuzilmalardan tashkil topgan. Ilk shahar-davlatlarning xarakterli belgilaridan biri murakkab tashkiliy-boshqaruvchilik tizimining tashkil topishi va asta-sekin jamiyatdan ajralib boradigan tizimga aylanishida bo'lgan.

Shahar-davlatlarning tashkil topishi insoniyatning ibtidoiy jamiyatdan sivilizatsiyaga o'ziga xos yorib o'tishi bo'lgan. Bu «o'tish» turli qit'alarda va turli xalqlarda tarixiy jarayonlarning notekis rivojlanishi natijasida turli vaqtlarda sodir bo'lgan hamda bir necha asrlar va ba'zan ming yillab davom etgan. Dunyoda birinchi sivilizatsiya va shahar-davlatlar Qadimgi Sharqda¹ miloddan avvalgi IV—III ming yilliklardayoq tashkil

¹ «Qadimgi Sharq» tushunchasi fanda janubiy-g'arbiy, janubiy va sharqiy Osiyo, shuningdek, shimoliy va shimoliy-sharqiy Afrika mamlakatlari yig'indisini anglatish uchun an'anaviy tarzda shartli ravishda ishlatiladi.

topgan edi. O'rtta Yer dengizi havzasida – antik dunyoda esa sivilizatsiya va davlatchilikka o'tish birmuncha keyinroq sodir bo'lgan. Yevropaning ko'pgina xalqlarida ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi va davlatning tashkil topish jarayoni o'rtta asrlarda nihoyasiga yetgan. Afrika, Polineziya va yer yuzining boshqa ba'zi joylarida to XIX–XX asrlargacha davlatdan oldingi oila-urug' munosabatlari yashab kelgan va bu yerlarda davlatning tashkil topishi tabiiy rivojlanish natijasida emas, balki Yevropa mustamlakachiligi oqibatida yuz bergan.

Davlat va huquq tarixidan oldingi davrda ulardagi ba'zi umumiy belgilarga qaramay, davlatning tashkil topishi va rivojlanishi turli xalqlarda o'ziga xos takrorlanmas belgilarga va xususiyatlarga ega bo'lgan.

1.2. O'zbekiston hududidagi ilk davlatlarning paydo bo'lish shart-sharoitlari, sabablari va xususiyatlari

Jahon tarixidan ma'lumki, yer yuzida eng qadimgi davlatlar miloddan avvalgi IV ming yillikda Misr va Mesopotamiya (Ikki daryo oralig'i)da paydo bo'lgan. Bu yerlardagi ilk davlatlar dehqonchilik va chorvachilik singari ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar paydo bo'lishi natijasida shakllangan edi. Dehqonchilik bu yerdan asta-sekinlik bilan qo'shni hududlarga – Kavkazorti, Eron, O'rtta Osiyo, Hindiston, Xitoyga tarqaldi.

Arxeologik topilmalar shuni ko'rsatmoqdaki, miloddan avvalgi 2-ming yillik o'rtalarida O'zbekiston (Surxon vohasi)da qadimgi dehqonchilik madaniyati rivojlanishi asosida ilk davlatchilikka o'tish jarayoni boshlanadi. Bu jarayon bosqichma-bosqich rivojlanishning o'ziga xos xususiyat va qonuniyatlariga ega edi.

Ilgarigi o'quv qo'llanmalari va darsliklarda ilk davlatlarning shakllanishini ekspluatatsiyaning paydo bo'lishi yoki boshqa kishilar mehnati bilan yaratilgan mahsulotni o'ziniki qilib olishning vujudga kelishi natijasida jamiyatning bir-biriga dushman sinflarga bo'linishi bilan bog'lab tushuntiriladi. Aslida, turli manbalar ilk davlatchilikka o'tishda boshqacha tarixiy vaziyatni ko'rsatmoqda.

Dastlabki davlatlar alohida makonlar yoki ilk shaharlar hamda ishlov beriladigan yerlar va sug'orish tizimi maydoni bilan chegaralangan nisbatan kichik hududda, ya'ni zich o'zlashtirilgan, xo'jalik va ishlab chiqarish maqsadida keng foydalaniladigan qadimgi sug'orma dehqonchilik vohalarida paydo bo'lgan. Bunday vohalar aholisi uchun tashqi harbiy bosqinlardan himoyalaniş, makonlar va manzilgohlar hududini himoya qilish, sug'orish va dehqonchilik ishlarini tashkil etish, jamoaning ichki va tashqi aloqalarini boshqarib turish masalalarini yechish muhim va hayotiy zaruriyat edi. Bu vazifalarni hal qilish maqsadida, u yoki bu ko'rinishdagi ishlarni (keng ko'lamdagi qurilish

va sug'orish, suvni taqsimlash ustidan nazorat qilish, jamoadagi diniy urf-odatlarini bajarish, bahsli masalalarni hal qilish kabilarni) tashkil etish uchun jamiyat jamoadagi hurmatga ega bo'lgan kishilarni – yo'lboshchilarni yuzaga chiqardi.

Shu tariqa, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar taraqqiyoti jamiyatda alohida hurmat-e'tiborga loyiq bo'lgan kishilarning ajralib chiqishiga imkon yaratdi. Ular ijtimoiy ishlab chiqarishda doimiy band bo'lmasdan, faqatgina ijtimoiy va xo'jalik hayoti ustidan nazorat va rahbarlikni amalga oshirdilar. Lekin ular na boy-badavlat kishilar, na ekspluatatorlar va na quldorlar edilar. Jamiyatda bunday kishilarning ajralib chiqishiga ularning axloqiy xislatlari va obro'-e'tibori sabab bo'lgan xolos. Ammo bu muhit keyinchalik alohida to'q oilalarning paydo bo'lishiga olib keldi va asta-sekinlik bilan jamoadagi yuksak hurmatga asoslangan hokimiyat meros tariqasida otadan o'g'ilga o'ta boshladi.

O'zbekistondagi dastlabki davlat uyushmalari ham dehqonchilik vohalari aholisini chetdan bo'ladigan bosqinchilardan himoya qilish va jamoadagi munosabatlarni huquqiy boshqarib turish uchun tashkil topdi.

O'zbek xalqi ajdodlarining ilk davlatchiligi tarixi qadimgi bronza davriga oid yozma ma'lumotlar yo'q bo'lganligi uchun faqatgina arxeologik topilmalarga asoslanib o'rganiladi. Bu manbalar qadimgi jamiyat taraqqiyotidagi barcha murakkab jarayonlarni to'liq ochib bera olmaydi.

O'zbekistonning miloddan avvalgi I-ming yillikning birinchi yarmiga oid tarixi yozma manbalarda ham ancha-muncha yoritilgan. Bu hududga tegishli ilk yozma manbalar «Avesto», ahamoniylar davri mixsimon yozuvlari va qadimgi dunyo (Yunon-Rim) davriga oid manbalar yurtimizdan chetda yozilgan. Bu manbalar qadimgi Sharq va dunyo tarixida birinchi bo'lib, O'rta Osiyodagi eng qadimgi xalqlarning nomlarini, alohida joylar, tog'lar, daryolar va ko'llarning nomlarini, afsonaviy qahramonlar va podsholarning nomlarini, yurtimiz xalqlarining turmushi, dini, madaniyati, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzumi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Yozma manbalardagi ma'lumotlarni arxeologik tadqiqotlar natijalari bilan solishtirganimizda ilk davlatlarning paydo bo'lishi masalalariga ko'pgina aniqliklar kiritish imkoniyati paydo bo'ladi. Bronza davriga kelib aholining ijtimoiy va iqtisodiy hayotida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Xususan, qadimgi aholi ishlab chiqarishning ma'lum bir sohalariga – dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikka ixtisoslashib bordi. Bu jarayon ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi va ularning bir yerga to'planishi uchun zamin yaratdi.

Qadimgi xo'jaliklarning ixtisoslashuvi, sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi, metallning hayotga jadallik bilan kirib kelishi va yoyilishi,

hunarmandchilikda turli tarmoqlarning rivojlanishi, o'zaro ayirboshlash va savdo-sotiqning taraqqiy etishi natijasida jamiyat hayotida ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish kuzatiladiki, bu yuksalish ilk davlatchilikning asosiy poydevori hisoblanadi.

«Avesto» ma'lumotlariga ko'ra, Urug' – «vis» (ayrim qishloq jamoasi) 15 ta katta oila a'zolari (jami 75–90 kishi)dan iborat bo'lgan. Surxondaryodagi Qiziltepa shahri atrofida to'rtburchak shaklida qurilgan qadimiy uy-qo'rg'on (Qizilcha)lar 3–4 qo'shni uylardan iborat bo'lib, alohida joylashgan qishloq jamoasini tashkil qilganlar. Har bir katta oila jamoasi ma'lum uy-joy, chorva va yerga egalik qilib, ma'lum darajada iqtisodiy mustaqil bo'lgan. Qishloq jamoalarining hududiy, iqtisodiy va ijtimoiy birlashuvi, ibtidoiy davrlarga oid urug'-qabilaviy birlashuvdan ancha farq qilib, ilk davlat tizimi paydo bo'lganligidan dalolat beradi.

Ilk davlatlarning hududiy asosini aloqador dehqonchilik tumanlari tashkil etgan. Xo'jalik yuritish maqsadida o'zlashtirilgan hududlarda aholi zich joylashgan bo'lib, ular o'zlashtirilmagan bepoyon yerlardan farq qilgan holda qadimgi «madaniy-xo'jalik» vohalar deb ataladi. Ularning har birida hosildor yerlar va sug'orish tizimidan tashqari uy-qo'rg'onlar va manzilgohlar, ekin ekilmagan yerlar va yaylovlar mavjud bo'lgan. Bu qadimgi dehqonchilik tumanlarining tuzilishi tabiiy-jo'g'rofiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy muhit bilan bog'liq edi.

Qadimgi dehqonchilik tumanlarining tuzilishi turlicha bo'lgan. Manzilgohlarning soni va o'zlashtirilgan yerlarning umumiy maydoniga qarab madaniy-xo'jalik vohalar bir nechta guruhlarga bo'lingan. Vohalarning chegaralari sug'orma dehqonchilik hududlari va sug'orish tarmoqlarining chegaralari bilan uzviy bog'liq edi.

Miloddan avvalgi VII–VI asrlarda aholi nisbatan zich joylashgan o'troq vohalarda dehqonchilik jadal rivojlangan. Bu vohalar hosildor tog'oldi tekisliklarida yoki daryo etaklarida joylashgan bo'lib, nisbatan dehqonchilik uchun qulay sharoitlarga ega bo'lgan.

Uy-qo'rg'onlar va ayrim qishloqlarda yashovchilarning asosiy mashg'ulotlari qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va ularni qayta ishlashdan iborat bo'lgan. Yer haydab dehqonchilik qilish, anhor qazib daryolardan suv chiqarish, kanal va ariqlarni doimo tozalab turish, sun'iy sug'orish ishlarini yo'lga qo'yish, don ekish, chorva uchun xashak bo'ladigan o'simliklarni o'stirish, bog'dorchilikni rivojlantirish hayot manbayi bo'lib qoladi.

Ayrim uylarning ichida maxsus ustaxonalar qoldiqlari topib tekshirilganda shu narsa aniqlandiki, ushbu ustaxonalarda oila a'zolari toshdan, yog'ochdan, loydan, qamishdan, charmdan va teridan xo'jalikka, ro'zg'orga kerakli buyumlarni ishlab chiqarganlar. Masalan,

toshdan ishlangan dehqonchilik qurollari (o‘roqlar, yorg‘uchoqlar, hovonchalar), qo‘lda ishlangan kulolchilik buyumlari (sopol idishlar, chiroqlar, urchuq boshlari), bo‘yra va teri to‘shamlari kabilar uy hunarmandchiligi mahsuloti hisoblangan.

O‘rta Osiyoda miloddan avvalgi VII–VI asrlarda qulchilik munosabatlari (Qadimgi Sharq markazlari va Qadimgi Yunonistonga nisbatan ancha farq qilib) deyarli rivojlanmagan. Jamiyat hayotida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi katta ahamiyatga ega bo‘lgan. O‘rta Osiyoda qadimgi qulchilik shakllaridan biri «uy qulchiligi» bo‘lgan.

«Uy quli» «Avesto»da «vaysa» deb atalgan. «Vaysa»lar katta oila jamoasi erkin a‘zolari bilan umumiy uyda yashaganlar va oilaning «kichik vakillariga» aylangan xolos. Uy qullarining mehnat faoliyati dehqonchilik, uy chorvachiligi va boshqa ishlab chiqarish vazifalari bilan bog‘langan. Ular jamoaning erkin a‘zolariga nisbatan ancha kam bo‘lgan. Shu davr iqtisodiy hayotida jamiyatning mustaqil vakillarining mehnati ishlab chiqarishni asosiy rivojlantirayotgan kuchi bo‘lgan. Uy qullari ish qidirib yurgan mardikorlar va kambag‘allashib qolgan qarzdor jamoa a‘zolaridan bo‘lishgan.

Shunday qilib, o‘zbek xalqining shakllanishida va uning davlatchiligi paydo bo‘lishida tub o‘troq dehqon aholi alohida o‘rin tutganligi haqida muhim tarixiy xulosaga kelish mumkin. O‘zbek xalqi ajdodlarining ilk davlatchiligi taraqqiyoti qadimgi shaharlar tarixi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan.

Ilk davlatlarning tashkil topishiga, jamiyat rivojining ichki qonuniyatlari (ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning yuqori darajasi, hunarmandchilik, tovar ayirboshlash va savdoning tez rivojlanishi, sug‘orma dehqonchilik kabilar)dan tashqari boshqa sabablar — kuchayib borayotgan siyosiy qarama-qarshiliklar va harbiy to‘qnashuvlar ham ta‘sir qildi.

O‘zbek xalqi ajdodlarining ilk davlatchiligi tarixini O‘zbekistonning hozirgi hududidan tashqari qo‘shni viloyatlarda qadimda yuz bergan etnik, madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy voqea-hodisalar bilan bog‘liq holda talqin qilmoq lozim. Tarixning qadimgi davrlarida ilk davlatlar orasida va ajdodlarimizning istiqomat hududlari o‘rtasida aniq ma‘muriy chegaralar bo‘lmagan. Qadimgi Xorazm, Baqriya va So‘g‘d chegaralari tabiiy bo‘lib, bunda cho‘l va tog‘lardan foydalanilgan.

Xuilas, hozirgi kunga qadar to‘plangan ma‘lumotlarga ko‘ra, o‘zbek xalqi tarixida davlatchilik tizimiga o‘tish bosqichi, O‘zbekiston hududida ilk davlatlarning shakllanish va rivojlanish jarayoni quyidagi davrlar bilan belgilanadi:

1. Bronza davri — miloddan avvalgi 2-ming yillikning o‘rtalari va ikkinchi yarmi. Unchalik katta bo‘lmagan dehqonchilik vohalari asosida

(misol uchun, qadimgi Sherobod vohasi) ilk davlatchilik tizimiga o'tish davri.

2. Bronza davridan temir asriga o'tish davri – miloddan avvalgi IX–VIII asrlar. Mayda davlat tashkilotlarining rivojlanishi va yirik harbiy-siyosiy uyushmalarning vujudga kelishi.

3. Ilk temir davri – miloddan avvalgi VII–VI asrlar. Qadimgi Xorazm va Qadimgi Baqtriya misolidagi yirik davlat uyushmalarining paydo bo'lishi.

O'zbekiston hududida davlat va huquqning paydo bo'lishi haqida taniqli o'zbek huquqshunos olimi professor Halim Boboyevning fikrlari diqqatga sazovor. Olimning ta'kidlashicha, bugungi O'zbekiston hududida, aniqrog'i, qadimgi Turonda davlatchilikning paydo bo'lishi birinchidan, davlat va huquqning paydo bo'lishi sabablarini sivilizatsiya, ya'ni tamaddun nuqtayi nazaridan davrlashtirish o'rniga marksizm-leninizm ta'limoti asosida urug'chilikning yemirilishi va quldorlik davlati va huquqining paydo bo'lishi tarzida o'rganilgan.

Ikkinchidan, o'zimizda mavjud bo'lgan manbalar («Avesto», «Tarixi Tabariy», «Shohnoma», «Tarixi muluki ajam» kabi kitoblar) chuqur o'rganilmasdan, asosan, mil. avv. V–IV asrlarga oid yunon tarixchilari: Gerodot, Ksenofont va boshqalarning asarlariga va ko'proq G'arbiy Yevropa va Rossiyada tarqalgan ma'lumotlarga asoslanilgan. Natijada ming yilliklarni o'z ichiga olgan Turondagi ilk davlat va huquqning paydo bo'lishi tarixi o'rganilmay e'tibordan chetda qolgan.

Qadimgi Turonda davlat va huquqning paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixi bir qancha murakkab tarixiy jarayonlarni boshidan kechirgan. Bu ba'zan yaxlit, markazlashgan davlat sifatida namoyon bo'lgan bo'lsa, ba'zan esa parchalangan – xonliklar, amirliklarga bo'linib ketgan. Ular o'rtasida markaziy hokimiyat uchun keskinlashgan kurash o'zaro urushlarga sababchi bo'lgan.

Turkiy qavmlarning ko'payishi va ularning yoyilishi hamda tarixda bo'lib o'tgan urushlar oqibatida qavmlar, urug'larning nomlari singari davlatlarning nomlari ham o'zgarib turgan.

Turon zaminida yashagan etnik xalqlar, qavmlar, urug'lar haqidagi fikrlar, qarashlar ham turlicha bo'lib, ba'zan ular bir-birlarini inkor qilish darajasidadir. Bu yerlarda ilk bor insonlarning yashash, urf-odatları, tillari, dinlari haqidagi ma'lumotlar ham shu qadar ko'pki, ularning barchasini qamrab olish va umumlashtiruvchi xulosalar chiqarish nihoyatda mushkuldir.

Bizning fikrimizcha, deb so'zida davom etadi professor H.B.Boboyev, Tur, Turon, Turkiston, Turk, Turkiy so'zlari bir o'zakdan – «tur»dan iborat bo'lib, birinchi bor bizning mamlakatimizga shohlik qilgan shaxs To'ning nomi bilan bog'liqligi asosli va to'g'ridir. Chunki To'ning

ismidan «Turon», ya'ni Tur mamlakati, yeri degan tushunchalar kelib chiqqanligi haqiqatga ancha yaqindir. Turkiy tilda gapiruvchi millatlar, xalqlar ilk bor Sirdaryo, Amudaryo, Zarafshon, Oltoy, Issiqko'l sohillari bo'ylab yashagan, dehqonchilik bilan shug'ullangan o'troq qabilalar bo'lganlar. Bu davlat, uning zamini ham, xalqi ham Turon deb atalgan. Keyinchalik, yillar o'tishi bilan bizning ajdodlarimiz ko'payishib shimoli-sharqqa, janub va g'arb tomonga yoyiladi. Masalan, yoqutlar Alyaskagacha, Sharqda Xitoy va Yaponiyagacha, Janubda esa Balx, Hirot va G'arbda Kavkaz, Qora dengiz va Don daryolari bo'ylariga qadar siljigani tarixdan ma'lumdir. Jo'g'rofiy nuqtayi nazardan ana shunday katta hududda tarqalgan turk qavmlarining turli tarixiy davrlarda turlicha nomlanishlari va turli davlatlarga bo'linishlari, birlashishlari tabiiy bir hol bo'lgan.

Shu narsa aniqki, turk qavmlari bizning turkiylar orasida eng qadimiy qavmlardandir. Turon (Turkiston) davlati barcha turkiy davlatlar ichida ilk bor tashkil topgan. Samarqand (markazida) Amir Temur aytganidek:

*Biz kim – Mulki Turon,
Amiri Turkistonimiz.
Biz kim – mamlakatlarning,
Eng qadimgi va eng ulug'i,
Turkning bosh bo'g'inimiz.*

Markaziy Osiyoda yashagan xalqlarda, jumladan, o'zbek xalqining qadimgi ajdodlarida urug'doshlik tuzumining yemirilishi, davlat va huquq tashkil topishining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bunga quyidagilarni ko'rsatish mumkin. Sharqdagi boshqa joylarda bo'lgani kabi bu yerda ham eng qadimgi davlatlar asosan Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon kabi daryolarning sug'orma dehqonchilik havzalarida tashkil topgan. Chunki o'troq xalqning asosiy ishi dehqonchilik bo'lib, bu sun'iy sug'orish inshootlari qurishni, sug'orishni tashkil qilishni taqozo etar edi.

Miloddan avvalgi bir minginchi yillar Markaziy Osiy tarixidagi muhim davrlardan bo'lib, bu yerda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, temirdan yasalgan mehnat qurollarining yoyilishi, sug'orish bilan bog'liq dehqonchilikning rivojlanishi, ijtimoiy mehnat taqsimotining yuz berishi davlat vujudga kelishining hal qiluvchi omiliga aylanadi. Shu bilan birga, bu jarayonni tezlashtiruvchi omillar ham mavjud bo'lgan. Miloddan avvalgi VIII asrda Ossuriya qo'shinlarining Markaziy Osiyoga bostirib kelishi urug'doshlik tuzumining yemirilishi hamda davlat va huquqning paydo bo'lishini jadallashtirgan. Ya'ni, bosqinchilarga zarba berish maqsadi maxsus siyosiy tashkilotga uyushishni tezlashtiruvchi omil sifatida xizmat qilgan bo'lishi mumkin.

1.3. Ilk voha davlatlarning barpo etilishi va rivojlanishi

Shunday qilib, O'zbekiston hududida tashkil topgan dastlabki voha davlatlardan biri «**Katta Xorazm**» davlatidir. «Katta Xorazm», uning hududi va paydo bo'lgan davri hanuzgacha tadqiqotchilar orasida turli ilmiy bahslarga sabab bo'lmoqda. Gerodotning ma'lumotlariga qaraganda, O'rta Osiyodagi «har tomoni adirlar bilan o'ralgan tekislikda qachonlardir xorazmiylar yashagan». Ko'pchilik tadqiqotchilar bu markazni hozirgi Xorazm o'rnida bo'lmasdan janubroqda, Marv (Turkmaniston) yoki Hirotda (Afg'oniston) bo'lgan deyishadi. Lekin qadimgi Xorazm davlati mil. avv. VII asrning oxirlarida Amudaryoning O'rta oqimi qismida Orolga yaqin yerlarda vujudga kelgan degan xulosaning to'g'riligi tasdiqlandi.

Abu Rayhon Beruniyning «Xorazm tarixi» asarida, nemis tadqiqotchisi A.Markvart asarlarida, S.P.Tolstovning arxeologik tadqiqotlarida O'zbekiston hududidagi ushbu ilk davlat haqida ma'lumotlar beriladi.

Abu Rayhon Beruniy o'z asarida zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto» xususidagi ma'lumotlarni, shuningdek, Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi qahramonlik dostonlarida keltirilgan mifologik qahramon Siyovush ibn Kaykovus Siyovushiylar sulolasiga asos solganligi haqidagi rivoyatlarni keltiradi.

Keyinchalik, deb ko'rsatadi Beruniy, xorazmliklar forslarning «shoh» unvonini olib, mamlakatni boshqargan Kayxusrav sulolasidan bo'lgan har bir podshoning «hukmronlik yillari» asosida yil hisobi yuritishni odat qilib olganlar. Ya'ni, butun qadimgi Sharqda mavjud bo'lgan udumlarni podsholar hukmronlik qilgan yillarga qarab hisoblashga o'tilgan.

Qadimgi Xorazmda sug'orish tizimlarining rivojlanishi bu yerdagi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotda yuz bergan burilishlarning sababchisidir. Ibtidoiy harbiy-demokratiya o'rniga VII—VI asrlarda Xorazmda kuchli davlat vujudga keladi. Ammo bu davlatda hali urug'doshlik shakllari va jamoaning matriarxal udumlari saqlanib qolgan edi. Ahamoniylar davlatidan oldin ham Xorazm gegemonligi ostida Sug'diyona (Zarafshon vohasi) hozirgi Janubiy Turkmaniston, shimoliy-sharqiy Eron, g'arbiy Afg'oniston hududlarini birlashtirgan qudratli davlat bo'lganligi haqidagi fikr birinchi marta A.Markvart tomonidan ilgari surilgan. Mazkur fikr, eng avvalo, yozma manbalardan «Avesto» ma'lumotlarida, shuningdek, S.P.Tolstov tomonidan 1937—1947-yillarda butun Xorazm vohasida atroflicha olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida tasdiqlanadi.

Xullas, miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmida, aniqrog'i VII asrlardayoq mamlakatimizda davlat va huquq uzil-kesil vujudga

kelgan deyishga haqimiz¹. Sug'orish, dehqonchilikning rivojlanishi va yirik inshootlarning qurilishi, qabilalar uyushmalarining tashkil topishi, shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishi hamda tashqi dushmanlardan himoyalaniş ehtiyoji buning asosiy sabablari bo'ldi. Davlat esa, jamoat ishlarini uyushtiruvchi siyosiy tashkilot sifatida shu ehtiyojlarni qondirishga xizmat qilar edi.

O'rta Osiyodagi yana bir ilk davlat uyushmasi **Qadimgi Baqtriya davlati**dir. Mil. avv. I ming yillikning birinchi yarmida uning tarkibiga Sug'd va Marg'iyona ham kirgan. Yunon muallifi Ktesiy Baqtriya haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Tarixchi davlatdagi ko'plab shaharlar, mustahkam poytaxt shahar Baqtro (Balx), Baqtriya podshosi Oksiart, uning bitmas-tuganmas boyliklari haqida hikoya qiladi. Gerodotda Baqtriya xalqi Misr va Bobil kabi yirik davlatlar qatorida tilga olimadi. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, Qadimgi Baqtriya qudrati jihatdan qo'shni viloyatlardan ancha ustun bo'lib, ular orasida alohida mavqega ega edi. Baqtriyanning tabiiy boyliklari undan tashqari hududda ham old Osiyoga qadar mashhur edi. Aymiqsa, Badaxshon lojuvardi (lazurit), la'li juda qadrlangan.

Yuqorida eslatilgan viloyatlardan tashqari **Sug'diyona** (Qashqadaryo va Zarafshon vohalari), **Marg'iyona** (Murg'ob daryosi vohasi) kabi yirik davlat uyushmalari ham bor edi. Bu viloyatlarning aholisi o'troq hayot kechirib, dehqonchilik, uy chorvachiligi va hunarmandchilik bilan shug'ullangan.

Mil. avv. VII–VI asrlarda shakllangan va ancha yirik bo'lgan Qadimgi Baqtriya, Xorazm va So'g'diyona davlatlarining aholisi qon-qarindosh bo'lib, bir-biriga o'xshash tilda gaplashganlar va juda yaqin madaniy an'analarga ega edilar. Bu davrda jamiyatning hududiy bo'linishi ko'zga tashlanib, o'troqlashuv jarayoni kuchaydi. Shaharlar qishloq xo'jalik ekinzorlari bilan o'ralib, qal'alar paydo bo'ldi. Muhim savdo yo'llari bo'yicha tayanch istehkomlar qurildi. Turli qurilishlar bunyod etishda mudofaa inshootlarining ahamiyati birinchi o'ringa chiqdi. Mustahkam qal'a – panohgohlar qurildi, makonlarning harbiy-ma'muriy, hunarmandchilik yoki qishloq xo'jalik faoliyati yanada ko'proq yuzaga chiqdi.

O'zbek xalqining ilk davlatchiligi tarixi jo'g'rofiy, hududiy ma'noda nafaqat O'zbekistonning hozirgi hududi bilan, balki butun O'rta Osiyoda qadimda yuz bergan etnik, madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar bilan bog'liq holda talqin etilmog'i lozim. Qadimgi davrlardagi ilk davlatlar orasida va ajdodlarimizning yashash joylari o'rtasida aniq

¹ *Azamat Ziyov*. O'zbek davlatchiligi tarixi. –T., «Sharq», 2000, 27-bet.

ma'muriy chegara yo'q edi. Qadimgi Baqtriya, Xorazm, So'g'd chegaralari tabiiy bo'lib, yaqin hududlardagi o'troq yashash joylarning jo'g'rofiy bo'luvchisi sifatida dashtlar, cho'l va tog'lardan foydalanilgan.

Qadimgi So'g'diyona. Bu davlat uyushmasi ham Baqtriya singari qadimdan mustaqil faoliyat ko'rsatgan. Uning hududlariga qadimda hozirgi Samarqand, Qashqadaryo, Navoiy va Buxoro viloyatlari yerlari kirgan. Davlatning poytaxti Samarqand shahri bo'lgan. Arxeologlar bergan ma'lumotlarga qaraganda, tub yerli aholi shaharni Smarakansa (Smarakansa) deb atagan. Bu shahar qadimgi «Buyuk Ipak yo'li»da joylashgan bo'lib, savdo-iqtisodiy jihatdan Sharq va G'arbni bog'lagan. So'g'd tili qadimdan jahon savdo tili darajasiga ko'tarilgan. So'g'diyonada aholi yuqori darajada dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik madaniyatiga ega bo'lgan.

Farg'ona vodiysining qadimgi davri tarixi yetarlicha o'rganilmagan. Mil. avv. II–I asrlarga oid Xitoy manbalarida Farg'ona vodiysi tarixi to'g'risida ba'zi bir uzuq-yuluq ma'lumotlar berilgan. Ana shu ma'lumotlarda Farg'ona **Davan podsholigi** deb yuritilgan. Ammo arxeolog olim akademik A.Asqarovning xulosasiga ko'ra, Davan davlati mil. avv. II asrda emas, balki ancha ilgari – mil. avv. IV yoki III asrlarda ham bo'lgan. U davrda bu davlatning nomi Parkana bo'lgan. Davan nomini xitoylar berganlar. Xitoyshunos N.Ya.Bichurinning fikricha, Davan – Qo'qondir, ham shahar va o'lkadir.

Farg'ona podsholigi Eron ahamoniylariga ham, makedoniyalik Iskandar (Aleksandr Makedonskiy)ga ham tobe bo'lmagan va o'z mustaqilligini saqlab qolgan. Bu davlat hududlari Salavkiylar davlati tarkibiga ham kirmagan.

Mil. avv. II asr Xitoy manbalari ma'lumotlarida ta'kidlanishicha, Farg'onada 300 ming aholi yashagan. Vohada 70 ta shahar bo'lgan, poytaxti Ershi (hozirgi Marhamat) shahri edi.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Farg'onada ayniqsa dehqonchilik, hunarmandchilik va kosibchilik rivojlangan. Yuksak darajada rivoj topgan dehqonchilik vohalarining soni 10 dan ortiq bo'lgan: Aravansoy, Oqbo'ri, Sultonobod, Qo'rg'ontepa, Andijonsoy, Qorabosh, Tentaksoy, Maylisoy, Ulug'nor, Shahrixonsoy, Akman, Yilg'insoy va boshqalar shular jumlasidandir.

Qang' davlati, ba'zi manbalarning guvohlik berishicha, mil. avv. III asrning boshlarida vujudga kelgan. Bu davlat sharqda Farg'ona vodiysi (Davan), shimoli-sharqda usun, yuechji qabilalari bilan chegaradosh bo'lib, shimoli-g'arbda Sarisu daryosi, g'arbda Sirdaryogacha bo'lgan yerlarda joylashgan. Qang' davlati Toshkent vohasi, Talas vodiysi, qisman Chu daryosining quyi oqimidagi hududlarni o'z tarkibiga qamrab olgan. Mil. avv. II–I asrlarda qang'lilar Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi yerlarni va Xorazmni ham o'zlariga qo'shib olganlar. Tarixiy manbalarda

mil. avv. I va milodiy I–II asrlarda Qang‘ davlati hududida 120.000 oila yoki 600.000 kishi yashaganligi qayd etiladi. Bu davlat tarix sahnasida yetti asr yashagan va milodiy V asrga kelib inqirozga uchragan.

Manbalarda Qang‘ davlati mil. avv. I va milodiy I–II asrlarda buyuk davlat bo‘lganligi ta’kidlanadi. Qang‘lilar o‘troq va yarim o‘troq hayot kechirganlar. Ular asosan dehqonchilik, bog‘dorchilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullanganlar. Aholining ma’lum bir qismi ko‘chmanchi chorvachilik bilan band bo‘lgan. Qang‘lilarning markaziy shaharlari asosan ikkita edi. Ularning hukmdorlari yozni O‘trorda (hozirda Aris va Turkiston oralig‘i), qishlovni esa Qang‘da (Toshkent viloyatining Oqqo‘rg‘on tumani) o‘tkazganlar. Bu davlat hududida yana boshqa ko‘plab shaharlar bo‘lgan.

1.4. O‘zbekiston hududidagi dastlabki davlatlarning ijtimoiy-siyosiy tuzumi

Arxeologik tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, sug‘orma dehqonchilikning rivojlanishi va ixtisoslangan hunarmandchilik bronza davridayoq O‘rta Osiyoda yangi ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarning paydo bo‘lganligidan dalolat beradi. O‘rta Osiyoning janubidagi viloyatlarda eng qadimgi munosabatlarning yemirilishi faqat ichki sabablarga bog‘liq bo‘lmay, Yaqin Sharqdagi yuqori darajada rivojlangan an’anaviy tarixiy, madaniy aloqalarga ham bog‘liq edi. Baqtriya hududidan topilgan yuqori sifatli oltin, kumush va bronza buyumlari bunday aloqalardan va ularning viloyatda tashqi savdoning paydo bo‘lishida ta’sir ko‘rsatganidan dalolat beradi. Har bir jamoaning rivojlanishi uning ichki qonuniyatlaridan kelib chiqsa ham, dastlabki markazlardan kelib chiqqan tashqi ta’sir turli viloyatlarning taqdirida katta ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin edi.

So‘nggi 10–15 yil ichida Baqtriya, Xorazm, Sug‘diyona va Marg‘iyonadan olingan yangi arxeologik ma’lumotlarga qaraganda ilk temir davrida bu yerlarda jamoalardagi asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlarni bir necha kichik oiladan iborat uy jamoalari tashkil etgan. Makonlar joylashuvining tashqi belgilaridayoq katta oilali uy jamoalari ancha yirik uyushmalarga kirganligidan dalolat beradi. Boshqaruv tartibida katta oilalar jamoasi boshliqlari yoki uy xo‘jayinlari, shuningdek, alohida qishloq qo‘rg‘onlarini boshqaruvchi eski jamoalar katta o‘rin tutgan. Har bir katta oila alohida uyga, ishlab chiqarish buyumlariga, o‘zining qishloq xo‘jalik mahsulotlari zaxiralari va chorvalariga, ya’ni o‘zini iqtisodiy jihatdan ta’minlay oladigan xo‘jaligiga ega bo‘lgan.

Katta oilali jamoalar shakli jamoa ishlab chiqarish va xo‘jalik harakatiga muvofiq edi. Ma’lumki, u jamoaning iqtisodiy jihatdan mustahkamlanishiga olib keldi.

Dastlabki davlatlarning paydo bo'lishi muammolarini hal etishda arxeologik va yozma manbalardan tashqari etnografik ma'lumotlardan ham keng foydalaniladi. Etnografiyaning ko'rsatishicha, ijtimoiy yutuqlar hamda ijtimoiy manbalarni egallash jamoa ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy mehnat taqsimoti bilan bog'liq edi. Jamoadagi tashkiliy boshqaruv faoliyati, ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilish uchun jamiyat jamoadagi hurmatga ega bo'lgan kishilarni – yo'l boshchilarni yuzaga chiqardi. Bu esa merosning taqsimlanishiga olib keldi. Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikricha, O'rta Osiyoda ilk davlat uyushmalari dehqonchilik, chorvachilik, ixtisoslashgan hunarmandchilikning ajralishi va shahar markazlari shakllanishi asosida paydo bo'ladi.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

- 1. Davlat va huquqning vujudga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari qanday bo'lgan?*
- 2. Neolit inqilobi va jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishining murakkablashuvi natijasida yuz bergan o'zgarishlarni aytib bering.*
- 3. Odamlarning ikkita noteng (boshqaruvchilik va boshqariluvchilar) guruhlariga bo'linish ahamiyati nimalarda ko'rinadi?*
- 4. Ilk davlatlarning tashkil topish shart-sharoitlari nimalarda ko'rinadi?*
- 5. Ilk davlatlarning tashkil topish sabablari va xususiyatlari qanday bo'lgan?*
- 6. Ilk vohalardan biri «Katta Xorazm» haqida gapirib bering.*
- 7. Qadimgi Baqtriya davlati haqida gapirib bering.*
- 8. Qadimgi So'g'diyona davlati haqida gapirib bering.*
- 9. Qadimgi Qang' davlati haqida gapirib bering.*

2-MAVZU: QADIMGI DAVLATLARNING RIVOJLANISHI VA IJTIMOY-SIYOSIY TUZUMI

1. Ahamoniylar hukmronligi davrida ijtimoiy-siyosiy tuzumdagi o'zgarishlar.
2. Makedoniyalik Iskandar va Salavkiylar davrida ijtimoiy-siyosiy tuzum xususiyatlari.
3. Kushon davlatining ijtimoiy-siyosiy tuzumi va boshqaruvi.

2.1. Ahamoniylar hukmronligi davrida ijtimoiy-siyosiy tuzumdagi o'zgarishlar

Mil. avv. VI asrda Eron hududida yashovchi xalqlar podsho Ahamon boshchiligida kuchli davlatga uyushdilar. Ikki yuz yildan ortiqroq hukm

surgan bu davlat sarhadlari Misrdan to Shimoli-G'arbiy Hindistongacha cho'zilgan edi. Qadimgi yunon muarrixlari – Gerodot, Ksenofont, Yustin, Strabon va boshqalarning bergan ma'lumotlariga qaraganda, ahamoniylar podsholaridan Kir II mil. avv. 545–539-yillarda Sharqiy Eron viloyatlarini, O'rta Osiyoning Xorazm, Baqtriya, So'g'diyona, Marg'iyona va sak qabilalari yashayotgan hududlarini bosib oladi. Ammo O'rta Osiyo xalqlari har doim erk, ozodlik va hurlikni hamma narsadan ustun qo'yanlar. Shu bois ular bosqinchi ahamoniylar zulmiga qarshi muttasil kurash olib borganlar, afsonaviy mardlik, qahramonlik va jasurlik namunalari ko'rsatganlar. Miloddan avvalgi 530-yilda massagetlar yo'lboshchisi malika To'marisning Kir II ustidan qozongan yorqin g'alabasi bunga misol bo'la oladi.

Ammo Kir II ning o'limi O'rta Osiyo xalqlariga kutilgan ozodlikni olib kelmadi. Kir II o'limi uchun uning avlodlari o'ch oldilar. Xususan, markaziy osiyoliklar ahamoniylar podshosi Doro I davrida qattiq jafodan chekdilar. Tarixiy manbalarda yozilishicha, mil. avv. 522-yilda podsholik taxtini egallagan Doro I ga qarshi Marg'iyonada Frada boshchiligidagi xalq qo'zg'olonini bostirish uchun Baqtriya satrapi Dodarshishni yuboradi. Qo'zg'olon shafqatsizlik bilan bostiriladi, 55 ming marg'iyonalik qatl etiladi. Ammo qo'zg'olonlar davom etavergan. Ahamoniylar shohi Doro I ning shaxsan o'zi mil. avv. 519–518-yillarda parfiyaliklar va sak qabilalari ustiga qo'shin tortib borishga majbur bo'lgan. Doro I O'rta Osiyo xalqlaridan qattiq o'ch oldi, ammo ayni paytda o'zi ham katta talafotlar ko'rdi. Bu o'rinda muarrix Poliyenning «Harbiy hiylalar» asaridagi Shiroqning afsonaviy harbiy jasorati diqqatga molikdir.

Shu tariqa, Ahamoniylar podsholarining bosqinchilik yurishlari natijasida Xorazm, Parfiya, Baqtriya, Marg'iyona, So'g'diyona, «So'g'd ortidagi sak qabilalari» va boshqa viloyatlar Ahamoniylar davlati tarkibiga qo'shib olingan.

Ahamoniylar podsholari bosib olgan barcha hudud satrapiya – hokimliklarga bo'lingan bo'lib, ularni fors podsholari tomonidan tayinlanib qo'yilgan satraplar – hokimlar boshqarardilar. Gerodotning ma'lumotlariga qaraganda, O'rta Osiyo viloyatlari uchta satrapiyani tashkil etgan. Baqtriya XII satrapiya bo'lib, 360 talant, saklar XV satrapiya bo'lib, 250 talant, Xorazm, So'g'd va Parfiya XVI satrapiya bo'lib, 300 talant miqdorida yillik soliq to'lar edilar (Bobil kumush pul birligi: 1 talant 30 kg kumushga teng). Shuningdek, Suzadagi (Eron) yozuvlarga qaraganda o'rta osiyoliklar soliq sifatida qimmatbaho toshlar, chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlarini ham fors podsholariga berib turganlar.

O'rta Osiyodagi eng katta viloyat Baqtriya ahamoniylar davlati

inqirozga uchragunga qadar uning tarkibida bo'lib, ahamoniylarning sharqdagi eng muhim markazlaridan biri edi.

Qadimgi Baqtriya aholisining asosiy mashg'uloti dehqonchilik edi. Qal'aimir, Kuchuktepa, Afrosiyob, Uzunqir, Yerqo'rg'on, Qizilcha, Bandixon manzilgohlaridan ko'plab mehnat qurollari – o'roqlar, ketmonlar, yorg'uchoq va dehqonchilik mahsulotlari qoldiqlarining topilishi ancha rivojlangan dehqonchilikdan dalolat berib, dehqonchilik asosan sun'iy sug'orishga asoslanganligini ko'rsatadi.

Baqtriyaning poytaxti qadimgi Baqtro (hozirgi Balx) shahrida qazish ishlari olib borilib, u yerdan topilgan kulolchilik buyumlari ko'hna shaharning eng qadimgi qatlamlari miloddan avvalgi I ming yillikning o'rtalariga oid ekanligidan dalolat beradi.

Juda ko'p o'troq manzilgohlar va ulardagi topilmalar viloyatda aholi kulolchilik, temirchilik, bronza quyish, to'qimachilik, shuningdek, sug'orma dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganidan dalolat beradi.

Ahamoniylar davrida So'g'diyonada (Zarafshon va Qashqadaryo vohalari) ko'plab shahar va qishloqlar bo'lib, ular fors podsholariga katta-katta soliqlar to'lab turardilar. Arxeologik tadqiqotlar natijasida Zarafshon va Qashqadaryo vohalaridan miloddan avvalgi VI–IV asrlarga oid Uzunqir, Yerqo'rg'on, Daratepa, Sangirtepa, Lolazor, Xo'ja-Bo'ston, Afrosiyob, Qorovultepa, Qo'rg'oncha kabi 50 dan ziyod ko'hna shahar va manzilgohlar ochib o'rganilgan.

So'g'diyonaning poytaxti bo'lgan ko'hna Afrosiyob (Samarqand) shahri o'tgan asrning 40-yillaridayoq ochilgan edi. Afrosiyobda miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalarida aholi yashaganligi aniqlangan. Ko'hna shahar aholisi asosan hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullangan. Afrosiyob atrofidagi aholi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan, dushman hujum qilgan paytlarda ular chorva mollarini va mol-mulklarini qal'a ichida saqlaganlar.

So'g'diyona hayotida dehqonchilik katta ahamiyatga ega edi. Shunisi muhimki, dehqonchilik sun'iy sug'orishga asoslangan bo'lib, bu haqda yozma manbalardan ma'lumotlar olishimiz mumkin. Strabonning yozishicha, Politimet (Zarafshon) daryosi vohadagi eng katta suv manbayi bo'lib, sug'oriladigan yerlarga kanallar orqali suv chiqarilgan.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Afrosiyob, Yerqo'rg'on, Xo'ja-Bo'ston, Uzunqir, Ko'ktepa So'g'diyonadagi asosiy markazlar bo'lib, bu ko'hna shaharlarda hunarmandchilik va savdo-sotiq ayniqsa rivojlanib borgan.

Miloddan avvalgi I ming yillikning o'rtalarida Xorazm ham rivojlanish jarayonini boshdan kechiradi. Xorazm tadqiqotlari natijasiga qaraganda, miloddan avvalgi VI–IV asrlarda bu yerda yirik-yirik manzilgohlar

mavjud edi. Bu davrda Xorazmda inshootlar qurilishiga xom g'isht, paxsa ishlatilgan. Manzilgohlar va turarjoylardan topilgan topilmalarning boy va qashshoqligi bu yerda mavjud bo'lgan ijtimoiy hamda mulkiy tengsizlikdan dalolat beradi. Shaharlar aholisining asosiy mashg'uloti hunarmandchilik bo'lgan. Topilgan sopol, bronza, temir buyumlar fikrimiz dalilidir. Xorazmda ahamoniylar davrida mahalliy o'troq aholidan tashqari ko'chmanchi chorvadorlar o'rtasida ham doimiy harbiy to'qnashuvlar, iqtisodiy munosabatlar bo'lib turgan.

Ahamoniylar davrida hunarmandchilik va savdo-sotiq munosabatlarning rivojlanishi natijasida O'rta Osiyo hududida ko'pgina shaharlar va shahar ko'rinishidagi manzilgohlar paydo bo'ldi va jadal rivojlandi. Samarqand (Afrosiyob), Marv, Balx, Ko'zaliqir, Yerqo'rg'on, Qiziltepa ko'hna shaharlari hunarmandchilik va savdo-sotiq markazlari edi. Yana shuni ta'kidlash lozimki, bu davrda O'rta Osiyo xalqlari ilk marta zarb qilingan tanga pullar bilan tanishdilar va muomala qildilar. O'rta Osiyo hududidan ahamoniylar davriga oid oltin tangalar topilgan.

Ahamoniylar davlatining ma'muriy viloyatlari satrapliklar deb yuritilgan. Satrapliklar tepasiga fors podsholariga yaqin kishilar satraplar etib tayinlanardi. Satraplar bosib olingan aholi ustidan cheklanmagan hokimiyat yuritganlar.

Satrapning asosiy vazifasi podsho buyruqlarini zudlik bilan bajarish va xazinaga soliqlarning to'g'ri kelib tushishini ta'minlashdan iborat edi. Satrap viloyatni boshqargan, aholidan o'lponlar yiqqan, kumush tangalar chiqarishni tashkil etgan (oltin tangalar chiqarish huquqi faqat podshoga tegishli edi) va o'ziga tegishli viloyatning qurolli kuchlariga qo'mondonlik qilgan.

2.2. Makedoniyalik Iskandar va Salavkiylar davrida ijtimoiy-siyosiy tuzum xususiyatlari

Ma'lumki, miloddan avvalgi 336-yilda Makedoniya podshosi Filipp II vafotidan so'ng uning 20 yoshli o'g'li Iskandar taxtni egalladi.

Makedoniyalik Iskandar otasi Filipp II yo'lini davom ettirdi. Ammo u dastlab mamlakat ichki hayotini mustahkamladi. Davlat hokimiyatiga qarshi bo'lgan amaldorlarga nisbatan qattiq choralar ko'rdi. U Bolqon yarim orolida o'z hokimiyatini mustahkamladi. Mil. avv. 334–331-yillarda o'zining asosiy raqibi Doro III qo'shinlariga bir necha harbiy zarbalar berib butun Kichik Osiyo, Suriya, Falastin, Finikiya, Misr yerlarini egallab, ahamoniylar davlati hududlariga kirib bordi. Doro III Midiyaga qochdi. Iskandar qo'shinlari mil. avv. 330–329-yillarda Afg'onistonning janubiy tomonlarini egallab, Hindiqush tog'lari orqali O'rta Osiyoga yurish boshladi. U faqat mil. avv. 327-yildagina juda

og‘ir va dahshatli janglardan so‘ng Baqtriya, So‘g‘diyona, Marg‘iyona va boshqa hududlarni egallay oidi. Mil. avv. 327–324-yillarda Iskandar Hindistonni zabt etdi. U mil. avv. 323-yilda o‘z davlatining yangi poytaxti Bobil shahrida vafot etdi. Shunday qilib, makedoniyalik Iskandar olib borgan bosqinchilik va adolatsiz urushlar oqibatida O‘rta Osiyoda ahamoniylar zulmi yunon-makedon istilochilari zulmi bilan almashdi. Bu zulmdan qutulish uchun So‘g‘diyona xalqlariga 150 yil, Baqtriya xalqlariga esa 180 yil kerak bo‘ldi. Bu jarayonda o‘lkamiz xalqlarining erk va ozodlik uchun olib borgan kurashlari hal qiluvchi rol o‘ynadi.

Shuni ta‘kidlash joizki, Xorazm, Choch, Farg‘ona va saklar yurti mustaqil bo‘lib qoldi. So‘g‘diyona, Baqtriya, Marg‘iyona va Parfiya yangi davlatga qo‘shilib, keyinchalik ularning tuprog‘ida ayrim yunon-makedon davlatlari vujudga keldi.

Iskandar Sharq xalqlarini ahamoniylar zulmidan ozod qilib, ularni yunon-makedon zulmi ostida qoldirdi. O‘rta Osiyoda zabt etilgan viloyatlar va shaharlarni boshqarish uchun yunon-makedon sarkardalari bilan birga mahalliy hokimlar ham jalb etilgan. Yozma manbalardan ma‘lumki, Iskandar davrida mahalliy aholi vakillaridan Artaboz Baqtriyada, Oksiart va Xoriyen So‘g‘diyona viloyatlarida hokimlik qilar edilar.

Makedoniyalik Iskandar satraplikka asoslangan boshqarish tartibini saqlab qoldi. Dastlab satraplar forslardan tayinlanardi, keyinchalik asosan makedoniyaliklardan tayinlanadigan bo‘ldi. Satraplar huzurida harbiy va moliyaviy boshqaruvni yuritadigan mansablar ta‘sis etildi. Iskandarning satraplari tangalar chiqarish va yollanma qo‘shim saqlash huquqiga ega emasdilar.

Iskandar O‘rta Osiyoda o‘z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida mahalliy amaldorlarga ba‘zi imtiyozlar berib, ularni o‘z tomoniga og‘dira boshladi.

Mil. av. 324-yilda Iskandar o‘z qo‘shinlari orasida bir qancha islohotlar o‘tkazib, o‘zgarishlar kiritdi. Qo‘shinlar tarkibidagi forslar va o‘rta osiyoliklar teng huquqqa ega bo‘ldilar. Undan tashqari mahalliy zodagonlarning farzandlaridan iborat 30 ming kishilik qo‘shin tuzildi. Faqat yoshlardan iborat bu qo‘shim yunonlar odatlari bo‘yicha kiyintirilib, qurollantirildi va harbiy yurishlarga o‘qitildi. Iskandar yangi yurishlarni rejalashtira boshlagan edi. Ammo, mil. av. 323-yilda u Bobilda to‘satdan vafot etdi va rejalari amalga oshmay qoldi.

Iskandar yunon-makedon hokimiyatini mustahkamlash maqsadida O‘rta Osiyoda ko‘plab tayanch nuqtalarni barpo etadi. Yozma manbalarda Aleksandriya Esxata, Aleksandriya Ariya (Hirot), Oyxonim, Baqtriya Aleksandriyasi (aftidan Baqtro bo‘lsa kerak), Marg‘iyona Aleksandriya (Marv), Oks bo‘yidagi Aleksandriya (Ko‘lob yoki Termiz

atroflarida) kabi shaharlar eslatib o'tiladi. Bu shaharlarda bir necha minglab yunon-makedon qo'shinlari zaxirada turar edilar.

Makedoniyalik Iskandarning harbiy yurishlari natijasida Bolqon yarim oroli, Egey dengizi orollari, Kichik Osiyo, Misr, Old va O'rta Osiyo, Hind daryosining quyi oqimigacha bo'lgan hududni qamrab oluvchi ulkan davlat tashkil topdi. Bunday ulkan va qudratli davlat yagona siyosiy tartib doirasida birlashtirildi. Ammo Iskandar barpo etgan davlat ham ahamoniyalar davlati kabi turli xalqlar va qabilalarning zo'rlab birlashtirilgan yig'indisidan iborat bo'lib, faqat qo'rqitish va qurol kuchi bilan idora qilinardi. Iskandarning vafotidan keyin ko'p o'tmasdan u tuzgan davlat Misr, Makedoniya va salavkiylar davlatiga bo'linib ketdi.

Mil. av. IV asrning oxiri va III asrning o'rtalarida Baqtriya Iskandarning eng ishonchli sarkardalaridan biri bo'lmish Salavka asos solgan salavkiylar davlati tarkibiga kirar edi. Mil. av. 312-yilda Salavka atrofidagi sarkardalar bilan qattiq kurash olib borib Bobilni bosib oldi. U bir necha yil davomida urushlar olib borib, o'z davlati chegaralarini G'arbgga va Sharqqa tomon kengaytirib, Eron va O'rta Osiyo hududlarini ham bosib olishga erishdi.

Yunon tarixchisi Pompey Trogning yozishicha, «Salavka ba'zi joylarni muzokaralar yo'li bilan egalladi, ammo, Baqtriya, Parfiya, So'g'd yerlarida u qattiq qarshilikka uchradi va og'ir janglar olib borishiga to'g'ri keldi». Bu ma'lumotni qadimgi tarixchi Arrian ham tasdiqlaydi: «Salavka I baqtriyaliklar, so'g'diylar, parfiyaliklar va girkaniyaliklar bilan ko'p urushlar olib borgach, ular yerlariga hukmronlik qila boshladi».

O'rta Osiyoning bir qator muhim siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy voqealari Salavka I, ayniqsa Antiox I hukmronligi bilan bog'liq. Bu davrda Baqtriya hayotida dastlabki tangalar — oltin, kumush, mis dirham va tetradirhamlar (pul birligi) zarb qilina boshlanadi.

Salavkiylar davlatida hukmron tabaqa vakillari aralash edi. Yunon hokimlari va ular atrofida to'plangan yunon zodagonlar bilan birga mahalliy zodagonlar ham hokimlik qilar edilar. Albatta, salavkiylar hokimiyati O'rta Osiyodagi harbiy manzilgohlarda (katoykiyalarda) joylashgan harbiy kuchlarga tayangan edi. Ammo, aholiga jabr-zulm qilishda mahalliy hukmron tabaqa vakiliari ham ishtirok etardilar. Ikkiyoqlama zulm ostida qolgan mahalliy aholi salavkiylarga qarshi norozilik chiqishlari qilib turganlar.

Lekin shunga qaramasdan, O'rta Osiyoning Salavkiylar davlati tarkibiga kirgan davri yunon-makedon yurishlari paytida vayron bo'lgan ishlab chiqaruvchi kuchlarning tiklanishi hamda baqtriyaliklar, so'g'diylar, parfiyaliklarning bosqinchilarga qarshi birlashuv davri bo'lib qoldi.

Salavkiylar davlati yaxlit bir xalq yoki elatlarni birlashtirmagan bo'lib, bu davlat turli etnik guruhlarini harbiy yo'l bilan birlashtirish orqali tashkil

topgan edi. Davlat boshqaruvining barcha siyosiy, huquqiy va ijtimoiy yo'nalishlari podsho saroyi bilan bog'liq bo'lib, podsho saroyi davlat boshqaruvida katta ahamiyatga ega edi. Ahamoniylar davrida bo'lgani kabi salavkiylar davlatida ham ko'pgina davlat ishlarini olib boruvchi devonxona mavjud bo'lgan. Ayrim manbalar salavkiylar saroyidagi xat-hujjat ishlarining boshlig'i lavozimi haqida ma'lumotlar beradi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, salavkiylar davlatida anchagina murakkab soliq tartibi mavjud bo'lib, salavkiylar hukmdorlari o'zlarigacha mavjud bo'lgan soliq tartibini o'zlashtirgan holda, unga birmuncha o'zgartirishlar kiritadilar. Dehqonlardan yer solig'ini yig'ib olish satrap – hokimlarning vazifasi edi. Bu soliqlarning miqdori aniq belgilangan edi. Viloyatlardan keladigan soliqlarning umumiy miqdori qishloq jamoalaridan tushadigan soliqlarga bog'liq bo'lgan.

Miloddan avvalgi 293-yilda davlatning sharqiy viloyatlariga Salavka va Spitamen qizi Apamaning o'g'li Antiox hokim vazifasini bajaruvchi bo'lib tayinlanadi. Ona avlodi tomonidan Antiox uchun O'rta Osiyo ota-bobolari yurti bo'lgan. Uni hokim lavozimiga tayinlanishida ham ushbu qarindoshchilik hisobga olingan. Demak, salavkiylar davri boshqaruv tizimiga xos asosiy xususiyatlaridan biri davlatdagi hukmron shaxs vakillari yunon-makedon va mahalliy zodagonlarning nasliy tomondan aralash bo'lishi lozimligidadir.

Antiox ko'pdan ko'p salavkiylarga qarshi qo'zg'olonlarni bostirishga, yangi istehkomlarni qurishga, otasi va shaxsan o'zining nomidan tanga pullarni zarb etishga va boshqa davlat ishlarini bajarishga majbur bo'ladi. Nihoyat, miloddan avvalgi 280-yilda Salavkaning o'limidan so'ng Antiox yirik davlatning podshosi bo'lib, 20 yil davomida hukmronlik qiladi.

Salavkiylar davlatida tez orada hokimiyat uchun, taxtni boshqarish uchun o'zaro kurash avj olib ketdi. Bu davlatdagi ba'zi bir hokimlar hokimiyatni mustaqil boshqarishni orzu qilar edilar. Bu esa salavkiylar davlatining parchalanishiga olib keldi.

Mil. avv. 250-yillarga kelib, O'rta Osiyoda salavkiylar davlatidan ikkita – dastlab Parfiya, keyin esa Yunon-Baqtriya davlatlari ajralib chiqadi. Yunon-Baqtriya davlati salavkiylar sulolasidan bo'lgan Diodot davrida tashkil topadi. Bu davlatning asosi Baqtriya bo'lib, ba'zi hokimlar davrida (Yevtidem, Demetriy, Yevkradit) Hindistonning shimoli-g'arbiy qismi, Amudaryo va Sirdaryo o'rtasidagi katta yerlar qo'shib olinadi, davlatning poytaxti Shimoliy Afg'onistondagi Baqtro shahri edi. Bu davlatning gullab-yashnagan davri mil. avv. III asrning ikkinchi yarmi va mil. avv. II asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Yunon-Baqtriya davlati markazlashgan davlat bo'lib, hokimiyatni podsho boshqarar edi. Davlat bir necha viloyatlarga bo'lingan bo'lib, bu viloyat hokimlari podshoga bo'ysunar edilar.

2.3. Kushon davlatining ijtimoiy-siyosiy tuzumi va boshqaruvi

Miloddan avvalgi I asrda yuechji kabilari uyushmasida Guyshuan (Kushon) hokimligi ancha kuchaydi. Olimlar fikriga ko'ra, dastlab guyshuan qabilasi Surxon vohasida joylashgan va ularning poytaxti Dalvarzin shahri (Sho'rchi tumani) bo'lgan. Podsho Kujula Kadfiz davrida Kushon hokimligi hududi ancha kengayib, davlat tarkibiga hozirgi Janubiy Tojikiston, Afg'oniston va Kashmir yerlari qo'shib olingan.

Kushon podsholari ichida eng mashhuri – Kanishka davrida (I–II asrlar) davlat ulkan saltanatga aylandi. Kushon podsholigi Surxon vohasi, Janubiy Tojikiston, Afg'oniston, Shimoliy Hindiston va Sharqiy Turkiston hududlarini o'z ichiga olgan. Kanishka zamonida poytaxt Peshovorga ko'chiriladi. Qadimgi dunyo tarixida mashhur bo'lgan Rim, Parfiya, Xitoy davlatlari kabi Kushon podsholigi ham yirik qudratli davlatlardan biriga aylandi.

Shunisi diqqatga sazovorki, O'zbekiston hududining asosiy qismi (Xorazm, Zarafshon, Qashqadaryo, Toshkent va Farg'ona vohalari) Kushon davlati tarkibiga kirmagan. Ushbu hududlarda boshqa mahalliy davlatlar rivojlanib, Kushon madaniyatiga xos an'analar deyarli tarqalmagan. Bundan tashqari, Kushon davlatining shimoliy chegaralari Ko'hitog', Boysun va Hisor tog'lari orqali o'tgami haqida Boysun tumanidagi Darband atrofida topib tekshirilgan yirik, mustahkam mudofaa devorlari dalolat beradi. Ular harbiy tayanch nuqta sifatida davlat chegaralarida barpo etilgan.

Kushonlar sulolasi yozma manbalar asosida va tangashunoslik tadqiqotlari orqali o'rganilgan. Kushonlarning ilk tangalari bir tomonida Yunon-Baqtriyaning so'nggi podshosi Germey tasviri, ikkinchi tomonida esa «kushonlar yog'busi Kujula Kadfiz» degan so'zlar bor. Demak, dastlab Kushon hokimlari o'z nomlarini «podsho», «shoh» tushunchalari bilan bog'lamaganlar. Ammo Kushon davlatining hududi kengayishi va uning siyosiy-harbiy ahamiyati o'sib borishi bilan birga tanga pullarda «shoh», «shohlar shohi» atamasi ko'pdan ko'p uchraydi. Bunday o'zgarishlar davlatning harbiy qudratini ko'pchilik mamlakatlar tomonidan tan olinganini izohlaydi.

Podsho Kanishka I o'zidan oldingi davlatning boshqaruv an'alarini saqlab qoldi va davom ettirdi. Ma'lum viloyatlar va shaharlar davlat boshlig'i – oliy hukmdor noiblari tomonidan boshqarilar edi. Bunday noiblar podsho tomonidan tayinlanib, uning eng yaqin va ishonchli vakillari hisoblangan. Ular oliy hukmdorga so'zsiz itoat etib, doimiy ravishda davlat xazinasiga o'lponlar to'lab turganlar. Kushonlar davrida mahalliy aholidan yig'iladigan soliq tartibi haqidagi ma'lumotlar bizgacha

saqlanmagan bo'lsa ham, bunday tartib mavjud bo'lganligi aniq.

Xitoy manbalaridan «Txanshu» (Txan sulolasi tarixi)da katta va kichik yuyechjelar ko'rsatilib, bu davlat ko'chmanchi davlat edi, deb ta'kidlanadi hamda uning tarkibiga mustaqil mulklardan iborat (xi-xeu) beshta davlat (Xyumi, Shuanmi, Xeytun, Guyshuan, Gaofu) kirganligi ma'lum qilinadi¹. Ma'muriy-hududiy jihatdan u satrapiya (kshatrapiya)larga bo'lingan bo'lishi mumkin. Kushon podsholari G'arb va Sharqdagi mamlakatlar, xususan Rim bilan savdo va siyosiy aloqalar olib borishgan. Buni podsho Vima Kadfiz davrida xuddi Rimdagiga o'xshash tangalar zarb etilishi, o'tkazilgan pul islohoti ham tasdiqlaydi. Bu davlat deyarli to'rt asr mavjud bo'lib, IV asrning 70–80-yillarida uning g'arbiy qismi Sosoniylar Eroni, Shimoliy Hindiston esa qudratli Guptlar davlati tarkibiga qo'shib olinishi bilan inqirozga uchray boshlaydi. IV asrning oxiri va V asr boshlarida Eftaliylar boshchiligidagi ko'chmanchi qabilalar inqirozga uchragan Kushonlar davlatini yemirib tashlaydilar.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

1. *Ahamoniylar hukmronligining o'rnatilishi haqida gapirib bering.*
2. *Ahamoniylar davrida ijtimoiy-siyosiy tuzumda qanday o'zgarishlar yuz berdi?*
3. *Makedoniyalik Iskandarning hukmrontigini o'rnatilishi haqida gapirib bering.*
4. *Makedoniyalik Iskandar qanday islohotlarni amalga oshirdi?*
5. *Salavkiylar davlatining vujudga kelishi va ijtimoiy-siyosiy tuzumi haqida gapirib bering.*
6. *Kushon davlatining ijtimoiy-siyosiy tuzumi haqida gapirib bering.*
7. *Kushon davlatining boshqaruvi qanday amalga oshirilgan?*
8. *Kushon davlatining ijtimoiy-siyosiy tuzumi ilk davlatlarning ijtimoiy-siyosiy tuzumidan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?*

3-MAVZU: QADIMGI DAVRDA HUQUQNING ASOSIY BELGILARI

1. O'zbekistonda huquqning kelib chiqishi va manbalari.
2. «Avesto» – qadimgi davrning asosiy huquq manbayi.
3. Qadimgi davrda mulkiy munosabatlarning tartibga solinishi.
4. Nikoh va oila huquqi.
5. Jinoyat va jazo masalalari hamda sud ishlarining yuritilishi.

¹ Н. Я. Бичурин. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена, М.-Л. 1950, II том, стр 187.

3.1. O‘zbekistonda huquqning kelib chiqishi va manbalari

Davlat huquqsiz, huquq esa davlatsiz yashay olmaydi. Zero, davlat o‘zining tuzilishidan boshlab ichki va tashqi siyosatini qonunlarga asosan amalga oshiradi.

Zotan, huquq davlat faoliyatida o‘ta muhim mustaqil ijtimoiy voqelik ekan, u qadimgi Turonda, bizning mamlakatimizda qanday paydo bo‘lgan va rivojlangan, degan savolning tug‘ilishi tabiiydir. Odamlar o‘rtasida sodir bo‘ladigan munosabatlarni azaldan odat normalari (me‘yorlari) tartibga solib kelgan. Ular yozma bo‘lmasdan, balki xalqlar hayotida avloddan-avlodga odat normalarida o‘tgan va takomillashib borgan. Davlat paydo bo‘lishida ana shu manbalardan odat me‘yorlarining eng muhim va zarurlarini farmon, qonun tarzida yozma ravishda rasmiylashtirishgan va ularni barcha fuqarolar uchun bajarilishini qat‘iy qilib belgilashgan. «Huquqiy odat» tushunchasi esa xuddi shu ma‘noni anglatadi.

Qadimgi davr Markaziy Osiyo xalqlari huquqini o‘rganishda «Avesto» katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari ahamoniylar hamda makedoniyalik Iskandar va Yunon-Baqtriya podshohliklari davridagi huquqiy odatlar yozma manbalardan iborat. Salavkiylar davlati va Parfiyada esa Yunon-Rim huquqi ham qisman amal qilgan bo‘lishi mumkin. Ahamoniylar podshohlaridan Doroning Behistun qoyalaridagi yozuvlarida bosib olingan o‘lkalarda «qonun»lar joriy qilinganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar uchraydi. «Avesto»ning bir qancha she‘rlarida kishilar o‘rtasida talab qilinadigan xulq-atvor qoidalari, oila-nikoh masalalari, jinoyat va jazo, ayniqsa, me‘yorlardan normalardan ordaliya (sinab ko‘rish, tekshirib ko‘rish) haqidagi ko‘rsatmalar diqqatga sazovor.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto» hozirgi O‘zbekiston hududida miloddan oldingi 2-ming yillik o‘rtalarida yashagan qabilalarning diniy va dunyoviy mafkurasi, ilk davlatchilik ijtimoiy-siyosiy tuzumi, huquqi haqida asosiy manba sifatida qimmatli ma‘lumotlarni beradi.

3.2. «Avesto» – qadimgi davrning asosiy huquqiy manbayi

O‘zbekiston hududida, aniqrog‘i qadimgi Turonda «Avesto» g‘oyalari, qonun-qoidalari asosiy davlat mafkurasi va huquqiy tizimi sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

«Avesto» kitobi qadimgi Turon, Eron va boshqa mamlakatlarning siyosiy-huquqiy madaniyatini o‘rganishda asosiy huquqiy manbadir. Masalan, G‘arb tamaddunining beshigi bo‘lgan yunon zaminida Aflotun, Arastu kabi mutafakkirlarning siyosiy-huquqiy qarashlarining shakllanishida ham uning ahamiyati katta bo‘lgan.

«Avesto»da qayd etilishicha, zardushtiylik ta'limoti dastlab Ahura Mazda yaratgan Iyron Vij (Xorazm), Gava (Sug'diyona), Mouru (Marg'iyona), Baxdi (Baqtriya), Nisoya (Niso – Parfiya poytaxti), Haroyva (Hirot), Voixa Girta (Qobul), Avrava (Tus viloyati – hozirgi Eronning Xuroson viloyati – markaziy Mashhad), Xninta (Gurgon, Navoiy davridagi Astrobod), Xiyrmad (Gilmavd – Afg'onistonning shimoliy viloyatlaridan), Ray (hozirgi Tehron atroflari), Chaxra (Xuroson hududlari), Varina (Kaspiy dengizi janubi), Xaftrud (Hind daryosi boshlanish qismi – Panjob), Ranxa (Ganga daryosi sohili) o'lkalarida tarqalgan. Keyinchalik Xorazmdan janubda Shimoliy Hindistongacha, hozirgi Eronning shimoliy-sharqidan Farg'ona vodiysi, Yettisuv o'lkasigacha, Afg'oniston va boshqa mintaqa bo'ylab shakllangan zardushtiylik ta'limoti asta-sekin o'z hududlarini kengaytirib, Mesopotamiya (Dajla va Frot daryolari oralig'i), hozirgi Iroq va Suriya, qadimgi Babil va Anshur, Arabiston yarim oroli, Kichik Osiyo (hozirgi Turkiya, qadimda Vizantiya), hatto qadimgi Yunon va Rim (hozirgi Italiya) mintaqasigacha yetib borib, ilm-fan, falsafa va madaniy-ma'naviy muhit rivojiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

«Avesto»da mehnat huquqiga, shuningdek, dehqonlar, cho'ponlar va hunarmandlar huquqlariga bo'lgan e'tibor juda yuksak darajada bo'lgan.

Zardusht ta'limotida insoniyat taraqqiyoti uchun eng muhim jihatlardan yana shu ediki, u doimo oddiy chorvadorlar va dehqonlarga murojaat qilib, inson chorvani ko'paytirib, dehqonchilik va sug'orish ishlari orqali yaylovlarni gullab-yashnatgandagina Axura Mazdaning inoyatiga moyil bo'ladi, deyiladi. Bu bilan Zardusht oddiy mehnatkash insonning huquqini ulug'lab, ularni hukmdor, hokimlar, zodagonlar, oqsoqollar, kohinlar, sarkardalar tabaqasiga tenglashtiradi va hatto «Avesto»da ularga atab maxsus bob ham ajratadi. Bu bobda shunday deyiladi:

«Ey, dunyoni yaratgan Zot! Axura Mazda dinini qanday taom to'yg'izadi?

Axura Mazda javob berdi:

Ey, Spiytamen Zardusht! Bug'doy ekmoq va yana bug'doy ekmoq». Ruhoniylar bu varjovand masarasini¹ odamlarga o'rgatsinlar: «Hech kim xo'raksiz Osha qonunlarga amal qilish qudratiga ega emas. Farzandlar dunyoga keltirmoq qudratiga ega emas.

Moddiy olamda xalq qilingan har bir mavjudot yemak bilan tirikdir, yemaksiz o'likdir».

«Ey, olamni yaratgan Zot! Ey Haqiqat! Zaminni hammadan ko'ra ko'proq baxtiyor qilgan beshinchi shaxs kim?

¹ *Varjovand masarasi* – ilohiy kalomlar.

Axura Mazda javob berdi:

Zaminni yaxshilab shudgor qilgan va uni bir Ashavanga topshirgan Zot!

Ey, Spiytamen Zardusht! Kimda-kim zaminni shudgor qilib, uni mehribonlik, parhezkorlik bilan bir Ashavanga topshirsa, Spandarmaz uni zamin qa'rida, hasrat va parishonlik olamida, tubanlik va sho'rbaxtlik sarzaminida devlar makoni – do'zax tubiga uloqtirib tashlamaydi».¹

Kitobda tabiatga, atrof-muhitga, o'simliklar olamiga, hayvonlarga bo'lgan e'tibor insonning diqqatini o'ziga tortadi. Bugungi til bilan aytganda atrof-muhitni muhofaza qilish huquqiga e'tibor qaratilgan.

«Vadiydod»da talqin etilishicha, Quyosh xudosi Mitra yovuzlik va ezgulik o'rtasidagi kurashning intihosida hakamlik vazifasini bajaradigan zotdir. Bobolarimiz har kuni ko'rib, undan bahra olib turgan Quyoshga sig'inish bilan soddadilliklarini emas, balki zardushtiylikka e'tiqodini ko'rsatishgan. Chunki Quyosh – tiriklik, poklik va yaratuvchilik manbayidir. Shu boisdan ham har bir zardushtning Quyoshga sajda qilib poklanishida, chorvani ko'paytirish va uni asrab-avaylash uchun xonaki it asrash va uni uy hayvonlariga ozor bermaslikka o'rgatish qonun-qoidalarida teran mazmun mavjud.

«Avesto»da kishilarning o'zaro muomala va munosabatlarida lafzdan qaytmaslik, berilgan so'z (va'da)ning ustidan chiqish, majburiyat va çasamga sodiq bo'lish, savdo-sotiq ishlarida majburiyat va shartnomalarga qat'iy amal qilish, omonatni, ya'ni qarzni o'z egasiga vaqtida qaytarish kabi imonlilik va diyonatlilikni anglatuvchi ezgu hislarni ko'ramiz. Ichgan qasamni buzgan odamning bu jinoyati, ya'ni gunohi uchun albatta jazoga giriftor bo'lishidan ham ogoh bo'lamiz:

«Kimda-kim qarzni o'z egasiga qaytarmasa, uning bu amali o'sha omonatni o'g'irlagan bilan barobar bo'ladi».

Shunday qilib, «Avesto»da inson hayoti va odamlarning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatiari ma'lum qonun-qoidalariga asoslanganligi haqida ma'lumotlar beriladi.

3.3. Qadimgi davrda mulkiy munosabatlarning tartibga solinishi

«Avesto»da mulk tushunchasini belgilovchi, mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi alohida me'yorlar nazarda tutilmagan bo'lsa ham, lekin mulkni himoya qilishga qaratilgan muhim qoidalarni uchratish mumkin.

O'zbekistonda qadimgi davrda dehqonchilik asosiy ishlab chiqarish sohasi bo'lganligi sababli mulk huquqida yerga egalik markaziy o'rin

¹ «Avesto». A.Mahkam tarjimasini// «Guliston»/ 1999-yil, 2-son.

egallagan. Barcha Sharq mamlakatlaridagi singari butun yerlar rasman podshoning mulki hisoblangan. Biroq amalda turli huquqiy rejimdagi yerga egalik shakllari mavjud bo'lgan. Ularning ichida jamoalarga tegishli yerlar, katta oilalarga tegishli yerlar keng tarqalgan. Bulardan tashqari o'zlashtirilmagan bepoyon yerlar, ekin ekilmagan yerlar va yaylovlar ham mavjud edi.

Oilalarga tegishli yerlar xususiy egalikdagi yerlar hisoblangan bo'lsa kerak.

«Avesto»ga binoan qarzdor olgan qarzni to'lamay, uni o'zlashtirsa jinoyat hisoblangan. Yuqorida ta'kidlanganidek, «Avesto»da «Kimda-kim qarzni o'z egasiga qaytarmasa, uning bu amali o'sha omonatni o'g'irlagan bilan barobar» degan qoida bilan ham mulk qattiq himoya qilingan. Shuningdek, «qo'y qasami», «sigir qasami», «ekin qasami» kabi tartibotlar kishilarning mulkini o'rta qo'yib qasam ichish bilan huquqiy munosabatlarga kirishganliklaridan dalolat beradi.

Miloddan avvalgi VII–VI asrlarda uy-joylar, tomorqa yerlari, chorva, ishlab chiqarish qurollari, barcha ro'zg'or va shaxsiy buyumlar, oziq-ovqat mahsulotlari xususiy mulk hisoblangan.

Lekin hali O'zbekistonda xususiy huquq, ya'ni fuqarolik huquqi me'yorlari uncha taraqqiy etmagan edi.

Majburiyatlarning shartnomalardan kelib chiqadigan turi keng tarqalgandi. Oila va jamoada berilgan so'zdan yoki qasamdan voz kechish, odamlar o'rtasida tuzilgan ahdnomani buzish katta gunch hisoblangan: «O Spitama, shartnomani buzuvchi kishi butun mamlakatni buzadi, shu bilan birga Artaga tegishli barcha mulku mollarga putur yetkazadi. O Spitama, ahdingni buzma...» (Yasht, X bob).

«Bir-birini qo'llovchi ikki qadrdon do'st o'rtasida tuzilgan ahdnoma yigirma karrali kuchga ega; bir jamoaning ikki a'zosi o'rtasida tuzilsa, o'ttiz baravar kuchga ega; ikki hamkor o'rtasidagi ahdnoma qirq bor o'z kuchini saqlaydi; yer va xotin o'rtasidagi ahdnoma ellik darajali kuchga ega; ikki ummat orasidagi ahdnoma oltmish karra kuchga ega; ustoz va shogird shartnomasining yetmish karralik kuchi bor; kuyov va qaynota ahdnomasi to'qson hissalik kuchga ega; ota va o'g'il o'rtasida tuzilgani yuz karra; ikki mamlakat o'rtasida tuzilgan shartnoma ming karra kuchga egadir...».

Huquqiy manbalarda shartnomalarning xilma-xil turlari eslab o'tiladi. Dastlabki shartnomalardan biri ayirboshlash bo'lib, asta-sekin o'z o'rmini oldi-sotdi shartnomasiga bo'shatib bergan.

Qishloq jamoalari o'rtasida tovar ayirboshlashda «pul» vazifasini kulolchilik va temirchilik buyumlari, oziq-ovqat va chorva mahsulotlari bajargan. Qishloq jamoalarida yetishtirilgan mahsulotlarning asosiy qismi shu joyning o'zida, ya'ni ayrim jamoalar o'rtasida iste'mol qilingan.

Yetishtirilgan mahsulotlarning ma'lum qismlarini bozorga olib borish xo'jalikda yoki ro'zg'orda maxsus qurollar (buyumlar, kiyim-kechaklar) zaruriyatidan kelib chiqqan. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning turli kasb-hunarlarga bog'liq bo'lgani uchun mahsulotning ortiqcha qismini ayirboshlash an'anasi yanada rivojlangan. Savdo asosida an'anaviy xo'jaliklar va hunar turlari taraqqiy etgan. Bu jarayon ishlab chiqarishni jadallashtirgan.

Shartnomalar asosan og'zaki shaklda tuzilgan. Yozma shartnomalar va ularda guvohlarning ishtiroki haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Ikki tomonning qo'l qisib shartnoma tuzishi keng tarqalgan.

3.4. Nikoh va oila huquqi

«Avesto»ga binoan xonadon egasi va oila a'zolari, er va xotin, ota va o'g'il, kuyov va qaynota, qo'shnlilar o'rtasidagi munosabatlar batafsil tartibga solinadi.

«Avesto» oilani, farzandlarni, uy-joyini asrab-avaylashga chaqiradi: «Kimning uyi bo'lsa, u uysiz bexonumon odamdan yaxshiroqdir». Jamoadagi tartib-intizomni nazorat qiluvchi maxsus kishilar bahsli masalalarni hal qilganlar.

«Avesto» qonunlari ijtimoiy va iqtisodiy hayotdan, axloq va dindan kelib chiqqan qarashlar, jamiyatdagi insonlarning o'zaro aloqalari tajribasiga asoslangan bo'lib, inson va jamoaning har kungi hayotini, ichki va tashqi munosabatlarini huquqiy nazorat qilishga qaratilgan.

«Avesto»ga binoan 15 yoshga to'lganlar balog'at yoshida hisoblangan. Bu bolalar zardushtiylikka e'tiqodi ramzi sifatida beliga yung ipakdan to'qilgan kamar bog'lab yurishi va «otashparastlar ibodatxonasida o'tkaziladigan diniy marosimlarda qatnashishi shart bo'lgan». Diniy tarbiya bolaning 7 yoshidan otashparastlik ibodatxonasida boshlangan. Bu diniy va axloqiy tarbiya, jismoniy tarbiya hamda o'qish va yozishga o'rgatishdan iborat bo'lgan.

Zardushtiyalarda bolalarda axloqiy, aqliy, jismoniy, jinsiy hislarni, rostgo'ylik, vatanparvarlik, sahiylik fazilatlarini tarbiyalashga jiddiy e'tibor berilgan. O'g'il bolalarga kurash tushish, otga jilov solish, uni egarlash, mol boqish, urchitish, tuya-otlarni parvarishlash, ularni boshqara olish, ularni yirtqich hayvonlardan himoya qilish uchun 50 dan ortiq harbiy qurol ishlata olish malakasini egallash majburiy bo'lgan. Ularga chavandozlik va 32 xil harbiy hunar o'rgatilgan.

Qiz bolalarni tarbiyasiga alohida e'tibor berilgan. Qiz bola ip yigirish, hboslar tikish, o'g'il bola bilan kurash tushish, chavandozlik, qilichbozlik, suvda suzish, kamondan o'q uzish kabi jismoniy-harbiy malakani

egallashi majburiy bo'lgan. Ana shundan so'ng qizlar 15, o'g'il bolalar 16 yoshida oqsoqol boshchiligida jamoa oldida maxsus imtihondan o'tkazilgan. Qizlarga «kadbonu», ya'ni «uy bekasi», yigitlar esa «kad xudo» – «oila boshlig'i» bo'lish huquqini qo'lga kiritganlar.

«Avesto»da o'smirlar 15–16 yoshlarida balog'atga yetgan va turmush qurish huquqiga ega deb ko'rsatilgan. Agar erkak zurriyot qoldirish qobiliyatiga ega bo'lsa-yu, ammo uylanmasa, unga tamg'a bosishgan yoki beliga zanjir bog'lab yurishga majbur qilishgan. Yer yuzida zurriyotni ko'payishiga qarshi chiqib, turmush ko'rmay yurgan qizni qopga solishib, 25 darra kaltaklashgan. Zardushtiylik dinida erkak kishi sog'lom bo'lishi uchun o'z vaqtida to'yib ovqat yeb yurishi olqishlanadi. Zardusht Axura Mazdadan «serfarzand xonadonga nima berasan» deb so'ralganda: u «bunday odamlarni o'z himoyamga olaman, hayotini farovon, rizqini mo'l qilaman» deb javob beradi.

«Avesto»da qarindoshlarning o'zaro oila qurishi qonun bilan qat'iy man qilingan. Ko'p bolali ayollarga tuyalar berilgan. Bolasini nobud qilgan ayollar esa o'limga mahkum etilgan. Shuningdek, oilasini, bolalarini sarson qilgan oila boshlig'iga, zinoga berilgan erkak va ayolga nisbatan darra bilan kaltaklash yoki o'lim jazosi qo'llanilgan. Bir yo'la 2–3 ta farzand ko'rgan ayolga bir juft sog'in sigir, sariq tuya berilgan, davlat xazinasidan nafaqa to'langan.

3.5. Jinoyat va jazo masalalari hamda sud ishlarining yuritilishi

«Avesto»da ibtidoiy jamoa tuzumiga xos bo'lgan qonli qasos olish haqida hech narsa eslanmaydi. Qonli qasos olish odati o'z o'rmini davlat hokimiyati organlari tomonidan beriladigan jazolarga va jinoyatchining jabrlanuvchiga yoki qarindoshlariga to'laydigan haqlariga bo'shatib bergan edi.

«Avesto» jinoyat tushunchasiga aniq ta'rif bermaydi. Lekin zardushtiylik aqidasisiga ko'ra, yolg'on gapirish, birovni aldash gunoh, ya'ni jinoyat hisoblanadi. Tabiatga nisbatan qo'pol muomalada bo'lganlarga ham jazolar tayinlangan. Yer, suv, tuproq, olov muqaddas hisoblangan.

«Avesto»ning «Vandidat» qismining 5-bobida tabiat va muhitni bulg'aydigan va turli kasalliklar tarqatadigan hayvon va hasharotlarni yo'qotishga kuchli da'vat etilsa-da, lekin uy jonivorlarini ehtiyot qilishga chaqirilgan. Suvni ifloslantirgan yoki (ov) itini o'ldirgan kishi 10.000 barsum, 10.000 ruhiyatni tetiklashtiradigan o'simlik bargi terib berishi lozim edi. Shuningdek, u 1000 ta echkiemar, 1000 ta suv qo'ng'izi, 1000 ta kasal tarqatuvchi pashshani o'ldirib gunohini yuvishi lozim bo'lgan.

Bu haqdagi qonunlar «Avesto»ning «Vandidat» («Viy dayevo datem – oromiycha devlarga qarshi qonun») nomi bilan atalgan bobida

jamlanib, unda shaxsning suvdan foydalanish, jinoyat va jazo, oila-nikoh, mulk bilan bog'liq huquqlarini tartibga soluvchi qoidalar o'z aksini topgan. Ushbu qonunning 13–15-boblarida suvni tejash, uni qadrlash, undan unumli foydalanish haqidagi qoidalar berilgan. Unda har kuni ikki marta sug'orish mumkinligi, har bir ekin ekuvchi bir belkurak kenglik va chuqurlikdagi ariqqa sig'adigan suv olishga haqli ekanligi, suvni taqsimlash ishlarini kohinlar amalga oshirganligidan dalolat beradi. Jumladan, odam yoki it o'ligini yerga ko'mib uni olti oygacha qazib olmagan kishi ming darra, agar bir yilgacha qazib olmasa, u holda uni o'n ming darra urush bilan jazolanishi ko'rsatilgan. «Vendidat»da murdani yoqqan kishiga nisbatan o'lim jazosi belgilangan.

Shunday qilib, «Avesto»da jinoyatning shaxsga qarshi, mulkka qarshi va oilaga qarshi qaratilgan turlari bir-biridan ajratib ko'rsatilgan.

Odam o'ldirish, insonni kaltaklash, urish va unga tan jarohati yetkazish, uni hushidan ketkazish kabi xatti-harakatlar shaxsga qarshi qaratilgan jinoyatlarga kirib, bular uchun asosan turli miqdordagi qamchin bilan savalash jazosi qo'llanilgan. Jinoyat takrorlangan holda, uning har bir takrori uchun 20 ta qamchin jazosi qo'shilgan. Demak, bu jinoyatni og'irlashtiruvchi holatlardan hisoblangan. Birovni urib, uning qonini oqizgan shaxsga nisbatan qilmish (jinoyat)ning og'ir-yengilligiga qarab jazo belgilangan:

«Ey, olamni yaratgan Zot! Ey, Haqiqat!

Birovni urib, uning qonini oqizgan kimsa yozug'aning jazosi nechuk?

Axura Mazda javob beradi:

– Ellik qamchin aspahih-ashatra va ellik qamchin saravushu-charana bilan savalanadi.

Ikkinchi marta yetmish qamchin aspahih-ashatra va yetmish qamchin saravushu-charana bilan savalanadi.

Uchinchi marta to'qson qamchin aspahih-ashatra va to'qson qamchin saravushu-charana bilan savalanadi.

Kimda-kim oldingi gunohlarining tovonini to'lagani holda to'rtinchi marta ushbu gunoh bilan bulg'ansa, uning jazosi qanday?

Axura Mazda javob beradi:

– Uning amali «pishavtanu»dir. Gunohining jazosi yigirma qamchin saravushu-charana va yigirma qamchin saravushu-charana bilan savalanadi.

– Ey, olamni yaratgan Zot! Ey, Haqiqat!

Birovga shikast yetkazib, uning qonini oqizgan holda tovon to'lashdan bosh tortgan kimsaning jazosi qanday?

Axura Mazda javob beradi:

– Uning amali «pishavtanu»dir. Gunohining mukofoti yigirma qamchin aspahih-ashatra va yigirma qamchin saravushu-charana bilan savalanadi».

Gunohlar ichida eng og'iri – odam va itlar jasadini «tuproqqa topshirish», ya'ni yerga ko'mish, suvga tashlash, gulxanda kuydirish jinoyati bo'lib, «dunyoda hech bir jazo, hech bir tovon bunday gunohni poklay olmaydi», deb ta'kidlanadi «Avesto»da.

Mulkiy jinoyatlarga o'g'irlik, olingan qarzni o'zlashtirish va boshqalar kirgan. «Avesto» qarzdorlik va o'g'irlikni gunoh deb hisoblaydi: «Kimda-kim qarzni o'z egasiga qaytarmasa, uning bu amali o'sha omonatni o'g'irlagan bilan barobar bo'ladi». Olingan qarzni o'zlashtirish ham jinoyat hisoblangan.

O'g'il tomonidan otaga qo'l ko'tarish, oila a'zolariga shikast yetkazish, er va xotin, ota va o'g'il o'rtasidagi ahdnomani, «so'z qasami»ni buzish oilaviy jinoyatlar turkumini tashkil qilgan. Bunday jinoyatlarga asosan qamchin jazosi tayinlangan¹.

«Avesto»da sud ishlarini yuritishga oid me'yorlar ham mavjud. Sudya vazifasini kohinlar, jamoa boshliqlari amalga oshirgan.

Sud ishlarini yuritishda ibtidoiy jamoa tuzumining belgilari yaqqol namoyon bo'lgan. Masalan, «Avesto»da bayon etilishicha, qasam ichib ahd qilgan kishi o'z ahdini bajarmagan yoki uni buzgan hollarda haqiqatni isbotlash uchun protsessual normalardan ordaliya (sinab ko'rish yoki jazo berish) qo'llanilgan. Ingliz olimasi Meri Boys va A.G.Perexanyan hamda Z.Muqimovning ta'kidlashlaricha, Sipiytmon Zardusht ta'limotida adolatli sud qilish uchun ordaliyaning 33 usuli mavjud bo'lgan². Agar so'z qasam to'g'risida borsa, suv bilan sinash, agar shartnomaga oid bo'lsa, o't bilan sinash o'tkazilib, aybdor yoki gumondorga o'zining haqligini isbotlashga imkon berilgan. Meri Boysning ta'riflashicha, daryo suviga uloqtirib ordaliya o'tkazishning turlaridan biri Yajini valkayaga binoan, ayblanuvchi o'z yonida turgan kishining oyoqlarini ushlab turgan holda suvga sho'ng'ishi lozim bo'lgan.

¹ Zardushtiylarning qonunlariga ko'ra, jasadni yerga ko'mish, suvga tashlash, gulxanda kuydirish man qilingan. Shuning uchun ham jasadni zardushtiylar uydan, manzilgohdan, shahardan, tuproqdan, muqaddas olovdan, suvdan chetlashtirib uni toshli va yuqumli tepaliklarga yoki boshqa maxsus joylarga olib borib qoldirganlar. Uydan, olovdan va suvdan uzoq joylarda tashlab qoldirilgan murdalarni yirtqich hayvonlar va qushlar yo'q qilganlar. Yil davomida qor va yomg'ir suvlari murda suyaklarini yuvib, ularni quyoshning muqaddas nuri yana tozalagandan so'ng, maxsus odamlar – «go'rkovlar» zardushtiylarning ochiq qabristonlariga kelib, tozalangan suyakni qishloq-shaharlarga olib kelganlar. Faqat shundagina, murakkab dafn marosimidan keyin, suyaklarni yerga ko'mish yoki maxsus xonalarda, sopol idishlarda va tobutchalarda saqlash mumkin edi.

² *Bois Meri. Зароастрийцы. Верование и обычаи. 2-е издание. (Пере. с англ. И.М. Стеблин-Коменского).* – М., Наука, 1988. С.16; *Переханян А.Г. Общество и право Ирана в Парфянский и Сасанидские периоды.* – М., Наука, 1983. С. 175; *Muqimov Z. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. (Eng qadimgi davrdan XX asrgacha). Samarqand, «Zarafshon», 1998. 39-bet.*

Sho'ng'ish vaqtida: «Varuna, haqiqatan meni himoya qil» deb aytgan. Ana shu lahzada kamondan o'q uzilgan va chopqir kishi o'q ketidan yugurgan, agar o'qni aybdor suv tagida o'lib qolmasdan keltirsa, qasam xudosi Varuna aybdorni avf etdi va oqladi, deb hisoblangan³.

Shuningdek, o't bilan sinash usullaridan birida aybdor yonayotgan ikki chalayon (o'tli chamberak) orasidagi tor yo'lakdan yugurib o'tishi lozim bo'lib, agar tirik qolsa, shartnoma tangrisi Mitra uni aybsiz hisoblagan. Bundan tashqari, o't bilan sinashda aybdorni yalang'och ko'krigiga eritilgan mis quyish usuli ham qo'llanilgan. Meri Boysning yozishicha, Olov tangrisi Atar tog'laridagi temirlarni eritib, olovsimon suyuqlikni yoki alangali daryoni yer yuziga oqizadi. Har bir kishi bu daryodan kechib o'tishi lozim bo'ladi, haqiqatgo'y (pok)lar uchun yangi sog'ilgan sut daryosiga o'xshab qoladi, gunohkorlarning ichi eritilgan temir bilan to'ldirilib yong'inga aylanadi. Gunohkorlar va jaholat yer yuzidan tamoman yo'q bo'ladi. Bundan keyin jamiyat (yer)da farovonlik, baxt-saodat, adolat va yaxshilik ustunlik qilib, odamlarning o'zaro muomala va munosabatlari, so'zlari, ishlari tinchlik va osoyishtalik munosabatlari bilan bog'lanadi.

Ordaliyaning qaynab turgan suyuqlik (yog' yoki qaynoq suv) bilan sinash, muz bilan sinash, diniy marosimlarda qo'lda tutib turiladigan metall yoki daraxt novdalaridan yasalgan xivichlar bog'lami bilan va barsman bilan urib sinash, mudom yashil butasimon o'simlik – efedra shirasiga sut aralashtirib tayyorlangan insonni ruhlantiradigan, ya'ni bardam tutadigan xaoma ichimligi ichirib (mast qiladigan darajada emas) sinash va boshqa usullari ham mavjud bo'lgan.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

- 1. Odat huquqi va ilk huquqiy manbalar haqida gapirib bering.*
- 2. «Avesto» kitobining ahamiyati haqida gapirib bering.*
- 3. «Avesto» kitobida qanday huquqiy masalalar yoritilgan?*
- 4. «Avesto»da mulkiy munosabatlarning tartibga solinishi qanday izohlangan?*
- 5. «Avesto»da oila munosabatlarining tartibga solinishi qanday belgilangan?*
- 6. «Avesto»da nikoh munosabatlarining tartibga solinishi qanday belgilangan?*
- 7. «Avesto»da jinoyat va jazo masalalari qanday belgilangan?*
- 8. Sud ishlarining yuritilishi haqida «Avesto»da nimalar deyiladi?*

³ *Бойс Мери.* Зороастрийцы. Верование и обычаи. –М., 1988, с. 153.

Ikkinchi bo'lim

O'RTA ASRLAR DAVLATI VA HUQUQI (V asrning boshlari – XIX asrning ikkinchi yarmi)

II BOB. ILK O'RTA ASRLAR DAVLATI VA HUQUQI (V–VIII asr o'rtalarigacha)

4-MAVZU: EFTALITLAR DAVLATI VA HUQUQI

1. Eftalitlar davlatining tashkil topishi.
2. Iqtisodiy va ijtimoiy tuzumining asosiy belgilari.
3. Hokimiyat va boshqaruv ishlarining tashkil qilinishi.

4.1. Eftalitlar davlatining tashkil topishi

Xitoy manbalarida eftalitlarni «ida, yeda, idan, idyan» deb, suriya va lotin manbalarida esa «eplatit, eftalit, abdal», arman yozuvlarida «idal, tetal, xeptal», hind manbalarida «xuna» va hokazo deb eslatib o'tiladi.

Xitoylik mualliflar eftalitlarni turklar (tukyuye) bilan bog'liq ravishda ta'riflaydilar. Vizantiyalik tarixchilar, masalan, Prokopiyy (VI asr) eftalitlarni xunnlardan deb ko'rsatar ekan, «ular (ya'ni eftalitlar) xunnlardandir, tanalari esa oq», deb eslatadi.

Eftalitlar bilan sosoniylar o'rtasidagi birinchi to'qnashuvlar V asrning 30-yillaridayoq sodir bo'lgan edi. Arman tarixchisi Vardapetning ma'lumotiga ko'ra, V asrning 50-yillariga kelib eftalitlar ittifoqi nihoyatda kuchayib ketadi. 456-yildayoq eftalitlar o'z elchilarini Xitoyga jo'natadilar.

Manbalarda Peruzning hokimiyatga kelishi eftalitlar bilan bog'liq ravishda bayon qilinadi. Nafaqat Peruz, balki uning akasi Xo'rmo'zd (457–459) ham eftalitlar yordamida taxtni qo'lga kiritgani ma'lum.

Eftalitlarning kelib chiqishi haqida yagona fikr yo'q. Tadqiqotchilarning ayrimlari eftalitlarni O'rta Osiyoning janubiy viloyatlari qadimgi mahalliy elatlaridan, boshqalar esa ularni Xorazmdan kelib chiqqanligini ta'kidlaydilar. Manbalar orasidan birida eftalitlar yetti qabiladan iborat massagetlarning yetakchi urug'laridan biri sifatida bayon qilinadi (Lazer Parbskiy, V asr).

Xitoy manbalarida eftalitlar yuechjilarning boshqa bir ko'rinishi yoki gaogyuy qabilasining tarmog'i, Qang'yuy avlodlari sifatida talqin qilinadi. O'zlarini alxonlar deb atagan eftalitlar Baqtriya-Tohariston yerlarida yashab o'tgan azahiy Baqtr qabilalaridan chiqqan etnik guruh ekanligi haqidagi fikr ham mavjud.

Yuqoridagi fikrlarga qo'shimcha yana bir taxmin mavjud. Unga ko'ra,

eftalitlar Orolbo‘yidan chiqqan elat hisoblanadi. Va nihoyat, keyingi yillardagi tadqiqotlar ularning haqiqiy vatani Baqtriya-Toharistonga muvofiq kelishini ko‘rsatmoqda.

Xullas, nima bo‘lganda ham muarrixlar eftalitlarni asli O‘rta Osiyoda ilgari yashab kelgan sak-massaget va xunn qabilalarining birikmasidan kelib chiqqan deb hisoblaydilar. «Eftal» so‘zi esa, eftalitlar shohi degan Vaxshunvor Eftalon nomi bilan bog‘liqdir. Vaxshunvor 457-yildan e‘tiboran, Chog‘aniyon, Tohariston va Badaxshonni ham o‘ziga bo‘ysundirib O‘rta Osiyoda katta davlatga asos soldi. Bundan tahlikaga tushgan Eron shohi Peruz eftalitlarga qarshi uch marta yurish qilgan va uch marta tor-mor keltirilgan. Eftalitlar Marv, Qobul va Panjob vodiysi, Qarashar, Kuchu, Qashqar va Xo‘tonni ham egallaydilar. Eron uzoq yillar eftalitlarga xiroj to‘lab turgan.

Shunday qilib, eftalitlar O‘rta Osiyo, Sharqiy Turkiston, Shimoliy Hindiston, Sharqiy Eronni birlashtirgan ulkan davlatga asos soladilar, Kushon podshohligi hududlarini ham yana o‘z qo‘llari ostida birlashtiradilar. Eftalitlar sosoniylarning O‘rta Sharqdagi hukmronligiga chek qo‘yadilar.

Eftalitlar davlati O‘rta Osiyo xalqlari tarixida muhim o‘rin tutib, keyinchalik o‘z o‘rnini 563–567-yillardagi kurashdan so‘ng tarix maydonidagi yangi siyosiy kuch — Turk xoqonligiga bo‘shatib berdi.

4.2. Iqtisodiy va ijtimoiy tuzumining asosiy belgilari

V–VI asrlarda dehqonchilik vohalarida eftalitlarning o‘troqlashuvi kuchaydi, buning oqibatida sug‘orma yerlarga bo‘lgan muhtojlik ortdi. Kichik-kichik sug‘orish kanallari qazib chiqarilib, minglab gektar yangi yer maydonlari o‘zlashtirildi. Sug‘orish uslubi takomillashdi, shohariqlar chuqurlashib, sersuv sug‘orish tarmoqlariga aylandi. Hozirgi vaqtda ham mavjud bo‘lgan Zahariq, Bo‘zsuv, Darg‘om kanallari V asrda barpo etilgan eng yirik sug‘orish tarmoqlaridan bo‘lgan. Shuningdek, tog‘ oldilariga suv chiqarish uchun suv chiqarish asboblardan keng foydalanilgan. Yangi o‘zlashtirilgan yerlarda zodagon dehqonlarning qalin xom g‘ishtdan urib chiqilgan va baland poydevor ustiga qurilgan ulkan qo‘rg‘onlari, istehkomlar yuzaga kela boshlagan.

Eftalitlarning bir qismi ko‘chmanchi chorvador bo‘lsa, asosiy kattaroq qismi shahar va qishloqlarda yashaydigan o‘troq aholi bo‘lgan. Tohariston va So‘g‘dda dehqonchilik va bog‘dorchilik rivoj topgan. Qashqadaryo va Zarafshon vodiylarida g‘alladan tashqari sholi ham yetishtirilgan. Xitoy manbalarida qayd etilishicha, V–VI asrlarda Sharqiy Turkiston va Turkiston yerlarida ko‘plab g‘o‘za ekilar edi. O‘rta Osiyoning paxta tolasi Xitoyda ham mashhur bo‘lgan. Tog‘ va tog‘ oldi yerlaridagi aholi

yilqichilik bilan shug'ullangan. Farg'ona vodiysida zotdor arg'umoqlar ko'paytirilar edi. Yer egaligi munosabatlarining tarkib topa boshlashi bilan sug'oriladigan yer maydonlarining ma'lum bir qismi mulkdor zodagon tabaqa vakillari – dehqonlar qo'lida to'plana boshlangan edi.

Buning natijasida qishloq jamoasining erkin dehqonlari ma'lum darajada zodagon dehqonlar asoratiga tushib, ularga qaram «kadivar»larga aylanmoqda edi. Sug'orma yerlarning bir qismi ibodatxonalar mulki hisoblangan. Bunday yerlar «vag'nze» deb yuritilar edi. Yaylovlarning asosiy qismi oqsoqol zodagonlar qo'lida bo'lgan. Eftalitlar orasida mol-mulk tabaqalanishi ham kuchli bo'lgan. Ular orasida yangi ijtimoiy munosabatlar shakllanishi bilan bir qatorda ibtidoiy jamoa tuzumi sarqitlari ham saqlanib qolgan edi.

Xitoy solnomalarida qayd qilinishicha, eftalitlarda poliandriya (ko'p erlik) ham tarqalgan edi. Bir necha aka-ukada umumiy bitta xotin bo'lib, uning boshidagi qalpog'ining burchaklari soniga ko'ra aka-ukalar nechtaligini bilish mumkin edi. Oliy tabaqa vakillari ichida ko'p xotinlilik odati ayniqsa keng tarqalgandi.

Eng boy zodagonlar doimiy hamroh sifatida 20 va undan ortiq do'stlarga ega bo'lishgan. Zodagon vafot etganda, qoida bo'yicha do'stlari ham tirikligicha qabrga qo'yilgan. Beyshi solnomasida yozilishicha, zodagonlar qazo etgan vaqtda maxsus tayyorlangan tosh dahmalarga, oddiy eftalit murdasi esa tuproqqa qo'yilgan. Bu ikki xil ko'mishi jamiyatning sinfiy tabaqalanishidan dalolat beradi.

Zodagonlar qimmatbaho kiyimlarda yurishgan. Bu haqda Son Yun o'z esdaliklarida qayd qilib o'tadi. Jinoyatchilik yuzasidan jazo nihoyatda qattiq bo'lgan. O'g'irlik qilgan shaxsning u kim bo'lishidan qat'i nazar boshi kesilgan, undan o'g'irlangan mol-mulk miqdoridan qat'i nazar o'n barobar qilib undirib olingan.

Shu tariqa, eftalitlar davlatining ijtimoiy tuzumida aslzoda dehqonlar, ularning shaxsiy qo'riqchilari – chopqirlar, jamoachi dehqonlar va qullar asosiy o'rin tutgan. Jamiyatda hunarmandlar va savdogarlar alohida mavqega ega bo'lgan.

4.3. Hokimiyat va boshqaruv ishlarining tashkil qilinishi

Eftalitlar davlati boshqaruv shakliga ko'ra ilk yakka hokimlik shaklidagi davlat edi. Uning tepasida podsho turgan. Vizantiya tarixchisi Prokopiyning (VI asr) ma'lumotlariga qaraganda, «eftalitlar (saltanati) bir hukmdor orqali idora etilib, o'z qonuniy (adolatli) davlatchiliklariga egadirlar. O'zaro va qo'shnilar bilan (munosabatlarda) adolat me'yorini saqlashda vizantiyaliklar va forslardan hech biri qolishmaydilar». Demak, eftalitlar davrida ham kushonlar davridagi singari saltanat yakka hukmdor tomonidan

boshqarilgan. Davlat tuzumini tavsiflaydigan ushbu ma'lumotlardan boshqa manbalar saqlanib qolmagan bo'lsa ham, lekin ushbu ma'lumotlardan xulosa qilish mumkin, efitlitlarning hokimiyat va boshqaruv organlari V–VI asrlarda Vizantiya davlatinikiga o'xshash bo'lgan.

Efitlitlar davlatining siyosiy markazi Poykand shahri, davlat boshliqlarining qarorgohi esa Varaxshadagi saroy bo'lganligi taxmin qilinadi.

Podsho hokimiyati ancha kuchli bo'lgan. U hatto Eron podsholarining ichki siyosatiga ham aralashib turgan, ulardan qaysi birini podsho etib saylash va tayinlash masalasini ham hal qilardi. Eron davlati efitlitlar podshosiga har yili o'lpon to'lab turgan.

Tabiiyki, podsho hokimiyat va boshqaruvning hamma masalalarini tanho o'zi, o'z yordamchilariga va yaqin kishilariga tayanmay turib, amalga oshira olmas edi. Shu sababli unga moliyaviy, xo'jalik, soliq va o'lponlar yig'ish, sug'orish tarmoqlarini tartibga keltirish, qo'shni davlatlar bilan diplomatik munosabatlar olib borish, armiya, sud va boshqa masalalarda yordam beruvchi mansabdor shaxslar bo'lgan bo'lishi mumkin. Lekin bular haqida ma'lumotlar saqlanmagan.

456-yilda efitlitlar tomonidan Xitoyga dastlabki elchilarning kelishi mazkur davlatda elchilik xizmatining yo'lga qo'yilganligidan, kumush tangalarning chiqarilishi esa pul-moliya tizimining tartibga keltirila boshlanganligidan dalolat beradi. Efitlitlarning harbiy qo'shinlari juda katta kuchga ega edi. Askarlari qo'lida harbiy qurol-yarog'lardan gurzi, o'q-yoy va asosiysi qilich muhim o'rin tutgan. Muhorabalar paytida ularning otliq bo'linmalari yetakchilik qilgan.

Milodiy V asrda sasoniylar va efitlitlar davlati o'rtasidagi harbiy to'qnashuvlarda efitlitlar qo'shinining ustun kelishi ular harbiy mahoratining yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

- 1. Efitlitlar davlatining tashkil topishi to'g'risidagi ma'lumotlar haqida gapirib bering.*
- 2. Efitlitlar iqtisodiy tuzumining asosiy belgilari qanday bo'lgan?*
- 3. Efitlitlar iqtisodiy tuzumining avvalgi davlatlar iqtisodiy tuzumidan farqi nimalardan iborat?*
- 4. Efitlitlar ijtimoiy tuzumining asosiy belgilari qanday bo'lgan?*
- 5. Efitlitlar ijtimoiy tuzumida avvalgi davlatlarga nisbatan qanday o'zgarishlar yuz berdi?*
- 6. Efitlitlar davlat tuzumi qanday ko'rinishga ega bo'lgan edi?*
- 7. Efitlitlar davlat tuzumining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat bo'lgan?*

8. Eftalitlar davlatining huquq manbalari haqida gapirib bering.

5-MAVZU: TURK XOQONLIGINING IJTIMOY-SIYOSIY TUZUMI (551–744-YY.)

1. Turk xoqonligining o‘rnatilishi va VI–VII asrlarda Xorazm, So‘g‘d va Farg‘ona davlatlari.
2. Turk xoqonligining ijtimoiy va davlat tuzumi.
3. Ilk o‘rta asrlarda O‘zbekistonda huquqning asosiy belgilari.

5.1. Turk xoqonligining o‘rnatilishi va VI–VII asrlarda Xorazm, So‘g‘d va Farg‘ona davlatlari

O‘zbek davlatchiligi tarixida Turk xoqonligi davlati alohida o‘rinni egallaydi.

Tarixda turklarning kelib chiqishi xususida ko‘plab afsona, rivoyatlar ham mavjuddir. Abu Is‘hoq Nishopuriy jam qilgan (VIII asr) «Qissai al-anbiyo» asarida turklarning kelib chiqishi Nuh payg‘ambarga borib taqalishi haqida yoziladi.

Unda aytilishicha, Nuh payg‘ambar dunyoni to‘fon bosganida 3 o‘g‘li – Som, Xom, Yofas hamda 3 ta kelimi bilan 6 oy kemada suv pasayguncha qolib ketadi. Shunda Nuh payg‘ambar uchinchi o‘g‘li Yofasdangina izzat-hurmat ko‘radi. Shunga javoban Alloh Subxonu va taolo unga Turkistonni berdi.

Afsonaga ko‘ra, «Turk» so‘zi Oltoy tog‘larining eng qadimgi nomidan kelib chiqqan ekan. Xitoy yozma manbalarida turklar «xun» nomi ostida eramizning 92-yilida Oltoyning etaklariga kelib o‘rnashganligi va jujanlardan ruxsat olib, ular uchun temir qazib chiqarishni boshlaganlari haqida ma‘lumot beriladi. Bu urug‘ Ashin urug‘i nomi bilan avval boshda atalib kelgan. Xitoylar Ashin qabilasini «Tu-kyu» («turkiylar») deb ham yuritganlar. «Turk» atamasi kuchli, baquvvat degan ma‘noni anglatadi.

Xullas, turklarning Ashin urug‘idan Asan (Asyan) va Tuu (460–525)lar turkiyzabon qabilalarni bir ittifoqqa birlashtirdi. Tuuning o‘g‘li Bumin tele qabilasini bo‘ysundirib, 551-yilda O‘rta Osiyodagi eng kuchli Jujanlar xonligini tor-mor etdi. Xuddi shu yili Bumin Turk xoqonligi davlati (551–744)ga asos soldi. Davlat hukmdori – xoqon (turkcha – qag‘an) deb yuritilgan. Bu davlatning poytaxti Oltoydagi Utukan shahri edi. Bumin o‘z ukasi Istamiga birinchi sarkarda – yabg‘u (bahodir) unvonini berdi va birgalashib davlat chegaralarini kengaytirish yo‘lidan bordi.

Ayniqsa, Mug‘anxon davrida Turk xoqonligi eng qudratli davlatga aylandi.

Uning hududlari O'rtasiy, Mo'g'uliston, G'arbiy Sibir va Dashti Qipchoq (Kaspiy dengizigacha) yerlarini o'ziga qamrab olgan edi.

Ammo Istami va Mug'an xoqonlar vafotidan so'ng Turk xoqonligi zaiflasha bordi.

Mug'an xoqon vafotidan (576-yil) so'ng taxtga uning ukasi Arslon To'ba o'tirdi. Arslon To'ba buddiylikka berilgan bo'lsa-da, mamlakatni mustahkamlash uchun Si saltanati bilan shartnoma tuzadi. Bundan tashqari u mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish choralarini ham ko'rdi. Ammo, 581-yilda Arslon To'ba vafot etgach, Turk xoqonlari o'rtasida o'zaro kurashlar avj olib ketdi. Bu kurashlar natijasida xoqonlik ikki qismga: Sharqiy va G'arbiy qismga bo'linib ketdi. Sharqiy xoqonlik Xitoy va Mo'g'ulistonning bir qismini o'z ichiga olib, uni Arslon To'baning kichik o'g'li Ishbara boshqara boshlaydi.

G'arbiy Turk xoqonligiga Yettisuv, O'rtasiyning katta qismi, Sharqiy Turkiston, hozirgi Qozog'iston hududlari qarar edi. Bu yerda Istami Yabg'uning o'g'li Qora Churin xoqon bo'ldi (576). U eng tadbirkor va aqlli hukmdor edi. Ammo undan keyingi olti xoqon davrida mamlakatdagi vaziyat keskinlashdi va u inqiroz sari yuzlandi. Xalq qo'zg'olonlari yuz berdi. 585–586-yillardagi Obro'y boslichiligidagi qo'zg'olon bunga yorqin misoldir.

618-yilda G'arbiy Turk xoqoni Sheguy vafotidan so'ng taxtga o'tirgan To'n yabg'u davrida xoqonlik yana o'z qaddini biroz tikladi. Lekin VII asr o'rtalariga kelib xoqonlik zaiflashib bir necha qismlarga bo'linib ketdi. Bu vaziyatdan Xitoyning Tan saltanati ustalik bilan foydalandi va 657–659-yillarda Xitoy qo'shnlari Yettisuvga bostirib kirdi. Xitoy bosqiniga qarshi xalq harakatlari avj oldi. Faqat VII asr oxirlariga kelib xoqonlik o'z mustaqilligini tiklab oldi va Xitoy gumashtasi Xusrav Bo'rishod mamlakatdan haydab chiqarildi. Ammo xalqning bu shodligi uzoqqa cho'zilmadi. Janubi-g'arbdan O'rtasiyoga bostirib kelgan arablar mamlakatni bosib oldilar.

VI asrning 60–70-yillarida O'zbekiston hududida bir nechta alohida mulklar bo'lib, ular rasman turk xoqoniga bo'ysunar edi. Xitoy manbalarida Samarqand So'g'di Kan degan nomda yuritilgan va uni mahalliy sulola vakili boshqarib turganligi bayon qilmadi. Umuman, Zarafshon, Qashqadaryo va Amudaryo havzalarida to'qqizta alohida mulkiy hudud mavjud bo'lib, ularning har biri shahar va dehqonchilik tumanlariga ega bo'lgan. Tarixiy manbalarda alohida mulkiy hududlar Kan sulolasiga ifoatda bo'lganligi xususida so'z boradi. Har bir ma'muriy birlikning o'z nomi bo'lib, ular quyidagilardir: Maymurg', Ishtixon, Kushamiya, Buxoro, Naxshab, Amul, Andxoy va Samarqand (Kan). Samarqandning hokimi yuqoridagi 9 mulk orasida kattasi sanalgan.

VII asrning birinchi choragida Kesh viloyati kuchayib, davlatning

poytaxti hozirgi Kitob o'rnidagi Kesh shahri bo'lib qolgan. Manbalarga ko'ra, uning hokimi Tish degan shaxs bo'lib, bu davrda mazkur davlat boshlig'i qudratli hukmdorga aylanadi. Manbalarda Kesh shahriga uning tomonidan asos solinganligi qayd qilinadi. VII asrning o'rtalarida esa Kesh hukmdori – ixshid Shishpir butun So'g'dning hukmdori sifatida tan olingan. U o'z nomidan tangalar zarb ettirgan, boshqa davlatlarga esa rasmiy elchilarni yuborib turgan. Jumladan, u Xitoy davlati bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan. Keyinroq, taxminan VII asrning ikkinchi yarmida – Axurpat hukmronlik qilgan davrda, Kesh va Samarqand o'rtasidagi qattiq kurashlar oqibatida Samarqand siyosiy jihatdan hukmronlikni o'z qo'liga qaytarib olishga erishadi. Uning hukmdori ixshid unvoni sohibi bo'lish bilan bir qatorda Kesh hokimini taxtdan ag'darib tashlab, o'rniga o'z vakilini o'tkazadi. Endilikda Kesh hukmdoriga ixrid unvoni beriladi va u Samarqand hokimiga merosiy ravishda tobe bo'lib qoladi. Samarqandning hokimi o'sha paytda ixshid Varxuman bo'lgan.

So'g'diyonaning mahalliy hokimlari Choch va Xorazmning mustaqil hukmdorlari bilan birlashgan edilar. Yirik siyosiy birliklar ma'lum muddatlarda shaharlardan birida o'z qurultoylarini o'tkazib turganlar.

Xorazm boshqa shahar-davlatlarga nisbatan ancha mustaqil edi. Mamlakatni Afrig'iylar sulolasiga mansub podsholar boshqarib turgan.

So'g'diyonaning hududiga o'sha vaqtda hozirgi Panjikentdan Karmanagacha bo'lgan yerlar kirgan. Buxoro esa VII asrda mustaqil mulklar ittifoqidan iborat alohida birlashma sifatida Samarqandga bo'ysunmay qolgan. Uning podshosi buxorxudot unvoni sohibi bo'lgan.

Farg'ona Kan siyosiy ittifoqiga kirmagan bo'lib, u alohida mustaqil davlat edi. Uni afshin boshqargan.

5.2. Turk xoqonligining ijtimoiy va davlat tuzumi

VI–VII asrlarda yurtimiz hududida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar arxeologik va yozma manbalar asosida o'rganib chiqilgan. Mazkur ilmiy tadqiqotlarning natijalariga suyangan holda o'sha davrlarda So'g'diyona, Xorazm va Farg'ona hamda mazkur tarixiy-geografik hududlarga qarashli mulklarda dehqonchilik, bog'dorchilik, ayniqsa, uzumchilik, paxta yetishtirish va uy chorvachiligi rivoj topganligini anglash mumkin. Iqtisodiy hayotning muhim jihatlaridan biri sanalgan savdo-sotiq va hunarmandchilik ham bu asrlarda gullab-yashnadi.

Turk xoqonligi qo'li ostida birlashgan xalqlar taraqqiyotning har xil bosqichida edilar. Aholining bir qismi o'troq dehqonchilik bilan, boshqa bir qismi chorvachilik bilan shug'ullangan bo'lsa, shaharlarda yashovchi aholi kosibchilik, hunarmandchilik va savdo bilan band bo'lgan. Turk qabilalarining bir qismi VI–VII asrlarda o'tovlarda yashaganlar va to'rt

oyoqli g'ildirak aravalarda ko'chib yurganlar. Mehnatkash aholini «Budun» yoki «Qora budun» deb ataganlar. Urug'-qabilaning yirik vakillari «beklar» nomi bilan yuritilgan.

Ijtimoiy tuzumga to'xtaladigan bo'lsak, shuni ta'kidlab o'tish lozimki, VII asrda harbiy to'qnashuvlarning ko'payishi iqtisodiy hayotda katta o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Birinchidan, markazlashgan hokimiyat zaiflashdi; ikkinchidan, notinchlik ma'lum darajada iqtisodiy tanglikni yuzaga keltirdi. Buning oqibatida shaharlar tushkunlikka yuz tutib, ularning maydoni qisqarib bordi, katta oilalar egalik qilgan qo'rg'on-qal'alar ahamiyati oshdi va ko'paydi. Xorazm va So'g'd hududlarida bunday qo'rg'on-qal'alarining atrofida dehqonchilik mavzolari hamda ularda dehqonlar va savdogarlarning mustahkam uy-qo'rg'onlari to'planib qolgan edi.

So'g'd viloyati aholisi asosan savdogarlar, hunarmandlar, taqvodorlar, harbiy askarlar, shuningdek, ziroatkor va chorvador qatlam vakillari sanalgan.

Albatta, ijtimoiy qatlamlar orasida dehqonlar mavqeyining ustunligini alohida qayd etib o'tish zarur. Chunki ular zodagonlar sanalib, aholini boshqa qatlamiga nisbatan boy-badavlat bo'lishgan va yirik yer-mulklariga egalik qilishgan. «Kashavarz» yoki «kishtukorkunandalar» qatlami vakillari dehqonlardan ijaraga yerlarni olib, ma'lum darajada to'lov berish evaziga ish yuritganlar. Akkor, chorikorlar esa mardikorlik qilish bilan kun kechirganlar.

Jamiyatda dindor shaxslarning ahamiyati juda katta edi. Ular turli diniy marosimlar va udumlarni ado etishda ommaga rahbarlik qilardilar. Vag'n, ya'ni ibodatxona xo'jaligi ham ularning qaramog'ida bo'lgan.

Shunday qilib, Turk xoqonligining ijtimoiy tuzumini boy zodagonlar, savdogarlar, xizmatchi amaldorlar, harbiylar, dindorlar, chorvadorlar, dehqonlar va qisman qullar tashkil etgan. Bularni hukmdor, erkin, yarim erkin va qaram tabaqalarga ajratish mumkin.

Turk xoqonligi boshqarish shakliga ko'ra ilk yakka hokimlik davlati edi. Uning tepasida oliy hukmdor — xoqon turgan. Bu lavozim merosiy bo'lgan. Xitoy manbalariga ko'ra, ota doimo o'z o'g'liga taxtni qoldiravermay, balki undan kattaroq turgan qarindoshlariga qoldirishi lozim bo'lgan. Bundan tashqari, shunday hollar bo'lganki, taxt sohibini «ulus oqsoqollari» tayinlagan. Xitoy manbalariga ko'ra, turkiylar xonni taxtga o'tqazishda maxsus marosim o'tkazganlar: amaldorlar bo'lajak xonni kigizga o'tkazib, quyosh yurishi bilan 9 marotaba aylantirganlar, ishtirokchilar uni qutlab turganlar. Keyin xonni otga o'tkazib, bo'yniga ipak mato bog'laganlar. Keyin undan so'raganlar: «Siz necha yil xon bo'lmoqchisiz?» U necha yil xon bo'lishini aytgan, shu muddat tugaganidan keyin taxtdan ketgan. Xoqondan keyingi shaxs «Yabgu» (Bahodir) davlatdagi birinchi amaldor (vazir) vazifasida bo'lgan,

(masalan, Istami yabg'u). Ammo yabg'u taxtga merosxo'rlik qila olmas edi. Taxt merosxo'ri «tegin» (shahzoda) deb yuritilgan. «Tudun» unvoni hukmdorning joylardagi noibi (nazoratchisi)ga berilgan. Ular mahalliy hokimlar siyosatini, boj, soliq ishlarini nazorat qilganlar.

Xoqonlikning markaziy boshqaruv tizimi asosan yirik siyosiy davlat tadbirlari (saltanat osoyishtaligini saqlash, davlat hududini kengaytirish, soliq tizimi, ichki va tashqi savdo, diplomatik munosabatlar va hokazo) bilan mashg'ul bo'lib, joylardagi mahalliy ishlarga ma'lum darajada erkinlikka yo'l qo'yilgan. Shuning uchun ham Farg'ona, So'g'd, Shosh, Tohariston, Xorazm va boshqa joylarda boshqaruv ishi asosan mahalliy sulolalar qo'lida bo'lgan. Xitoy manbalariga ko'ra, So'g'dda kelib chiqishi yuechjilardan bo'lmish Kan sulolasining mavqeyi kuchli bo'lib, So'g'd hukmdori ixshid unvoniga, tobe hokimlar ham o'z unvonlariga ega bo'lgan. Masalan: Kesh hukmdori ixrid unvoniga ega bo'lgan.

O'rta Osiyoda shu paytda 15 taga yaqin mayda davlatchalar bo'lib, shulardan So'g'dda ixshidlar, Toharistonda malikshohlar, Buxoroda buxorudotlar, Xorazmda xorazmshohlar, Choch va Iloqda budunlar, Farg'onada ixshidlar hukmdorlik qilishgan. Ularning hammasi Turk xoqonligiga qaram bo'lib, amalda yarim mustaqil holda edilar.

So'g'd hujjatlariga ko'ra hukmdorlar saroyda quyidagicha mansabni egallashgan: harbiy ma'muriyat boshlig'i – Farg'onada «tutug'», So'g'dda «chapish», ya'ni lashkarboshi, viloyat hokimlari «xvabe» deb yuritilgan. Podsho devonxonasining boshlig'i «dapirapat» deb atalgan. Bundan tashqari, gupat – daromadlar noziri, ya'ni moliya ishlari bilan shug'ullanuvchi mansabdor, oxvirpat – podsho otxonasining noziri (boshlig'i), parvanak xirok – hujjatlar tuzuvchi mansabdor, patxvanak (patxvana) – jazoni ijro etuvchi jallod lavozimidagi shaxslar bo'lgan.

Turk xoqonligining armiyasi otliq qo'shin, alohida o'lkalarning hokimligidagi otliq qo'shinlar, piyodalardan iborat shaxsiy qo'riqchilardan tashkil topgan. O'lkalar xoqonga o'lpon to'lab turishgan.

5.3. Ilk o'rta asrlarda O'zbekistonda huquqning asosiy belgilari

Turk xoqonligi davridagi huquq manbalariga oid ma'lumotlar bizgacha kam yetib kelgan. Lekin o'sha vaqtda hukmdor bo'lgan turkiy xalqlar ichida qaysi dinga e'tiqod qilishiga qarab, zardushtiylik, budda, manexeylik dinlarining muqaddas kitoblari, odat huquqlari, xoqon va yabg'ularning buyruq, farmon va boshqa hujjatlari bo'lganligi, ular asosida turli huquqiy munosabatlar tartibga solinganligi to'g'risidagi ma'lumotlar uchraydi.

Turk xoqonligida qadimiy turklarning odatiga ko'ra, ayol kishi – ona nihoyatda qadrlangan. Turk odat huquqlariga ko'ra, xotin-qizlar

to'la vorislik huquqiga ega bo'lganlar — qonun ayollarni qattiq himoya qilgan. Agar biror erkak ayolning nomusiga tegsa, erkak o'limga mahkum qilingan. Yoki erkak yosh qizning nomusini poymol qilsa, unga uylanishi shart bo'lgan. Nomusga tegish eng og'ir jinoyatlar (qo'zg'olon, xoinlik, odam o'ldirish, yo'lga shaylab qo'yilgan otni o'g'irlash) bilan bir qatorga qo'yilgan. Bezorilik oqibatida tana a'zolariga shikast yetkazishga mulkiy jazo — zararni to'latish (qoplash) jazosi berilgan. Bunda keltirilgan zararning darajasi e'tiborga olingan. Masalan, bezorilik orqasida biror kishining ko'ziga jarohat yetkazilsa, jabrlanuvchiga qizini erga berishi, qizi bo'lmasa, uylanishi uchun zarur mulkni taqdim etishi lozim edi. Tana a'zolaridan birortasini ishdan chiqarsa, bu zarar ishga yaroqli ot bilan qoplanishi lozim bo'lgan. Otni yoki boshqa ashyolarni o'g'irlaganlik uchun o'g'irlangan ashyo qiymatining o'n barobarini undirib olish bilan cheklanilgan.

Shu davrda Samarqandda «Turk qonunnomasi» amalda bo'lib, u ibodatxonada saqlangan. Jazo berish vaqtida qonunnoma qo'lga olinib, shunga asosan jazo tayinlangan. Og'ir jinoyatlar uchun butun urug', uncha muhim bo'lmaganlari uchun esa jinoyatchining o'zi qatl etilgan. O'g'irlik uchun aybdorning oyog'i qirqib tashlangan. Ko'pgina tarixiy asarlarda Turk xoqonligi davridagi maxsus «Jinoyat va jazo» qonunlari to'plami haqida ma'lumotlar keltiriladi. Ammo bu nizom bizgacha to'la yetib kelmagan yoki hozircha topilmagan. Shuning uchun uning to'liq mazmuni haqida fikr yuritish qiyin.

O'zbekiston hududida bizgacha yetib kelib, mazkur davrdagi huquq manbalarini o'rganishga yordam beradigan hujjatlar to'plami sug'd hujjatlaridir. Ular 1933-yilda Mug' tog'idagi qal'a xarobalaridan deyarli 1200-yildan keyin topilgan. Hujjatlarning tarixiy-huquqiy ahamiyati hozircha juda kam o'rganilgan. Ular orasida Panj hokimiga yuborilgan xatlar, viloyatlardan kelgan ma'lumotlar, moliya-xazima hujjatlari, turli tilxatlar, mulk ijarasi, nikoh shartnomasiga bag'ishlangan, Panjakent hukmdori Chakin Chur Bilga 707—708-yillarda yer sotib olganligi haqidagi va boshqa hujjatlar bor.

VI—VIII asrlardagi Sug'd yuridik-notarial hujjatlari Turk xoqonligi va uning tarkibiga kirgan So'g'dda huquqning ancha rivojlanganligini ko'rsatadi. VII asrlarda bu yerda maxsus sud-notarial organlari mavjud bo'lib, yuridik hujjatlar guvohlar oldida yozma shaklda tuzilib, muhr bilan tasdiqlangan. Qadimgi Sug'd podsholarining o'zlari ham ko'plab yer, suv mulklariga ega bo'lgan yirik feodallar edilar.

«So'g'd» hujjatlarining huquq nuqtayi nazaridan eng ahamiyatlisi yerni xarid qilish, tegirmonni ijaraga berish, nikohni qayd qilish, kuyovning kelin tomon oldidagi majburiyatlari haqidagi shartnomalardir. Yerni xarid qilish haqidagi shartnomada uning tuzilgan vaqti, yerni sotib oluvchi va

sotuvchining nasl-nasabi, nomi, yerning joylashgan joyi, chegaralari, miqdori, shartnomada ishtirok etuvchilarning huquq va burchlari, ularga rioya qilmaslikdan kelib chiqadigan oqibatlar, shartnomani tuzishda ishtirok etgan guvohlar va uni rasmiylashtirgan kishining nasl-nasabi va nomi ko'rsatilgan. Tegirmon ijarasi haqidagi hujjatda uning tuzilgan vaqti, ijara beruvchi va oluvchining nomlari, tegirmonning joylashgan joyi, quvvat manbalari, jihozlari, ijara muddati va haqi, ijara shartlariga rioya qilmaslik oqibatlari, ijara olingan mulkdan foydalanish, ijara haqini to'lashning qonunga muvofiq bo'lishi, qonunsizlik – xiyonat va adolatsizlik qanday oqibatlarni keltirib chiqarishi, hujjatni rasmiylashtiruvchi va bu jarayonda ishtirok etgan guvohlar nomlari ko'rsatilgan. Hujjat muhr bilan tasdiqlangan.

Nikohni qayd qilish haqidagi hujjat laqabi Nidon bo'lgan Uttakin Navekat hukmdori Cher Vaxzanak o'g'lining homiyligidagi Viyusning qizi nomi Dugduncha, laqabi Chatani xotinlikka olishi haqida tuzilgan. Unda Uttakin Chatani sevikli xotin sifatida hurmat va ehtirom bilan oziq-ovqat, kiyim-kechak, bezak taqinchoqlar bilan ta'minlashi, e'zozlab, muhabbat bilan o'z uyida podshohoyim sifatida saqlashi. Chata esa Uttakinni sevikli er sifatida hurmat va ehtirom bilan asrashi, u erining baxt-saodati haqida qayg'urishi, uning buyrug'ini o'ziga qonun deb hisoblashi lozimligi qayd qilingan. Hujjatda yozilishicha, agar kelajakda Uttakin Chatani xotin qifmaynan degan qarorga kelsa, bu holda uni qo'yib yuborishi, birgalikda yashagan vaqtida olgan shaxsiy narsalari va tovon pulini berib, hech qanday shartlarsiz jo'natib yuborishi, agar Chata Uttakinga bundan buyon xotin bo'lmaslik qaroriga kelsa, unda xotinlikdan chiqib ketishi, bu holda u Uttakinga kiyishga yaroqli kiyimlar qoldirishi, Uttakindan olgan bezak taqinchoqlarni va boshqa narsalarni tashlab ketishi, lekin Chata o'ziga tegishli va birgalikdagi hayoti davomida orttirgan mulkini olib ketishi kerak bo'ladi. Shuningdek, Chata, hujjatda qayd qilinishicha, boshqa hech narsa bo'yicha tovondor bo'lmaydi, u o'zi xohlagan kishiga turmushga chiqishi mumkin. Ajrimdan so'ng Uttakin va Chata bir-birlarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari uchun javob bermaydi. Nikohni qayd qilish haqidagi hujjat qonunlar uyida, uning boshlig'i huzurida uchta erkak guvohligida kotib tomonidan tuzilgan.

Kuyovning kelin tomon oldidagi majburiyatlari haqidagi hujjatda kuyov Uttakinning kelin Chataning urug'-aymoqlari oldidagi burchlari o'z aksini topgan. Hujjatda ko'rsatilishicha, u tuzilgan kundan Chata toabad Uttakinga xotin bo'lib qolajak va kuyov kelin tomon oldidagi Chatani sotmaslik, qarz evaziga qullikka ham bermaslik, biror kimsaning homiyligidagi o'z mulkiga aylanishiga ham yo'l qo'ymaslik, agar kimdir Chatani Uttakindan bevosita yoki sirtidan tortib olsa, uni tahqirlasa,

uni shu zahotiy oq, hech qanday ziyon-zahmatsiz ozod qilish majburiyatlarini oladi. Bu hujjat ham «Qonunlar uyida» nikohni qayd qilish bitimi kabi tartibda tuzilgan.

Sugʻddagi nikoh oʻzining fuqarolik holati dalolatnomasi sifatida, shartnoma shaklida, davlatning maxsus tashkiloti – qonuniy harakatlarni sodir etish joyida tuzilganligi bu yerda oila va nikoh huquqi rivojlanganligidan dalolat beradi.

Turk xoqonligi odat huquqlarigagina emas, yozma qonunchilik toʻplamiga ham ega edi. Bu toʻplam asosan, jinoyat va jazo masalalarini tartibga solgan. Shuning uchun aytish mumkinki, oila va nikoh qonun hujjatlari bir-birini toʻldirib, shu davrdagi yagona huquqiy manbalar toʻplamini va huquqiy tizimni tashkil etgan deb hisoblashimiz mumkin.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

- 1. Turk xoqonligining vujudga kelishi va hukmronligining oʻrnatilishi qay tarzda kechgan?*
- 2. VI–VII asrlardagi Xorazm, Soʻgʻd va Fargʻona davlatlari haqida gapirib bering.*
- 3. Turk xoqonligining ijtimoiy tuzumi haqida gapirib bering.*
- 4. Turk xoqonligining davlat tuzumi qanday boʻlgan?*
- 5. Turk xoqonligining ijtimoiy-siyosiy tuzumi ilk davlatlar ijtimoiy-siyosiy tuzumidan farqlari nimalardan iborat?*
- 6. Turk xoqonligida odat huquqi normalari qanday edi?*
- 7. Sugʻd yuridik-notarial hujjatlarining huquqiy ahamiyati haqida gapirib bering.*
- 8. Sugʻd yuridik-notarial hujjatlarining siyosiy tuzumda tutgan oʻrni haqida gapirib bering.*

III BOB. ARABLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA DAVLAT VA HUQUQ

6-MAVZU: ARABLAR ISTILOSINI VA MOVAROUNNAHRNING IJTIMOIY-SIYOSIY TUZUMI (VII–VIII ASRLAR)

1. Turkiston yerlarining arablar tomonidan bosib olinishi va ijtimoiy-iqtisodiy tuzumda yuz bergan o'zgarishlar.
2. Arab xalifaligi hukmronligi davrida Movarounnahrning davlat tuzumi.

6.1. Turkiston yerlarining arablar tomonidan bosib olinishi va ijtimoiy-iqtisodiy tuzumda yuz bergan o'zgarishlar

Arablarning mamlakatimiz hududiga uyushtirgan harbiy yurishlarini ikki davrga bo'lish mumkin. Birinchi davr 650–705-yillarni o'z ichiga olsa, ikkinchi davr 705-yildan keyingi davrdir. Arablar birinchi davrda O'rta Osiyo hududlarini zabt etishni emas, balki bunday maqsaddagi harbiy yurishlar uchun tayyorgarlik ko'rish, mahalliy hukmdorlarning kuch-qudratlarini sinovdan o'tkazish, o'lkaning geografik joylanish hududiy sharoitlarini o'rganish va kichik-kichik harbiy yurishlar qilib, o'lkaning boylik va o'ljalari tashib olib ketishni o'z oldilariga vazifa qilib qo'ygan edilar. Birinchi yurish 651-yilda noib Abdulloh ibn Amir hukmronligi davrida bo'lgan. 651–652-yillarda arablar Xurosondagi bir qator shaharlarni egallab, Balx va Chag'oniyonni bosib oladilar. 666 (46)-yilda Ziyod bin Abu Sufyon Amudaryo bo'ylariga keladi, Marvni qayta talaydi. 670-yilda Xuroson noibi Ubaydulloh ibn Ziyod Buxoroga qo'shin tortib keladi, Romiton va Boykandni egallaydi. Buxoroda bu davrda taxtni malika Xotun boshqarar edi. 676 (56)-yilda Buxoroga Sa'id ibn Usmon qo'shin tortib kelgan. So'g'diyona, Kesh, Nasaf qo'shinlarini tor-mor qilgan. Ana shu yurishlar davrida arablar O'rta Osiyodan juda ko'plab zeb-ziynat, boyliklar va asirlarni o'z yurtlariga olib ketadilar.

685–705-yillarda xalifalik taxtni Abdumalik ibn Marvon boshqardi. U Qutayba ibn Muslimni Xurosonga o'zining noibi (704–705) etib tayinladi. Ana shu davrdan boshlab arablar tomonidan Movarounnahrni zabt etishning ikkinchi davri boshlandi. Endi ular O'rta Osiyoni batamom bosib olishni o'z oldilariga asosiy maqsad qilib qo'ydilar. 705-yilda boshlangan hujum natijasida Qutayba ibn Muslim Balx, Chag'oniyon, Shumanni egallab, O'rta Osiyo janubidagi kichik viloyatlarni o'ziga bo'ysundiradi. U 706-yilda Boykandni, 708–709-yillarda Buxero va

uning atrofidagi yerlarni egallaydi. 710–712-yillarda Xorazmshoh Chagʻon Qutayba bilan tinchlik bitimi tuzadi va 10 ming qoramol miqdorida boj toʻlaydi. Qutayba endi oʻz nigohini Samarqandga qaratadi. Unga Xorazmshoh va Buxorxudot qoʻshinlari yordam berdilar. Bu paytda Samarqandda norozilik qoʻzgʻoloni boʻlib, Tarxun taxtdan agʻdarilgan edi. Samarqand taxtiga Tarxunning ukasi Gʻurak (710–737) oʻtirgan edi. U arablarga qattiq qarshilik koʻrsatsa-da, yengildi. Ikki oʻrtada sulh tuzildi. Shartnomaga koʻra, Gʻurak Soʻgʻd, Kesh, Nasaf hokimi sifatida tan olindi. Gʻurak Qutaybaga 3000 ta qoʻy, 50.000 misqol oltin, 2 mln. dirham pul, 2000 boʻlak gazmol toʻlash majburiyatini oldi. Qutayba Samarqanddan ketish paytida bu yerda oʻz ukasi Abdurahmon ibn Muslimni saralangan qoʻshin bilan qoldiradi. Ammo 712-yilda shaharda arablarga qarshi qoʻzgʻolon koʻtarildi. Qoʻzgʻolon faqat 713-yil bahoridagina Qutayba tomonidan shafqatsizlarcha bostirildi. Biroq arablarga qarshi kurash toʻxtamadi. Bu gal arab istilochilariga qarshi Soʻgʻd, Choch, Fargʻona ittifoq tuzadi. Ittifoqqa Panjikent hokimi Divashtich ham qoʻshiladi. Qutayba faqat 715-yil boshidagina Buxoro, Kesh, Nasaf va Xorazmdan 20 ming askar yordam olgach, raqiblarini tor-mor keltira oldi, xolos. U oʻsha yili Qashqargacha boʻlgan yerlarni bosib oldi va hamma viloyatlarda arab amirlarini noiblikka qoʻydi. Xuddi shu yili arab xalifasi Volid vafot etadi. Uning oʻrniga taxtga Sulaymon ibn Abdumalik oʻtiradi. Qutayba unga boʻysunmay qoʻzgʻolon koʻtardi. Biroq Qutaybaning oʻzi 715-yilda Fargʻonada askarlar tomonidan oʻldirildi.

Shunday qilib, arablar Oʻrta Osiyoni bosib olish uchun oʻn yil jang qildilar va uni oʻz mustamlakalariga aylantirdilar. Buning eng asosiy va bosh sababi oʻlka xalqlari oʻrtasida birlik va ahillikning boʻlmaganligi, aholining har xil diniy gʻoyalarga sigʻinganligidir.

Arablar Movarounnahrni istilo qilganidan soʻng, bu hududning yer-mulklari xalifaga qarashli boʻlib qoldi. Ilgarigi yerlar, masalan, Buxoroda yirik zodagon qatlam – buxorxudotlarning xususiy mulki sanalsa, endilikda ular xalifalik mulklariga aylandi. Yirik yer egalari – dehqonlar arab xalifaligi davrida ham oʻz yerlarining egalari boʻlib qoldilar, biroq ular endilikda ijaradorga aylanib, daromadning maʼlum qismini xalifalik xazinasiga joʻnatish majburiyatini olgan edilar. Koʻp xudolifikka sigʻinuvchi xalqlarning hududlari arablar tasarrufiga oʻtganidan soʻng, bu aholining katta qismi, asosan islomni qabul qilmaganlar soliq toʻlovchilar sanalar va ular zimmiylar deb atalar edi.

Movarounnahrda qishloqlarda yerlar mayda xoʻjaliklar tomonidan ishlov berilgan. Yirik yer egalari – dehqonlar yerlarini mayda boʻlaklarga taqsimlab ziroatkorlarga ijara tarzida boʻlib berishgan. Mehnatkashlar tarkibiga yarim ozod kadivarlar, ozodlikka chiqqan qullar va qaram

qullar kirar edi. Dehqonlarning arablar bilan yaqinlashuvi, ularni istilochilar uchun ishonchli xizmatkorligini ta'minlash bilan bir qatorda, yer-mulklari va boshqa boyliklarini muhofaza qilinishiga imkoniyat yaratdi. So'g'diylarning asosiy qismi jiz'ya va xiroj to'lashgan (jiz'ya jon solig'i bo'lsa, xiroj yer solig'i hisoblanar edi). Xiroj hosilning ma'lum miqdorida, ko'pincha u yalpi mahsulotning uchdan bir qismi hisobida olingan. Soliqning bunday turi «muqassama» degan nomda ham aytilgan.

Movarounnahrning xiroj to'lovchi mehnatkashlar guruhi «harros» atamasi bilan nomlangan. Xo'janddagi aholining qo'zg'oloni 723-yilda bostirilgandan so'ng arablar jamoatchilarni xiroj va jiz'ya solig'i to'lashga majburlab, ularning bo'yinlariga qo'rg'oshindan qilingan muhrlar — xavatim osib yurishni talab qilganlar. Bunday muhrlarda ma'lum joyning nomi bilan bir qatorda to'lanadigan soliq miqdori qayd etilgan. Arab manbalarida ijarachilar akkor, sharik, munasif, fors manbalarida barzikor yoki kadivar deyilgan.

Movarounnahr va unga qo'shni hududlarda jamoachilar soliqlar, uzluksiz urushlar, talon-tarojlardan qiynalib yirik yer egalaridan panoh izlashga intilishgan. Bu jarayonda jamoachilar yerni ishlash huquqini saqlab qolgan holda yirik zamindorga soliq to'lash asosida o'zaro kelishib olganlar. Zamindorlarning jamoachilar bilan bunday munosabati «ilja'», «at-talji'a», «al-malaja» atamaları bilan izohlangan.

Soliq yig'uvchilar «amil» degan nom bilan yuritilardi. Bag'doddan Buxoroga maxsus soliq yig'uvchi kelib, soliqlarni o'zi jamlab olib ketardi. Soliqlar pul yoki mahsulot shaklida olingan.

Soliq Movarounnahrda boshqa viloyatlardagi singari uch xil shaklda yig'ilgan: 1. Qavonin yoki muqati'a — inayda viloyatlar va tumanlardan xazinaga tushib turgan yig'in. 2. Maqosima — hosilning ma'lum ulushi miqdorida to'langan. Uning hajmi sug'orishga bog'liq holda belgilangan. 3. Misoxa — yer hajmiga qarab miqdori belgilanadigan soliq bo'lib, unda ekin ekilishi yoki ekilmasligiga e'tibor berilmagan.

Shunday qilib, xiroj xalifalikning mulki va xazinaga tushadigan daromadning asosini tashkil etar edi. Yer solig'ining bir qismi sug'orish inshootlari barpo etishga sarflangan, boshqa qismi esa xalifa xazinasini to'ldirar edi.

Oziq-ovqat narxi oshgan taqdirda, soliq to'lovchilardan ortib qolgan mahsulot ham yig'ilgan. Oziq-ovqat mahsulotlari qimmatlashgan taqdirda soliq to'lovchilardan faqat mahsulot olinar edi. Mabodo soliq to'lashga qurbi yetmasa, u holda sotib olib bo'lsa ham to'lashga majbur edi.

Soliq yig'uvchilarning o'zboshimchaliklari, talon-tarojliklar, urushlar, hosilsizliklardan zarar ko'rgan oddiy ijaradorlar tobora xonavayron bo'lib bordilar. Movarounnahrda bu jarayon ijtimoiy toifalar orasidagi farqni

keskin o'zgartirdi. Ozod va erkin jamoachilar orasidan ko'pchiligi yer-mulknini ijaraga olib soliq to'lar va umuman zodagon kishi – dehqonga qaram edi. Soliq yig'ish va xalifalik xazinasini to'ldirishning boshqa bir usuli – bu islomni qabul qilmaganlardan jon solig'i va xiroj olinishi bo'lgan. Isyon ko'targan va qo'zg'olonlarda qatnashgan aholining mulklari tortib olinar, o'zlari qatl qilinlar, ular joylashgan joylar iqta tarzida harbiylar va amaldorlarga bo'lib berilar edi. Shu tarzda xalifalik iqtisodiy hayoti Movarounnahrda xo'jalikka, aholi turmushiga katta ta'sir ko'rsatdi.

6.2. Arab xalifaligi hukmronligi davrida Movarounnahrning davlat tuzumi

O'zbekiston hududi arablar tomonidan bosib olinganidan so'ng Arab xalifaligi tarkibiga kirgan. Arab xalifaligi feodal teokratik davlat bo'lib, uning tepasida xalifa turgan. Xalifaga davlatdagi barcha dunyoviy hamda diniy hokimiyat tegishli bo'lgan. Arab xalifaligi tomonidan bosib olingan viloyatlar tepasida xalifa tomonidan tayinlanadigan amirlar turgan. O'zbekiston hududini xalifaning Xuroson va Movarounnahr bo'yicha noibi idora etgan.

Noib alohida shaharlar va aholi punktlarining hokimlarini, shayxlarini taymlagan. Ular mahalliy aholidan o'lponlar yig'ishi hamda jamoat tartibini saqlab turish kabi vazifalarni bajarib turgan. Ba'zi shaharlarning hokimlari ma'muriy-moliyaviy ishlardan tashqari, hatto harbiy kuchlarni ham boshqarganlar. Ko'p joylarga arablar o'z harbiy qismlarini joylashtirgan edilar. Ular mahalliy aholini tutqunlikda ushlab turganlar. Arablarning ma'muriy apparati va mirshablari bo'lgan, hokimlarning esa shaxsiy qo'riqchilari mavjud edi.

VIII asr o'rtalariga kelib Movarounnahr hududida siyosiy boshqaruv arab xalifaligi siyosiy tizimiga moslashtirilgan edi. So'g'diyonada buxorxudotlar va boshqa hukmdorlarning qo'li ostidagi ma'muriy idora usuli o'z shaklini saqlab qolgan bo'lishiga qaramay, hokimlarning xalifa noibiga itoat etishlari shart edi. Mahalliy davlat boshliqlarining ko'pchiligi o'z huquqlari va imtiyozlarini saqlab qolish maqsadida islom dinini qabul qilgan edilar. Islomni qabul qilmagan zodagonlar o'z yerlaridan mahrum etilar yoki tovon to'lar edilar.

Arablar Movarounnahrni istilo qilganlaridan so'ng, bu hududning yer-mulklari xalifaga qarashli bo'lib qoldi. Ilgari yerlar Buxoroda yirik zodagon – buxorxudotlarning xususiy mulki sanalsa, endilikda ular xalifalik mulklariga aylandi.

Xalifa davlatni boshqarishda vazir ul-vuzaro (ulug' vazir)ga tayangan. Harbiy ishlar, harbiy qo'shinlar amir ul-umaro qo'li ostida edi. Xalifa

turli masalalarni devon ad-dar, ya'ni kengashda ko'rib chiqar edi. Devon ad-dar uchta asosiy devonga bo'lingan: ular devon al-mashriq, devon al-mag'rib va devon al-harajdan iborat bo'lgan. Movarounnahrda tegishli masalalar devon al-mashriqda hal etilar edi.

Xalifa viloyat noiblarini lavozimiga tayinlash yoki bo'shata olish huquqiga ega edi. Xalifalikning huquqiy masalalari Qur'oni Karim va Rasululloh (s.a.v.) ko'rsatmalari, nasihatlariga asoslangan holda ko'rib chiqilgan.

Shunday qilib, VIII asr o'rtalariga kelib Movarounnahr hududida siyosiy boshqaruv arab xalifaligi siyosiy tizimiga moslashtirilgan edi. So'g'diyonada buxorxudotlar va boshqa hukmdorlarning qo'li ostidagi ma'muriy-idora usuli o'z shaklini saqlab qolgan bo'lishiga qaramay, hokimlarning xalifa noibiga itoat etishlari shart edi. Mahalliy davlat boshliqlarining ko'pchiligi o'z huquqlari va imtiyozlarini saqlab qolish maqsadida islom dinini qabul qilgan edilar. Islomni qabul qilmagan zodagonlar o'z yerlaridan mahrum etilar yoki tovon to'lar edilar. Shu tarzda arablar Movarounnahr siyosiy tizimi va diniy e'tiqodiga o'z ta'sirini o'tkaza oldilar.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

1. *Turkiston yerlarining arablar tomonidan bosib olinishi qanday kechgan?*
2. *Arablar istilosidan so'ng Movarounnahrda qanday o'zgarishlar yuz berdi?*
3. *Arablar davrida Movarounnahrning ijtimoiy tuzumi qanday edi?*
4. *Arablar davrida qanday ijtimoiy tabaqalar mavjud edi?*
5. *Arablar davrida qanday soliq turlari mavjud bo'lgan?*
6. *Arab xalifaligi davrida Movarounnahrning boshqaruvi qanday amalga oshirilgan?*
7. *Arablar xalifaligi davrida boshqaruv tizimida qanday o'zgarishlar qilingan va ularning ahamiyati qanday bo'lgan?*
8. *Arablar ijtimoiy tuzumining avvalgi davlatlarning ijtimoiy tuzumidan farqlari nimalardan iborat?*

7-MAVZU: ISLOM HUQUQINING ASOSIY BELGILARI VA XUSUSIYATLARI

1. Islom huquqining vujudga kelishi va rivojlanish xususiyatlari.
2. Islom huquqi manbalari.
3. Shariat bo'yicha mulkiy munosabatlarning tartibga solinishi.
4. Shariatda nikoh-oila va meros huquqi.
5. Shariatga binoan jinoyat huquqi va sud ishlarini yuritish tartibi.

7.1. Islom huquqining vujudga kelishi va rivojlanish xususiyatlari

Islom huquqi — shariat oʻrta asrlardagi Sharq sivilizatsiyasining juda katta hodisasi hisoblanadi. Bu huquqiy tizim Arab xalifaligi doirasida vujudga kelib, rasmiylashgan va asta-sekin xalqaro ahamiyat kasb etib borgan. Uning rivojlanish jarayoni arab davlatchiligidning VII asr boshida (Muhammad salolohu alayhi vassallam davrida) kichik patriarxal diniy jamoadan VIII–X asrlarda (umaviylar va abbosiyalar davrida) yirik imperiyalardan biriga oʻsib oʻtishi jarayoni bilan chambarchas bogʻliq.

Arab xalifaligi qulagandan soʻng islom huquqi nafaqat oʻzining ilgari ahamiyatini yoʻqotdi, balki yanada taraqqiy etdi, xuddi oʻrta asrlarda Yevropadagi Rim huquqi singari «ikkinchi marotaba dunyoga keldi» hamda oʻrta asrlardagi Osiyo va Afrikaning u yoki bu darajada islomni qabul qilgan qator mamlakatlari (Misr, Hindiston, Usmoniylar imperiyasi va boshqa koʻpgina davlatlari)ning amaldagi huquqida ham islom huquqi arab istilosidan boshlab to «qizil imperiya» hukmronligi oʻrnatilgunga qadar muhim oʻzgarishlarsiz harakatda boʻldi.

Islom huquqi oʻzidan oldingi Sharq huquqiy madaniyatining koʻpgina elementlarini, jumladan, islomga qadar Arabistonda va arablar tomonidan bosib olingan hududlarda harakatda boʻlgan huquqiy odatlar va anʼanalarni ham oʻzida aks ettirdi. Masalan, umaviylar davrida ancha vaqtgacha sasoniylar, Eron, Vizantiya huquqi, shuningdek, qisman Rim huquqi ham ahyon-ahyon qoʻllanib turilgan. Ushbu manbalar tashqi jihatdan kam ahamiyatli boʻlsa-da, shariatning vujudga kelishida maʼlum oʻrin tutgan. Lekin, ularning oqibatda shariatning betakror va oʻziga xos, mustaqil va original huquqiy tizim sifatida shakllanishiga hech qanday aloqasi yoʻq. Shariatning vujudga kelishida Muhammad (s.a.v.) va dastlabki toʻrtta xalifaning oʻrni juda katta. Aynan ularning hukmronligi davrida musulmonlarning muqaddas kitoblari — Qurʼoni Karim va Sunna tuzilgan.

Shariat eng boshidan (hech boʻlmaganda dastlabki ikki asr mobaynida) qatʼiy diniy huquq sifatida vujudga keldi va rivojlandi. U islom ilohiyoti bilan uzviy qoʻshilib ketdi, uning diniy axloqiy tasavvurlarini mujassam etdi. Islom taʼlimoti boʻyicha dimiy qoidalar yagona Alloh tomonidan oʻrnatilgan tartib va qonunlarning bir qismi boʻlib, ular bilan butun dunyo boshqariladi. Ayniqsa, dastlabki vaqtlarda umuman shariat va xususan fiqh¹ oʻzida faqat huquqiy qoidalarni aks ettiribgina

¹ *Fiqh (arabcha – tushunish)* – musulmon huquqshunosligi, shariat qonun-qoidalarni ishlab chiqish bilan shugʻullanuvchi islom ilohiyotining bir sohasi.

qolmay, diniy ta'limot va axloqni ham mujassam etgan. Shariatda din, axloq va huquqning bunday qo'shilib ketganligi, bir-biridan ajralmaganligi, bo'linmaganligi o'ziga xos ifodasini shundan topgan ediki, uning normalari (qoidalari, ko'rsatmalari) bir tomondan ijtimoiy («kishilik») munosabatlarni tartibga solgan, ikkinchi tomondan esa – musulmonlarning Alloh bilan munosabatlarini (ibodat qilishlarini) belgilagan. Shariatning ilohiy tatbiq etilishi va diniy-axloqiy asoslari huquqni tushunishning, shuningdek, qonuniy va noqonuniy xatti-harakatga baho berishning o'ziga xosligida o'z aksini topgan. Masalan, huquqning islom ilohiyoti bilan chambarchas bog'liqligi shariatda har bir musulmon tomonidan sodir etilishi lozim bo'lgan yoki mumkin bo'lmagan xatti-harakatlarning aniq ko'rsatib qo'yilganligida o'z ifodasini topgan. Shariatda barcha xatti-harakatlar dastlab ikki turga – harom va halolga ajratilgan. Keyinchalik shariat shakllanib tugallangan davrda beshta toifa vujudga kelgan. Bular: farz – bajarilishi qat'iy majburiy hisoblangan xatti-harakatlar; mandub (sunnat) – majburiy emas, lekin ma'qul, lozim deb hisoblangan normalar; muboh – ixtiyoriy normalar; makruh – noma'qul normalar; harom – qat'iy ravishda taqiqlangan xatti-harakatlar. Bular ham huquqiy, ham axloqiy-diniy mazmunga ega bo'lib, majburlovchi, tavsiya qiluvchi, yo'l qo'yuvchi, lekin jazo qo'llanilmaydigan, taqiqlovchi va jazoga loyiq (mustahiq) xarakterdadir.

Shariat uchun, ayniqsa uning rivojlanishidagi dastlabki bosqichlarda, musulmonning huquqlariga emas, balki uning Alloh oldidagi burchlariga e'tibor berish xarakterlidir. Shariatda musulmonlarning bunday majburiyatlarini o'rnatuvchi normalar juda ko'p bo'lib, ular musulmonning butun hayotini (har kuni besh vaqt namoz o'qishi, ro'za tutishi, dafn marosimlariga rioya qilishi va hokazo faoliyatini) belgilaydi. Shariat normalarining o'ziga xos xususiyati aynan ushbu normalarning faqat musulmonlarga va musulmonlar o'rtasidagi munosabatlarga tatbiq qilinishida ekanligi ham tasodifiy emas. Ilk islom va shariatga jamoa tuzumidan o'sib chiqqan normalar – qoidalar xosdir. Bunday normalarda jamoachilik, rahmdillik, mayib-majruh va boshqa nochor kishilar haqida g'amxo'rlik belgilari saqlanib qolgan edi. Biroq, albatta shariatda insonning xudo oldida o'zligi haqidagi, unga so'zsiz itoat etishi haqidagi tasavvurlar ham o'z ifodasini topgan. Qur'oni Karimda musulmon uchun sabr-toqat va mo'minlik zarurligi alohida ta'kidlanadi: «Sabr qiling, Alloh sabr qiluvchilar bilan». Shu tariqa shariatda musulmonning xalifaga va davlat hokimiyatiga bo'ysunish majburiyati mustahkamlangan: «Allohga bo'ysuning va uning elchisiga va oralaringizdagi hokimiyat egalariга itoat eting».

Shariatning dastlab o'ta ilohiy-diniy xarakterda bo'lganligi uning huquqiy tuzilishi va tushunchalarining o'ziga xosligini belgilagan, aql-idrokka

asoslangan huquq ijodkorlik faoliyatiga to‘sqinlik qilgan. Biroq, VIII–IX asrlarda shariat patriarxal jamoa va qabilaviy idrok qilish doirasidan tashqari chiqib, feodallashayotgan ijtimoiy munosabatlar bilan to‘qnash kelgan va juda ko‘p musulmon ilohiyotchi huquqshunoslarining faol sa’y-harakatlari sharofati bilan tobora ko‘proq darajada aql-idrokka asoslangan huquq sifatida namoyon bo‘la boshlagan. Musulmon huquqshunos olimlari shariatning asosiy va an’anaviy qoidalarini saqlab qolgan holda sof yuridik tabiatga ega bo‘lgan ko‘pdan ko‘p huquqiy ta’limotlar va normalar ishlab chiqdilar. Abu Hanifa an-Nu‘mon ibn Sobit (699–767-yillar), Malik ibn Anas Abu Abdulloh (721–795-yillar), Abu Abdullo Muhammad ibn Idris ash-Shofi‘iy (767–820-yillar), Ahmad Abu Abdulloh ash-Shayboniy ibn Hanbal (tug‘ilgan yili ma’lum emas – 825-yillar) va boshqalar musulmon dunyosida juda mashhur va nufuzli bo‘lganlar.

O‘rta asrlardagi, ayniqsa dastlabki paytlardagi, musulmon huquqini tavsiflovchi muhim belgilardan biri uning nisbatan yaxlitligi, butunligida edi. Unda yakka xudo – Alloh haqidagi tasavvurlar bilan birga universal xarakterga ega bo‘lgan yagona huquqiy tartibot haqidagi g‘oya ham o‘rnatilgan. Darhaqiqat, dastlab Arabiston yarim orolida vujudga kelgan islom huquqi xalifalikning chegaralari kengaya borishi bilan ko‘pdan ko‘p yangi hududlarga tarqalgan.

Biroq, islom huquqi avvalo hududiy emas, diniy, masjidlarga oid tamoyil asosida maydonga chiqqan. Har bir musulmon u qayerda, qaysi mamlakatda bo‘lishidan qat’i nazar, shariatga rioya qilishi, islomga sodiq qolishi lozim. Islomning asta-sekin keng tarqala borishi va jahon dinlaridan biriga aylanishi bilan shariat o‘ziga xos jahon huquqiy tizimi bo‘lib qoldi. Shariatning ana shunday yaxlit, bir butun huquqiy tizim sifatida maydonga chiqishi uning g‘arbiy Yevropa mamlakatlari huquqidan farq qiluvchi muhim jihatlaridandir. Ma’lumki, g‘arbiy Yevropa mamlakatlarida huquq xilma-xilligi, bir butun, yaxlit emasligi, harakat doirasining cheklanib qolganligi, ichki qarama-qarshiliklari va boshqa jihatlari bilan tavsiflanadi.

Shariat diniy huquq sifatida Yevropa mamlakatlaridagi kanonik (diniy, muqaddas, qat’iyilashgan, o‘rnak bo‘lib qolgan) huquqdan ham farq qilib, ijtimoiy va cherkov hayotining faqat aniq ko‘rinib turgan sohalarinigina emas, balki keng qamrovli va juda ko‘p masalalarini o‘z ichiga olgan huquqiy tizim sifatida maydonga chiqdi. Islom huquqi – shariat dastlab Osiyo va Afrikaning bir qator mamlakatlarida o‘rnatilgan bo‘lsa, so‘ngra vaqt o‘tishi bilan uning harakat doirasi O‘rta Osiyo, Kavkazorti, Shimoliy, shuningdek, qisman Sharqiy va G‘arbiy Afrika, Janubiy-Sharqiy Osiyodagi qator mamlakatlarga ham tarqaladi. Biroq islom va shariatning bunchalik shiddat bilan va keng tarqalishi unda tobora mahalliy xususiyatlarning namoyon bo‘lishiga olib keldi. Buning

natijasida alohida huquqiy institutlarni sharhlash va muayyan huquqiy nizolarni hal qilishda shariatda turli qarama-qarshiliklar, turli xil yondoshuvlar yuzaga kelgan. Oqibatda esa islomda turli oqimlar, yo'nalishlar va mazhablar paydo bo'lgan.

7.2. Islom huquqi manbalari

Islom huquqining manbalarini asosan shariat, urf-odatlar va qonunlar tashkil etadi. «Shariat» so'zi arabcha «sharia», «shar'» so'zlaridan olinib, uning lug'aviy ma'nosi «suvga olib boradigan yo'l» deganidir. Shunga asosan, shariat to'g'ri yo'l, ilohiy yo'l, qonunchilik degan ma'nolarni anglatuvchi islom diniy huquq tizimidir. Shariatda sof huquqiy masalalardan tashqari axloqiy normalar va amaliy diniy talablarga ham qonun tusi berilgan. Ilk islomda jamiyatni huquqiy boshqarish **Qur'on**¹ asosida olib borilgan. Feodalizm rivojlanishi bilan musulmonlarning barcha ijtimoiy-iqtisodiy va diniy faoliyatini qamrab oluvchi qonunlar majmuasiga ehtiyoj tug'ilgan. Islom ilohiyotchilari bir necha asr mobaynida shariat qonunlarini ishlab chiqqanlar. Shariatga asos qilinib Qur'on va sunna, keyinchalik ijmo' va qiyos olingan. Ular fiqhda shariat manbalari (usul al-fiqh) deb e'tirof etilgan. Shariat diniy-huquqiy tizim sifatida VI–VII asrlarda tugal shakllangan.

Qur'oni Karim Islom dinining asosiy muqaddas kitobi va shariatning eng asosiy manbayidir.

Qur'oni Karim 30 pora, 114 sura (tizma, qator), 6236 oyat (modda) dan iborat bo'lib, oyatlarning 63 foizini Makkada, 37 foizini Madinada nozil bo'lgan oyatlar tashkil etadi. Ya'ni, Qur'on suralarining 95 tasi 13 yil davomida Makka shahrida nozil bo'lib, makkiiy suralar deb ataladi. Ularning 19 tasi esa 622-yili yuz bergan hijratdan keyin 10 yil davomida Madinada nozil bo'lib, madiniy suralar deb qabul qilingan. Bu ikki turkum suralarning farqi shundaki, makkiiy suralar asosan e'tiqod, ibodat masalalarini, oliy axloqiy fazilatlar, erkin fikrlik, ilm-u tafakkurni targ'ib qilishga qaratilgan bo'lsa, madiniy suralar fiqhiy ahkom-muomalot, jinoyat va jazo, ommaviy munosabatlar, sulhu tinchlik bitimlari va musulmonlararo boshqa aloqalarga tegishlidir.

Shariatning ikkinchi manbayi – sunna (arabcha lug'aviy ifodasi – odat, an'ana, xatti-harakat tarzi) yo'l-yo'riq degan ma'noni bildiradi. Sunna Rasululloh (s.a.v.)ning so'zlari, qilmishlari, xatti-harakatlari, fe'llari (amallari), tasdiqlari, shuningdek, sahobalarning so'zlari va amallari majmuyidan iborat. Sunna haqidagi rivoyatlar hadislarda

¹ Qur'on – arabcha «qiroat», o'qimoq degani.

berilgan. Hadislar to'plamiga sunna deyiladi. Hadis arabcha rivoyat degan so'zdan olinib, islom dinida Qur'ondan keyingi muqaddas manba hisoblanadi. Hadislar Muhammad (s.a.v.)ning hayoti, faoliyati va ko'rsatmalari haqidagi rivoyatlardan iborat. Qur'on musulmonlar jamoasining barcha huquqiy va axloqiy masalalarini qamrab ololmaganligi sababli VII asr oxiri – VIII asr boshida hadislar yozila boshlandi va asta-sekin tizimga solindi. IX–X asr boshlarida dindorlar orasida obro'li deb tanilgan hadislarining 6 ta to'plami vujudga kelgan. Bular: Muhammad Al-Buxoriyning «al-Jome' as-Sahih» kitobi, Muslim An-Nishopuriyning «as-Sahih» to'plami, Ibn Mojaning «Sunan» to'plami, Abu Dovud As-Sijistoniyning hadislar to'plami, Muhammad At-Termiziyning «al-Jome' al-Kabir» kitobi, An-Nisomiyning «Sunan» kitobidir. Ulardan «Sahihi Buxoriy» va «Sahihi Muslim» ko'proq e'zozlanadi. Sunna va Payg'ambar hadislarini to'plab, ularni ja'hiy (to'qima) hadislardan ajratib olishda vatandosh allomamiz Imom Muhammad ibn Ismoil Buxoriy (810–892-yillar) ulkan va unutilmas hissa qo'shib, o'zidan abadiy va barhayot asarlar qoldirgan. Ko'pgina hadislar Qur'onning turli qoidalarini tushuntirib beradi va to'ldiradi. Ular ko'plab amaliy masalalarni hal etishda muhim ijtimoiy vazifani bajaradi, ular haqida Qur'onda hech narsa aytilmagan hollarda esa hadislarining ahamiyati yanada ortadi. Lekin hadislar Qur'onga zid kelib qolgan taqdirda ular manba kuchiga ega bo'lmaydi.

Vaqt o'tishi bilan musulmonlar jamoasi – ummada vujudga kelgan vaziyat va muammolarni Qur'on va sunna to'liq qamrab ololmagan. Ular musulmonlar jamoasi – ummada ro'y bergan barcha muammolar va vaziyatlarga to'liq javob bera olmay qolgan.

Shu tariqa shariatning yangi manbayiga zarurat tug'iladi va ijmo' islom huquqi (shariat)ning asosiy manbalaridan biri sifatida tasdiqlanadi. Ijmo' (arabcha – yakdillik, yakdillik bilan qabul qilingan qaror, ijmo' al-umma – «diniy jamoaning yagona fikri») – Qur'on va hadislarda aniq ko'rsatma berilmagan huquqiy masalani hal etishda faqih va mujtahidlarining to'planib, yagona fikrga kelgan holda hukm chiqarishi (fatvo berishi)dir. Shariatda shunday yo'l bilan chiqarilgan hukm shar'iy (qonuniy) deb qabul qilingan.

Mujtahid tomonidan aytilgan fikrgina hal qiluvchi fikr hisoblanadi. Oddiy musulmonlar fikrining esa ijmo'oga hech qanday aloqasi yo'q. Mujtahid deb diniy olimga aytiladi. Mujtahid (arabcha – intiluvchi, g'ayrat qiluvchi) – o'rta asrlarda islomda ijtihod huquqiga ega bo'lgan, ya'ni mustaqil ravishda diniy aqidaviy masalalar bo'yicha xulosa bera oladigan va hukm chiqara oladigan shaxs.

Qiyos – fiqhning to'rtinchi manbayi. Qiyos arabcha so'zdan olingan bo'lib, «taqqoslash», «solishtirish» degan ma'noni anglatadi. Bunga ko'ra,

biror huquqiy masala o‘ziga o‘xshash ikkinchi huquqiy masala bilan taqqoslanadi, solishtiriladi va ular bir-biriga tenglashtiriladi. Demak, bunga binoan Qur‘on va Sunnada berilmagan biror huquqiy masala ulardagi shunga o‘xshash masala bo‘yicha berilgan ko‘rsatmaga taqqoslash yo‘li bilan sharhlanadi. Qiyos faqihlar huquqini kengaytirib, shariatning turli huquqiy masalalarga tatbiq etilishiga imkon yaratadi.

Qiyosning fiqhning to‘rtinchi klassik manbayi sifatida e‘tirof etilishi hadisga borib taqaladi. Unda hikoya qilinishicha, Rasululloh (s.a.v.) bir kuni o‘z sahobalaridan biri Muoz ibni Jabal raziyallohu anhuri Yamanga dindan ta‘lim berishga yuborayotganida uning odil sudlovni amalga oshirishida nimalarga tayanishini so‘raydi. U quyidagicha javob beradi: «Allohnig kitobi bilan. Agar undan topmasam, Alloh rasulining sunnati bilan. Agar undan ham topmasam, ijthod qilaman va ijthodda nuqsonga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qilaman»¹. Rasululloh (s.a.v.) bunday fikrni ma‘qullagan ekanlar. Ijthod arabcha «intilish», «g‘ayrat qilish» so‘zlaridan olingan bo‘lib, diniy va huquqiy masalalar bo‘yicha mustaqil fikr yuritish prinsipidir. O‘rta asrlarda faqat yirik musulmon faqihlari va ilohiyotchilari – mujtahidlar ijthod huquqiga ega edilar.

Shariat musulmon huquqining asosiy manbayi bo‘lsa, urf-odat uning qo‘shimcha, ikkinchi darajali manba hisoblangan. Masalan, O‘rta Osiyo faqihlari tomonidan yaratilgan asarlarda mintaqa xalqlarining urf-odatları, rasm-rusumlarining katta qismi qonunlashtirilib, shariat va islom huquqi tarkibiga kiritilgan.

Shunday qilib, islom dinini qabul qilgan xalqlarda urf-odatlar jamoa hayotini tartibga solishda shariat qonunlari bilan bir qatorda katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Va nihoyat, musulmon huquqining shariatdan kelib chiqadigan yana bir manbayi xalifalarning farmon va farmoyishlari hisoblanadi. Keyinchalik boshqa musulmon davlatlarida qonunchilik faoliyatining rivojlanishi bilan huquq manbayi sifatida qonunlar yuzaga kelib, ularning ahamiyati tobora oshib borgan. Farmonlar va qonunlar shariat prinsiplariga zid kelmasligi lozim edi. Ular shariatni, avvalo, davlat organlarining faoliyatini tartibga soluvchi va davlat hokimiyatining aholi bilan ma‘muriy-huquqiy munosabatlarini belgilovchi normalar bilan to‘ldirgan.

7.3. Shariat bo‘yicha mulkiy munosabatlarning tartibga solinishi

Islom huquqida mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalar

¹ Q a r a n g: Abdulvahob Xalof. Usulul fiqh (Islom qonunshunosligi asoslari). Birinchi, ikkinchi qismlar. –T., «Adolat», 1997. 62-bet.

muhim o‘rin tutadi. Unda avvalo mulkka ashyoviy huquq obyektini sifatida qarash mustahkamlangan. Musulmonlarning xususiy mulki hisoblanmaydigan ashyolar – havo, dengiz, cho‘l-dashtlar, machitlar, suv yo‘llari va boshqalar alohida turkumdagi ashyolarni tashkil etgan. Shuningdek, «harom ashyolar» – vino, cho‘chqa go‘shiti, islomga zid kitoblar va hokozolar ham musulmonning mulki emas, deb hisoblanadi. Shu sababli arablarning bosqinchilik yurishlari davomida ko‘pincha bunday mulklar yo‘q qilingan. Lekin bu yerda shuni aytib o‘tish kerakki, nomusulmonlarga tegishli mol-mulklarni nobud qilish masalasida islomdagi mazhablar o‘rtasida turlicha qarashlar mavjud.

Musulmon huquqshunoslari yer mulkini tasniflashga katta e‘tibor beradilar. Yer mulkchiligining quyidagi shakllari ajratib ko‘rsatiladi: davlat yerlari, xususiy egalikdagi yerlar, jamoa yerlari va vaqf yerlar. Bularning tashqari muqaddas yerlar ham mavjud bo‘lib, ular hijoz deb atalgan. Bunga Rasululloh (s.a.v.)ning oyoqlari tekkan yerlar, ya‘ni u yashagan joylar kiradi. Bunday yerlarga boshqa dindagilarning kirishi man etilgan. Bu yerlarda faqat musulmonlar yashashlari mumkin bo‘lib, daraxtlarni kesish, ovchilik qilish mumkin emas edi va hokazo. Tarixiy va yuridik manbalarda ko‘rsatilishicha, arab va boshqa musulmon mamlakatlarida ma‘lum xizmatni bajarish evaziga feodallarga beriladigan yerlar ham mavjud bo‘lib, bu shartli yer egaligi hisoblangan va iqto yerlari deb yuritilgan. Bunday yerlar egasi (iqtador) o‘z hokimiyati ostidagi aholidan o‘z hisobiga o‘lpon va soliqlar yig‘ish huquqini olgan. Iqto vaqt o‘tishi bilan meros tariqasida o‘tkazila boshlangan va xususiy egalikdagi mulk bo‘lib qolgan. Dastlab ichiladigan suvlar, havo singari umumiy foydalaniladigan mulk hisoblangan. Lekin quduqlar, hovuzlar va mayda ko‘llar asta-sekin yirik yer egaligiga o‘tib borgan. Faqat katta daryolar va ko‘llar ilgariydek jamoa va davlat mulkchilik tizimiga kirgan. Chunki buni mansabdor shaxslar nazorati ostida amalga oshiriladigan birgalikdagi irrigatsiya ishlarini o‘tkazish zaruriyati taqozo qilardi.

Shariatda mulk huquqining vujudga kelish usullari batafsil belgilangan. Bunda turli mazhab vakillari turli fikrlar bildirganlar. Masalan, arablarning ko‘pdan ko‘p bosqinchilik yurishlari harbiy o‘ljalarning huquqiyligi yoki huquqiy emasligi masalasini kun tartibiga qo‘ygan va bu shariatda umumiy mulk huquqining kelib chiqish usullaridan biri sifatida tan olingan. Bosib olingan yerlar umumiy qoida bo‘yicha davlat mulki hisoblangan va xalifa hamda amirlarning tasarrufiga kelib tushgan. Dushmandan o‘lja qilib olingan boshqa mulklarning miqdori alohida mazhablarda turlicha belgilangan. Bunday mulklarning bir qismi uni egallab olgan shaxsga, ikkinchi qismi davlatga, uchinchi qismi machitlarga o‘tkazilgan va hokazo. Shariat bo‘yicha mulk huquqi

meros olish, shartnoma tuzish, ashyolarni topib olish yo‘li bilan ham kelib chiqishi mumkin. Masalan, o‘z yer uchastkasidan begona ashyoni topib olgan shaxs unga nisbatan mulk huquqiga ega bo‘lgan.

Shariatda rim huquqidan farqli o‘laroq, majburiyatlarning umumiy konsepsiyasi ishlab chiqilmagan edi. Lekin shartnoma huquqining amaliy masalalari tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi natijasida har tomonlama ishlab chiqilgan edi. Majburiyatlar haq to‘lanadigan va haq to‘lanmaydigan, ikki tomonlama va bir tomonlama, muddatli va muddatsiz turlarga bo‘linadi. Islom dunyosida o‘ziga xos bir tomonlama majburiyatlarning – ahdlashuvlarning tarqalganligi tez-tez uchrab turadigan hodisadir.

Umuman shariatda majburiyatlarning ancha rivojlangan tizimi mavjud bo‘lgan. Majburiyatlarning kelib chiqishiga ko‘ra shartnomalardan kelib chiqadigan va zarar yetkazishdan kelib chiqadigan turlari bir-biridan ajratilgan. Shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlar keng tarqalgan.

Shartnoma munosabatlarining subyekti jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar bo‘lishi mumkin edi. Yosh bolalarning harakati homiyalar tomonidan tan olinsa, qullarning harakati esa ularning egalari tomonidan ma‘quliansa, qonuniy bo‘lishi mumkin edi. Aqli zaiflar fuqarolik huquqiy munosabatlarining subyekti bo‘lolmagan.

Shartnoma munosabatlarida vakillikka ham yo‘l qo‘yilgan. Yosh bolalarning, ayollarning, aqli zaiflarning qonuniy vakillari ularning otalari, akalari, tog‘alari, erlari, homiyolari bo‘lgan. Shariat shaxslarning majburiyatda almashtirilishiga yo‘l qo‘ygan. Kreditor roziligi bilan qarzdor almashtirilishi mumkin edi. Shariat bo‘yicha tan olingan va himoya qilinadigan bitimlar shartnoma hisoblanardi.

Shariatga asosan shartnomaga tomonlarning o‘zaro bitimidan kelib chiqadigan aloqa sifatida qaralardi. Biroq bu tomonlarning mulkiy notengligi sharoitlarida sof rasmiy xarakterga ega edi. Shartnoma shartlari har qanday ko‘rinishda: hujjatda, norasmiy xatda, og‘zaki tarzda ifoda etilishi mumkin edi. Tuzilgan shartnomalar mustahkam va o‘zgarmas hisoblanardi. Qur‘onda «shartnomalarga» rioya qilish majburiyatiga muqaddas burch sifatida qaralgan: «Ular (mo‘minlar) (odamlarning bergan) omonatlariga va (o‘zaro) ahdlariga rioya etuvchi zotdir!» (23-Mo‘minun surasi, 8-oyat)¹.

Shartnomaning haqiqiyliги shartlari: uning qonuniyligi, ya‘ni shartnomalarning huquqqa xilof bo‘lmasligi, tomonlarning o‘zaro roziligi va huquqiy layoqatliligi bo‘lib hisoblangan. Amalda o‘zaro aldashlar, tomonlar irodasi ustidan kuch ishlatib shartnomalar tuzish hollari tez-

¹ Qur‘oni Karim. «Toshkent islom universiteti» nashriyoti. 2001. 342-bet.

tez uchrab turardi. Bu, ayniqsa tutqinlik, qarz shartnomalari tuzilishida namoyon bo'lgan.

Shartnoma predmeti bo'lib shariat bo'yicha yo'l qo'yilmagan deb e'lon qilinmagan ashyolar va harakatlar bo'lishi mumkin. Masalan, oldi-sotdi shartnomasining predmeti daryolarda suzib yuradigan baliqlar, havoda uchib yuradigan qushlar, hayvonlardagi junlar, jamoat dalalaridagi o'tlar, ayollarning suti, cho'chqa go'shti va boshqalar bo'lsa haqiqiy emas deb topilgan. Shariatda zakalat, kafolat, garov va aybona (va'dasizlik shartnomasi) majburiyatlarni ta'minlash usullari edi.

Shartnomalar, odatda og'zaki shaklda tuzilgan. Agar tomonlar uchun qimmatli katta summali shartnoma bo'lsa, yozma shaklda ham tuzilishi mumkin edi. Shariatda shartnomalarning bir qancha turlari tartibga solinadi. Oldi-sotdi, qarz, hadya, ijara, ssuda, saqlash, shirkat va boshqa shartnomalar keng tarqalgan.

7.4. Shariatda nikoh-oila va meros huquqi

Shariat bo'yicha nikoh va oila masalalari batafsil tartibga solinadi. Islomda nikoh – halollik, nikohsiz qo'shilish esa haromlik belgisi hisoblanadi. Shariatga binoan nikoh musulmonlarning diniy majburiyati, nikohsizlik esa ularning hush ko'rilmaydigan holati sanaladi.

Shariat bo'yicha nikohdan o'tish uchun tomonlardan quyidagi shartlarga rioya etish talab qilingan: 1) nikohdan o'tuvchilarning o'zaro roziligi; 2) nikoh yoshiga to'lgan bo'lish; 3) nikohni guvohlar ishtirokida tuzish; 4) kelin uchun qalin va mahr to'lash; 5) diniy e'tiqod birligi; 6) nikohdan o'tayotganlarning yaqin qon-qarindosh bo'lmasligi; 7) tabaqa bo'yicha tenglik; 8) nikohdan o'tuvchilarning ruhiy jihatdan sog'lom bo'lishi.

Demak, shariat bo'yicha zo'rlik yo'li bilan, majburiy nikohdan o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi. Lekin qiz bolaning erga tegmaslikka haqqi yo'q edi. U yolg'iz yashashi mumkin emas, albatta turmush qurib, nikoh munosabatida bo'lishi lozim edi. Yoshlarning muomalaga layoqatsizligi yoki ularning qarshiligi nikoh ittifoqini tuzishga to'siq bo'la olmasdi. Muomalaga layoqatli bo'lgan yigitlar va qizlar o'z xohishlari bilan, ota-onalarining bu ishga aralashuvisiz, nikoh-huquqiy munosabatlariga kirishlari mumkin bo'lgan. Shariat bo'yicha nikohning haqiqiy bo'lishligi shartlaridan yana biri tomonlarning nikoh yoshiga to'lgan bo'lishligidir. Unga ko'ra nikoh yoshi o'g'il bolalar uchun 12 yosh, qizlar uchun 9 yosh belgilangan. Bunda o'g'il bolalar jinsiy jihatdan voyaga yetgan bo'lishlari lozim edi. Nikohga kiruvchilar uchun belgilangan bu yosh voyaga yetganlikni belgilashda so'nggi pog'ona hisoblangan. Amalda esa o'g'il bolalar – 14, qizlar – 12 yoshga to'l-

ganda nikoh tuzilgan. Shariat nikoh yoshining yuqori chegarasini belgilamagan. Nikoh yoshining quyi chegarasini belgilashda asosan fiziologik asoslarga tayanilgan. Oilada yigirma yoshdan oshgan «bo‘ydoq» bo‘lishi isnod hisoblangan.

Shariat bo‘yicha nikohdan o‘tish shartlaridan biri bunday shartnomaning guvohlar ishtirokida tuzilishi lozimligidir. Burhoniddin Marg‘inoniy yozganidek, «Bilginki, nikoh bobida guvohlik shartdir. Chunki Rasuluﻟﻟﻮﻩ (s.a.v.): Guvohlarsiz nikoh nikoh emas, deganlar... Musulmonlarning nikohlari faqatgina (kamida) ikkita guvoh hozirligida bog‘lanadi. Guvohlarning ikkisi ham hur, oqil, bolig‘ musulmon erkaklar yoki bir er, ikki ayol bo‘lmog‘i lozim»¹. Musulmonlarning nikohlarida guvohlarning musulmon kishilardan bo‘lishligi talab qilinadi. Nomusulmon (kofir)ning musulmon ustidan guvohligi o‘tmaydi. Agar musulmon odam xristian yoki yahudiy bilan nikohdan o‘tsa, bunday holda xristian yoki yahudiy dinidagi kishilar guvohlikka o‘tishlari mumkin edi. Guvohlar erkaklar bo‘lsa 15 (16) yoshga, ayollar bo‘lsa 9 yoshga to‘lgan bo‘lishlari lozim edi. Chunki bu yoshda ular muomalaga layoqatli deb hisoblangan.

Shariat bo‘yicha nikoh ahdini tuzishning navbatdagi sharti qalinni to‘lash va ajratilgan mahrni berishdan iborat edi. Busiz nikoh haqiqiy emas, deb sanalgan. Qalin, yuqorida aytilganidek, kelinga, uning otanasi, qarindosh-urug‘lari, vasiylariga pul, mol yoki boshqa mulklar bilan bir qatorda to‘lanadigan haqdir. Mahr esa kuyov tomonidan bevosita kelinga beriladigan uy-joy yoki sep-sidirg‘a va boshqa mulklardan iborat bo‘lgan. Qalin bevosita kelinning otasi tasarrufiga tushib, kelinning qalinga hech qanday haqqi bo‘lmagan, mahr esa bevosita kelinning shaxsiy mulki hisoblangan.

Shariat bo‘yicha nikohga kiruvchilar islom dinida bo‘lishi talab qilingan, ya‘ni faqat islom diniga mansub bo‘lgan shaxslarigina o‘zaro nikoh tuza olganlar. Islom diniga e‘tiqod qiluvchi er boshqa dinga e‘tiqod qiluvchi yoki umuman hech qanday dinga mansub bo‘lmagan ayol bilan nikoh tuzishga haqqi yo‘q edi. Agar xristian yoki yahudiy islom diniga kirsam, u holda musulmonlar bilan nikoh ahdini tuza olgan. Shariat bo‘yicha, hatto er-xotindan bittasi boshqa dinga o‘tsa (islomga xoinlik qilsa), nikoh bekor qilingan.

Shariat yaqin qarindosh-urug‘chilik aloqasida bo‘lgan shaxslar o‘rtasidagi nikohni taqiqlaydi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, shariat nikohdan o‘tuvchilarning tabaqaviy jihatdan teng bo‘lishligini, ruhiy jihatdan sog‘lom bo‘lishini ham talab qiladi. Shuningdek, nikoh shartnomasi tuzishga to‘g‘ridan

¹ Muxtasar: (Shariat qonunlariga qisqacha sharh). –T., Cho‘lpon, 1994. 96-bet.

to'g'ri to'sqinlik qiluvchi boshqa holatlar ham ko'rsatiladi. Jumladan, musulmonlar ehrom holatida bo'lsalar, agar nikohga kirayotgan ayolga boshqa kishi tomonidan uylanish istagi bildirilgan bo'lsa, erkaklar o'z xotinlarining singillari bilan nikohga kirayotgan bo'lsalar, tomonlardan biri jinsiy kamolotga yetmagan bo'lsa va hokazo holatlar shariatga binoan nikoh ahdi tuzishga to'g'ridan to'g'ri to'sqinlik qiladi.

Yuqorida sanab ko'rsatilgan shartlarga rioya qilinib tuzilgan nikohgina qonuniy hisoblanib, taraflarni tegishli huquq va majburiyatlar bilan ta'minlagan. Shuni aytib o'tish lozimki, shariat normalarida belgilangan shartlardan ko'zda tutilgan asosiy maqsad sog'lom, halol nikoh munosabatini vujudga keltirishdan iborat edi.

Islom huquqida er-xotin o'rtasidagi munosabatlar batafsil tartibga solinadi.

Shariat va odatda, er-xotinning huquq va majburiyatlari atroflicha ishlab chiqilgan. Er oila boshlig'i hisoblangan, binobarin, oila ta'minoti uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlarni ishlab topishi lozim bo'lgan. Xotin esa oilada asosan uy-ro'zg'or ishlari va bolalar tarbiyasi bilan shug'ullangan.

Erning huquqi bo'yicha, agar er qalin va mahr to'lagan bo'lsa, xotin albatta uning uyida yashashi lozim edi. Xotin biror joyga borishi lozim bo'lsa, albatta eridan ruxsat olishi darkor edi. Er xotinini moddiy ta'minlashi lozim edi. Agar er uyda olti oydan ortiq muddat bo'lmasa, xotinini moddiy jihatdan ta'minlamasa, bu holat xotiniga erining nikohidan ajralish uchun asos bo'la olgan.

Xotinning erdagi haqqiga nisbatan majburiyatlari ko'proqdir. Xotin albatta erining uyida yashab, uyni ozoda va toza saqlab, ro'zg'or ishlarini bajarib, bolalarni tarbiyalashi lozim bo'lgan. U eriga bo'ysunib, topshirgan ishlarini bajarishi, erining ruxsatisiz ommaviy joylarda ko'rinmasligi kerak. Xotin eridan moddiy ta'minot talab qilish huquqini olgan.

Agar er xotiniga nisbatan zo'rlik, qo'pollik qilsa, erlik majburiyatlarini bajarmasa, xotin eri bilan yashashni rad etishi mumkin edi. Xotin o'z zimmasidagi majburiyatlarni bajarmasa, eri unga nisbatan jismoniy ta'sir choralarni ko'rishni, hatto ajralish masalasini ham qo'yishi mumkin bo'lgan. Agar er xotiniga tirikchilik uchun yetarli miqdorda mablag' bermasa, u holda xotini qozining ruxsati bilan, erining nomidan va uning javobgarligi bilan qarz olishi, o'ziga tegishli mulkdan ayrimlarini sotishi mumkin bo'lgan. Agar xotin eri oldidagi majburiyatlarni bajarmasa, u holda er uni jazolashi, ya'ni uni zarar keltirmasdan urishi va ma'lum muddat moddiy ta'minotdan mahrum etishi mumkin bo'lgan.

Agar er yoki xotindan biri, avvalgi sahifalarda ta'kidlanganidek, boshqa dinga kirsa, ya'ni islom dinidan chiqsa, bunday hollarda ular o'rtasidagi nikoh munosabati tugatilib, mavjud bo'lgan hamma

majburiyatlar bekor qilingan. Ammo dinga nisbatan xiyonat er tomonidan sodir etilgan bo'lsa, u xotiniga mahr berishdan va idda vaqtida moddiy ta'minlashdan ozod etilmagan. Bunday harakat xotin tomonidan sodir etilsa, u idda davrida moddiy ta'minot olish huquqidan mahrum bo'lgan. Xotini o'limidan so'ng, er hamma vaqt boshqa ayolga uylanishi mumkin bo'lgan. Xotinga esa eri o'limidan so'ng boshqa shaxsga turmushga chiqishga faqat idda muddati o'tganidan so'nggina ruxsat berilgan. Xotin idda muddatini nikohda qayerda turgan bo'lsa, shu yerda o'tkazishi lozim edi, chunki shundagina uning o'z shaxsiy huquqlari va mulki to'la saqlangan.

Idda vaqtida xotinni moddiy ta'minlash erga yuklatilgan. Ammo u biron asos bo'yicha xotini moddiy ta'minlashdan ozod etilgan bo'lsa, yoxud bandalikni bajo keltirsa, u holda xotin o'zini o'zi moddiy ta'minlaydi. Agar marhum meros qoldirgan bo'lsa, erining merosi hisobiga ta'minlanadi. Shariat oilaviy turmush davomida er-xotin tomonidan topilgan mulk ularning umumiy mulki ekanligini tan olmagan, birgalikdagi turmush davrida mulk kimning mablag'iga olingan bo'lsa, o'shaniki hisoblangan.

Qur'oni Karim nikohdan ajralishga (taloqqa) yo'l qo'yadi. Ammo islom taloqni – oila buzishni maqsadga muvofiq ish deb hisoblamaydi. Iloji boricha oilani buzmay saqlab qolishni targ'ib qiladi. Nikohni bekor qilishga tegishli «qonuniy» asoslar bo'lganidagina yo'l qo'yilgan.

Taloq qilish huquqi erkakka berilgan.

Quyidagi holatlardagina xotini nikohni bekor qilishni so'rashi mumkin edi:

1. Agar eri olti oy muddat davomida xotini moddiy ta'minlamasa.
2. Agar eri nikohda yashashga qodir bo'lmasa (erlik iqtidori bo'lmasa).
3. Agar nikoh yoshlik vaqtida tuzilgan bo'lib, jinsiy balog'atga yetgandan so'ng yoki ma'lum yoshga to'lgandan so'ng qiz nikohda yashashga rozi emasligini izhor etsa.
4. Agar eri islom dinidan boshqa dinga o'tsa.

Taloq qilingan ayol avval aytib o'tilganidek, nasl-nasablar aralashib ketmasligi uchun uch hayz mobaynida o'zmi kuzatib, boshqa turmush qurmay turishi lozim edi. Shu muddat o'tib, homila yo'qligi ravshan bo'lgach u ayol erga tegishi mumkin bo'lgan. Agar homilador ekanligi ma'lum bo'lsa, bola tug'ilib, nifos muddati o'tgandan keyin boshqa turmush qurishi mumkin. Idda asnosida er qilgan ishidan pushaymon bo'lib, yarashishni istasa, bunga uning haqqi bor. Agar shu muddat ichida xotiniga yaqinlashmasa, muddat tugagach taloq sodir bo'lib, nikoh munosabati tugallanadi.

Shariat bo'yicha meros huquqi juda murakkab va chalkash bo'lgan. Meros huquqi borasida musulmon huquqining turli huquqiy mazhablari

o'rtasida katta farqlar mavjud. Umuman meros vasiyat bo'yicha va qonun bo'yicha qoldirilgan. «Vasiyat» so'zining lug'atda bayon qilingan ma'nosi – «topshirmoqdir». Shariat bo'yicha esa, mol-mulkni o'lgandan so'ng kimga berilishini aytish. Vasiyat qonuniy merosxo'rlar foydasiga tuzilishi mumkin emas edi. Shuningdek, mol-mulkning uchdan bir qismidan ortig'ini vasiyat qilishga ham ruxsat etilmagan. Vasiyatni tuzishda ikkita guvoh ishtirok etishi lozim bo'lgan. Shariatda, ayniqsa qonun bo'yicha meros tartibi birmuncha puxta ishlab chiqilgan edi. O'lgan kishining mol-mulkidan avvalo uni dafn etish marosimlariga ketadigan xarajatlar qoplangan, so'ngra uning barcha qarzlari to'langan. Qolgan mol-mulklar qonuniy merosxo'rlar o'rtasida taqsimlangan. Merosdan birinchi navbatda o'lgan kishining bolalari o'z hissalarini olishgan, ular bo'lmasa uning aka-ukalari, amaki-tog'alari va boshqalar merosga chiqirilgan. Ayollar merosdan erkaklarga nisbatan ikki hissa kam ulush olganlar. Dindan qaytganlar, ajralgan er-xotinlar, meros qoldiruvchining o'limiga sabab bo'lganlar meros olish huquqidan mahrum edilar.

7.5. Shariatga binoan jinoyat huquqi va sud ishlarini yuritish tartibi

Islom huquqida jinoyat huquqi normalari fuqarolik huquqi normalariga nisbatan uncha batafsil ishlab chiqilmagan. Ular qadimiyligi, eskirib qolganligi, yuridik texnikasi jihatidan nisbatan uncha rivojlanmaganligi bilan ajralib turadi.

Shariatda jinoyat tushunchasining asosini diniy g'oyalar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan huquqiy qonun-qoidalar tashkil etadi.

Burhoniddin Marg'inoniyning «Hidoya» asarida jinoyat deb, qonun tilida shaxsga va mulkka qarshi qaratilgan qonun bilan taqiqlangan qilmish tushuniladi¹, – deb ko'rsatiladi.

«Muxtasar» (Shariat qonunlariga qisqacha sharh) da ko'rsatilganidek, «jinoyat» so'zi lug'atda jinoyat va gunoh ma'nosini, shariat istilohida odamning joniga yo a'zolariga zarar keltirish ma'nosini² bildiradi.

O'rta asrlardagi islom huquqshunoslari barcha jinoyatlarni uch guruhga ajratadilar. Birinchi guruh «Allohning huquqlari»ga tajovuz qiladigan jinoyatlar sifatida talqin qilingan va avf etilmagan. Bunga birinchi navbatda islomdan qaytish jinoyati kiritilgan. Buning uchun o'lim jazosi nazarda tutilgan. Boshqarish tartibotiga qarshi qaratilgan jinoyatlar – isyon va davlat hokimiyatiga qarshilik ko'rsatish kabi jinoyatlar ham og'ir

¹ Q a r a n g: Hidoya. – T., 1883. 211-bet.

² Q a r a n g: Muxtasar. –T., Cho'lpon, 1994. 304-bet.

jazolangan. Og'ir diniy gunoh deb e'lon qilingan ushbu guruh jinoyatlariga yana o'g'rilik, spirtli ichimliklar iste'mol qilish, zinokorlik, shuningdek, zinokorlikda ayblab tuhmat qilish kabilar ham kirgan.

Ikkinchi guruh jinoyatlarni butun musulmonlar jamoasiga emas, balki alohida shaxslarning huquqlariga tajovuz qiluvchi huquqqa xilof xatti-harakatlar tashkil etgan. Ularni tartibga soluvchi normalar urug'doshlik tuzumi odatlaridan kelib chiqqan, jumladan, qasos olish huquqini belgilagan. Masalan, qasddan odam o'ldirish yoki tan jarohati yetkazish jinoyatlarini sodir etgan shaxslarga «jinoyatga teng jazo» (tallion) tamoyili asosida jazo nazarda tutilgan. Ammo shariat manbalari, jumladan, Qur'oni Karim va hadislarda bu guruhga kiritilgan jinoyatlar uchun ko'zda tutilgan jazoni birmuncha yumshatish haqida so'z yuritilganligini ko'rish mumkin. Masalan, qo'shimcha qonli qasos olish o'miga «tovon» to'lash kabi yengilroq jazo berilishi nazarda tutiladi. Qur'oni Karimda odam o'ldirish va tan jarohati yetkazish jinoyatlari uchun «jonga jon, ko'zga ko'z, burunga burun, quloqqa quloq, tishga tish va jarohatlarga qasos (olinur)» deb belgilangan (Moida surasi, 45-oyat). Shuningdek, ushbu odatda «kimki u (qasos)ni sadaqa qilib (kechib) yuborsa, u (gunohlariga) kafforatdir» deyiladi. Kafforatning ma'nosi evaz, badal, afvdir. Demak, Qur'oni Karimda qasos olmay, xunidan kechishga ma'qul, savobli ish sifatida qaraladi.

Va nihoyat, uchinchi guruhni tashkil etuvchi jinoyatlarga o'z tabiatiga ko'ra, ijtimoiy munosabatlarga qarshi jinoiy tajovuz qilishga qaratilgan boshqa barcha turdagi jinoyatlar, jumladan, zakot to'lamaslik, shaxslarga moddiy zarar yetkazish (o'g'rilik va bosqinchilikdan tashqari), bitimlar yuzasidan majburiyatlarni bajarmaslik, xun olish uchun tovon to'lamaslik, kam o'lchash, kam tortish, tovlamachilik qilish, poraxo'rlik, xazinani yoki yetimning haqini o'zlashtirish, qonunga xilof holda qasddan sud qarorlarini chiqarish, yolg'on guvohlik berish, jamoat joylarida yurish-turish qoidalarini buzish, fuqarolarga yoki o'ziga bo'ysunuvchilarga nisbatan zulm o'tkazish, eng muhim diniy aqidalarni inkor qilish, davlat mulkini turli xil nopok yo'llar bilan talon-taroj qilish, jodugarlik va sehrgarlik, nomusga tegish, besoqolbozlik, nafaqa to'lash majburiyatidan qasddan bosh tortish va hokazolar kiritiladi¹.

Ushbu jinoyatlarning aksariyati uchun Arab xalifaligining tashkil topishi davrida jazolar nazarda tutilmagan. Shu sababli ular shariatning asosiy manbalarida eslatilmaydi. Huquqiy ta'limotning rivojlanishi va hukmron tabaqalarning tarkib topgan ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashga urinishi natijasida ilgari jinoiy hisoblanmagan ko'pgina xatti-harakatlar, jumladan, zakot to'lamaslik, ro'za tutmaslik, yengil

¹ M.A. Rajabova. Shariatda jinoyat va jazo. –T., Adolat, 1996. 57-bet.

tan jarohati yetkazish, haqorat, bezorilik, aldoqchilik va firibgarlik, davlat mulklarini isrof qilish, qimor o'ynash va hokazolar jinoyat sifatida ko'riladigan va sud tarkibida jazolanadigan bo'ldi. Bunday ishlar bo'yicha jazo chorasi berish mujtahidlar tomonidan bildirilgan fikrlarga va alohida qozilarning ixtiyoriga bog'liq bo'lgan.

Islom jinoyat huquqi bo'yicha jazolarning xilma-xil turlari nazarda tutilgan. Albatta, bunda davlatdan oldingi jamiyatga xos, eskirgan jazo usullaridan ham foydalanilganligini ta'kidlash joiz. Masalan, shariatda ko'pgina jinoyatlar uchun qasos olish, tovon, ta'zir va boshqa jazo turlari belgilangan.

Jinoyat huquqida jazolar og'irlik darajasiga qarab quyidagi uch turga: 1) had; 2) qasos yoki tovon va kafforat; 3) ta'zir jazosi turlariga bo'linadi. «Had» so'zining lug'aviy ma'nosi «Muxtasar»da ko'rsatilganidek, chekka, chet, ikki narsa orasidagi parda, mone deganidir. Bu shariatda jinoiy xatti-harakatlar uchun Alloh tomonidan belgilanadigan jazo deb tushuniladi. Had jazosi turlariga 40 martadan ko'proq darra urish, ya'ni 80, 100 darra urish, qo'l yoki oyog'ini kesish, toshbo'ron qilib, osib yoki boshini tanasidan ayirib o'ldirish kiradi. Had jazosi haqida Qur'oni Karim oyatlarida aytib o'tilgani uchun ham shariat olimlari uni qat'iy jazo – Allohning haqi deb hisoblaydilar. Had jazosi turlari asosan zino, tuhmat, o'g'rilik, qaroqchilik (bosqinchilik), spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, islom dinidan qaytish, isyon ko'tarish va boshqa jinoyatlarga nisbatan belgilangan.

Qasos yoki tovon (diya) va kafforat jazosi turlari shaxsning hayoti va sog'lig'iga qarshi qaratilgan jinoyatlar, xususan, odam o'ldirish va tan jarohati yetkazish jinoyatlariga nisbatan qo'llanilgan.

Ta'zir jazosi «had» yoki «qasos» jazolarini qo'llash mumkin bo'lmagan hollarda, shuningdek, diniy jihatdan gunohni yuvish bilan jazolanadigan jinoyatlar sodir etilgan taqdirda qo'llanilishi mumkin edi. Masalan, o'g'irlikda o'g'irlangan narsa shariatda joriy etilgan miqdordan kam bo'lsa, had emas, balki ta'zir qo'llanilgan. Shuningdek, qaroqchilar yo'l to'sayotganlarida hali molni olmay va hech kimni o'ldirmay turib qo'lga tushsalar, ularni to'tavba qilgunlariga qadar qamab qo'yilgan yoki o'g'ri narsani xonadan olib chiqib ketmay turib qo'lga tushsa, qo'li kesilmagan. Ta'zir jazo turlariga 3 darradan 39 darragacha urish, qamoq, ogohlantirish, vatanidan haydab yuborish, jamoat izzasi, jarima, salla o'rab yurish huquqidan mahrum etish va hokazolar kiradi.

Shunday qilib, shariatda jazolar o'rta asrlarga xos bo'lgan shafqatsizligi va qattiqligi bilan ajralib turardi. Jazolashdan asosiy maqsad qo'rqitish bo'lgan. Masalan, o'lim jazosi ko'p hollarda, odatda, omma oldida osish yoki to'rt bo'lakka bo'lish yo'lli bilan ijro etilgan. Shuningdek, o'lim jazosining suvga cho'ktirish, tiriklayin ko'mish kabi turlari ham qo'llanilgan. Tana a'zolariga shikast yetkazish va tan jazolari –

barmoqlarni, qo'l va oyoqlarni kesish, toshbo'ron qilish va hokazolar ko'p qo'llanilgan. Ozodlikdan mahrum qilish uyga yoki machit xonalaridan biriga qamashda ifodalangan. Islom jinoyat huquqida mulkiy jazolar (mol-mulkini musodara qilish, jarima va boshqalar) va sharmanda qiluvchi jazolar (soqollarini olib tashlash, salla taqib yurish huquqidan mahrum qilish, jamoat izzasi va boshqalar), shuningdek, surgun va badarg'a jazolari (mayda jinoyatlar uchun) ham ma'lum.

Musulmon huquqida sud ishlarini yuritish tartibi o'ziga xos jiliatlari bilan ajralib turgan. Sud jarayoni, odatda ayblov xarakteriga ega bo'lgan. Ish ko'pincha davlat nomidan emas, manfaatdor shaxslar tomonidan qo'zg'atilgan. Fuqarolik va jinoyat sudlovlari o'rtasida farq yo'q edi. Sud ishlari oshkora tartibda, odatda machitlarda ko'rib hal qilingan. Unda ishtirok etishni xohlovchilarning barchasi qatnashishlari mumkin edi. Tomonlarning o'zlari himoyachilarning yordamiga tayanmay ish yuritishlari lozim edi.

Sud jarayoni asosan og'zaki amalga oshirilgan, dastlab yozma ish yuritish qo'llanilgan. Abbosiylar hukmronligi davridan boshlab fuqarolik ishlari bo'yicha sud bayonnomalari tuzila boshlangan. Sudda tan olish (aybiga iqror bo'lish), guvohlarning ko'rsatmalari, qasamlar, versiyalar dalil bo'lib hisoblangan. Ish bir majlisning o'zida hal qilinishi lozim edi, uni keyingi kunga qoldirish mumkin emasdi. Sud jarayoni tortishuvchanlik xarakteriga ega bo'lgan. Sud ishlarini yuritishning qozilar uchun belgilangan qoidalari yo'q edi. Shuning uchun ular ishlarni o'z xohishlaricha erkin ko'rish imkoniyatidan keng foydalanganlar. Ishda guvoh bo'lib 10 yoshga to'lgan, ilgari sudlanmagan, faqat musulmon dinidagi aqli raso kishilargina qatnashishi mumkin bo'lgan. Ikki ayol kishining ko'rsatmasi bir erkak kishining guvohligiga teng hisoblangan. Ishonchli dalillar bo'lmasa, javobgar yoki ayblanuvchi odatda Qur'oni Karimni ushlab Alloh oldida tantanali qasam ichishi lozim edi.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

1. *Islom huquqining vujudga kelishi asoslarini aytib bering.*
2. *Islom huquqi qay tarzda rivojlanib bordi?*
3. *Islom huquqi manbalari qanday bo'lgan?*
4. *Shariat bo'yicha mulkiy munosabatlarning tartibga solinishi haqida gapirib bering.*
5. *Shariat bo'yicha majburiyat huquqi qanday ko'rinishga ega?*
6. *Shariatda nikoh masalalari qanday tartibga solinadi?*
7. *Shariat bo'yicha oila munosabatlarining xususiyatlari qanday?*
8. *Shariat bo'yicha nikohda ajralish (taloq) qanday izohlanadi?*
9. *Shariat bo'yicha jinoyat va jazo masalalari qanday izohlanadi?*
10. *Shariat bo'yicha sud ishlarining yuritilish tartibi qanday belgilangan?*

**IV BOB. RIVOJLANGAN O'RTA ASRLAR
DAVLATI VA HUQUQI
(IX asrdan Mo'g'ullar istilosigacha bo'lgan davr)**

8-MAVZU: SOMONIYLAR DAVLATI VA HUQUQI

1. Somoniylar davlatining tashkil topishi.
2. Somoniylar davlati ijtimoiy tuzumining asosiy belgilari.
3. Somoniylar davlati hokimiyati va boshqaruvining tashkil etilishi.
4. Somoniylar davlatining huquqiy tizimi.

8.1. Somoniylar davlatining tashkil topishi

Arab xalifaligining siyosiy tushkunlikka uchrashi va mamlakatimiz xalqlarining mustaqillik uchun kurashi IX asrda mustaqil davlatlarning tashkil topishiga olib keldi. 821-yilda Xurosonning nufuzli zodagonlaridan biri Tohir ibn Husayn Xuroson va Movarounnahr noibi etib tayinlandi. U birinchilardan bo'lib 822-yildayoq xalifalikdan ajrallib chiqishga harakat qiladi va xalifa ismini juma namozidagi xutbada qayd qilishni taqiqlaydi. Bu xalifaga nisbatan ochiq isyon edi va uning davlatini Arab xalifaligidan mustaqilligini bildirardi.

Garchi Tohir ibn Husayn tez orada vafot etsa-da, biroq uning o'g'illari – Talha va Abul Abbos Abdulloh Xuroson hokimiyatini birin ketin mustaqil boshqarishda davom etdilar. Abul Abbos davrida (830–844) mamlakat poytaxti Marvdan Nishopurga ko'chirildi.

Movarounnahr rasman tohiriylar tasarrufida bo'lsada, biroq, bu hududning ko'plab mulklari mahalliy Somonxudot xonadoni namoyandalari tomonidan boshqarilardi (masalan, Nux – Samarqandda, Yahyo – Shosh va Ustrushonda, Ilyos – Hirotda shunday hukmdorlar edilar).

IX asrning 60-yillarida asosiy tarkibi kambag'al hunarmandlar va yersiz dehqonlardan iborat g'oziyalar harakati butun Xuroson o'lkasi bo'ylab kengayib ketdi. Unga aka-uka misgarlar – Yoqub va Amir binni Layslar boshchilik qildilar. Ular Seyistonni o'z qo'l ostilariga kiritgach, ko'p o'tmay 873-yilda tohiriylarga kuchli zarba berib, bu o'lka poytaxti Nishopurni egallaydilar. Natijada Xurosonda tohiriylar o'rniga safforiylar (misgarlar) sulolasi hokimiyat tepasiga keladi. 876-yilda Yoqub katta qo'shin bilan Bog'dodga yurish qildi va xalifadan yengilib orqaga qaytdi. 879-yilda Yoqub vafot etgach, taxtga uning ukasi Amir ibn Lays (879–900) o'tirdi. U xalifaga o'z vassalligini bildirdi. Bunga javoban xalifa Amir ibn Laysni Xuroson va Eron noibi deb yorliq yubordi.

873-yilda Buxoroni tohiriylarning so‘nggi vakili Muhammad ibn Tohir bosib oldi va xalqqa nisbatan zulmni kuchaytirdi. Buxoro xalqi Muhammadga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tardi. Shahar amaldorlari Nasr ibn Ahmadga murojaat qilib, somoniylardan Buxoroga noib yuborishni iltimos qildilar. Ko‘pdan beri Buxoroni o‘ziga qo‘shib olishni rejalab yurgan Nasr bu taklifni xursandlik bilan qarshi oldi va ukasi Ismoilni bu yerga noib qilib jo‘natdi. Ismoil Buxoroga kelib qo‘zg‘olonni tinchitdi. Ana shu tariqa tohiriylarga qarashli hudud – Buxoro ham somoniylarga moyil nufuzli kuchlar yordamida ular tasarrufiga qo‘shib olinadi (874). Tohiriylarning bu yerdagi so‘nggi hokimi Muhammad ibn Tohir Buxorodan haydab yuboriladi. Buxoroda Ismoil Somoniy hokimligi qaror topadi.

Biroq, aka-uka o‘rtasidagi qo‘shhokimiyatchilik uzoqqa bormaydi. Natijada Nasr va Ismoil o‘rtasida hokimiyat uchun kurash kuchayib ketadi va bu ularning harbiy to‘qnashuviga sabab bo‘ladi. 888-yilda Ismoil akasi ustidan uzil-kesil g‘alaba qozonadi. 892-yildan boshlab esa Ismoil Somoniy butun Movarounnahrning yagona hukmdori bo‘lib oladi.

Ismoil Somoniy o‘z davrining qobiliyatli, serg‘ayrat va nihoyatda zukko davlat arbobi bo‘lib, Movarounnahr hududida yirik markazlashgan davlatga asos soldi. U o‘z davlatiga doimo xavf solib turgan ko‘chmanchilar ustiga 893-yilda qo‘shin tortdi, Taroz shahrini egallab, shimoldan bo‘ladigan hujumlarga abadul-abad barham berdi.

Kuchayib borayotgan va mustaqillikka intilayotgan Ismoil Somoniy siyosati Arab xalifaligini tashvishga solayotgan edi. Shu bois xalifa Mu‘tazid Ismoil Somoniy bilan Xuroson noibi Amir ibn Laysni to‘qnashtirib o‘z maqsadiga erishmoqchi bo‘ldi. 900-yilda Ismoil hal qiluvchi jangda Amir ibn Laysni yengib Xurosonni ham o‘ziga qo‘shib oldi. Natijada xalifa Ismoil Somoniy davlatini tan olib, unga hukmdorlik yorlig‘ini yuborishga majbur bo‘ldi. Ana shu tariqa, IX asr oxirlarida Movarounnahr Arab xalifaligi istibdodidan butunlay xalos bo‘ldi.

Ammo Somoniylar davlati Ismoilning avlodlari: Ismoil Somoniyning o‘g‘li Ahmad hukmronligi (907–914), uning o‘g‘li Nasr II (914–943), uning o‘g‘li Nuh ibn Nasr (943–954), uning o‘g‘li Abdumalik (954–961)lar davrida inqiroz sari yo‘l tutdi.

8.2. Somoniylar davlati ijtimoiy tuzumining asosiy belgilari

Somoniylar davlati mustaqillikka erishuvi oqibatida uning xo‘jalik hayotida ham chuqur o‘zgarishlar yuz berdi. Mamlakat xo‘jalik hayotida «iqto» mulklarining o‘rni katta edi. Bu mulk egalari «muqto» yoki «iqtodor» deb yuritilgan. Iqtodorlar bu mulklarni davlat oldidagi alohida

xizmatlari uchun yer va suv shaklida olganlar. Iqto shaklida hatto viloyatlar, vohalar, shahar va tumanlar hadya qilingan. Somoniylar davrida xo‘jalikning barcha sohalari rivoj topdi.

Somoniylar davrida katta yer egalari – dehqonlarning nufuzi ortdi. Ko‘pincha bir dehqon qo‘lida katta yer maydonlari, butun bir viloyat bo‘lgan. Ziroat bilan shug‘ullanuvchi ziroatkor kadivar deyilgan. Yirik yer egasi yerida ishlaydigan ijarachi barzigar deb atalgan. Xo‘jalikda qul mehnatidan ham foydalanilgan. Somoniylar davlati aholisining asosiy qismini ziroatchilar tashkil etgan. Keyingi o‘rinda hunarmandlar va savdogarlar turgan.

Somoniylar davlati yer egaligiga asoslanganligi tufayli undagi mulkiy bo‘linish ham turli xil shakllarga ega bo‘lgan. Bular quyidagilardir:

1. «Mulki sultoniy» – sulton (amir)ga tegishli yerlar. Undan tushadigan daromadlar davlat xazinasiga tushardi. Bu juda katta yer-mulklarni, shu jumladan, ko‘p sonli dehqonlar mulklarini ham o‘z ichiga olgan.

2. Mulk yerlari – xususiy mulk yerlari. U asosan hukmron sulola vakillari hamda yuqori tabaqa namoyandalari ixtiyorida mulklar edi.

3. Vaqf yerlari. Bu machit, madrasa va boshqa diniy muassasalar tasarrufiga berilgan yerlar. Ulardan keladigan barcha daromadlar musulmon ruhoniylari manfaati uchun sarf qilinardi.

Olinadigan soliqqa qarab yerlar 2 ga bo‘lingan:

1. «Mulki xiroj» – xiroj yerlar, ya‘ni soliq olinadigan yerlar. Dehqonlar yashagan yerlar, ya‘ni «mulki sultoniy» va «mulklar» shu toifaga kirgan. Bu yerlarda ishlovchilar hosilning uchdan birini davlatga soliq tariqasida topshirardilar.

2. Soliq to‘lashdan qisman yoki butunlay ozod etilgan yerlar. Bunday yerlar oliy musulmon ruhoniylari hamda payg‘ambar avlodidan bo‘lgan sayidlar mulki hisoblangan.

Somoniylar davrida ham ko‘pchilik dehqonlar ommasi turli xil soliq va to‘lovlardan tashqari davlat tomonidan ko‘plab majburiyatlarni o‘tashga ham jalb etilgan. Suv inshootlarini tozalash, ta‘mirlash, to‘g‘onlar, ko‘priklar, yo‘llar qurish shular jumlasidan edi. Bu og‘ir mehnat ishlariga jalb qilingan xodimlar haftalab, o‘n kunlab, ba‘zan esa oylab o‘z hisobidan ishlab berishga majbur edilar. Qishloqlarda esa yersiz dehqonlarning ko‘pchiligini kadivarlar, ya‘ni yollanib ishlovchi korandalar tashkil etardi. Korandalar IX-X asrlarda «sherik» yoki «barzikor», Xurosonda esa «akkor» deb atalgan. Bu davrda yirik mulkdorlar kadivarlardan ko‘ra barzigorlarga yerlarini ijaraga berib ishlatishni o‘zlari uchun afzal bilganlar.

8.3. Somoniylar davlati hokimiyati va boshqaruvining tashkil etilishi

Somoniylar davlati ikki ulkan mamlakatni – Movarounnahr va Xurosonni o'z ichiga olgan edi. Movarounnahrda Amudaryo shimolidagi yerlar kirgan. Shulardan Buxoro, Samarqand, So'g'di Istaravshon, Chochi, Iloq, Farg'ona, Kesh, Nasaf viloyatlari siyosiy va madaniy, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan edi. Daryolarning yuqori oqimi viloyatlaridan Chag'oniyon, Xuttalon, Qubodiyon, Ahorun, Shumon, Vashgird, Rashtt, Kumed, Badaxshon, Karon, Shikinson, Vaxon, Ro'shon qisman somoniylarga tobe edilar. Xuroson Amudaryoning janubida joylashgan Balx, G'uzg'onon, Garjiston, Marv, Hirot viloyatlarini o'z ichiga olardi.

Somoniylar xalifalikdagidek hukmronlik tizimini o'rnatdilar.

Somoniylar Movarounnahr va Xurosonda mustaqil davlat tuzish uchun avvalambor, kuchli markazlashgan hokimiyat tuzish kerakligini yaxshi tushunishgan. Bu, ayniqsa Ismoil Somoniy hukmronligi davrida dolzarb masalaga aylandi. Chunki Ismoil Somoniy Movarounnahr va Xurosonni birlashtirishga va yagona markazlashgan davlat tuzishga muvaffaq bo'ldi. Endi bu davlatni idora qilish lozim edi. Shuning uchun u bir qancha islohotlar o'tkazdi. Mana shunday islohotlardan biri davlatni boshqarish ma'muriyatini joriy qilish bo'ldi. Bu islohotga binoan davlatni idora qilish saroyi (dargoh) va 10 ta devon (harbiy-fuqaro mahkamalari) tashkil etildi. Ismoil Somoniy davlatning majmuyini tashkil etishda Somoniylar Eroni va Arab xalifaligida qabul qilingan tajribalardan foydalandi va uni zamon talabiga qarab mukammallashtirdi.

Hokimiyatning eng yuqori pog'onasida somoniylar turib, ular amir unvoni bilan davlatni idora qilganlar. Davlat majmuyini mustahkamlashda Nasr II Somoniyning ma'rifatli vazirlari Abu Abdullo Muhammad Jayhoni va Abu-Fazl Muhammad Balamiylarning xizmatlari katta bo'lgan. Umuman, somoniylar hukmdorligi davrida vazirlik mansabiga asosan shu ikki sulola vakillari tayinlanganlar. Davlat majmuyini dargoh va devonlarga bo'linishi ma'lum darajada rasmiy bo'lgan. Chunki saroyning nufuzli kishilari ko'p hollarda devonlarning ishlariga aralashib turganlar. Saroyda siyosiy hokimiyat «Sohibi xoras» qo'li ostida bo'lgan. Sohibi xoras amir farmonlarining bajarilishini nazorat qilgan. Saroyda sharbatdorlar, dasturxonchilar, tashtadorlar, otboqarlar, xo'jalik bekalari kabi turli xizmatchilar bo'lgan. Saroydagi hamma xo'jalik ishlarini «vakil» boshqargan. Vakil saroydagi eng e'tiborli kishilardan biri hisoblangan. Narshahiyning yozishicha, Nasr II Somoniy hukmronligi davrida 10 ta devonga Buxoro Registonida 10 ta maxsus bino qurilgan.

Devonlar orasida vazir yoki «xo'ja buzurg» devoni alohida o'rin

tutgan. Bu devonga boshqa hamma devonlar bo'ysungan. U hamma – ma'muriy, siyosiy va xo'jalik mahkamalarini nazorat qilgan.

Davlatni idora etishda «mustaufi devon» ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bu devon davlatning butun moliya ishlarini boshqargan va nazorat qilgan. Devon xazinador tomonidan boshqarilgan.

«Devon amir al-mulk» yoki «al-rasoil» davlat ahamiyatiga molik bo'lgan rasmiy hujjatlarni tuzish bilan shug'ullangan. Bundan tashqari bu devon chet davlatlar bilan bo'ladigan munosabatlarni ham boshqargan.

«Sohib ash-shurat» devoni davlatning butun harbiy ishlarini, shu jumladan amirning shaxsiy qo'shinini ham boshqargan. «Sohib ash-shurat»ning maxsus yordamchisi – ariz bo'lgan. U mahkama va uning boshlig'i amir qo'shini xazinasi bilan shug'ullangan. Qo'shinga bir yilda to'rt marta maosh to'langan.

Davlatni idora etishda «sohib al-borid» devonini ahamiyati ham juda katta bo'lgan. Bu devon davlat ahamiyatiga molik bo'lgan hujjatlarni va xabarlarini yetkazish bilan shug'ullangan. Devonning hamma shahar va viloyatlarda mahalliy mahkamalari bo'lgan.

«Muxtasiba» devoni bozorlarni, sotuvchilarni, qadoqboshlarning og'irligini, bozordagi mollarning narxini, sifatini nazorat qilgan.

Davlat xazinasining daromadlarini va xarajatlarini «mushrif» devoni nazorat qilgan. Bundan tashqari «qozi az-ziya» va «vaqf» devonlari bo'lgan. «Qozi az-ziya» devoni davlat yerlarini, «vaqf» devoni hadya etilgan yerlarni va musulmon ruhoniylarining boshqa mol-mulklarini nazorat qilishgan.

Devonlarning deyarli hammasini viloyatlarda boshqarmalari bo'lgan. Devonlarning viloyatlardagi boshqarmalari bir tomondan o'z devonlariga, ikkinchi tomondan viloyat hokimiga bo'ysunishgan. Bundan faqat «Sohib al-borid» devonining amaldorlari mustasno bo'lgan. Viloyat va rustaklar amir tomonidan tayinlangan hokimlar tomonidan idora etilgan. Odatda bunday lavozimga mahalliy boy zodagonlar tavsiya etilgan.

Somoniylar davlatida musulmon ruhoniylarning ta'siri nihoyatda kuchli bo'lgan. Ular markaziy hokimiyat ishlarida ham faol ishtirok etganlar. Somoniylar davlatning diniy hayotida hanafiylar mazhabiga mansub ruhoniylar hamma diniy lavozimlarni o'z qo'llariga olishgan. Ruhoniylarning boshlig'i «ustod», keyinchalik «shayx ul-islom» deb atalgan. «Ustod»dan so'ng o'z lavozimi bo'yicha ruhoniylar orasida «xatib» turgan. U jome' masjidlarida juma namozida xutba o'qish huquqiga ega bo'lgan.

Davlat amaldorlari asosan boy dehqon va ruhoniylardan tanlangan. Bunda yuqori tabaqaga mansub bo'lishdan tashqari, ma'lum bilimlarga

ega bo'lish talab etilgan. Amaldorlar arab, turk va fors tillarini, Qur'oni Karim va shariatni yaxshi bilishi hamda turli fanlar to'g'risida ma'lum darajada tasavvurga ega bo'lishi kerak bo'lgan.

Har bir o'lkalar va viloyatlar hokimi ko'ngillilardan iborat qo'shin saqlagan. Odatda ko'ngillilar ozod va boy dehqonlarning o'g'illaridan iborat bo'lgan. Ko'ngillilar harbiy holat vujudga kelgan vaqtda yig'ilgan. Ular viloyat va davlat daromadi hisobiga saqlangan. Davlat hududlari viloyat qo'shinlari va g'oziyarning qismlari bilan qo'riqlangan.

8.4. Somoniylar davlatining huquqiy tizimi

Ulkan va qudratli Somoniylar davlati o'ziga xos huquqiy tizimga ega bo'lgan. U o'zidan oldingi, jumladan, islomga qadar mavjud bo'lgan huquqiy normalar va institutlarni qabul qilib olgan. Jumladan, «Avesto»ning ko'pgina qonun va qoidalarini ham Somoniylar davlatida harakatda bo'lganligini ko'rish mumkin. Shuningdek, bu davrda Sosoniylar qonunnomasi, Bobil Talmudi va Ishoboxta qonunnomasi normalari ham harakat qilgan. Bu huquqiy yodgorliklar zardushitiylik, judaizm va xristianlik diniy jamoalariga tegishli edi. Mazkur diniy jamoalar o'z huquqiy tizimlaridan foydalanganlar va yurisdiksiya sohasida mustaqil bo'lganlar.

Biroq, Somoniylar davlatida islom davlat dini sifatida tan olinib, islom huquqi huquqiy tizimda hukmron mavqeni egallagan.

Shunday qilib, Somoniylar davlati huquqiy tizimining shakllanishi va rivojlanishida quyidagilar manba bo'lib xizmat qilgan: Markaziy Osiyoning islomga qadar huquqiy normalari va institutlari; Somoniy tomonidan bosib olingan turli mintaqalarda mavjud bo'lgan huquqiy normalar va institutlar; Markaziy Osiyo xalqlarining hamda ushbu imperiyaga ko'chib kelib o'rnatilgan boshqa xalqlarning o'zaro odatlari va an'analari; mazkur xalqlarning bir-biridan juda farq qiluvchi diniy normalari; yuqoridagi xalqlar va davlatlarning siyosiy an'analari; islom huquqi; Somoniylar davlati hukmdorlarining ulamolar, shuningdek, mahalliy hokimlar, raislar va boshqa ma'muriy-huquqiy birliklarning mansabdor shaxslari bilan birgalikdagi huquq ijodkorlik faoliyati; sud-boshqaruv amaliyoti va boshqalar.

Yuqorida aytib o'tilganidek, islom huquqi Somoniylar davlati huquqiy tizimida hukmron bo'lganligi uchun fuqarolik huquqi, jinoyat huquqi va sud ishlarini yuritilishi, umuman olganda shariatga asoslangan edi.

Shariat bo'yicha fuqarolik huquqi munosabatlari (muomalot) batafsil tartibga solinadi. Fuqarolik huquqiy munosabatlarining subyekti jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin. Shariat yuridik shaxslarning huquqiy holatini alohida tarzda ko'rib chiqmaydi. Jismoniy shaxslar tomonidan qilingan

fuqarolik-huquqiy harakat qonuniy (halol) va yo‘l qo‘yilgan (joiz) yoki qonunsiz, yo‘l qo‘yilmagan (harom) bo‘lishi mumkin. Harakat, shuningdek, shariat nuqtayi nazaridan maqtovgva loyiq (mustahib) va tanbehli (makruh), majburiy va majburiy bo‘lmagan kabi turlarga bo‘lmadi.

Jismoniy shaxslarning layoqatligiga jinsi, tabaqasi, mulkiy ahvoli, ayniqsa e‘tiqodi ta‘sir etadi. To‘liq darajadagi huquq layoqatiga va muomala layoqatiga mulkdor musulmon erkak kishilar, hukmron tabaqa vakilari ega bo‘lgan. Huquqiy layoqat tug‘ilishdan boshlab, meros masalalarida esa tug‘ilmasdan ham avval vujudga kelgan va o‘lim bilan yoki bedarak yo‘qolish bilan tugagan. Yosh bolalar, 15 yoshga to‘lmagan voyaga yetmaganlar, shuningdek, ruhiy kasallar va aqli zaiflar muomala layoqatiga ega emas deb hisoblangan.

Fuqarolik huquqining obyektini ashyolar, mulkiy, shuningdek, mulkiy xarakterga ega bo‘lmagan shaxsiy huquq (masalan, ismga ega bo‘lish huquqi) tashkil etgan. Ashyolar harakatda va harakatsiz (ko‘chmas), almashtiriladigan va almashtirilmaydigan, nasliy va nasliy bo‘lmagan, bo‘linadigan va bo‘linmaydigan, iste‘molga yo‘l qo‘yilgan va iste‘molga yo‘l qo‘yilmaydigan, muomaladan olingan va muomaladan olinmagan bo‘lishi mumkin.

Somoniylar davlatida sud ishlari shariat qonun-qoidalariga asoslangan edi. Sud ishlari qozilik devoni tomonidan boshqarilgan. Sud jarayoni qozikalon, qozilar, mufti, raislar tarafidan amalga oshirilgan. Viloyat qozilari qozikalonga bo‘ysungan. Og‘ir jinoyat qilganlar o‘limga yoki uzoq muddat qamoq jazosiga mahkum etilgan. Viloyatlarda og‘ir jinoyat sodir etganlar qozikalon va amir hukmiga havola etilgan. O‘lim jazosini ibrat uchun Buxoro Registonida, ko‘pchilik oldida ijro etishgan. O‘g‘irlik qilganlar muhtasib va uning mirshablari tomonidan ushlanib, aholi to‘plangan yoki bozor joylarda qo‘li chopib tashlangan. Yengilroq gunoh qilganlarga tan jazosi (kaltak, darra) berilgan yoki jarima solingan.

Somoniylar davlatida islomdagi huquqiy munosabatlarni mahalliy xalq urf-odatlariga moslashtirishga yordam beruvchi asarlar yaratilgan. Ulardan qozilik mahkamalari yordamchi qo‘llanma tarzida foydalanganlar. Masalan, faqih Abulays Nasr ibn Muhammad ibn Ahmad Samarqandiy (vafoti 985-yil)ning «Xazinatul-fiqh» («Musulmonchilik qonun-qoidalari xazinasini») asarini ko‘rsatish mumkin.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

- 1. Somoniylar davlatining vujudga kelishi haqida gapirib bering.*
- 2. Somoniylar davlati ijtimoiy tuzumi qanday bo‘lgan?*
- 3. Somoniylar davrida davlat hokimiyati qanday tashkil etilgan?*
- 4. Boshqaruv tizimi qanday tashkillashtirilgan edi?*
- 5. Somoniylar huquqiy tizimiga ta‘rif bering.*

6. *Somoniylar davlatining ijtimoiy-siyosiy tuzumida avvalgi davlatlarga nisbatan qanday o'zgarishlar qilindi?*
7. *Somoniylar davlatida sud ishlarining yuritilishi qanday bo'lgan?*
8. *Somoniylar davlatiga oid huquqiy manbalar haqida gapirib bering.*

9-MAVZU: G'AZNAVIYLAR DAVLATI VA HUQUQI

1. G'aznaviylar davlatining tashkil topishi.
2. G'aznaviylar davlatining ijtimoiy va davlat tuzumi.

9.1. G'aznaviylar davlatining tashkil topishi

G'aznaviylar davlatining tashkil topishi X asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Bu vaqtga kelib G'azna shahri Xurosonning siyosiy markaziga aylangan edi. G'azna shahrida hokimiyatni qo'lga olishga birinchi bo'lib Somoniylar lashkarboshisi Alp Tegin urinib ko'rgan. Keyinchalik esa tajribali va dovyurak turk qo'mondoni Sabuqtegin Somoniy amirlaridan Nux II ga ko'rsatgan yordami uchun G'azna noibi unvonini qo'lga kiritadi. Butun Xuroson uning tasarrufiga o'tadi. Shu tariqa 962-yilda G'aznaviylar davlatiga asos solinadi. Bu davlatning tashkil topishiga bir tomondan Somoniylar davlatining zaiflashuvi, ikkinchi tomondan esa, turk lashkarboshilarining mavqeyini kuchayishi sabab bo'ldi.

G'aznaviylar davlati musulmon olamining eng kuchli davlatiga aylandi. Bu davlatning hududi Mahmud G'aznaviyning istilochilik yurishlari tufayli shimoliy va shimoli-g'arbiy Hindistondan Chag'oniyon va Xorazmgacha cho'zilgan bo'lib, unga Eronning katta qismi ham kirgan edi. G'aznaviy Movarounnahrda qoraxoniylar siyosatiga va ayniqsa Xorazmgacha katta ta'sir ko'rsatar edi. O'z davrining iqtidorli sarkardasi va qattiqqo'l hukmdori bo'lgan Sulton Mahmud G'aznaviy 1030-yilda vafot etadi.

Mahmud G'aznaviy vafotidan so'ng uning o'g'li Mas'ud davrida (1030–1041) bu davlat bir tomondan, ichki feodal ziddiyatlarning kuchayishi va ikkinchi tomondan, saljuqiy turklarning ketma-ket hujumlari, xususan, 1040-yilda Dandanakonda berilgan zarbadan so'ng o'zini o'nglab ololmadi va o'z mustaqilligini butunlay yo'qotdi.

Jangdan zo'rg'a qochib qutilgan Mas'ud tez orada (1040) vafot etdi. Uning vorislari g'aznaviylar davlatining avvalgi qudratini tiklashga muvaffaq bo'la olmadilar. Asta-sekin o'z qudratini yo'qota boshlagan g'aznaviylar davlati XII asrning oxirida Afg'oniston hududida tashkil bo'lgan yangi davlat G'uriylar tomonidan butunlay tugatildi.

G'aznaviylarga tegishli Xuroson asta-sekin saljuqiylar qo'liga o'tdi.

9.2. G'aznaviylar davlatining ijtimoiy va davlat tuzumi

G'aznaviylarning bosqinchilik yurishlari butun-butun viloyatlarning xonavayron bo'lishi, sug'orish tarmoqlarining buzilishi, aholining talanishi va qullarga aylantirilishi bilan birga kechgan.

Bu vaqtda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy tuzumida uncha katta o'zgarishlar yuz bermadi. Lekin aholining bir qismi qullarga aylantirilib, g'aznaviylar davlatiga olib ketildi.

Yerga egalik shakllari, soliq turlari, hukmron va tobe tabaqalar asosan ilgarigidek saqlanib qolgan edi. Lekin g'aznaviylar tomonidan bosib olingan o'lkalarning xalqlari bu davlatga katta miqdorda o'lpon va soliqlar jo'natib turishlari lozim edi.

Sulton Mahmud davrida g'aznaviylar davlati har tomonlama rivojlanib bordi. Mamlakat poytaxti G'aznada va boshqa shaharlarda ko'plab oliy imoratlar, masjid, madrasalar, ko'rkam karvonsaroylar barpo etildi. Dehqonchilikni rivojlantirish uchun kanallar, ariqlar qazildi, to'g'onlar qurildi. Islom ruhoniylari katta imtiyozlarga ega bo'ldilar. Sulton Mahmudning o'zi adolatparvar hukmdor bo'lib, ilm-ma'rifatga katta e'tibor berar edi. Uning saroyida ilmu fan arboblari, adabiyot ahlining anjumanlari muntazam o'tkazilib turilardi. Ulug' alloma Abu Rayhon Beruniyning ham sulton saroyida ko'p muddat faoliyat ko'rsatganligi buni isbot etadi.

G'aznaviylar davlati boshqarish shakliga ko'ra monarxiya davlati edi. Uning tepasida sulton turgan. Unga bunday yorliqni arab xalifasi bergan edi. Sulton qonun chiqarish, ijro etish va oliy sud hokimiyatiga ega edi. Garchi uning hokimiyati bo'linmas hisoblansa-da, ba'zi hollarda o'z yaqinlarining fikri bilan hisoblashishga majbur bo'lgan. Keyinchalik Bag'dod xalifasi al-Qodir (991–1031) tomonidan unga yamin ud-davlat – ya'ni, davlatning o'ng qo'li faxriy unvoni berilgan¹.

Vazir sultonning eng yaqin yordamchisi, barcha fuqaro va ma'muriy amaldorlar boshlig'i hisoblangan. Mashhur tarixchi Bayhaqiy «Mas'ud tarixi» asarida G'aznaviylar davlatida sulton va vazir o'rtasida bo'ladigan va boshqa davlatlarda ko'zga tashlanmaydigan o'ziga xos munosabatni keltiradi. Agar sulton biror kishiga vazirlik mansabini bersa, uning bilan davlat boshqaruvi masalasida o'zaro vakolatlarni chegaralashga doir bitim tuzgan. Bunda vazir sultondan o'z vakolatini qay yo'sinda, qay

¹ Z. Muqimov. «O'zbekiston davlati va huquqi tarixi». 1-qism. Samarqand, Zarafshon. 1999.

hajmda amalga oshirishini so‘rab noma yozgan. Sulton unga o‘z qo‘li bilan javoblar bitgan. Shu tariqa vujudga kelgan bitim so‘nggida ikkalasi ham qasam ichishib, imzo chekishgan. Vazir o‘z vazifasini namunali olib borishga guvohlar oldida baland ovoz bilan qasamyod qilgan. Bu qasam yorlig‘i davlat arxivida saqlangan. Bitimni esa vazir o‘ziga olgan. Ana shunday bitim G‘aznaviy sulton Mas‘ud bilan 1032-yilda bosh vazir etib tayinlangan Ahmad ibn Xasan Maymandiy o‘rtasida tuzilgan bo‘lib, mazkur asarda uning to‘la matni keltiriladi.

Vazirning vazifalaridan biri g‘aznaviy davlatining markaziy devoniga rahbarlik qilish bo‘lgan. Bunga: davlat mirzaxonasi, devon ar-risoil, vazirlik devoni – devoni vazorot, moliya hisob devoni – devoni iste‘fo, qo‘shinlar devoni – devoni arz, saroy devoni – devoni vakolat, pochta-aloqa devoni – devoni barid kirgan. Ular boshida turgan «sohiblar» deb atalgan amaldorlar vazirning barcha buyruq va farmoyishlarini bajargan.

Soliqlar yig‘ish bilan shug‘ulianuvchi mansabdor shaxs «omil», fuqaro va harbiy amaldorlar «qilich va qalam sohiblari» deb atalib, ular o‘rtasida daromadli mansablarni egallash uchun qattiq kurash borgan.

Armiya qo‘mondonlari asosan turkiylardan bo‘lib, kelib chiqishiga ko‘ra ular g‘ulomlardan edi. Sulton taxtining tayanchi hisoblangan qo‘shin asosan otliq, qisman piyoda askarlardan tashkil topgan. G‘aznaviy armiyasining o‘ziga xos tomoni shunda bo‘lganki, unda alohida tutqunlikdagi g‘ulomlardan tuzilgan qism mavjud edi. Uning tarkibi ko‘pincha Movarounnahr, Xo‘jand, Taroz tomonlardan sotib olingan va harbiy ishga o‘rgatilgan qullar, harbiy asirlardan iborat bo‘lgan. Saroy g‘ulomlari (2 ming kishi chamasi) sultonning xos qo‘riqchisi va bayroqdorilarga (300 g‘ulom) bo‘linib, ular xizmat evaziga xazinadan yillik maosh va oziq-ovqat mahsulotlari olib turishgan. G‘ulomlar yaxshi xizmatlari uchun ozod etilishlari, yer mulkiga ega bo‘lishlari, katta mansablarga erishishlari mumkin edi. Ammo shunga qaramasdan, sultonning quli holatida qolaverishardi. Bu jihatini hisobga olib, ularni shaxsan ozod bo‘lmagan imtiyozli tabaqa deb atash mumkin. G‘ulomlar doimiy ravishda sulton mirzaxonasining amaldori – dabirning yashirin nazorati ostida bo‘lishgan. G‘aznaviy armiyasi uchta yirik qo‘shilmadan iborat bo‘lib, uchta qo‘mondon sipohsolar Hindiston, Iroq, Xurosonda joylashgan. Butun armiya qo‘mondoni xos hojib bo‘lib, u alohida bayroq va dovulga ega edi.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

1. *G‘aznaviy davlatining tashkil topishi haqida gapirib bering.*
2. *G‘aznaviy davlatining ijtimoiy tuzumi qanday bo‘lgan?*

3. *G'aznaviylar davlatining ijtimoiy tuzumi Somoniylar davlatining ijtimoiy tuzumidan qanday farq qilgan?*
4. *G'aznaviylar davlatining davlat tuzumi qanday edi?*
5. *G'aznaviylar davlat tuzumida Somoniylarga nisbatan qanday o'zgarishlar qilingan?*
6. *G'aznaviylar davlatiga oid huquqiy manbalar haqida gapirib bering.*

10-MAVZU: QORAXONIYLAR DAVLATI VA HUQUQI

1. Qoraxoniylar davlatining tashkil topishi.
2. Ijtimoiy-siyosiy tuzumi xususiyatlari.
3. Boshqaruvning tashkil etilishi.
4. Qoraxoniylar davlati huquqining asosiy belgilari.

10.1. Qoraxoniylar davlatining tashkil topishi

X asr o'rtalariga kelib Yettisuv va Qashqar hududida yashovchi qorluq, chig'il va yag'molarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim o'zgarishlar sodir bo'ladi. Avvaldan asosan chorvachilik bilan shug'ullamb kelgan bu qabilalar endilikda bir qator omillar ta'sirida o'troq hayotga o'ta bordilar. Ularda dehqonchilik bilan shug'ullanish kuchli rivoj topdi. Shaharlar o'sdi.

X asr o'rtalariga kelib bu qabilalarning birlashuvi jarayoni yangi pallaga kirdi. Issiqko'l janubi va Qashqarda yashagan yag'molarning o'zlaridan shimolda yashagan chig'il qabilalari bilan ittifoq tuzishi bu birlashuvga negiz yaratdi. Ular Yettisuvga hujum uyushtirib, ko'p sonli Qorluqlarni bo'ysundirdilar.

Qorluqlar madaniy taraqqiyotda boshqa qabilalardan ancha yuqori turganlar. Qoraxoniylar davlatining vujudga kelishida chig'illar, tuxsilar, arg'ular, yag'molar, turgashlar, qipchoqlar, yabaqular, kaylar, o'g'izlar, qirg'izlar singari urug' qabilalari ham muhim rol o'ynadilar. Bu davlatga yag'mo urug'idan chiqqan, o'z qavmi bilan islomni qabul qilgan Sotuq Abdul Karim Qoraxon (Bug'raxon) asos solgan. U o'zini Afrosiyob (Alp Er Tunga)ning avlodi deb hisoblar edi. «Qora» iborasi qadimgi turkiy tillarda «buyuklik», «ulug'lik» ma'nolarini anglatgan. Shu bois u buyuk hukmdor so'ziga tengdir. Odatda, qoraxoniylar hukmdorini «tamg'achxon», ya'ni xonlar xoni deb yuritganlar.

Qoraxoniylar hukmdori Hasan Xorun Bug'raxon barcha turkiy qavmlardan tashkil topgan katta lashkar bilan 992-yilda Movarounnahr sarhadlari sari yurish boshlaydi. Yo'l-yo'lakay Shosh, Farg'ona va boshqa o'lkalarning xalqlari ham unga madad ko'rsatadilar. Bu davrda

somoniylar har tomonlama tushkunlikka yuz tutib, uning hukmdorlarini nufuzi va ta'siri keskin tushib ketgan edi. Somoniylar hokimiyatning asosiy tayanchi bo'lib kelgan turk g'ulomlari, ularning sarkardalari ham katta ta'sirga ega bo'lib, somoniy hukmdorlarning izmiga bo'ysunmay qo'ygandilar.

Turk lashkarboshilari Abu Ali Simjuriy, Sabuq-tegin, turk hojibi Foyiqning amir hokimiyatiga muxolifatda bo'lib, tez orada qoraxoniylar bilan yaqin munosabat o'rnatishlari, shubhasiz, qoraxoniylarning bu hududni osonlik bilan qo'lga kiritishiga yordam berdi. Bug'raxonning 992-yilgi birinchi hujumidayoq Buxoroni egallashi shundan dalolat beradi. Hasan Bug'raxon kasallanganligi tufayli Buxoroni tark etadi va yurtiga qaytish chog'ida yo'lda halok bo'ladi. Bundan foydalangan somoniylar vakili Nuh II ning o'g'li Nasr Somoniy Buxoro taxtiga qayta chiqib oladi. Biroq qoraxoniylar 996-yilda Buxoro tomon yangi harbiy yurish boshlaydilar. Bu yurishga Nasr Bug'raxon boshchilik qiladi. 999-yilga kelib Buxoro to'liq ishg'ol qilinadi. Butun Movarounnahr qoraxoniylar tasarrufiga o'tadi. 1001-yilda g'aznaviylar hukmdori Mahmud G'aznaviy bilan tuzilgan shartnomaga ko'ra, Amudaryoning shimolidagi barcha hududlar qoraxoniylarga o'tgan edi. Ana shu tariqa Somoniylar davlati o'rniida 2 ta yangi turk davlati tashkil topadi. Bular Qoraxoniylar va G'aznaviylar davlati bo'lgan.

Shuni qayd etish joizki, qoraxoniylar o'rtasidagi sulolaviy kurashlar oqibatida XI asrning 40-yillariga kelib xonlik ikkiga bo'linib ketdi. G'arbiy xonlik markazi Buxoro bo'lib, unga Movarounnahr va Farg'onaning g'arbiy hududlari kirgan. Sharqiy xonlik markazi Bolasog'un bo'lib, uning tarkibiga Talos, Isfijob, Shosh, Farg'onaning sharqiy qismi, Yettisuv va Qashqar yerlari kirgan. Qoraxoniylarning yer, mol, dunyo va davlat talashib g'aznaviylar, saljuqiylar va qoraxitoylar bilan olib borgan kurashlari oqibatida bu davlat kuchsizlanib qoldi. 1130-yilda qoraxoniylar davlati saljuqiy Sulton Sanjarga butunlay qaram bo'lib qoldi. 1211-yilda xorazmshoh Aloviddin Muhammad qoraxoniylarga so'nggi zarbani berdi va qoraxoniylar sulolasini butunlay tugatdi.

10.2. Ijtimoiy-siyosiy tuzumi xususiyatlari

XI-XII asrlarda yuz bergan siyosiy voqealar Movarounnahr jamiyati hayotida ham o'zgarishlar yasadi. Alohida mulklarning boshqaruvi, ma'muriy idoralar somoniylar davridagi tartiblarga muvofiq kelardi, ijtimoiy mansab va martabalaridagi farq uncha katta emas edi. Ijtimoiy tuzumda mavqeyi ancha baland hisoblangan yirik zamindorlar — dehqonlar qatlami qoraxoniylar davrida o'z ahamiyatini yo'qotdi. O'rta

Osiyo ko'ha zodagon toifasining bunday ahvolga tushishiga asosiy sabab siyosat maydonida yuz bergan sulolalar o'rtasidagi taxt almashuvi, eng ta'sirli jihati esa ko'chmanchilik sharoitiga moslashgan el-uluslarning o'troq aholi hududlarini ishg'ol etish bo'lgan.

Somoniylar zamonida mazkur sulola uchun xos markazlashgan davlat tuzumidan qoniqmagan aslzoda dehqonlar qoraxoniylarni qo'llab-quvvatlagan edilar. Yirik xonadon sohiblari qoraxoniylar hokimiyatda uzoq davr turisha olmaydilar va vaqti kelib biz hududimizning asosiy hukmdorlari bo'lib qolamiz deb o'ylashgan edi. Ularning bunday rejalarini tushungan yag'mo va chig'illarning boshliqlari zodagonlarni quvg'in qila boshladilar. Buning oqibatida keksa boy qatlam vakillari o'z ekinzorlari, uy-joylari, mulklari va boyliklaridan mahrum bo'ldilar. Dehqon degan nom endilikda faqat oddiy jamoatchiga nisbatan aytiladigan bo'lib qoldi. Aslzodalar o'zlarining daromad manbayi – yer-mulkdan mahrum bo'la boshlagan sari oddiy jamoachi ziroatkorlar ijarachilarga aylana bordilar. Bu paytda yerlar egasiz va qadrsiz bo'lib qoldi. Unumdor joylar yaylovlarga aylandi. Biroq keyingi voqealar jarayonida Movarounnahr ijtimoiy hayotida jonlanish yuz berganligi haqida ma'lumotlar bor.

Qoraxoniylar davrida jamiyatning ijtimoiy bo'g'inlari quyidagi shakl va ko'rinishga ega bo'lgan:

1. Elikxon – xoqon ul-hoqondan keyingi pog'onada turuvchi shaxs. U xoqon xonadoniga mansub bo'lib, viloyatning mulk sohibi hisoblangan.

2. Iqtadorlar – qoraxoniylar davlatining tayanch qatlami, asosiy harbiy harakatlarni amalga oshiruvchi jangovor bo'linmalar vakillari. Ular o'z martabalariga ko'ra bir-birlaridan farq qilganlar.

3. Islom dinining peshvolari – imomlar, sayyidlar, shayxlar, sadrlar. Qoraxoniy hukmdorlar musulmon rahbarlari bilan yaxshi munosabatda bo'lganlar. Diniy mansab sohiblarining mavqeyi benihoya katta bo'lgan.

4. Hokimlar, raislar, muxtasiblar va hokazo. Bunday shaxslar somoniylar davridagi singari qoraxoniylar davrida o'z mavqelarini mustahkam saqlay olgan ijtimoiy qatlamlardir.

5. Tariqchilar – ziroatkorlarning turkcha nomi, qishloq-xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlovchi asosiy ijtimoiy qatlam.

6. Hunarmandlar – turli xildagi xo'jalik ahamiyatiga molik ashyo, asbob-anjomlar yasovchi, tayyorlovchi mehnatkash qatlam.

7. Savdogarlar – savdo-sotiq bilan mashg'ul bo'lgan shahar ahli.

8. Ko'chmanchilar – chorvadorlar, ya'ni chorva mahsulotlari yetishtiruvchi asosiy qatlam.

Qoraxoniylarda oddiy xalq budun deyilgan. Soliq to'lovchi fuqaro raiyat deb atalgan. Qabila boshliqlari bek deyilgan. Savdogarlar sart deb atalgan. Qoraxoniylar davlatida hunarmandchilik (kulolchilik,

to'quvchilik, shishasozlik, temirchilik, zargarlik), shuningdek, zirot va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlovchi sohalar taraqqiy etgan. Shuningdek, qimmatbaho toshlar, oltin, mis, temir qazib olingan. Shaharsozlik inshootlari pishiq g'ishtdan bunyod etilgan. Xonlikda yer egaligining iqta shakli keng tarqalgan. Manbalardan birida shunday deyiladi: «Iqtaga sohib bo'lganlar muqtalar shuni bilishlari lozimki, ular faqatgina raiyatdan haq molini yaxshilik bilan olishga haqlidirlar va odamlar o'z tanu mollari, bola-chaqalari, asbob-uskunalari bilan xavfsiz bo'lishlari shart. Agar odamlar saroyga kelib, o'z hollarini ma'lum qilmoqchi bo'lsalar, ular qarshilik qilmasinlar va qaysi bir muqta shunday qilsa, qo'lini qisqartirib, iqtasini tortib olish, o'ziga jazo berib, boshqalarga ibrat etib ko'rsatish kerak. Ularga shuni bildirib qo'yish lozimki, mulk ham, raiyat ham xonnikidir. Muqtalar va valiylar ularning boshlarida shahnadek turib, podshohni raiyat bilan birga xavfsizlikda saqlaydilar» («Siyosatnoma»). Xoqon, vaqf, jamoa mulklari qoraxoniylar tasarrufidagi asosiy yer-mulklar hisoblanadi.

10.3. Boshqaruvning tashkil etilishi

Qoraxoniylar tomonidan Movarounnahrning ishg'ol etilishi hududning siyosiy hayotida katta o'zgarishlar yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Mamlakat endilikda markazlashgan davlat tizimidan alohida mulk boshqaruv tizimiga o'tdi. Har bir viloyat ma'lum siyosiy mavqega ega holda xondan kichikroq unvonga ega elikxonlar tomonidan boshqariladigan bo'ldi.

Qoraxoniylarda ikki poytaxt – Koshg'ar va Bolasog'un sanalib, ulug' xon shu shaharlardan biridagi qarorgohda o'tirgan. Ulug' xoqon yoki ulug' xon xoqon ul-xoqon degan nomda yuritilgan. Arab manbalarida mazkur unvon sulton ul-salotin, fors tarix asarlarida shahanshohga muvofiq keladi. Aynan yuqoridagi oliy unvon qoraxoniylar davri kitoblarida tamg'achxon deb ham yuritilgan.

Qoraxoniylarga qarashli yerlar tamg'achxon tomonidan uning o'g'illari, qarindoshlari o'rtasida taqsimlangan edi. Shu bois yer-mulk masalasida ota-o'g'il, amaki, jyanlar hamda aka-ukayu amakivachchalar o'rtasida doimiy nizolar yuz berib, bu siyosiy ahvolga salbiy ta'sir ko'rsatib turgan.

Yettisuvdan turib Movarounnahrni boshqarish qiyin bo'lgan. Qoraxoniylar davrida Samarqand elikxoni ancha kuchayib ketgan edi. Saroyda somoniylar davlatida bo'lganidek vazir, sohibbarid, mustavfiy, hojib, rais-muhtasib kabi amaldorlar bo'lgan. Qoraxoniylar davlatida imom, sayyid, shayx, sadrlar mavqeyi kuchli edi.

Qoraxoniylar davlati boshlig'i – xoqonning taxti merosiy sanalgan.

Ma'muriy idoralar ikkiga bo'lingan: dargoh va devonga. Xoqonning ulug' hojibi xoqon bilan fuqaro o'rtasida vositachilik qilgan. Xoqon saroyida quyidagi amaldorlar bo'lgan: og'ichi – shoyi kiyimlar xazinachisi; biruk – mehmonlarni qabul qilish bo'yicha mutasaddi; oshchi – xoqon oshxonasi boshlig'i (bovarchi); bitikchi – munshiy; kotib – mirza; qushchi – xoqon ovining tashkilotchisi. Xoqon harbiy qo'shinlari cherik deyilgan, unga suboshi yoki sipahsolor qo'mondonlik qilgan. Kichik zobitni chovush, sipohiylar to'dasi qo'mondoni xaylboshi deyilgan. Qo'shin o'nlik, yuzlik, mingliklarga bo'lingan. Qoraxoniylar xoqoni qo'shini (harbiy lager) xonto'y deyilgan. Xoqon qo'shinida doimo to'qqizta sariq bayroq hilpirab turgan. Xoqonlikda elchini yalavoch yoki yalafar deb atalgan.

Xoqonlik hududlari el, viloyatlarga bo'lingan.

Yusuf Bolosog'uniy o'z asarida bek bo'lish uchun yuksak sifatlar bo'lishini talab qiladi: «Bek – dono, botir, sheryurak bo'lishi lozim. Uning bilimli, zakovatli, mulohazali bo'lishi taqozo etiladi. Ochiq yuzlilik bekning yaxshi fazilatlaridan biridir». Albatta bek kim va qanday bo'lmasin, u xalq bor bo'lgani uchun bekdir. Shuning uchun ham u bek hokimiyatida xalqning o'rniga yuksak baho beradi. «Oddiy aholi– «aratlar» beklarning qanot va parlari bo'lib, ularsiz qush kabi ucha olmas edilar. Qaysi bek hushyor bo'lsa, elini mustahkamlaydi, yov bo'ynini yanchib, uning ustiga balolar yog'diradi, qaysi bek elida to'g'ri (odil) siyosat yurgizsa, elini yashnatadi, uning kunlarini yoritadi. Mana shu ikki narsa tugal bo'lsa, el ham mangu turaveradi». Qoraxoniylar davlatida aratlar – oddiy xalq uchga: boylarga, o'rtahollarga va chig'aylar – yo'qsillarga bo'lingan. Bundan tashqari, kishilar «qul kabi er», «qulsik er», «qulsik kishi» kabi nomlar bilan atalgan qaramlikka tushib qolgan kishilar ham mavjud edi.

10.4. Qoraxoniylar davlati huquqining asosiy belgilari

Qoraxoniylar davlatida huquqning asosiy manbasi shariat bo'lib qolavergan. Ma'lumotlarga qaraganda, qoraxoniylardan Ibrohim Tamg'achxon islomning ashaddiy tarafdorlaridan bo'lgan. Demak, qoraxoniylar islom huquqiy tartibotlari – shariatga qat'iy rioya etganlar. Biroq, qoraxoniylar ko'chmanchi turkiy qabila vakillaridan bo'lganliklari uchun o'sha chorvadorlarga xos tartib-qoidalarga ham amal qilganlar. Ibn al-Asir, Yusuf Bolosog'uniy, Narshaxiy va Nizomulmulik asarlarida bayon qilingan voqealar, tarixiy jarayonlardan Movarounnahrda huquqiy munosabatlarni ham anglash mumkin. Biroq markazlashgan davlatning yo'qligi bu munosabatlarda ham o'zining salbiy ta'sirini o'tkazardi. Ayrim hollarda o'troqlik bilan ko'chmanchilik bir-biriga

mutanosib kelmasligi bois mavjud qonun-qoidalarga amal qilmaslikka sabab bo'lardi. Lekin shunga qaramay, islomni qabul qilgan qoraxoniylar rahbarlar shariatga amal qilish bilan o'z davlatlarining huquqiy tartiblarini saqlay oldilar.

Qoraxoniylar davlatida saljuqiylarda bo'lgani singari iqta masalasida ayrim qonuniy cheklanishlar joriy etilgan. Iqta egasi o'z mulkida ishlayotgan ziroatkorlardan belgilangan miqdorda qonun bilan qayd etilgan soliqdan boshqa ortiqcha mahsulot yoki haq olishga haqli bo'lmagan. Majburiy ravishda biror-bir mahsulot tortib olinsa, bunday vaziyatda iqtaning ma'lum miqdori qirqib olingan yoki umuman tortib olingan.

Raiyatdan biror-bir shaxs amaldor yoki mansab sohibidan aziyat cheksa, bunday vaziyatda mazlum kishi davlat boshlig'iga arz qilgan va shundan so'ng zulm qilgan kishi o'z jinoyatiga yarasha jazoga tortilgan. Sud ishlarini har bir viloyat yoki tuman uchun mas'ul qozilar amalga oshirganlar.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

1. *Qoraxoniylar davlatining tashkil topishi haqida gapirib bering.*
2. *Qoraxoniylar davlatining ijtimoiy-siyosiy tuzumi xususiyatlari qanday bo'lgan?*
3. *Qoraxoniylar davlatining ijtimoiy-siyosiy tuzumida Somoniylar davlatiga nisbatan qanday o'zgarishlar qilingan?*
4. *Qoraxoniylar davlati ijtimoiy bo'g'inlari qanday shakl va ko'rinishga ega bo'lgan?*
5. *Qoraxoniylar davlatining boshqaruv tizimi qay tarzda tashkil etilgan edi?*
6. *Qoraxoniylar boshqaruv tizimining Somoniylar boshqaruv tizimidan farqi nimalardan iborat bo'lgan?*
7. *Huquqining asosiy belgilari haqida gapirib bering.*
8. *Qoraxoniylar davlatiga oid huquq manbalari haqida gapirib bering.*

11-MAVZU: SALJUQIYLAR DAVLATI VA HUQUQI

1. Saljuqiylar davlatining tashkil topishi.
2. Saljuqiylar davrida yer egaligi shakllari va munosabatlari.
3. Saljuqiylar davlat tuzumi.
4. Saljuqiylar davrida huquq masalalari.

11.1. Saljuqiylar davlatining tashkil topishi

O'rta Osiyo xalqlari tarixida muhim iz qoldirgan saljuqiylar davlati dastlab IX asrning ikkinchi yarmi va X asr o'rtalarida Orolbo'yi va

Kaspiybo'yi hududlarida yashagan o'g'uzlar ittifoqi negizida shakllangan edi. Uning dastlabki poytaxti Sirdaryo etaklaridagi Yangikent bo'lgan. Tarixiy manbalarda o'g'uzlarning 22 yoki 24 qabiladan iborat bo'lganligi qayd etiladi. Bular chovdir, chandir, emreli, ichdir, yazir, salir, qoradoshli, bayot, koyi va shu kabilardir.

O'g'uzlarning muayyan sabablar bilan hozirgi Turkmaniston yerlariga o'tib, islomni qabul qilgan va o'sha joydagi yerli aholi bilan singishib ketgan qismi turkmanlar nomini olgan.

O'g'uzlarning yobg'usi (yetakchisi) Saljuqbek saljuqiylar davlatiga asos solgan. Uning avlodlari – To'g'ulbek, Chag'irbek va Shakarbeklar bu davlatni buyuk saltanat darajasiga ko'tardilar. O'g'uzlar turli xalqlarning, chunonchi, o'zbek, turkman, turk, gagauz va boshqa xalqlarning etnik jihatdan shakllanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatganlar.

Ko'chmanchi chorvador qabilalar bo'lgan o'g'uz-turkmanlar XI asr o'rtalariga qadar qoraxoniylar va g'aznaviylar hukmdorlari bilan kelishuv asosida bu davlatlarga qarashli turli hududlarda o'z ko'ch-ko'roni, chorvasi bilan ko'chib yurganlar. Ba'zi hollarda esa mahalliy aholi bilan kelisha olmay, ularga hujum uyushtirib, talonchilik, bosqinchilik bilan ham shug'ullanganlar. G'aznaviylar roziligi bilan Niso, Farova va Dehiston, Obivard hududlarida joylashgan turkman o'g'uzlari To'g'ulbek boshchiligida tez orada katta kuch bo'lib birlashib, G'azna davlatiga ham jiddiy xavf sola boshlaydi. Xususan, To'g'ulbek qisqa muddatda Xuroson yerlarini ham ishg'ol qila bordi. 1040-yilda Saraxs bilan Marv o'rtasidagi Dandanakonda qaqshatqich mag'lubiyatga uchrach, g'aznaviylar hududlari ham saljuqiylar tasarrufiga o'tdi. To'g'ulbek saljuqiylar davlatining boshlig'i sifatida (1038–1063) o'z istilochilik yurishlarini g'arb tomon davom ettirdi. U Eron, Iroq, Ozarbayjon, Kurdistan, Ko'histonni zabt etdi. 1055-yilda xalifalik poytaxti Bag'dodni ham o'ziga bo'ysundirdi. Uning davrida Ray shahri (Eron) saljuqiylar davlatining poytaxti bo'ldi. Ali Arslon davrida (1063–1072) mamlakat poytaxti Marvga ko'chirildi. Saljuqiylar hukmdori Malikshoh (1072–1092) o'z e'tiborini sharqqa, ya'ni Movarounnahr yerlariga qaratdi. 1089-yilda u qoraxoniylar davlatining asosiy tayanch nuqtalari hisoblangan Buxoro va Samarqandni bosib oladi. Asir tushgan qoraxoniylar xoni Ahmad o'zini saljuqiylarga tobeligini tan oladi.

Ulug' saljuqiylar davlati ayniqsa Sulton Sanjar (1118–1157) davrida o'z hududlarini kengaytirdi. Bu davrda Xorazm rasman saljuqiylar nomidan boshqarilgan.

Qoraxoniylar xoni Arslonxon (1102–1130) ham Sulton Sanjar bilan hisoblashishga majbur bo'lgan. 1130-yilga kelib Sulton Sanjar qoraxoniylar poytaxti Samarqandni egallagach, amalda butun Movarounnahrda hukmron bo'lib oladi. Biroq 1141-yilda Katvon

choʻlida qoraxitoylar bilan boʻlgan katta toʻqnashuvda saljuqiylar qaqshatqich zarbaga uchragach, ularning hukmronligi ham inqirozga yuz tutadi. Sulton Sanjar vafotidan keyin (1157) buyuk saljuqiylar davlatining Movarounnahrda taʼsiri amalda barham topadi.

11.2. Saljuqiylar davrida yer egaligi shakllari va munosabatlari

Saljuqiylar davlatining tashkil topishi oʻrta asrlarning rivojlangan davriga toʻgʻri kelganligi sababli unda yerga egalik shakllari va munosabatlari ancha taraqqiy etgan. Aholisining anchagina qismi koʻchmanchi hayot tarzini boshdan kechirgan boʻlishiga qaramay, bu hududda qadimdan yashab kelgan xalqlarning bir qismi dehqonchilik, savdo-hunarmandchilik bilan, qolganlari esa chorvachilik bilan shugʻullangan.

Dehqonlar – yer egalari egallab turgan yerlarining hajmiga va iqtisodiy ahvoriga qarab boy, oʻrtahol va kambagʻallashgan dehqonlarga, yerga nisbatan huquqiy holatiga qarab esa jamoachi dehqonlar, sultonning mulkida ishlovchi dehqonlar (barzigorlar) va ijarachi dehqonlarga boʻlingan.

Saljuqiylar davlatida sulton, u orqali davlat yerning rasmiy egasi hisoblangan. Yer mulkining davlat yer egaligi, nasliy qoldiriladigan yer egaligi, umrbod (bir avlodga) egaligi va shartli (muqto, iqto) egaligi kabi shakllari mavjud boʻlgan.

Davlat yerlari, yaʼni sulton saroyiga tegishli yerlarni boshqarish uchun maxsus davlat boshqaruv organi – amloki xos tuzilib, Malikshoh davrida bunday yerlar saroyga 21 ming qizil oltin daromad keltirgan. Yerga xususiy egalik mulk shaklida boʻlib, u ham merosiy, sotib olingan va boshqa yer mulklariga boʻlingan.

XI–XII asrlarda saljuqiy sultonlar oʻz farmonlari – tauke bilan yirik harbiy boshliq va amaldorlarga tekinga, shartsiz asosda katta-katta viloyatlarni, yaʼni davlat yerlarini boʻlib berishgan. Mashhur vazir Nizomulmulk davrida esa xazina kambagʻallashgani uchun koʻp yerlar yer egaligi – iqto tarzida harbiy boshliqlar va amaldorlarga maosh evaziga boʻlib berila boshlangan. Bu voqea Nizomulmulkning yer islohoti deb atalgan. Garchi Nizomulmulk turklarga birinchi boʻlib iqto taqsimlab bergan kishi hisoblansa-da, aslida 1050-yilda Sulton Toʻgʻrulbek davridayoq harbiylikni kasb qilib olgan turkiy qoʻshinlarga yerni shu tarzda ulashish boshlangan edi. Harbiylar esa mayda va zaif, oʻrtahol dehqonlarni oʻz himoyalari olib, oʻzlariga berilgan yerlar – iqtoni ular yordamida ishlaganlar. Buning natijasida vujudga kelgan homiylikni xuddi Gʻarbiy Yevropadagidek kommandatsiya deb atash mumkin. Iqtadorlarga oʻsha yerda yashab ishlaydigan kishilardan soliqlar olish huquqi berilgan.

Shu islohotdan keyin saljuqiylar armiyasi ta'minotiga qarab, xazinadan maosh oladigan iqtadorlar ro'yxatiga kirgan qismlarga bo'lingan. Saljuqiylar davlatida bu mulk asta-sekinlik bilan umrbod mulkka aylanib borgan.

Saljuqiy sultonlar islom dinining himoyachilari bo'lganliklari uchun ham ular davrida vaqf mulklari rivojlanib, tegirmonlar, uylar, karvonsaroylar, hatto ko'priklar, yer mulklari masjid, madrasa va boshqa diniy muassasalarga vaqf mulki tarzida o'tkazilgan. Vaqf mulklarini vasiyat qiluvchi tomonidan yoki bosh qozi – qozi-ul quzzot tomonidan tayinlanadigan mutavalli boshqargan. Mulknı boshqaruvchi maxsus davlat devoni – «devoni avqofi mamolik» bo'lib, u vaqf ishlari bilan shug'ullangan, ammo nasliy, vorisiy vaqflarning ishlariga aralashmagan. Sharqiy saljuqiylar sultonligida XI asrning oxiri – XII asr boshlarida vaqflarnı boshqarish vaqf merosxo'rlari qo'liga o'ta boshlagan.

11.3. Saljuqiylar davlat tuzumi

Saljuqiylar davlati boshqarish shakliga ko'ra mutlaq yakka hokimlik tarzida idora etiladigan davlat edi. Uning tepasida yagona va mustabid hukmdor – sulton turgan. Sulton unvoni rasman Arab xalifaligining yorlig'i bilan berilardi. Sulton aholiga nisbatan va davlatni boshqarishda cheklanmagan vakolatlarga ega edi. Davlatda qonun chiqarish, ijro etish va oliy sud hokimiyati amalda tanho sultonga tegishli bo'lgan. U mansabdorlar ustidan tushgan shikoyatlarnı hal qilgan, yer bo'laklarini bo'lib bergan yoki hadya qilgan, amaldorlar va qo'shin boshliqlarini tayinlagan, muhim davlat ishlarini hal etishda kengash chaqirib, sarkarda va qo'mondonlarning fikrlarini olishga harakat qilgan. Masalan, To'g'ulbek Xuroson podsholarining qoidalariga mos holda har haftada ikki kun fuqarosini qabul qilib, nizo va janjallarnı shaxsan o'zi hal etgan.

Saljuqiylar davlatining eng yuksalgan davrida Bag'dod xalifasi Sulton Muhammad To'g'ulbekka «Malik al-Mashriq va-l-Mag'rib», ya'ni Sharq va G'arbning podshosi hamda «Rukn-ad-din» – din suyanchig'i unvonlarini bergan. Bu uning hokimiyati naqadar yuksak bo'lganligini ko'rsatadi. Sultonning vaziri bo'lib, u butun ma'muriy idoraga rahbarlik qilgan. Sulton mamlakatni musulmon ruhoniylariga tayanib boshqargan. Saljuqiylarning mashhur vaziri Abu Ali Xasan ibn Ali at-Tusiy (1017–1092) Nizom al-Mulk – «davlatning tartibotchisi» degan faxriy unvonga sazovor bo'lgan, Nizomulmulk Alp Arslon va Malikshoh davrida ishni oddiy amaldorlikdan boshlab, vazirlik darajasigacha erishgan va shu martabada 20 yil xizmat qilgan. Saljuqiylarda «otabek» mansabi ham bo'lib, u bosib olingan mamlakatlardagi vazirlik mansabiga deyarli to'g'ri keladi.

Alp Arslon ustidan otabek qilib tayinlangan Nizomulmulkni maxsus tauke (farmon)ga ko'ra, «Iliq» va «Ota xo'ja» deb ulug'lashlari buyuriladi. «Iliq» atamasi esa, o'g'uzlarda «bayg'u», «sag'un» faxriy unvonlariga teng edi. Shuning uchun, ya'ni otabeklik vazirlikka teng bo'lganligi bois saljuqiylar davlatining parchalanib ketgan bo'laklari otabeklik deb yuritilgan.

Vazirning asosiy vazifasi davlat idorasiga rahbarlik qilish bo'lib, uning huzurida markaziy hokimiyatning oliy organi – devoni a'lo bo'lgan. U bo'lim va devonlardan iborat edi. Davlat mirzaxonasi devoni – insho va tug'ro, devoni ashraf, armiya muassasasi devoni – arz al-jayni va boshqalar bo'lgan. Vazir barcha devonlar ishiga bevosita rahbarlik qilib, xazina ustidan nazorat olib borgan, o'ziga bo'ysungan mahkamalarga mansabdorlarni tayinlash, ishdan bo'shatish, maosh berish, tashqi siyosatni olib borish ishlari bilan shug'ullangan.

Viloyatlarga voliyar tayinlanib, ular huzurida noiblari, soliq yig'uvchilar – omillar, jamoat tartibini qo'riqlovchi shahna va boshqa mansabdorlar mavjud edi.

11.4. Saljuqiylar davrida huquq masalalari

Saljuqiylar davlati huquqining asosiy manbayi shariat hisoblangan. Shuningdek, odat huquqi ham turkiy xalqlar orasida amalda bo'lgan. Fuqarolik-huquqiy munosabatlar, nikoh-oila, meros hamda jinoyat va jazo masalalari asosan islom huquqi normalari bilan tartibga solingan.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, saljuqiy sultonlarga o'ttiz yil vazirlik qilgan Nizomulmulk tomonidan 1091-yilda yozilgan «Siyosatnoma» yoki «Siyar ul-muluk» («Podsholar turmush tarzlari») nomli asar ham mazkur davlat boshqaruvining asosiy qoidalarini hamda huquqiy masalalarni o'rganishda manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Kitob xuddi qissadan hissa, ya'ni hikoyat va undan chiqarilishi lozim bo'lgan xulosalar tarzida tuzilgan.

«Siyosatnoma»da Qur'oni Karim va Hadisi sharif kabi muqaddas manbalarda ko'rsatilgan me'yorlarni aniq bir faoliyat doirasida amalga oshirilishi, hayotga tatbiq etilishi sharhlab, izohlab berilgan. Unda davlat boshqaruviga aloqador qariyb hamma qoida va qonunlar, usul va vositalar, qozi va qozixona ishlari, qo'shin va sarbozlar, xizmatchi va shaxsiy sarbozlar masalalari, saroydagi soqchilaru posbonlar vazifalari, ularning maoshlari, pochta va ayyoqchilik (razvedka) ishlari, ularning moddiy jihatlari, xazina va baytulmol, elchilarga munosabat, hatto shohning oilaviy ishlari, uning bazm va majlislari, xos xodim va shaxsiy soqchilari haqida ma'lumot va maslahatlar bor. Asarda moliya va xo'jalik ishlari, soliq va xiroj, zakot va vaqf masalalari ham o'rin olgan.

Saljuqiylar davlatida sud qarorlari va qonunlarni ijro etish majburiyligi «Siyosatnoma»ning quyidagi satrlarida namoyon bo‘ladi: «Viloyat hokimlari qozi va shariat hukmlarini bajarishlari lozim va saroyda shunday olim kishilarni yig‘ib, ularning amru qarorlariga ziyon yetkazmasliklari zarur. Agarda biror kishi shariat hokimi majlisiga borishni istamasa, uni majbur qilib olib keladilar, toki haqiqat ayon bo‘lsin va hech kim hukmdan bosh tortmasin».

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

1. *Saljuqiylar davlatining vujudga kelishi haqida gapirib bering.*
2. *Saljuqiylar davlatining ijtimoiy tuzumi qanday bo‘lgan?*
3. *Saljuqiylar davlatida yer egaligining shakllari qanday bo‘lgan?*
4. *Yer egaligi munosabatlari qanday bo‘lgan?*
5. *Davlat tuzumi qanday tashkilatlashtirilgan edi?*
6. *Saljuqiylar davlat tuzumining avvalgi davlatlar davlat tuzumidan farqi nimalardan iborat bo‘lgan?*
7. *Huquqining asosiy belgilari qanday bo‘lgan?*
8. *Siyosatnoma asarining huquqiy jihatlarini haqida gapirib bering.*

12-MAVZU: XORAZMSHOHLAR DAVLATI VA HUQUQI

1. Xorazmshohlar davlatining tashkil topishi.
2. Xorazmshohlar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi.
3. Xorazmshohlar davrida hokimiyat va boshqaruv, sud, politsiya hamda harbiy ishlarning tashkil etilishi.
4. Xorazmshohlar davrida huquqining asosiy belgilari.

12.1. Xorazmshohlar davlatining tashkil topishi

Xorazm yerlari Sulton Mahmud G‘aznaviy tomonidan bosib olingan bo‘lsa, 1044-yildan esa u saljuqiylar davlati tobeligiga tushib qolgan. XII asr o‘rtalariga kelib esa sharqiy hududlardan bostirib kelgan qoraxitoylar butun Movarounnahrni ishg‘ol etib, o‘zlariga qaram qilgan bo‘lsalar, bundan Xorazm ham mustasno qolmagan. Biroq shunga qaramasdan, Xorazm va uning iste‘dodli, erksevar xalqi mustaqillik sari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yo‘lidan ilgarilab borishda davom etdi.

Xususan, saljuqiylar hukmdori Malikshohi davrida Xorazm mulkini mustaqil boshqarish huquqini qo‘lga kiritgan turk o‘g‘loni Anushtagin va uning avlodlari Qutbiddin Muhammad (1097–1127) va Jaloliddin Otsiz (1127–1156) davrida Xorazmning siyosiy mustaqilligi kengaydi va uning ijtimoiy-iqtisodiy qudrati muttasil o‘sib bordi.

Xorazmda anushteginlar sulolasining mustahkamlanishi, o'lkaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida Qutbiddin Muhammad garchi muhim rol o'ynagan bo'lsa-da, biroq uning butun hukmronlik davri saljuqiylar ta'siri doirasida kechdi. Shuning uchun ham Xorazmning mustaqil davlat sifatidagi o'rni va mavqeyi ko'proq uning o'g'li Otsiz (1127–1156) hamda anushteginlarning keyingi avlodlari: El Arslon (1156–1172), Takash (1172–1200) va Alovuddin Muhammad (1200–1220) davrlarida har jihatdan ko'zga tashlandi. So'nggi hukmdorlar Takash va Muhammad Xorazmshohlar davriga kelib esa Xorazm davlati o'rta asrlar davridagi eng qudratli saltanatga aylandi.

1141-yilda qoraxitoylar bilan Sulton Sanjar o'rtasida yuz bergan qonli to'qnashuv va unda saljuqiylarning mag'lubiyatidan foydalangan Otsiz Xuroson yerlarini, Marv, Nishopur shaharlarini egalladi. 1152-yilda Jandga qo'shin tortib, uni Xorazm davlatiga qo'shib oldi. Otsizning vorisi El Arslon ham mamlakat mustaqilligini kuchaytirish yo'lida qoraxitoylar bilan janglar olib boradi. El Arslon vafotidan (1172) foydalangan qoraxitoylar Xorazm hududiga bostirib kirdilar va uni o'lpon to'lashga majbur etdilar. Ammo Xorazm taxtini egallagan Takash (1172–1200) tez orada mohir davlat arbobi, tadbirkor va uddaburon hukmron sifatida o'z davlati qudratini yuksaltirishga muvaffaq bo'ladi. 1187–1193-yillarda u Nishopur, Ray va Marv shaharlarini bosib oladi. 1194-yilda esa saljuqiylar sultoni To'g'ul II ga kuchli zarba berib, Eronni egallaydi. Uning katta va yirik davlati markazlashgan hokimiyat boshqaruviga ega bo'lgan.

Takashning o'limidan keyin Xorazm taxtiga uning o'g'li Alovuddin Muhammad o'tirdi (1200–1220-yy.). 1203-yilda Muhammad qoraxitoylarning yordami bilan Xurosonni butunlay bosib oldi. U Hirotni va uning yaqin atroflarini egalladi. 1207-yilda u o'z poytaxtiga qaytib, Movarounnahrni bosib olish uchun tayyorgarlik ko'ra boshladi.

Tez orada Buxoroni bosib oldi va shu tariqa Movarounnahrni Xorazm tarkibiga qo'shib olish boshlandi.

Buxoroni egallagach, Muhammad Xorazmshoh Movarounnahr viloyatlarini, birinchi navbatda Samarqandni qoraxitoylar asoratidan ozod qilishga otlanadi. Xuddi shu davrda Chingizxon ta'qibidan qochib Mo'g'ulistondan Yettisuv viloyati tomon chekingan nayman sardori Kuchlik qorluqlar bilan birlashib, qoraxitoylarga qattiq zarba beradi. 1230-yilda u hatto Go'rxonning O'zgendagi xazinasini qo'lga kiritadi. Bunday qulay vaziyatdan foydalangan Xorazmshoh Samarqand hukmdori Usmon ibn Ibrohim bilan birlashib, Yettisuv tomon askar tortadi.

Yettisuvgacha bo'lgan yerlar Xorazmshohlar davlatiga qarardi. Shunday qilib, XIII asr boshida Xorazm juda keng maydonni egallagan buyuk davlatga aylangan edi. Uning shimoli-g'arbiy va g'arbiy chegarasi

Orol va Kaspiy dengizi sohillaridan janubi-g'arbda Iroqqa qadar borar edi, janubi-sharqiy hududlari G'azna viloyatidan, shimoli-sharqiy chegarasi esa Yettisuv va Dashti Qipchoqdan o'tar edi.

Xorazmshoh Muhammad hokimiyati shunchalik kuchayib ketgan ediki, XI asr oxiri – XII asr boshlarida u saljuqiylar podsholarining unvonlaridan bo'lgan sulton – Allohning yerdagi soyasi degan iborani o'z uzugiga o'yib yozdirgan va Iskandari Soniy Zulqarnayn unvonini qabul qilgan. Ammo ko'p o'tmay bu davlat Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ul-tatar qo'shmlari tomonidan bosib olinadi. Faqat taxt vorisi Jaloliddin Manguberdining (1220–1231) Xorazmshohlar davlati bo'laklarida tuzgan davlatigina yana o'n yillar yashaydi.

12.2. Xorazmshohlar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi

Xorazmshohlar davlati XIII asrga kelib katta-katta o'lka va viloyatlarni o'z ichiga olgan buyuk saltanatga aylangan edi. Aholining asosiy qismi qishloq xo'jaligi, asosan dehqonchilik bilan shug'ullangan. Mamlakatda yer egaligi va u bilan bog'liq munosabatlar taraqqiy etgan. Yerlar ilgarigidek davlatniki hisoblangan, biroq yirik yer egaligi – iqtadorlik rivojlanib borgan.

Saltanatni hokimlar, noiblar, vazirlar, lashkar boshliqlaridan iborat kuchli harbiy aristokratiya, mustavfiy (daftardor hisobchilar), qozilar va boshqa ko'pgina saroy mansabdorlaridan iborat ulkan arkoni davlat doirasi qurshab turardi. Yuqori amaldorlarning ko'pchilik qismi yirik yer-suvlarga ega bo'lgan mulkdor oqsuyaklar tabaqasini tashkil etardi. Ko'pgina mansablar odatda, o'rta asrlar jamiyati sharoitida keng tarqalgan, ota-bobodan meros bo'lib o'tar edi. An'anaviy tusga kirgan bunday hol davlat mansabdorlariga eng munosib shaxslarni tanlab qo'yish imkoniyatidan mahrum qilar edi. Yuqori mansabdorlik davlatdan iqta yerlarini (umrbod foydalanish uchun ajratilgan katta yer maydoni) olish bilan chambarchas bog'langan edi. Masalan, Nasaviyning yozishicha, Naso viloyatiga noib qilib tayinlangan Ziyoulmulkka xizmati uchun yiliga o'n ming dinor daromad keltiradigan butun bir viloyat iqta tariqasida taqdim etilgan edi. Iqtadorlik mahalliy hokimlar, noiblar, vazirlar, yirik yer egalari harbiy aristokratiya vakillari va boshqa yuqori mansabdorlarning iqtisodiy mustaqilligini oshirar va ularning markaziy hokimiyatga nisbatan qarshilik kayfiyatlarini rag'batlantirar edi.

Mamlakat holatining eng achinarli tomonlaridan yana biri shunda ediki, asosiy soliq va muttasil hasharlardan tashqari yillga bir necha bor to'planadigan turli xil to'lov va yig'implardan tinkasi qurigan mamlakat fuqarosining arkoni davlatga, ayniqsa uning tojdori Sulton Muhammadga nisbatan bo'lgan e'timodi ham, e'tiqodi ham susayib ketgan edi.

Xorazm davlatining aholisi va ularning turli qatlamlari haqida Muhammad Bag‘dodiyning kitobida quyidagicha ma‘lumotlar beriladi:

1. Sayyidlar — payg‘ambar avlodlari sanalib, xorazmshohlar ularni muborak nasab vakillari sifatida hurmat qilganlar hamda ularni hech narsaga muhtoj qilmaslikka intilganlar.

2. Imomlar va olimlar — davlat ishlarida bunday shaxslarning maslahatlari va ko‘rsatmalariga amal qilingan. Ijtimoiy hayotda ularning mavqeyi ancha ustun bo‘lgan.

3. Qozilar va hokimlar — qonunlar chiqarganlar, shariatning aholi ustidan nazoratini amalga oshirganlar.

4. Tasavvuf vakillari — islomda noortodoksal oqim vakillari bo‘lib, faqirona hayot kechirganlar. Ular orasidan donishmandlar, mashoyihlar chiqqan va so‘fiylarning aksariyati xalq tomonidan e‘zozlangan. Hukmdorlar bunday shaxslarni hurmat qilganlar va ko‘pincha ulardan duo tilagini so‘raganlar.

5. Oqsoqollar — qishloq, urug‘-qabila boshliqlari.

6. Amaldorlar va sipohiyalar. Xorazmshohlarning joylardagi noiblari qo‘li ostida xizmatda turgan shaxslar.

7. G‘oziylar — islom dini uchun kurashuvchi kishilar. Mamlakat mehnatkashlarining turli qatlamlari va shuningdek, martabalar o‘rtasidagi farqlar somoniylar davlatidagi singari edi.

Xorazmshohlar davrida ham qoraxoniylar davridagidek mulklar iqta tariqasida in‘om etilgan. Masalan, xorazmshoh Takash (1172–1200) Naso viloyatini To‘g‘onshoh g‘uzga iqta tariqasida beradi. Yorliqda xorazmshohlar davridagi quyidagi ijtimoiy guruhlar tilga olinadi: ruhoniylar, g‘oziylar, ulamolar, davlatmandlar, hakimlar, sarkardalar, zamindorlar. Unda shihna — qishloq va muzofot hokimi, mutasarruf — moliya va xiroj ishlari ma‘murlari, mirob — suv taqsimoti bilan shug‘ullanuvchi, omil — xiroj yig‘uvchi ekanligi ko‘rsatiladi. Hujjatda barzgardan ortiqcha xiroj olish xoliq va xalq oldida nomaqbul hisoblanib, o‘sha nohiyadagi ayollar nomusi, molu mulk va aholi hayoti muhofaza etilishi ta‘kidlanadi.

12.3. Xorazmshohlar davrida hokimiyat va boshqaruv, sud, politsiya hamda harbiy ishlarning tashkil etilishi

Xorazmshohlar davlati mutlaq yakka hokimlik shaklida idora etiladigan davlat edi. Uning tepasida «shoh» turgan. Muhammad Xorazmshoh o‘zini «Iskandari soniy» («Ikkinchi Iskandar»), «Xudoning yerdagi soyasi» deb atashgacha borib yetadi. Biroq, aslida esa uning saltanati «usti yaltirog‘u ichi qaltiroq» edi. Buning asosiy sababi shundaki, birinchidan, oliy hokimiyat chuqur ziddiyatga botgan edi. Hukmdor

bilan uning hokimiyatparast, katta siyosat mavqeyiga ega bo'lgan onasi Turkon xotin va uning turkiy zodagonlardan iborat muxolifatchi kuchlari o'rtasidagi ixtiloflar kuchayadi. Ikkinchi tomondan, markaziy hokimiyat tizimi bilan mahalliy hokimlar, beklar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar, ularning o'zboshimcha xatti-harakatlarining kuchayib borayotganligi saltanatni inqirozga duchor etmoqda edi. Buning ustiga hukmron tizimdan norozi bo'lgan keng ommaning g'alayonlari tobora faollashib bordi. 1206–1207-yillarda Buxoroda yuz bergan Matik Sanjar boshchiligidagi, 1211-yilda Samarqandda ko'tarilgan kuchli xalq qo'zg'olonlari Xorazmshohlar davlatining kuchli bo'hronga yo'liqqanligidan dalolat beradi.

Xorazmshohlarning markaziy davlat boshqaruvi «al-majlis ul oliy al faxri at-toji» deb nomlangan bo'lib, unga vazir raislik qilgan. Vazir Xorazmshohga bevosita bo'ysunar va hukmdorning bosh maslahatchisi edi. Vazirning davlatdagi mavqeyi ancha yuqori edi.

U ashob ad-davovin, ya'ni devon amaldorlarining boshlig'i hisoblangan, yuqori mansab sohiblarini ishga tayinlash va bo'shatish bilan shug'ullangan, davlat amaldorlariga nafaqa (arzak) belgllash, davlat amaldorlarini hayot uchun zaruriy oзуqa va ashyolar bilan ta'minlashni belgilash, soliq va xazinani nazorat qilish, hukmdorni xalqaro aloqalar, rasmiy marosimlarda rasmiy ravishda tanishtirish hamda raiyat bilan munosabatlarda vositachilik qilish, hukmdorga muntazam hamrohlik qilish, ba'zi paytlarda qo'shim yuborish va ularga boshchilik qilish vazifalarini amalga oshirgan.

Vazirlarda sadr, dastur, xojayi buzurg singari unvonlar bo'lgan. Ularning asosan arab-fors amaldorlari muhitidan to'plangan va arab hamda fors tili, ma'muriy ishdagi qobiliyatlarga, saroy odobi singari bilimlarga ega bo'lishligi hal qiluvchi rol o'ynagan. Xorazmshohlar davlatining vazirlari asosan Xorazm, Buxoro, Nishopur, Isfaxon, Balx, Hirot dan chiqqan shaxslar bo'lgan. Xorazm davlatiga qarashli viloyatlarning ma'muriy boshqaruvida ham vazirlar bo'lgan. Ba'zan shaharlarda vazirlar tayinlangan bo'lib, ular o'sha madaniy va iqtisodiy markazning yagona hokimi ham edilar.

Xorazmshohlar davlatida, uning boshqaruv tashkilotida yana quyidagi mansab va lavozimlar mavjud edi:

– hojib ul-kabir – hukmdor shaxsi bilan bog'liq masalalar, marosimlarning nazorati bilan aloqador ishlarga javobgar edi. U sultonning eng zarur topshiriqlarini bajargan hamda hukmdorga doimiy ravishda hamrohlik qilgan. U vazirlik devonining daftarlari, undagi yozuvlar, arxivlar, moliya sohasidagi kotiblar va amaldorlarning xatti-harakatini nazorat qilgan. Hojib ul-kabir bilan bir qatorda hojib ul-xos ham tilga olinadi;

– ustozdor – barcha xo'jalik ishlari: otxona, oshxona, novvoy, saroy

xizmatkorlari ustidan idora ishlarini amalga oshirgan saroy a'yoni. U bundan tashqari, saroyning barcha chiqimlarini amalga oshirardi, mamlakat xazinasini va boyliklarining ma'lum qismiga egalik qilardi. Shu pul hisobidan novvoy, oshpaz, otboqar va boshqa saroy ishlari hamda yumushlariga sarflar edi. Xazinadan chiqadigan sarf-xarajatlar uchun shohga hisobot berib turar edi;

– amir-oxur – otxona boshlig'i lavozimi, sultonga qarashli minib yuriladigan otlarga egalik qilgan. Miroxurlar harbiy yurishlarda faol ishtirok etganlar;

– amir shikor – sultonning ov ishlari boshlig'i;

– tashtdor – sultonning yuvinish ishlari zarur bo'lgan ashyo va narsalarni saqlovchi shaxs. Uning qo'l ostida g'ulomlar bo'lgan. Sultonning ayrim yashirin amallari borligi uchun ham tashtdor unga eng yaqin kishi hisoblanar edi. Tashtdorlar malik unvonini sohibi ham bo'lishgan. Ayrimlari hatto o'n ming askarlarga boshchilik qilib, harbiy yurishlarda qatnashganlar;

– sharobdor – sulton sharobxonasi boshlig'i. Sharobxonada turli xildagi sharoblar bo'lgan. Sharobdorlar amirlar orasidan tayinlangan;

– qissador – saroy a'yoni bo'lib, hafta mobaynida sultonga kelgan iltimosnoma va shikoyatlarni jamlab, ularni juma kuni hukmdorga topshirgan va so'ngra javobini zulm ko'rganlarga yetkazgan;

– choshmigr – bu ko'p hollarda bakovulning sinonimi, ya'ni sultonga uzatilajak taomni sinab ko'rgan;

– davotdor – sultonning kotibi;

– farrosh – farroshxona boshlig'i. Sultonga tegishli ko'rpa-to'shaklar, gilamlar, poyonozlar sohibi;

– amir al-alam (alamdor) – sulton tug'ining sohibi.

Sud vazifasini qozilar, qozi askar – harbiy qozi, mirshabchilik va jazolash vazifalarini shixna deb ataluvchi mansabdorlar bajargan. Bu mansablarga turk harbiy boshliqlari, amirlar tayinlangan. Ular hokimiyatga xavf tug'diruvchi barcha ishlarga aralashishlari mumkin bo'lgan. Xorazmshohlar davlati juda katta harbiy kuchga va harbiy xo'jalikka tayangan davlat edi. Turli manbalarda ular armiyasining soni turlicha ko'rsatilishidan kelib chiqib, uning o'rtacha soni 400–600 minggacha bo'lgan deb hisoblash mumkin.

Armiya otliq askarlar, piyodalar, urush vaqtida xalqdan chaqiriladigan olomon (himoyachilar), sultonning shaxsiy qo'riqchilari (gvardiyasi) – xaros, armiya qismlariga xabarlar yetkazib turuvchi qismlar – chovush va dushman qo'shinlarining holatini kuzatib, ma'lumot beruvchi josuslar va boshqalardan iborat edi.

Harbiy boshqaruv maxsus davlat idora organi, harbiy nozirlik – devon al-ard (yoki devon al-joyish) deb atalib, u harbiylarning maoshi

(non, pul), ularga beriladigan yerlar, to'lovlar, qurollar, harbiylarni ro'yxatga olish, ular ta'minotini nazorat qilib turishlarini o'z ichiga olar edi. Qo'shinlar qo'mondoni qoid yoki muqaddam deb atalgan.

Qo'shin amirlari xizmatlari evaziga iqta olganlar, ular ustidan amir ul-umaro, ya'ni amirlar amiri tayinlangan. O'nlik otliq askarga qo'mondonlik qilgan kishiga «malik» unvoni, urushlarda jasorat ko'rsatgan maliklarga esa «xon» unvoni berilgan.

12.4. Xorazmshohlar davlati huquqining asosiy belgilari

Xorazmshohlar davlatida huquqning asosiy manbayi shariat bo'lgan. XII-XIII asrlarda tashkil topgan Xorazm fiqh maktabi vakillarining asarlari ham shundan dalolat beradi. Bu maktab namoyandalarining ishlari asosan shariat manbalarini sharhlashga bag'ishlangan. Masalan, XII asrning birinchi yarmida yashab o'tgan Najmiddin Abu Ya'qub Yusuf bin Ahmad al-Xorazmiyning «Fatvoyi sag'ir» («Kichik fatvolar to'plami») nomli asarida islom huquqshunosligi masalalari chuqur tahlil etilgan.

Xorazmshohlar davlatida odat huquqi ham amalda bo'lgan. Davlat va armiya hamda qisman oila, nikoh munosabatlari odat huquqi bilan tartibga solingan.

Xorazmshohlar davlati va huquqi tarixini o'rganishda bizgacha yetib kelgan o'sha davrdagi ish yuritish hujjatlari majmuasidan iborat bo'lgan «at-Tarassul» to'plami ham ahamiyatga ega.

Xorazmshohlar davlatida nikoh-oila, meros, jinoyat va jazo, sud ishlarini ko'rib hal qilish masalalari shariatga binoan tartibga solingan. Shuningdek, ba'zan odat huquqi ham qo'llanilgan bo'lishi mumkin.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

- 1. Xorazmshohlar davlatining tashkil topishi xususiyatlari haqida gapirib bering.*
- 2. Xorazmshohlar davlatining ijtimoiy qatlamlari haqida gapirib bering.*
- 3. Xorazmshohlar hokimiyat va boshqaruv qanday tashkillashtirilgan va unda qanday mansab va lavozimlar mavjud edi?*
- 4. Xorazmshohlar davlatida sud ishlarining yuritilishi qanday tartibda amalga oshirilgan?*
- 5. Mulkiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari qanday edi?*

V BOB. O‘ZBEKISTONDA HUQUQ MANBALARI VA ULARNING RIVOJLANISHI

13-MAVZU: O‘ZBEKISTONDA HUQUQ MANBALARI VA ULARNING RIVOJLANISHI

1. Huquq manbalariga umumiy tavsif.
2. Movarounnahr fiqh maktabi.
3. «Hidoya» – tarixiy-huquqiy manba.

13.1. Huquq manbalariga umumiy tavsif

O‘zbekiston huquqi to‘g‘risida so‘z ketar ekan, zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto»ning huquq manbasi sifatidagi ahamiyatini, turklarning odat huquqlari, shuningdek, ulardagi yozma qonunchilik – Kan (Samarqand)dagi ibodatxonada saqlangan turk qonunnomasini, So‘g‘d huquqi, islom huquqi, dunyoviy qonunchilikning eng yirik kodeksi – «Temur tuzuklari», o‘zbek xonlarining shariatning asosiy qoidalaridan tuzilgan qo‘llanmalari (masalan, Suluk-al muluk), shuningdek, o‘zbek xonliklarida sud, jinoiy jazo masalalariga oid og‘zaki yoki yozma farmonlar bilan o‘rnatilgan, shariatda ko‘zda tutilmagan jazo huquqlarini nazarda tutmoq kerak. Islom huquqi esa ana shu tarixiy manbalar ichida VIII asrning birinchi yarmidan boshlab hozirgi O‘zbekiston doirasida uzoq amalda bo‘lgan huquqning asosiy tarixiy manbayidir.

Islom huquqi nima? Keng ma‘noda olganda, islom huquqi deb, islom dini hukmron e‘tiqod hisoblangan biror bir davlatdagi diniy va dunyoviy huquqiy normalar to‘plamiga aytiladi. Tor ma‘noda olib qaralganda, islom huquqi shariat va uning barcha manbalaridagi normalar, qoidalar yig‘indisidan iborat. Ba‘zilar musulmon huquqi va shariatni bir narsa deb biladilar. Fikrimizcha, shariat islom huquqining birinchi va asosiy manbayidir.

Ming yildan ko‘proq vaqt mobaynida davlat boshliqlari bir vaqtning o‘zida din boshlig‘i ham bo‘lib kelishgan. Ya‘ni, u xon, amir, sulton yoki podsho deb atalishi bilan birga amir ul-muslimin, ya‘ni musulmonlar amiri yoki boshqa diniy unvonlarni ham olgan. U har qanday yo‘l bilan islom huquqini qo‘riqlash, uni qo‘llash va rivojlantirish choralari ko‘rgan. Shuni ta‘kidlash lozimki, islom huquqi O‘rta Osiyoga keng yoyilgan vaqtlarda ham yagona huquq tizimi bo‘lmagan. Masalan, arablardan keyin bu yerni bosib olgan saljuqiylar hamda qoraxoniylarning ham odat huquqlari bo‘lgan.

Islom huquqi manbalarining guruhlanishi masalasida olimlar o‘rtasida yagona fikr yo‘q. Ba‘zilar fiqh maktablari tomonidan muayyan

masalalarning tan olinishini ularni tasniflash (klassifikasiya qilish) asosiga qo'yadilar va shundan kelib chiqib, darajalarga ajratadilar. Jumladan, M.I.Sadagdar shu asoslarga ko'ra ularni uch guruhga bo'ladi: 1) barcha yuridik maktab va yo'nalishlar tomonidan tan olingan manbalar – Qur'on va Sunna – hadislar; 2) Qur'on va Sunnada bevosita ko'rsatma bo'lmasda, yuridik maktab va yo'nalishlarning fikriga ko'ra, ularning ruhiga mos keladigan yuridik normalar: a) Qiyos – taqqoslash (anologiya) vositasi bilan hukmlar chiqarish; b) fatvo – oliy martabali musulmon fiqhshunoslarining diniy va yuridik masalalar bo'yicha qabul qilgan qarorlari; v) ijmo – muayyan masalalarda musulmon huquqi bilimdonlarining kelishilgan fikrlari; g) ijtehad – yuridik maktab asoschilari va ularning eng yaqin shogirdlari (mujtahidlar) tomonidan diniy va yuridik normalarning ijodiy ishlanishi; 3) islom dinini qabul qilgan xalqlarning shariatga zid bo'lmagan odat va udumlari¹.

Bundan ko'rinib turibdiki, muallif dunyoviy qonunlar va farmonlarni manbalar guruhiga kiritmagan. Islom huquqining nazariyasi va yangi davrda qo'llanilishini har tomonlama tadqiq etgan olim L.R.Syukiyaynen ham o'z ishlarida xuddi shunday tasnifni keltiradi². Jahonning huquqiy tizimlarini chuqur o'rgangan fransuz olimi R. David musulmon huquqini to'rt manba: 1. Qur'on. 2. Sunna va Hadislar. 3. Ijmo yoki musulmonlar jamoasining qarorlari. 4. Qiyos – analogiya yo'li bilan chiqarilgan hukmlarga ajratadi. Arab xalifaligi va islom huquqi asoslari yoritilgan barcha darsliklarda esa uning manbayi uchta: shariat, dunyoviy qonunchilik va odat huquqlari deb ko'rsatiladi. Biz ham ana shunday guruhlashni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

13.2. Movarounnahr fiqh maktabi

VIII–IX asrlardan boshlab Turkiston ko'proq sunniy, ya'ni Hanafiya maktabining ta'limoti rivojlangan joyga aylana bordi. «Shu ta'limot asosida, – deb yozadi professor A.X.Saidov, – Movarounnahr fiqh maktabi shakllandi. Bu maktab butun musulmon dunyosida shuhrat topdi va tan olindi»³. Bu yerda alohida fiqh maktabi bo'lganligi va uning butun islom dunyosi tomonidan e'tirof etilganligi XII asrlardayoq ilmiy adabiyotlarda yoritilgan edi. Jumladan, o'sha paytda yashab ijod qilgan va islom huquqiga oid 12 jildan iborat «Kitob al-ansob» nomli asar yaratgan Abdusamad

¹ M.I. Sadagdar. Основы мусульманского права. – М., «Дружба народов», 1968, 11 стр.

² Л.Р. Сукнуянс. Мусульманское право. –М., «Наука». 1986, 235 стр.

³ A.X. Saidov. Burhoniddin Marg'inoniy. «Al-Hidoya» – muhim huquqiy yodgorlik, «O'zbekiston ovozi», 1994-yil 3-may.

Muhammad Sam'oniy (1179–1229) Markaziy Osiyoning yirik shaharlarida musulmon huquqining alohida maktablari mavjud bo'lganligini ko'rsatgan. Fiqh olimi Mahmud ibn Sulaymon al-Kafaviyning (1582-yilda vafot etgan) o'rta asrlarda yozilgan, fatvolar mualliflari darajasida bo'lgan, faqihlarning tarjimai hollari yoritilgan «Katta ib ul-a'lom al-axyor fi-taboqat fuqaho va mashoyih mazhab an-Nu'mon» asarida Movarounnahr fiqh maktabi, uning faoliyati to'laroq yoritilgan. Bu diyorda ilohiyotga doir ilm va fiqh bobida butun musulmon dunyosiga xos belgilardan tashqari alohida xususiyatlar ham mavjud ekanligini, aynan shu yerda yetishgan faqihlar islomni mahalliy sharoitga moslashtirganliklarini akademik V.V.Bartold ham ta'kidlagan edi. Sobiq sho'rolar davrida bu maktab va uning merosiga deyarli ahamiyat berilmay kelindi. Faqat 1990-yilda sharqshunos olim A.K.Mo'minov al-Kafaviyning yuqorida nomi keltirilgan kitobiga suyangan holda birinchi bor Movarounnahr fiqh maktabi va uning faoliyatini yoritib berdi¹.

Hanafiy mazhabi doirasida mahalliy odatlar, udumlar va huquqiy tasavvurlarni yuzaga chiqarish qoraxoniylar davridagi faqihlarning xizmati bo'ldi. Hanafiyylar udumlari uchinchi darajali majtahidlar darajasi (mujtahidi multoq)²ga qoraxoniylar davrida yashab ijod qilgan olti yirik faqihni kiritadilar. Bular: 1) Shams al-Aimma al-Halvoniy, 2) Shams al-Aimma as-Saraxsiy (1096–67-yilda vafot etgan), 3) Faxr ul-Islom al-Pazdaviy (Bazdaviy), 4) Iftixor ad-din al-Buxoriy (1147–48-yilda vafot etgan), 5) Burhoniddin Muhammad bin Ahmad al-Buxoriy (1174–75-yilda vafot etgan), 6) Faxriddin Xasan ibn Muhammad al-O'zgendiy (1196-yilda vafot etgan)lardir. Ularning qanchalik yirik faqih olim bo'lganliklari «islomning faxri», «dinning dalili», «dinning iftixori» kabi unvonlaridan ham ko'rinib turibdi. Al-Kafaviy o'z asarida shu davrlarda Movarounnahrda 71 nafar yirik faqih tomonidan 491 ta fatvo chiqarilganligini yozgan. Ularning 117 tasi diniy marosimlar, odat va udumlarga oid, 96 tasi savdo-sotiq, pul va mulkiy, fuqarolik huquqiy munosabatlariga tegishli, 73 tasi sud yuritish, 21 tasi vaqf, 54 tasi oila va nikoh masalalariga taalluqli bo'lgan. Ushbu fatvolar, yuqorida tilga olingan yirik faqihlar asarlarida ko'rsatilganidek, Movarounnahrning ko'pgina shaharlaridagi faqih olimlarni yetishtirgan, o'z udumlari va qoidalariga ega fiqh maktablari bo'lganligini yana bir bor tasdiqlaydi.

¹ A. K. Муминов. Мовароуннахрская школа фикха (IX-XP1 вв). «Общественные науки в Узбекистане». 1990, № 10, стр. 38–42.

² Uchinchi darajali mujtahid – Hanafiy mazhabining ko'zga ko'ringan birinchi uch nafar nufuzli ulamosi; Abu Hanifa, Abu Yusuf va ash-Shayboniy asarlarida – fikr bo'lmaganda, qaror (fatvo)lar mumkin bo'lgan faqihlarga aytilgan.

13.3. «Hidoya» – tarixiy-huquqiy manba

Fargʻona viloyatining Rishton shahrida tugʻilgan va Qoraxoniylar poytaxti Samarqandga kelib yashab ijod qilgan Burhoniddin al-Margʻoniyning mashhur «Hidoya» asari islom huquqshunosligining oʻziga xos qomusi boʻlgan. «Hidoya» kitobi butun musulmonlar olamida mashhur boʻlib, islom huquqi – fiqhi ilmi boʻyicha eng aniq, izchil, mukammal asar sifatida tan olingan.

«Hidoya» kitobida huquqiy masalalarning yechimi dastlab fiqh ilmining yirik olimlari fikrlarining bayoni va unga boshqa mualliflar eʼtirozlari yoki qoʻshilishlarini izhor etish yoʻli bilan berilgan. Ana shu obroʻli faqihlar fikrlaridan kelib chiqib, muayyan huquqiy masalalarda eng maʼqul yechimni tanlab olish yoʻliga amal qilingan. Shu tariqa unda qonunning aynan ifodasigina emas, balki uning mukammal sharhi ham asoslab keltirilgan.

Burhoniddin Margʻoniy yozgan toʻrt jildlik «Hidoya» kitobi, sunniylik oqimida hanafiy mazhabi boʻyicha, eng muhim va mukammal huquqiy manba sifatida 57 ta kitob, 165 bob, 152 fasldan tarkib topgan boʻlib, meros huquqidan tashqari, furu-l fiqhning barcha sohalarini qamrab olgan. Burhoniddin Margʻoniy meros huquqini oʻz kitobiga kirgizmaganining sababi shundaki, imom Aʼzam Abu Hanifa meros muammolarini bir mustaqil fan sifatida fiqh ilmidan ajratib, uni «faroiz ilmi» deb atagan.

«Hidoya»ning har bir jildi turli-tuman muammolar huquqiy yechimiga bagʻishlangan.

«Hidoya»ning birinchi jildi 5 kitobdan iborat boʻlib, tahorat va amaliy ibodatlar (namoz, roʻza, zakot va haj)ga bagʻishlangan. Bu jild 47 bob va 37 fasldan iborat.

Ikkinchi jildga nikohi, emizish, taloq, qullarni ozod qilish, topib olingan bolalarning nasabini aniqlashi, topib olingan narsa, qochib ketgan qullar, bedarak yoʻqolganlar, sherikchilik va vaqf huquqi kabi masalalar kiritilgan. Bu jild 60 bob, 36 fasldan tashkil topgan.

Uchinchi jildda (14 kitob) oldi-sotdi, pul muammolari, kafolat, pulni bировga oʻtkazish, qozilarning vazifalari, guvohlik, berilgan guvohlikdan qaytish, vakolat, daʼvo, iqror boʻlish, sulh, bir ishda pul bilan sherik boʻlish, pulni saqlashga berish, qarz berish, sovgʻa, ijara, voliylik (patronat), majbur qilish, homiylik, qisman ozod boʻlgan quliyar va bosqinchilik xususidagi masalalar oʻrin olgan. Bu jildda 36 bob, 37 fasl bor.

Toʻrtinchi jildda (76 kitob) esa shafokat, merosni taqsimlashi, dehqonchilik hamda bogʻdorchilik xususida shartnoma, qurbonlikka soʻyiladigan jonzot haqida, umuman qurbonfik qilish haqida, shariatga zid yomon narsalar haqida, tashlandiq yerlarni oʻzlashtirish xususida,

taqiqlangan ichimliklar haqida, ovchilik, garovga berish, jinoyatlar xususida, xun haqi to'lash, vasiyat kabi masalalar yoritilgan. Bu jild 23 bob, 38 fasldan iborat. Shunday qilib, «Hidoya»da fiqh ilmining 57 ta mavzusi olingan bo'lib, ular alohida bittadan kitobga sarlavha qilib olingan va har bir fiqhiiy mavzu o'z navbatida bob va fasllarga bo'lingan holda yoritilgan.

Xullas, «Hidoya» islom dunyosida e'tiborli kitoblardan biri sifatida madrasalarda islom huquqi bo'yicha qo'llanma darajasida o'rganilib, uning muallifi esa yuridik amaliyotda o'xshash holatlar (president) va ishlarda qo'llanilishi mumkin. President bo'la oladigan qaror (fatvo)lar qabul qilishga huquqli hisoblangan. Shuning uchun ham kitobning ko'pgina joylarida muallif huquqiy masala yechimida fikrini bildiradi. Sharhlar berilgan joylarda Abu Hanifa maktabi hamda uning yirik shogirdlari fikrini keltiradi. Shuning uchun ham asarni ingliz tiliga o'g'irgan olimning uni «Hanafiylar maktabi» fikrlarining keyingi olimlar tomonidan ma'lum darajada yuridik amaliyot va odatlarga hamda boshqa (Arabistondan tashqari) joylarga moslashtirish uchun berilgan sharhlar bilan qisman o'zgartirilgan to'plamidan iborat asar deb hisoblash mumkin, degan fikri ma'qullashga loyiqdir.

«Hidoya» faqat musulmon dunyosida fiqhni o'rganish manbayigina bo'lib qolmasdan, yuridik (huquqiy masalalarni hal etishda qo'llanma) manbaga aylanib qolgan. Unga o'z zamonasining amaliyotchi qonunshunoslari murojaat qilib turganlar va sharhlar yozganlar. Jumladan, Husomiddin al-Husayn bin Ali as-Sig'noqiy (1313–14-yillarda vafot etgan) bu kitobga «Nihoya» nomli to'liq sharh yozgan.

«Hidoya» islom dunyosida fiqh borasida asosiy qo'llanmalardan bo'lib, barcha madrasalarda o'qitilgan. Uning fors, ingliz, rus tillariga tarjima etilish sababi ham ana shundadir. Asarning 1-jildi 2001-yilda «Adolat» nashriyotida ilk bor o'zbek tiliga tarjima qilinib, chop etildi.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

1. *Huquq manbalari va uning ahamiyati haqida gapirib bering.*
2. *Islom huquqi manbalariga ta'rif bering.*
3. *Movarounnahrda fiqh maktabining o'ziga xos xususiyatlari haqida gapirib bering.*
4. *«Hidoya» asari tarixiy-huquqiy manba ekanligi haqida gapirib bering.*

VI BOB. MO‘G‘ULLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA DAVLAT VA HUQUQ

14-MAVZU: MO‘G‘ULLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA DAVLAT VA HUQUQ (1219–1370-YY.)

1. Mo‘g‘ullar istilosi va Chig‘atoy ulusining tashkil topishi.
2. Mo‘g‘ullar hukmronligi davrida O‘zbekistonning ijtimoiy tuzumi.
3. Chig‘atoy ulusida hokimiyat va boshqaruvning anjalga oshirilishi.
4. Huquqdagi o‘zgarishlar.

14.1. Mo‘g‘ullar istilosi va Chig‘atoy ulusining tashkil topishi

Mo‘g‘ul qabilalari va elatlarining qudratli davlatga birlashuvi va jipslashuvi jarayoni mo‘g‘ul xoni Temuchin (1155–1227) nomi bilan bog‘liq. U mo‘g‘ullarnigina emas, ular bilan yonma-yon yashab kelayotgan jaloyir, o‘yrot, keroit, nayman, qoraxitoy, qirg‘iz, uyg‘ur, qorliq singari turkiy qabilalarni ham o‘z qo‘li ostida birlashtirib, kuchli davlatga asos soldi.

Temuchinning ulug‘ xoqon sifatida mavqeyining mustahkamlanishida 1206-yilda Qoraqurumda chaqirilgan umummo‘g‘ul qurultoyi alohida o‘rin tutdi. Qurultoyda, birinchidan, barcha mo‘g‘ul urug‘-qabilalari hamda ularning qo‘l ostida birlashgan boshqa qabila va elatlar yo‘lboshchilari jam bo‘lgan edi. Anjumanda Temuchinni ulug‘ xon qilib ko‘tarish, unga vujudga kelayotgan birlashgan qudratli harbiy davlatni mustahkamlash, istilochilik urushlari olib borish uchun cheklanmagan vakolatlar beriladi. Shuningdek, qurultoy mo‘g‘ullarning hukmron tabaqalari – no‘yonlar, bahodurlar va tarxonlarga juda katta imtiyozlar berdi, ularning manfaat-qiziqishlarini qonunlashtirdi. Qurultoyda mo‘g‘ullarning dunyoga hukmron bo‘lishdan iborat uzoqqa mo‘ljallangan asosiy maqsad va vazifalari ham belgilab olindi.

Qurultoyda Temuchin barcha mo‘g‘ul-tatar xonlarining ulug‘ xoni (qooni) deb e‘lon qilindi va unga Chingizxon laqabi berildi. Chingizxon iborasi mualliflar tomonidan «kuchli», «qudratli», «toza» va hokazo ma‘nolarda talqin qilinadi.

Qurultoy qabul qilgan «Yaso» hujjati ulug‘ xon hokimiyatini yanada mustahkamlash, yangi feodal tabaqa – tarxonlar mavqeyini kuchaytirish, davlatning harbiy qudratini yuksaltirishning muhim qonuniy asoslarini yaratib berdi.

Chingizxon ulug‘ xoqon deb e‘lon qilingan birinchi kunning o‘zidayoq o‘zining eng yaqin kishilaridan 95 nafarini bahodur –

mingboshilar etib tayinladi va bir necha ming kishi tarxonlik yorliqlari bilan siylandi. U ayni paytda 10 ta oliy hokimiyat lavozimlarini ta'sis etdi va 150 kishidan iborat shaxsiy gvardiya hamda 1000 nafar dovyurak jangchilardan iborat shaxsiy drujina tuzdi. Keyinroq shaxsiy drujina tarkibi 10 ming nafarga yetkazildi.

Chingizxon o'z markaziy hokimiyatini mustahkamlab olishga erishgach, kuchli, har tomonlama harbiy tayyorgarlik ko'rgan jangovar armiya tuzib, qo'shni davlatlarni birin-ketin istilo etishga kirishadi. 1206–1211-yillar davomida Sibir va Sharqiy Turkiston xalqlari (buryat, yoqut, oyrat, qirg'izlar) bo'ysundiriladi. Mo'g'ul sarkardasi Xubilay Yettisuvning shimoliy hududlarini zabt etadi. 1211-yilda uyg'urlar yeri istilo etilgach, Chingizxon Xitoy hududlarini bosib olishga kirishadi.

1215-yilda Shimoliy Xitoy poytaxti Pekin ishg'ol qilinadi. 1217-yilga kelib, Xuanxe daryosining shimolidagi barcha yerlar mo'g'ullar qo'l ostiga o'tadi. 1218-yilga kelib esa Yettisuv hududining qolgan qismi ham mo'g'ullarga tobe bo'ladi.

Mo'g'ul hukmdori Xorazmshoh bilan bo'lgan o'z diplomatik aloqasida shu qadar ustakorlik yo'lini tutdiki, bunda uning tomonidan yuborilgan elchilik missiyasi faqat yaxshi qo'shnicilik, savdo-sotiq aloqalarini yaxshilash, mustahkamlashga qaratilgan nomayu samimiy tilaklarni Xorazm hukmdoriga yetkazib turdi. Amalda esa o'z bosqinini qanday yo'llar bilan amalga oshirish choralarini ko'rib bordi, bunga sababu bahonalar izladi. Nihoyat, 1218-yil kuzida Chingizxon jo'natgan, tarkibi musulmon savdogarlaridan iborat 450 kishilik boy savdo karvonining O'trorda Xorazmshoh ishorasi bilan talanishi va yo'q qilinishi mo'g'ullar uchun shunday muhim ashyoi dalil bo'ldiki, bu hol ikki o'rtada yuz berishi muqarrar bo'lgan katta urushga sabab bo'ldi.

Mo'g'ul hukmdori Chingizxon o'zining ko'p sonli qo'shini (ba'zi manbalarda ta'kidlanishicha, uning tasarrufida 600 minglik jangovar armiya to'plangan edi) bilan Movarounnahr sarhadlariga istilo-chilik yurishlarini boshlaydi.

O'zini «Iskandari soniy» (Ikkinchi Iskandar) deb atagan Muhammad Xorazmshoh mo'g'ullar hujumi boshlanishi bilanoq butunlay vahimaga tushib, dushmanga qanday zarba berishni ham, mamlakat mudofaasini tashkil etishni ham bilmay qoladi.

1219–1221-yillar oralig'ida Movarounnahr va Xorazm hududlari mo'g'ullar asoratiga tushib qoldi.

Mo'g'ullar saltanatining ulug' hukmdori Chingizxon vafotidan so'ng uning vasiyatiga binoan itoatga keltirilgan ajnabiy hududlar o'g'illari – Jo'jixon, Chig'atoy, O'qtoy va To'lixonlarga bo'lib berilgan edi. Shu jumladan, Movarounnahr, Yettisuv va Sharqiy Turkiston Chig'atoy

tasarrufiga berilganligidan bu hududlar Chig'atoy ulusi nomi bilan atala boshlandi.

XIV asrning 40-yillariga kelib Chig'atoy ulusi ikki qismga: Yettisuv, Farg'onaning sharqiy qismi, Sharqiy Turkistondan iborat Mo'g'ulistonga va G'arbiy ulus – Movarounnahrda bo'linib ketdi. Xorazmning sharqiy qismi ham G'arbiy ulusga qaragan.

1340–1360-yillar fitna-fasod, o'zaro feodal kurash va ulusda siyosiy tarqoqlikning kuchaygan davri bo'ldi. XIV asrning 50-yillari oxirida Chig'atoy ulusining har ikkala qismi mayda boshqaruv tizimlariga bo'linib ketdi.

Movarounnahrda avj olib ketgan ijtimoiy-siyosiy tarqoqlik, mo'g'ul va turk xonlari, amirlari o'rtasidagi o'zaro nizolar va besamar kurashlar o'lka hayotiga chuqur salbiy ta'sir o'tkazdi, uning uzil-kesil parchalanib ketish xavfini keltirib chiqardi. Bunday murakkab, keskin vaziyatda Movarounnahr yaxlitligini saqlash, mahalliy hukmdorlarning o'zboshimcha xatti-harakatlarini jilovlash, yurtni mo'g'ullar istibdodidan xalos qilish, uni mustaqil taraqqiyot yo'liga solib yuborishdan iborat birdan-bir tarixiy vazifa ko'ndalang bo'lib turardi. Uni muvaffaqiyatli uddalash ulug' bobomiz Amir Temurga nasib etdi.

14.2. Mo'g'ullar hukmronligi davrida O'zbekistonning ijtimoiy tuzumi

Mo'g'ul bosqini O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan ijtimoiy tuzumni o'zgartira olmagan bo'lsa-da, mamlakatdagi turli sinflar hayotida turlicha namoyon bo'ldi.

Ruhoniylar, savdogarlar va yirik yer egalari ko'p o'tmay mo'g'ul istilochilarining tayanchiga aylandilar. Muarrix Rashiduddinning ma'lumot berishicha, mo'g'ul xonlari va shahzodalari yirik yer egalari va savdogarlarga – mahalliy aholidan soliqlar yig'ishlariga asoslanib, saxiylik bilan qimmatbaho hadyalar ulashganlar. Ammo, shaharlarda ham, qishloqlarda ham mehnatkashlarning ahvoli nihoyatda og'ir edi.

Dehqonlar va hunarmandlar ishlagan yerlaridan davlatga to'laydigan yillik soliq-xirojdan tashqari yana ko'plab soliqlar to'lashlari kerak edi.

Chig'atoy ulusida yer solig'i o'ndan bir hajmda belgilangan. Oliy mansabdorlar soliq to'lamaganlar. Gap shundaki, yirik mulkdorlar, savdogarlar, islom peshvolari mo'g'ullar bilan yaqinlashib, katta imtiyozlarni qo'lga kiritgan, har xil yengilliklar olgan edilar. Soliq turlaridan yana biri ko'pchur edi. U chorvador xo'jaliklardan olingan.

Chorvadorlardan yana shulsi solig'i olingan. Bunda har suruvdan bir qo'y va qimiz uchun har ming bosh otdan bir biya undirilgan.

Yana bir soliq targ'u deb atalgan. U hunarmand, savdogarlardan

olingan. Targʻu ishlab chiqarilgan va sotilgan molning oʻttizdan bir ulushi hajmida olingan. Yana mahalliy xalq tuz soligʻi, jon yoki kumush soligʻi toʻlagan.

Maʼlumki, moʻgʻul xonlari noiblarga barot (ijara yorligʻi), payza berganlar, noiblar soliq yigʻish paytida rasmiy belgilangan hajmdan ziyodroq undirib olishlari mumkin edi.

Aholi maxsus yorliqlarga asosan oʻzlari yashab turgan hududlardan oʻtuvchi amaldorlar, savdogarlar, ruhoniylar va xonning qarindoshlarini (ular toʻxtaydigan joylar «yom» — «bekat» deb atalgan) turar-joy, oziq-ovqat va ot-ulov bilan taʼminlashga majbur edi.

Koʻp sonli mansabdorlar, harbiylar, tarxonlar, dorugʻa va tamgʻachilar yomlarda (bekat)larda toʻxtab oʻtganlarida, har bir oila bir szin (596,8 gr.) goʻsht, bir shim guruch va bir shisha aroq yetkazib berishlari zarur edi. 1235-yil xoqon farmoniga koʻra har bir yomdagi aloqa xizmati ikki tuman aholisiga yuklatiladi. Ikki tuman aholisi yom uchun 20 bosh ot, soʻyishga qoʻy-echki, sogʻishga biyalar, arava va boshqa zarur anjomlar ajratishlari lozim edi.

Shuningdek, shahar va qishloqlarda joylashgan harbiy guruhlarini kiyim-kechak va oziq-ovqat bilan taʼminlash ham oddiy aholi zimmasida edi. Hunarmandlar ayniqsa qattiq nazorat ostiga olingan boʻlib, ular yuqorida eslatilgan soliqlardan tashqari moʻgʻul hukmdorlariga maʼlum miqdordagi mahsulotlar ishlab berardilar.

Chigʻatoy ulusi xonlari oʻz uluslariga inju tarzida egalik qilganlar, yaʼni xonu xonzodalar oʻzlariga berilgan yurtning daromadidan foydalanish huquqiga ega boʻlganlar, xolos. Yer soligʻi (xiroj) umumiy hosilning oʻn foizini tashkil etgan. Koʻchmanchilar toʻlaydigan koʻpchur yuz bosh moldan bir bosh hisobida boʻlgan. Savdodan targʻu jarimasi olingan. Munka qoon nomidan pul zarb etilgach, 1270-yildan soliq va jarimalar pul bilan olinib boshlagan. Pul ulusning koʻplab yirik shaharlarida, masalan, Olmaliq, Buxoro, Oʻror, Taroz, Koshgʻar, Toshkand, Oʻsh, Margʻilon, Oqtepa, Oʻzgand, Xoʻjandda zarb qilingan.

Masʼudbek tashabbusi bilan 1271-yilda pul islohoti oʻtkazildi. Chigʻatoy ulusining barcha shahar va tumanlarida bir xil vazndagi kumush tangalar zarb etish va muomalaga kiritish bu islohotning asosiy mohiyatini tashkil etar edi. Bu hol ichki savdo va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solardi: endi kumush tangalar zarb etish erkinligi vujudga keldi; xohlagan kishi oʻz ixtiyoridagi kumush buyumlarini zarbxonaga olib kelib kumush tangaga aylantirishi mumkin edi.

Moʻgʻullar hukmronligi yillarida yangi yer mulki egaligi vujudga keladi. Bu davrda yerlar: devon, yaʼni davlatga, feodallarga tegishli yerlar, vaqf yerlari va ozod dehqonlarga taalluqli yerlarga boʻlingan. Moʻgʻullar oʻzlari bosib olgan yerlarini qabilalar va harbiy amaldorlarga

xizmat evaziga bo‘lib bera boshlaydilar. Bunday yer egaligi shartli bo‘lib, «suyurg‘ol» deb atalgan, u vorislikka o‘tkazilgan hamda soliq bobida va ma‘muriy sohada to‘liq daxlsizlikdan foydalangan (Mang‘itlar sulolasi davrigacha). Shunday qilib, bu mulkning uchta asosiy belgisi: shartliligi, merosiyligi va daxlsizligi xarakterlidir.

Mo‘g‘ullar bosib olingan xorazmshohlar davlatining aholisini o‘nlik, yuzlik, mingliklarga bo‘lganlar. Ana shu tartibda 10.000 aholidan iborat ma‘muriy birlik tumanlar joriy qilingan. 1235–1251-yillarda ikki marta aholi ro‘yxati o‘tkazilib, hatto hunarmandlar ham mo‘g‘ul feodallariga, oilalar hazora – mingliklarga birlashtiriltan. Minglik deganda, shahzodalarga soliq to‘lovchi aholi tushunilgan. Mo‘g‘ullar soliq islohoti o‘tkazganlar. Unga ko‘ra, Ug‘adoyxon davrida dehqonlar (ekinchi)dan hosilning 10 foizi, molchilardan molining 1 foizi bir yillik soliq sifatida olinishi belgilangan bo‘lsa, Munxa (Munxa) xon soliqlarni pul bilan belgilab, har kishidan 11 dinorgacha soliq olishni joriy etgan.

Kebekxon Chig‘atoy ulusida pul va ma‘muriy-hududiy islohot o‘tkazadi. Uning pul islohotiga ko‘ra, yangi tangalar: katta va kichik kumush tangalar, dirham va dinorlar zarb qilingan. Ularga «Qutlug‘ bo‘lsin» degan turkiycha (chig‘atoy) so‘zlar uyg‘ur harflarida bitilgan edi.

O‘tkazilgan ma‘muriy islohot asosida esa mamlakatni ma‘muriy-hududiy birlashtirish – tumanlarga bo‘lish yotadi. Bundan maqsad – davlatni markazlashtirish, feodal bekliklarning o‘zboshimchaliklariga chek qo‘yish bo‘lib, ular o‘rniga tumanlar tashkil qilindi. Endi tuman boshliqlari xonning amirlari sanalardi. Markaziy Osiyoda qullar mehnatining unumsizligi bois ularni ozod qilib, krepostnoy qaramlikka tashlash ham shu davrdan boshlangan bo‘lishi mumkin. Bu haqda 1326-yildagi vaqf yorlig‘i guvohlik beradi.

14.3. Chig‘atoy ulusida hokimiyat va boshqaruvning amalga oshirilishi

Mo‘g‘ullar asos solgan davlat yarim ko‘chmanchi tipidagi, asosan harbiy tartiblarga muvofiq kelgan davlat boshqaruviga ega siyosiy tashkilot edi. Chingizxon va uning avlodlari xon unvoni sohiblari edilar. Ularning qo‘li ostidagi boshqaruv tizimida turli unvon, martaba va mansab egalari bo‘lgan. Bunday amallarning aksariyati harbiy tartiblarga mos tushardi. Yirik harbiy bo‘linma boshida no‘yonlar, bahodirlar va merganlar turgan. O‘n ming askardan iborat tumanga xonning farzandlari ham boshchilik qilishgan. Xonning shaxsiy soqchilik bo‘linmasi – keshik ham bo‘lgan. Favqulodda holatlarda mazkur bo‘linmaning harakati qo‘l kelgan.

Tumanlar o‘z navbatida minglik, yuzlik, o‘nliklarga bo‘lingan va

har bir bo'g'inda harbiy boshliqlar: mingboshi, yuzboshi va o'nboshilar turgan. Tartib-intizom borasida so'z yuritmoqchi bo'lsak, bunda mo'g'ullarning qo'shini eng intizomli va o'z boshliqlarining so'zini ikki qilmaydigan keskin, o'z zamonasining haqiqatan ham qat'iy jangovar armiyasi sanalardi. Jangchilar esa botir, qo'rqmas va chaqqon bo'lgan.

Chig'atoy ulusi davrida Movarounnahrni boshqarish ishlari mahalliy hukmdorlarga topshirilgan edi. Movarounnahrning boshqaruvchisi yirik savdogar va Mahmud Yalavoch bo'lgan. U Xo'janddan turib o'z qo'li ostidagi mo'g'ul harbiy bo'linmalari yordamida davlatni boshqargan, soliqlarni yiqqan. Buxoroda esa mahalliy zodagonlar va ruhoniylar rahbarlar mamlakatda boshqaruvni o'z qo'llariga olgan edilar. Bular mahalliy amirlar va sadrlar hisoblangan.

Mahalliy boy-zodagonlar qatlamiga tayangan holda mo'g'ul xonlari O'rta Osiyodagi viloyat va hududlarni idora qilganlar. Ishonchli kishilarga maxsus hujjat – payzalar berganlar. Alohida yorliqlarga ko'ra mahalliy aholi amaldorlar, savdogarlar, ruhoniylar, xon xonadomi vakillariga o'sha yerlardan o'tib qolsa, turar joy berganlar hamda ularni oziq-ovqat va ot-ulov bilan ta'minlaganlar.

14.4. Huquqdagi o'zgarishlar

Bu davrda huquqdagi asosiy o'zgarishlar Chingizxon tomonidan mo'g'ul-tatarlar odat huquqlarining yozma nusxasi – Yaso qonunlarining qabul qilinishi bilan yuz bergan edi. Lekin shuni ta'kidlash joizki, Chingizxonning «Yaso qonunlari» islom huquqini tugatmadi. Movarounnahr aholisi juda ko'p va asosiy ijtimoiy-huquqiy munosabatlarda islom huquqiga asoslanganlar. Mo'g'ullar islomni qabul qilgandan keyin esa islom huquqining ta'sir doirasi yanada kengaygan.

Temuchin o'zidan oldin o'tgan Qoraxoniylar xonining buyuk xon yoki xonlar xoniga teng kelgani uchun ham barcha mo'g'ullar bajarishi shart bo'lgan «Yaso qonunlarini» e'lon qilgan. «Shaboshou» yoki «Yaso qonunlari» deb ataluvchi bu to'plamga barcha sultonlar va xonlar bo'ysunishi shart bo'lgan. Qurultoylarda bu qonunlar o'qib turilgan. Chingizxon «yaso»ga amal qilish ustidan nazorat qilishni katta o'g'li Chig'atoyga topshirgan. Bu qonunlar Turkistonda mo'g'ullar hukmronligi tugatilgandan so'ng ham qisman ta'sir etib turgan.

1206-yilda Qurultoyda qabul qilingan «Chingizxon yusunlari» yoki «Yaso qonunlari» nomi bilan ataluvchi mazkur to'plam 33 qismdan iborat bo'lib, O'zbekiston hududida ham amal qilgan. Unda jinoyat va jazo, harbiy qismlarni boshqarish va ularda qat'iy tartib-intizomni joriy qilish, oila va nikoh, mulk masalalariga bag'ishlangan me'yorlar belgilangan.

Yusunlarga binoan suv va olovni haqoratlash, sutni yerga to‘kish, asirdagilarga yordam ko‘rsatish, qulni egasiga qaytarmaslik, qo‘riqlash uchun topshirilgan inakonni qarovsiz qoldirish, yolg‘on gapirish va guvohlik berish, xoinlik, harbiy intizomni buzish kabilar og‘ir jinoyat hisoblangan. Bunday xatti-harakatlar uchun o‘lim jazosi belgilangan.

Mol o‘g‘rilari molni to‘qqiz barobar miqdorda egasiga qaytarishi, agar mablag‘i bo‘lmasa, bolalarini qul sifatida berishi kerak edi. Agar bolalari ham bo‘lmasa, o‘lim jazosiga hukm etilardi.

Chingizxon yusunlarida harbiy qo‘shinning tashkiliy ishlari va vazifalari, unga hukmronlik qilish, harbiy intizom, uni buzganlik uchun javobgarlik haqidagi qoidalar o‘rin olgan. O‘nta jangchi o‘n boshiga, yuzta jangchi yuzboshiga, o‘nta yuzboshi mingboshiga, o‘nta mingboshi tumanboshiga, bir necha tumanboshilar no‘yonga, ikki-uch no‘yon esa bosh qo‘mondonga bo‘ysungan. Barcha jangchilar bir-biriga kafil bo‘lib, bir jangchi yoki bir necha jangchining aybi uchun o‘nlik a‘zolari javobgarlikka tortilgan, asosiy jazo — o‘lim jazosi hisoblangan.

«Yusun»larda barcha dinlarga erkinlik berish, dindorlarni va ruhomiyalarni soliqlardan ozod qilish, urush vaqtlarida ayollar gunohidan kechish, imtiyozlar, ov qilish tartiblari ham o‘rin olgan.

Unda davlat huquqi, harbiy qurilish, davlat boshqaruvi, beklar, no‘yonlar va amaldorlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatga oid qoidalar, jinoyat, fuqarolik, sud yuritish, jazo va uning turlariga oid qoidalar metall taxtalarga o‘yilib yozilgan. Shulardan 33 parchasi Chingizxonning davlat, harbiy va jinoyat huquqi bo‘yicha: 27 nutqi biliklar tarzida qolgan. Jazo berishda, agar mo‘g‘ul-tatar urug‘idan bo‘lgan kishi yaso qoidasini 1 marta buzsa, unga ijtimoiy jazo — so‘z bilan tanbeh berish; 2-marta buzsa, bilikka asosan jazoga tortish, 3-marotaba esa uzoq Boljin Suljurga surgun qilish qo‘llanilgan. Shundan keyin ham buzsa, oyog‘iga kunda urib qorong‘i qamoqxonaga tashlangan.

Agar qarz olgan kishi o‘z vaqtida qarzini qaytarmasa, qaytarishni imkoniyati bo‘lmasa, bolalari qarzdor holatiga tushgan. Jazo ijtimoiy va milliy tengsizlikka asoslangan: bir begunoh mo‘g‘ulning o‘limi uchun xun bahosi 40 tangaga (kumushga) teng bo‘lsa, xitoylikning o‘limi uchun bir eshakning bahosi belgilangan. Ayg‘oqchilik, aldanchilik, soxta guvohlik, tabiatni ifloslantirgani uchun, poraxo‘rlik, fohishalik uchun ham o‘lim jazosi nazarda tutilgan.

Mol-mulkka qarshi qaratilgan jinoyatlardan o‘g‘rilik uchun o‘g‘irlangan narsaning 3–9 baravarigacha jarima to‘latilgan, to‘lay olmasa, 7 tadan 700 tagacha qamchi urish bilan jazolangan. Katta miqdordagi o‘g‘rilik uchun esa — o‘lim jazosi berilgan.

Yorg‘u va yaso qoidalariga uluslarning xonlari qattiq amal qilishlari lozim bo‘lgan.

Sud ishlari markazda bevosita xon noibining huzurida uning nazorati ostida olib borilgan. Mo'g'ullarga taalluqli ishlarda sud yuritish yasoga asoslangan edi. Diniy ishlar shariat huquqi asosida yorg'uchilar (sudyalar) tomonidan hal etilgan. Sudyalar – yorg'uchilar obro'li, e'tiborli kishilardan tayinlangan. Sud funksiyasi kundalik ish bo'lgan.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

- 1. Mo'g'ullarning hukmronligi o'rnatilishi haqida gapirib bering.*
- 2. Chig'atoy ulusining tashkil topishi haqida gapirib bering.*
- 3. Mo'g'ullar hukmronligi davrida ijtimoiy tuzumda qanday o'zgarishlar yuz berdi?*
- 4. Yer mulki egaligining vujudga kelishi va islohotlar haqida gapirib bering.*
- 5. Chig'atoy ulusida hokimiyat va boshqaruv qanday amalga oshirilgan?*
- 6. Huquqda yuz bergan o'zgarishlar haqida gapirib bering.*

**VII BOB. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR
DAVLATI VA HUQUQI
(XIV asrning ikkinchi yarmi – XVI asr boshlari)**

**15-MAVZU: AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVLATI VA
HUQUQI**

1. XIV asrda Movarounnahrda markazlashgan davlatning tashkil topishi.

2. Temur va temuriylar davrida Movarounnahr ijtimoiy tuzumining asosiy belgilari.

**15.1. XIV asrda Movarounnahrda markazlashgan
davlatning tashkil topishi**

Mo'g'ullar O'rta Osiyoda XIII asrning 20-yillaridan XIV asrning 70-yillarigacha hukmronlik qilib, xalq ommasini ayovsiz ekspluatatsiya qildilar, yuz minglab kishilarni o'ldirdilar, tarixiy va madaniy boyliklarni yo'q qildilar, shaharlarni, sug'orish tarmoqlarini buzib tashladilar. Mo'g'ullar zulmi mamlakatning ishlab chiqarish kuchlariga og'ir zarba yetkazdi va hunarmandchilik, dehqonchilik, savdo-sotiq taraqqiyotini uzoq vaqt to'xtatib qo'yishga sabab bo'ldi. Shuning uchun ham O'rta Osiyoda xalq ommasi mo'g'ul istilochilariga qarshi bir necha marta bosh ko'tarib chiqdi. Ayniqsa, XIV asrning I yarmida Xurosonda boshlangan va mo'g'ullar istibdodiga qarshi qaratilgan sarbadorlar¹ harakati mashhur bo'lgan. Sarbadorlar o'z oldilariga mo'g'ullar va mahalliy feodallar hokimiyatini ag'darib tashlashni, so'ngra esa inamlakatda mehnatkashlar keng ommasining – dehqonlar, hunarmandlar, mayda savdogarlar, ziyolilar manfaatlarini himoya qiladigan o'z tartiblarini o'rnatishni maqsad qilib qo'ygan edilar. Ular ozodlik kurashi davomida Xurosonda mustaqil davlat tuzganlar. Markazi Sabzavor shahri bo'lgan bu davlat 1337-yildan 1381-yilga qadar, ya'ni deyarli 45 yilcha yashagan. Biroq sarbadorlar davlatidagi siyosiy tuzum va sotsial tartiblar to'g'risida aniq ma'lumotlar yo'q. Faqat shu narsa ma'lumki, sarbadorlarning dunyoqarashi islom dini hukmron bo'lgan mamlakatlardagiga qaraganda boshqacharoq edi. Sarbadorlar davlatida boshqa mamlakatlarda bo'lgani kabi davlat boshlig'i hukmdor sulolasi prinsipi bo'yicha tayinlanmas edi. Bu davlat davlat boshlig'i xalq demokratiyasiga asoslangan saylangan

¹ «Sarbadorlar» – «dorga osilganlar» degan ma'noni anglatib, «agar mo'g'ullar ustidan g'alaba qozonsak xalqni ozod qilamiz, agar yengilsak dorga osilishga tayyormiz» shiori bilan kurash boshlaganlar.

bo'lsa kerak, sarbadorlar mamlakatdagi oliy mansabga goh qassobni, goh kosibni yoki shularga o'xshash kishilarni tayinlab qo'yar edi. Ular o'zlariga yoqmagan hukmdorni yo haydab yuborar yoki o'ldirib yo'q qilar edilar.

Sarbadorlar harakati 1365-yilda Samarqandga ham yetib keldi. Samarqand, Buxoro va Movarounnahrning boshqa shaharlarida mo'g'ullar va mahalliy feodallarning o'zboshimchaligi tufayli taraqqiyot turg'unlikka uchrab qolgan edi. Har bir mo'g'ul xoni butun Movarounnahrni bosib olishga tobora ko'proq intilar edi. Jumladan, Yettisuv va Sharqiy Turkiston xoni Tug'luq Temur 1360-yilda Movarounnahrni bostirib kirib, hech qanday qarshiliksiz Qashqadaryo-gacha yetib borgan. Tug'luq Temurdan so'ng taxtga uning o'g'li Ilyosxo'ja o'tirgan. Biroq Movarounnahr amirlari Ilyosxo'jaga itoat etmay qo'yanlar. Shu sababli 1365-yilning boshida Ilyosxo'ja katta qo'shin to'plab, itoatsiz Movarounnahrni yurish qilgan.

O'sha davrda Movarounnahrda Temur bilan Husaynlar Ilyosxo'ja uchun kuchli raqiblar hisoblanar edi. 1365-yilning bahorida ularning qo'shinlari Ilyosxo'ja qo'shinlari bilan jang qilgan, lekin mag'lubiyatga uchrab Amudaryoning narigi tomoniga o'tib ketganlar.

Ilyosxo'ja qo'shirlari Samarqandni uzoq vaqt qamal qilib tursa-da, uni ololmagan. Samarqandni mudofaa qilishga shaharning eng o'qimishli kishilaridan biri bo'lgan Mavlonzoda Muhammad Samarqandiy boshchilik qilgan. Unga Samarqand sarbadorlari — paxta tituvchilar rastasining oqsoqoli Abubakr Qumut, temirchilar rastasining oqsoqoli Xo'rdakiy Buxoriy va boshqalar ko'makdosh bo'lganlar. Shahar himoyachilari mo'g'ul sarbozlari ustiga tinmay tosh yog'dirganlar, ularni kaltaklab haydaganlar. Natijada Ilyosxo'ja dastlab Samarqandni atrofini, so'ngra esa Movarounnahrni tashlab ketishga majbur bo'lganlar.

Shunday qilib, Samarqandda mo'g'ullar hukmronligi tugatilib, sarbadorlar hokimiyati o'rnatilgan.

Bu vaqtga kelib Movarounnahrda markazlashgan davlatning tashkil topishi uchun shart-sharoitlar yetilgan edi. Bundan endilikda tobora ko'proq mahalliy hukmron doiralari ham manfaatdor edilar. Chunki mo'g'ullar hukmronligi muayyan doiralarning manfaatlarini cheklab qo'yan edi. Mo'g'ullar hukmronligiga qarshi bo'lgan tabaqalar, ayniqsa savdogarlar zarar ko'rmoqda edi. Savdo, hunarmandchilik doiralari asosiy karvon yo'llarini qo'lga kiritish hamda ichki va tashqi savdoni rivojlantirish imkoniyatini beradigan markazlashgan davlat tuzishni talab qilib chiqqanlar. Ularga mo'g'ullardan norozi bo'lgan katta ruhoniylar va amirlar ham qo'shilganlar. Bu esa 1366-yilda Amir Temur va Xusayn qo'shinlarining Samarqandga kelib, sarbadorlarni bostirib, taxtni egallashiga sabab bo'ladi.

Zo‘r harbiy va tashkilotchilik iste‘dodiga ega bo‘lgan Temur hukmron doira orasida katta obro‘ qozondi. XIV asrning 60-yillari boshida Kesh viloyatining hukmdori bo‘lib oladi. 1361-yilda, u nufuzli turkiy amir Qazag‘onning nabirasi amir Husayn bilan ittifoq tuzgan. Amirlar ittifoqi Movarounnahrda katta kuchga aylangan. Ammo ular o‘rtasida ittifoq uzoqqa cho‘zilmadi, chunki ularning har biri o‘z hokimiyatini kuchaytirishga va boshqa yerlarni bosib olib o‘z hududini kengaytirishga intilaverdi. Mamlakatda feodallar anarxiyasi uzoq davom etolmadi, chunki mamlakatni birlashtirishdan va mustahkam davlat tuzilishidan manfaatdor bo‘lgan kishilar tobora ko‘payaverdi. Temur o‘zining siyosiy yo‘liga xayrixoh bo‘lgan ruhoniylarni to‘play berdi. Natijada Temur Husayn qo‘shinini tor-mor etib, uni o‘ldiradi va Husaynning beva qolgan xotiniga uylanib, o‘ziga amir Ko‘ragoniy degan nom oladi. 1369-yil 8 aprelda (771-yil 10 ramazon oyi) Balxda yig‘ilgan millat majlisi – Qurultoyda Temur Movarounnahrning yagona hokimi etib saylandi. Qurultoyda Chig‘atoy xonligining buyuk to‘ralari, Temurning yoshligidagi quroldoshlari va avvalgi dushmanlari ham ishtirok etgan edilar. Temur qadimgi turk odatiga ko‘ra oq kigiz ustiga o‘tkazilib, yuqori ko‘tarilardi. So‘ngra Temurning piri Said Baraka duoyi fотиha qilgan. Qurultoyda ulus amirlari Movarounnahrning yagona qonuniy hokimi sifatida Temurga sodiqliklari haqida qasamyod qilganlar.

Temurning yirik bir davlat tuzishda yuqori tabaqa namoyondalari, ruhoniylar yordam berdilar. U hukmronligining birinchi yilidayoq Samarqandni o‘ziga poytaxt qilib, uni feodal isyonlariga qarshi mustahkam qal‘aga aylantirdi.

Bu vaqtda Temur Xo‘jand atrofida mo‘g‘ul xoni Ilyosxo‘ja qo‘shinlarini to‘liq mag‘lubiyatga uchratgan edi. Shu tariqa 130-yildan ortiq davom etgan mo‘g‘ullar istibdodiga chek qo‘yildi.

Temur qisqa muddat ichida Amudaryo bilan Sirdaryo oralig‘idagi yerlarni, Farg‘ona va Shosh mulklarini birlashtirdi va ularni o‘ziga bo‘ysundirdi.

Temur o‘z davlatini Mo‘guliston tomonidan bo‘ladigan hujumdan saqlab qolish tadbirlarini ko‘rdi. 1372-yilda Oltin O‘rdadan ajralib chiqqan va mustaqil davlat bo‘lib qolgan Xorazmga hujum qildi. Biroq Xorazmshohlar mag‘lubiyatga uchragan bo‘lsada, Temurga qarshi bosh ko‘tarib turdilar. Shuning uchun ham Temur Xorazmga besh marta harbiy yurish qildi, bu yurishlar natijasida 1388-yilda Xorazmni uzil-ketil zabt etdi va o‘z imperiyasi tarkibiga qo‘shib oldi.

Temur Oltin O‘rda xoni To‘xtamishga qarshi 1389, 1391, 1394–1395-yillarda uch marta yurish uyushtirib, uni tor-mor etishga muvaffaq bo‘ldi. Yirik va kuchli Oltin O‘rda qudrati sindirildi.

Natijada Temur qo‘shinlari uchun quyi Pavolje, Astraxan, Moskva

knyazligi, Shimoliy Kavkaz va Azov bo‘ylariga chiqish uchun keng yo‘l ochilgan. «Amir Temur qo‘shini ikki yarim yilda o‘rus viloyatigacha bordilar... O‘ruslar mamlakatining poytaxti Moskva ham zabt etiladi... Janglar juda qattiq kechadi... Oq malikaning yaqin kishilari sotqinlik yo‘liga kiradilar. Amir Temurga xizmat qilishga o‘tadilar... Moskov knyazligi to Shohruh vafotiga qadar Temuriylarga boj to‘lab turgan».¹

Temur Eronga qarshi 1386, 1392 va 1399-yillarda qonli urushlar uyushtirib, uni o‘ziga bo‘ysundiradi. 1398–1399-yillarda Hindistonni, uning poytaxti Dehlini egallab oldi. 1401-yili Suriya yerlari bosib olindi. 1402-yilda Anqara yonida jangda Temur tomonidan Sulton Boyazid mag‘lubiyatga uchratildi va asir qilib olindi. So‘ngra 1404-yilda Xitoyga yurish qilib, 1405-yil boshida Sirdaryo bo‘yidagi O‘tror shahrida vafot etadi.

Temur o‘zining harbiy yurishlari natijasida nihoyatda katta hududni istilo qildi. Uning davlatiga O‘rta Osiyodan tashqari Oltin O‘rda hududi, Turkiya, Suriya, Shimoliy Afrika, Eron, Kavkaz orti va Shimoliy Hindiston kirgan.

Temur juda ko‘p qo‘shni mamlakatlarni o‘ziga qaratib, juda katta imperiyani vujudga keltirdi.

Temurning Xorazm, Movarounnahr yerlariga va Oltin O‘rdaga yurishlari O‘rta Osiyoda markazlashgan davlatni qaror topaborishiga qaratilgan bo‘lsa, uning Eron, Kavkaz, Hindiston, Kichik va Old Osiyo yerlariga qarshi yurishlari o‘z imperiyasini kengaytirish maqsadini ko‘zlagan edi.

15.2. Temur va temuriylar davrida Movarounnahr ijtimoiy tuzumining asosiy belgilari

XIV asrning oxiri va XV asrda Movarounnahrda markazlashgan davlatning tuzilganligi, feodal tarqoqlik tugatilganligi O‘rta Osiyoning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim ijobiy oqibatlarga olib keldi, mamlakatdagi ishlab chiqaruvchi kuchlarni va mo‘g‘ullarning ko‘p yillik hukmronligi davrida vayron bo‘lgan iqtisodni tiklash uchun qulay shart-sharoitlar vujudga keldi.

Bu davrda Movarounnahrning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida ancha yuksalish alomatlari ko‘zga tashlandi. Temur tashkil etgan markazlashgan davlat sharoitida ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishi bilan birgalikda Temurning ko‘pdan ko‘p harbiy yurishlari ham mamlakatning iqtisodiy va harbiy yuksalishiga yordam berdi.

¹Temurnoma, Toshkent, «Cho‘lpon», 1990. 29-bet.

Amir Temur harbiy feodal davlat arbobi sifatida feodallar, zodagonlar va ruhoniylar manfaatini himoya qildi. Yer, suv zodagonlar ixtiyorida edi. Odatda yer feodal hokimiyati namoyondalariga «suyurgʻol» sifatida abadiy foydalanish uchun berilardi. Temur bosib olingan oʻlka va shaharlarni ham oʻzining yaqin qarindosh-urugʻlari va ishonchli odamlariga suyurgʻol qilar edi. Bunday suyurgʻol olgan kishilar oʻz qoʻl ostidagi yerlardan va aholidan keladigan daromadlarga egalik qilar, xalqqa shafqatsiz ravishda zulm oʻtkazar edilar. Ular mahalliy va ayniqsa bosib olingan mamlakatlardagi aholini qattiq ezdilar va xoʻrladilar. Shuning uchun ham 1358-yilda Hirot va Sabzavorda, 1387-yilda Isfaxonda va 1401-yilda Bogʻdodda xalq qoʻzgʻolonlari koʻtarilgan edi. Bu qoʻzgʻolonlar Temur qoʻshinlari tomonidan bostirilgan.

Oʻtroq aholining asosiy mashgʻuloti dehqonchilik boʻlgan. Dehqonchilikning muvafaqqiyati koʻproq irrigatsiya tarmoqlarining holatiga bogʻliq boʻlgan. Suvning yetishmasligi qishloq xoʻjaligiga katta talofat keltirishi mumkin edi.

Qishloq xoʻjalik qurollari juda primitiv, qoloq edi. Omoch, mola, yogʻochdan yasalgan barana, ketmon, lopatka va boshqalar unchalik takomillashmagan edi. Dehqonlarda buning uchun mablagʻ yoʻq edi, feodallar esa qullarning va dehqonlarning arzon mehnatidan foydalanib, mehnat qurollarini yaxshilashdan uncha manfaatdor emas edilar.

Bu davrda xoʻjalikning yana bir muhim tarmogʻi chorchilik boʻlgan. Qishloq xoʻjaligi bilan mustahkam aloqada boʻlgan toʻquvchilik va tutchilik, hunarmandchilik ancha taraqqiy etgan. Bundan oʻsha vaqtlardagi erkak va ayollarning kiyib yuradigan liboslari ham darak beradi. Masalan, Xerman Vamberining yozishicha, «Saroy aʼyonlarining ipak, duxoba va atlas kiyimlari arab yoki musulmon rasm-rusmida tikilgan edi».¹

Temur davlatining irqiy tarkibi ham bir xil emas edi. Temur tuzuklarida bu davlatda 40 aymoq mavjud boʻlganligi eslab oʻtiladi va bulardan quyidagi 12 tasi sanab koʻrsatilgan: barlos, tarxon, argʻun, jaloir, tulkichi, dulday, moʻgʻul, suldus, tugʻoy, qipchoq, arlot. Umuman, Temur imperiyasiga kirgan aholini 2 ga ajratish mumkin: Movarounnahrda yashovchi tub xalqlar va bosib olingan oʻlka va viloyatlar xalqlari.

Movarounnahr hududida asosan oʻzbeklar, tojiklar, turkmanlar, qozoqlar, qoraqalpoqlar va qirgʻizlar yashaganlar. Mamlakatning rasmiy tili har vaqt turkcha boʻlgan. Temurning oʻzi ham turk shevasida yozgan. Uning tuzuklari fikrimizning dalilidir.

¹ Xerman Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi, Toshkent, 1990-yil, 49-bet

Temur imperiyasida davlatning asosini quyidagi 12 ta ijtimoiy toifa tashkil etgan: 1) sayyidlar, ulamo, mashoyih, fozil kishilar; 2) ishbilarmon, donishmand odamlar; 3) xudojo'y, tarkidunyo qilgan kishilar; 4) no'yonlar (tuman boshliqlari)—10.000 kishilik qo'shim boshliqlari-amirlar, mingboshilar, ya'mi harbiy kishilar; 5) sipoh va raiyat (soliq to'lovchi xalq, qora xalq); 6) maxsus ishonchli kishilar; 7) vazirlar, sarkotiblar; 8) hakimlar (faylasuf, alloma, donishmand), tabiblar, munajjimlar, muhandislar; 9) tafsir va hadis olimlari; 10) ahli hunar va san'atchilar; 11) sufiylar; 12) savdogar va sayyohlar.

Temur imperiyasida yerga va irrigatsiya tizimiga egalik feodal munosabatlarning asosini tashkil etgan. Davlatdagi barcha yerlarni 3 turga ajratish mumkin: 1) davlatga yoki amirga qarashli bo'lgan yer; 2) suyurg'ol sifatida olingan yoki meros tariqasida avloddan-avlodga o'tib kelgan xususiy egalikdagi yerlar; 3) vaqf yerlar — machit, madrasa yoki boshqa diniy muassasalar ixtiyoridagi yerlar.

Eng yirik yer egasi — amir barcha umumdavlat yerlarining oliy egasi hisoblangan. Amir bunday yerlarni xohlasa suyurg'ol qilgan, xohlasa tortib olgan. Lekin amalda bunday yerlar feodallarga suyurg'ol tarzida abadiy foydalanish uchun berilgan.

Feodal hukmdorlar ko'pdan ko'p soliqlar olish va majburiy ishlatishlar yo'li bilan dehqonlarni qattiq ekspluatatsiya qilar edilar. O'sha vaqtlarda soliq to'lovchi xalqdan asosan xiroj, molu jihot, sovurun, qo'nalg'a, boj, shilon puli singari soliq va jarimalar undirilgan. Xiroj ba'zan sug'oriladigan yerlardan olingan hosilning 1/3 qismi, yomg'ir suvi bilan bitgan yerlarda umumiy daromadning 2/4 qismi hajmida to'plangan.

Amir Temur aholidan soliq yig'ishda, feodallarning o'zboshimchaligiga va haddan oshishlariga qarshi bo'lgan. Bunda uning o'ziga xos falsafasi bo'lib, u «Temur tuzuklari»da shunday ifoda etilgan: «Amr etdimki, raiyatdan mol-xiroj yig'ishda ularni og'ir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo'yishdan saqlanish kerak. Negaki, raiyatni xonavayron qilish (davlat) xazinasining kambag'al-lashishiga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa, sipohning tarqalib ketishiga sabab bo'ladi. Sipohning tarqoqligi, o'z navbatida, saltanatning kuchsizlanishiga olib boradi».¹ Tuzuklarda ko'rsatilishicha, qonunda ko'rsatilgan hollardan tashqari, boshqa qo'shimcha tarzda, aholidan hech qanday «oliq-soliq» talab qilinmasligi lozim edi.

Yuqoridagilardan tashqari aholi zimmasidagi jon solig'i, kasb-hunardan hamda o'tloq va suvloqdan olinadigan soliqlar ilgaridek saqlanib qolgan.

¹ Temur tuzuklari. Toshkent, 1991-yil, 98-bet.

Shubha yo‘qki, Temur davlatida qullar ham mavjud bo‘lgan. Qullikning asosiy manbaya ko‘plab bosqinchilik urushlari natijasida qo‘lga kiritilgan harbiy asirlar bo‘lgan. Qullarning mehnati bilan juda katta shaharlar, minoralar, hashamatli binolar, machit-madrasalar, irrigatsiya inshootlari, ko‘priklar va hokozolar qurilgan.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

- 1. XIV asrda Movarounnahrda markazlashgan davlatning tashkil topishi haqida gapirib bering.*
- 2. Markazlashgan davlat tuzishda Amir Temurning o‘rni qanday bo‘lgan?*
- 3. Amir Temur davrida Movarounnahrning ijtimoiy tuzumida yuz bergan o‘zgarishlar haqida gapirib bering.*
- 4. Davlatning asosini tashkil etgan toifalarni sanab bering.*
- 5. Amir Temur davrida yerga egalik shakli qanday bo‘lgan?*

16-MAVZU: AMIR TEMUR DAVLATIDA BOSHQARUV TIZIMI

1. Amir Temur davlatining markaziy hokimiyat va boshqaruv organlari.
2. Davlatning harbiy-boshqaruv tizimi.
3. Mahalliy boshqaruvning amalga oshirilishi.
4. Sud va politsiya hokimiyatining tashkil etilishi.

16.1. Amir Temur davlatining markaziy hokimiyat va boshqaruv organlari

XIV asrning II yarmi – XV asrning boshlarida Amir Temur o‘zining buyuk imperiyasiga asos soldi. Movarounnahrda uzoq vaqt hukm surgan feodal tarqoqlikka chek qo‘yilib, nisbatan markazlashgan kuchli davlat tashkil etildi. Yakka hokimlik shaklida idora etiluvchi mazkur davlatning tepasida monarx – yakka hokim – amir turar edi. Davlat boshlig‘i – amir hokimiyati cheklanmagan. U qonunlar chiqargan, o‘zi ularni bekor qilgan. Davlatdagi hamma mansablar amir tomonidan ta‘sis etilgan. Amir barcha mansabdor shaxslarni tayinlagan va bo‘shatgan. Amir mamlakat harbiy qo‘shinlarining yagona qo‘mondoni hisoblangan.

«Temur tuzuklari»ning «Saltanatni o‘z erkimda saqlash uchun amal qilgan tuzugim» deb nomlangan maxsus bobida quyidagi ko‘rsatmalar mavjud: «raiyat podshosining aytgan so‘zini, qilgan ishini o‘zi aytadi, o‘zi qiladi, hech kim bunga aralasha olmaydi..., boshqalar saltanat ishlarida podshohga sherik, yoxud ustun bo‘lmasliklari shart.... Butun

mamlakatda buyruq-farmon berish ishlari, podshoning o'z ixtiyorida bo'lishi lozim. Podshoh har ishda o'zi hukm chiqarsin, toki hech kim uning hukmiga aralashib, o'zgartira olmasin... Podshoh hukmi joriy etilishi darkor, ya'ni qanday hukm chiqarishidan qat'iy nazar, amalga oshirilishi shart... Biron kimsa unga monelik qilolmasin... Saltanat ishlarida, hukm yurgazishda podshoh o'zini yagona bilib, hech kimni o'ziga saltanat sherigi qilmasin».¹ Shu tariqa, amir davlat hayotining barcha masalalarini mustaqil hal qilgan va cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lgan.

Amir Temur davlatni idora qilishda adlu adolat, qonun ustuvorligiga asoslanib ish ko'rishga, fuqaro manfaatlarini ko'zlab siyosat yurgizishga alohida e'tibor berdi. Mamlakat hayotiga daxldor har bir katta-kichik masalada o'ziga yaqin tutgan xos kishilar, dinu ilm ahlari, har sohaning bilimdon vakillari bilan maslahatlashib, kengashib faoliyat yuritdi. Uning aql-zakovati va donishmandligi mahsuli bo'lgan «Tuzuklar»da buyuk davlatni boshqarishning barcha asosiy tamoyillari, yo'l-yo'riqlari har jihatdan asoslab berilgan edi. Taniqli xorijlik olim D. Logafetning yozishicha, «Yevropada konstitutsiya haqida oddiy tushunchaga ham ega bo'lishmagan davrlarda uning davlatida konstitutsiyaviy qonunlar majmuasi — «Tuzuk» mavjud bo'lgan».

«Temur tuzuklari»da davlat tuzilishining asosiy bo'g'inlari, ularning vazifa, funksiyalari, vazirlarning faoliyatlari, turli xil ijtimoiy guruhlar, tabaqalarga munosabat, qo'shin tuzilishi, davlatning moliya va soliq siyosati, mulkiy munosabatlar hamda shu singari dolzarb masalalar, ularni hal etish yo'llari aniq-ravshan ifodalangan. Shuningdek, «Tuzuklar»da har bir masalani hal etishda, voqea, hodisalarni tahlil etganda, xolis ko'z bilan yondashish, fuqaro ahliga jabr qilmaslik, yurtga xiyonat etmaslik, dinu diyonatga, qonun ustuvorligiga qat'iy amal qilish, adolat va haqiqat mezonlari bilan faoliyat yuritish lozimligi qayta-qayta ta'kidlab o'tilgan. Bular Sohibqironning nechog'liq yurtparvar, fuqaroparvar bo'lganligini, mamlakat xalqi, turli ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi totuvlik, ahillikka, ularning manfaatlarini qonun yo'li bilan himoya qilishga birinchi darajali e'tibor berganligini ko'rsatadi.

Amir Temur o'z davlatini barpo qilishda o'tmishda mavjud siyosiy boshqaruv tajribalaridan keng foydalandi. Mazkur davlat o'z tarkibiy tuzilishiga ko'ra ko'pincha harbiy-siyosiy tartiblarga asoslangan edi. Qudratli hukmdor tarix faniga ixlos qo'yanidan bo'lsa kerak, qadimgi va O'rta asr Sharq mamlakatlaridagi turli davlatlar va ularning siyosiy hamda ma'muriy idora usuli, boshqaruv tizimlari haqida keng tasavvurga

¹ Temur tuzuklari. Toshkent, 1991-yil, 68–69-betlar.

ega edi. Biroq, uning davlat boshqaruv tizimi qo‘l ostidagi butun hududda yagona markazlashgan siyosiy tartib asosiga qurilgan bo‘lib, bu sohadagi tajribalar O‘rta asrlardagi O‘rta Osiyo davlatlarida keng qo‘llanilgan idora usullari tajribasi bilan boyitilgan edi. Amir Temurning Nizomulmulk tomonidan yaratilgan «Siyosatnoma» asaridan davlat ishlarida keng qo‘llanma sifatida foydalanishi, «Temur tuzuklari»da «Siyosatnoma»dan fikrlar keltirishi bunga yorqim misoldir.

Amir Temur o‘ziga qadar mavjud bo‘lgan davlatchilikning sakkizta asosiga amal qildi:

- davlat siyosiy jihatdan mustaqil bo‘lishi;
- davlat va jamiyatning siyosiy yaxlitligi buzilmasligi;
- davlat va jamiyat muayyan qonunlar, tartiblar, mafkura asosida boshqarilmog‘i;
- boshqaruv tizimini muvofiqlashtirib turuvchi qoidalar shakllangan bo‘lishi;
- jamiyatdagi ijtimoiy-iqgisodiy munosabatlar ahvoli davlat e‘tiborida bo‘lishi;
- fan va madaniyat ravnaqi to‘g‘risida doimiy qayg‘urish;
- har bir davr shart-sharoiti, tartiblariga ko‘ra davlat jamiyat ichki taraqqiyoti masalalarini tashqi dunyodagi mavjud omillardan foydalangan holda olib borishi;
- davlat tepasidagi kuchlar o‘tmish, zamona va kelajakni teran tafakkur, mustahkam imon, g‘oyat yuksak ma‘naviyat va millatparvarlik ila anglamog‘i.

Amir Temur davlatchilikning bu asoslariga to‘qqizinchisini, jamiyat rivoji va barcha ijtimoiy tabaqalar, manfaatlarini ta‘minlashni qo‘shdi.

Temur muhim davlat ishlarini jamiyatning yuqori qatlami vakillaridan iborat majlis (kengash)da ko‘rib hal qilgan. Majlisda kimlar ishtirok etishi va ularning taxtga nisbatan joylashish tartibi Temur tuzuklarining «Saltanat saroyida o‘tirish va o‘rin olish tuzugi» degan bobida batafsil ko‘rsatib berilgan. Unda aytilishicha, sayyidlar, qozilar, ulamo, fuzalo, shayxlar, ulug‘lar va ashrof (sharaf va e‘tiqodli kishilar), oliy tabaqaga mansub kishilar taxtning o‘ng tomonida, amir ul-umaro, beklarbegi, amirlar, no‘yonlar, ulus, tumanlar va qo‘shinlarning sardorlari va amirlari, mingboshilar, yuzboshilar, o‘nboshilar chap tomonda o‘tirishlari lozim bo‘lgan. Devonbegi va vazirlar taxtning qarshisida, turli mamlakatlar, el-uluslarning kalontarlari (shahar boshliqlari) va kadxudolari (qishloq, jamoa oqsoqollari) vazirlar orqasida, bahodirlar, o‘g‘lonlar taxtning orqasidan o‘ng tomonda, qorovulbegilar (qo‘shinning oldida boruvchi xabarchi qism boshliqlari) esa taxtning orqasidan chap tomonda o‘tirishlari kerak edi. Xirovul (qo‘shinning ilg‘or qismi ketidan boruvchi bo‘linma) amir taxti ro‘parasidan o‘rin olgan, ichki (kichik

lavozimdagi saroy xizmatchisi), xususiy yasovul esa katta chodir eshigi oldida, dodxohlar (arz-dod bilan kelganlarning arizasini qabul qilib olib, podshoga yetkazuvchi mansabdorlar) o'ng va chap tomonda tik turganlar. Qolgan sipohiyar va xizmatkorlar o'z martabalariga qarab saf tortib tik turganlar. Majlis tantanali, bayramona o'tgan. Podsho yig'ilganlarga shohona ziyofat bergan. Biroq majlis maslahatchi organ bo'lgan. Majlisda hal qiluvchi ovoz amir-podshoning o'ziga tegishli bo'lgan.

Bundan tashqari, Temur tor doiradagi kishilar bilan ham kengash o'tkazib turgan. Bu davlat kengashida asosan shahzodalar va harbiy boshliqlar (amirlar ishtirok etib, urush va tinchlik masalalarini, ayniqsa uzoq mamlakatlarga yurish bilan bog'liq masalalarni muhokama qilganlar.

Davlat kengashi tinchlik vaqtida Samarqandda amir saroyida chaqirilgan. Unda amirning qarindosh-urug'lari, ruhoniylarning oliy vakillari, bosh amir, beklarbegi, amirlar, uluslar va tumanlarning boshliqlari, mingboshilar, yuzboshilar, vazirlar, devonbegi va boshqalar ishtirok etganlar.

Saltanatda markaziy boshqaruv organlari vazifasini devonbegi boshchiligidagi maxsus devonxonada amalga oshirgan. Devonxonada quyidagi vazifani amalga oshiruvchi vazirlar bo'lgan: 1) mamlakat va raiyat vaziri — mamlakatdagi muhim xo'jalik va qurilish ishlarini, raiyat ahvolini va boshqalarni kuzatib turishgan; 2) sipohi vazirlari — sipohilarning maoshlari va armiyaning holatidan xabardor bo'lib, boshqarib turganlar; 3) davlat daromadlarini omonat saqlovchi vazir — egasiz qolgan, o'lib ketgan va qochganlarga tegishli mollarni, savdogarlar mol-mulkidan olinadigan zakot va bojlarni, mamlakat chorvalarini, ularning o'tloq-yaylovlarini boshqarib, bulardan yig'ilgan daromadlarni omonat saqlagan; 4) saltanat ishlarini yurituvchi vazir — butun saltanat idoralarining kirim-chiqimlarini, xazinadan xarajatlarni kuzatib turgan.

Bundan tashqari, yana 3 vazirdan iborat davlat hay'ati (xolisa) tuzilib, u sarhad va bosib olingan mamlakatlardagi moliyaviy ishlarni va keladigan daromadlarni boshqarib turgan.

Yuqoridagi yettita vazir devonbegiga bo'ysungan. Devonbegi ushbu vazirlar bilan birgalikda davlatdagi muhim moliyaviy ishlarni boshqargan va vazirlar faoliyatini nazorat qilib turgan.

Devonbegi yonida arkbegi ham bo'lib, u davlatdagi turli marosimlarni uyushtirgan va o'tkazgan.

Shunday qilib, boshqaruv ikki idoradan: dargoh va vazirlik (devon) dan iborat bo'lgan. Dargohni oliy hukmdor boshqargan. Dargoh faoliyatini boshqarish, uning devonlar, mahalliy hokimiyat idoralari bilan bog'lanib turish ishlari Oliy devon zimmasida bo'lgan.

Oliy devonda — ijroiya hokimiyatda bosh vazir, harbiy vazir,

mulkchilik va soliq ishlari vaziri, moliya vaziri turgan. Sarhadlar va tobe mamlakatlarning boshqaruvi bilan shug'ullanuvchi yana uchi vazir bo'lgan va devonbegiga hisobot berib turgan. Markaziy hokimiyat tizimida shayx-ul-islom, qozikalon, qoziyi ahdos (odat bo'yicha hukm chiqaruvchi qozi), qozi askar, sadri a'zam (vaqf yerlari, mulklari mutasaddisi), dodxoh (shikoyatlarni ko'ruvchi), eshikog'a, saroy vaziri, yasovul (hukmdorning shaxsiy buyrug'ini bajaruvchi), qalakchi (xiroj miqdorini aniqlovchi), muhassil (soliq undiruvchi), tavochi (asosiy qo'shinlarni to'plash ishiga mutasaddi amaddor), qorovulbegi, qutvol (qal'abon), muhtasib (shariat qoidalari ijrosimi, bozor tartiblarini nazorat qiluvchi) va boshqalar bo'lgan.

Shuningdek, dargohda bosh hojib, hojiblar, xazinabon, xonsolar, jibachi, qushchi, bakovul, kotiblar, bitikchilar, tabiblar, sozandalar, dorixonachilar bo'lgan.

Amir Temurning tarixdagi xizmati shundan iboratki, u davlatchilikning boshqaruv tizimi, ichki va tashqi siyosatining tartib-qoidalari, huquqiy asoslarini yangi tarixiy sharoitda takomillashtirdi. Tashqi va ichki favqulodda voqealardan voqif etib turuvchi ming nafar piyoda, ming nafar tuya mingan, ming nafar ot mingan choparlari bo'lgan. Butun saltanat bo'ylab bir kunlik yo'l oralig'ida yomxonalar tashkil etilgan. Har bir yomda 50–200 boshdan ot-ulov tutilgan.

Sohibqiron mamlakatni boshqarishda o'z yaqinlariga suyandi.

16.2. Davlatning harbiy-boshqaruv tizimi

Amir navkarlaridan iborat bo'lgan armiyaning tashkil etilishi va boshqarilishi davlat hayotining muhim jabhasi hisoblanadi. Amir Temurning o'zi butun qo'shinlarning bosh qo'mondoni edi. U o'z navkarlari ichidan 313 kishiga amirlik (harbiy boshliq) mansabini bergan va ularning har biriga o'rinbosar («amirlikka nomzod»–muntazir-ul-amorat) tayinlagan.

313 kishidan 4 nafarini beklarbegi, bir kishini amir ul-umaro etib tayinlagan. Amir ul-umaro bevosita amirning o'rinbosari bo'lib, uning hukmi amirlar va sipohiyar uchun majburiy bo'lgan.

Yuqoridagilardan tashqari, yana 12 kishi amirlik darajasiga ega bo'lgan. Bularidan birinchisi ming kishilik askarga, ikkinchisi ikki ming kishilik, uchinchisi uch ming kishilik va hokazo askarga, o'n ikkinchisi o'n ikki ming kishilik askarga amir hisoblangan. Amirlik tartibiga qarab biri ikkinchisiga noib bo'lgan. Masalan, birinchi amir ikkinchi amirga, ikkinchi amir uchinchi amirga va hokazo noib etib tayinlanganlar. O'n ikkinchi amir esa amir ul-umaroning noibi bo'lgan. Amir ul-umaro Amir Temur noibi hisoblangan.

313 kishidan yuztasi – o‘nboshi, yuztasi – yuzboshi, yuztasi – mingboshi bo‘lib, jang paytida amir ul-umaro – amirlarga, amirlar – mingboshilarga, mingboshilar – yuzboshilarga, yuzboshilar – o‘nboshilarga boshliq edi.

Jang vaqtida amirning birinchi yordamchisi – amir ul-umaroga qo‘shinlarning amirlari bo‘ysunganlar. Qo‘shinlar yetti korpusga ajralganlar: qorovul (old qism), chapovul (hujum qiluvchi qo‘shin), shiqovul (qo‘shinning so‘l qanotini qo‘riqlab turuvchi bo‘linma), chindovul (armiyaning orqa qismi), gul (markaz), barong‘or (qo‘shinning o‘ng qanoti) va jarong‘or (qo‘shinning so‘l qanoti). Bundan tashqari qorovullar (qo‘shinning oldida boruvchi xabarchi qism) ham mavjud bo‘lgan.

Temurga sodiq bo‘lgan jangchi va lashkarboshilar mukofotlanganlar. Jang vaqtida birinchi marta botirlik va mardlik qilgan bo‘lsa – o‘nboshi, ikkinchi marotabasida – yuzboshi, uchinchisida – mingboshi qilib tayinlangan. Agar mingboshi dushmanning birorta harbiy bo‘linmasini mag‘lubiyatga uchratsa, birinchi amir etib tayinlangan. Birinchi amir dushman lashkari safini buzib, tarqatib yuborsa, ikkinchi amirlik darajasiga ko‘tarilgan. Shu tariqa, xizmat ko‘rsatgan amirlar o‘z martabasidan yuqori ko‘tarilaverganlar. Agar sipohiy mardlik ko‘rsatsa, maoshi oshirilgan. Bundan tashqari unga in‘om tariqasida chumoq, qimmatbaho toshlar qadalgan o‘tog‘a (bosh kiyimiga taqiladigan belgi), qilich va ot berilib, o‘nboshilik martabasiga ko‘tarilgan. Agar o‘nboshi dushman qo‘shinlarini sindirsa, unga shahar hokimligi berilgan. Yuzboshi bo‘lsa, uni biror mamlakatga hukmdor etib tayinlangan. Mingboshilar ham bunday xizmatlari uchun mamlakat hukmdori lavozimini olganlar.

16.3. Mahalliy boshqaruvning amalga oshirilishi

Temur tuzuklariga asosan har bir sarhad, viloyat, shahar va lashkarda xabar yozuvchilar tayinlangan. Ular hokimlar, raiyat, sipoh va lashkarlarning xatti-harakati haqida, atrofdan kirgan-chiqqan mol-mulk, begona kishilar, qo‘shni davlatlar va boshqalar haqida xabar yetkazib turishlari lozim edi. Shu bilan birga, ular armiyadagi holat, lashkarlarning jangovor tayyorligi va ma‘naviy sifatlari to‘g‘risida ham axborot berib turganlar. Bundan tashqari yana «mingta tezyurar tuya mingan, mingta ot mingan yelib-yuguruvchi kishini chopqunchi, ming nafar tezyurar piyodani chopar etib tayinlangan».¹ Ular turli mamlakatlar, sarhadlarning

¹ Temur tuzuklari. Toshkent, 1991-yil, 95-bet.

xabarlarini, qo‘shni hukmdorlarning maqsadlari va niyatlarini yetkazib turganlar.

Har bir shahar va qishloqqa qutvol (qal‘a boshlig‘i – komendant) tayinlanib, u sipohu raiyatga soqchilik qilgan va turli xil o‘g‘irliklardan himoya qilib turishi lozim bo‘lgan. Bundan tashqari maxsus yo‘l kuzatuvchilari, zobitlar (idora etuvchi qo‘shin boshliqlari) tayinlanib, yo‘llarni qo‘riqlab, o‘tkinchilar, savdogarlar, musofirlarni kuzatib, mol-mulki va boshqa narsalarni manzildan-manzilga yetkazib qo‘yish majburiyatiga ega bo‘lganlar. Yo‘lda birortasining narsasi yo‘qolsa, o‘zi o‘ldirilsa yoki boshqa kor-hol yuz bersa, hamma uchun javob berganlar.

Temur arzbegi mansabini ta‘sis etgan. U sipoh , raiyat yoki ariza va shikoyat bilan kelganlarning ahvolini, mamlakat obodonchiligini, muhim ishlardan qaysi biri bitgan-bitmaganligini hal qilgan.

Temur hokimiyati ostidagi o‘troq dehqon ommasi va shahar aholisini boshqarish viloyatlarning hokimlari – valilar, o‘lkalar – beklar va shaharlar – hokimlar tomonidan amalga oshirilgan.

Kentlar (uyezd) va qishloqlar tepasida arboblar turgan. Ular viloyat va okruglarning hokimlari tomonidan tayinlangan.

Mahalliy hokimiyat boshliqlari asosan aholidan soliq va o‘lponlarni yig‘ishni va bularni davlat xazinasiga o‘z vaqtida yetkazishni kuzatib turganlar.

Har bir viloyat, tuman va shaharlarda moliya ishlarini 3 ta vazir yuritgan: 1) xiroj va miqdorini belgilashi va uni yig‘ish bilan shug‘ullanuvchi vazir; 2) navkarlar o‘rtasida soliqlardan tushgan mablag‘larni taqsimlovchi vazir; 3) egasiz mulklarni boshqaruvchi vazir.

Ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholi ichida mahalliy hokimiyat tumanlar va uluslarning hokimlariga tegishli bo‘lgan. Bu yerlarda aholi orasida urug‘–qabilachilik an‘analari saqlanib qolgan bo‘lib , u asta-sekin shariat normalari tomonidan siqib chiqarilgan.

16.4. Sud va politsiya hokimiyatining tashkil etilishi

Temur davlatida sud ishlari qozilar tomonidan amalga oshirilgan. Sudlar ochiq ko‘rinishdagi toifaviy xarakterga ega bo‘lgan. Aholi uchun, qo‘shinlar uchun, ruhoniylar-dindorlar uchun va xizmatchilar uchun alohida sudlar (qozilar) mavjud bo‘lgan.

Umuman sud hokimiyati 3 xil ko‘rinishga ega bo‘lgan: 1) ma‘muriy sudlar; 2)shariat qozisi, ya‘ni shariat normalariga asoslanib ish yurituvchi sudya; 3) ahdos qozisi – odat huquqi asosida ish ko‘ruvchi sudya.

Diniy martabadagi kishilarni shayx-ul-islom sud qilgan.

Barcha sudlarda qozilarga fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha xulosalarni mufti (qonunshunos yurist) bergan. Sud jarayoni juda sodda

va oddiy bo'lgan. U tortishuv xarakteriga ega bo'lib, tomonlarning o'zlari ayblovchi va oqlovchi ma'lumotlarni, hujjatlarni to'plaganlar, guvohlarni keltirganlar. «Temur tuzuklari»ga asosan, qozilar, har kimni qilmishiga yarasha javobgarlikka tortishi, «asosli qarorlar va hukmlar» chiqarishi lozim edi. Tomonlar qozilarning hukmlari va qarorlaridan norozi bo'lsalar faqat amirga shikoyat qilishlari mumkin edi. Amirning hukmi vojib bo'lgan.

Temur davlatida muxtasiblar (arabcha nazorat qiluvchilar) alohida mavqega ega edilar. Ular diniy marosimlar, urf-odatlar va shariat qonunlarining bajarilishi ustidan nazorat qilib turardilar.

Butun imperiya bo'yicha odil sudlov holatiga qozikalon (oliy sudya) javob bergan. U raiyat qozilari faoliyati ustidan nazorat qilib turgan.

Temur davlatida davlatni boshqarish tartibiga qarshi qaratilgan hamda mansablarni suiiste'mol qilishga qarshi qaratilgan jinoyatlar bo'yicha sud ishlarini yurituvchi maxsus organ — adolat devomi mavjud bo'lgan.

Javobgarlikka tortishda va jazo berishda shaxsning ijtimoiy holatiga alohida e'tibor berilgan. Masalan: bosib olingan o'lkalarni idora etuvchi taxt vorisi markaziy hokimiyatga bo'ysunmasa, unga tan jazosi qo'llanishi mumkin emas edi. Bunday holda uni tergov tugaguncha qamoqda (zindonda) saqlash va amirga ma'lum qilish kerak edi. Uni ustidan sudni amirning o'zi amalga oshirgan.

Temur juda ko'p davlatlarni bo'ysundirgan. U bosib olgan mamlakatlarning aholisining itoatkorligini, hukmron sinflarning yurish-turishlarini qattiq kuzatib turgan. Temurning maxfiy agentlari bo'lgan. Shu bilan birga har bir mamlakatning ahvolini, sipohu raiyat kayfiyatini, turish-turmushlarini, qilish-qilmishlarini kuzatib turish uchun voqeanavis (yurtda bo'ladigan voqealarni kunma-kun yozib boruvchi odam)lar tayinlangan. Voqeanavis maxfiy politsiya funksiyasini bajargan. U o'ziga tegishli hududdagi aholi orasida, harbiy boshliqlar va lashkarlar orasida nima voqealar bo'layotganidan doimo xabardor bo'lib turishi va bular haqida Temurga har kuni ma'lum qilib turishi kerak edi.

Maxfiy politsiya funksiyasini mingta tezyurar tuya mingan, mingta ot mingan chopqunchilar, ming nafar choparlar amalga oshirganlar. Ular turli mamlakatlar va sarhadlarning xabarlarini, qo'shni hukmdorlarning maqsadlari va niyatlarini bilib amirga yetkazib turganlar.

Temur tuzuklarida yozilganidek, har bir sarhad, viloyat, shahar va lashkarda xabar yozuvchi (xabarnavis)lar tayinlanib, ular hokimlar, raiyat, sipoh va begona lashkarning xatti-harakatlari haqida amirni xabardor qilib turganlar. Ular atrofdan kirgan-chiqqan mol-mulk, chetdan kirgan va chetga chiqqan yot kishiilar har mamlakatdan kelgan karvonlar va hukmdorlik haqidagi xabarlar, qo'shni podshohlar, ularning gaplari, ishlari va chekka o'lkalardan kelgan ulamo, fuzalo haqida batafsil xabarlarini to'g'ri yozib turishlari lozim bo'lgan.

Maxfiy politsiya bilan birga jinoiy politsiya ham mavjud bo'lgan. Masalan, har bir shahar va qishloqqa kutvol (qal'a komendanti) tayinlanib, u sipoh va raiyatga soqchilik qilgan, o'g'irlik va bosqinchiliklarni oldini olgan. Bundan tashqari yo'l ustiga kuzatuvchilar, zobitlar (boshqaruvchilar) tayinlanib, ular yo'llarni qo'riqlaganlar, o'tkinchilar, savdogarlar, musofirlarni kuzatib, mol-mulki va boshqa narsalarining daxlsizligini himoya qilganlar. Yana har bir shaharda qo'rchilar (qo'riqchilar, posbonlar) ham bo'lib, ular aholini qo'riqlab turganlar.

Temur har bir mamlakatda mehnatga layoqatli gadolarni aniqlab, ularga vazifa yuklab ish berilishi haqida buyruq chiqargan.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

1. *Amir Temur davrida markaziy hokimiyat qanday tashkil etilgan?*
2. *Amir Temur qanday davlatchilik asoslariga amal qilgan?*
3. *Markaziy boshqaruv organlari vazifalari qanday bo'lgan va ularni kim amalga oshirgan?*
4. *Boshqaruv nechta idoradan iborat edi va ularning tizimi qanday bo'lgan?*
5. *Harbiy-boshqaruv tizimi qanday ko'rinishda bo'lgan?*
6. *Mahalliy boshqaruv qay tarzda amalga oshirilgan?*
7. *Sud ishlarini amalga oshirilishi qanday bo'lgan?*
8. *Politsiya hokimiyatini amalga oshirish qanday tashkillashtirilgan?*

17-MAVZU: AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVLATIDA HUQUQ MANBALARI

1. Huquq manbalariga umumiy tavsif.
2. «Temur tuzuklari»da davlat huquqi masalalarining tartibga solinishi.

17.1. Huquq manbalariga umumiy tavsif

O'rta asrlarda juda qudratli va kuchli saltanat hisoblangan Amir Temur davlati va uning o'rnida vujudga kelgan temuriylar davlati mexanizmi yaxshi tashkil etilgan ichki tartib va mustahkam intizomni ta'minlab turadigan barqaror huquqiy tizimga ega edi.

Bu davrning huquqiy manbalarini islom huquqi, unga asoslangan va mazmunan dunyoviy xarakterga ega bo'lgan «Temur tuzuklari», qadimgi turk huquqiy odatlari (to'ralar) hamda Temur va temuriylar tomonidan chiqarilgan huquqiy hujjatlar, jumladan, farmonlar,

buyruqlar, tarxon yorliqlari va hokazolar tashkil etgan.

Amir Temur davlati doirasida asosan uning turkiy xalqlari ichida keng yoyilgan islom sunniylik oqimining hanafiylik mazhabi mustahkam qaror topdi. Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, Burxoniddin Marg‘inoniyning «Hidoya» to‘plami bu mazhabning asosiy shariat qo‘llanmasi sifatida qabul qilingan edi. Hanafiya qonunlari nisbatan yumshoqroq va qulayroqligi, xalqlarning mahalliy an‘analarini e‘tiborga olganligi sababli mamlakatimiz hududida mustahkam qaror topgan edi. Unga binoan mahalliy huquq normalari (huquqiy odatlar) shariat bilan moslashtirilib, muvofiqlashtirilib joriy etilgandi. Shu tariqa, islom huquqi mazkur davrda o‘zgarishsiz, bir xilda amalda bo‘lgan, deb bo‘lmaydi. Chunki bu yerda islom huquqi xuddi «Temur tuzuklari» singari dunyoviy qonunchilik normalari bilan to‘ldirib borilgan.

Davlat harbiy monarxiya davlati bo‘lganligidan armiya va aholining unda xizmat qiluvchi tabaqasi turk va turk-mo‘g‘ul urug‘laridan chiqqan kishilardan tashkil topib, qadimiy turk huquqiy odatlari (to‘ralar) huquqning ikkinchi manbayi vazifasini bajardi. Ayniqsa, davlat boshlig‘ini saylash, armiya va uning tuzilishi hamda ta‘minoti, oila va nikohning ba‘zi masalalari, masalan, yesirlik, shuningdek, suvdan foydalanish borasida ko‘plab huquqiy odatlar mavjud bo‘lgan¹. Keyinchalik, «Tuzuklar» yozilganida bu odatlar, harbiy qurilishga oid masalalar yozma qonunchilik bilan mustahkamlangan.

Temur va temuriylar davlatining eng muhim huquqiy manbayi «Temur tuzuklari» bo‘lgan. Uni konstltutsiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan hujjat deb atash mumkin. Chunki unda davlat hokimiyati va idora organlarining tuzilishini, ularning vazifalarini, sud, harbiy va moliya tizimini tartibga soluvchi normalar o‘z ifodasini topgan. Huquqshunos olim Z. Muqimov «Temur tuzuklari»ning huquqiy jihatlarini ko‘rsatib, quyidagilarni ta‘kidlaydi: «Undagi huquqiy normalarni hozirgi zamon huquq tarmoqlari bo‘yicha guruhlantirganda quyidagicha holatni ko‘rish mumkin: a) davlat huquqiy normalari – davlat boshlig‘i, vazirlar, devonlar (tarmoq boshqaruv organlari), devonbegi, davlatni boshqarish prinsiplari (mashvarat, kengash, maslahat, to‘ra va tuzukka asoslash), mahalliy boshqaruv, harbiy va fuqaro boshqaruvini amalga oshirish maqsadida chegara viloyatlarini suyurg‘ol qilib berish va hokazo; b) fuqarolik va moliya huquqi normalari – yer, mulkning shakllari: suyurg‘ol, iqta, tanho, ularni berish tartibi, bunday mulklarni olganlarning majburiyatlari, omonatlar, soliqlar, jangda yarador va halok

¹ Bu haqda batafsil qarang: Z. Muqimov. O‘zbekiston huquqiy manbalari. –S., «Zarafshon», 1996, 59–64-betlar,

bo'lgan askarlar ta'minoti va boshqalar; d) jinoyat va jinoyat-protsessual huquqi – jinoyatlarga jazo berish, har bir shaharda adolat uylari, qozixona – dorul-amorat tashkil qilish, qozi askar, ahdos va raiyat qozilari, ularni tayinlash, yolg'on guvohlik uchun jazo tayinlash va boshqalar; e) harbiy huquqiy normalar – armiyani tuzish, uning qo'mondon tarkibi va ta'minoti, harbiy xizmat va xizmatchilarni moddiy-ma'naviy rag'batlantirish, harbiy guruhlar, to'plar va bo'limlarni tuzish kabi masalalarni o'z ichiga oladi.

Temur o'z davlatida qadimiy turk-mo'g'ul an'analari, udumlariga rioya qilganligi uchun uning davlatida Chingizxonning Yaso qonunlari ham huquq manbayi sifatida qo'llanilgan.

Chingizxon bilan Turkistonga kelgan mo'g'ullar va turkiy qabilalar dastlab musulmon bo'lishmagan. Shuning uchun ular musulmonchilikni qabul qilgunlaricha Yaso va huquqiy odatlar huquqning asosiy manbayini tashkil qilgan. Temur davlati esa musulmon davlati edi. Shuning uchun Yasoga harakatdagi huquq manbayi deb qaralishi shariat huquqiga xilof hisoblanardi. Ammo jinoyat va jazo masalalarida Yasoga ham amal qilinganligini ko'rish mumkin. Jumladan, «Tuzuklar»da: «O'g'rilar xususida buyurdimki, ular qayerda bo'lmasin, kim tutib olsa, Yaso bo'yicha jazolansin»,¹ deyiladi. Bu ba'zi hollarda Yaso normalari ham huquq manbayi sifatida amalda bo'lganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, harbiy qurilish masalalarida Yasodan qabul (retsepsiya) qilingan hukmlar ham yo'q emas. Masalan, sipohning yaroq-jabduqdari va anjom-jihozlari tuzugi Yaso bilan bir xil talablarni qo'ygan.

Temurbek davlatida bu kabi huquq manbalarining mavjudligi, ularning harakati, bajarilishi va rioya qilinishi ustidan qattiq nazoratning bo'lishi, shubhasiz, qonunchilikni mustahkamlashga xizmat qilgan.

17.2. «Temur tuzuklari»da davlat huquqi masalalarining tartibga solinishi

«Tuzuk» iborasi turkiy so'zdan olinib, «qonun», «qoida», «nizom», «tartib» ma'nolarini anglatadi. «Temur tuzuklari» o'sha davrning qonunlar to'plami bo'lgan. Unda yuqorida qayd etilganidek, ko'pgina o'ziga xos konstitutsiyaviy me'yorlar o'z aksini topgan.

«Temur tuzuklari» XIV asrning ikkinchi yarmiga oid ijtimoiy-siyosiy voqealarni, Temur saltanati, uning davlat tizimi, boshqarilishi, sud qurilishiga oid juda muhim qoidalar va ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan tarixiy hujjatdir. Tuzilishiga ko'ra ikki qism (maqola)dan iborat bo'lib,

¹ Temur tuzuklari. 74-bet.

birinchi qismi tarjimayi hol mazmumiga ega. Unda 150 yil davom etgan mo'g'ul-chig'atoy sulolasi istibdodidan qutulish, O'rta Osiyoda markazlashgan davlatni tuzish bilan bog'liq ijtimoiy-siyosiy voqealar bayon etiladi. Ikkinchi qismi esa ulkan davlatning valiahd va amirzodalar tomonidan qay tarzda boshqarilishi, yirik mansabdorlarni tayinlash, harbiy qurilish, sud yuritish, armiyani tuzish, saflash ta'minoti kabi masalalarni o'z ichiga oladi. «Saltanat qurish, davlat ishlarini bir necha tuzukka bog'ladim va saltanatda boshqarish haqida qo'llanma yozib qoldirdim», – deyiladi «Tuzuklar»da¹.

«Temur tuzuklari» – Temur kodeksi, ya'mi Amir Temurning davlatni idora qilish qonun-qoidalarining tamoyillari to'plamidir. Undan biz o'rta asrlardagi mavjud hukmron siyosiy qarashlar, qoidalar, qonunlarni va ular haqidagi asosli tamoyillarni o'rganamiz.

Temur o'z «Tuzuklari»da aniq va ravshan qilib davlatni idora qilishda o'n ikki tamoyilga asoslanganligi haqida hikoya qiladi. Bular quyidagilardan iborat edi:

Birinchisi – **islom dini va shariat qoidalariga rioya qilganligi, uni qo'llab-quvvatlaganligi edi.** Uning o'zi «Tuzuklar»da shunday deb yozadi: «Birinchisi – davlat va saltanatimga bog'lagan mening birinchi tuzugim – tangri taoloning dini va Muhammad Mustafoning shariatiga dunyoda rivoj berdim. Har yerda va har vaqt islom dinini quvvatladim». Demak, Amir Temur o'z saltanatini tuzishda, boshqarishda yangi diniy ideologiyani yaratmasdan, tayyor ota-bobolarining dini – islomni tanlaydi. Asosiy qonun qilib ana shu islom dini zaminida vujudga kelgan shariatni qabul qiladi.

Navbatdagi ikkinchi muhim tamoyil esa **davlat, mamlakat ustunlarini tashkil qilgan turli tabaqalar va toifalar bilan birgalikda bamaslahat ish ko'rish, siyosat yurgizish** bo'ldi. Amir Temurning ulug'ligi va donishmandligi shundaki, u faqat qo'shinga, zo'rlikka emas, birinchi navbatda ommaga, xalqqa tayangan holda davlatni boshqardi, muhim ishlarni ular bilan kechishgan holda olib bordi.

Sohibqiron o'z vorislariga vasiyat qilar ekan, jamiyatni turli tabaqalarga va toifalarga bo'linishi va ularning tutgan o'rinlari muhim ekanligini, davlatni boshqarish ularsiz mumkin emashigiga ishora qiladi. Sinfy kurash emas, balki tabaqalar o'rtasida kelishuv siyosatini olib borishni vasiyat qiladi.

Uchinchi tamoyil **maslahat, tadbirkorlik, faoliyat va hushyorlik-ehtiyotkorlik bilan g'anim qo'shinlarini yengani, boshqa davlatlarni o'z saltanati tarkibiga qo'shib olganida** edi. Gap shundaki, Amir Temur

¹ Temur tuzuklari. 53-bet.

uchun tadbirkorlik, kengash bilan ish ko‘rish, ehtiyotkorlik bir qonunday edi.

Saltanatim ishlarini murosayu madora, muruvvat va sabr-toqat bilan yurgizdim.

To‘rtinchi – **davlat ishlarini saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqarish tamoyili.**

Amir Temurning hukmronligi to‘ra va tuzukka, ya’ni davlat va huquqqa tayangan holda amalga oshirildi. Shuning uchun ham uning kuch va qudrati beqiyos bo‘ldi. Amirlar, vazirlar, sipoh, raiyat (omma) hammasi o‘z vakolatlariga – huquq va burchlariga ko‘ra harakat qildi. Bu yerda biz Amir Temur davlatini faqat harbiy diktaturaga emas, ko‘proq huquqiy davlat tamoyillariga asoslanganini ko‘ramiz.

Beshinchi – **amirlar va sipohiyar bilan yaxshi munosabatda bo‘lish, ularga izzat va hurmat ko‘rsatib, martaba va unvonlarini hurmatlash tamoyili.**

Oltinchi – **adolat va insof bilan ish ko‘rish, gunohkorga ham, begunohga ham rahm-shafqat qilish tamoyili.** «Haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim», – deb yozadi Amir Temur.

Yettinchi – **sayyidlar, ulamoyu mashoyix, oqilu donolar, muhandislar, tarixchilarni e‘tiborli shaxslar deb izzat va hurmat qilish tamoyili.** Ular bilan suhbatda bo‘lgan hamda ulardan maslahatlar so‘ragan. Aksincha, buzuqi va og‘zi shaloq g‘iybatchi odamlarni o‘z majlisiga yaqinlashtirmagan, ularning gaplariga quloq solmagan.

Sakkizinchi – **azmu jazm bilan ish tutish, ya’ni qanday ishni amalga oshirishga qaror qilgan bo‘lsa, unga butun vujudi bilan kirishib, oxiriga yetkazish tamoyili.** Nimaiki degan bo‘lsa, unga amal qilgan. Odam Atodan Hotam ul-anbiyo (payg‘ambarning oxirgisi Muhammad)gacha o‘tgan shohlar va payg‘ambarlarning ishlarini, qonun va qoidalarini surishtirgan, o‘rgangan va yaxshi tomonlarini qabul qilgan.

To‘qqizinchi – **raiya (oddiy xalq) hol-ahvolidan doimo ogoh bo‘lish tamoyili.** Ularning ulug‘larini og‘a qatorida, kichiklarini esa farzand o‘rnida ko‘rgan. Har shahar va qishloqning urf-odatiga, qonun va qoidalariga hurmat bilan qaragan.

O‘ninchi – **turku tojik, arabu ajamning turli toifalaridan o‘z panolligiga kirgan kishilarga hurmat bilan qaragan.** Do‘stlik qilgan kishilarga nisbatan muruvvat, ehson, izzatu ikrom haqqini ado etgan. Kimki dushmanlik qilib, keyin undan pushaymon bo‘lib, tavba qilgan bo‘lsa, dushmanligimi unutgan. Unga muruvvat ko‘rsatgan.

O‘n birinchi – **farzandiar, qarindoshlar, oshna-og‘ayni, qo‘mi-qo‘shnilar va u bilan do‘stlashgan kishilarni davlat martabasiga erishganda ham ularni unutmagan.** Ularga hamma vaqt birdek izzat va hurmat ko‘rsatgan. Do‘stu dushman bilan kelishib yashagan.

O‘n ikkinchisi – **do‘st-dushmanligiga qaramay, har joyda ham sipohiyarlarni hurmat qilgan.**

Temur, saltanat ishlarida to‘rt narsaga amal qilgin, ya‘ni: 1) kengash; 2) mashvaratu maslahat; 3) qat‘iy qaror, tadbirkorlik va hushyorlik; 4) ehtiyotkorlik.

Amir Temur hukumatni, xususan, vazirlarni tanlashga katta e‘tibor beradi. Uning fikriga ko‘ra, vazirlikka da‘vogar shaxs to‘rt sifatga ega bo‘lishi kerak. Birinchisi – asillik, toza nasllik; ikkinchisi – aql-farosatlilik; uchinchisi – sipohi raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalada bo‘lishlik; to‘rtinchisi – sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik. Sohibqiron kimda-kim ana shu to‘rt sifat egasi bo‘lsa, uni vazir yoki maslahatchi etib tayinlash mumkin deb hisoblagan. Mamlakat ishlarini, raiyat va sipoh ixtiyorini unga ishonib topshirsa bo‘ladi, deydi u. O‘z navbatida u hukmdor tomonidan bunday vazirga to‘rt imtiyoz berish kerak, deb hisoblaydi: ishonch, e‘tibor, ixtiyor va iqtidor. Ana shunday ikki tomondan ko‘rsatilgan sifatlar va imtiyozlar berilgandagina vazir o‘z vazifasini mustaqil, ishonchli bajaradi, deb hisoblaydi Amir Temur.

Sohibqironning fikriga ko‘ra, agarda vazir uydirma gaplarga quloq solsa, jabr-zulm qilsa, o‘ziga yoqmagan kishilarni yo‘qotish payida bo‘lsa, bundaylarni vazirlikdan tushirish lozim. «Nasliyu zoti yomon, hasadchi, gina-kek saqlovchi, qora ko‘ngilli kishilarga zinhor vazirlik lavozimi berilmasin» (75-bet).

Amir Temurning fikriga ko‘ra, ayniqsa, moliya, mulkiy ishlar bilan shug‘ullanuvchi vazir nihoyatda pok, adolatli bo‘lishi kerak. Chunki, u to‘g‘rilik bilan vazirlik ishiga kirishib, davlatning moliya ishlarini diyonat, savob bilan, nafs buzuvchi qilmay, omonatga xiyonat etmay bajarar ekan, unday vazirni eng oliy martabalarga ko‘tarish zarur. Va aksincha, buzuvchi ishlari bilan vazirlikni boshlasa, ko‘p o‘tmay, unday saltanatdan xayri baraka ko‘tariladi. Dono vazir shuldirdi, deb hisoblaydi Amir Temur, o‘z o‘rniga qarab, goh qattiqqo‘llik, gohida esa muloyimlik bilan ish yuritadi, gohida esa ortiqcha qattiqqo‘llik ham qilmaydi, muloyimlik ham. Ana shunday ish tutgan vazir saltanat ishlarini to‘g‘ri yuritadi, deb hisoblaydi.

Amir Temur muhim masalalardan bo‘lgan davlatning uch belgisi to‘g‘risida juda aniq o‘z fikrini bildiradi: «...davlatu saltanat uch narsa bilan: mulk, xazina va lashkar bilan tig‘dir» (76-bet). Bundan aniq ko‘rinib turibdiki, Amir Temur davlat saltanatini xazinasiz, lashkarsiz tasavvur qilolmaydi. Har qanday mustaqil davlat ana shu yuqoridagi belgilarga ega bo‘lishi shart, aks holda esa unday davlat mustaqil bo‘la olmaydi, deydi u va vazirlarni raiyatga, elga, vatanga xizmat qilishda halollik, poklik, adolatlilik tamoyillariga amal qilishga da‘vat etadi.

Sohibqiron vazirlar kabi amirlarga ham katta e‘tibor bilan qarab,

ularni asosiy jang maydonlarida sinab tanlaydi. U o'zining amirlarini asli toza, pok naslli, aql-farosatli, bahodir, dovyurak, tadbirkor, sergak, ehtiyotkor, oldini va orqasini o'ylab ish ko'radigan bahodirlar deb ta'riflaydi. U shunday tizim o'rnatadiki, birining o'rniga ikkinchisi, boshqacha qilib aytganda, biri bo'lmasa, boshqasi ishni boshqarib ketavergan. Masalan, amirlar to'g'risidagi tuzuklarda, agarda amirlardan jangda birortasi halok bo'lsa, uning o'rnini o'rinbosari egallaydi va uni «amirlikka nomzod» («muntazir ul-amorat») deb ataganlar.

Amirlarning eng kattasi – amir ul-umaro, ya'ni amirlarning amiri bo'lib, shohning yo'qligida uning vazifasini bajarib, sipohga buyruq bera oladigan darajadagi shaxsdir.

Amir Temur uch yuz o'n uch kishidan to'rt nafarini beklar begi etib, bir kishini esa, amir ul-umaro etib tayinlaydi. G'ayratli, or-nomusli bo'lgan yana o'n ikki kishiga ushbu tartibda yuqori daraja berganligini aytadi.

Bundan tashqari, Amir Temurning qayd etishicha, o'sha uch yuz o'n uch amirdan yuztasi – o'n boshi, yuztasi – yuzboshi, yuztasi – mingboshi bo'lgan. Jang paytlarida amir ul-umaro – amirlarga, amirlar – mingboshilarga, mingboshilar – yuzboshilarga, yuzboshilar – o'n boshilarga boshliq degan buyruq ham berilgan. Shu bilan bir vaqtda o'nboshining ishini yuzboshiga, yuzboshining ishini mingboshiga, mingboshining ishini amirga, amirnikini esa, amir ul-umaroga buyurmasligi ham tayin etiladi. Ana shunday temir zanjir timsolida tashkil qilingan sipohning jangovarligi doimo yuqori darajada bo'lgan.

Amir Temur davlatning belgilari, bayroqlari, nog'ora-tug'lariga ham jiddiy e'tibor bergan. Ularni amirlarga taqdim etish qoidalari ham qat'iy qilib belgilab qo'yilgan. Uning farmoniga binoan o'n ikki katta amirlarning har biriga bitta bayroq (alam) va bir nog'ora berilgan. Amir ul-umaroga esa bayroq va nog'ora, tuman tug'i va chortug'i taqdim etgan. Mingboshiga esa bir tug' va karnay (nafir) berilgan. Yuzboshi va o'nboshilarga esa har biriga bittadan burg'u taqdim etilgan. To'rt beklar begining har biriga bittadan bayroq, nog'ora, chortug' va burg'u berilgan.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

1. *«Temur tuzuklari»ning siyosiy ahamiyati va xususiyatlari haqida gapirib bering.*
2. *«Temur tuzuklari»da qanday huquqiy masalalar yoritilgan?*
3. *«Temur tuzuklari»dagi davlatni boshqarish tamoyillarini sanab bering.*
4. *Amir Temur saltanat ishlarida nimalarga amal qilgan?*
5. *«Temur tuzuklari»da vazirlarni tanlash ishlarida nimalarga e'tibor qaratilgan?*
6. *Amir Temur davlatning uch belgisi haqida qanday fikrlarni bildirgan?*
7. *Amir Temur davrida davlat ramzlari qanday bo'lgan?*

VIII BOB. XVI ASR – XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA DAVLAT VA HUQUQ

18-MAVZU: SHAYBONIYLAR DAVLATI VA HUQUQI

1. Shayboniylar davlatining tashkil topishi.
2. Shayboniylar davlatining ijtimoiy tuzumi.
3. Shayboniylar davlati boshqaruvining tashkil etilishi.
4. Shayboniylar davlati huquqining asosiy belgilari.

18.1. Shayboniylar davlatining tashkil topishi

Tarixdan ma'lumki, XI-XVI asrlarda g'arbda Dnepr daryosi va Qora dengiz, shimoli-sharqda Irtish daryosi va Balxash ko'ligacha, janubda esa Xorazm va Sirdaryoning quyi oqimlari oralig'idagi yerlar Dashti Qipchoq deb yuritilgan. Bu hududda dastlab Jo'ji ulusi nomi bilan Oltin O'rda xonligi tashkil etilgan.

XIV asr oxirlarida Oltin O'rda xonligi Amir Temur tomonidan tormor etilganidan so'ng parchalanib, bir necha xonliklarga bo'linib ketdi. Volga daryosining o'rta va quyi oqimlarida Qozon va Ashtarxon (Hojitarxon) xonliklari, Qrim yarim orolida Turkiya ta'sirida bo'lgan Qrim xonligi vujudga keldi. Dashti Qipchoqning sharqiy qismida esa Oq O'rda tashkil topdi. Bu katta hududda qiyot, mang'it, do'rmon, qushchi, o'rtachi, nayman, tuba, toymas, jot, xitoy, uyg'ur, qorluq, ushun (usun), karlavut, ichki, ming, tangut, qo'ng'iroq va boshqa qabilalar yashagan. Bu ulus O'zbeklar davlati, uning aholisi «o'zbeklar» deb atalgan.

Dashti Qipchoqning sharqiy qismi, ya'ni Oq O'rdada shayboniylardan bo'lgan Abulxayrxon (1428–1468) tarqoq bo'lgan mayda xonliklarni birlashtirib, katta davlatga asos soldi. Keyinchalik mang'it urug'lari ham Abulxayrxon qo'l ostiga birlashtirildi. Qozoq urug'lari XV asrning 40-yillarida Abulxayrxonga bo'ysunishdan bosh tortib Chu va Yettisuv vohasiga ko'chib ketdilar va keyinchalik Qozoq xonligiga asos soldilar (1465).

Dashti Qipchoqda siyosiy tartibsizliklar, katta yer egalari bilan dehqonlar va chorvadorlar o'rtasida ichki ziddiyatlar kuchayishi natijasida davlat zaiflashib bordi. Ana shunday sharoitda hokimiyatni qo'lga olgan Abulxayrxonning nabirasi Muhammad Shayboniyxon (1451-yilda tug'ilgan, yoshlik yillarida Samarqand va Buxoro madrasalarida o'qigan) Dashti Qipchoqdagi qabilalarni birlashtirib, davlat hokimiyatini yanada mustahkamlaydi.

Amir Temur vorislari o'rtasida olib borilgan to'xtovsiz feodal urushlar

temuriylar davlatining kuchsizlanishiga olib keldi va birin-ketin ular qaramidagi davlatlar va mulklar ajralib chiqib ketdi. Xorazmdan Astrobodgacha bo'lgan keng masofada joylashgan turkmanlar bir necha qabilalardan tashkil topgan bo'lib, ko'pincha o'zaro kelisha olmas edilar. Lekin ular qulay vaziyatdan foydalanib Temuriylar davlatidan ajralib chiqdilar. Farg'ona vodiysi ham ajralib mustaqil davlat tashkil etdi. Bundan tashqari forsiy dehqon aholi joylashgan Hisor va Badaxshon ham mustaqil davlatga aylandi. Movarounnahrda temuriy hukmdorlarning o'rmini Abulxayrxonning nevarasi Shayboniy asos solgan o'zbeklar davlati egalladi.

Temuriylar davlatining zaiflashganligi, tarqoqlikning kuchayishi va hokimlikka da'vogarlarining o'zaro to'xtovsiz urushlari shayboniylarning Turkistonga hujumi uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. Shayboniyxon XV asr oxirlarida Turkistonga bir necha bor yurishlar qilib O'tror, Sabron, Yassi (Turkiston) shaharlarini bosib oldi.

U 1499–1507-yillarda Buxoro, Samarqand, Toshkent, Shohruhiya, Farg'ona, Qunduz, Xorazm, Balx va Hirotni ishg'ol qilib, Movarounnahr va Xurosonda o'z hokimiyatini o'rnatdi.

Muhammad Shayboniyxon boshchiligidagi ko'chmanchi o'zbeklar XVI asr boshlarida Movarounnahr va Xurosonni egallab, temuriy shahzodalar hukmronligiga chek qo'yдилar va bu ulkan hududda o'zlarining markazlashgan davlatiga asos soldilar. Bu davlat poytaxti avval Samarqandda bo'lgan bo'lsa, XVI asr o'rtalaridan boshlab Buxoroga ko'chiriladi. Shundan keyin bu davlat Buxoro xonligi deb ham atala boshladi. Butun XVI asr mobaynida hokimiyatni o'z qo'llarida saqlab kelgan shayboniylar sulolasi hukmronligi o'zbek davlatchiligi tarixida katta ahamiyatga ega bo'lib, xuddi shu davrda o'zbek xalqining etnik shakllanishidagi uchinchi davr boshlandi. Dashti qipchoqlik o'zbeklar Movarounnahr va Xurosondagi mahalliy turkiy xalq o'zining azaliy qon-qarindoshlari bilan qo'shilib ketdi va ularga ham o'zining nomini berdi.

Tarixiy manbalar va tadqiqotlarda XV asrning 20-yillarida Qipchoq dashtining Sharqiy yerlarida tashkil topgan, qirq yildan ziyodroq hukm surgan Abulxayrxon (1428–1468) hamda Movarounnahrda tashkil topgan Muhammad Shayboniyxon (1450–1510) davlatlarini ko'chmanchi o'zbeklar davlati deb atashgan. Ammo bu unchalik to'g'ri emas, chunki ushbu davlatlarning asosiy aholisi mol chorvachiligi bilan shug'ullangani holda, ular tarkibiga, shuningdek, Sirdaryoning quyi qismida, qisman Xorazm vohasining chekkalarida hunarmandchilik, dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi urug' va qabilalar ham kirgan.

18.2. Shayboniylar davlatining ijtimoiy tuzumi

Shayboniylar davlatida xo‘jalikning asosi dehqonchilik bo‘lib, dehqonlar asosiy ishlab chiqaruvchi kuch edi. Mamlakatdagi tarqoqlik, to‘xtovsiz urushlar mamlakat iqtisodini inqirozga, dehqonlarni esa qashshoqlanishiga olib keldi. Urush harakatlari natijasida soliqlar ko‘paydi. Farg‘ona va Andijon vodiylaridan deliqonlar qocha boshladi. Shayboniixon va uning avlodlari – xonlar dehqonchilikni jonlantirish maqsadida soliqlarni ma‘lum vaqtgacha kamaytirdi.

Dehqonchilikning har qaysisida o‘ziga xos, ayrimlaridan pul hisobida, ayrimlaridan natura shaklida soliq olinardi. Masalan, paxtakorlardan «g‘o‘za puli» olingan.

Agrar munosabatlar eskicha qolib, yerlarning asosiy qismi mamlaka-i-podshoh yoki mamlaka-i-sulton deb atalgan, bu umumdavlat erlari bo‘lib, uning egasi davlat boshlig‘i – xondir. Bu yerlarga nafaqat ekinzorlar, balki shahar yerlari, bozorlar ham kirgan. Bulardan umumdavlat yeriga «tashlandiq yerlar», «ekin ekilmaydigan yerlar» ham kirgan va bu yerlardan foydalangan mahalliy oqsuyaklar, shu jumladan, ruhoniylar yerni dehqonlarga foydalanishga topshirgan. Dehqonlar ham davlatga, ham zodagonga soliq to‘laganlar. Bu soliq «malvadjihat» deb atalgan. Bundan tashqari yana bir qancha kattayu kichik soliqlar yig‘ilar edi. Jumladan, dorug‘ash – soliq yig‘uvchilar va viloyat hokimlari foydasiga, zakot – mol boshiga, umuman mol-mulkdan olinadi. Zabitona – hukmdor foydasiga maxsus soliq; tanobona – bog‘ va bog‘chadan olinadi; madadi lashkar – harbiy soliq. Soliqlar hajmi har yerda, har davrda turlicha bo‘lgan.

Zodagonlar egallagan davlat yerlarining shakllari har xil: suyurg‘ol, iqta, tanho va boshqalar edi. Suyurg‘ol hukmron sulola a‘zolari, yirik davlat arboblari va harbiy qo‘mondonlarga berilib, ular yerni to‘lig‘i bilan o‘zlari boshqarar va soliqlar yig‘ib olar va bir qismini davlat xazinasiga topshirardilar. Suyurg‘ol egalari g‘oyat katta siyosiy huquqqa ega bo‘lishgan. XVII asrdan boshlab suyurg‘ol xonga sodiqligi uchun din arboblari, shoirlar, olimlarga mukofot sifatida beriladigan bo‘ldi.

XV asrda temuriylar davrida mavjud bo‘lgan yerga egalik shakli – iqta saqlanib qoldi. Bu yerlar hukmron xon avlodlariga, yirik davlat va harbiy arboblarga berilgan. Iqta hajmi har xil bo‘lib, iqta egalari – iqtadorlar o‘zlarining harbiy kuchlariga ega bo‘lgan.

XVI asrdan boshlab O‘rta Osiyoda yangi yer egaligi tanho, kichik xizmatkorlarga beriladigan yerlar paydo bo‘ldi. Tanho hajmi – tanhodorlar xizmatiga yarasha – bir necha uydan yoki bir necha qishloqlardan olinishi mumkin edi. Tanhoga ekin ekiladigan yerlarga

emas, balki tegirmon, moyjuvozlardan keladigan daromadlar ham qo‘shib berilgan.

Yerning kichik va yirik zodagonlarga, amaldorlarga har xil shaklda tarqatib berilishi davlat xazinasidagi daromadni kamaytirdi va xon hokimiyatini zaiflashtirdi, mamlakatda tarqoqlik kuchaydi.

Yer egaligining alohida ko‘rinishini vaqf yerlar tashkil qilgan. Vaqf yerlar xon tomonidan musulmon ruhoniylariga mos qilib beriladigan yerlar bo‘lib, bu yerlardan kelgan daromadlar ko‘pincha qozi kalonlarga, mutavallilarga (vasiylarga) tushardi. Vaqfga tarqatilgan yerlardan tashqari mulklarning hajmi ba‘zan katta miqdorni tashkil qilardi.

Shayboniylar davridagi aholining asosiy qismini dehqonlar, yarim ko‘chmanchilar va qisman ko‘chmanchi–chorvadorlar tashkil etardi. To‘xtovsiz o‘zaro to‘qnashuvlar mehnatkash aholining turmush darajasiga salbiy ta‘sir qildi. Dehqonlarni ezishning asosiy shakli – davlat, vaqf va mulk yerlarini ijaraga berishdan iborat edi. Bu yer dehqonning merosi hisoblangan ham yer egasi xohlagan vaqtda tortib olishi va boshqaga sotishi mumkin edi. Shuning uchun dehqon mehnat unumdorligini oshirishdan manfaatdor emasdi. Undan tashqari, dehqonlar uchun o‘z mahsulotlarini bozorga chiqarib sotish ko‘p qiyinchiliklarni bartaraf etishni talab qilardi.

Jamiyat hayotida, davlat boshqaruvida tutgan o‘rniga, mavqeyiga qarab quyidagi bir nechta ijtimoiy tabaqalarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

– Oliy tabaqa. Unga xon va uning yaqinlari, o‘zbek sultonlari, yirik saroy amaldorlari (vaziru vuzaro) kirgan. Davlat boshqaruvimi ana shu ijtimoiy tabaqa amalga oshirgan.

– Umuro. Harbiy-ma‘muriy amaldorlar, yirik sarkardalar, viloyat hokimlari, qo‘shin va qabila boshliqlari. Mahalliy boshqaruv ular qo‘lida bo‘lgan.

– Ulamolalar. Yirik din peshvolari, shayxlar, xojalar. Ular nafaqat diniy, balki dunyoviy boshqaruvda ham faol ishtirok etganlar.

– Fuzalo. Jamiyat madaniy-ma‘naviy hayotini aks ettirgan ijtimoiy tabaqa: olimlar, shoirlar va boshqalar.

– Raiyat (fuqaro). Jamiyatda asosiy ishlab chiqaruvchi, moddiy boylik yaratuvchi, xazinaga soliq to‘lovchi ijtimoiy tabaqa bo‘lib, ularga do‘kondorlar, hunarmandlar, o‘rtahol dehqonlar va chorvadorlar, yollanib ishlaydigan aholi kirgan.

– Qullar. Bu davrda qulchilik saqlanib qolingan bo‘lib, qullarni asosan harbiy talonchilik yurishlari paytida asirga tushirilgan, o‘lja qilib olingan kishilar tashkil etgan. Ma‘lum haq evaziga ular ozod bo‘lishi mumkin bo‘lgan. Qullar mehnatidan saroyda, yirik amaldorlar va ulamolalar xo‘jaliklarida foydalanilgan.

18.3. Shayboniylar davlati boshqaruvining tashkil etilishi

Shayboniylar davrida davlatning ma'muriy tuzilishli ham o'ziga xos edi. Hokimiyat tepasida xon turardi. Xon taxtga taklif qilingan vaqtda u oq kigizga o'tqazilib to'rt tomonidan eng mo'tabar va nufuzli zodagon ko'tarib borardi.

Davlatdagi eng oliy hokimiyat xonga tegishli bo'lib, u qonunlar chiqarish, ularning ijrosini nazorat qilish, o'lim jazosi berish vakolatlariga ega edi.

Xonlikning siyosiy tizimida, boshqaruvda Amir Temur va temuriylar davrida qaror topgan tartib-qoidalar, xususiyatlar bilan birga ko'chmanchi o'zbeklar davlatiga xos an'analar ham mavjud edi. Davlat boshqaruvida islomiy shariat va odat qonun-qoidalariga amal qilingan. Davlatni boshqarishda xon saroyidagi oliy darajali amaldorlardan tashkil topgan markaziy boshqaruv va viloyat hokimlari qo'lidagi mahailiy boshqaruv asosiy o'rin tutib, ular mamlakatning amaldagi haqiqiy egalari edilar. Ular yordamida va bevosita ishtirokida xon ma'muriy boshqaruvni amalga oshirardi.

Markaziy boshqaruv davlatning ichki va tashqi hayotiga bog'liq barcha masalalarni hal qiladigan dargoh – saroy devonida jamlangan edi. Davlatning oliy darajali amaldorlari a'zo bo'lgan va odatda bosh vazir tomonidan boshqariladigan bu mahkama mamlakatning siyosiy, moliyaviy, harbiy, tashkiliy va boshqa masalalarini ko'rib chiqar edi. Bu yerda qabul qilingan qarorlar xonning tasdig'i bilangina kuchga kirar va hayotga joriy etilardi.

Xondan keyingi o'rinda **otaliq** mansabi turgan. U xonning murabbiysi, homiysi, maslahatchisi bo'lish bilan birga birinchi vazirlik lavozimini ham bajargan. Keyinchalik esa unga Zarafshon daryosi suvini boshqarish vakolati ham yuklangan. Undan keyin turadigan devonbegi mansabidagi kishi moliya va soliq ishlarini yuritish bilan shug'ullangan.

Shayboniylar davrida quyidagi oliy martabali davlat lavozimlari mavjud edi: Ko'kaldosh (bir onadan sut emgan ma'nosida) muassasalarni boshqarar hamda butun mamlakatdagi xonning do'stlari va dushmanlari haqida ma'lumotlar to'plovchi shaxs; mushrif – xon ma'lum shaxslarga in'om etadigan ashyolarni ro'yxatga olib boruvchi hamda soliqlar yig'ilishini boshqaruvchi shaxs; qushbegi – xonlar va sultonlar shikorga chiqqan paytda ov anjomlarini nazorat qiluvchi shaxs; munshi (mirza) – xonning farmonini yozuvchi shaxs. Bulardan tashqari Shayboniylar davlatida mirshab, dodxoh (aholidan shikoyat tinglovchi shaxs), miroxo'r (otxona boshlig'i), parvonachi (yorliq topshiruvchi shaxs) kabi lavozimlar ham muhim ahamiyatga ega edi.

Davlatda amaldorlardan tashqari ruhoniy zodagonlar ham hukmron

sinf toifasiga kirardi. Ulamolarning bir qismi o'zlarini Muhammad payg'ambar avlodlari – sayyidlar deb hisoblar edilar, bir qismi o'zlarini Muhammad payg'ambarning choryor xalifalari – Abubakr, Umar, Usmon va Ali avlodlari deb hisoblardilar va ular xo'jalar deb atalardi. XVI asrning o'rtalariga kelib xo'jalarning obro'yi nihoyatda oshib ketdi, hatto kimning xon bo'lishi ham ularga bog'liq edi. Xo'jalar orasida eng obro'lilari jo'ybori shayxlar edi.

Davlat boshqaruvida harbiy-ma'muriy amaldorlardan tashqari, ulamolar, din peshvolari, shayxlar va xo'jalarning, xususan, shayx-ul-islom, qozi kalon, mufti kabi diniy mansab egalarining ham ta'siri katta bo'lgan. Bu davrda, ayniqsa, Buxoro yaqinidagi Jo'ybor qishlog'idan chiqqan xo'jalarning mavqeyi juda oshib ketdi.

Mahalliy boshqaruv viloyat hokimlari qo'lida bo'lib, ular ham o'z boshqaruv tizimiga ega bo'lgan. Unga qo'shinga boshchilik qiladigan, aholidan soliqlarni yig'ib oladigan, shariat qonunlarining to'g'ri bajarilishini nazorat qiladigan amaldor (rais)lar kirgan. Viloyatlar o'z navbatida kichik ma'muriy birliklar: tuman, kasaba va mavzelarga bo'linib idora qilingan. Mahalliy boshqaruvning eng quyi bo'g'ini oqsoqol (kalontaron) tomonidan boshqariladigan qishloq jamoalari edi.

Buxoro xonligining bu davrdagi asosiy ma'muriy birligi viloyat (ulus) bo'lib, manbalarda Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Hisor, Balx, Termiz, Karmana, Qorako'l, Miyonko'l, Shosh (Toshkent), Turkiston, Farg'ona, O'ratepa, Marv kabi viloyatlar tilga olinadi. Poytaxt shahar va unga tegishli tumanlar xonning o'zi tomonidan boshqarilgan. Viloyat hokimlari xon tomonidan tayinlangan. Odatda bunday yuksak mavqega xonning yaqin va ishonchli kishilari, qarindoshlari, yirik qabila boshliqlari, harbiy yurishlarda o'zini ko'rsatgan o'zbek sultonlari muyassar bo'lgan. Shuni alohida aytib o'tish kerakki, xonlikning davlat chegaralari doimiy bo'lmay, tez-tez o'zgarib, kengayib yoki qisqarib turgan. Ba'zi viloyatlar tashqi va ichki siyosiy vaziyatga qarab markaziy hokimiyatga bo'ysunmay qo'ygan va ularni qayta bo'ysundirish uchun harbiy yurishlar olib borilgan.

Shayboniylar qo'shini asosan otliq va piyoda askarlardan tashkil topgan.

Qo'shin tarkibi, uning jangovar saflanishi, jang qilish tartibi Chingizxon va Amir Temur qo'shinlari harbiy tuzilishi, urush taktikasiga asoslangan bo'lib, unga Shayboniyxon davrida ko'chmanchi o'zbeklarga xos bo'lgan bir qancha yangi jang usullari kiritildi. Xususan, Bobur Mirzo Shayboniyxon qo'shini «Tulg'ama» jang usulini mukammal o'zlashtirganliklari haqida ma'lumot beradi.

Shayboniylar qo'shini asosan qalb (qavl) deb ataluvchi markaziy qism, barong'or (o'ng qanot) va javong'or (so'l qanot) qismlaridan

hamda xirovul (qo‘shining orqa qismi)dan tashkil topgan. Ularga xonning o‘zi va tajribali o‘zbek sarkardalari boshchilik qilgan. Qo‘shinning qanotlariga boshchilik qilgan sarkarda o‘g‘lon deb yuritilgan. Qo‘shin oldida manglay (avangard) deb ataluvchi harbiy qism yarim doyra shaklida saf tortib borgan. Uning oldida esa tez harakatlanuvchi kichik jangovar qism – ilg‘or bo‘lgan. Shayboniylar qo‘shinida umumiy qism oldida boruvchi «Qorovul» deb atalgan maxsus qism, qo‘shinning o‘ng va so‘l qismlari oldida boruvchi kichik g‘o‘l deb yuritilgan bo‘linmalar va ortidan boruvchi maxsus yordamchi bo‘linma – chanoh bo‘lgan.

Qo‘shin tarkibida tug‘chi qism, ya‘ni bayroq ostida ehtiyotda turuvchi (tug‘ni qo‘riqlovchi) 20–30 ming kishilik jangovar harbiy bo‘linma hamda zabongiri, ya‘ni dushman tomonidan yashirin ravishda «til» tutib keluvchi maxsus bo‘linma va xabargiri – dushman to‘g‘risida umumiy ma‘lumot keltiruvchi bo‘linmalar ham bo‘lgan.

Harbiy yurishlar paytida xon uchun rasmiy qabul marosimlari o‘tkaziladigan maxsus joy – bargoh hozirlangan. Qo‘shinda saralangan o‘zbek navkarlaridan tuzilgan xonning qo‘riqchilari ham katta rol o‘ynagan.

Shayboniylar qo‘shini ham Chingizxon va Amir Temur qo‘shimlaridek, 10 minglik korpuslar – tumanlarga bo‘lingan. Unga no‘yon deb ataluvchi harbiy sarkarda boshchilik qilgan. Tumanlar o‘z navbatida minglik, yuzlik, o‘nliklarga bo‘lingan.

Qo‘shinni jangga hozirlash, ularning maoshini to‘lash va boshqa tashkiliy ishlar bilan maxsus amaldor – tavochi shug‘ullangan. Qo‘shinni qurol-yarog‘ bilan ta‘minlashga mas‘ul bo‘lgan amaldor – jevachi bo‘lib, u xonning qurol-aslahalariga ham javobgar bo‘lgan.

Harbiy amaldorlar va navkarlarga xazinadan beriladigan yillik maoshdan tashqari harbiy yurishlar paytida qo‘lga kiritiladigan o‘ljudan ham berib turilgan.

18.4. Shayboniylar davlati huquqining asosiy belgilari

Shayboniylar davlati islom davlati edi. Shu sababli unda islom huquqi asosiy huquq manbayi hisoblangan. Shuningdek, odat huquqi va xonlarning turli farmonlari ham huquq manbalarini tashkil qilgan. Huquq manbalari orasida odat huquqining ahamiyati ancha katta bo‘lgan.

Muhammad Shayboniixon markazlashgan davlatni tuzish bilan birga unda huquq-tartibotning mustahkamlanishiga ham e‘tibor beradi. Tarixchi Ro‘zbexon Isfaxoniy «Mehmonnomayi Buxoro» asarida yozishicha, ungacha Samarqand atrofidagi katta yo‘llarda talonchilar va zo‘ravonlar ko‘payib, hatto Samarqanddan Turkiston yo‘li bo‘ylab «xon hazratlarining asrga tatigulik davlati paydo bo‘lgunga qadar to‘rt

farsax uzoqlikda joylashgan Aliobodga biror kishi bora olmay qolgan»¹. U davlat yo‘llarini ana shu talonchi va bosqinchilardan tozalab, yo‘llarning xavfsizligini ta‘minlaydi. Muhammad (Shohbaxt) Shayboniyxon o‘qimishli, shariat huquqi bobida o‘z zamonasining bilimdon kishilaridan bo‘lganligi uchun qonunchilik va yuridik masalalarni ulamolar bilan maslahatlashib hal etishga e‘tiborli bo‘lgan. Uning huzurida hech qachon shariat huquqi va qonunlariga zid majlis bo‘lmagan.

Isfaxoniy xonning topshirig‘iga binoan 1513–1515-yillarda unga bag‘ishlab davlatni boshqarishga oid qisqa hajmli axloqiy-yuridik «Suluk al-muluk» – «Podsholarning xulq-atvorlari» nomli qo‘llanma yozadi.

Unda davlat ishlari, musulmonlar bilan o‘zaro munosabatlarda, dorug‘alar tayinlashda, xiroj, ushr, juz‘ya kabi soliqlar yig‘ib olishda nimalarga asoslanish lozimligi yoritib berilgan. 15 bobdan iborat mazkur asarda mansabdorlarni tayinlash, ularning huquq va majburiyatlari, soliqlarni yig‘ish tartibi, qo‘zg‘olonlarni bostirish haqidagi qoidalar keltirilgan.

Ashtarxoniyalardan Subxonqulixon davrida (1680–1702) ham uning farmoniga ko‘ra turli yuridik masalalarni hal etish uchun qabodiyonlik muftiy tomonidan musulmon huquqining asosiy qoidalaridan iborat to‘plam tuzilgan.

Garchi Markaziy Osiyoda huquqning asosiy manbaya shariat bo‘lsa-da, u odat huquqining yashashiga chek qo‘ya olmagan edi. Ilmiy adabiyotlarda huquqiy odatlar va huquqiy bo‘lmagan odatlar birbirlaridan farqlanadi. Davlat tomonidan tan olinib, mustahkamlangan va o‘z sanksiyasiga ega bo‘lgan odatlarga yuridik odatlar hisoblanadi.

Akademik V.V.Bartoldning ko‘rsatishicha, turkiy tilda xalq ma‘nosini «budun» degan so‘z anglatib, «to‘ra» davlat ma‘nosida ham ishlatilgan. «To‘ra» – qonun bilan birlashgan xalq ommasi, qonun degan ma‘nolarni anglatgan.²

Markaziy Osiyoda hukmron sulola bo‘lgan turk-o‘zbek o‘troq va chorvador xalqlari orasida juda ko‘p turli odatlar, ayniqsa, davlat huquqiy odatlari mavjud bo‘lib kelgan.

Turkiy xalqlarning davlat huquqiy odatlari xon ko‘tarish, voris tanlash, vassallikni rasmiylashtirish kabilarni tashkil qilib, ularning paydo bo‘lishi eng qadimgi davrlarga borib taqaladi.

Turkiylar xonni taxtga o‘tkazishda maxsus marosim o‘tkazganlar: amaldorlar bo‘lajak xonni kigizga o‘tkazib, quyosh yurishi bo‘ylab to‘qqiz marta aylantirishgan.

¹ Fazlullax ibn Ruzbexon Isfaxoni. Mehmonnomai Vuxoro (Записки Бухарского гостя). – M., «Наука». – 79–80 стр.

² N. Rahmon. Turk xoqonligi. –T., 1990. 49-bet.

Temur davrida ham davlat boshlig'ini saylashda shunday odat bo'lgan. Oq kigizga o'tqazib xon ko'tarishdek turk odati o'zbeklarda XIX – XX asrlarda ham mavjud bo'lgan.

Ko'rinib turibdiki, xonlik – davlat boshlig'i mutlaq vorislik bilan emas, ma'lum ma'noda nasabli va mansabli kishilar kengashida tanlanib, saylanib, keyinchalik huquqiy odat bilan rasmiylashtiriladigan lavozim bo'lgan.

Turk xalqlarida taxtga vorislik masalasida uni egallash tartibi bo'yicha ham o'ziga xos odat bo'lgan.

Bu odat «zinapoya usuli» deb atalib, mohiyati shundan iborat bo'lganki, ota vafot qilganidan keyin o'g'il taxtga vorislik qila olmaydi, balki vafot qilgan xonning ukasi bo'lmagan taqdirdagina o'g'li da'vogar bo'lishi mumkin. Shu odat Shayboniy o'zbeklarida ham saqlanib qolgan.

Tarxonlik instituti yirik askarboshi, mansabdor shaxslar, ba'zan fuqarolarning bir guruhiga beriladigan odat huquqidan kelib chiqqan institut bo'lib, keyinchalik ulardan maxsus imtiyozli tabaqa – tarxonlar vujudga kelgan.

O'tmishda jangovor, harbiy harakatlarda mohir bo'lgan turkiy xalqlarda **harbiy odatlarning** ustuvor mavqeyi bois harbiylar hayotiga oid ayrim masalalar odat huquqlari bilan tartibga solingan. Jumladan, dasht o'zbeklarida biron-bir xursandchilik munosabati bilan katta bayramlar uyushtirish, undan keyin janqi (yoki chang'i) qurish va unda yaqin orada bo'ladigan muhim rejalarni, masalan, biror davlatga qarshi urush harakatlarini olib borishni muhokama qilish odati bo'lgan.

O'zbek qo'shinlarida garovga olib turish ham juda keng qo'llanilib, garovga olingan shaxslarni o'ldirish, qul qilish, sotib yuborish yoki boshqa shaxslar bilan kelishib, qo'yib yuborish mumkin bo'lmagan. Garovga olish ba'zi liollarda «oq uylik qilib olib ketish» deb atalib, uzoq muddatlarga – oylar va yillarga cho'zilgan.

Markaziy Osiyo musulmon aholisi orasida islomga umuman aloqasi bo'lmagan odatlarning ham mavjudligi ko'zga tashlanadi. Masalan, deliqon don ekinlarini o'rib, yanchib bir uyum xirmon qilgach, bu uyum sarkorning kelishiga qadar daxlsiz hisoblangan. Uning vazifalaridan biri g'allaning soliq sifatida olinadigan qismini o'lchashdan iborat edi. Ammo, odatga ko'ra, sarkor o'z vazifasiga kirishmasidanoq don yetishtirgan dehqon uning bir qismini o'z qishlog'iga yoki mahalla masjidiga yoxud o'zi e'tiqod qiladigan biror mozor shayxi hissasi (haqqi-ulli)ga ajratgan. Qur'onda bu haqda hech narsa deyilmagan bo'lsa-da, yangi yetishtirilgan hosil shu yo'l bilan poklab olinadi, deb hisoblangan. Vaqt o'tishi bilan Markaziy Osiyoda Xudo yo'liga olinadigan bu ushr solig'i xiroj va tanob kabi oddiy davlat soliqlariga aylandi, birinchisi ekin maydonlaridan, ikkinchisi bog'lardan, uzumzorlardan, poliz va

bedazorlardan olingan hosilning beshdan bir, hatto uchdan bir qismigacha to'g'ri kelgan.

Har bir madrasa (oliy diniy o'quv yurti) unga asos solgan kishi tomonidan berilgan yoki aholi o'z xohishi bilan in'om etgan va ko'p hollarda qo'zg'almas mulk tarzida bo'lgan vaqfga ega bo'lgan. Vaqfni boshqarish mutavallilarga topshirilgan bo'lib, ular mulkning foydalanilishi, qo'riqlanishi, ijaraga berilishi, vaqf daromadlarining bo'tinishi ustidan nazoratni amalga oshirganlar. Ko'pincha, daromadning taqsimlanishi vaqfni vasiyat qilgan shaxs tomonidan tuzilgan vaqfnomada ko'rsatilgan. Ana shu yorliqqa asosan, mutavalli vaqf mulkining bir yillik yangi daromadidan undan bir hissasini xizmat haqiga olgan. Shu bilan birga, madrasa mutavallilarining ishini asta-sekinlik bilan nazorat qilish maqsadida bosh mutavalli mansabi joriy qilindi, ammo ularning maoshi to'g'risida gapirilmaydi. Hukumat unga maosh to'lamagan, odatga ko'ra, mutavalliboshi o'ziga bo'ysungan har bir mutavalli yillik daromadining o'ndan bir qismini olgan.

Turk xalqlarida oila-nikoh munosabatlari shariat huquqi bilan tartibga solingan, ammo shunga qaramasdan, bu borada ham ko'pgina odatlar mavjud edi. Jumladan, oilaga, xotinlarga til tekkizish katta gunoh hisoblangan. Hatto xotin-qizlarning ismlari talaffuz qilinmay, har birini boshqa bir ibora bilan atashgan. Masalan, xotinlarni bosh farzandining ismi bilan chaqirish odati bizgacha saqlanib qolgan. «Xotimlarga til tekkizish chig'atoylarda va turk qabilalarida eng katta gunoh bo'lib, oila haqiga qilingan xiyonatdan ham azimdir.»¹ Bu qadimiy odat barcha turkiy xalqlar, jumladan, o'zbeklar ongidan hozirgacha chuqur joy olib kelmoqda.

Turkiy oilalarda vafot etgan akaning oilasini saqlab qolish, bolalarini boqib, katta qilish uchun uning beva qolgan xotiniga ukalaridan biri uylangan. Bu eski odat hatto turkiy xalqlarning qadimgi avlodlari – xunnlarga borib taqaladi.

Qishloq xo'jaligiga oid odatlar suv, yer o'lchamlari, ularni yuritishda odat huquqiga rioya qilish, hamma joyda yagona, hatto bir odatga emas, qaysi jug'rofiy hududda qanday odat bo'lsa, o'shanga rioya qilish haqidagi ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan.

Qovun sotish. Poliz boshida qovun sotish odat bo'lmay, u yerga kelgan kishi to'ygunicha yeb ketishi rasm bo'lgan, olib ketishi mumkin emas edi. Bu haqda «Boburnoma»da ham ma'lumot bor. Jumladan, Bobur Andijon qovunlarini maqtab: «Qovun mahalida poliz boshida qovun sotmoq rasm emas», – deb yozadi.²

¹ *Ibn Arabshoh*. Temur taqdirida taqdir ajoyibotlari. –T., «Mehnat», 1992, 1-jild. 258–259-betlar.

² *Bobur*. «Boburnoma». –T., «Yulduzcha», 1991, 6-bet.

Yurtchilik odati. Bu odat qarzini to‘lay olmagan qarzdorning qarzlarini uning qarindoshlari o‘zaro bo‘lib olib, to‘lashlari bilan belgilanadi. Bundan bosh tortgan qarindosh lozim hollarda o‘zi ham ana shunday yordam olish huquqidan mahrum bo‘lgan.

O‘zaro yordam. O‘zbek-qozoqlarda amalda bo‘lib, **jilu odati** deb yuritilgan. Bu qahatchilik yoki tabiiy ofat oqibatida o‘z mol-holini yo‘qotgan, qiynalib qolgan qarindoshlarga qoramollar berib yordam ko‘rsatish odatini bajarishdan bosh tortgan qarindosh zarur bo‘lganda o‘zi ham shunday yordamdan mahrum etilgan.

Hamkorlik (o‘rtoqlik) odati — jamoa yoki qarindoshlar o‘rtasida ko‘proq qo‘l mehnati talab qiladigan ishlarni bajarishda, masalan, beda o‘rish, quduq yoki hovuz qazish, uy-joy qurishda (hashar deyiladi) yordam ko‘rsatishdan iborat. Undan bosh tortish, o‘z navbatida, shunday yordam olish huquqidan mahrum qilgan.

Davlat va jamiyat hayotini tartibga soluvchi muhim manbalardan bo‘lib xizmat qilib kelgan o‘zbek o‘dat huquqi normalari vaqt o‘tishi bilan o‘z o‘rnini zamonaviy huquq qoidalariga bo‘shatib berdi. Ular o‘rnini turli qonunlar egalladi.

Turkistonning o‘rta asrlardagi ijtimoiy-siyosiy va huquqiy tarixini o‘rganishda XV–XVI asrlardagi **Samarqand (vaqf) hujjatlari** to‘plami diqqatga sazovor manbalardandir.

Hujjatlar to‘plami mazmuniga ko‘ra, o‘sha davrdagi fuqarolik huquqiy munosabatlari, xususan, vaqf mulkining huquqiy holati hamda uning sud va davlat puli bilan himoya qilinishi masalalari, ish yuritish hamda hujjatlarning shakllarini o‘rganishda muhim manba sifatida ishonchli ma‘lumotlar beradi.

O‘zbekiston davlati va huquqi tarixiga oid yuridik hujjatlar orasida eng ko‘p tarqalganlari vaqfnomalar bo‘lib, yuzlab yillar o‘tganligiga qaramay, bizgacha hatto ularning asl nusxalari yetib kelgan. Ular orasida «Vaqfnoma» yoki «Hazrat Shayboniyxon vaqfnomasi» deb ataluvchi hujjat o‘zining davri, ta‘sis etilishi, shartlari va tuzilishi jihatidan alohida ajralib turadi, u bizgacha yuz sahifadan ortiq kitobcha shaklida muqovalangan holda yetib kelgan murakkab tuzilishdagi hujjatdir.

Vaqf mulklarini boshqarish jarayonida ularni hissador foydalanishi uchun ijaraga berish orqali daromad olish mumkin bo‘lgan. Bunda vaqf mulkining ijara uch yildan oshmasligi, shuningdek, ijara haqi belgilanganidan oshiq yoki kam bo‘lmasligi lozim edi. Mazkur hujjatning o‘ziga xos shartlari ham bor. Masalan, ishlanadigan yerlar har qanday davr va vaqtda ham xonlar, sultonlar, amirlar xizmatida bo‘lgan kishilar, suyurg‘oldan foydalanuvchi amaldorlar tomonidan ishlanishi mumkim bo‘lmagan.

Vaqf mulkidan keladigan daromadlar shu mulkni rivojlantirish,

kengaytirishga, madrasalarni ta'mirlash, ashyolar bilan ta'minlashga, mudarrislar, talabalar, hofizlarga maosh tayinlashga sarflangan. Hujjatning so'nggi, tasdiqlovchi qismida har o'n yilda xon huzurida — bosh qozi, shayxulislom hamda o'sha davrning tamiqli kishilari oldida uning aslidan nusxalar ko'chirilib, yangitdan tasdiqlanishi lozimligi ko'rsatilgan. Bunda vaqf ta'sis qilish vaqtida qo'yilgan shartlar o'zgarimasligi mustahkamlangan.

Shayboniylar davlati va undan keyingi ijtimoiy-siyosiy tuzum huquqiy munosabatlarini o'rganishda shariat huquqi bilan bir qatorda dunyoviy sud-notarial hujjatlarining to'plamlari katta rol o'ynaydi. Bular ichida «Majma' al-vasoiq», ya'ni «Vasiqalar to'plami» ham o'ziga xos o'ringa ega. Bunda 1588—1591-yillarda tuzilgan 735 ta sud-notarial hujjati jamlanib, u ko'pgina ijtimoiy-siyosiy hamda yuridik masalalarni o'z ichiga oladi.

To'plamda shogirdlikka oid 25 ta hujjat bo'lib, ularning mohiyati shundaki, shogirdlik ijtimoiy-siyosiy masalalarni o'rganishda katta ahamiyat kasb etgan. Shuni aytish kerakki, usta kasb o'rgatishga shoshilmagan. U fotiha berish marosimini ataylab kechiktirib, shogirdning kuchidan imkon boricha ko'proq foydalangan. 679 hujjat — farzandlikka berish vasiqasida ko'rsatilishicha, ota-ona o'z farzandini muallimning oldiga olib borib, «bolaga otaliq ko'rsatib, unga tarbiya, xat-savod bering, shariat qoidalarini o'rgating», deya ta'lim haqi, bolaning kiyinishi va kundalik ovqatlanishi uchun zarur pul bergan. Bir yarim-uch dinor miqdoridagi bu pulning bir qismini muallim bolaning kiyinishi va ovqatlanishi uchun sarflasa, qolgan qismini «ta'lim haqi» deb o'ziga olib qolgan. Bu hujjatdan ko'rinib turibdiki, o'sha paytda shogirdlikka berish, o'g'il qilib olish masalalarini huquqiy tartibga soluvchi maxsus qonunlar bo'lmagan, shartnomalar bu kabi yoshlar kuchidan, mehnatidan xohlagancha foydalanishga imkon bergan. Juda ko'p hujjatlar qullikni bekor qilishning turli yo'llariga oid bo'lib, mazkur hujjatlarga ko'ra, bu yo'llar quyidagilardan iboratdir.

Ma'lumki, qullikda yashagan ota-onadan tug'ilgan bola ham xo'jayinning quli hisoblanib, boshqa qullardan farqli o'laroq, bunday qullar «xonazot qullar» deb atalgan. Xonazot qul va cho'rilarni xo'jayinlar birovga hadya etishi, ijaraga va har xil yumushlarga berishi mumkin bo'lgan, ammo uni sota olmagan.

Xonlikda jinoyatni aniqlovchi va jazo beruvchi asosiy mahkama islomiy shariat qonun-qoidalariga asoslanib ish tutuvchi qozilik idoralari edi. Davlatdagi oliy sudya Qozikalon bo'lib, viloyatlardagi jinoyatlarni jazolash viloyat qozilari qo'lida bo'lgan. Oliy jazo — o'lim hukmini faqat xonning maxsus farmoni bilan amalga oshirganlar. Aybdorni aniqlashda, shariat qonunlariga asosan, ikki kishining guvohligi yetarli

bo'lgan. Viloyatlarda, tumanlarda jinoyat ishlarini viloyat hokimi nazoratida mahalliy qozilar olib borgan. Jinoyatchilarga gunohiga qarab o'lim jazosi, ma'lum muddatga (ko'p hollarda umrbod) zindonga tashlashdan tortib tan jazosi berish (darra urish, barmoqlarni kesib tashlash va boshqalar), sazoyi qilish, qoziqqa o'tkazish kabi jazo choralari ham qo'llanilgan. Aybdorlarga jazo berish ko'pincha bozor oldidagi maxsus maydonda – aholi ko'z o'ngida amalga oshirilgan.

Harbiylar sodir etgan jinoyatlar va jazo turlari maxsus harbiy sudyalalar – qozi askar va mufti askar tomonidan ko'rib chiqilgan.

Mol-mulk bilan bog'liq jinoyatlar, o'g'irlik, shariat qonunlariga rioya qilmaganlik (ichish, chekish, qimor o'ynash, zino bilan shug'ullanish va boshqalar) uchun beriladigan jazolar turi ko'pincha amaldorlarning xohish-irodasiga bog'liq bo'lib, ma'lum jinoyatlar uchun aniq jazo oldindan belgilab qo'yilmaganligi, sud ishlarida poraxo'rlik, mansabni suiiste'mol qilishga yo'l ochib berardi.

Bu davrga oid hujjatlarda (Jo'ybor shayxlari arxivi, Samarqand qozilik idorasi hujjatlari va boshqalar) turli fuqarolik ishlari, huquqiy-ma'muriy jinoyatlar, tartibbuzarliklar va ularga nisbatan qo'llaniladigan jazo choralari haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Masalan, Buxorodagi Katta G'oziyon va Kichik G'oziyon madrasasiga tegishli hujjatlarda (1535) madrasada o'qish va hujrada yashash tartib-qoidalarini buzgan talabalarga quyidagi jazo choralarining ko'rilishi qayd etilgan. Agar talaba darslarga bir oy sababsiz qatnashmasa, uni hujradan mahrum qilishgan, agar talaba dangasaligi sababli darslarni yaxshi o'zlashtira olmasa va bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'ta olmasa, unga nafaqa to'lash bekor qilinib, hujra tortib olingan.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

1. *Shayboniylar davlatining vujudga kelishi haqida gapirib bering.*
2. *Shayboniylar davlatining ijtimoiy tuzumi qanday bo'lgan?*
3. *Shayboniylar davlatidagi ijtimoiy tabaqalarni sanab bering.*
4. *Shayboniylar davlati boshqaruvi qanday shaklda tashkil etilgan?*
5. *Shayboniylar davlatida harbiy boshqaruv qanday bo'lgan?*
6. *Shayboniylar davlati huquqining asosiy belgilari haqida gapirib bering.*
7. *Shayboniylar davrida huquqiy odat qanday shakllarga bo'lingan?*
8. *«Vasiqalar to'plami» sud-notarial hujjatlarining ahamiyati haqida gapirib bering.*

19-MAVZU: ASHTARXONIYLAR DAVLATI VA HUQUQI

1. Ashtarxoniylar hukmronligining o‘rnatilishi.
2. Ashtarxoniylar davrida ijtimoiy-siyosiy tuzumda yuz bergan o‘zgarishlar.
3. Ashtarxoniylar davlati huquqining asosiy belgilari.

19.1. Ashtarxoniylar hukmronligining o‘rnatilishi

1598-yilda Abdullaxon vafot etgach, shayboniylar o‘rtasida toju taxt uchun kurash boshlanib, bu kurash oxir-oqibat mazkur sulolaning butunlay qirilib ketishiga olib keldi.

Buxoro xonligi taxtiga vorislikka shayboniy urug‘lardan hech kim qolmagan edi. Ana shunday bir paytda Buxoroda amirlar kengashib, 1554-yili ruslarning Ashtarxonni (Astraxan, ya’ni Hojitarxon xonligini) istilo qilishi davrida Buxoroga qochib kelgan Yormuhammadxonning o‘g‘li Jonibek sultonmi (u Abdullaxonning singlisiga uylanganligi tufayli shayboniylarga kuyovdosh edi) xon qilib ko‘tarmoqchi bo‘ldilar. Jonibek in’om qilingan taxtdan bosh tortdi. Amirlar uning katta o‘g‘li Dinmuhammadni xon qilib ko‘tardilar. Bu vaqtda u Obivardda edi. U Buxoroga kelayotib yo‘lda halok bo‘ldi. Shundan keyin uning ukasi Boqimuhammad xon qilib ko‘tarildi. Jonibekning uchinchi o‘g‘li Valimuhammad taxt vorisi (valiahd) deb e’lon qilindi va Balxga noib qilib yuborildi.

Ana shu tariqa, 1599-yilda Movarounnahrda yangi sulola — ashtarxoniylar — «joniylar» (joniylar nomi urug‘ boshlig‘i Jonibekning nomidan olingan) sulolasi tashkil topdi.

Bu davlatda rasman oliy hokimiyat Jonibek Sulton qo‘lida bo‘lib, uning nomidan tangalar zarb etilgan, uning nomi xutbaga qo‘shib o‘qilgan.

Boqi Muhammad xonlikdagi ichki siyosiy nizolarga chek qo‘yishga harakat qildi, xonlikning shimoliy chegaralarini ko‘chmanchi qabilalardan himoya qilish choralarini ko‘rdi. Balx viloyatidan eronliklarni haydab chiqarib, u yerga ukasi Vali Muhammadni hokim etib tayinladi. Lekin XVII asr boshlarida Buxoro xonligi hududi Abdullaxon Ikkinchi davridagiga qaraganda juda qisqarib ketgan edi. Ashtarxoniylar Xorazmni va Xurosonning katta qismini butunlay qo‘ldan boy berdilar. Toshkent uchun qozoq sultonlari bilan ko‘plab urushlar olib borishga to‘g‘ri keldi.

Boqi Muhammaddan so‘ng taxtga Vali Muhammad o‘tirdi. Uning qisqa hukmronligi davrida (1606–1611) ichki kurashlar yanada kuchaydi, yirik o‘zbek qabilalari beklari iqtisodiy-siyosiy jihatdan katta kuchga

ega bo'lib, xon hokimiyatiga bo'ysunmas edilar. Markaziy hokimiyat mamlakatda vaziyatni nazorat qilolmas, hududiy yaxlitligini ta'minlay olmas edi. Yangi xonning markaziy hokimiyatni kuchaytirishga bo'lgan intilishi unga qarshi fitna bilan yakunlandi va taxtni Boqi Muhammadning o'g'li Imomqulixon egalladi. U o'zining nisbatan uzoq davom etgan hukmronligi davrida (1611–1742) xonlikda hukm surayotgan o'zaro feodal urushlarga chek qo'yishga va markaziy hokimiyatni mustahkamlashga muvaffaq bo'lgan bo'lsa-da, Xuroson va Xorazmni qayta qo'lga kirita olmadi. Toshkent va xonlikning shimoliy chegaralari uchun ko'chmanchi qabilalar: qozoqlar, qalmiqlar, mo'g'ullarga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib bordi va xonlik hududini shimoli-sharqqa kengaytirdi. Bu davrda xon hokimiyatining mavqeyi oshdi, ichki vaziyat birmuncha yaxshilandi. Lekin undan keyin taxtda o'tirgan Nodir Muhammadxon (1642–1645), Abdulazizxon (1645–1681) va Subxonqulixon (1681–1702) davrida mamlakatda siyosiy vaziyat yana izdan chiqdi. Bu xonlar mahalliy feodallarga va tashqi dushmanlarga qarshi to'xtovsiz urushlar olib borishga majbur bo'ldilar. Bu kurashlarda hokimiyatning asosiy tayanchi din peshvolari edi. Shu sababli bu davrda yer maydonlari ommaviy ravishda diniy mahkamalar va yirik ulamolar (Jo'ybor xo'jalari kabilar) ixtiyoriga o'ta boshladi. Mamlakatda diniy mutaassiblik kuchaydi. Bu o'z navbatida dunyoviy taraqqiyotni bo'g'ar, davlat va jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qilardi.

Tinimsiz urushlar, haddan tashqari og'ir soliqlar, mahalliy hokimlarning beboshliklari ustiga tez-tez bo'lib turgan tabiiy ofatlar (qurg'oqchilik, hasharot bosishi) ham mamlakatning iqtisodiy ahvolini izdan chiqardi, xalqning ahvolini yanada nochorlashtirdi.

XVIII asr boshlariga kelib ashtarxoniylar davlatidagi inqirozli vaziyat yanada kuchaydi. Bu sulola xonlari yirik saroy amaldorlari va o'zbek qabilalari boshliqlariga tamomila tobe bo'lib, ular xonlarni taxtga ko'tarishar, taxtdan mahrum etishar, mamlakatdan quvg'in etishar yoki o'ldirishardi. Ubaydullaxon (1702–1711) markaziy hokimiyatni kuchaytirishga, mamlakatda hukm surayotgan siyosiy beboshliklarni tugatishga intilgan so'nggi ashtarxoniy hukmdor edi.

Ubaydullaxonning bebosh o'zbek amirlarining iqtisodiy kuchini susaytirish, davlat xazinasini to'ldirish va mamlakatning moliyaviy ahvolini yaxshilashga urimib o'tkazgan pul islohoti (1708.) siyosiy-iqtisodiy vaziyatni yanada chigallashtirdi. Zarb etilgan past qiymatli mis pullar bozorlarda savdogarlar tomonidan olinmasdan, do'konlar yopilib, Buxoro shahrida katta qo'zg'olon ko'tarildi. U katta qiyinchilik bilan bostirilgan bo'lsa-da, mamlakatdagi siyosiy-iqtisodiy vaziyat yaxshilanmadi. Natijada Ubaydullaxon o'ldirilib, taxtni ashtarxoniylar sulolasini amaldagi so'nggi xoni Abulfayzxon egalladi. Uning

hukmronligi davrida (1712–1747) mamlakatda qabila boshliqlari, viloyat hokimlarining markaziy hokimiyatga qarshi chiqishlari yanada kuchaydi. Amaldorlar fitnasi avj oldi.

Abulfayzxon davrida markaziy hokimiyat o‘z ahamiyatini yana yo‘qota bordi. Mamlakat o‘zini mustaqil hisoblovchi viloyatlarga bo‘lma boshladi. Mamlakatni boshqarish mang‘it urug‘lari tomonidan qo‘llab-quvvatlangan va yirik zodagonlar orasida obro‘ga ega bo‘lgan Muhammad Hakimbiy qo‘liga o‘ta boshladi.

Abulfayzxon nomigagina xon bo‘lib turardi.

Asosiy hokimiyatni nufuzli amirlar Javshan qalmiq, so‘ngra qushbegi Abdullabiy, keyin Muhammad Hakimbiy otaliqlar boshqardilar.

Davlatda siyosiy tarqoqlik kuchaydi. Balx Buxorodan ajralib ketdi, keyinchalik bu yerda goh ashtarxoniylardan Normuhammad avlodlari, goh har turli o‘zbek shahzodalari hokimlik qilib turdilar. Badaxshonda Yorbek sulolasi hukmronligi qaror topdi. Xorazm Buxorodan tamomila mustaqil bo‘lib oldi.

Buxoroda mang‘it urug‘idan bo‘lgan qudratli Muhammad Hakimbiy irodasi bo‘sh, zaif Abulfayzxon zamonida otaliq edi. Shu tariqa, mamlakat bo‘laklarga bo‘linib ketdi. Bundan foydalangan qalmiq va qozoqlar yetti yil mobaynida mamlakatning juda ko‘plab vodiylarini, bog‘-rog‘larini poymol qildilar. Gullab-yashnab turgan joylar cho‘lga aylandi. G‘alla, meva, sabzavot mahsulotlari keskin kamayib ketdi. Buxoro og‘ir iqtisodiy va siyosiy ahvolda qolganligidan foydalangan Eron hukmdori 1740-yil bahorida Balxni egallab, Amudaryodan o‘tib Buxoroga yurish qildi. Bu vaqtda Otaliq Muhammad Rahim eronliklar bilan til biriktirdi. Shu tariqa, Abulfayzxon ilojsiz bir holatda Eron shohi Nodirshoh oldida vassallikni tan olganidan keyin ashtarxoniylar sulolasining mustaqil hukmronlik davri tugadi. Buxoro yetti yil mobaynida, Nodirshoh o‘limigacha (1747) Eronga qaram bo‘lib qoldi. Bu davrda hokimiyat asosan Otaliq Muhammad Hakimbiy qo‘lida, u vafot etgandan keyin (1743) uning o‘g‘li Muhammad Rahimbiy qo‘lida bo‘ldi.

1747-yili Abulfayzxon bir guruh fitnachilar tomonidan o‘ldirildi. Keyinchalik qisqa muddat davomida uning o‘g‘illari Abdulmo‘min (1747–1748), Ubaydulla III (1748–1756) birin-ketin taxtga o‘tirdi. Ular nomigagina xon bo‘lib, davlatning muhim ishlari Muhammad Rahimbiy qo‘lida edi.

19.2. Ashtarxoniylar davrida ijtimoiy-siyosiy tuzumda yuz bergan o‘zgarishlar

Ashtarxoniylarning hukmronligi mamlakatda ijtimoiy-siyosiy

tarqoqlikning kuchayishi, ko'plab o'zaro urushlar, shaharlarning huvillab qolishi, ko'pdan ko'p soliqlar natijasida o'troq aholining xonavayron bo'lishi, vohalar va savdo karvonlarining talon-toroj qilinishi bilan tavsiflanadi. Bu davrda yer-mulkka nisbatan soliqlar nihoyatda oshib ketdi.

Soliqlar hatto bir necha yil oidin va ko'proq undirib olinadigan bo'ldi. Masalan, Subxonqulixon davrida soliqlar yetti hissa ortiq olindi. Soliqlar «moli jihat» va «xiroj» deb atalardi.

Bu davrda shayboniylar davridagidek ijtimoiy tabaqalar saqlanib qolgan bo'lsa-da, ularning mavqeyida o'zgarishlar ko'zga tashlanadi. Rasman oliy tabaqa hisoblangan xon va yirik saroy amaldorlari ko'p hollarda harbiy-ma'muriy mansabdorlar, viloyat hokimlari, yirik qabila boshliqlari fikri bilan hisoblashishga majbur bo'lib, bu ularning ijtimoiy ahvolini deyarli tenglashtirib qo'yardi. Bu davrda Jo'ybor xo'jalarining avlodlari bo'lgan ulamolar va boshqa diniy amaldorlarning ijtimoiy hayotdagi mavqeyi yanada oshdi. Asosiy soliq to'lovchi bo'lgan ijtimoiy tabaqa — raiyatning ahvoli og'irlashib bordi. Bu davrda ijtimoiy piflapoyaning eng pastida turgan qullarning, ayniqsa, saroy xizmatchi qullarining mavqeyi oshishi uchun imkoniyatlar kengaydi. Xonga va boshqa yirik saroy amaldorlariga tegishli bo'lgan qullar, ba'zi hollarda o'z salohiyati bilan saroydagi yirik amaldorlar qatoridan o'rin olishga ham muvaffaq bo'lgan. Ko'pgina xonlarning shaxsiy qo'riqchilari qullardan iborat bo'lib, bu ularning saroydagi mavqeyini oshirib turardi.

Ashtarxoniylar davlat tuzumi o'z tuzilishi, mohiyatiga ko'ra Shayboniylar davlat tuzumidan deyarli farq qilmas edi. Xon rasman oliy hokimiyat boshlig'i bo'lib, davlatning ichki va tashqi siyosatiga bog'liq barcha masalalar uning ixtiyori bilan hal qilinardi. Barcha oliy farmonlar xon tomonidan joriy qilinardi, uning nomidan tangalar zarb qilinardi, xonning nomi xutbada qo'shib o'qitilardi. Lekin amalda ko'pgina ashtarxoniy hukmdorlar yirik saroy amaldorlari qo'lida o'yinchoq bo'lib, markaziy davlat boshqaruvi saroy amaldorlari qo'lida to'plangan bo'lsa, joylarda mahalliy hokimiyat tamomila viloyat hokimlari ixtiyorida edi. Bu markaziy boshqaruvning zaifligi oqibati bo'lib, davlat tizimini beqarorligiga, ijtimoiy-siyosiy inqirozlarga olib kelardi.

Ashtarxoniylar davrida Buxorodan keyingi eng nufuzli shahar Balx bo'lib, uni taxt vorisi boshqarardi. Davlat boshqaruvi ikki bosqichli bo'lib — markaziy va mahalliy boshqaruv tizimiga ega edi.

Markaziy boshqaruv xon saroyi amaldorlari qo'lida bo'lib, ashtarxoniylar davrida otaliq mansabiga ega shaxs ayniqsa katta mavqega ega bo'la boshladi.

Otaliq birinchi vazir vazifasini bajargan. XVIII asrda esa u yana mamlakatda sug'orish ishlariga rahbarlik ham qilgan.

Otaliqdan keyin devonbegi (moliya vaziri), undan keyin parvonachi (arizalarni qabul qiluvchi), ko'kaldosh, mirshabboshi bo'lgan. Bundan tashqari inoq (qudratli o'zbek qabilalarining amirlaridan tayinlangan), qushbegi (xon qarorgohining boshlig'i), katta mextar, dasturxonchi, to'pchiboshi, qutlov, eshik og'asi, miroxo'r, shayxulislom, qozi, qozikalon va hokazolar bo'lgan.

Bu davrda islom dini davlatning asosiy tayanchi bo'lib, ruhoniylar juda katta siyosiy mavqega ega edi.

Viloyat hokimlarining markaziy hokimiyatga bo'ysunishi belgilangan yillik soliqlarni to'plab xon xazinasiga yuborib turish, xon farmoniga ko'ra harbiy yurishlarda o'z qo'shinlari bilan qatnashishdan iborat edi, xolos. Viloyat hokimlari ham o'z boshqaruv tizimiga, harbiy kuchlariga ega edi.

Ashtarxoniylar davrida harbiy va ma'muriy amaldorlar katta huquqlarga ega edi. Ular bilan bir qatorda yirik din peshvolari – xo'jalar va diniy mansab egalari – shayxulislom, qozikalon, sadr va boshqalarning ahamiyati ham katta bo'lgan. Davlat boshqaruvida Jo'ybor xo'jalarining mavqeyi bu davrda ham yuqori bo'lib, asosiy diniy mansabdorlar ular ichidan tayinlanar edi.

Qo'shin tuzilishi, jang olib borish uslubida shayboniylar davriga xos harbiy tartib-qoidalar saqlanib qolindi. Lekin o'z samaradorligini tobora yo'qotib borayotgan bu o'rta asr harbiy jang tartiblarini ham ashtarxoniylar qo'shini yetarli o'zlashtira olmaganligini ko'ramiz. Mamlakatdagi ichki nizolarga, separatik kuchlarga, tashqi dushmanlar hujumiga to'siq qo'ya oladigan doimiy qudratli harbiy qo'shinning barpo etilmaganligi, qo'shin tarkibiga urushlar paytida oddiy fuqarolarning keng jalb etilishi, uyushgan markaziy harbiy qo'mondonlikning yo'qligi va boshqa siyosiy-iqtisodiy sabablar tufayli ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligi harbiy jihatdan o'ta zaiflashib ketdi.

19.3. Ashtarxoniylar davlati huquqining asosiy belgilari

Ashtarxoniylar hukmronligi davrida ham huquq manbalarini asosan shariat, huquqiy odatlar va xonlarning amr-farmonlari tashkil etgan. Mulkiy munosabatlar, nikoh-oila va jinoyat-jazo masalalari hamda sud ishlarini yuritish tartibi shariat normalari bilan belgilangan.

Bu davrga oid yer huquqiga bag'ishlangan muhim manbalardan biri «Buxoro yer hujjatlari» to'plami bizgacha yetib kelgan. Unda XVII–XIX asrlarda butun O'zbekiston hududidagi yerga egalik qilish va undan foydalanish tartibini ko'rsatuvchi qoidalar, davlat boshliqlarining bu boradagi farmonlari, sud hujjatlari haqida qimmatli ma'lumotlar beriladi. Hujjatlarda, jumladan, vaqf mulkini almashtirish, xususiy yer egaligi

huquqining davlat tomonidan buzilib turishi, g'alla uyumlarini muhrlash va boshqa shu kabi yerga oid munosabatlar tartibga solinadi. Masalan, mulkning vaqfga aylanishi unga egalik qilish va uni tasarruf etishda muhim o'zgarishlar kelib chiqqan, ya'ni uni olish-sotish, almashtirish mumkin bo'lmay qolgan. Huquqshunos olim Z. Muqimov ko'rsatganidek, to'plamdagi ba'zi hujjatlar, xususan, 1721-yildagi savdo vasiqasi istisno hollar ham bo'lib turganligini ko'rsatadi. Unga ko'ra, Samarqand viloyatining Shovdor tumanidagi vaqf yerlar daromadidan foydalanuvchi Darvesh Muhammad Ta'rxonning avlodlari qonunda qat'iy taqiqlanganligiga va barcha yuridik qiyinchiliklar, cheklashlarga qaramay, vaqf yerlarini Samarqand yaqinidagi Olloyorbiyga qarashli asosiy yer mavzesidan chekkada joylashgan yer maydoniga almashtirishga muvaffaq bo'lgan. Chunki, Olloyorbiyning mulklari o'rtasida joylashib qolgan vaqf yerlaridan daromad kelishi juda kamayib ketgan (37-hujjat). Bu muomala, albatta, ma'lum ustama haq evaziga amalga oshirilganligi bois uni almashuv emas, balki savdo-sotiq shartnomasi deb baholash mumkin.

Mazkur hujjatlarda yerlar bora-bora turli yo'llar bilan bir kishi egaligiga o'ta borishi va bunda musulmon huquqidagi shuf'a qoidasi yordam berganligi aks etgan. Shunga oid birtalay hujjatlar keltirilgan. Ularga ko'ra, «mulki hur xolis» – soliqlardan ozod yerlar, xiroj yerlari, amlok (davlat) yerlari, vaqf yer mulklari hamda xususiy shaxslarga tegishli yer mulklari bo'lib, shartli yer-mulk egaligida «tanho» berish keng yoyilgan. Umrbod berilgan (lekin merosiy bo'lmagan) «tanho» yer mulki barcha soliqlardan ozod etilgan.

To'plamdagi 50-hujjatda davlat armiyasida xizmatda bo'lgan kishilar darajasiga qarab, qancha «tanho» olishi belgilab qo'yilgan ro'yxat (reyestr) keltirilgan. Jumladan, bahodirlar (o'zbek harbiy qo'shilmalarining kichik unvonli komandirlari) 11–23 tanobgacha, mirzaboshi 25–35 tanobgacha, jibachi 40 tanobgacha, qorovulbegi 47 tanobgacha, parvonachi, dodxohlar esa butun-butun qishloqlarni tanho sifatida olganlar.¹

Yer mulklarini sotish, almashtirish, sovg'a qilish, garovga qo'yish, qarz evaziga berish mumkin bo'lgan. Mazkur hujjatlar shuni ko'rsatadiki, Imomqulixon davrida davlat yerlari ko'plab xususiy shaxslarga sotilib, «mulki hur xolis» shakliga aylangan. Agar biror shaxs yerni sotib olib, uning uchdan ikki qismidan davlat foydasiga voz kechsa, u «mulki hur xolis»ga aylangan. Davlat yerlarini o'ziga xos tarzda sotishni ko'rsatadigan hujjatlar ham bor. Ya'ni, garchi yer mulki sotib olindi, deb qayd etilsada, bu yer uchun pul bilan haq to'lanmagan, balki Qur'onning tabarruk

¹ Buxoro yer hujjatlari. –T., «Fan», 1954. 209–217-betlar.

nusxasi hadya etilgan. Chunki davlat yerlari davlat (mamlakat) xazmasi ahamiyatiga ega bo'lganligi uchun xon ularni tasarruf etib, sotishga huquqli hisoblangan.

G'alla uyumini muhrlash to'g'risida ham hujjatlar mavjud. Jumladan, 20-hujjatda Ubaydullaxonning (1702–1711) farmonida qishloq ma'muriyatining soliq undirish bilan bog'liq vakillari: hokimlar, omillar, arboblar, kadxudolar va o'nboshi hamda ellikboshilar, dorug'alar tilga olinadi. Jumladan, dorug'a – davlat yerlarida g'allaning dehqonlar tomonidan yashirilmashligi ustidan nazorat qiluvchi mansabdor hisoblangan. G'alla o'rib olingandan keyin soliq miqdori aniqlanib, yig'ilgan hosil uyum qilib muhrlangan, bu esa soliq undirilmaguncha undan foydalanish taqiqlanganligini bildirgan.

Bulardan tashqari, mazkur hujjatlarda o'sha davrdagi davlat mansablari, soliqlar va uning turlari, jo'g'rofiy joylarning nomlari, atamalar va yuridik hujjatlarning shakllariga oid ko'plab ma'lumotlar keltirilgan.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

1. *Ashtarxoniylar hukmronligining o'rnatilishi haqida gapirib bering.*
2. *Ashtarxoniylar davlatining inqirozi sabablari haqida gapirib bering.*
3. *Ashtarxoniylar davrida ijtimoiy-siyosiy tuzumda qanday o'zgarishlar yuz bergan?*
4. *Ashtarxoniylar davlati tuzumi qanday bo'lgan?*
5. *Ashtarxoniylar davlatining Shayboniylar davlati davlat tuzumidan farqi nimalardan iborat bo'lgan?*
6. *«Buxoro yer hujjatlari» to'plami va uning xususiyatlari haqida gapirib bering.*

20-MAVZU: BUXORO XONLIGINING IJTIMOY-SIYOSIY TUZUMI VA HUQUQIY TIZIMI

1. Buxoro xonligining tashkil topishi.
2. Buxoro xonligining ijtimoiy tuzumi.
3. Buxoro xonligi davrida markaziy va mahalliy hokimiyat hamda boshqaruv organlari.
4. Buxoro xonligi huquqining asosiy belgilari.

20.1. Buxoro xonligining tashkil topishi

XVIII asrning birinchi yarmida davom etgan o'zaro feodal urushlar

va qo'zg'olonlar Buxoro xonligini talon-toroj qilib qolmasdan, balki mamlakatning iqtisodiy va siyosiy qudratini ham pasaytirdi.

Bu davrda xonlik boshqaruvi tizimida ashtarxoniy hukmdorlarining mavqeyi pasayib, mang'it urug'larining siyosiy faolligi kuchayib borayotgan edi.

So'nggi ashtarxoniyler Abulfayzxon Buxoroda 1711–1747-yillarda nomigagina xon edi. Uning davrida mamlakat asosan mang'it urug'idan chiqqan otaliq Muhammad Hakimbiy tomonidan boshqarilardi.

1747-yilda Abulfayzxon bir guruh fitnachilar tomonidan o'ldirildi. Muhammad Hakimbiy ham tez orada vafot etdi. Davlat ishlari Muhammad Hakimbiyning o'g'li Muhammad Rahimbiy qo'liga o'tdi.

Muhammad Rahimbiy Buxoroda cheklanmagan hokimiyatga ega bo'ldi. Lekin u Chingiz urug'idan bo'lmaganligi sababli o'zini xon deb atashga jur'at etmadi.

O'z hukmronligini qonunlashtirish uchun Muhammad Rahimbiy Abulfayzxonning kichik o'g'li Abdulmo'minga o'z qizini berdi va uni taxtga o'tqazdi. Oradan bir yil o'tgach Muhammad Rahimbiy Abdulmo'minni qatl ettirdi va uning o'mniga juda yosh bo'lgan Ubaydulla Sultonni Buxoro taxtiga chiqardi. Oradan oz vaqt o'tmay Muhammad Rahimbiy uni ham yo'q qilib Buxoroda yakka va mustaqil hukmronga aylandi. Muhammad Rahimbiy hukmronligi davridan boshlab Buxoro xonligi amirlik deb atala boshiandi.

Shunday qilib, Muhammad Rahimbiy 1753-yilda Buxoro taxtini egalladi. U o'ziga qarshi isyon ko'targan Shahrizabz, Urgut, Jizzax, O'ratepa, Xo'jand, Toshkent va boshqa beklklarda mavqeyini mustahkamlab olgach, o'zini amir deb e'lon qildi. Shu tariqa, Buxoroda mang'itlar sulolasi hukmronligi (1753–1920) qaror topdi. Shundan e'tiboran poytaxti Buxoro bo'lgan davlat Buxoro amirligi deb atala boshlandi.

1756-yil 17-dekabrda 4 o'zbek urug'i (mang'itlar, bahrinlar, xitoy-qipchoqlar, saroylar) amirlari Muhammad Rahimbiyni oq kigizda ko'tardilar. Mang'itlar sulolasidan chiqqan oliy hokim Muhammad Rahimbiy amirlik unvonini olgach, Buxoro amirligini yakka hokimlik asosida boshqardi va yirik zodagonlarning davlatni boshqarish ishlariga aralashishlariga imkon bermadi.

20.2. Buxoro xonligining ijtimoiy tuzumi

Buxoro amirligida oldingi asrlardagidek feodal yer egaligining uchala shakli ham, ya'ni davlat yer egaligi (amluk), xususiy yer egaligi (mulk), vaqf yer egaligi to'la saqlanib qolgan edi. Yer egaligining asosiy shakli bo'lgan davlat yer egaligi maydonida dehqonlar ishlagan. Ular xazinaga xiroj va boshqa soliqlar to'lab turisligan. XVII asrdan boshlab yerga

ishlashning tanho ko‘rinishi keng tarqalgan edi. Tanhodor yerning egasi bo‘lib, uning huquqi yerda ishlayotgan dehqondan soliq olish bilan cheklanardi. Suyurg‘ol qilib berilgan yerlar ham tanhoning bir ko‘rinishi hisoblanardi.

Bu davrda xususiy yer egaligi (mulk) ancha kengaydi. U ikki qismga bo‘lingan bo‘lib, uchdan ikki qismi davlat yeriga, uchdan bir qismi xususiy mulkka (mulki hurri xolis) ajralgan. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, renta solig‘i (xiroj, mavlud, jihod – favqulodda soliq) nafaqat davlat yerida, balki mulk yerida ham oshib bordi. XVIII asr boshiga kelganda amirlik soliqni oshirish yoki yangi soliq turini joriy qilishdan ham qo‘rqib qoldi. Jamoa tuzumi qoldig‘i hisoblangan dehqon jamoalari tugatilib, yangi ijtimoiy guruh ijarachi dehqonlar shakllana bordi. Shunday qilib, bu davrda yerga egalik va boylik yirik zodagonlar va ruhoniylar qo‘lida to‘plana bordi.

Buxoro amirligida soliq turlaridan eng ko‘zga ko‘rinarlisi xiroj edi. Xiroj hosilning ma‘lum qismini natural holda, ya‘ni mahsulot bilan to‘lanadigan soliq turi hisoblanardi.

XIX asr boshlariga kelib shahar va shahar atrofi yerlaridan xirojning ma‘lum qismi pul ko‘rinishida undirila boshlangan. Bu davrda Buxoro amirligi soliq tizimida XVI–XVIII asr birinchi yarmiga nisbatan alohida o‘zgarish ko‘zga tashlanmaydi. Qonunlashtirilgan yer solig‘idan tashqari dehqonlar zimmasiga har bir tanob bog‘ yoki poliz yeriga alohida soliq – tanob puli, bedazorlarga alaf puli solinardi. Bu soliqlarning miqdori yer maydoniga ko‘ra turlicha bo‘lardi.

XIX asrning 50-yillari oxirida, Amir Nasrullo (1826–1860) davrida bu soliqlarga o‘zgartirishlar kiritildi. Ya‘ni, polizlarga yangi soliq – qo‘sh puli belgilandi. Bunda qo‘shga qo‘shiladigan va mavsumda ma‘lum yer maydonini hayday oladigan har bir juft ho‘kiz hisobga olinardi.

Boshqa soliqlar orasida zakot deb atalgan davlat solig‘i (soliq solinadigan narsa qiymatining qirqdan bir ulushi miqdorida) eng muhim soliq edi. Chorvachilik hududlarida qoramoldan zakot mahsulot bilan olinardi. Bundan tashqari to‘la, daloli, suv haqi, puli taxta joy, yaksara, nimsara kabi soliq turlari ham mavjud edi.

Buxoro amirligidagi shahar aholisining ko‘pchiligini hunarmandlar va savdogarlar tashkil etardi. Aholining katta qismi fuqaro deb atalardi. Harbiy boshliqlar, amaldorlar o‘zi egallab turgan lavozimi, daromadi, turmush tarzi, hatto kiyinishi bilan oddiy fuqarodan ajralib turardi. Amir boshliq yirik zodagonlar karvonsaroy, bozor, do‘kon va boshqa daromad manbayi bo‘lgan joylarning egasi hisoblanib, ular bu joylarni ijaraga berishar va savdo-sotiq ishlaridan katta foyda olishardi. Hunarmandlar va mardikorlarning ahvoli juda og‘ir edi. Ular xizmatiga juda kam haq to‘lanardi. Shunday bo‘lsa ham qishloq aholisi o‘z tirikchiligini o‘tkazish

uchun shaharga kelishardi. Chunki qishloqlarda ahvol yanada og'irroq bo'lib mehnatkashlarning kunini o'tkazishi ham muammo edi.

Buxoro amirligida qishloq aholisining 25 foizi yersiz dehqonlar edi. Ular katta yer egalari yollanib ishlashga majbur edilar. O'z mehnatlari uchun dehqonlar mavsumda 10 so'mdan 20 so'mgacha haq olishardi.

Mang'itlar sulolasi davrida ham oldingi davrlarga xos ijtimoiy tabaqalar saqlanib qolindi. Ularning ijtimoiy ahvolidagi aydarlik o'zgarishlar ko'zga tashlanmaydi. Odatdagidek, oliy tabaqa hisoblangan amir va saroy ayonlari (vaziru vuzaro) ijtimoiy jihatdan eng katta imtiyozlarga ega bo'lgan tabaqa edi. Davlat boshqaruvida u yoki bu darajada ishtirok etadigan harbiy-ma'muriy amaldorlar (umaro) ham nufuzli ijtimoiy tabaqa sifatida o'z ahamiyatini saqlab qoldilar.

O'zlarini oqsuyaklar deb boshqa barcha aholidan ustun qo'yadigan, Muhammad payg'ambar avlodlaridan hisoblangan sayyidlar hamda xo'jalar (ular o'z avlodlari shajarasiga ega bo'lishlari shart edi) bir qator imtiyozlarga ega bo'lgan tabaqa bo'lib, ular boshqa ijtimoiy tabaqalardan ajralib turishardi. Xususan, har qanday boy-badavlat kishi bu ijtimoiy tabaqaga mansub bo'la olmas edi. Agar boshqa ijtimoiy tabaqalar o'rtasida qat'iy chegara yo'q bo'lib, oddiy fuqaro ma'lum vaziyatda amaldorga aylanishi mumkin bo'lsa, lekin boshqa hech qaysi ijtimoiy tabaqa vakili bu «oqsuyak» tabaqadan o'rin ololmasdi. Bu oliy nasab faqat avloddan avlodga o'tar edi.

Bu davrda jamiyat madaniy hayotiga mas'ul bo'lgan ijtimoiy guruhlar: olimlar, shoirlar, mudarrislar, talabalar hayotida ham jiddiy o'zgarishlar ro'y bermadi. Asosiy soliq to'lovchi aholi, jamiyatdagi barcha moddiy boyliklarni yaratuvchi ijtimoiy tabaqa – raiyat (fuqaro) ijtimoiy pog'onaning quyi qismida qolib, ijtimoiy adolatsizliklarning asosiy og'irligi ular zimmasida edi. Buxoro amirligida qulchilik bu davrda ham saqlanib qolindi. Qullar asosan rus, eron millatlarga mansub bo'lib, ular harbiy talonchilik yurishlari paytida qo'lga olinardi va ko'pincha turkman hamda qozoqlar tomonidan Buxoro bozorida sotilar edi. Manbalarda har biri 40 tagacha qulga egalik qiluvchi badavlat buxoroliklar borligi haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Bu qulchilikning ancha keng rivojlanganligini ko'rsatib turibdi. Amirlikdagi ijtimoiy tuzum haqida fikr yuritganda shuni e'tiborga olish kerakki, aholini tabaqalarga bo'lishda ularning qaysi millat yoki urug'ga mansubligiga ham e'tibor berishgan. Masalan, ba'zi manbalarda amirlikdagi barcha aholi quyidagi tabaqalarga bo'lingan hoida keltiriladi:

1. Oqsuyaklar. Ularga Muhammad payg'ambar avlodlari hisoblangan sayyidlar hamda xo'jalar kirgan.

2. Urug'dorlar. Ularga o'z urug'iga ega barcha aholi, ya'ni o'zbeklar mansub bo'lgan.

3. Shogirdpesha. Ularga tojiklar, forslar mansub bo‘lgan.

4. Mullalar. Ularga madrasani tugatgan va yetarli bilimga ega bo‘lgan o‘qimishli barcha kishilar kirgan.

Bu tabaqalarning barchasi o‘z navbatida sipoyi, ya’ni davlat xizmatida bo‘lgan amaldorlarga va fuqarolarga bo‘lingan.

20.3. Buxoro xonligi davrida markaziy va mahalliy hokimiyat hamda boshqaruv organlari

Buxoro amirligining davlat tuzumi ashtarxoniylar hukmronlik qilgan Buxoro xonligining davlat tuzumidan kam farq qilgan. Bu davrda davlat boshlig‘i – amirning hokimiyati tobora cheklanmagan xarakterga ega bo‘lib borgan. Umuman XIX asrda Buxoro amirligi yakka hokim boshchiligidagi markazlashgan davlat edi. Davlat mutlaq qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatga ega bo‘lgan **amir** tomonidan idora etilardi. Davlat hayotiga taalluqli eng muhim siyosiy, iqtisodiy, diniy va boshqa shu kabi masalalar Buxorodagi bosh qarorgoh – Arkda hal etilardi. Arkda amir va uning oilasidan tashqari qushbegi, shig‘ovul, to‘pchiboshi, mirzaboshi va boshqa ba’zi saroy amaldorlari, ularning oilalari, xizmatkorlari yashaganlar. Vaqti-vaqti bilan Davlat Kengashi chaqirilib turilardi. Odatda 5 tadan 20 tagacha eng yuqori amaldorlar a’zo bo‘lgan bu kengashda davlat hayotiga taalluqli o‘ta muhim masalalar ko‘rib chiqilardi.

Mang‘itlar davrida ham davlat boshqaruvi asosan ikki bo‘g‘inli, ya’ni markaziy va mahalliy boshqaruvdan iborat bo‘lib, ularning har biri musulmon davlatlariga xos bo‘lgan murakkab boshqaruv tarmoqlariga ega edi. Markaziy ijroiya hokimiyat saroy a’yonlaridan tashkil topgan edi. Mang‘itlar sulolasi davrida davlat boshqaruvida qushbegi mansabini egallagan kishining mavqeyi juda oshib ketdi. Bu mansab egasi amalda bosh vazir hisoblanardi. Davlat boshqaruvida devonbegi, parvonachi, otaliq, dodxoh, xudoychi, mirzaboshi va boshqa saroy a’yonlarining hamda shayxulislom, qozikalon kabi diniy rahbarlarning ham ahamiyati yuqori edi.

Amir Shohmurod o‘z hukmronligi davrida hokimiyatni boshqarish tartiblarini qayta tuzdi. Uning hukmronligi davrida moliya, sud, ma’muriy va harbiy ishlar sohalarida islohotlar o‘tkazildi. Bu islohotlarni Shohmurod xalqning norozilik qo‘zg‘olonlari tufayli o‘tkazgan edi.

Rivoyatlarga ko‘ra, Shohmurod mamlakatda tartib o‘rnatish uchun manmanlikka berilib, amirni ham mensimaslikkacha borib yetgan, qushbegi va qozikalonni xalqning ko‘zi oldida o‘ldirtirgan. Davlatni boshqarish ishlarida dindorlar (ruhoniylar) ta’siri ancha kuchaytirildi. Amir Shohmurod o‘z davlatida osoyishtalik o‘rnatib, ichki tarqoqlikka

qarshi kurashdi, suv inshootlarini tartibga solishda bir qancha tadbirlarni amalga oshirdi.

Bu islohotlar ichida davlat boshlig'i unvonining o'zgartirilishi ham diqqatga sazovordir. Shohmurod turkiy xalqlarda udum bo'lib kelgan xonlik unvonidan voz kechib, amirlik unvonini oldi, ushbu yangilik Buxoroning islom davlati, uning hukmdori esa musulmonlar amiri ekanligiga hamda otasi Doniyolbiy xon emas, otaliq mansabida bo'lganligiga ishora edi. Shohmurodbiy joriy etgan bu unvonni so'nggi mang'it hukmdorlari 1920-yilgacha qo'llab keldilar.

Shohmurod soliqlardan ezilgan xalqning harakati kuchaygan vaqtda taxtga o'tirganligi uchun ham birinchi islohotni soliqlarni tartibga solishdan boshladi. Butun Buxoro shahri aholisiga tarxon yorlig'i berib, o'zidan avvalgi hukmdorlar joriy qilgan, shariatga to'g'ri kelmaydigan yorg'u, boj, tarx, tushmol, yasoq kabi soliqlarni bekor qildi.

Bu islohotlar ichida, ayniqsa, sud islohoti diqqatga sazovordir. Unga ko'ra, har bir musulmon, hatto qul ham qoziga o'z shikoyati bilan kelishga va g'ayriqonuniy ish qilayotgan o'z xo'jayimini javobgarlikka tortishga haqli edi.

Bunday qoida o'sha vaqtdagi Buxoro amirligidagina emas, butun Turkiston davlatlarida sudlovni ijobiylashtirish uchun tashlangan katta qadam bo'ldi. Bundan tashqari, qirq a'lamdan (qonunshunoslardan) iborat oliy sud (qozixonona) palatasi tuzildi. Uning a'zolari shariat huquqi asosida Shohmurodning o'zi tuzib bergan to'plamni qo'llariga olib, arz va shikoyatlarni hal etishda unga qarab ish ko'radigan bo'lganlar.

Bu oliy qozixonada ish ko'rilayotganda amirning o'zi bosh bo'lib turgan. Shu boisdan mazkur tashkilotni amirning oliy sudi deb atash mumkin. Bundan tashqari, sudda ish ko'rilayotganda da'vogarning shaxsan o'zi ishtirok etishi talab qilingan. Tumanlar va kattaroq qishloqlarga (qasabalarga) qozilar tayinlash ham u kiritgan yangiliklardan bo'ldi.

Shunday qilib, Amir Shohmurod davrida Buxoro amirligida yangi sud tizimi: qasaba, tuman, viloyat qozilari, Bosh qozi hamda qirq a'lam sudi vujudga kelib, eng oliy qozi amirning o'zi edi.

Mansablar tizimi borasida shuni aytish mumkinki, ularning yuqorida aytib o'tilgan bo'g'inlari, umuman, o'zgarishsiz saqlanib qolgan bo'lsa-da, ba'zilar o'z umrini tugatdi yoki o'mini boshqa mansablarga bo'shatib berdi (masalan, arablar ishlari devoni, chig'atoy begi va boshqalar). Ilgari muayyan mansabdagi shaxs aynan shunga mos vazifani bajarishi lozim bo'lsa, endi unvonlar mansabsiz, ya'ni faxriy bo'la boshladi. Davlat mansablari ichida bu davrda qushbегining ma'muriy mavqeyi birinchi o'ringa chiqdi. Moliya, soliq, asosan, soliq undirish ishlarini boshqarib turuvchi amaldor undan keyin turib, qulli qushbegi deb ataladigan bo'ldi.

Barcha harbiy qismlar, jumladan, Buxoro shahar garnizoni boshlig'ining mansabi endi to'pchiboshi qo'liga o'tdi.

Mang'itlar sulolasi davrida o'tkazilgan ma'muriy islohotlar tufayli davlatning asosiy ma'muriy birligi bekliliklar bo'lib qoldi. Amirlik hududi eng kengaygan Amir Nasrullo hukmronligi davrida Buxoro tarkibida asosan 30 ta beklilik bor edi.

Mahalliy boshqaruv viloyat beklari qo'lida edi. Ularning ham, odatdagidek, o'z boshqaruv tizimi mavjud bo'lib, mirshabboshi, soliq yig'uvchi amaldorlar (tanobchi, zakotchi), qozi, rais kabi diniy mansabdorlar, qishloq oqsoqollari yordamida bekliliklar idora qilinardi. Viloyat beklari odatda amir tomonidan tayinlanar, ko'p hollarda bu lavozimga mang'it urug'idan bo'lgan kishilar loyiq ko'rilardi.

Poytaxt shahar Buxoro va atrofdagi tumanlar amir tomonidan boshqarilgan. Bekliklar o'z navbatida kichik hududiy bo'linma – amlokdorliklarga bo'lingan bo'lib, ularni boshlig'i amlokdor deb atalardi. Davlatning ma'muriy tuzilishidagi eng quyi bo'g'ini oqsoqol tomonidan boshqariladigan qishloq jamoalari bo'lgan.

20.4. Buxoro xonligi huquqining asosiy belgilari

Buxoro amirligining huquq manbalarini islom huquqi (shariat), dunyoviy huquq (amirlarning farmonlari, yorliqlari) va odat huquqi tashkil etgan. Bu davrda huquq manbalarining xilma-xilligidan qat'i nazar, shariat ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda markaziy o'rinda turgan.

Boshqa manbalar shariatga zid kelmasagina qo'llanilardi. Shuning uchun bu davrlarda ham, xuddi avvalgi davrlardagidek, islom huquqining to'rt manbayi: Qur'on, Sunna-hadislar, ijmo, qiyos asosiy manbalar hisoblangan. Ular asosida yaratilgan Burxoniddin al-Marg'inoniyning «Hidoya» asari Ubaydulla bin Mahbubiy tomonidan unga yozilgan «Muxtasar» kabi fiqhiy qo'llanmalar avvalgidek o'z ahamiyatini saqlab qoldi va keng qo'llanildi. Bulardan tashqari, jinoyat huquqi borasida hatto shariatga zid bo'lgan mezonlar va jazo choralari (masalan, «empale») bo'lgan. Ular aniq bir huquqiy holatga nisbatan hukmdor tomonidan belgilangan. Shuning uchun shu davr huquqini o'rganishda sayyohlar va boshqa kishilar tomonidan yozib qoldirilgan esdaliklar ham ma'lum darajada huquqni o'rganish manbayi bo'lib xizmat qiladi. XVIII asrda yozilgan tarixiy-huquqiy manbalardan bo'lgan «Majma' al-arqam» («Raqamlar va ruqum (siyoqat)lar haqidagi») rasmiy qoidalar to'plami¹ huquqni o'rganish manbayi sifatida kam tadqiq qilingan.

¹ *Мирза Боди Диван. «Маджма ал-акрам» («Предписания фиска»).* – М., «Наука», 1981, с 123.

Bu asar O'zbekiston davlati va huquqi tarixidan bizgacha ham yetib kelgan va o'xshashi yo'q manbalardandir. Unda moliya, yer, soliq, hisob-kitoblarni yuritish bo'yicha rasmiy qoidalar va tavsiyalar berilgan bo'lib, amir devonidagi amaldorlar uchun ish yuritishga oid rasmiy qo'llanma hisoblanadi. Bulardan tashqari, soliqlar va boshqa tushumlar ro'yxati, xarajat qaydnomalari, yer mulklarini ehson, sovg'a qilish hujjatlarining mazmuni va shakli XVIII asrda Buxoro amirligidagi davlat mansablari, ularning vazifalari va suv taqsimotiga oid qimmatli ma'lumotlarni olish mumkin. Risola ma'lum ma'noda amir Shohimurod topshirig'iga binoan 1789-yilda yozilgan.

Besh bob va mansablar haqidagi ilovadan iborat bu qo'llanmada davlat devonida xizmatni qanday o'tash, kirim-chiqim daftarlari, davlatning ma'muriy xo'jalik bo'linishi tamoyillari yoritilgan. Movarounnahr va Sharq davlatlarida davlat kirim-chiqimlari, xazina boylıkları miqdorini sir tutish va uni o'zgartirish, soxtalashtirishning oldini olish maqsadida faqat katta mirzolarigagina ma'lum bo'lgan devon daftari ruqumlar va siyoqat (alohida raqamlar) bilan yozilgan. Kitobning ikkinchi, uchinchi boblari ana shunday yozuv va uning sirlariga, to'rtinchi bobi — arifmetika, geometriya, algebra hisob-kitoblari va qoidalariga bag'ishlangan. Beshinchi bob — falakiyot, arifmetik harakatlar jadvalidan iborat. Mansablar haqidagi ilovada XVIII asrda Buxoro amirligida mavjud bo'lgan 135 dan ortiq katta va kichik mansablar, vazifalar va ularning vakolatlari keltirilgan.

Risolada shu davrdagi Buxoroda mulk egaligimining shakllariga oid ma'lumotlar ham uchraydi. Jumladan, davlat yerlariga dehqonlar egalik qilib, soliq to'laganlar. Qizig'i shundaki, mo'g'ullar, Temur va temuriylar davridagi yer egaligi, suyurg'ol mang'itlar sulolasi davrida ham mavjud bo'lgan va uning egasi XVIII asrda ham ma'muriy daxlsizlikdan foydalangan. Bu yer mulkiga egalik xizmat evaziga berilib, merosiy hisoblangan, ammo asta-sekinlik bilan daxlsizlik huquqini yo'qota borgan. XVIII asrga kelib xizmat qiluvchi tabaqalarga amir oldidagi xizmatlari uchun beriladigan muvaqqat yer egaligi — tanho rivojlana boshlaydi. Yer egasi bunday yerlarda yashovchi dehqonlardan olinadigan soliqlarni qisman yoki to'la undirib olish huquqiga ega bo'lgan. Mamlakatning barcha pul va mablag' vositalari kitobda to'rt xazina — baytul molga bo'lingan. Ya'ni, keladigan manbayiga qarab, pul vositalari to'rtga bo'lingan deyish joizdir. Buni shartli ravishda Buxoro amirligi davlat budjeti daromad va xarajatlarining to'rt moddasi deb ham atash mumkin. Birinchisi — zakot, ushr va xums¹ soliqlaridan

¹ *Xums* — harbiy o'ljaning kambag'allar uchun ajratiladigan beshdan bir qismi.

keladigan mablag'lar to'plangan. Nazariy jihatdan olganda, bu mablag' kambag'al fuqaro va miskinlar uchun sarflanishi lozim bo'lgan. Ikkinchisi (yer solig'i sifatida to'lanadigan asosiy davlat solig'i) – jiz'ya va musulmon bo'lmagan savdogarlardan olinadigan soliqlardan tushadigan mablag'lar. Bu vositalar jangchilarga, amaldor va ruhoniylarga maosh to'lash hamda mamlakat obodonchiligi uchun sarflangan. Uchinchisi – xazinaga kirgan egasiz mulklar ularning mablag'lari kambag'allar, yetimlar, bemorlarga sarflangan, unga boshqa hech kimning haqi bo'lmagan. To'rtinchidan – xazinani topib olingan mulklar tashkil etib, zakotdan foydalanuvchilarga berilgan.

Kitobning XVIII asr Buxoro amirligining ma'muriy bo'linishini yoritib beradigan ma'lumotlari ham qimmatlidir. Unga ko'ra, Buxoro davlati viloyatlar, tumanlar, hazora, yarim hazora, obikor, qoria, marzalardan iborat bo'lgan.

Viloyat katta ma'muriy birlik bo'lib, u davlat boshlig'i tayinlaydigan hokimlar tomonidan boshqarilgan. «Buxoro mamlakatida shunday odat va qonun qaror topganki, agar biror viloyatda katta e'tiborga loyiq unvonli amaldor bo'lsa, uni islom podshosi (amir. – *Z.M.*) shu viloyatning o'ziga hokim qilib tayinlagan. Hokiin va qo'shinlarining xizmat haqlari ham o'sha hokimlikdan tushadi».¹

Demak, o'rta asrda Buxoroda ham xuddi Rossiyadagi singari «kormleniye» – boqimanda boshqarish tizimi mavjud bo'lganligini ko'rish mumkin. Qolgan ma'muriy hududiy birliklar asosiga sug'oriladigan yer miqdori qo'yilgan bo'lib, bunday boshqarish sug'orish bilan bog'liq dehqonchilik davlatiga xosdir. Yevropa mamlakatlarida biz bunday holni ko'rmaymiz. Jumladan, bir qator ariq (kanal) bilan sug'oriladigan 100 ming tanob² yer bir tumanni tashkil qilgan. Albatta, Buxoro amirligida tumanlar soni ko'p bo'lgan. «Majma' al-arqam»ning suvni taqsimlashga oid qismida Zarafshondan Qorako'lgacha bo'lgan o'n ikki tuman nomi keltirilgan. Bir katta ariq bilan sug'oriladigan 50 ming tanob yer hazora, 25 ming tanob yer yarim (nim) hazora, 10,15 ming tanob sug'oriladigan yer esa biror daryoning obikori, 400 tanob yerga ega aholi yashaydigan qishloq qoria, 300 tanob va undan kam yeri bo'lgan joy, aholi yashashi yoki yashamasligidan qat'i nazar, marza deb atalgan.

Buxoro amirligida ma'muriy-doiraviy bo'limish asosida aholi soni, jo'g'rofiy nomi quyilmay sug'oriladigan yer miqdori – tanob bilan belgilanganligi o'ziga xos xususiyatdir.

¹ *Мирза Боди Диван. Маджма ал-акрам. с 36.*

² *Tanob* – yer yuzasi (sathi)ning o'lcham hirligi, 2848m² ga teng.

«Majma' al-arqam»ning «Mansablar va unga aloqador bo'lgan shaxslar» haqidagi ilovasi faqat Buxoro amirligida emas, balki o'zbek xonliklarining hammasida ham mansablar tizimi, ularning vazifalari, bo'ysunish va maosh olish tartiblari haqida birinchi manba sifatida qimmatli ma'lumot beradi.

Buxoro islom davlati bo'lganligi uchun jinoyat va jazo masalasi islom huquqi asosida hal etilardi. Ammo Buxoro amirligiga turli yillarda elchi, josus yoki sayyoh bo'lib kelgan kishilarning xabar berishlaricha, bu sohada o'ziga xos xususiyatlar, jazoni ijro etish usullari ham bo'lgan. Bular tarixiy-huquqiy jihatdan ma'lum qiziqish uyg'otadi. Ma'lumki, Qur'onda sodir qilingan o'g'rilik uchun dastlab tan jazosi berish nazarda tutilgan. Sayyoh Filipp Yefremovning xabar berishicha, XVIII asrning 20-yillarida Buxoro amirligida o'g'rilik uchun erkak kishi osib o'ldirilgan, ayol kishi esa ko'kragigacha ko'milib, toshbo'ron qilib qatl etilgan. Agar odam o'ldirish yoki tanga jarohat yetkazishi jinoyati sodir etilgan bo'lsa, otaliq aybdorni tutib, o'ldirgan yoki uni yarador qilgan odamning qarindoshlariga ushlab bergan. Ular esa aybdorni islom huquqidagi «tishga-tish», «ko'zga-ko'z» qoidasiga ko'ra jazolaganlar, yarador qilgan bo'lsa, yarador qilishgan, o'ldirgan bo'lsa, qatl etishgan. Bu dalillardan o'sha davrlarda o'ldirilgan odam uchun qon bahosi – **xun undirish** kam uchragan yoki sayyoh uni ko'rmagan, degan xulosa chiqarish mumkin. Agar er xotinini boshqa bir shaxs bilan jinsiy aloqa ustida topib, uni guvohlantirsa, zinokorlarning ikkisi ham o'ldirilib, ularning qarindoshlariga xabar berilgan. Ular esa o'liklarni olib ko'maganlar, shu bilan hech qanday sud bo'lmagan. Shundan ko'rinib turibdiki, bunday og'ir jinoyatlarga sudsiz, tergovsiz jazo berilgan.

Buxoro shahri katta–kichik 366 mavzega bo'linib, har biri o'z masjidiga ega bo'lgan, mavzega odatda, keksa savdogarlardan oqsoqol saylanganligi uchun ham shaharliklar uning odilligiga ko'proq ishonishgan. Unga o'z mavzelaridagi savdogarlar orasida vujudga keladigan mayda–chuyda ishlarni ko'rish topshirilgan. Agar oqsoqolning qarori tomonlarni qanoatlantirmasa, ish qoziga, murakkab hollarda esa, qushbegiga o'tkazilgan. Uning qarori ustidan shikoyat qilib bo'lmagan.

Amir Haydar davridan boshlab jazolar Registon maydonida, keyinchalik esa, o'tin bozorida, shuningdek, Nodir Devonbegi madrasasi oldidagi hovuz (labihovuz) bo'yida ijro etilgan. «Men Buxoroda bo'lgan vaqtimda, – deb yozadi P. I. Demizon, – ikki kishi, biri odam o'ldirganligi va biri o'g'rilik qilganligi uchun osib o'ldirish yo'li bilan qatl etildi. Odatga ko'ra, osishdan oldin avval halqumini qirqib, keyin dorga tortadilar. Agar hukm ijro etilishi oldidan «bo'g'ulsin» deb yuborilsa, to'g'ridan to'g'ri dorga tortishadi.»¹

¹ Записки о Бухарском ханстве. – М., «Наука», 1983, 58-стр.

Alohida hollarda amir biron-bir jinoyatning sodir etilmasligi uchun qoʻrquv hissini uygʻotmoqchi boʻlsa, Mir Arab madrasasi oldidagi Minorayi Kalon (Katta mimora)dan uloqtirish yoʻli bilan qatl etishga hukm qilgan. Odam oʻldirganlik va yaqin qarindoshlari bilan jinsiy aloqa qilganlik uchun qoʻllanilgan mana shunday jazoning ijro etilishini P.I. Demizon oʻz koʻzi bilan koʻrgan. Buxoro qamoqxonalari haqida u quyidagilarni yozib qoldirgan: «Ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm qilingan mahbuslar jazoni «bitxona», «kanaxona» deb ataluvchi xonalarda (oʻralarda) oʻtaydiki, bu ham oʻlim bilan barobardir, chunki Buxoro turmalari dahshatli chayonlar va chaqadigan boshqa zaharli hasharotlarga toʻldirilardi, ana shunday xonalarga tashlangan mahbuslar 2–3 kunda halok boʻlardi. «Buxoroda ikkita qamoqxona boʻlib, saroyda joylashgan. Bittasida davlat jmayatchilari saqlangan, ikkinchisi shaharda, Mir Arab madrasasidan uzoq boʻlmagan joyda edi. Kam ahamiyatli jinoyatlar uchun aybdorning tovoniga yoki koʻkragiga urish bilan chegaralanilgan. Buxoroda kaltak bilan jazolashning keng qoʻllanilishini 1836-yilda bu yerga elchi boʻlib kelgan P.I. Vitkevich ham koʻrgan. Umuman, uning guvohlik berishicha, jazolashi yoʻgʻon kaltak bilan urib amalga oshirilgan, yana shu darajadagi, mahkumning suyaklari sinardi yoki u oʻlardi. Albatta, bu taʼriflar uni koʻrgan kishining dunyoqarashi, hissiyoti, qabul qilishi bilan yoʻgʻrilgan. Lekin bu guvohliklar muayyan darajada boshqa manbalardagi maʼlumotlarga ham toʻgʻri keladi.

P.I. Vitkevich devordan itarib yuborish jazosi ham boʻlganligini yozib, uni oʻz koʻzi bilan koʻrganligini aytadi. Buxoro shahrining devorlari mustahkam, darvozadan kirish joyida, devor ustida maydoncha boʻlib, ikki kishi oʻgʻrilik qilganligi uchun uning koʻzi oldida shu yerdan itarib yuborilgan. Ulardan birining qoʻli sinib, ikkinchisining esa badanlari moʻmataloq boʻlib ketgan. Bularning hammasi faqat Buxoro amirhigiga emas, balki oʻzbek xonliklarining barchasiga xos jazolash tizimi edi. Yaʼni, jmayot va jazo masalalarida mahalliy hukmdorlar faqat shariat koʻrsatmalarigagina amal qilib qolmay, oʻzlari maʼqul deb hisoblagan jazolarga, uni ijro etish usullariga ham hukm qilganlar. Yuqorida keltirilgan jinoiy jazolarning koʻpgina turlari islom huquqining biror manbayida koʻrsatilmagan boʻlsada, mufti va qozilar ularni targʻib etib, fatvo berib hukm qilganlar. Chunki jazoning asosiy maqsadi yetkazilgan zararni qoplash, oʻch olish, xun undirish, qoʻrqitishdan iborat edi.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

- 1. Buxoro xonligining vujudga kelishi haqida gapirib bering.*
- 2. Buxoro xonligining ijtimoiy tuzumi qanday boʻlganligi haqida gapirib bering.*

3. *Buxoro xonligi davrida soliq va uning turlari qanday ko‘rinishda bo‘lgan?*
4. *Buxoro xonligida ijtimoiy guruh va tabaqalarni sanab o‘ting.*
5. *Markaziy boshqaruv organlari qanday bo‘lganligi haqida gapirib bering.*
6. *Mahalliy boshqaruv qanday amalga oshirilganligi haqida gapirib bering.*
7. *Shohmurod qanday islohotlarni amalga oshirganligi haqida gapirib bering.*
8. *Buxoro xonligi huquqining asosiy belgilari nimalardan iborat bo‘lganligi haqida gapirib bering.*

21-MAVZU: XIVA XONLIGINING IJTIMOIIY-SIYOSIIY TUZUMI

1. Xiva xonligining tashkil topishi.
2. Xiva xonligining ijtimoiy tuzumi.
3. Xiva xonligining davlat tuzumi.
4. Xiva xonligi davrida davlat huquqining asosiy belgilari.

21.1. Xiva xonligining tashkil topishi

Ma'lumki, Xorazm XIV-XV asrlarda temuriylar tasarrufi ostida edi.

XVI asr boshidan butun Movarounnahrni temuriylardan tortib olgan Muhammad Shayboniyxon boshliq ko‘chmanchi o‘zbek qabilalari Xorazmni ham egallab olish uchun yurish qilishdi. Sufiylar sulolasidan bo‘lgan Xorazm hukmdori Chin Sufi temuriy Sulton Husayndan yordam so‘rab Muhammad Shayboniyxon hujumiga qattiq qarshilik ko‘rsatdi. Yordam yetib kelmagach, 10 oylik qamaldan keyin Urganch Muhammad Shayboniyxon tomonidan egallandi. Natijada Xorazm ham Shayboniylar davlati tarkibiga kirdi.

1510-yilda Shayboniyxon vafotidan keyin Xorazm Eron shohi Ismoil Safoviy hukmronligi ostiga tushib qoldi.

Xorazmda Eron shohining 3 ta dorug‘asi tayinlandi. Lekin Vazir shahrining qozisi Umar Shayx tashabbusi bilan Xorazmda eronliklarga qarshi kuchli xalq harakati ko‘tarildi. Xorazmning obro‘li shayxlaridan bo‘lgan Shayx ota avlodlari Dashti qipchoqlik o‘zbeklar yo‘lboshchisi Elbarsxonga Xorazm taxtini taklif qildilar. Uning qo‘shinlari qisqa fursatda Vazir shahrini (Ustyurtda, ko‘hna Urganchdan 60 km cha uzoqlikda joylashgan bu shahar XV asrda o‘zbek xonlaridan Mustafaxon tomonidan barpo etilgan) egallab, vohadagi barcha shaharlardan

eronliklarni quvib chiqardilar. Elbarsxon (1712–1780/81) Xorazm poytaxti hisoblangan Urganch shahrini ham qo‘lga kiritdi va amalda mustaqil xonlikka asos soldi. U tez orada xonlik hududini birmuncha kengaytirdi. Hozirgi Turkmanistonning janubiy qismini, Eronning shimolidagi Seraxs tumanini, Orolni va Mang‘ishloqni egalladi. Vafotidan so‘ng vorislari hukmronlik qildilar. Xususan, XVI asrda Xorazmni uning avlodlaridan Berikach Sulton, Sultonhoji, So‘fiyonxon, Sultong‘ozi, Avanushxon, Qolxon, Aqatoyxon, Do‘stxon, Hojlmxon, Nurmuhammadxon kabi xonlar boshqarib turganlar. Shayboniy Ubaydullaxon 1537–1538-yillarda Xorazmda qisqa muddat o‘z hukmronligini o‘rnatishga erishgan bo‘lsa-da, Avanushxon vorislari tomonidan tezda Xorazm ozod etildi. XVI asrning ikkinchi yarmida Abdullaxon Ikkinchi Xorazmni bo‘ysundirish uchun harakat qildi. Bir necha marta vohaga uyushtirilgan istilochilik yurishlaridan so‘ng, 1593-yilda Xorazm ham Buxoro xonligi tarkibiga qo‘shildi. Lekin, Abdullaxon Ikkinchining o‘limidan so‘ng shayboniylar davlatida boshlangan o‘zaro ichki nizolardan so‘ng Xorazm yana mustaqil davlatga aylandi.

XVI asrning 70-yillarida Xorazm poytaxti Urganchdan Xiva shahriga ko‘chiriladi. Unga Amudaryo o‘zanining o‘zgarib Kaspiy dengiziga oqmay qo‘yishi, Urganch va uning atroflarida suv tanqisligi yuz berganligi sabab bo‘ldi.

Poytaxt Xivaga ko‘chirilgandan so‘ng Xorazmdagi bu davlat poytaxt shahar nomi bilan Xiva xonligi deb atala boshlandi.

21.2. Xiva xonligining ijtimoiy tuzumi

Xiva xonligi O‘zbekiston hududidagi boshqa davlatlar singari agrar davlat edi. Uning aholisi asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangan. Xonlikda yerdan foydalanishning quyidagi shakllari bo‘lgan: davlat yerlari, vaqf yer egaligi va xususiy yer mulklari. Bulardan tashqari, xonlikda urug‘larga tegishli jamoa yerlari ham bo‘lib, u yerlar ijtimoiy tabaqalanishning kuchayishi natijasida ayrim kishilar qo‘liga o‘tib borgan va asta-sekin xususiy yer mulklariga aylamb ketgan.

Yerlarning asosiy qismi davlatga qarashli bo‘lgan. Ular amlok yerlar yoki podsholik yerlari deb atalgan. Davlat yerlari xon va uning yaqinlariga tegishli bo‘lib, odatda ular suv manbalariga yaqin hosildor yer mulklaridan iborat edi.

Bunday yerlar dehqonlarga bo‘lib berilib, merosga o‘tkazilgan, dehqonlar esa u yerlarni ishlab, davlatga soliq to‘lab turganlar. Ba’zi dehqonlarga bo‘lib berilgan yerlarni hamda undiriladigan soliqning bir qismini xonlar ularga hadya qilib yuborishgan.

XVII–XVIII asrlarda feodallar yerlarni tortiq sifatida emas, balki

sotib olishga harakat qilishgan va bunday yerlar xususiy mulk sifatida barcha soliqlardan ozod hisoblangan. Bitimlar davlat nomidan tuzilganligi uchun xon ularni tuzishda shaxsan qatnashgan. Bitim tuzilgach, yerlar davlatdan sotib olinganligi haqida vasiqalar berilgan.

Tanho yerlari xonga yoki davlatga ko'rsatgan xizmatlari evaziga in'om etilgan. Yuqoridagidan farqli o'laroq, bunday yerlarni merosga qoldirish, bировga o'tkazish man etilib, ulardan faqat vaqtincha foydalanish mumkin bo'lgan.

Vaqf yerlari ham keng tarqalgan bo'lib, sug'oriladigan va aholi yashaydigan yerlarning 40 foizga yaqinini tashkil qilardi. Vaqf yerlari ishlab foydalanish uchun alohida shartlar asosida ijara berilgan. Xiva xonligida vaqflar turlariga qarab har xil, masalan, soliqlardan ozod etilgan vaqf – oq vaqf, soliq undiriladigan vaqf esa qora vaqf deb nomlangan.

Vaqf yerlarga odatdagidek, madrasalar va diniy mahkamalar, masjidlar, qabristonlar xarajatlarini uchun ajratilgan yer-mulklar kirgan.

Bundan tashqari, xususiy egalikdagi yer-suvlar mulklar deb atalgan. Xiva xonligida shartli yer egaligining boshqa xonliklarda uchramaydigan o'ziga xos turi mavjud bo'lib, u otliq deb atalgan. Xonlar harbiy yurishlar vaqtida o'zlariga turkman otliqlarini tayanch qilib, har otliq hisobiga foydalanish uchun 30–50 tanob (12–20 chek) yer mulki joriy qilganlar. Bunga ko'ra, otliq yerini olgan yer egasi xon talabi bilan bir otliq askarni qurollantirib, xon huzuriga yuborgan.

Xususiy shaxslarga tegishli yer-mulklar ichida yirik mansabdor, harbiy-ma'muriy va diniy amaldorlarga tegishli yer-mulklar katta foizni tashkil etardi. Qishloq jamoalari egalik qiladigan yerlar dehqonlarga, odatda, 8–12 tanob qilib bo'lib berilgan. Dehqon bu yerda o'z oila a'zolari yordamida ishlagan. Hosilni yigish paytida hashar usulidan foydalanganlar yoki chetdan odam yollaganlar.

Yerlarni ishlovchilar asosan, dehqonlar bo'lib, ular davlat dehqonlari, xususiy yerlardagi dehqonlar, vaqf yerlaridagi dehqonlar, yersiz dehqonlarga bo'lingan. Xiva xonligida qulchilik mavjud bo'lgan, qullardan uy-ro'zg'or ishlaridagina emas, balki dehqonchilikda ham keng foydalanilgan. Ammo ular ma'lum pul evaziga ozod qilinishi mumkin edi. Xonlikning ko'p yerlariga ega bo'lgan mayda dehqonlar turli xil majburiyatlarni bajarishardi. Eng ko'p tarqalgan majburiyatlardan biri «begor» bo'lib, bu Rossiya krepostnoy dehqonlari orasida amalda bo'lgan «barshchina»dan ham og'irroq majburiyat turi edi. Bunday ishlab berish muddati 12 kundan 50 kungacha cho'zilib, to'g'onlar bunyod etish, ariqlar qazish, yo'llar qurish va sozlashda, amaldorlarga saroylar qurishda keng qo'llanilgan. Har yili butun aholi ana shu ishlarga safarbar qilingan. Bu yerda asosan, chig'ir bilan suv chiqarib va sho'rxok yerlarni o'zlashtirib, ekin ekilishi sababli dehqonga hosilning 75 foizigacha qoldirilgan.

Yersiz dehqonlar baliqchilik va boshqa ishlar bilan shug'ullanganlar. Xonlikda soliq, majburiyat va o'lponlarning 25 ga yaqin turi bo'lgan. Davlat boshqaruvi, mansabdor shaxslar yoki armiya soliqlar hisobiga tutib turilgan. Asosan xiroj, ushr, zakot, barot, jiz'ya, boj va boshqa shu kabi soliqlar undirib olingan. Ularning miqdori shariatda belgilanganidek bo'lgan. Xiroj yerdan foydalangani uchun olinadigan asosiy davlat solig'i bo'lib, solg'it deb ham yuritilgan. Ushr dehqonlardan daromadning $\frac{1}{10}$ qismi miqdorida olinadigan soliq edi. Zakot – mulk qiymatining $\frac{1}{40}$ qismini davlat foydasiga olish, barot – yil boshida yoki bir necha yillik soliqni avvaldan undirib olish bo'lgan. Shuningdek chorvador aholidan o'tloq va yaylovlarda mol boqqanlik uchun cho'p puli undirib olingan.

XIX asrning boshlarida Muhammad Rahimxon I o'tkazgan soliq islohoti natijasida soliqlar pul bilan undirilib, davlat xazinasiga topshiriladigan bo'ldi. Soliq miqdori dehqonlarning yer maydonlari hajmiga nisbatan olinishi belgilandi. Jumladan, yer 10 tanob (4 ga)dan ortiq bo'lsa, soliq 3 tilla, 5–10 tanobgacha – 2 tilla, 5 tanobdan kam bo'lsa, yiliga 1 tilla qilib belgilandi. Ammo yersiz hamda davlat yerlarida chorikor bo'lib ishlaydigan dehqonlar ham soliq to'lashga majbur edilar. Agar 15 tanob yerda chorikor bo'lsa, 34 tanga, 10 tanob yerga – 34 tanga yoki 3 dan 2 qismi, 5 tanob yerda bo'lsa, 34 tanga yoki 3 dan 1 qismi miqdorida soliq to'langan.

Albatta, Xiva xonligida soliqlarning turlari, miqdori, undirish tartibi hamma davrda ham bir xil bo'lgan deyish qiyin. Lekin hukmron sulolalar va ularning vakillari o'zgarib turgan bo'lsa-da, bu yerda soliq tizimi boshqa xonliklardagidan ko'p farq qilmagan.

Xonlikning ijtimoiy tuzumi yaqqol ko'rinishda tabaqalangan edi. Aholining turli qatlamlari turlicha huquqiy holatdan foydalanardi.

Yakka hokimlikka asoslangan o'rta asr musulmon davlatlarida bo'lganidek, xon va uning a'yonlari katta ijtimoiy huquqlarga ega edi. Lekin bu mustahkam qonunlar bilan kafolatlanmagan bo'lib, hokimiyatga, ya'ni cheklanmagan ijtimoiy huquqlarga ega bo'lishga intiluvchi kuchlar tomonidan doimiy ravishda xon hokimiyatiga katta xavf mavjud edi.

Saroy amaldorlari, markaziy va mahalliy boshqaruvning yuqori pog'onalarini egallab turgan ijtimoiy tabaqalar, harbiy-ma'muriy amaldor va mansab egalari katta huquq va imtiyozlarga ega ijtimoiy tabaqa edi.

Daxsiz huquqlarga, aholining barcha ijtimoiy tabaqalariga katta ta'sir ko'rsatish kuchiga ega bo'lgan oqsuyak tabaqa – mahalliy shayxlar va xo'jalardan Sayld ota, Darvish shayxlari avlodlari xonlikdagi eng nufuzli ijtimoiy tabaqa hisoblanardi. Katta miqdordagi xususiy yer mulklarga egalik qilishdan tashqari ular, odatda vaqf yerlardan keladigan

daromadlarni nazorat qilishda ham ko'pgina imtiyozlarga ega edilar. Ularning huquqlari va imtiyozlari mutlaqo daxlsiz bo'lib, boshqa ijtimoiy tabaqalardan farqli ravishda, saroy fitnalari, o'zaro urushlar, hukmdor va hukmron sulola almashishlariga qaramasdan to'lafigicha saqlanib qolinardi.

21.3. Xiva xonligining davlat tuzumi

Xiva xonligi o'rta asrlardagi deyarli barcha davlatlar singari yakka hokimlik shaklida idora etiladigan va islom diniga tayangan davlat edi. Davlat tepasida cheklanmagan vakolatlarga ega bo'lgan xon turgan. Biroq xon davlatni o'ziga yaqin kishilari va saroy amaldorlari yordamida boshqargan. Xon qonun chiqarish, harbiy va diniy hokimiyatga ega edi. Taxt otadan o'g'ilga meros tariqasida o'tardi. Merosxo'rlar o'rtasida toj-taxt uchun kurash Buxoro xonligidagi singari doimiy bo'lib turadigan hodisa edi.

Xiva xonligida davlat hokimiyatining o'ziga xos tartibga solingan tizimi mavjud edi.

Buxoro va Qo'qon xonligidan farqli ravishda XIX asr boshlariga kelib xon huzurida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi Kengash (Devon) bor edi. U Muhammad Rahim I (1806–1825) islohotlari bilan ta'sis etilgandi. Eng yuqori lavozimdagi amaldorlar a'zo bo'lgan bu kengashning vakolatlari cheklangan, barcha qarorlar amalda xon tomonidan qabul qilingan bo'lsa-da, lekin saroy a'yonlarining, qabila boshliqlarining, mahalliy hokimlarning davlat boshqaruvidagi o'rnini e'tirof etish zarur. O'zaro siyosiy nizolarni bartaraf etadigan, markaziy hokimiyatni va joylarda mahalliy boshqaruvni amalga oshiradigan bu amaldorlar amalda davlat boshqaruvida katta kuchga ega edilar. Ayniqsa, markaziy davlat hokimiyati zaiflashgan davrlarda bu narsa yaqqol ko'zga tashlanardi.

Xonlikdagi barcha mansab va unvonlarni 3 toifaga: harbiy-ma'muriy, harbiy va diniy amallarga bo'lish mumkin. Saroy unvonlari ichida xondan keyin eng katta nufuzga inoq, otaliq va biy unvonidagilar mansub bo'lgan. Ular xonning eng yaqin maslahatchilari bo'lib, davlatning siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy, harbiy hayotini nazorat qilgan. Xonlikning siyosiy-iqtisodiy hayotida ulardan tashqari naqib, amir ul-umaro, mehtar, qushbegi, beklar begi, devonbegi, parvonachi, dasturxonchi, eshik og'asi, shotir, yasovulboshi, udaychi, mingboshi, mirobboshi va boshqa mansabdorlar ham muhim o'rin tutardi. Diniy hokimiyat shayxulislom boshliq dim peshvolari qo'lida edi. Mahalliy shayxlar Sayid Ota Shayx avlodlari, Darvish shayxlari – davlatdagi nufuzli diniy amaldorlar sirasiga kirar, barcha diniy mansablar ularning vakillariga berilardi.

Inoq, ya'ni vazir xondan keyingi birinchi mansab egasi hisoblangan. Ammo davlat hokimiyatining markazlashuvi va kuchayishidan keyin XIX asrning birinchi yarmidan boshlab inoqlar mavqeyi pasayib, qushbегining ta'siri orta bordi. Qushbegi xonning birinchi yordamchisiga aylanadi. Xonning barcha yorliq va farmonlari uning qo'lidan o'tib, u asosan, o'troq aholiga boshchilik qilgan, soliqlarning davlat xazinasiga tushishini kuzatgan; mehtar (davlat xnzmatchisi) lavozimi uchinchi o'rinda bo'lib, xonlikning moliya ishlari hamda shimoldagi o'troq aholi ishlarining boshqarilishiga rahbarlik qilgan. Bundan tashqari, devonbegi (xon devonining boshlig'i), shayxulislom (din vakilining oliy unvoni, musulmonlar jamoasining boshlig'i), qozikalon (bosh qozi), eshon rais (musulmonlar jamoasi murabbiysi), mirzaboshi (devonxonadagi ish yurituvchi kotiblar boshlig'i), mirshab (politsiyachi), mahramlar (xizmatkorlar), katta beklar (viloyat, kattaroq shaharlar hokimlari), kichik beklar (kichik shaharlar yoki beklklarning hokimlari), xon maslahatchilari kabi turli lavozimlar bo'lgan. Xonning ishonchli vakillari hisoblangan inoqlarning ta'siri kuchli vaqtlarda ulardan besh kishi a'zo bo'lgan xon kengashi chaqirilib turgan. U ham maslahat organi hisoblangan.

Xiva xonligiga oid manbalarda unga xos davlat mansablari ichida tarixiy **qoyim-maqom** mansabi mavjud bo'lganligi ko'zga tashlanadi. Masalan, mamlakat aholisi bu lavozimni o'sha vaqtda «rais», «qoyim-maqom vazir», «qoyim-maqom lomakin» nomlari bilan atagan¹. Ushbu so'z ba'zida o'rinbosar ma'nosida ishlatilgan bo'lsa, boshqa joyda o'zgacha ma'noda qo'llanilgan. Xiva xonligiga yaxshi xizmat etilgan taqdirda davlat mansablari otadan o'g'ilga meros tariqasida o'tib turgan.

Xiva xonligi ma'muriy jihatdan XVI–XVIII asrlarda viloyatlarga bo'lingan bo'lsa, XVIII asr oxiri – XIX asr boshlaridan boshlab, davlatdagi asosiy ma'muriy birlik beklklar deb yuritila boshladi. Bu davrda xonlikda 16 ta beklkl va 2 ta noiblik mavjud edi. Ular Xazorasp, Gurlan, Xonqa, Ko'hna Urganch, Qo'shko'prik, Pitnak, G'azovot, Qiyot, Sliobboz (Shoxabboz), Shovot, Toshhovuz, Ambarmanaq, Urganch, Xo'jayli, Sho'manoy va Qo'ng'iro't beklklari hamda Beshariq, Qiyot-qo'ng'iro't noibliklaridir. Bu beklkl va noiblarni xon tayinlaydigan beklar va noiblar boshqarar edi. Xiva shahri esa xon va bosh vazir (inoq)ning izmida bo'lgan.

Shunday qilib, Xiva xonligi ma'muriy jihatdan hozirgi Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qozog'iston va Turkmaniston Respublikalarining bir qismini o'z ichiga olgan davlat edi.

¹ *Muhammad Bayoniy. Xorazmshohlar tarixi. 113; 123-betlar.*

Xonlikda **armiyaning** oliy bosh qo‘mondoni xon hisoblangan.

Nufuzli saroy a‘yonlaridan bo‘lgan, o‘z mavqeyi jihatidan xondan keyingi o‘rinda turgan inoq o‘z xizmat vazifasiga ko‘ra harbiy-ma‘muriy amaldorlarga yetakchilik qilardi. Undan keyingi harbiy mansabdor Amir ul-umaro bo‘lib, qo‘shinlar boshlig‘i esa sarkarda deb atalardi. Xonning shaxsiy gvardiyasi boshlig‘iga yasovulboshi unvoni berilgan bo‘lib, u xonni qo‘riqlash, tartib-intizomni saqlashga mas‘ul hisoblangan. Xonlikdagi harbiy-ma‘muriy amaldorlar ichida mingboshi, yuzboshi kabi harbiy bo‘linmalar boshliqlari, shig‘ovul (ayg‘oqchi), qutvol (qal‘a boshlig‘i), tug‘begi kabi harbiy mansabdorlar ham katta ahamiyatga ega edilar.

Qo‘shinlar otliq va piyoda navkarlardan tashkil topgan bo‘lib, harbiy talonchilik yurishlari davrida asosan tez harakat qiluvchi otliq qo‘shinlardan, shahar va qal‘alar himoyasida piyoda qo‘shinlardan foydalanilgan.

Asosiy hujum qurollari o‘q-yoy, qilich, nayza, dubulg‘a bo‘lib, himoya uchun qalqon, sovutdan foydalanilgan. Qo‘shinni miltiqlar bilan ta‘minlash past darajada edi. Zambaraklar ham xonlikda keng tarqalmagan bo‘lib, bularning hammasi muntazam qo‘shinning harbiy ishlaridagi salohiyatini kuchsizlantirardi.

Xiva xonligida yollangan turkman sarbozlari, turli o‘zbek qabilalaridan tuzilgan qo‘shinlar asosiy harbiy kuch edi. Jang olib borish usuli Chingizxon va Amir Temur davridagi harbiy qonun-qoidalarga asoslansa-da, ammo bu harbiy tartiblar ijodiy rivojlantirilmadi.

Sud ishlari. Asosiy sudlov idoralari qozilik mahkamalari hisoblangan. Bu mahkamalar bir necha pog‘onadan tashkil topgan. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi oliy mansabdor shaxs xon bo‘lib, og‘ir jinoiy ishlarni u shaxsan ko‘rib chiqib, hukm chiqarardi. Undan keyingi o‘rinda xonlikda bosh sudya – Qozikalon turardi. Xonlikdagi har bir viloyat, tuman, qasaba, shaharlarda xon tomonidan tayinlangan qozilar bo‘lib, ular o‘z yordamchilari – muftilar yordamida mulkchilik bilan bog‘liq mojarolarni hal qilish, mayda jinoyatlarni ochish va shu singari ishlar bilan shug‘ullanishgan. Viloyatlardagi jinoiy ishlarni ko‘rib chiqishda mahalliy hokimning ham ishtirok etish huquqi bor edi. Qishloqlardagi mayda mojarolar qishloq oqsoqoli tomonidan hal qilinardi.

21.4. Xiva xonligi davrida davlat huquqining asosiy belgilari

Xiva xonligi ham Buxoro amirligi singari islom dini hukmron bo‘lgan davlat edi. Shu sababli bu yerda ham islom huquqi manbalari, jumladan, shariat to‘liq amal qilgan. Biroq shu bilan birga, xonlarning farmon va

buyruqlari, turkman, qozoq, qoraqalpoqlarning o'z odat huquqlari ham huquq manbayini tashkil etgan. Xonlar oliy sudya vakolatini davlat hokimiyati bilan qo'shib olib borganlar. Yuqorida aytib o'tilganidek, xon davlatga qarshi qaratilgan va boshqa og'ir jinoyatlarni shaxsan o'zi ko'rib chiqqan va faqat xon o'lim jazosi berish huquqiga ega bo'lgan.

Jumladan, tarixchi Abulg'ozu Xiva hukmdori Ali Sulton haqida shunday xabar beradi: «Bir karrat sulton o'tlanib, polizning kanoridan o'tib borturg'onda bir chuhra otudan tushib, ikki qovun olib turur. Qovun egasi yugurub borib, sultonga arz qilib turur, sulton shul yerda chuhrani kelturub, bir ulug' yog'ochni ko'mdurub, chuhrani osturub joni chiqqandin kesturub turur»¹. Bunday jazolashni qattiqqo'llik yoki odillik deb bo'ladimi? Albatta, yo'q. Undan keyin O'zbekiston xalqlarida poliz boshida qovun sotish odati bo'lmagan. Shularga asoslanib, yuqoridagi jazoni shariatga ham zid holda berilgan deb hisoblash mumkin.

Xiva xonligi huquqida ham deliktlar (huquqbuzarliklar) va jinoyatlar, jinoyat huquqi va ma'muriy huquq normalari va hokazolar o'rtasida aniq farqlar ajratilmagan edi. Jinoiy-huquqiy, fuqarolik-huquqiy munosabatlar va sud ishlarini yuritish tartibi shariat bilan belgilangan.

Jinoyatlarning shaxsga qarshi, mulkka qarshi, davlatga qarshi turlari qonunlar bilan maxsus tasniflashtirilmagan bo'lsa ham, jazolar berishda ularning og'irlik darajasi hisobga olingan. Bunda shariat manbalari huquqiy asos bo'lib xizmat qilgan.

Aybdorlarga nisbatan o'lim jazosi (bu jazo faqat xon ko'rsatmasi bilan amalga oshirilgan), tana a'zolarini, ko'pincha barmoqlarni, qo'lni (turli o'g'irliklar uchun) kesish, kaltaklash, mol-mulkini musodara qilish, jarima solish va boshqa jazo choralari tayinlanardi. Bularning hammasi Xiva xonligidagi sud ishlari qo'shni musulmon mamlakatlaridan deyarli farq qilmaganligini ko'rsatib turibdi.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

1. *Xiva xonligining vujudga kelishi haqida gapirib bering.*
2. *Ijtimoiy tuzumi qanday bo'lganligi haqida gapirib bering.*
3. *Xiva xonligida amalga oshirilgan soliq islohotlari haqida gapirib bering.*
4. *Xiva xonligining davlat tuzumi qanday bo'lganligi haqida gapirib bering.*
5. *Harbiy boshqaruv qanday amalga oshirilganligi haqida gapirib bering.*
6. *Sud ishlari qanday amalga oshirilganligi haqida gapirib bering.*
7. *Huquqining asosiy belgilari haqida gapirib bering.*

¹ *Abulg'ozu Bahodirxon*. Shajarayi Turk. –T., «Cho'lpon», 1992, 146-bet.

22-MAVZU: QO‘QON XONLIGI DAVLATCHILIGI VA HUQUQI

1. Qo‘qon xonligining tashkil topishi.
2. Qo‘qon xonligi ijtimoiy tuzumi xususiyatlari.
3. Qo‘qon xonligida markaziy va mahalliy boshqaruvning tashkil etilishi.
4. Qo‘qon xonligi davrida davlat huquqining asosiy belgilari.

22.1. Qo‘qon xonligining tashkil topishi

Ma‘lumki, Qo‘qon xonligi tashkil topmasdan avval uning hududi Buxoro amirligiga qarar edi. XVI asrda Buxoro amirligi iqtisodiy va siyosiy inqirozga yuz tutdi. Ubaydullaxon hukmronligi (1702–1712) davrida markaziy hokimiyat zaiflashib, mamlakat parchalanib ketdi. 1709–yilda Farg‘ona vodiysida Chodak (Chust shahridan sharqda) xo‘jalari qo‘zg‘olon ko‘tarib, vodiyning bir qismini egallaydilar. Natijada mustaqil davlat tuzilganligi e‘lon qilinadi. Shu tariqa, 1709–yilda Qo‘qon xonligiga asos solingan edi. 1710–yilda o‘zbeklarning minglar urug‘idan bo‘lgan yirik zodagon Shohruhbiy hokimiyat tepasiga keladi va 1721–yilgacha hukmronlik qiladi.

Dastlab Qo‘qon, Namangan, Marg‘ilon, Konibodom, Isfara va ular atrofidagi qishloqlarni o‘z ichiga olgan bu davlat hududi Shohruhbiyning o‘g‘li va vorisi Muhammad Abdurahimbiy (1721–1733) taxtga o‘tirgandan so‘ng ancha kengayadi. U Andijon va Xo‘jandda o‘z hukmronligini o‘rnatib, hatto qisqa vaqt Buxoroga tegishli Samarqand va Kattaqo‘rg‘on shaharlarini egallab, Shahrisabzga ham tahdid soladi. Abdurahimbiy Qo‘qon qishlog‘i yaqinida yangi shahar qurdira boshlaydi. Dastlabki davrlarda bu shahar «Qal‘ayi Rahimbiy» deb atalgan. U qattiq kasallanib Xo‘jand shahrida 33 yoshida vafot etgandan so‘ng hokimiyat tepasiga ukasi Abdukarimbiy o‘tiradi. U yangi shahar qurilishini tugallab, poytaxtni Tepaqo‘rg‘ondan Qo‘qonga ko‘chirtirib keladi. Shu tariqa yangi shahar – Qo‘qon shahri davlatning poytaxti bo‘lib qoldi va keyinchalik davlat bu shahar nomi bilan Qo‘qon xonligi deb atala boshlanadi. (Tarixiy manbalarda Qo‘qon – Ho‘qand deb yuritiladi). Abdukarimbiyning hukmronligi davrida davlat hokimiyati yanada mustahkamlandi, hududi kengaydi. 1745–yilda Farg‘ona vodiysiga hujum uyushtirgan qalmoqlar og‘ir janglardan so‘ng quvib chiqarilib, ular bosib olgan O‘sh, Andijon, Marg‘ilon shaharlari qaytarib olindi.

Abdukarimbiy vafot etgach (1750), davlat taxti 1770–yilgacha turli shahzodalar o‘rtasida talash bo‘lib, to‘xtovsiz almashinib turgan. Jumladan, Abdurahmon, Erdonabek, Bobobek, Sulaymonbek va h. k.

1769–1770-yilda taxtga Abdukarimbiyning nevarasi Norbo‘tabiy o‘tiradi. Norbo‘tabiyning xonlik davrida (1770–1801) Chust va Namangan beklarining mustaqillik uchun ko‘targan g‘alayonlari bostiriladi. U qo‘zg‘olon ko‘targan Xo‘jand begini ham yengib, bu shaharni uzil-kesil bo‘ysundiradi, biroq O‘ratepa shahri Buxoroga tobe bo‘lib qolaveradi. Xon 1799-yili Xonxo‘ja boshchiligidagi qo‘shinni Toshkentga qarshi yuboradi. 1784-yilda Yunusxo‘ja boshchiligidagi Toshkent o‘zini mustaqil davlat sifatida e‘lon qilgan edi. Lekin qo‘shin mag‘lubiyatga uchraydi. Norbo‘tabiy davrida Qo‘qon xonligi mustaqil, kuchli davlatga aylanadi. Hatto uni Xitoy tan oladi. Mamlakatda sug‘orish inshootlari barpo qilinadi, savdo va hunarmandchilik, qishloq xo‘jaligi birmuncha rivoj topadi va mamlakatda arzonchilik bo‘ladi.

Norbo‘tabiy vafotidan so‘ng (1801) taxtga uning katta o‘g‘li Olimbek o‘tiradi. Olimbek hukmronlik qilgan davrda (1801–1810) Qo‘qonning siyosiy mavqeyi yanada kuchayadi. U harbiy islohot o‘tkazib, o‘z davlati qudratini oshiradi va Ohangaron vohasi, Toshkent, Chimkent va Sayramni o‘ziga bo‘ysundiradi. U tashqi savdoga ham e‘tiborni kuchaytiradi. Olimxon o‘z davlatini 1805-yili rasman Qo‘qon xonligi deb e‘lon qilib, o‘zi «xon» unvonini oladi.

Qo‘qon davlati kuchayib borishi bilan uning siyosiy maqomi ham o‘zgardi. Agar Qo‘qonning dastlabki hukmdorlari «biy» va «bek» unvonlari bilan davlatni boshqargan bo‘lsalar, 1805-yildan bu davlat rasman Qo‘qon xonligi deb e‘lon qilindi va Olimxon «xon» unvoni bilan hokimiyatni boshqara boshladi.

Markaziy hokimiyatning kuchayib borishi, davlatni boshqarishda xonning cheksiz huquqlarga ega ekanligi, Olimxonning siyosatidan norozi ayrim guruhlarining unga qarshi fitnasiga olib keldi (manbalarda u «Zolimxon» laqabi bilan atalganligi haqida ham ma‘lumotlar uchraydi).

Olimxon 1810-yilda qozoqlarga qarshi yurish vaqtida Qo‘qondan 7–8 chaqirim masofada fitnachilar tomonidan o‘ldirilgach, ukasi Umarxon taxtga chiqadi. Umarxon o‘z hukmronligi davrida (1810–1822) xonlik hokimiyatini mustahkamlash va kengaytirish choralarini ko‘radi. 1815-yilda Umarxon Buxoro amirligiga qarashli Turkistonni, 1817-yili esa O‘ratepani bosib oladi. Sirdaryo bo‘ylaridagi qozoqlardan bosib olingan yerlarda Yangiqo‘rg‘on, Julek, Qamishqo‘rg‘on, Oqmachit, Qo‘shqo‘rg‘on nomli harbiy istehkomlar barpo etilgan.

Qo‘qon xonligi hududlarining kengayib borishi bilan birlikda uni mustahkamlash, markazlashgan xon hokimiyatini kuchaytirish, amaldorlar huquqi va lavozimini mustahkamlash choralari ko‘rildi. Umarxon Qo‘qon shahridagi Jome masjidi poydevoriga birinchi g‘ishtni qo‘yib bergandan keyin unga «Amir ul-muslimin» unvoni berildi.

Umarxon vafotidan keyin 12 yoshli o'g'li Muhammad Ali (1822–1842) taxtga chiqib, o'z hukmronligini otasi davrida yomon ko'rgan amaldorlarni qatl etishdan boshladi. Shu maqsadda u xonlikning barcha shaharlariga maxfiy qotillarni yuborib turdi. Bu esa mahalliy amaldorlar orasidagi noroziliklarning ko'payishiga olib keldi.

1825-yilga kelib Muhammad Alixon xitoylar musulmonlarni Farg'onaga ko'chirib yuborayotgani va xo'jalar quvg'in etilayotgani xabari bahonasida Sharqiy Turkistonga yurish qildi. 1829-yili u yana Qashg'arga yurish qilib, 70 mingga yaqin kishini ko'chirtirib keldi hamda Shahrixon va uning atrofidagi qishloqlarga joylashtirdi. Oltoy tog'i ortidagi tog'liq tojiklarni bo'ysundirish boshlandi, biroq faqat Qorategin bo'ysundirildi, xolos. Sho'g'non, Ro'mon, Voqon beklari amalda mustaqilligicha qoldi.

1826–1831-yillar mobaynida Muhammad Alixonning Qashg'arga qilgan qayta-qayta hujumlari natijasida Sharqiy Turkiston shaharlaridan boj yig'ish huquqi qo'lga kiritiladi.

Tarixda Madalixon nomi bilan qolgan bu hukmdor davrida (1822–1842) Qo'qon xonligi ancha yuksaldi. Madalixonga din peshvolari «G'ozi» (ya'ni «din homiysi», «din yo'lida kurashuvchi») unvonini berdilar. Qashg'arda olib borilgan urushlar paytida 70 ming uyg'ur musulmonlari Andijon viloyatiga ko'chirib keltirildi.

Bu davrda Buxoro amirligi bilan ham chegara shaharlar uchun tez-tez harbiy to'qnashuvlar bo'lib turdi. Bu feodal urushlar mehnatkash xalq zimmasiga yangi soliqlar solinishiga va aholi turmushining og'irlashishiga olib keldi. Natijada bir necha marta xalq g'alayonlari yuz berdi. Hukmronligining so'nggi yillarida davlat ishlaridan ko'ra ko'proq ayshu ishratga berilib ketgan Madalixondan norozi bo'lgan kuchlar unga qarshi fitna tayyorlaydilar.

Lekin Madalixonni o'z kuchlari bilan ag'darishga ko'zi yetmagan fitnachilar Buxoro amiriga bir necha maktub bitib, elchi yuborib, amir Nasrulloxondan «kofir» deb e'lon qilingan Madalixonni taxtdan ag'darish va jazo berishni iltimos qiladilar. Qo'qon xonligini zabt etib Buxoroga qo'shib olishni rejalashtirib yurgan amir Nasrullo 1842-yil aprelda katta qo'shin bilan Qo'qonga yurish qiladi.

Jangsiz Qo'qonni egallagan amir Nasrullo o'z qo'shini bilan shaharga kirib keldi va xonning xazinani olib qochganidan g'azabga tushib, Qo'qonni talon-taroj qilishga farmon beradi.

Amir Nasrullodan Madalixon va uning oilasini tutib keltirish haqida buyruq olgan bir necha qo'qonlik qochoq xonni tutib keltirishni o'z zimmalariga oladi. Turli joylardan uning oila a'zolari: onasi Nodirabegim, ukasi, o'g'illari va xotinlari tutib keltiriladi.

Madalixon, uning onasi, ukasi va katta o'g'li qatl etiladi. Qo'qonda

12 kun turgan amir Nasrullo Qo‘qon xonligini Buxoroga qo‘shib olinganligini e‘lon qilib, Qo‘qonda o‘z noibi etib Ibrohim dodxoh mang‘itni qoldiradi. Unga bir necha amaldorlar va 600 kishilik qo‘shin berib, o‘zi esa sobiq xon xizmatida bo‘lgan 250 ta amaldorlarni garov tariqasida Buxoroga olib ketadi. Lekin osonlik bilan qo‘lga kiritilgan Qo‘qon 3 oydan so‘ng yana osonlik bilan qo‘ldan boy berildi. Ibrohim Dodxohning Qo‘qon xalqiga o‘tkazgan jabr-zulmi, soliqlarning haddan tashqari oshirilganligi tufayli qo‘qonliklar 1842-yilning yozida qo‘zg‘olon ko‘tarib, qipchoqlar yordamida buxoroliklar qo‘shinini tor-mor etib, taxtga Sheralixonni ko‘taradilar. To‘raqo‘rg‘onda oq kigizga solinib xon deb e‘lon qilingan Sheralixon katta qipchoq qo‘shini bilan Qo‘qonga kirib keladi. Ibrohim dodxoh va uning ukasi Is‘hoq mang‘it Xo‘jand orqali Buxoroga qochib qolishiga muvaffaq bo‘ladi. Amir ularni qattiq jazolab, mol-mulkini tortib oladi va 1842-yil kuzida 20 ming qo‘shin bilan yana Qo‘qonga yurish qiladi.

Buxoroliklarning Qo‘qonni qamal qilishi muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Qo‘qonliklar 40 kun mobaynida buxoroliklarning 9 ta hujumini qaytarishadi. Shu orada Buxoroga Xiva xoni Olloquli hujum qilgani haqida xabar keldi va Nasrullo qaytib ketishga majbur bo‘ladi. Ko‘p o‘tmay Xo‘jand o‘z ixtiyori bilan Qo‘qon xonligiga qo‘shiladi, Toshkent gayta egallanadi va xonlik chegaralari tiklanadi.

Biroq Sheraliga taxtga chiqishga yordam bergan qipchoqlar endi xonlikdagi oliy mansablarni egallashga urina boshlaydilar, xon esa bunga yo‘l qo‘ymaydi. Shunda qipchoqlar qo‘zg‘olon ko‘tarib, Qo‘qonga yurish qilishadi va shaharni bosib olishadi. Qipchoq oqsoqollarining kengashi taxtda Sheralixonni o‘zini qoldirishadi, biroq amiri lashkar (bosh qo‘mondon) mansabiga qipchoqlarning qo‘lon urug‘i boshlig‘i, Buxoroda turgan Musulmonqulni taymlaydi. O‘sha yili (1845) Qo‘qonda qo‘zg‘olon ko‘tarilib, Sheralixon o‘ldiriladi va taxtga uning o‘g‘li, 13 yoshli Xudoyorxon o‘tqaziladi.

Xudoyorxon Qo‘qonning so‘nggi mustaqil xoni bo‘lib qoldi.

Qo‘qon xonligi XIX asrning birinchi yarmida shimolda Rossiya bilan (ular o‘rtasida huvillab yotgan cho‘l bor edi): g‘arbda Xiva va Buxoro bilan; janubda Qoratepa, Darboz va Ko‘lob bilan; sharqda Sharqiy Turkiston bilan chegaradosh edi. Qo‘qon xonligi tarkibiga quyidagi viloyatlar va shaharlar kirardi: Sirdaryonning so‘l sohili bilan Qorategin oralig‘idagi Qo‘qon viloyati; Sirdaryoning o‘ng sohilidan to Olatovgacha bo‘lgan Namangan viloyati, Xo‘jand shahri; Xo‘jand bilan Toshkent oralig‘idagi O‘ratepa viloyati; xonlikning eng shimoliy viloyati Turkiston Bekpakdala sahrolariga borib taqalardi. Bundan tashqari xonlik tarkibiga Balxash ko‘li bilan Sirdaryoning yuqori oqimi oralig‘idagi yerlar kirardi. Billur tog‘ning g‘arbiy tomonidagi Qorategin,

Darboz, Ko'lob, Sho'g'non singari bir qator tog'li tumanlar ham Qo'qon xonligiga tegishli edi. Bu yerlar qo'qonliklarga XIX asrning 30-yillarida bo'sundirilgan bo'lsa-da, ular tez-tez qo'ldan ketib, Buxoro amirligi ixtiyoriga o'tib turardi.

XIX asrning o'rtalariga kelib xonlikdagi feodallarning o'zaro nizolari, taxt va hokimiyat talashlari, xalq qo'zg'olonlari keskin ijtimoiy-siyosiy vaziyatni vujudga keltiradi. Bu esa rus qo'shinlari tomonidan Qo'qon xonligi yerlarining uzil-kesil bosib olinishini tezlashtiradi.

1876-yilning 19— yanvarida Rossiyaning harbiy vaziri D. Milyutin Qo'qon xonligi Rossiyaga qo'shib olinganligini rasman e'lon qilishi bilan bu davlat tugatiladi.

22.2. Qo'qon xonligi ijtimoiy tuzumi xususiyatlari

Qo'qon xonligi dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdogarchilik bilan shug'ullangan. Iqtisodda dehqonchilikning salmog'i juda yuqori edi. Mamlakatning asosiy boyligi bo'lgan yerga egalik qilish Buxoro va Xiva xonliklaridagidek bo'lib, hosildor yerlarning katta qismi davlatniki hisoblanardi.

Qo'qon xonligida ham yerga egalik qilish va undan foydalanish turli xil bo'lgan. Xonlikka qarashli bo'lgan yerlar amlok yerlar («amloki sultoni»), vaqf yerlari, mulki xiroj va mulki ushriyatga taqsimlangan. Dehqonlar o'rtasida yakka dehqon xo'jaligi ham rivojlangan. O'z yerlaridan ajralgan kambag'al dehqonlarning ko'pchiligi yirik yer egalari qo'lida chorakorlik qilganlar.

Davlatdagi eng katta mulkdor — xon bo'lib, u katta-katta hosildor yerlarga, ulardan olinadigan hosilga, bu yerlarda joylashgan yaylovlar, chorva mollari, hunarmandchilik ustaxonalari, savdo do'konlari va boshqalarga egalik qilardi. Harbiy-ma'muriy amaldorlarga berilgan «tanho», «tarxon» shaklidagi yer mulklari faqat xizmat davrida berilgan va meros bo'lib avloddan-avlodga o'tmagan. Diniy mahkamalar va madrasalar xarajatlari uchun vaqf yerlardan keladigan daromadlar asosiy rol o'ynagan. Bunday yer-mulklarga odatda butun-butun qishloqlar, ustaxonalar, do'konlar, tegirmonlar va boshqa ishlab chiqarish korxonalari bo'lgan katta yer-mulklari kirgan.

Qo'qon xonligidagi ijtimoiy tabaqalar, ularning jamiyat hayotidagi mavqeyi qo'shni Buxoro xonligidan deyarli farq qilmaydi. Davlatda xon va uning yaqinlari, markaziy va mahalliy boshqaruvni amalga oshirgan. Vazir ul-vuzaro, amir ul-umaro deb nomlangan ijtimoiy tabaqaning, harbiy-ma'muriy amaldorlarning mavqeyi juda yuqori edi. Bu amaldorlar o'z xizmatlari evaziga muayyan maosh olishdan tashqari yer-mulklarga ham ega bo'lganlar. Butun o'rta asr musulmon

davlatlarida bo'lganidek, musulmon ruhoniylari ham alohida imtiyozlarga ega bo'lgan ijgimoiy tabaqa hisoblanardi. Davlat boshqaruvida, ta'lim-tarbiyada, sud ishlarida va jamiyat hayotining turli sohalarida ularning fikri katta ahamiyat kasb etgan. Jamiyatning eng ko'p sonli va eng kam huquqli tabaqasi oddiy xalq — fuqaro edi. Mamlakatning barcha moddiy boyliklari ularning mehnati hisobiga yaratilsada, bu ijtimoiy tabaqa doimo muhtojlikda hayot kechirganligi manbalarda qayd etilgan.

Qo'qon xonligida olinadigan soliqlar xalqqa juda og'ir bo'lib, ular yana turli hasharlarda, ayniqsa xon va boylarning uy, saroy, dalalarida, qurilish inshootlarida bepul ishlab berishga majbur qilingan.

Ma'lumotlarga qaraganda, rasmiy soliqlar xiroj, zakot, tarozi solig'i, daryodan o'tish uchun soliq va boshqa maxsus soliqlardan iborat bo'lgan. Soliqlar xossachi va bekliklarga bo'lingan. Xossachi — bu daromad xon xazinasiga tushgan. Beklik — bu daromad bek xazinasiga tushgan. Xon xazinasiga deyarli barcha soliqlar kelib tushgan, lekin ular asosan Qo'qon shahri va uning atrofidagi qishloqlardan yig'ilgan. Boshqa yerlardan esa xon xazinasiga faqat quyidagilar tushar edi: tovar va hayvonlardan yig'iladigan zakot; Sirdaryo kechuvlaridan va tuzdan olinadigan boj; xossachi joylardan olinadigan soliq; xon mablag'iga qurilib, ijaraga berilgan do'kon, karvonsaroy, omborlardan yig'iladigan soliqlar; to'y marosimlaridan yig'iladigan soliqlar; meros bo'lishdan yig'iladigan soliqlar.

Viloyat hokimlariga xiroj va tanobona soliqlarini olish huquqi berilgan edi. XIX asrning birinchi yarmida xonlik daromadi natura va puldan iborat bo'lgan, ularning bir qismi viloyat hokimlari tomonidan qo'shin saqlash uchun sarflanadigan xarajatlarga va boshqa maqsadlarga ishlatilar edi.

Ko'chmanchi xalq 40 bosh hayvondan bir dona soliq to'lardi. Savdo karvonlaridan viloyat hokimi yoki uning vakili soliqni olardi. Chet eldan kelgan savdo karvonlari bir marta umumiy narxdan 2,5 foiz soliq to'lar edi. Yahudiy va xristianlarga tegishli tovarlardan esa 5 foiz zakot olingan.

Qo'qon xonligida yuqorida sanab o'tilgan soliqlardan tashqari yana bir necha xil soliqlar mavjud bo'lgan.

Soliqlardan tashqari, aholi majburiy ravishda turli ishlarga: kanallar qazish, ariqlarni tozalash, obodonchilik ishlariga, turli qurilishlarga jalb qilinardi.

Aholi qal'alar, suv inshootlari qurishda va ularni ta'mirlashda, urush harakatlarida qatnashishga majbur edilar. Hashar eng ko'p tarqalgan majburiyatlardan biri edi. Harbiy xizmat majburiyati eng og'ir bo'lib, erkak aholi unda qatnashishi shart edi.

22.3. Qo‘qon xonligida markaziy va mahalliy boshqaruvning tashkil etilishi

Qo‘qon xonligi Temur va temuriylar davrida shakllangan boshqaruv tizimini o‘zgarishsiz qabul qilib olgan edi.

Davlat boshlig‘i eng oliy hukmdor – «xon» bo‘lib, u deyarli cheklanmagan huquqqa ega edi. Lekin Qo‘qonning dastlabki hukmdorlari «biy» unvonini bilan hokimiyatni boshqargan bo‘lib, davlat boshlig‘i rasman «xon» deb Olimxon davridagina (1805-yildan boshlab) yuritila boshlandi. Uning vorisi Umarxon (1810–1822) esa o‘zini «amir al-mo‘minin» deb e‘lon qilib, diniy hukmdorlikni ham o‘z qo‘liga olgan edi.

Xon cheksiz hokimiyatga ega bo‘lsa-da, saroy amaldorlari va qo‘shin boshliqlarining xonga ta‘siri kuchli edi. Buni Xudoyorxonning taxtda o‘tirgan birinchi davrida Musulmonqul qipchoqning mingboshi va otaliq lavozimini egallagan yillarida (1845–1852) aniq ko‘ramiz. Bu xonning siyosiy kuch-qudrati ma‘lum iqtisodiy asoslarga va ijtimoiy guruhlariga bog‘liq edi, deyishga asos beradi.

Manbalarning guvohlik berishicha, xon saroyida muhim ishlarni ko‘rib chiqadigan Kengash tuzilgan bo‘lib, unga mingboshi boshchilik qilgan. A‘zolari dasturxonchi, risolachi va yana ba‘zi muhim amaldorlar bo‘lgan. Davlatni boshqarishda bu kengashning ham o‘rni katta edi.

Qo‘qon xonligida quyidagi mansablar mavjud bo‘lgan: mingboshi, otaliq, shayxulislom, qozikalon, qushbegi, mextar, parvonachi, naqib, dodxoh, eshik og‘asi, inoq, shig‘ovul, to‘qsoba, miroxo‘r, qorovulbegi va boshqalar. Xo‘jakalon, naqib, mirasad, sadr, sudur, uraq mansablari faqat Muhammad payg‘ambar va to‘rtta xalifalar avlodlariga mansub shaxslarga taqdim qilingan.

Shayxulislom, mavlavi, qozikalon, qozi ul-quzzot, qozi askar, qozi mutloq, qozi rais, mufti, a‘lam, mudarris, imomlar shunday shaxslar bo‘lishi kerak ediki, ular musulmon maktab va madrasalarida ta‘lim olgan bo‘lishlari shart edi. Shayxulislom unvonini olish uchun bilimdon, o‘qimishli bo‘lish haqidagi hujjatdan tashqari tayinli nasl-nasab ham talab qilingan. U xo‘jalar avlodidan bo‘lishi lozim edi. Shahardagi tungi tartibni qo‘rboshi boshchiligidagi ma‘lum miqdordagi soqchi (mirshab)lar nazorat qilganlar, musulmonlarning tinchlik va osoyishtaligini himoya qilganlar, shahar osoyishtaligini ta‘minlaganlar.

Shuningdek, muxtasiblar lavozimiga odatda axloqiy sifatlari bilan ajralib turgan va shariat qonunlarini yaxshi bilgan shaxslar tayinlangan, chunki ular musulmonlarning diniy burchlaridan voqif bo‘lishlari kerak edi. Shuning uchun ular rais-a‘lam deb ham atalgan.

Xonning daromadini maxsus amaldorlar boshqarishgan: mirza-i

daftar xon xazinasining ahvoli haqida maxsus daftarga qayd qilib borgan. Sarkor va inoq xonlik xazinasiga qabul qilinadigan mahsulotlarni saqlovchi hisoblangan. Bu amaldor saroyda xonning xavfsizligini qo‘riqlovchilar va xizmatkorlarning ehtiyojlarini ta‘minlagan. Pullarning hammasini mextar yoki xonning g‘aznachisi (kassiri) qabul qilgan, shuningdek, u xonning barcha qimmatbaho buyumlarini boshqaruvchisi bo‘lib ham hisoblangan.

Odatda, vaqtinchalik hukmronlik qiluvchi guruhning eng nufuzli, obro‘li shaxslari xonlikdagi yaxshi lavozimlarni egallab olganlar.

Xonlik hayotida ruhoniylar fuqarolar ishini hal qilishda qozlikka oid hamma ishlarni oshkor qilardilar. Qozilik ishlarini ma‘lum tartibda ko‘rish faqat shariat va odatlar asosida olib borilgan.

Qo‘qon xonligida mavjud bo‘lgan harbiy unvonlar quyidagicha edi: mingboshi – odatda, u vazirlik vazifasini birga olib borgan. Keyin yuzboshi, ellikboshi, o‘nboshi, to‘pchiboshi, zambarakchi va boshqalar. Bularidan tashqari boshqa harbiy mansablar ham bo‘lgan. Qo‘qonda yashagan sarboz va to‘pchilar faqat alohida vazifadagi noib, dodxohning doimiy tasarrufida bo‘lganlar. Urush davrida noib, dodxoh o‘z qismiga harakatdagi qo‘shinning hamma sarbozlarini qabul qilgan, unga vaqtinchalik boshchilik qilishni maxsus tayinlangan amiri lashkar (bosh qo‘mondon)ga topshirardi.

Xonlik ma‘muriy jihatdan beklklarga bo‘limb, ularning ba‘zilari bir necha marta xonlik tarkibidan chiqib turgan. Qo‘qon davlatining asosiy beklklari sifatida Namangan, Marg‘ilon, Andijon, To‘raqo‘rg‘on, O‘sh, O‘ratepa, Xo‘jand, Toshkent, Turkiston, Chimkentni ko‘rsatish mumkin. Bekliklar xon tomonidan tayinlanadigan hokim – qushbegi tomonidan boshqarilardi. Bekliklar o‘z navbatida boshqa kichik ma‘muriy birliklarga bo‘lingan.

22.4. Qo‘qon xonligi davrida davlat huquqining asosiy belgilari

O‘zbekiston huquqi tarixini chuqur tadqiq qilgan olim Z.Muqimov Qo‘qon xonligining huquqiy tizimi haqida 2003-yilda «Adolat» nashriyotida chop etilgan O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi darsligida qiziqarli ma‘lumotlar keltiradi. Biz quyida shularni to‘liq bayon qilishga jazm qildik.

Bu yerda ham asosiy huquq manbayi shariat bo‘lib, qozoq va qirg‘izlar yashaydigan joylarda odat huquqlarining ahamiyati kuchli edi. Yer, suv, davlat xizmati bilan bog‘liq ba‘zi masalalar xonlarning farmonlari bilan ham tartibga solinishiga qaramasdan, yer, suv, oila va nikoh, vorislik huquqlari deyarli barcha xonliklarda bir xil bo‘lgan. Bu

huquqlarning asosiy belgilari respublikamiz olimlarining asarlarida yoritib berilgan. Ammo jinoyat va jazo masalalarida har bir xonlikda shariatga zid ko'pgina o'ziga xos usullar ham qo'llanilgan. Ularning barchasida, jumladan, Qo'qon xonligida qonunsizlik ildiz otgan. Chunki, hukumat ishida shariatdan boshqa muntazam qoidalar bo'lmagani holda, ularga zid ravishda fuqarolar davlat boshliqlarining quli sanalib, puli va moli ham davlatnikidek hisoblanar edi. «Agar biror odamni o'z xohishlaricha gunohkor topsalar, – deb yozgan edi bu haqda Mahdum Hoji, – ani urub va qattiq azobga hukm qilib, tamom molu amvolini podsholikka deb olur edilar. Balki ul gunohkorning gunohsiz xeshu aqrabolari ham ul gunohidin holi bo'lmas edi.»¹ Bundan ko'rinib turibdiki, azoblash (tan jazosi), qatl etish, mol-mulkini musodara qilish kabi uch xil jazo birdaniga qo'llanilgan, javobgarlik gunohkorning qarindoshlariga ham yoyilgan, o'zbek xonliklarida, jumladan, Qo'qon xonligida jinoyat huquqining asosiy xususiyatlari akademik X.S.Sulaymonovanning ilmiy ishlarida batafsil yoritilgan.² Bu haqda boshqa bir qancha manbalar ham boy ma'lumot beradi.

Jinoyatlar davlatga qarshi qaratilgan, diniy, mulkka, shaxsga, oilaga qarshi qaratilgan jinoyatlarga bo'lingan. Davlat jinoyatlari diniy jinoyatlar bilan chatishganligidan har bir davlat jinoyati diniy jinoyat hisoblangan. Ularga hukmni faqat xon chiqarib, deyarli barcha hollarda o'lim jazosi berilgan.

Davlat jinoyatchilariga tayinlangan o'lim jazosi ba'zi hollarda sazoyi qilish bilan birga bo'lib, osib o'ldirish shaklida ijro etilgan. «Davlatga qarshi isyonda ayblangan Musulmonqul asirga olinib... bir necha davlat xodimlari bilan Xo'qandga yuborib, ikki odam bo'yi baland taxt barpo etib, Musulmonqulni ul taxtga uzasiga o'tqazib, xaloyiqqa ibrat bo'lsin deb bir necha kun tutquzub, oxiri xonning amiri ila dorg'a osdilar.»

Sazoyi qilish jazosi ham og'ir shaklda qo'llanilgan. Jumladan, Rusiya askarlari bilan urisha olmay, Oq masjidga qochgan Xo'qand qo'shini boshlig'i Shodmonqul sazoyi qilingan. Uning ijrosini Mahdum Hoji quyidagicha tasvirlaydi: «Xo'qand o'rtasida jome' azimning o'rtasida Shodmonqulning boshiga xotmlar ro'molini o'ratib, oldiga charx duk qo'yib, sharmandayu sharmisor qilibdurlar.»³ Bu o'rinda harbiy jinoyat – urush maydonini tashlab qochish uchun tayinlangan jazoni ko'rish mumkin. Sazoyi qilishning keng qo'llanilishini boshqa manbalar ham ko'rsatadi. Jumladan, 1813–1814-yillarda rus savdo karvonining

¹ *Mulla Olim Mahdum Hoji. Tarixi Turkiston, 105–106-betlar.*

² *X.S. Сулайманова. Собрание сочинений. Т. 1. –Т., «Фан», 1967.*

³ *Mulla Olim Mahdum Hoji. O'sha asar, 100-bet.*

tarjimoni sifatida Qo‘qonda bo‘lgan F.Nazarov quyidagilarni yozib qoldirgan: «Hukumat savdogarlarni kam o‘lchab, oshiqcha tortmasliklari ustidan qattiq nazorat qiladi. Mening ko‘z o‘ngimda kam o‘lchab, kam tortib bergan bir kimsani yalang‘och holda ko‘chalarda qamchi urib, olib yurganlarini ko‘rdim.»¹

Jazoning maqsadi keltirilgan zararni qoplash hamda xalqni qo‘rqitishdan iborat edi. Jazo ochiq holda to‘plangan xalq oidida talioniya prinsipi asosida ijro etilgan. Bunga Qur‘ondagi «Biz jonga jon, ko‘zga-ko‘z, burunga-burun, tishga-tish, jarohatlashni buyurdik», degan ko‘rsatmalari asos qilib olingan. Boy kishilar tan jazolaridan jarima bilan qutulib qolishlari mumkin edi.

Bir yoki ikki marta darra urishi «siyosat» yoki urish bilan qo‘rqitish deb atalgan. Ozodlikdan mahrum qilish jazosi zindonda o‘talgan. Zindonda chayon, kanalar bilan to‘ldirilgan maxsus xonalar bo‘lgan yoki ba‘zi hollarda aholiga chayon soliq solinib, ular yig‘ilgach, mahbus ustiga tashlangan. Ba‘zi hokimlar o‘z dushmanlariga nisbatan hech bir qoida-qonunga, shariat qoidalariga to‘g‘ri kelmagan jazolarni qo‘llaganlar. Ma‘lumki, **empale**, ya‘ni qoziqqa o‘tqazib jazolash jazosi asosan, O‘rta asr Sharqiy Yevropa davlatlarida mavjud edi. O‘zbekiston davlati va huquqiga oid tarixiy manbalar orasida bu jazo mavjud bo‘lganligini ko‘rsatuvchi manba va misollar deyarli yo‘q. Ammo Qo‘qon xonligida ba‘zi hokimlarning ana shu jazoni qo‘llaganliklariga guvohlik beruvchi ma‘lumot Mahidum Hojining asarida uchraydi: «Ba‘zi bir hokimlar gunohkorning ostiga qoziq qoqib, tiriklay holda ustiga o‘tkuzub, ul bechora bir necha kun xodaning ustida azob tortib, jon berar ekan.»² Hatto bundan ham yomonroq azoblar berilganligini isbotlovchi dalillar keltirilgan.

Din bilan bog‘liq jinoyatlarga dahriylik, boshqa dinni qabul qilish, diniy ko‘rsatmalarni buzish, dindan qaytish, xon rejimini tanqid qilish, boshqa dindagi kishi bilan nikohga kirish, shariat taqiqlagan ovqatlarni yeyish, spirtli ichimliklar iste‘mol qilish, yolg‘on guvohlik berish, yolg‘ondan qasam ichish kabilar kirib, ularga nisbatan darra bilan urish, mamlakatdan quvib yuborish va qatl etish kabi jazolar qo‘llanilgan.

Bulardan tashqari, Qo‘qon xonligida turar joyidan quvib yuborish, jinoyat sodir etgan kishini yoki uning oila a‘zolarini xon armiyasiga askarlikka berish, mulkini yo‘qotish, musodara qilish kabi jazolar ham bo‘lgan. O‘g‘rilik jinoyatiga tan jazolari qo‘llanilgan. F. Nazarovning ko‘rsatishicha: «Men 30 qo‘y o‘g‘irlagani uchun bir kishining o‘ng qo‘li

¹ Ф. Назаров. Записки о некоторых народах и землях Средней Азии. с. 173.

² Mulla Olim Mahdum Hoji. O‘sha asar. 65–66-betlar.

barmoqlarining qilich bilan chopib tashlaganlarini o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim, qonni to‘xtatish uchun qaynab turgan yog‘ga botirib, keyin qo‘yib yubordilar. Odam o‘ldirganlik uchun qotilni o‘lgan odamning qarindoshlariga beradilar. Ular uni sotib yuborishlari yoki qon uchun xun olishlari mumkin»,¹ deb yozadi u. Bunday jinoyat uchun sotib yuborish holatini boshqa o‘rinlarda uchratmadik, shuning uchun ushbu jazo turini Qo‘qon xonligiga xos deb hisoblash mumkin.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

- 1. Qo‘qon xonligining tashkil topishi haqida gapirib bering.*
- 2. Qo‘qon xonligi hukmdorlari va ularning o‘z davrlarida olib borgan ishlari haqida gapirib bering.*
- 3. Qo‘qon xonligining ijtimoiy tuzumi xususiyatlari haqida gapirib bering.*
- 4. Markaziy va mahalliy boshqaruvi qanday amalga oshirilganligi haqida gapirib bering.*
- 5. Huquqining asosiy belgilari qanday bo‘lganligi haqida gapirib bering.*

¹ История Узбекистана в источниках. –Т., «Фан», 1988, с. 173.

IX BOB. O‘ZBEK XONLIKLARIDA HUQUQ MANBALARI

23-MAVZU: O‘ZBEK XONLIKLARIDA HUQUQNING ASOSIY MANBALARI VA BELGILARI

1. Majma’ al-arqam – huquq manbayi.
2. Majma’ al-arqamda mulk egaligi shakllariga oid ma’lumotlar.
3. Majma’ al-arqamda boshqaruv organlari va devonlar haqida.

23.1. Majma’ al-arqam – huquq manbayi

XVIII asrda yozilgan tarixiy-huquqiy manbalardan bo‘lgan «Majma’ al-arqam» («Raqamlar va ruqum (siyoqat)lar haqida») – rasmiy qoidalar to‘plami¹ huquqni o‘rganish manbayi sifatida kam tadqiq qilingan.

Bu asar O‘zbekiston davlati va huquqi tarixidan bizgacha kam yetib kelgan va o‘xshashi yo‘q manbalardandir. Unda moliya, yer, soliq, hisob-kitoblarni yuritish bo‘yicha rasmiy qoidalar va tavsiyalar berilgan bo‘lib, amir devonidagi amaldorlar uchun ish yuritishga oid rasmiy qo‘llanma hisoblanadi. Bulardan tashqari, soliqlar va boshqa tushumlar ro‘yxati, xarajat qaydnomalari, yer mulklarini ehson, sovg‘a qilish hujjatlarining mazmuni va shakli XVIII asrda Buxoro amirligidagi davlat mansablari, ularning vazifalari va suv taqsimotiga oid qimmatli ma’lumotlarni olish mumkin. Risola ma’lum ma’noda amir Shohmurod topshirig‘iga binoan 1789-yilda yozilgan deyish mumkin.

Besh bob va mansablar haqidagi ilovadan iborat bu qo‘llanmada davlat devonida xizmatni qanday o‘tash, kirim-chiqim daftarlari, davlatning ma’muriy xo‘jalik bo‘linishi tamoyillari yoritilgan. Movarounnahr va Sharq davlatlarida davlat kirim-chiqimlari, xazina boyliklari miqdorini sir tutish va uni o‘zgartirish, soxtalashtirishning oldini olish maqsadida faqat katta mirzolarigagina ma’lum bo‘lgan devon daftari ruqumlar va siyoqat (alohida raqamlar) bilan yozilgan. Kitobning ikkinchi, uchinchi boblari ana shunday yozuv va uning sirlariga, to‘rtinchi bobi arifmetika, geometriya, algebra hisob-kitoblari va qoidalariga bag‘ishlangan. Beshinchi bob – falakiyot, arifmetik harakatlar jadvalidan iborat. Mansablar haqidagi ilovada XVIII asrda Buxoro amirligida mavjud bo‘lgan 135 dan ortiq katta va kichik mansablar, vazifalar va ularning vakolatlari keltirilgan.

¹ *Мирза Боди Диван. «Маджма ал-акрам» («Предписания»).* – М., «Наука», 1981, с. 123.

23.2. Majma' al-arqamda mulk egaligi shakllariga oid ma'lumotlar

Risolada shu davrdagi Buxoroda mulk egaligining shakllariga oid ma'lumotlar ham uchraydi. Jumladan, davlat yerlariga dehqonlar egalik qilib, soliq to'laganlar. Qizig'i shundaki, mo'g'ullar, Temur va temuriylar davridagi yer egaligi, suyuq'rol Mang'itlar sulolasi davrida ham mavjud bo'lgan va uning egasi XVIII asrda ham ma'muriy daxlsizlikdan foydalangan. Bu yer mulkiga egalik xizmat evaziga berilib, merosiy hisoblangan, ammo asta-sekinlik bilan daxlsizlik huquqini yo'qota borgan. XVIII asrga kelib xizmat qiluvchi tabaqalarga amir oldidagi xizmatlari uchun beriladigan muvaqqat yer egaligi – tanho rivojlana boshlaydi. Yer egasi bunday yerlarda yashovchi dehqonlardan olinadigan soliqlarni qisman yoki to'la undirib olish huquqiga ega bo'lgan. Mamlakatning barcha pul va mablag' vositalari kitobda to'rt xazima – baytul molga bo'lingan. Ya'ni, keladigan manbayiga qarab, pul vositalari to'rtga bo'lingan deyish joizdir. Buni shartli ravishda Buxoro amirligi davlat budjeti daromad va xarajatlarining to'rt moddasi deb ham atashi mumkin. Birinchisi – zakot, ushr va xums¹ soliqlaridan keladigan mablag'lar to'plangan. Nazariy jihatdan olganda, bu mablag' kambag'al fuqaro va miskinlar uchun sarflanishi lozim bo'lgan. Ikkinchisi (yer solig'i sifatida to'lanadigan asosiy davlat solig'i) – juz'ya va musulmon bo'lmagan savdogarlardan olinadigan soliqlardan tushadigan mablag'lar. Bu vositalar jangchilarga, amaldor va ruhoniylarga maosh to'lash hamda mamlakat obodonchiligi uchun sarflangan. Uchinchisi – xazinaga kirgan egasiz mulklar, ularning mablag'lari kambag'allar, yetimlar, bemorlarga sarflangan, unga boshqa hech kimning haqi bo'lmagan. To'rtinchidan – xazinani topib olingan mulklar tashkil etib, zakotdan foydalanuvchilarga berilgan.

23.3. Majma' al-arqamda boshqaruv organlari va devonlar haqida

«Majma' al-arqam»ning «Mansablar va unga aloqador bo'lgan shaxslar» haqidagi ilovasi faqat Buxoro amirligida emas, balki o'zbek xonliklarining hammasida ham mansablar tizimi, ularning vazifalari, bo'ysunish va maosh olish tartiblari haqida birinchi manba sifatida qimmatli ma'lumot beradi.

Asarda muallif o'sha davr udumlaridan kelib chiqib, mansablarni tasniflash (guruhlash)da to'rtga bo'lish usulini qo'llaydi. «Yer egaligining to'rt turi o'rnatilganki, tan olib, hurmatlanadigan to'rt xalifa bo'lganligi,

¹ Xums – harbiy o'ljaning kambag'allar uchun ajratiladigan beshdan bir qismi.

yer, suv, olov va shamol kabi to'rt unurning bo'lganligi, inson mijozining tabiati to'rt suyuqlik: safro, qorasafro, shilimshiq modda va qon bilan yaratilishi singari... Movarounnahr hukmdorlari olim va fuzalolarning fikrini hisobga olib, mansablar to'rtga bo'linishini o'rnatdilar.»¹ Mazkur guruhlash o'sha davr Sharqida mavjud bo'lgan tabiat va jamiyat asosida to'rt unsur (chorvaka) yotadi, deb hisoblovchi falsafiy qoidalarga binoan tanlanganligini yaqqol ko'rish mumkin. Kitobda alohida ta'rif berib ketilgan bo'lmasa-da, Sharq davlatlariga xos tarmoq boshqaruv organlari, devonlar to'g'risida ma'lumotlar bor. Uning ilova qismida mansablar bilan birga o'ndan ortiq devonlarning nomlari uchraydi. Bular – buyuk (katta) devon, davlat xazinasi devoni, tanob devoni (xiroj) yerlarini boshqarish, bahorgi, kuzgi tushumlarni hisoblash, davodjiha (xarajatlar) devoni, arablar ishlari devoni, sarkor devoni (davlatga tegishli yerlar, tegirmonlar, do'konlarni hisobga olib boshqargan), otxonalar devoni, mahramlar devoni, yasovullar devoni, kiyim-kechak devonidir. Bu mahkamalarning vazifalari nomlariga mos bo'lgan. Quyidagi mansablarni ko'proq sud va sudlovlikka oid mansablar deb atash mumkin. **Birinchi mansab** shayxulislom, u amirdan keyin diniy va dunyoviy sud ishlari yuzasidan oliy apellatsiya (shikoyat) sudi vazifasini bajargan. Hatto unga oliy sudya – qozi ul-quzzot qarorlari va hukmlaridan ham shikoyat qilish mumkin bo'lgan. Ya'ni, bu mansab oliy sudyalik mansabidan ham yuqori turgan. Oliy sudya – qozi ul-quzzot esa unga barcha qozilar va qo'shinlar qozisining qarorlari ustidan shikoyat qilgan. Shu ma'noda shayx ul islom oliy sudya, barcha harbiylar va oddiy xalq ustidan ham boshchilik qilgan, deyish mumkin.

Ikkinchi guruh mansabdorlar – muftilar, huquqshunos-maslahatchilar, ularning boshlig'i a'lam – xalq uchun shariat qoidalari asosida fatvolar tuzib beradi. Qo'shinlarda esa alohida qo'shin muftisi bo'lib, u ayniqsa, amirning viloyatlarga safari vaqtida harbiylar va ularning sud ishlari uchun xuddi shunday amallarni bajargan.

Qo'shinlar qozisi va muftisi hukmdor bilan viloyatlarga chiqqanda o'sha joyning fuqarolar ishlari bo'yicha sudyasi va muftilari, odatga ko'ra qabul qilinganidek, vaqtincha mansabidan almashtirilgan hisoblanadi.² Ammo buning uchun amirning maxsus roziligi olinmaydi. Bu juda qiziq holat, ya'ni fuqaro sudlarining harbiy harakatlar vaqtida harbiy sudlar va muftilar bilan almashtirilishi xuddi hozirgi zamon davlatlarida shunday harakatlar davrida sudlarning harbiy tribunallarga aylanishiga o'xshab ketadi.

Uchinchi mansab – muhtasib bo'lib, ular kelib chiqishiga ko'ra

¹ «Majma' al-arqam». 93-bet.

² «Majma' al-arqam». 9-bet.

sayidlar (ya'ni Muhammad alayhissalom avlodlari)dan tayinlangan. Agar shunday kishi bo'lmasa, sayid bo'lmaganlardan ham tayinlanishiga yo'l qo'yilgan. Ular aholini shariat taqiqlagan harakatlardan tiyilib turishga, yaxshilikka oid harakatlarni qilishga undaganlar. Shariat qonun-qoidalarining bajarilishi ustidan doimiy nazorat olib borib, mansabdor shaxs va dindorlar ahloq hamda qadr-qimmat qoidalariga amal qilishlarini ta'minlash borasida ham nazoratni amalga oshirishgan.

To'rtinchi mansab – o'qituvchilikdir. Muallif uncha taniqli bo'lmasada, vaqtining ko'p qismini talabalarni o'qitishga sarflaydigan kishilar bo'lgan o'qituvchilarni shu mansablar jadvaliga taalluqli hisoblagan.

Otaliq – amirning ustidan vasiylik qilib, unga xuddi o'z o'g'lidek munosabatda bo'lishi uchun shunday atalgan. Uning boshqa fuqarolarga ham mehribon bo'lishi lozim edi. Unga dorug'alik, ya'ni Buxoro shahrini tunda qo'riqlash, suvni taqsimlash vazifasi ham topshirilgan.

Katta devonbegi mansabi otaliqdan keyingi o'rinda bo'lib, u viloyatlardan tushadigan davlat solig'i – xirojni hisobga olgan va tumanlarning soliqlari yozilgan daftarni o'zida saqlagan. Qorako'lda suv taqsimoti katta devonbegi qo'lida edi. **Parvonachi** mansabini olgan kishi amir xohish-irodasi bitilgan yorliqlarni ularga sazovor bo'lgan amirlar va taniqli kishilarga yetkazib turgan. Bundan tashqari, arablarni boshqarish ham unga topshirilgan.

Dodxoh esa huquqi buzilgan kishilarning arizalarini qabul qilib, amirga yetkazgan va uning javobini arizachiga ma'lum etgan. Podshoning topshirig'i bilan o'zi ham ba'zi arizalarni hal qilgan. Ya'ni, dodxohni amir va arizachi orasidagi mansab egasi – arizabegi deyish mumkin. Mirzo Bodi yana to'rt mansabni keltiradiki, ularga ham amirga yaqin kishilar tayinlangan. Bunga quyidagilar kirgan: ko'kaldosh – mamlakat ov qushlari, itlari tayyorgarligiga javobgar bo'lgan mansabdor shaxs. Katta inoq – amirga yaqin bo'lmagan tabaqalar bilan amir o'rtasidagi aloqani bog'lab turuvchi mansabdor.

Beshinchi mansab – haram og'asi, amir harami, kiyim-kechaklari ta'minoti bilan shug'ullangan. Bulardan tashqari ham yuzga yaqin katta-kichik mansablar mavjud bo'lgan.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

1. *Majma' al-arqam – huquqiy manba sifatida qanday ahamiyat kasb etishi haqida gapirib bering.*
2. *Majma' al-arqamga binoan mulk egaligi shakllari qanday bo'lgan?*
3. *Majma' al-arqamda boshqaruv organlari haqida qanday ma'lumotlar berilganligi haqida gapirib bering.*
4. *Majma' al-arqamda devonlar haqida qanday ma'lumotlar berilganligi haqida gapirib bering.*

YANGI DAVR DAVLATI VA HUQUQI

**X BOB. XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASRNING
BOSHLARIDA DAVLAT VA HUQUQ**

**24-MAVZU: CHOR ROSSIASINING ISTILOSI VA
MUSTAMLAKACHILIK TIZIMINING O'RNATILISHI**

1. Chor Rossiyasining istilosi va Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi.
2. Mustamlaka o'lkani ijtimoiy tuzumi.
3. Mustamlaka boshqaruv organlarining ta'sis qilinishi.
4. Turkiston general-gubernatorligida politsiya va sud organlari.

24.1. Chor Rossiyasining istilosi va Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi

Ma'lumki, XIV asrning oxirlari – XVI asrlar mobaynida rus knyazliklarini birlashtirilishi asosida markazlashgan Rus davlati tashkil topdi. Vaqt o'tishi bilan sobiq Oltin O'rda yerlarida rus shaharlari, harbiy istehkomlari, tog' konlari va zavodlarining soni shunchalik ko'payib bordi. Ko'rsatilgan joylarda rus davlati o'z mavqeyini mustahkamlab olganidan keyin Turkistonni ham bo'ysundirish harakatiga tushdi.

Chor Rossiyasining Turkiston yerlariga g'arazli maqsadlarda ko'z olaytirishlari hali o'lkada shayboniylar hukmronlik qilgan davrlardan boshlangan.

1558–1559-yillarda ingliz savdogari Jenkinson, 1612-yilda Moskva savdo elchisi Ivan Danilovich Xoxlov Xiva, Buxoro va Samarqandga asosan o'lkani o'rganish va josuslik ma'lumotlarini to'plash maqsadida kelgan edilar. Turkistonni Rossiyaga qaram qilish uchun to'g'ridan to'g'ri amaliy ochiq harakat Pyotr I davridan boshlandi.

1714-yilda turkman vakillaridan biri Xo'ja Nafas Peterburgga borib, Amudaryoning oltinli qumlarga boyligi to'g'risida ma'lumot beradi. Oltin va boyliklar vasvasasi bilan Pyotr I O'rta Osiyoga 1717-yilda knyaz Bekovich-Cherkasskiyni katta qo'shin bilan yuboradi. Ammo Xiva xoni Sherg'ozixon bu qo'shinni batamom qirib tashlaydi.

O'rta Osiyoni bosib olish maqsadida Pyotr I zabt etilgan qozoq yerlarida harbiy qal'alar va istehkomlar qura boshladi. 1717-yilda Omsk, 1718-yilda Semipalatinsk, 1720-yilda Ust-Kaminogorsk, 1742-yilda

Orenburg qal'alari quriladi. Faqat XVIII asrning o'zida chor ma'muriyati hozirgi Qozog'iston hududlarida 46 ta katta va 96 ta kichik harbiy qal'a va istehkomlar qurgan.

Katta va Kichik Juzning xoni Abulxayrxon o'z hokimiyatini saqlab qolish va qalmiqlar xataridan saqlanish ilinjida chor Rossiyasi bilan yaqinlashishga majbur bo'ladi. Shu tariqa, 1731-yilda Kichik Juz, 1731–1740-yillarda esa Katga Juz qozoqlarining aksariyati rus davlatining tobeligiga o'tadi. Bu Pyotr I orzu-armonlari ro'yobga chiqishining boshlanishi edi. Qozoqlarning rus fuqaroligini qabul qilishlari chor mustamlakachi ma'murlarining Turkiston yerlarini egallash borasidagi bosqinchilik harakatlariga qulay shart-sharoitlar yaratdi. Ammo Yevropadagi davlatlar o'rtasidagi o'zaro vaziyatning tobora keskinlashib borishi chorizmning Turkistonga nisbatan bosqinchilik harakatlarining ma'lum muddatga orqaga cho'zilishiga sabab bo'ldi.

Biroq tez orada chor qo'shinlari faol harbiy harakatlar boshlab, Qo'qon xonligining strategik qal'asi bo'lgan Oqmachit (hozirgi Qizil O'rda)ni – 1853-yilning yozida, keyin esa Pishpakni 1860-yil kuzida bosib oldilar.

1861–1863-yillar davomida rus qo'shinlari Yangi Qo'rg'on, Din Qo'rg'on, Merka, Oqsuv, Pishtepa, Choldevor va qayta tiklangan Pishpak (hozirgi Beshkek) qal'alarini janglar bilan zabt etib, minglab gunohsiz kishilarni qirib tashlaydi. 1863-yil yozida esa polkovnik Chernyayev So'zoq qal'asini qo'lga kiritadi va uni tevarak-atrofidagi aholisi bilan birga «Rossiyaning mulki» deb e'lon qiladi.

1864-yil boshida Verniy (hozirgi Almati) istehkomdan chiqqan Chernyayev boshchiligidagi 2500 kishilik chor qo'shinlari 4-iyunda Avliyootani jang bilan egallaydi. So'ngra otryad Chimkentga yo'l oladi. 1864-yil 22-mayda Perovskiy fortidan yo'lga chiqqan polkovnik Veryovkin otryadi esa Turkiston shahri tomonga yurish boshlaydi.

Polkovnik Veryovkin general Chernyayevdan yordam olib, Turkiston shahrini mahalliy xoinlar yordamida 1864-yil 12-iyunda bosib oladi.

1864-yil sentabr oyining boshlarida eng dahshatli janglardan biri Chimkent ostonasida boshlanib ketadi. Shahar uzoq vaqt ayovsiz to'pga tutiladi. Chimkent vayronaga aylantirilgach, piyodalar hujumga o'tadi. Juda ko'p talafot ko'rishiga qaramay, Alimqul boshchiligidagi mudofaachilar mardonalik bilan barcha hujumlarni qaytaradilar. Ammo pirovardida rus harbiy quroli ustun chiqadi. Ayovsiz qirg'inlar bilan Chimkent shahri 22-sentabrda bosib olinadi. Shahar olingach, ko'z ko'rib, quloq eshitmagan talon-torojlik yuz beradi. U tamomila xarobaga aylanadi, xalqning g'ururi toptaladi, dushmanning yovuzligi mislsiz bo'ladi.

Rus qo'shinlari 1864-yil 1-oktabrda Toshkentga hujum boshlab, bir

necha marta shahar himoyachilarining zarbalaridan cheklanishga majbur bo'lsalar ham, lekin Qo'qon, Buxoro, Xiva xonliklarining yordam bermaganligi, shahar aholisining 1,5 oy mobaynida suvsiz, oziq-ovqatsiz tinkasi quriganligi, ayrim amaldorlarning (masalan, Abdurahmon-bekning) xoinliklari sababli oxir-oqibat 1865-yil 17-iyunda shaharni bosib oldilar.

1866-yil 24-mayda chor askarlari Xo'jandga ham hujum qilib, uni zabt etdilar. Avgust oyida Toshkent, Xo'jand atrofidagi yerlar mustamlakachi saltanat tarkibiga kiritilganligi rasmiy ravishda e'lon qilindi.

Chorizm tomoni Buxoro amiri bilan olib borilgan muzokaralarda kelisha olmagach, bosqinchi qo'shinlar 2-oktabrda amirlikka qarashli O'ratepa qal'asini, 18-oktabrda esa Jizzaxni bosib oldi. Jizzax uchun jangda 2 mingga yaqin vatanparvarlar shahid bo'ldilar.

1867-yil 7-iyunda bosqinchilar Jizzax va Samarqand o'rtasida joylashgan Yangiqo'rg'onda Buxoro qo'shini va xalq ko'ngillilarini tormor keltirdilar.

1867-yil 14-iyulda imperator Aleksandr II Turkiston harbiy okrugini ta'sis etdi va O'rta Osiyoda bosib olingan va saltanat tarkibiga kiritilgan hududlar hisobidan Turkiston general-gubernatorligini tashkil qilish to'g'risida farmon e'lon qildi, okrug qo'mondoni va general-gubernatori qilib general-adyutant fon K. P. Kaufman tayinlandi. Unga podsho juda katta vakolatlar berdi. Imperatordan olgan «Oltin yorliq»qa muvofiq fon Kaufman biror davlatga qarshi urush e'lon qilishi yoxud sulh tuzishi mumkin edi. U moliyaviy hamda iqtisodiy masalalarda ham mustaqil hukmdorlardek keng huquqlarga ega bo'lib, faqat podshogagina hisob berardi. Tez orada harbiy ma'muriyatdan tashqari fuqarolik, ma'muriy ishlar ham unga to'la bo'ysundirildi. Shuning uchun ham fon Kaufmanni mahalliy xalq «yarim podsho» deb atardi. Turkiston general-gubernatorligining markazi etib Toshkent shahri belgilandi.

Gubernatorlikda markazi Toshkent bo'lgan Sirdaryo, markazi Verniy (Alma-ota) bo'lgan Yettisuv viloyatlari tashkil qilindi. 1868-yilning may oyiga kelib Samarqand, Kattaqo'rg'on, Zirabuloq chor qo'shinlari tomonidan egallanadi va Zarafshon okrugi tashkil etildi.

1875-yilga kelib Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Namangan chor qo'shinlari tomonidan bosib olinadi. 1876-yilda Qo'qon xonligi tugatilib, Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kirgan Farg'ona viloyati tashkil qilindi.

24.2. Mustamlaka o'lkaniing ijtimoiy tuzumi

1873-yilda general fon Kaufman rus podshosiga Turkistonda yerga egalik tuzilishini o'zgartirish loyihasini taqdim etdi. Loyihaga ko'ra

amluk yerlar uni ishlatib turgan odamlar tasarrufiga o'tishi lozim edi. Bu qoidani vaqf yerlariga ham joriy qilish to'g'risidagi loyiha taklifi esa rad etildi.

Ammo fon Kaufman o'z so'zida qat'iy turib oldi. U mas'uliyatni o'z zimmasiga olib, yer masalasiga doir bir qancha tadbirlarni amalga oshirdi. Jumladan, yer haqiqatda kimning qo'lida ekanligini e'tiborga olish to'g'risida farmoyish beradi. Shunga muvofiq juda ko'p yerlar davlat hisobiga o'tkaziladi. Ayni choqda mulkiy yerlarga va hatto vaqf yerlariga ham soliq joriy etiladi.

1886-yilda Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi yangi Nizomga muvofiq yer munosabatlariga doir bir qancha tadbirlar amalga oshirildi. Bundan kuzatilgan asosiy maqsad mahalliy boy-zodagonlarni zaiflashtirish va mustamlakachilar hokimiyatini kuchaytirish edi. Yer munosabatlari sohasidagi tadbirlarning asosiy natijasi shu bo'ldiki, harbiy-feodal yer egaligi tugatildi. Yer-suv munosabatlarida chorizm ikki maqsadni ko'zlab ish tutgan. U O'rta Osiyoda o'z hukmronligini mustahkamlash va uning iqtisodiy imkoniyatlaridan mustabid Rossiyaning hukmron tabaqalari manfaatlarini yo'lida foydalanishga intilgan. Shu maqsadlar uchun mahalliy hukmron doiralarning qarshiligini sindirish, o'lkada amalda bo'lgan qadimiy munosabatlarni saqlab qolish, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga imkon bermaslik kerak edi.

Uzoqni ko'zlagan maqsaddan kelib chiqqan holda Rossiya Turkistonda olib borgan yer-suv munosabatlarida quyidagi siyosatni o'tkazdi:

1. O'lkadagi barcha yerlar davlat xazinasiga tegishli, deb e'lon qilindi. O'troq mahalliy aholiga yer merosiy yakka jamoa egaligi tariqasida, ko'chmanchi aholiga esa muddati cheklanmagan tarzda jamoa bo'lib foydalanish uchun topshirildi.

2. O'troq joylarda yer undan amalda foydalanayotganlarga birlashtirildi. Bu tartibga binoan sud organlariga yer-suvga oid munozarali masalalarni hal etishda qozilar tomonidan berilgan yerga egalik qilish haqidagi hujjatlariga — vasiqalarga tayanmay, aksincha, yerdan kim amalda foydalanayotganiga qarab ish tutish lozimligi haqida ko'rsatma berildi. O'rta Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingunga qadar katta yer egalari dehqonlarga ijaraga bergan yerlar endilikda ijarachilarga merosiy tarzda foydalanishga topshirildi. Chorizmning yer-suv sohasidagi bunday «tantiligi»ning sababi, birinchidan, Rossiyaning dastlabki yillarda ko'chirish ehtiyojlari uchun zarur yer jamg'armasiga muhtoj bo'lmagani, ikkinchidan, bu sohada o'ziga raqib bo'lgan mahalliy zodagonlar bilan kurashda keng mehnatkashlar ommasini betaraf qilib qo'yish edi.

3. Ko'p hollarda vaqflar avvalgi tarzida qoldirildi, ammo ayrim

hollarda vaqf yerlarini davlat ixtiyoriga olish ham mumkinligi belgilandi.

4. Sobiq imtiyozli shaxsiy mulk yerlariga boshqalar qatori soliq solindi. Ular endi xususiy mulk emas, balki davlat yerlari deb ataldi va dehqonlarga merosiy ravishda egalik qilish va foydalanishga topshirilgani ma'lum qilindi.

5. Shahar tashqarisida rus aholisiga yer ajratish ham taqiqlandi.

6. Yevropaliklar, xususan, ruslar tomonidan mahalliy aholiga qarashli yerlarni sotib olish mutlaq man etildi.

24.3. Mustamlaka boshqaruv organlarining ta'sis qilinishi

O'rta Osiyo istilosidan so'ng Rossiya, Pyotr I vasiyatini bajarib, jahonning eng yirik imperiyalaridan biriga aylandi.

Rossiya imperiyasi jahonning qudratli davlatlari Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniya imperiyalari qatori katta mustamlakachi davlat bo'lib qoldi.

Turkiston ma'muriyati imperiyaning boshqa o'lkalari boshqaruvidan o'zining keskin harbiylashgani bilan alohida ajralib turardi. Rossiya hukumatining Turkiston uchun 1865–1916-yillar davomida ishlab chiqqan va amalga tatbiq etilgan o'nta qonun loyihasi (1865, 1867, 1871, 1873, 1882, 1884, 1886, 1908, 1912, 1916)ga va uning moddalariga adliya, moliya, harbiy, ichki ishlar va boshqa vazirliklar kiritgan o'zgartirishlarda ana shu holat o'z aksini topgan.

O'lka boshqaruvi zo'raonlikka asoslangan va u doimiy usul sifatida saqlanib kelgan.

Kaufman hukmronligi davrida Turkistonda general-gubernatorlik boshqaruvi uning jilovlanmagan istibdodi asosida amalga oshirilgan. Maxfiy maslahatchi F. Girs qayd etganidek, general-gubernatorning hokimiyati, qonun bo'yicha ish yuritilishini taqozo etgan bo'lsa-da, amalda, o'zi xohlagancha ish tutdi. General-gubernator o'lka hokimiyatining yagona boshqaruvchisiga aylangan edi. Hokimiyatni bir yo'la markazlashtirish oqibatida barcha ish qonun asosida emas, aksincha, general-gubernatorning ko'rsatmasi asosida amalga oshirildi.

Toshkent shahri qo'lga olinganidan (1865) keyin, mustamlaka sharoitidan kelib chiqqan holda, Sirdaryo hududi hamda 1864 va 1865-yillarda bosib olingan yerlar hisobiga, Orenburg general-gubernatoriga bo'ysundirilgan Turkiston viloyati tashkil etildi. Turkiston viloyatini boshqarish uchun 1865-yil 6-avgustda «Muvaqqat nizom» e'lon qilindi. Uning asosiy maqsadi, ruslarning yangi bosib olingan yerlarida, boshqaruvning umumiy asoslarini belgilash orqali, tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash bo'lgan. Joylarda butun hokimiyat harbiy boshliqning qo'lida

bo'lgan, ma'muriy organlarga esa mahalliy xalq ustidan nazoratni o'rnatish vazifasi yuklatilgan.

Imperator tomonidan «Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom» 1886-yil 12-iyunda tasdiqlandi.

«Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi nizom» bo'yicha Turkistonning viloyatlarga bo'linishi, harbiy vazir fikricha, aholining etnografik, maishiy va iqtisodiy shart-sharoitlarini o'rganish asosida emas, balki o'lkani bosib olish jarayoni bilan bog'liq hoida amalga oshirildi.

Shunday qilib, Turkiston o'lkasida Rossiya hukmronlik qilgan yillarda qonun loyihalari doimo to'ldirilib, o'zgartirilib turildi. Buning siri juda oddiy edi. Chor Rossiyasining qonun loyihalari Turkistonni Rossiya imperiyasining markazlashgan boshqaruvi tizimiga kiritib, uni rus burjuaziyasi va dvoryan-pomeshchiklar mulkiga aylantirishga qaratilgan edi.

Turkiston general-gubernatori o'z qo'lida harbiy va fuqaro hokimiyatini birlashtirgan. Bir vaqtning o'zida u podsho noibi, harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni, Yettisuv kazak qo'shinlari atamani, bosh mirshab, bosh prokuror vazifasini ham o'tagan. Unga Buxoro amiri va Xiva xoni ham bo'ysungan. General-gubernator vassallari bo'lmish Buxoro amirini Rossiya imperatori agentligi (1885–1917), Xiva xonini esa Amudaryo bo'limi (1873–1918) boshlig'i orqali nazorat qilgan. 1882–1884-yillarda Turkiston o'lkasidagi boshqaruvni atroflicha taftish qilgan markaz vakili – imperatorning maxfiy maslahatchisi F. Girs general-gubernatorning Rossiyadagi kasbdoshlaridan farqli o'laroq, Turkistonda mustabid hokim ekanligi, imperiya qonunchiligiga mutlaqo rioya qilmay, o'zicha qonunlar chiqargani va o'z maylicha hukm yuritganini e'tirof qilgan edi. Harbiy gubernatorlar, sud palatasi raisi, prokuror, okrug shtabi boshlig'i, general-gubernator yordamchisi, general-gubernator Kengashi o'lka boshqaruvining muhim masalalarini o'zlaricha hal qilgan.

Markaziy boshqaruvda general-gubernator mahkamasining ham ahamiyati beqiyos katta bo'lgan. Bosh boshqarmaning ijroiya organi bo'lgan general-gubernator mahkamasi dastlab to'rt bo'limdan iborat edi. Birinchi bo'lim ma'muriy va nazorat ishlarini boshqargan. Ikkinchisi bosh boshqarmaning moliyaviy-xo'jalik ishlariga qaragan. Uchinchi bo'lim esa soliqlar, shaharlar mablag'lari hamda boshqaruvga doir nizomlar loyihalarini tayyorlash bilan shug'ullangan. To'rtinchi bo'lim maxsus bo'lim bo'lib, uning faoliyat doirasi g'oyat keng va serqirra bo'lgan. 1886-yilgacha mustaqil ish ko'rgan bu bo'lim harbiy va adliya vazirlari ko'rsatmalariga xilof ravishda sud qarorlarini ham qayta ko'rish bilan shug'ullangan.

Rossiya imperiyasi guberniyalaridagi bironta tashkilot general-gubernator mahkamasidek cheklanmagan vakolatlarga ega bo'lmagan. Maxfiy maslahatchi Girsning so'zlariga qaraganda, Kaufmannning mahkamasi imperiya qonunlarini ham cheklovchi o'z qonunlarini chiqargan.

General-gubernatorning o'zi Afg'oniston va Qashg'ar masalalari bo'yicha shug'ullanuvchi elchilik bo'linmasini ham 1899-yilgacha boshqarib turgan. 1899-yildan esa bu vazifani bajarish uchun general-gubernator huzurida diplomatik ishlar bo'yicha maxsus lavozim joriy qilinadi. Turkiston ommaviy kutubxonasi, Toshkent muzeyi, markaziy arxiv, «Turkestarskiye vedomosti» gazetasi va bosmaxonasi ham mazkur mahkama ixtiyoriga berilgan edi.

General-gubernator bepoyon o'lka hayoti bilan asosan mahkama boshqaruvi orqali tanishib borgan. Shuning uchun ham bu idora o'lkaning ijtimoiy-siyosiy hayotida hal qiluvchi rol o'ynagan.

Mahkama o'lka hokimi uchun axborotnoma, ma'ruza va ma'lumot-nomalar tayyorlar, general-gubernatorning shaxsiy manfaatlarini ko'zlab ish yuritar edi. Shuning uchun ham mahkama boshqaruvchisi general-gubernatorlikdagi eng nufuzli amaldorlar qatori yuksak mavqeda turgan.

Turkiston o'lkasi Markaziy Bosh boshqarmasi tarkibida general-gubernatorga bo'ysunmaydigan markaz vakillari — adliya, moliya, ziroat va davlat mulklari vazirliklari idoralari ham bo'lgan.

Turkiston general-gubernatorligi XX asr boshlariga kelib besh viloyatga bo'lindi: Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand, Yettisuv, Kaspiyorti viloyatlari. Ularni rus armiyasi generallaridan shaxsan podshoning o'zi tayinlaydigan harbiy gubernatorlar boshqargan. Ular harbiy va fuqaro hokimiyatini amalga oshirishgan. Harbiy sohada ular viloyatlardagi qo'shinlar (diviziya yoki korpus) qo'mondoni, fuqaro ishlarida esa gubernator huquqiga ega bo'lishgan. Barcha ma'muriy, politsiya va sud hokimiyati ham ularning izmida bo'lgan.

Harbiy gubernatorlar qoshida viloyat boshqarmalari bo'lib, ular guberniya boshqarmasi huquqlariga ega bo'lishgan. Viloyat ijtimoiy hayotining barcha masalalari shu boshqarmalarda ko'rilgan. Viloyatlar o'z navbatida tumanlarga (uyeziqlarga) bo'linib, ularni tumanboshilar idora etishgan. Tumanlar Turkiston general-gubernatorligi ma'muriy tuzilmasining asosini tashkil etgan.

O'lkaning tub viloyatlari hisoblangan Sirdaryo, Farg'ona, Samarqanddan tashqari Yettisuv, Kaspiyorti viloyatlari ham shu asosda tumanlarga bo'linib idora qilingan. Har bir tuman o'z tarkibidagi shahar va qishloqlari bilan tuman hokimi — tumanboshiga bo'ysungan. Tumanboshi Rossiyadagi ispravnik, zemstvo boshlig'i, polimeyster, shahar boshqarmasi boshlig'i huquqlariga teng bo'lgan. Tumanboshi

viloyat harbiy gubernatori tavsiyasi bilan bevosita gubernator tomonidan tayinlangan.

Turkiston o'lkasidagi tumanboshilarning Rossiyadagi hamkasblaridan farqli tomonlari shunda ediki, ular ma'muriy, politsiya va harbiy hokimiyatni o'zlarida birlashtirganlar.

Ular qo'l ostidagi aholidan istagan kishiga jarima solishlari va 7 kungacha qamab qo'yishlari mumkin bo'lgan.

Tumanboshilar rus armiyasi katta zobitlaridan, asosan mayor, rotmistrdan to polkovnik unvonigacha bo'lganlardan tayinlangan. Xalq ularni «hokim to'ra» deb atagan.

Tumanlar bir necha jabha (uchastka)larga bo'linib idora qilingan. Jabhalarni kichik unvondagi (poruchik, shtabs-kapitan) harbiy zobitlar boshqarishgan. Ular jabha pristavlari nomi ostida «Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi nizom»da tilga olinadi. Imperator tomonidan 1886-yilda tasdiqlangan bu «Nizom»da qasaba pristavlariga mahalliy aholidan istalgan odamga jarima solish (5 so'mdan 10 so'mgacha) va 3 kungacha hibsdan saqlab turish huquqi berilgan edi. Qasaba pristavlari «harbiy – xalq boshqaruvi»dagi harbiy bo'g'inning eng quyisi bo'lib, ularga «mahalliy o'z-o'zini boshqaruv», ya'ni «xalq boshqaruvi» amaldorlari – volost boshqaruvchilari, qishloq oqsoqollari, yuzboshi hamda ellikboshilar bo'ysunishgan.

Turkistondagi mustamlaka idorasi 1898-yilgacha «harbiy-xalq boshqaruvi», undan keyin esa «ma'muriy-politsiya boshqaruvi» deb atalgan bo'lsa ham, uning mohiyati mazmunan o'zgarmadi. Barcha vakolatlar rus ma'muriyati qo'lida jamlanib, mustamlaka istibdodi yil sayin kuchayib bordi.

24.4. Turkiston general-gubernatorligida politsiya va sud organlari

Chorizmni, rus xalqparvarlari, «mirshablik podsholigi» deb atagani bejiz emas. Ana shu politsiya tuzumiga suyangan podsho hukumati Turkiston o'lkasi idorasini eng quyi bo'g'midan oliy bo'g'inigacha o'z qo'lida tutgan. General-gubernatorning o'zi bosh mirshab vazifasini o'tagan. Hokimi mutlaq general-gubernator o'lkadagi istagan odamini, xoh o'zbek, xoh rus bo'lishidan qat'i nazar, imperiyaning chekkalariga 5 yil muddatgacha surgun qilishi huquqi qonunan mustahkamlangan edi. U harbiy bo'lmagan fuqarolar ustidan harbiy sudlar hukmini tasdiqlashdek ichki ishlar vaziri vakolatlarini ham o'z qo'lida jamlagan. Viloyatlarning harbiy gubernatorlari, tumanboshilar, qasaba pristavlari ham politsiya generallari va zobitlari vakolatlariga ega bo'lganlar. Bundan tashqari, o'lkada ichki ishlar vazirligining idoralari, uning vakillari ham shunga muqobil tarzda ish ko'rishgan.

Turkiston shaharlarida polismeyster lavozimi joriy etilib, ularning huquqlari tumanboshilar huquqlari bilan barobarlashtirildi.

Toshkentda yangi va eski shahar polismeysterlari ish olib borgan. Ularga politsiya pristavlari bo'ysungan. Mahalliy ma'muriyat – volost boshqaruvchilari va oqsoqollar ham quyi mirshablik zobitlari vakolatlariga ega bo'lib, ularga yollangan mirshablar xizmat qilgan.

Turkistondagi adliya boshqaruvida ham o'ziga xos mustamlakachi mezonida ish tutildi.

1867–1886-yillar mobaynida o'lkada umumsaltanat rus sudlari va xalq sudlari, ya'ni shariat asosida ish ko'ruvchi qozi sudlari faoliyat ko'rsatar edi. Rus sudlariga tuman sudlari, sud palatasi huquqidagi viloyatlar boshqarmalari, mirovoy sudyalar qurultoylari, harbiy sud komissiyalari kirgan. Tuman sudlari mulkdan mahrum etishga daxldor bo'lmagan jinoiy ishlar, davlat xazinasini manfaatlariga oid bo'lmagan 2000 so'mgacha miqdorda bo'lgan da'volarni ko'rishgan. Viloyatlar boshqarmalari esa tuman sudlari hukmlaridan shikoyatlarni, ularning ishlarini qayta ko'rish kabi masalalarni hal qilgan. Ular davlat vazifalarini bajarishdagi jinoyatlar, hokimiyatga qarshilik ko'rsatish, qaroqchilik, davlat mulkini o'g'irlash, soxta pul yasovchilarning ishlari kabi tuman sudlari vakolatlariga kirmagan ishlarni ham ko'rishgan. Marg'ilon, Samarqand, O'sh kabi shaharlarda faoliyat ko'rsatgan harbiy sud komissiyalari esa harbiy jinoyat ustaviga asoslanib, davlatga xiyonat, hokimiyatga qarshilik, pochta, telegrafga hujum, nasroniylarni o'ldirish, mansabdor shaxslarga nisbatan qotillik qilish, o'zga dindagilarni nasroniylikka o'tgani uchun ularni o'ldirishga oid ishlar, rus millatiga mansub kishilarning jinoyatlarini ko'rish bilan shug'ullangan.

Rasman «xalq sudlari» deb atalgan qoziyu quzzotlar shariat qonunlari asosida mahalliy o'troq va ko'chmanchi aholining fuqarolik va jinoiy ishlarini ko'rishgan. Lekin davlat ahamiyati kasb etadigan, shuningdek, siyosiy ishlar ularning vakolat doirasiga kirmagan.

1886-yilda tasdiqlangan «Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom» mavjud sud tartibini saqlab qolgan holda unga ayrim o'zgartirishlar kiritdi. Tuman sudlari bekor qllinib, ularning o'rniga murosa (mirovoy) sudlari joriy etildi. O'lkada viloyat sudlari tashkil qilinib, ularga mirovoy sudlar vazifalari yuklandi. Viloyat sudi avvalgi viloyat boshqarmalari ixtiyorida bo'lgan vakolatlarni oldi va murosa sudlari hal etuvchi masalalarni ko'rish huquqiga ham ega bo'ldi.

Viloyat prokurori va uning o'rindoshi, sud tergovchisi lavozimlari joriy qilindi. «Nizom» rasmiy ravishda sudning hokimiyatdan mustaqil bo'lishini qonunlashtirgan bo'lsa ham, amalda u bir butun hokimiyatni o'z qo'llarida tutgan harbiy ma'muriyatning kuchli ta'sirida qolaverdi.

Imperiya sudlarida rus hokimiyatiga bevosita va bilvosita qarshi

qaratilgan mahalliy aholi vakillari ishlari ko'rilgan. Ruslarga qarshi jinoyat qilgan o'zbeklar yoki ruslar bilan birga noqonuniy ishga qo'l urgan o'zbeklarni shu sudlar jazolagan. Rus qishlog'i, shahar qismi va umuman ruslar istiqomat qilib turgan yerlarda jinoyat qilgan o'zbeklar imperiya sudida javobgarlikka tortilgan. Turli millatlarga mansub kishilarning jinoyatlari ham rus sudida ko'rilgan.

Turkiston o'lkasida uch turdagi «xalq sudlari» mavjud bo'lgan. Sirdaryo, Samarqand, Farg'ona va Yettisuv viloyatlarining o'troq aholisi uchun shariat, ko'chmanchilar uchun odat, ya'ni biy sudlari va Kaspiyorti viloyati uchun ulardan farqli maxsus «xalq» sudlari faoliyat ko'rsatgan.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

- 1. Chor Rossiyasi istilosining amalga oshirilishi haqida gapirib bering.*
- 2. Turkistonda general-gubernatorlikning tashkil etilishi haqida gapirib bering.*
- 3. Mustamlaka davrida ijtimoiy tuzum qanday bo'lganligi haqida gapirib bering.*
- 4. Rossiya Turkistonda yer-suv munosabatlari bo'yicha qanday siyosat o'tkazdi?*
- 5. Mustamlaka boshqaruvi qanday amalga oshirilganligi haqida gapirib bering.*
- 6. General gubernatorning vakolatlari nimalardan iborat edi?*
- 7. Mustamlaka boshqaruvidi qanday normativ-huquqiy hujjatlar amal qilgan?*

25-MAVZU: BUXORO AMIRLIGIDA ROSSIYA IMPERIYASI PROTEKTORATI (HOMIYLIGI)NING O'RNATILISHI VA IJTIMOY-SIYOSIY TUZUMI

1. Buxoro amirligi ustidan Rossiya protektoratining o'rnatilishi.
2. Ijtimoiy tuzumda yuz bergan o'zgarishlar.
3. Davlat tuzumi.

25.1. Buxoro amirligi ustidan Rossiya protektoratining o'rnatilishi

Rus qo'shinlarining Toshkentni bosib olishi natijasida Rossiya imperiyasi Buxoro xonligi bilan bevosita to'qnashdi. Chunki O'rta Osiyoning muhim savdo-iqtisodiy markazi hamda strategiya ahamiyatiga ega bo'lgan Toshkent shahri va unga qarashli yerlarga Buxoro xonligi ham da'vogar edi. Bu vaqtda Buxoro amiri Muzaffar bostirib kelayotgan

yovuz dushmanga qarshi birgalashib kurashish o'rniga Qo'qon xonligidagi ichki notinchlikdan foydalanib Xo'jandni egalladi va Qo'qon xonligining ichkarisiga bostirib kirdi. Xudoyorxon amir yordamida yana Qo'qon taxtini egalladi. Amir Chernyayevdan Toshkentni bo'shatib, Chimkentga chekinishni talab qildi. Tomonlar o'rtasida vaziyat keskinlashdi. Buxorodan oltmish ming askar Toshkent tomon kela boshladi. 1866-yil 8-mayda Yerjar manzilida bo'lgan jangda Buxoro askarlari yengildi va butun qurol-aslahalarini tashlab Buxoroga chekindilar. Rus istilochi qo'shinlari Buxoro xonligi bilan Qo'qon xonligini ajratib qo'yish maqsadida 1866-yil 24-mayda Xo'jand shahri va Nav qal'asini egalladi. O'sha yili 2-oktabrda O'ratepani, 18-oktabrda Jizzaxni bosib oldilar. Amirga bosib olingan yerlar chegarasi, rus savdogarlaridan olinadigan boj hamda bosqinchilarga to'lanadigan tovon haqida dastlabki sulh shartlari ma'lum qilindi.

1867-yil o'rtalarida Turkistonning podsho Rossiyasi bosib olgan barcha yerlaridan bevosita Rossiya hukumatiga bo'ysunuvchi markazi Toshkent shahrida bo'lgan Turkiston general-gubernatorligi va Turkiston harbiy okrugi tuzildi.

Buxoro amiri Muzaffar bilan olib borilgan muzokaralar natijasiz tugagach, 1868-yil 1-mayda Kaufman 8300 nafar qo'shin bilan Samarqandga hujum boshladi, Cho'ponota tepaligida Buxoro qo'shinlari tor-mor qilindi. Samarqandliklar shaharni qattiq turib himoya qilishiga qaramay ruslar uni ko'p talafot berib, 2-mayda egallashga muvaffaq bo'ldi. 18-may kuni Kattaqo'rg'on ham taslim bo'ldi. Zirabuloqdagi hal qiluvchi jangda amirning 15 ming otliq, 6 ming nafar piyoda (14 to'p) qo'shimi tamoman yengildi. Lekin Buxoro xonligini butunlay barham toptirish Kaufman rejasiga kirmas edi, podsho hukumati xonlikni muayyan nazorat ostida mustamlaka maqomida saqlab turishni ma'qul topdi. 1868-yil 23-iyunda Buxoro bilan bosqinchilar o'rtasida tengsiz sulh shartnomasi imzolandi. Mazkur sulh shartiga binoan Zirabuloqqa qadar bosib olingan barcha yerlar Xo'jand, O'ratepa, Jizzax, Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlari bilan birga Rossiyaga o'tdi. Bu yerlardan Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiruvchi Zarafshon okrugi tuzildi. Amudaryoda rus kemalarining erkin qatnoviga ruxsat berildi. Buxoro amirligi xorijiy mamlakatlar bilan mustaqil diplomatik aloqalar olib borishdan mahrum etildi va bosqinchilarga 500 ming so'm miqdorda tovon to'lashga majbur qilindi. Rus savdo ahli uchun amirlikda erkin savdo qilish huquqi berildi. Shunday qilib Buxoro bilan Rossiya o'rtasidagi urush yakun topdi. Ammo urush jarayonida vujudga kelgan juda ko'p siyosiy muammlar to'raligicha hal qilinmay qoldi. K. P. Kaufman o'ziga berilgan vakolatdan chetga chiqib xonlikning ichki ishlariga tez-tez aralashib turdi. Chunonchi, 1868-yil 27-oktabrda

Qarshida amirning taslimchilik siyosatiga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonni bostirib Shahrisabz va Kitob bekliklarini amirga qaytarib olib berdi, 1870-yil bahorida Zarafshon yuqori oqimidagi bekliklar Zarafshon okrugiga qo'shib olindi, natijada amirlik yerlarining qariyb uchdan bir qismini podsho Rossiyasi bosib oldi.

1873-yil 18-sentabrda Buxoro amirligi bilan Rossiya o'rtasida yangi tengsiz shartnoma tuzildi. Shartnomaga binoan Buxoro amirligining Rossiyaga qaramligi kuchaytirilib, unga Rossiya protektorati maqomi berildi. Rus ma'murlari Buxoro taxtiga valiahd tayinlash, bosh vazir va boshqa muhim lavozimlarga nomzodni ma'qullash ishlariga faol aralashib turdi.

25.2. Ijtimoiy tuzumda yuz bergan o'zgarishlar

Buxoro amirligi ustidan Rossiya protektorati o'rnatilgandan keyin u amalda Rossiya imperiyasining mustamlakasiga aylantirilgan edi. Uning ijtimoiy tuzumida yuz bergan o'zgarishlar asosan mamlakatni xom ashyo bazasiga aylantirish, amirlikda rus sanoati tovarlarini imtiyozli va erkin sotish, mahalliy aholiga nisbatan qullarcha munosabatda bo'lish va hokozolar bilan tavsiflanadi.

Bu vaqtda Buxoro amirligimining hududi 200 ming kv. km.ni tashkil etib, unda 3 mln.ga yaqin aholi yashardi. Unga Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryoning serhosil vodiylari, Kulob, Darvoz, Qorategin va Baljuan tog'li viloyatlari, shuningdek, Amudaryoning o'ng qirg'oq rayonlari (Chorjuy, Termiz va Kerka) tegishli edi.

Buxoro amirligi hududi juda katta bo'lishiga qaramay, Rossiyaga qaram davlatga aylantirilishiga qadar markazlashgan davlat emasdi. U mayda bekliklarga bo'linib ketgandi. Ularning orasida Shahrisabz, Kitob, Hisor, Qorategin va Darvoz bekliklari yarim davlat shaklida bo'lib, Buxoro amiriga nomigagina bo'ysunardilar. Buxoro ustidan Rossiya protektorati o'rnatilgandan keyin ular amir hokimiyatiga batamom bo'ysundirildi.

Buxoro amirligida o'zbeklar, tojiklar, turkmanlar, qozoqlar va boshqa xalqlar yashagan. O'zbeklar boshqa xalqlarga qaraganda ko'pchilikni – xonlik aholisining yarmidan ko'pini tashkil etgan. Ular asosan Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo vodiylarida yashab, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Tojiklar aholining 30 % ini tashkil etib, Sharqiy Buxoro deb yuritilgan tog'li rayonlarda – Kulob, Darvoz, Qo'rg'ontepa, Qorategin, Baljuan, Goshan, Shugnan va Vohanda yashaganlar. Ular ham o'zbeklar singari asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganlar.

Amir hokimiyati ostidagi Amudaryoning o'ng qirg'oq rayonlari – Chorjo'y va Kerkida turkmanlar yashagan. Ular xonlik aholisining 10

% ini tashkil etganlar va ko‘proq chorvachilik bilan shug‘ullanganlar. Buxoro amirligining Karmana va Nurota rayonlarida qozoqlar yashagan. Ular xonlikning kam sonli aholisini tashkil etgan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan buxorolik dehqonlar ikkiyoqlama ekspluatatsiya qilina boshladilar. Ularni bir tomondan, mahalliy yer egalari va sudxo‘rlar, ikkinchi tomondan rus kapitalistlari va xom ashyo sotib oluvchilar ekspluatatsiya qilganlar.

Dehqonlarning ahvoli juda og‘ir bo‘lgan. Ular yo boy yer egaloriga arzimagan haq (yiliga 10–20 so‘m) evaziga yoilanib ishlaganlar yoki chorikorlar bo‘lib qolganlar. Chorikorlar o‘z yer uchastkalarida yoki davlat yerlarida ishlovchi dehqonlardan farq qilib, yer egalariidan ijaraga yer olib ishlaganlar va ularga shaxsiy qaramlikka tushganlar.

Chorikor xo‘jayindan agar yer, pul sudasi, jonli va jonsiz inventarlar olgan bo‘lsa – hosilning $\frac{3}{5}$ qismini, agar yer va inventarlar olgan bo‘lsa – hosilning $\frac{1}{8}$ qismidan $\frac{1}{4}$ qismigacha xo‘jayinga berishi lozim edi.

Mulki xiroj yerlariga egalik qilgan dehqonlarning va amlok yerlarni ishlovchi dehqonlarning ahvoli ham yuqoridagi dehqonlarniki singari bir xil darajada og‘ir bo‘lgan. Ular davlatga turli xil soliqlar to‘lashlari lozim edi. Bularning ichida asosiysi xiroj hisoblangan. Xiroj shariat bo‘yicha hosilning $\frac{1}{10}$ qismi miqdorida olinishi lozim edi. Lekin Sharqiy Buxoroda, ya‘mi rus poseleniyelerida uning miqdori rasman hosilning $\frac{1}{3}$ qismidan to $\frac{1}{7}$ qismigacha qilib belgilangan edi. Amalda esa dehqonlardan hosilning yarmi tortib olinardi.

Shunday qilib, Buxoro amirligida soliqlar yig‘ish xalqni kuppakunduz kuni talashdan iborat bo‘lgan. Soliqlar yig‘ishda amaldorlar biron-bir choralar bilan cheklanib qolmaganlar. Agar dehqonning soliq to‘lashga puli bo‘lmasa, uning mulki tortib olingan yoki qizini zo‘rlab erga berganlar va qalin evaziga olingan pul soliq uchun ketgan. Agar bu ham yetmasa, dehqonning o‘g‘lini boy savdogar-sudxo‘rga uzoq yilga tutqinlikka berilgan va bundan olingan pullar amir xazinasiga chinovniklarni boqish uchun ketgan.

Dehqonlardan xirojdan tashqari yana ko‘pdan ko‘p quyidagi turli-tuman soliqlar: «mirobona» – miroblar (sug‘orish ishlarini kuzatib turuvchi shaxslar) foydasiga olinadigan soliq, «tavoji» – beklarning turli topshiriqlarini bajaruvchi shaxslar foydasiga olinadigan soliq, «somon puli», «qo‘sh puli» yoki «tanoban» – tomorqa va bog‘dan olinadigan soliq, «yak-sara» – ikki xo‘kiz uchun, «nim-sara» – bir xo‘kiz uchun olinadigan soliqlar va hokazolar undirib olingan.

Dehqonlar soliqlardan tashqari xilma-xil majburiyatlar ham o‘tashlari lozim edi. Jumladan, «qora qo‘noq», «qo‘narg‘a», «uloq» va boshqalar dehqonlar zimmasiga og‘ir yuk bo‘lib tushgan majburiyatlardan bo‘lgan.

«Qora qo‘noq» majburiyati shundan iborat ediki, agar amir o‘zining ko‘p sonli qo‘shini bilan bir yerga borib to‘xtasa, o‘sha yerning aholisi ularni yaxshi kutib olishi, mehmon qilishi, boqishi lozim edi. «Qo‘narg‘a»ga binoan esa amaldor biror qishloqdan o‘tib keta turib, xohlagan uyga kirib o‘zini mehmondek tutishi, nima xohlasa shuni talab qilishi mumkin bo‘lgan. Amaldorlarni dehqonlar o‘zlariga tegishli ot-uloqlari bilan bir manzildan boshqasiga tekinga yetkazib qo‘yishlari lozim edi. Bu dehqonlarning «uloq» majburiyati hisoblangan.

Shaharlarning asosiy aholisi hunarmand kosiblardan va savdogarlardan iborat edi. Hunarmandchilik ishlab chiqarishi mamlakat ekonomikasida, ayniqsa asosiy madaniy markazlardan va temir yo‘ldan uzoqdagi Sharqiy Buxoroda hanuz muhim o‘rin olib turar edi. Hunarmand kosiblar va savdogarlar ham huquqsiz edilar, katta-katta soliqlar va o‘lponlar to‘lab turar edilar. Lekin ayni vaqtda savdogarlar turli maqsadlar uchun pul berib foiz olish, ya‘ni sudxo‘rlik qilish bilan shug‘ullanar va mehnatkashlar ommasini — dehqonlarni va kosiblarni ekspluatatsiya qilishda qatnashar edilar.

Buxoro amirligi Rossiyaning protektoratiga aylantirilganligi, og‘ir mustamlakachilik asoratiga solib qo‘yilganligi natijasida tovar-pul munosabatlari, ayniqsa, xo‘jalikning asosiy tarmog‘i bo‘lgan paxtachilik sohasida tez rivojlana boshladi.

25.3. Davlat tuzumi

Chor Rossiya bilan Buxoro amirligi o‘rtasida 1868-yildagi «Sulh» va 1873-yil 28-sentabrdagi «Do‘stlik» shartnomalariga ko‘ra amirlikning davlat tuzumi o‘zgarishsiz qoldi. Bundan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad ichki siyosat sohasida mustaqillik berish emas, balki katta mablag‘ yoki mehnat sarflamasdan unga tegishli ta‘sir ko‘rsatuvchi vositalar orqali mamlakatni boshqarish edi.

Dastlab general-gubernator 1886-yilda Buxoro Rossiya imperiyasining siyosiy mahkamasini ta‘sis etdi. Siyosiy mahkamaning asosiy vazifasi «Do‘stlik» shartnomasi shartlariga amal qilishni kuzatish, qo‘shni davlatga tranzit tartibida jo‘natiladigan rus mollaridan soliq olishga yo‘l qo‘ymaslik, mahalliy ma‘muriyat xodimlari shartnomaga xilof holda boj undirilishiga yo‘l qo‘ysa egalariga qaytarish, rus tovarlaridan qonuniy yig‘imlar undirishga yo‘l qo‘ymaslik, qarzga olingan mollarni-pulini to‘lash, korxonaga mahalliy ma‘murlarni aralash-tirmaslik, rus fuqarolari o‘rtasida kelib chiqadigan jinoiy va fuqarolik ishlarini ko‘rib hal qilardi. Yangi Buxoro (Kogon) shahri boshlig‘i, Chorjo‘y, Termiz, Qarshi shaharlarida esa harbiy boshliqlar orqali amalga oshirardi.

Umuman olganda, siyosiy mahkama Buxoro amiri va uning hukumati ustidan bevosita nazoratni amalga oshirardi.

Buxoro amiri rasman davlat boshlig'i bo'lib, u siyosiy mahkama tomonidan berilgan ko'rsatmalarni ko'p sonli amaldorlari orqali amalga oshirgan. Saroy xizmatchilari 2 ta udaychi-axborot beruvchi, Peterburgdagi Buxoro elchixonasiga va Turkiston general-gubernatorligiga taalluqli bo'lgan masalalar yuzasidan amirning topshiriqlarini bajaruvchilar, shig'ovul-amirlarning shaxsiy adyutanti, mirza munshi – kotib, mirza munshi – ikkinchi darajali shaxsiy kotiblar, devonbegi – saroy kirim-chiqim va xo'jalik ishlari boshlig'i, mirzaboshi – politsiya boshlig'i, tarjimonlar va boshqalardan iborat bo'lgan. Saroy mansabdorlari amir tomonidan vazifasiga tayinlangan va undan ozod etilgan.

Buxoro amirligi ma'muriy boshqaruv mahkamasi to'rt markaziy boshqarmaga taqsimlangan. Bular ma'muriy ijro, moliya-soliq, din va sud ishlari, nazorat-qidiruv boshqarmalari edi.

1. Ma'muriy ijro boshqarmasiga qushbegi boshchilik qilgan. U moliya ishlariga, shu soha xizmatchilari faoliyati ustidan nazorat, Buxoro shahrining boshqarish, beklar va amaldorlarga rahbarlik qilishdan iborat bo'lgan. Uning huzurida maxsus devon bo'lib, unda tarjimon, ish yurituvchi mirzolar, qushbegining birinchi va ikkinchi yordamchilari, Buxoro shahri politsiya boshlig'i, devonbegi – xo'jalik ishlari boshlig'i, farroshboshi – oshxona boshlig'i, to'pchiboshi – turma boshlig'i, bozorlardan bozor haqqini yig'uvchilar, aminokachilar, savdo-sotiqni nazorat qiluvchilar, qushbegining shaxsiy xizmatchilari va 500 ta navkari bo'lgan. Ular qushchibegi tomonidan ishga tayinlangan va o'z vazifasidan ozod qilingan.

2. Moliya-soliq boshqarmasiga devonbegi rahbarlik qilgan. Devonbegi soliq yig'ish va xazinani boshqarishga rahbarlik qilgan. Bu boshqarmada mirzolar, zakotchilar, ya'ni chorva mollari va boshqa mulklardan olinadigan daromadlar (1/40) dan soliq undiruvchilar, devonbegining shaxsiy xizmatchilari, va 300 tagacha navkari va boshqalar xizmat qilgan. Ular devonbegi taqdimiga ko'ra ishga tayinlangan va o'z vazifasidan ozod qilingan.

3. Din va sud ishlari boshqarmasiga amir tomonidan tayinlangan qozikalon rahbarlik qilgan. Qozikalonga sud va notarial idoralar, ruhoniylar va o'quv yurtlarini boshqarish yuklatilgan bo'lib, unga mirzolar, ish yurituvchilar, qozilar, mulla azimlar – tergov ishlari bo'yicha qozilarning vakillari, miroxurbosh – saroy otboqarlari boshlig'i, mahramlar – shaxsiy xizmatchilar va boshqalar bo'ysunardi. Bu boshqarma xizmatchilari qozikalon tomonidan lavozimiga tayinlangan va ozod qilingan.

4. Nazorat-qidiruv boshqarmasiga bosh rais rahbarlik qilgan. U bevosita qozikalonga bo'ysungan. Boshqarma qonunlarning bajarilishini, axloqiy soflikni, dinning muhofaza qilinishini, bozorlarda torozilarni va boshqa o'lchovlarni nazorat qilgan. Bosh rais huzurida mirzolar — ish yurituvchilar, raislar, mahramlar — shaxsiy xizmatchilardan iborat mahkama bo'lgan. Barcha mansabdorlar bosh rais tomonidan vazifasiga tayinlangan va ozod qilingan. Bu haqida qozikalon va amir xabardor qilingan.

Amirlik ma'muriy-hududiy jihatdan 28 ta beklik, beklklar esa amlodkorlarga bo'lingan. Ularni qushbegi taqdimiga ko'ra tayinlangan beklar va amlodkorlar boshqargan. Ular o'z hududida soliqlarni undirish, jinoyatchilarni qidirish, tartib-intizom va osoyishtalikni saqlash ishlariga rahbarlik qilgan.

Ularning huzurida amaldorlar va xizmatchilar ham bo'lgan. Amlodkorlar qishloqlarga bo'linib, ular oqsoqollar tomonidan boshqarilgan.

Buxoro amirligida oliy sud hokimiyati amir qo'lida to'plangan bo'lib, amir o'lim jazosi bilan bog'liq ishlarni, mansabdorlarning ishlarini, o'g'irlik, bosqinchilik bilan shug'ullanuvchi guruh boshliqlarining, qushbegi, devonbegi, zakotchi, beklar, doimiy qo'shin boshliqlari ishlarini ko'rgan.

Sudlov sohasida amirdan keyin qozikalon turgan. Qozikalon qozilarga tegishli bo'lmagan jinoyat va fuqarolik ishlarini, amirlik aholisi bilan Turkiston o'lkasi aholisi o'rtasidagi merosni taqsimlash, da'voni qondirish bilan bog'liq ishlarni, Buxoro shahrida sodir etilgan jinoyat ishlarini ko'rib hal qilgan. Qozikalon huzurida katta mufti va 12 ta muftidan iborat devon bo'lib, u alohida masalalar yuzasidan shariat qonunlariga asoslanib rivoyatlar chiqarish bilan shug'ullangan.

Mahalliy qozilar 3 turga: qozilar, bosh yoki katta qozi va qozi askarga bo'lingan. Qozilar 500 tillodan yuqori bo'lmagan fuqarolik ishlarini, yer, meros masalalari bo'yicha notariuslik vazifasini bajargan. Mahalliy amaldorlar tomonidan o'tkazilayotgan tergov ishlarida o'z vakillari yoki o'zlari ishtirok etishgan. Mulkning qiymatini aniqlash, tekshirish o'tkazish mulla azimlar tomonidan amalga oshirilgan. Bosh yoki katta qozi qozilar tomonidan ko'rilgan ishlar ustidan tushgan shikoyatni ko'rib hal qilgan.

Qozi askar esa harbiylar tomonidan sodir qilingan jinoyatlar va fuqarolik ishlari bo'yicha da'volarini ko'rib hal qilgan.

Ruhoniy tabaqalarning ishlarini esa shayxulislom ko'rib hal qilgan. Buxoro shahrini boshqarish mirshablarga yuklatilgan. Buxoro shahri 2 qismga bo'lingan bo'lib, har biri 6 tadan mirshablik hududlariga ajratilgan, ularga o'nboshilar rahbarlik qilgan. Uning huzurida esa 100

tacha shabgardi bo'lgan. Mirshablar jamoat tartibini saqlash, osoyishtalikni ta'minlash, qamoqlarda tartib-intizom o'rnatish va mahkumlarni itoatda saqlashni amalga oshirganlar.

Beklik va amaldorliklarda bu vakolatlar yasovulboshiga yuklatilgan. Yasovulboshi huzurida 10–20 tagacha navkar xizmat qilgan.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

1. *Buxoro amirligi ustidan Rossiya protektorati o'rnatilishi haqida gapirib bering.*
2. *Ijtimoiy tuzumda qanday o'zgarishlar yuz berganligi haqida gapirib bering.*
3. *Soliq tizimi qanday bo'lganligi haqida gapirib bering.*
4. *Davlat tuzumi qanday ko'rinishda bo'lganligi haqida gapirib bering.*
5. *Sudlov ishlari qanday amalga oshirilgan?*

26-MAVZU: XIVA XONLIGINING ROSSIYA IMPERIYASI PROTEKTORATI (HOMIYLI) DAVRIDA IJTIMOYIY-SIYOSIY TUZUMI

1. Xiva xonligi ustidan Rossiya protektoratining o'rnatilishi.
2. Ijtimoiy tuzumi.
3. Davlat tuzumi.

26.1. Xiva xonligi ustidan Rossiya protektoratining o'rnatilishi

1873-yil 29-may kuni ruslarning asosiy kuchlari Xiva ostonalarida paydo bo'ldilar. Xiva xoni ortiqcha qon to'kilishini istamay, muzokaralar boshlash haqida o'z vakillarini fon Kaufman huzuriga jo'natdi. Ammo urushqoq general xonning taklifini oqibatsiz qoldirib, hujumga kirishdi.

Xiva xoni, sulh haqidagi navbatdagi taklifi rad etilgach, qo'shimcha kuch to'plash uchun shahardan chiqib, turkman, yovmut aholisining o'tovlari sari yo'l oldi. Afsuski, shunday qaltis bir paytda, xonning oilasi va yaqin qarindoshlari dushmanga qarshi yakdil bo'lish o'rniga, sulolaviy nizolarga berilib ketdilar. O'zbek xonliklari tarixidagi odatdagi fojea – bosqinchilarga qarshi kurash uchun birlashib harakat qilish o'rniga bo'linish yana mudhish tarzda qayta takrorlandi. Xonning inisi va uning yaqinlari dushmanga qarshi birlashib kurashish o'rniga u bilan kelishish yo'liga o'tib oldilar.

1873-yil 29-mayda Rossiya imperatori Pyotr I ning mash'um vasiyati amalga oshirilib, Xorazm saltanati poytaxti – Xiva ishg'ol etildi. Shaharga

g'olibona kirib kelgan Turkiston, Orenburg, Kavkaz qo'shinlari talon-torojga kirishdilar.

Xon saroyida oliy hukmdorlarning taxti, bebaho oltin-kumush buyumlari, turli-tuman qimmatli matolar va nodir qo'lyozma asarlar Peterburgga, podshoh saroyiga o'lja sifatida olib ketildi. O'lja olingan behisob boyliklar generallar, zobitlar va askarlar o'rtasida taqsimlab olindi. Bosqinchilar avvaldan puxta ishlab chiqilgan reja bo'yicha Xorazmning moddiy va madaniy boyliklarini talon-toroj qilishga kirishdilar.

Turkiston general-gubernatori Xiva xonini o'z huzuriga kelishini talab etadi. 1873-yilning 12-avgustida Kaufman bilan Muhammad Rahimxon II uchrashadilar va ular o'rtasida Gandimiyonda sharmandali o'zaro sulh bitimi imzolaniadi. 18 moddadan iborat bu bitim tufayli Xiva xonligi o'zining siyosiy mustaqilligini yo'qotadi. «Men kim, Xiva xoni Muhammad Rahimxon Soniy Bahodurxon o'zimni ulug' rus saltanatining quli deb tan olaman», deyilgan edi bitimning birinchi moddasida.

Xon huzurida saroy amaldorlari va rus qo'mondonlaridan iborat Devon (Kengash) tuziladi. Quyi Amudaryoning o'ng sohilidagi xonlikka qarashli barcha yerlar Rossiyaga beriladi. Rus savdogarlari va sanoatchilari Xiva xonligida boj to'lash va boshqa majburiyatlarni bajarishdan ozod etiladilar. Ular erkin savdo qilish va korxonalar qurish huquqini oladilar. Rus fuqarolarini Xiva hududida qozilar tomonidan sud qilish taqiqlanadi. Xonlikka 2 mln. 200 ming so'm miqdorida harbiy tovon solinadi. Bundan tashqari turkmanlarga 310500 so'm va yovmutlarga maxsus 106 ming so'm kumush hisobida tovon yuklatiladi.

Shunday qilib, Rossiya bilan 1873-yilda tuzilgan tinchlik shartnomasiga ko'ra, Xiva xonligi XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Rossiya davlati homiyligi (protektorati) ostidagi davlatga aylandi. Uning tarkibiga hozirgi O'zbekiston Respublikasining Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi, Turkmanistonning Toshhovuz viloyatlari kirdi. Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi yerlarda esa markazi hozirgi To'rtko'l (Petro-Aleksandrovsk) bo'lgan Amudaryo bo'limi tuzilib (1873–1918), Turkiston general-gubernatori Xiva xonini shu bo'lim boshlig'i orqali nazorat qilib turardi.

26.2. Ijtimoiy tuzumi

Xiva xonligi ustidan Rossiya protektorati o'rnatilgandan keyin ham xo'jalikning asosiy sohasi dehqonchilik bo'lib qolaverdi. Bu yerda bir necha asrlar mobaynida mehnatkashlar ommasining kuchi bilan sug'orish tarmoqlari tashkil etilib, Amudaryodan magistral kanallar o'tkazilgan

edi. Lekin sun'iy sug'orishni tashkil etishdagi qiyinchiliklar hanuzgacha saqlanib qolgandi. Natijada xonlikdagi juda ko'p yerlar dehqonchilik uchun yaroqsiz holatda edi. Sun'iy sug'oriladigan yerlar xonlikning butun hududiga nisbatan juda kam bo'lib, u 25,8 % ni tashkil qilardi. Xonlikning 74,2 % yerlari suvsiz qumli cho'llardan iborat edi.

Xiva xonligi aholisining umumiy soni 500 mingdan ko'proq bo'lib, Amudaryo bo'limida 200 mingdan ortiq kishi yashardi. Aholining asosiy qismi dehqonchilik bilan shug'ullanardi. Shahar aholisi butun xonlik aholisining taxminan 7% ini tashkil qilardi. U asosan hunarmandchilik va savdo bilan shug'ullangan. Xonlikda 90% aholi o'troq turmush tarzini kechirgan, qolganlari esa ko'chmanchilik va yarim ko'chmanchilik qilib yurgan.

Xiva xonligi ko'p millatli edi. Unda o'zbeklar – 64,7 % ni, turkmanlar – 26,8 % ni, qoraqalpoqlar – 3,8 % ni, qozoqlar – 3,4 % ni, eronliklar – 0,6 % ni, arablar – 0,3 % ni tashkil qilgan. 1897-yilgi ma'lumotlarga qaraganda, xonlikda 4 mingga yaqin ruslar yashagan.

Rus sarmoyasi sanoat, savdo va qishloq xo'jaligiga kirib kelishi natijasida asosan xom ashyoga dastlabki ishlov beruvchi korxonalar, paxta tozalash, yog', teri-ko'nychilik zavodlari, temir yo'llar qurila boshlandi. Iqtisodi, ayniqsa, paxta yetishtirish rus sanoati va bozori ehtiyojlariga moslashish yo'lidan borgan Xiva xonligi butun O'rta Osiyo singari podsho Rossiyasining asosiy xom ashyo bazasiga aylana bordi.

Bu davrda Xiva xonligida ham yerga egalik shakllari ilgariydek o'zgarishlarsiz saqlanib qoldi. Bular xususiy egalikdagi yerlar, podsholik yoki amlok yerlar – davlat yerlari va vaqf yerlari – ruhoniylar va diniy muassasalarga tegishli yerlar edi. Xon o'zining siyosiy tayanchlari doirasini kengaytirish maqsadida ko'plab davlat yerlarini maxsus yorliq bilan xizmat evaziga hadya qilib bera boshladi. Bunday yerlar soliqlardan ozod bo'lib, **yorliqlik mulki** deb atalgan.

Barcha soliq to'lovchi aholi egallab turgan yerlarining miqdoriga qarab uch darajaga bo'lingan: 1) a'lo – oliy daraja – 10 tanob va undan ortiq yerga egalik qiluvchilar, bular 3 tilla soliq to'laganlar; 2) o'rta (avset) – 5 tanobdan 10 tanobgacha yeri bo'lib, 2 tilla soliq to'lovchilar; 3) quyi – 1 tanobdan 5 tanobgacha yeri bo'lib, 1 tilla soliq to'lovchilar.

Yer fondining juda katta qismi yuqori tabaqa feodallar qo'lida to'plangan edi. Feodallar yerlarni kam yerli va yersiz dehqonlarga ijaraga berib, ularning mehnati bilan dehqonchilik qilar edilar.

Juda ko'p soliqlar va o'lponlar dehqonlarni g'oyat ezib qo'ygan edi. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, Xiva xonligida aholidan 25 xilga yaqin har xil soliqlar, o'lponlar va yig'implar olinardi. Masalan, dehqonlar solg'it deb atalgan yer solig'i, chorva mollaridan olinadigan zakot, podsholik yerlarda dehqonchilik qilayotganlardan olinadigan va dahyak

deb atalgan yer solig'i, yaylovdan foydalanganlik uchun olinadigan cho'p puli, uy-joylardan olinadigan uy puli, yersiz dehqonlardan jon boshiga olinadigan soliq, imom uchun va soliq to'plovchilar uchun olinadigan alohida yig'imlar va shu kabi soliqlarni to'lashga majbur edilar. Ariqlarni, yo'llarni va shu kabilarni tozalash va vaqti-vaqti bilan ta'mirlab turish ham dehqonlar zimmasiga yuklatilgan edi. Ular xonlikda harbiy xizmatni o'tashga ham majbur edilar. Mansabdor kishilar va ruhoniylar mana shu soliq va to'lovlarning hammasidan ozod qilib qo'yilgan edilar.

Xonlikda yerli va yersiz dehqonlar asosiy ko'pchilikni tashkil qilib, yersizlari ijarachilar hisoblangan. Ijarachi dehqonlar foydalanib turishga olgan yerlar kimga tegishliligiga qarab, uch turga bo'lingan: a) **bevaton** — davlat yerlarining ijarachilari; b) **koranda** — xususiy yerlarning ijarachilari; d) **vaqfdor** — vaqf yerlarining ijarachilari.

26.3. Davlat tuzumi

Davlat tuzumi xususida aytish mumkinki, garchi Xiva xonligi ustidan Rossiya imperiyasining homiyligi o'rnatilgan bo'lsa-da, bu yerdagi oliy hokimiyat xonga taalluqli bo'lib qolaverdi. Ammo Xiva xonining tashqi siyosati to'laligicha va ichki siyosati qisman chegaralab qo'yildi. Rossiya protektorati ostidagi Xiva xonligining huquqiy holati uning atrofini rus qo'shinlari egallagan paytda, ya'ni 1873-yil 12-avgustda Xiva xoni bilan Rossiya hukumati orasida tuzilgan shartnoma bilan belgilandi. Xon o'zini Butun Rossiya imperatorining «itoatkor xizmatkori» deb tan oldi. Uning qo'shni mamlakatlar bilan diplomatik aloqalari tugatildi. Shartnoma xonning tashqi aloqalar huquqini yo'q qilib, davlatning xalqaro-huquqiy holatini o'zgartirdi va uni Rossiyaning vassal davlatiga aylantirdi. Shu bilan xon mamlakatning ichki boshqaruvida ham mustaqillikdan mahrum bo'ldi: mamlakatning barcha ma'muriy va harbiy mansabdor shaxslarini tayinlashda Turkiston general-gubernatorining roziligini olishi lozim edi. 1873-yildagi shartnomaga muvofiq xon hukumati faoliyatini nazorat qilish va u bilan Turkiston general-gubernatorining aloqalarini yo'lga qo'yish uchun yetti a'zodan iborat tarkibda kengash (devon) tuzilib, ulardan to'rt kishi podsho ma'muriyatining vakillari edi. Kengash raisi xon bo'lsa-da, uning qarorlari Turkiston o'lkasining general-gubernatori tomonidan tasdiqlanardi. Amudaryo bo'limi tuzilgach esa, shu bo'limning boshlig'i amalda Rossiya hukumatining Xiva xonligidagi diplomatik vakiliga aylanib, kengash tugatildi. Gubernator vakolatiga ega bo'lgan Amudaryo bo'limi boshlig'i xon va uning hukumati faoliyati ustidan nazorat qilish turardi. Ushbu o'rinda ta'kidlash lozimki, Xiva xoni Muhammad Rahimxon II (1865–1910), Buxoro amiridan farqli o'laroq, mustaqillikka

intilgan. Zukko davlat arbobi va ma'rifatparvar inson bo'lgan, xalq o'rtasida Feruz shoir sifatida shuhrat qozongan xon Afg'oniston amiri, Turkiya va Angliya vakillarini yashirin qabul qilgani hamda qandaydir muzokaralar olib borgani haqida Turkiston general-gubernatori mahkamasining maxsus bo'limi, okrug shtabi kontrazvedkasi axborotlari mavjud.¹ Xivada o'tkazilgan boj islohoti (1885) xonlikni rus mollari bozoriga aylantirgani, pul islohoti esa (1900–1907) iqtisodiyotni mushkul ahvolga solgani xonni ana shunday harakatlarga undagan edi. Shunga qaramay, Xorazm xonligi bu davrda ham mutlaq yakka hokimlikka — monarxiyaga asoslangan davlat ko'rinishini saqlab qoldi. Huquqiy jihatdan davlat boshlig'i taxtni merosiy egallaydigan xon bo'lib, qonunchilik, ma'muriy hamda oliy sud hokimiyati ham unga taalluqli edi. U barcha yer, suvlarning egasi hisoblanib, davlatni yer egalari bo'lgan zodagonlar, ruhoniylar va oliy unvonli harbiylarga tayanib boshqargan.

Qushbegi xonlikning oliy mansabdorlaridan bo'lib, birinchi vazir darajasida mamlakatning janubiy qismimi boshqargan va xazinaga soliq hamda yig'img'lar tushishini kuzatib borgan. Ikkinchi o'rindagi mehtar lavozimining egasi asosan moliyaviy masalalarni hal qilish bilan birga xonlikning shimoliy qismi aholisini boshqargan. Lekin mansablarning vakolatlari aniq chegaralab qo'yilmagan edi. Birinchi vazirlik vakolati ko'pincha almashib, goh qushbegi, goh mehtar yoki devonbegi qo'lga o'tib turardi.

Muhammad Rahimxon II davrida mamlakatni boshqarish Muhammad Murod **devonbegi** qo'lida to'plangan. Xiva xonligida sud tizimiga kelsak, u deyarli avvalgi davrlardagiga o'xshash bo'lgan. Xon isyonchilik, talonchilik va shunday guruhlar boshliqlarining jinoiy ishlari yuzasidan eng oliy sudmi (va sudlovni) amalga oshirgan. Undan keyingi o'rinlarda qozi ul-quzzot yoki qozikalon (oliy sudya), fuqarolarning fuqarolik va jinoiy ishlarini shariat mezonlari asosida ko'rib hal etuvchi quyi sudlar — **qozilar**, harbiylarning ishlarini ko'ruvchi **qozi askar** (yoki sipohiylar qozisi), **naqib** — urush harakatlari davridagi katta qozi, shuningdek, keyinchalik vujudga kelgan apellatsiya (shikoyat) pog'onasi qozilarining kengashlari — **«Hay'at ul-fuqaho»** («Faqihlar hay'ati»), diniy ishlar, ulamolarning ishlarini yuzasidan **«Mahkamayi shar'iya»** («Diniy ishlar mahkamasi») kabi sudlar turgan. Diniy masalalarda vujudga keladigan ishlar yuzasidan oliy hakam **shayxulislom** hisoblangan.

Bulardan tashqari, shu davrda xonlikda tartib-intizomga mas'ul bo'lgan mansabdor — **eshon rais**, **qo'shin boshlig'i**, **yasovulboshi**, mirshab — politsiya boshlig'i bo'lgan. Xiva xonligiga tobe bo'lgan ko'chmanchi

¹ O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston Chor mustamlakachiligi davrida. 213-bet.

aholi: turkmanlar, qoraqalpoq va qozoqlarda ko'pgina hollarda fuqarolik va jinoyat ishlari odat huquqlari asosida ularning boshliqlari — **biylar (sudi)** kengashlarida ko'rib, hal etilgan.

1873-yildagi shartnomaga ko'ra, Xiva xonligi doirasidagi rus fuqarolarining jinoyiy ishlari yoki ularning o'zaro nizolari, xivaliklarning ularga bo'lgan da'volari rus sudlariga taalluqliligi mustahkamlangan. Xiva xonligi bu davrda ham ma'muriy-doiraviy tuzilishi jihatidan 20 ta beklik, 2 ta noiblikka bo'lingan bo'lib, bekliklar boshida hokimlar, noibliklar boshida noiblar turgan, ular ham xon tomonidan tayinlanishi yoki ozod qilinishi mumkin edi. Bu yerda poytaxt — Xiva shahri alohida okrug (viloyat huquqida) hisoblanib, u xon tomonidan boshqarilgan.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

- 1. Xiva xonligi ustidan Rossiya protektorati o'rnatilishi haqida gapirib bering.*
- 2. Ijtimoiy tuzumda qanday o'zgarishlar yuz berganligi haqida gapirib bering.*
- 3. Xiva xonligining davlat tuzumi qanday ko'rinishda bo'lgan?*
- 4. Sud ishlari qanday amalga oshirilganligi haqida gapirib bering.*

27-MAVZU: XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONNING IJTIMOIIY-SIYOSIIY TUZUMI

1. Turkistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishi.
2. Sovet hokimiyati va boshqaruvi organlarining ta'sis qilinishi.
3. TASSRning barpo etilishi va 1918, 1920-yillardagi konstitutsiyalari.

27.1. Turkistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishi

Rossiyaning Turkistondagi mustamlakachilik siyosati mamlakatimiz xo'jaligini turg'unlikka, inqirozga, qoloqlikka mahkum qildi. XX asr boshlariga kelib o'lkadagi iqtisodiy qoloqlik, mahalliy aholining huquqsizligi, ishsizlikning o'sishi, xalq turmush darajasining pasayib ketishi nihoyatda kuchayib ketgandi. Bularning hammasi ijtimoiy hayotda nizo va mojarolarni ko'paytirdi. O'lkamiz xalqlarining ko'pdan ko'p norozilik chiqishlari va uyushmagan qo'zg'olonlari buning dalili bo'lishi mumkin. 1916-yilgi qo'zg'olon o'lka xalqlarining ozodlik uchun kurashi tarixiga yorqin sahifa bo'lib bitildi. Bu qo'zg'olon yerli aholining milliy o'z-o'zini anglashida, unda mustamlakachilikka qarshi, mustaqillik va islom negizlari buzilmasligi uchun kurash g'oyalari mustahkamlanishida o'chmas iz qoldirdi.

Rossiyadagi Fevral demokratik inqilobining g'alaba qilganligi haqidagi xabar Toshkentga 28-fevralda yetib keldi.

Turkistonning barcha yirik shaharlarida fevral inqilobi ta'sirida ommaviy xalq harakatlari – miting va namoyishlar avj olib ketdi. Ammo bu ommaviy xalq harakatlari Turkistonda ikki yo'nalishda amalga oshdi. Birinchisi, nomilliy yo'nalish bo'lib, bu yo'nalishning asosiy yo'naltiruvchi kuchlari Turkistonga chetdan kelgan Yevropa xalqlarining vakillari edilar. Ularga rus sotsial-demokratlari, eserlar, kadetlar va shuning singari firqalarning Turkistondagi vakillari boshchilik qildilar. Mahalliy tub yerli musulmon aholi ularga ergashmadi. Chunki turkistonlik musulmonlar bu Yevropa xalqlariga mansub vakillarning barchasiga begonasirab qarardilar, ularni bosqinchi, chaqirilmagan «mehmon»lar, kofirlar deb hisoblardilar. O'lkada faoliyat ko'rsatgan turli sotsial-demokratik firqalarning maqsad-muddaolari mahalliy xalqlarning maqsad-muddaolaridan uzoq, tushunarsiz va begona edi.

Turkistonda faoliyat ko'rsatgan ikkinchi yo'nalish – bu milliy yo'nalish edi. Bu yo'nalishni islom dini ulamolari va jadidlar boshqardilar. Mahalliy tub yerli musulmonlar asosan ana shu ikkinchi yo'nalishga ergashdilar. Chunki musulmon ulamolari va jadidlar o'z oldilariga bosh maqsad qilib Turkistonning milliy mustaqilligi, erk va ozodlik uchun mustamlakachi zolimlarga qarshi kurashni qo'ygan edilar. Shu boisdan ham Rossiyaning o'zidagidan farqli o'laroq, Turkistonda ikki hokimiyatchilik emas, balki uch hokimiyatchilik vujudga keldi. Bu: birinchidan, 1917-yil 31-martda ag'darib tashlangan Turkiston general-gubernatorligi o'rnida 7-aprelda vujudga kelgan, 9 kishidan iborat vaqtili Turkiston qo'mitasi, ikkinchidan, 28-martda vujudga kelgan Toshkent ishchi va soldat deputatlari Sovetlari va, uchinchidan, «Sho'royi Islomiya» tashabbusi bilan 16-aprelda tashkil topgan Turkiston musulmonlarining Markaziy Sho'rosidir.

Mahalliy tub yerli aholi tili, dini, urf-odati, maqsad-muddaosi boshqa bo'lgan Yevropa millati vakillari bosh bo'lgan sovetlarga ergashmadi, ularga ishonmadi va kofirlar deya begonasirab qaradi. Mahalliy aholi asosan musulmon ulamolari va jadidlar tashabbusi va rahbarligida tashkil etilgan musulmonlar ishchi, dehqon deputatlari sovetlariga ergashdilar va ularni qo'llab-quvvatladilar. Bunday sovetlar Toshkentning Eski shaharida, Samarqand, Sirdaryo, Farg'ona, Andijon va boshqa viloyatlarda tashkil topdi. Musulmon ishchi-dehqon sovetlari o'z majlislarida harakat birligini ta'minlash va ommaning siyosiy kurashiga boshchilik qilish maqsadida siyosiy tashkilot tuzishga kirishdilar. Ana shunday tashkilotlardan dastlabkisi «Sho'royi Islomiya» edi.

«Sho'royi Islomiya» tashkilotining tashabbusi bilan 1917-yil 16-

aprelda Toshkentda Umumturkiston musulmonlarining I qurultoyi chaqirildi.

Qurultoy Turkistonning bo'lajak davlat qurilishi masalasiga katta e'tibor berdi. Munavvarqori Abdurashidxonov, Mustafó Cho'qayev va Sadri Maqsudiyalar milliy-hududiy boshqarish g'oyasi talabiga qarshi chiqdilar. Ularning fikricha, musulmonlar yer-suv ishlarini boshqarishni o'zlari uddalay olmaydilar. Shu bois hozircha madaniy-ma'rifiy masalalardagina muxtoriyatga erishishning o'zi yetarlidir. Umuman ushbu masalada yakdillik bo'lmadi: Turkiston, Qirg'iziston, Kavkaz va Qrim musulmonlari vakillari qurultoyda federativ jumhuriyat tarafdorlari bo'ldilar. Shu boisdan ular o'zlarini «federalistlar» deb atadilar. Volgabo'yi musulmonlari vakillari esa unitar, ya'mi yagona, bir butun qo'shma respublika tarafdori bo'lganliklaridan ular tarixda «unitaristlar» nomini oldilar.

Qurultoy qatnashchilari demokratik va federativ tamoyillar asosida tayyorlanadigan Rossiyaning bo'lajak konstitutsiyasida musulmonlar uchun teng huquqlilik ta'minlanishini talab etdilar. Mazkur konstitutsiyada barcha viloyatlar qatorida Turkiston o'lkasiga ham keng muxtoriyat huquqini beradigan Rossiya Federativ Demokratik Respublikasi asoslanishini ilgari surdilar. Qurultoyda Markaziy rahbar organ – Turkiston o'lka musulmon sho'rosi (Kraymussovet)ni tashkil etish to'g'risida g'oyatda muhim qaror qabul qilindi.

Markaziy Sho'ro zimmasiga o'lkadagi barcha tarqoq, biri-biri bilan bog'lanmagan, nizom va dasturga ega bo'lmagan jamiyat va tashkilotlarni birlashtirish vazifasi yuklandi. Zaki Validiy To'g'on ma'lumotiga ko'ra, faqat Toshkent shahrining o'zida 20 ga yaqin jamiyat va tashkilotlar bo'lgan. Bu tarqoq jamiyat va tashkilotlarni birlashtirib, boshini qovushtirishda qurultoy qaroriga asosan Markaziy Sho'roning joylarda sho'ba (bo'lim)larining tashkil etilishi g'oyat muhim o'rin tutdi.

Davlat hokimiyati haqidagi masala Umumturkiston musulmonlarining II qurultoyida ham bosh masala bo'ldi. Qurultoy 1917-yil 17–20-sentabr kunlari Toshkentda o'z ishini olib bordi. Unda 500 nafar xalq vakillari qatnashdilar. Qurultoy hokimiyatning nomilliy ishchi, askar va dehqon sho'ro (sovet)lari qo'liga o'tishiga qat'iy norozilik bildirib, barcha millat, idora, tabaqa vakillaridan iborat muxtor hukumat tuzilishi haqida qaror qabul qildi. Bu qarorda 12 kishilik Turkiston o'lka qo'mitasi, 24 kishilik «Mahkamayi Shariya» (parlament) tashkil etilishi va ular Rossiya Konstitutsiyasiga muvofiqlashtirilgan shariat qonunlari asosida faoliyat yuritishi ko'rsatildi.

Qurultoy «Sho'royi Islomiy», «Turon», «Sho'royi ulamo»ni tugatib, Turkiston va Qozog'iston uchun umumiy bo'lgan «Ittifoqi muslimin» («Musulmonlar ittifoqi») firqasini tashkil etishga qaror qildi. Biroq bunga

rus sotsial-demokratik bolsheviklar firqasi e'tibor bermadi.

Milliy istiqlol uchun kurashga bel bog'lagan va «Sho'royi Islomiya» atrofida uyushgan vatanparvar jadidchilarning bir qismi «Qadimchilar» edi. Ular ruhoniyat tarafdorlari bo'lib maydonga chiqdilar va muxtoriyatga qarshi yagona va mustaqil Turkiston g'oyasini ilgari surdilar. «Qadimchilar» 1917-yil iyundan boshlab jadidlardan ajralib chiqdilar va «Sho'royi ulamo» nomi bilan o'z mustaqil tashkilotlarini tuzdilar. Ikki o'rtadagi bo'linishning asosiy sababi Turkiston milliy mustaqilligiga erishish yo'lidagi masalada ikki xil taktik yondashuvning mavjudligi edi. «Qadimchilar» Turkiston mustaqilligini qo'lga kiritish uchun bosqinchi mustamlakachilarga qarshi g'azovot urushi e'lon qilish kerak, deb hisoblardilar. Ilg'or ziyolilar – jadidchilar esa «g'azovot yo'li» xalqni og'ir ahvolga solib qo'yishi mumkin, degan g'oyani ilgari surdilar. Ular kuchli mustamlakachi davlatga qarshi ongli va bosqichma-bosqich kurash olib borish zarur, hozirgi bosqichda Rossiya federatsiyasi tarkibida muxtoriyat huquqi uchun kurash birdan-bir to'g'ri talabdir, deb hisobladilar. Natijada milliy mustaqillik uchun kurash olib borayotgan vatanparvar kuchlar yagona jabha bo'lib maydonga chiqa olmadilar va bo'linib ketdilar.

Turkistondagi milliy demokratik kuchlarning bo'linishi nihoyatda qaltis va noqulay paytga, Toshkent shahar Dumasiga saylovlar e'lon qilingan paytga to'g'ri keldi. Saylov demokratik ruhda o'tdi. Kutilganidek, saylov «Sho'royi ulamo»ning musulmon ahli o'rtasida ta'siri kuchli ekanligini ko'rsatdi. Saylov natijalariga ko'ra, Toshkent Dumasidagi 112 o'rindan 64 mandat ulamochilarga, 10 tasi sho'roy islomchilarga, 24 tasi eserlarga va 5 mandat sotsial-demokratlarga nasib etdi. Duma saylovlarida mahalliy aholi vakillari hammasi bo'lib 76 ovozga va yevropaliklar esa 36 ovozga ega bo'ldilar. Milliy kuchlar harakatining bunday muvaffaqiyati Turkiston o'lkasining boshqa shaharlaridagi Duma saylovlarida ham kuzatildi.

Bu juda katta g'alaba edi. Ammo o'zaro birlik va ahillik bo'lmaganligidan bu g'alaba va imkoniyatdan foydalana olmadilar, ularning g'oyaviy-siyosiy dunyoqarashlarining torligi va cheklanganligi bunga imkon bermadi. Bundan esa Turkistondagi yevropalik aholi vakillari foydalandilar. Ular ulamochilar misolida mahalliy xalqni siyosiy jihatdan yetilmaganlikda aybladilar, davlatni idora qila olmaydilar, deb tashviqot qildilar. Bu hol millatlararo munosabatlarni yanada keskinlashtirdi.

Vatan va millat taqdiri hal bo'layotgan ana shu g'oyatda murakkab sharoitda jadidlar yana tashabbus ko'rsatdilar. Ular Turkiston, milliy istiqlol manfaatlari yo'lida xalqni birlashishga, ahillikka chaqirdilar. Bu esa o'z navbatida «Sho'royi Islomiya» bilan «Sho'royi ulamo»

jamiyatlarining birgalikda harakat qilishiga ma'lum darajada imkoniyat yaratdi.

Umumrossiya musulmonlari o'rtasida o'zaro hamkorlik va birlikni mustahkamlashda, jadidchilikning asosiy shiori: «ozodlik, tenglik va adolat»ni qaror toptirishda Butunrossiya musulmonlari qurultoylari katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ularning birinchisi 1917-yil 1–2-mayda Moskvada bo'lib o'tdi. Unda Turkiston, Buxoro va Xivadan ham delegatlar qatnashdi. Ko'rilgan asosiy masalalardan biri – mustamlaka bo'lgan musulmon o'lkalarining davlat tuzilishi va boshqaruvi qanday bo'lishi kerakligi to'g'risidagi masala bo'ldi. Unda musulmonlar manfaatlarini himoya qiluvchi davlat qurilishi shaklan milliy-hududiy, federatsiya asosidagi demokratik respublika bo'lishi hamda Butunrossiya musulmonlar Markaziy sho'rosi ta'sis etilishi to'g'risida qaror qabul qilindi. Bu sho'roning Ijroiya Qo'mitasiga Turkistondan Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev va Islom Shoahmedov saylandi.

Butunrossiya musulmonlarining II qurultoyi 1917-yil 21–31-iyulda Qozon shahrida bo'lib o'tdi. Unda Turkiston, Qozog'iston, Kavkaz va Qrimda davlat boshqaruvini mahalliy xalqlarning o'zi hal etishi, musulmon harbiy qo'shinlarini tashkil etish uchun Butunrossiya Markaziy Harbiy Sho'rosini ta'sis etish to'g'risida qarorlar qabul qilindi. Bu qurultoylar Rossiya qo'li ostidagi barcha musulmon o'lkalari, jumladan, Turkistonda milliy muxtor hukumat tuzilishiga katta yordam berdi. Shuningdek, umummusulmon ijtimoiy-siyosiy, milliy istiqloq va jadidchilik harakati birligi, o'zaro hamkorligi yanada rivojlandi.

1917-yil 25–26-oktabrda V.I.Lenin boshliq bolshavoylar Peterburgda Muvaqqat hukumatni ag'darib tashlab, davlat to'ntarishini amalga oshirdilar.

28-oktabrdayoq Toshkentda harbiy to'ntarish harakati boshlanib ketadi va 4 kundan so'ng bu yerda Muvaqqat Qo'mita ag'darilib, hokimiyat masalasi yangi kuchlar foydasiga hal qilindi. Toshkentda amalga oshirilgan davlat to'ntarishida tub yerli musulmon aholi qatnashmadi. Bunda jadidlarning o'rni va xizmati katta bo'ldi. Toshkentdagi davlat to'ntarishini Yangi shaharda istiqomat qiluvchi rusiyzabon xalqlar vakillari harbiylar yordamida amalga oshirdilar.

2-noyabrda Turkiston butun o'lka demokratik tashkilotlarining qo'shma majlisi bo'ldi. Unda Butunrossiya miqyosida hokimiyat tuzish masalasi hal qilinguncha Muvaqqat o'lka hokimiyatini tashkil etish muammosi muhokama qilindi. Ammo mazkur anjumanda O'lka Sho'rosi, Toshkent Sho'rosi vakillari qatnashdi. Musulmon vakillari O'lka Sho'rosi esa faqat maslahat ovozi bilangina qatnashish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Albatta, bundan mahalliy sho'ro vakillari norozi bo'ldilar. 12–15-noyabrda ulamochilar tashabbusi bilan Turkiston

o'lkasi musulmonlarining III qurultoyi chaqirildi. Unda ko'tarilgan bosh masala yana hokimiyat masalasi bo'ldi.

Musulmonlarning III o'lka qurultoyi millatlarning o'z taqdirini o'zlari belgilashlari va ularning umuminsoniy taraqqiyotga erishishlari Qur'oni Karimda aytilganidek va shariatda ko'rsatilganidek bo'lmog'i kerakligini qayd etadi. Hokimiyat masalasida musulmonlarning III o'lka qurultoyi II qurultoy qarorlarini ma'qullab yana takror qaror qiladi: «Hokimiyatning askar, ishchi va dehqonlar deputatlari Sho'rolarining qo'liga o'tganligi munosabati bilan Turkiston aholisining 98 foizini tashkil etgan va umumiy soni 10 million kishidan iborat bo'lgan musulmonlar Rossiya inqilobi ko'tarib chiqqan «ozodlik, tenglik, adolat» shiorlariga muvofiq milliy, madaniy muxtoriyat huquqiga egadirlar».

Turkiston o'lka musulmonlari ishchi, askar va dehqon deputatlari Sho'rolarining III o'lka qurultoyida hal qiluvchi ovoz bilan qatnashish huquqini talab qiladilar.

Turkiston bolsheviklari o'lkadagi butun hokimiyatni o'z qo'llariga olish uchun shafqatsiz kurash olib bordi.

1917-yil 15–22-noyabrda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan ishchi soldat va dehqon deputatlarining III o'lka syezdida hokimiyat masalasi hal qilindi. Bunda 15 kishidan iborat Turkiston Xalq Komissarlari Soveti tuzildi. (18 so'l eser va 7 bolshevik). Hukumatga mahalliy aholidan birorta ham vakil kiritilmadi. Sherali Lapin boshchiligidagi «Ulamochi»lar, menshevik va so'l eserlarning O'lka Soveti tarkibiga musulmon vakillarini ham kiritish borasidagi takliflari inobatga olinmadi.

Rossiya Xalq Komissarlari Soveti 2-noyabrda «Rossiya xalqlari huquqlari deklaratsiyasi va 20-noyabrda «Rossiya va Sharqning barcha musulmon mehnatkashlariga» murojaatnoma e'lon qildi. Deklaratsiyada xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi rasmiy ravishda tan olindi; hattoki ajralib chiqish va mustaqil davlat tuzish huquqi berildi; hamma va har qanday milliy va mustaqil davlat tuzishi huquqi berildi; hamma va har qanday milliy, diniy va boshqa cheklanishlar bekor qilindi.

Lekin bularning hammasi quruq qog'ozda qolib ketdi. Turkistonda o'rnatilgan sovet hokimiyati o'zi e'lon qilgan yuqoridagi huquq va erkinliklarni hech qanday kafolatlamadi. Aksincha ularni ro'yobga chiqishiga qarshi tish-tirnog'i bilan kurashdi.

27.2. Sovet hokimiyati va boshqaruvi organlarining ta'sis qilinishi

Shunday qilib, 1917-yil 1-noyabrda Toshkentda sovet hokimiyati o'rnatildi.

«Inqilob» to'lqinida hokimiyat tepasiga kelgan bolsheviklar va

ularning vaqtinchalik ittifoqchilari bo'lgan so'1 eserlar Turkiston xalqlarining irodasi va istaklari bilan mutlaqo hisoblashmadilar. Lenin hukumati va o'lkada uning siyosatini amalga oshiruvchi turkistonlik bolsheviklar o'lkaning mustamlaka holatini o'zgartirishni va uning xalqlariga yengillik berishni mutlaqo istamas edilar. Boshqa partiyalardan farqli o'laroq, mahalliy bolsheviklar turli bahonalar bilan hokimiyatni aholining 95 foizini tashkil etuvchi mahalliy aholiga berishni, hatto ular bilan bo'lishib olishni ham xohlamas edi. Turkistonlik bolsheviklarning tutgan bu buyuk davlatchilik yo'li Toshkentda 1917-yil 15–22-noyabrda bo'lib o'tgan sovetlarning III o'lka syezdida ayniqsa yaqqol namoyon bo'ldi.

Syezd ishida 114 ta delegat qatnashgan bo'lib, ular orasida mahalliy aholi vakillari faqat bir necha kishidan iborat bo'ldi, ya'ni syezdda mahalliy aholining vakolatli namoyandalari deyarli bo'lmadi. Shunday qilib, o'lka va uning xalqlari taqdirini hal qilish huquqini bolsheviklar, so'1 eserlar va barcha turdagi mensheviklardan iborat «yevropalik» aholi vakillarining kichik bir to'dasi o'z qo'liga kiritdi.

Natijada bolsheviklar hokimiyat masalasini amalda Turkiston xalqlari vakillarining syezdda keng ishtirokisiz hal qildilar.

Syezdning kun tartibida quyidagi masalalar turar edi: o'lka hokimiyatini tashkil etish, joylarda hokimiyat tuzish va Ta'sis majlisiga saylovlar o'tkazish. Bu masalalarning eng asosiysi o'lka hokimiyatini tashkil etish haqidagi masala edi.

Shuni ham aytish kerakki, syezddagi ayrim fraksiyalarning rahbarlari o'lkaning rahbar organlari tarkibiga mahalliy aholi vakillarini ozroq miqdorda bo'lsa-da, kiritish haqidagi takliflar bilan chiqdilar.

Bolsheviklar va maksimalistlar fraksiyasi o'lka hokimiyatini tashkil etish masalasida boshqa barcha fraksiyalarning takliflarini barbod qilib, syezdga o'zlarining sinfiy va buyuk davlatchilik – shovinistik ruhdagi deklaratsiyasini taklif qildi. Bu deklaratsiyaga muvofiq, Turkistondagi oliy hokimiyat organi «hozirgi vaqtda Turkiston O'lkasi Xalq Komissarlari Kengashi deb atalayotgan ishchi, soldat va dehqon deputatlari o'lka kengashi» hisoblandi. Unga mudofaachi guruhlarining, shuningdek, mahalliy aholining vakillari kiritilmadi. So'nggi masala yuzasidan deklaratsiyada «hozirgi vaqtda musulmonlarni o'lka inqilobiy hokimiyatining oliy tashkilotiga kiritish maqsadga muvofiq emas» deb ko'rsatib o'tilgan edi. Bolsheviklar va maksimalistlar deklaratsiyasini yoqlab 97 delegat ovoz berdi, 17 delegat betaraf qoldi va bir delegat unga qarshi ovoz berdi.

Bolsheviklar bilan maksimalistlarning buyuk davlatchilik-shovinistik ruhdagi rezolutsiyasi Turkiston O'lkasi Xalq Komissarlari Kengashining (XKK) tarkibini shakllantirish jarayonida amalda ro'yobga chiqarildi. Kengashga 8 so'1 eser va 7 bolshevik hamda maksimalist kirdi. «Xalq

komissarlari» orasida ko'p millionli mahalliy aholining birorta ham vakili yo'q edi. Hukumat boshlig'i qilib F.I.Kolesov saylandi.

Birinchi o'lka sovet hokimiyatining farq qiluvchi xususiyatlaridan biri yana shu ediki, unda qonun chiqaruvchi organ – Markaziy Ijroiya Qo'mita (MIQ) saylanmadi.

Syezd bolsheviklarning tashabbusi va tazyiqi bilan o'lkadagi yangi hokimiyatning rahbar organi tarkibiga ko'p millionli mahalliy aholining birorta ham vakilini kiritmasdan, bu aholiga nisbatan o'taketgan darajada adolatsizlik qildi, bu bilan hokimiyat tepasiga kelgan bolsheviklar chorizmning mustamlakachilik siyosatini yana davom ettirishini tasdiqladi. Bundan tashqari, syezd bolsheviklarning buyuk davlatchilik-shovinistik siyosati natijasida chorizm zamoniga nisbatan bir qadam orqaga tashlandi. Chunki chorizm zamonida Turkiston xalqlarining vakillari Davlat Dumasiga saylangan edilar va Muvaqqat hukumat mavjud bo'lib turgan qisqa muddatli davrda ular Turkiston qo'mitasi tarkibiga kirgan edilar.

Syezd o'zining 1917-yil 22-noyabrda bo'lib o'tgan oxirgi majlisida joylarda hokimiyatni tashkil etish masalasini qarab chiqdi. Shu masala yuzasidan qabul qilingan rezolutsiyada joylardagi butun hokimiyat ishchi, soldat va dehqon deputatlari kengashlariga beriladi, deb ko'rsatib o'tilgan edi. Bu bilan syezd butun o'lkada hokimiyatning sovetlar qo'liga o'tish jarayonini tezlashtirdi. Shu tariqa, bolsheviklar so'l eserlarning qo'llab-quvvatlashi bilan ko'p millionli mahalliy aholining amaliy ishtirokisiz, uning fikri va manfaatlarini hisobga olmasdan turib, Turkistonda oktabr to'ntarishini amalga oshirdilar, sovet hokimiyatini e'lon qilib, bolsheviklar tuzumini o'rnatdilar. Lekin Turkistondagi milliy siyosiy tashkilotlar taqdirga tan berib siyosiy kurashni to'xtatmadilar. 1917-yilning oxiriga kelib o'lkadagi mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyat shundan dalolat berar ediki, Turkiston amaliy jihatdan muxtoriyatga erishish arafasida turgan edi.

Turkiston bolsheviklari va so'l eserlari musulmon aholisining o'lkani boshqarishga bo'lgan huquqini inkor qilib, hokimiyat to'g'risidagi masalani kelishib hal qilish imkoniyatini yo'qqa chiqardilar va shu bilan o'lka siyosiy hayotidagi kuchlarning kelgusida muxolifatga aylanishini oldindan muqarrar qilib qo'ydilar.

Toshkentdagi Xalq Komissarlari Kengashi Turkiston musulmonlari vakolatli syezdining mamlakatni idora qilishni yerli xalq qo'liga topshirish haqidagi qarorini rad etganidan so'ng, «Markaziy Sho'royi Islom» tashkiloti hokimiyat masalasini hal etish uchun mustaqil harakat boshlashga majbur bo'ldi. Biroq Toshkentda mustahkam joylashib olgan sovet komissariati qizil qo'shin kuchiga tayanib, milliy markaz deb hisoblangan «Markaziy Sho'royi Islom» harakatiga ochiqdan-ochiq

to'sqinlik qildi. Shundan keyin milliy markaz o'z harakatini Qo'qondan turib davom ettirishga qaror qildi.

1917-yil 26-noyabrda Qo'qon shahrida O'lka musulmonlarining IV favqulodda syezdi ish boshladi. Kun tartibiga o'lkani boshqarish shakli, Turkiston Markaziy musulmonlar sovetini qayta saylash, Turkiston Ta'sis majlisi, militsiya, moliya va boshqa masalalar qo'yildi.

Syezdda uch kunlik munozaradan so'ng vakillar Turkistonning bo'lg'usi siyosiy tuzumi to'g'risida qat'iy bir fikrga yakkilik bilan kelishib oldilar. 27-noyabr kuni kechasi soat 12 da 2 kishi qarshi bo'lib qabul qilingan qarorda, jumladan, shunday deyiladi: «Turkistonda yashab turgan turli millatga mansub aholi Rossiya inqilobi da'vat etgan xalqlarning o'z huquqlarini o'zlari belgilash xususidagi irodasini namoyon etib, Turkistonni federativ Rossiya respublikasi tarkibida hududiy jihatdan muxtor deb e'lon qiladi, shu bilan birga muxtoriyatning qaror topish shakllarini Ta'sis majlisiga havola etadi». Shundan keyin syezd «Turkistonda yashab turgan milliy ozchilik aholi huquqlarining muttasil himoya qilinishini tantanali ravishda e'lon qiladi».

28-noyabrda tashkil topayotgan mazkur davlatning nomi «Turkiston Muxtoriyati» deb ataladigan bo'ldi. Hokimiyatni esa Ta'sis syezdi chaqirilgunga qadar Turkiston Muvaqqat Kengashi va Turkiston Xalq (Milliy) Majlisi qo'lida bo'lishi ta'kidlandi.

Umummusulmon syezdining 27-noyabrda Turkiston Muxtoriyatini tashkil qilganligi haqidagi qarori o'lka xalqlarini ruhlantirib yubordi. Turkiston xalqlari muxtoriyatni qo'llab-quvvatlab mitinglar, yig'inlar uyushtirdilar.

27.3. TASSRning barpo etilishi va 1918, 1920-yillardagi konstitutsiyalari

Turkiston ishchi, askar va dehqon deputatlari sho'rolarining III qurultoyi qarorlaridan norozi bo'lgan tub yerli musulmon aholi vakillari V. I. Lenin e'lon qilgan «Rossiya xalqlari huquqlari deklaratsiyasi» (1917-yil 15-noyabr) kabi murojaatlari asosida milliy istiqloq muammosini hal qilishga kirishdilar. Bu borada Butunturkiston musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Qurultoy 1917-yil 25-noyabr kechasidan boshlab, besh kecha-kunduz davomida ishlab, 12 kishilik «Turkiston muxtoriyati» deb nomlangan muvaqqat hukumat va uning 54 kishidan iborat oliy organi – Xalq majlisi (parlamenti)ni sayladi. Uning tarkibiga 36 nafar musulmon, 18 nafar rusiyzabon xalqlar vakillari kiritildi. Qurultoy «Sho'royi Islomiy» tomonidan chaqirilib, unda 203 ta delegat qatnashdi. Rosa bir oydan so'ng – dekabrning 25- kuni Qo'qonda Butunturkiston ishchi, askar va dehqonlarining favqulodda I

qurultoyi chaqirildi. U Turkiston muxtoriyatini qonuniy hukumat deb tan oldi va Turkistonda siyosiy tanglik va qon to'kilishi xavfi kuchayganligi va buning oldini olish uchun qo'sh hukumatni tugatish, Toshkentdagi sho'ro hukumati hokimiyatini Turkiston muxtoriyatiga topshirish zarurligini ko'rsatib, Leninga telegramma yubordi. Ammo Lenin telegrammaga javob bermay, o'lkadagi noqonuniy bosqinchi Sho'ro hukumatini qo'llab-quvvatlaydi.

Turkiston muxtoriyatini ko'pgina nomusulmon firqa va jamoat tashkilotlari ham qo'llab-quvvatladilar. Shaharlarda tantanati namoyishlar bo'ldi, milliy va rus matbuotida uni madh etuvchi, barcha millatlar manfaatiga mos ekanligi haqida o'nlab maqola va chaqiriqlar bosiladi. Shunga qaramay, u 72 kun hayot ko'rdi. Sho'ro hukumati 1918-yil fevralda Muxtoriyatni va Qo'qon shahri aholisini qonga botirdi, uch kunlik qirg'inda shaharda 10.000 kishi o'ldirildi, shahar qizil askarlar tomonidan talandi. Lenin boshliq kommunistik firqa va sho'ro hukumatining ikkiyuzlamachiligi, mustamlakachilik siyosati va shovinizmi fosh bo'ldi. Chunki Turkiston muxtoriyati bolsheviklarning inqilobdan oldinoq e'lon qilgan asosiy shiori: «millatlarning o'z taqdirini o'zlari belgilash va hatto, mustaqil davlat bo'lib ajralib chiqish huquqi» asosida tashkil topgan edi. Afsuski, xalqning bu orzu-umidi, jadiclarning esa rus sotsial-demokratiasiga ishonchi puchga chiqdi. Bu esa kommunistik sho'ro tuzumi va uning yo'l boshchilari siyosatining soxta mohiyatini va munofiqligini ro'y-rost namoyon etdi. Qo'qon fojeasi xalq ommasi va jadiclarga sho'ro hukumatining 1917-yildagi «Rossiya xalqlari huquqlari deklaratsiyasi» va «Rossiya va Sharqning barcha musulmon mehnatkashlariga» degan murojaatining mohiyati aldash va munofiqlikdan iborat ekanligini anglab yetishga imkon berdi. Bu hol Turkiston o'lkasida siyosiy inqirozni kuchaytirdi va o'lka xalqlarining Sho'rolar mustamlakachiligiga qarshi ozodlik va erk uchun qo'lga qurol olib kurashiga sabab bo'ldi.

Turkiston muxtoriyatining vahshiylarcha qonga botirilishi va Qo'qon shahrida tub yerli musulmon aholining ommaviy sur'atda qirg'in qilinishi, Sho'rolar hukumatining o'lkada yurgizgan mustamlakachilik, shovinistik siyosatining natijasi o'laroq avj olib ketgan ocharchilik Turkiston o'lkasi mehnatkashlarining sho'rolar hukumatiga nisbatan mislsiz nafrat va g'azabini kuchaytirib yubordi. Xalq ommasi bolshevoylarning so'z va ish birligida osmon bilan yercha farq borligini amalda, hayotda ko'rib, ochiqdan-ochiq Sho'rolardan yuz o'girib, Turkiston istiqlolchilari safini to'ldira boshladilar. O'lkada siyosiy inqiroz borgan sayin kuchayib bordi. Bolshevoylar hukumati o'lkada vujudga kelgan siyosiy inqirozdan chiqishi uchun har xil taktik nayranglarni ishga sola boshladilar va go'yoki o'zlarini o'lkadagi mehnatkash va

mazlum xalqlarning himoyachisi va g'amxo'ri qilib ko'rsatishga urindilar. Ana shunday taktik ayyorliklardan biri Turkistonda Sho'rolar muxtoriyatini tashkil etish harakati bo'ldi. Chunki ular mahalliy yerli xalqning aksariyati Turkiston muxtoriyati tarafida bo'lib, unga xayrixohlik ko'rsatganliklarini yaxshi bilar edilar. Bolshevoylar o'z harakatlarini oqlashga urinib, biz har qanday muxtoriyatga qarshi emasmiz, faqat «burjuylar manfaatiga» xizmat qiluvchi muxtoriyatga (masalan, Turkiston muxtoriyatiga) qarshimiz, xolos. Proletariat, ya'ni yo'qsullar manfaatini himoya qiluvchi muxtoriyatni tashkil etishni o'z maqsadimiz deb bilamiz, deya sodda xalqni laqillatdilar, ma'lum ma'noda ular o'z maqsadlariga erishdilar ham.

Bolshevoylar istak-xohishiga batamom javob bera oladigan Turkiston Muxtor Sho'ro Respublikasi Turkiston o'lkasi Sho'rolarining V qurultoyida tashkil etildi. O'lka Sho'rolarining qurultoyi 1918-yil 20-aprelda o'z ishini boshladi. Unda 263 mandatga ega bo'lgan vakillar qatnashdi: Shulardan 86 kishi bolshevik, 70 kishi so'l eser va 87 kishi firqasiz edi. Qurultoyda tub yerli mahalliy xalq vakillaridan bor-yo'g'i 50 ga yaqin kishi qatnashdi. Bu qurultoy vakillarining atigi 20 foizini tashkil etar edi. Shu bois qurultoy qabul qilgan qarorlar mahalliy musulmon xalqlarining talab va ehtiyojlarini o'zida to'la ifoda etar edi, deb aytish uchun hech qanday asos yo'q.

23–26-aprel kunlari qurultoy sanoat korxonalarini milliylashtirish, temir yo'l transportidagi ishlarning borishi, yer-suvga doir tadbirlarni amalga oshirish, harbiy qurilish, Turkistondagi oziq-ovqat masalasining ahvoli kabi masalalarni muhokama qildi va qarorlar qabul qildi. 27-aprelda qabul qilingan «Turkiston Xalq Komissarlari Sovetining navbatdagi vazifalari to'g'risida»gi deklaratsiyada ochiqdan-ochiq mustamlakachilik ruhidagi qaror qabul qilindi. Unda: «...Turkiston Rossiya Federatsiyasining tarkibiy qismi bo'lib qoladi», deyilgan edi.

30-aprelda shaxsan V. I. Leninning ko'rsatmasi asosida qurultoy RSFSR tarkibiga kiruvchi Turkiston Muxtor Sho'ro Respublikasini tuzish to'g'risida qaror qabul qildi va «Turkiston Sho'ro Respublikasi to'g'risida Nizom»ni tasdiqladi.

Qurultoy Turkiston Muxtor Sho'ro Respublikasining Markaziy Ijroiya Qo'mitasi va Xalq Komissarlari Sovetini sayladi. Markaziy Ijroiya Qo'mita tarkibiga 36 kishi saylandi. Markaziy Ijroiya Qo'mitaning raisi etib bolshevik P. A. Kazakov saylandi. Turkiston Respublikasining oliy davlat organlari tarkibiga birinchi marta mahalliy, tub yerli aholi vakillari, chunonchi, Markaziy Ijroiya Qo'mitaga 7 kishi va Xalq Komissarlari Sovetiga 4 kishi kiritildi. Rahbarlik o'rinlarining 80 foizini tub yerli bo'lmagan millatlar vakillari egallab oldilar. Ana shu tariqa Sho'rolar hukumati biz Turkiston o'lkasi xalqlarining talab va ehtiyojlarini

qondirdik, ularga muxtoriyat berdik, deb dunyoga jar soldilar. Amalda esa berilgan muxtoriyat tabiatan milliy emas, hududiy edi, xolos. Bu muxtoriyatning barcha samaralari mustamlakachi sho‘rolar hukumati manfaatlariga bo‘ysundirilgan edi.

Bu oddiy haqiqatni yana shundan ham bilish mumkinki, 1918-yil 4-iyulda Moskvada to‘plangan Sho‘rolarning V qurultoyi RSFSRning birinchi Sho‘ro Konstitutsiyasini qabul qilishi bilan 1918-yil 5–14-oktabrda Turkiston o‘lka Sho‘rolarining VI favqulodda Qurultoyi chaqirildi. Unda RSFSR Konstitutsiyasidan ko‘chirib va unga monand tarzda Turkiston Muxtor Sho‘ro Respublikasining birinchi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Albatta, bu ishlarning hammasi siyosiy o‘yin va nayrangbozlikdan boshqa hech narsa emas edi.

Keyinchalik Turkiston Avtonom Respublikasining huquqlari yanada toraytirildi. Turkiston Avtonom Respublikasining 1918-yil oktabrda sovetlarning VI o‘lka syezdida bolsheviklar tahririda qabul qilingan birinchi Konstitutsiyasida boshqaruvning mudofaa, tashqi aloqa, temir yo‘llar, savdo va moliya kabi eng muhim sohaları federal hukumat tasarrufiga berildi. Konstitutsiya Turkiston Respublikasining sinfiy xususiyatini qonun yo‘li bilan mustahkamladi. Unda ko‘rsatib o‘tilishicha, sovetlarga saylash va saylanishga faqat «boshqalar mehnatini ekspluatatsiya qilmaydigan, mehnat bilan topiladigan daromadga yashaydigan shaxslar: sanoat, savdo va qishloq xo‘jaligida va boshqa sohalarda band bo‘lgan barcha turdagi va toifadagi ishchilar, xizmatchilar, boyluk orttirish maqsadida yollanma mehnatdan foydalanmaydigan dehqonlar, kazaklar va fuqarolarning boshqa ayrim toifalari» haqli edilar. Ayni vaqtda «mehnatsiz daromad» hisobiga yashaydigan shaxslar, din peshvolari, rohiblar, xususiy savdogarlar, tijoratchilar, tadbirkorlar va hokazolar saylash va saylanish huquqidan butunlay mahrum etildi. Shu tariqa, qonun yo‘li bilan Turkiston jamiyatining ko‘pgina ijtimoiy qatlamlari va toifalari davlatni boshqarishda ishtirok etishdan chetlashtirilgan edi.

Bu Konstitutsiyada Turkiston Respublikasining deklarativ xarakterdagi, ya‘ni amalda hech qanday ta‘minlanmagan quyidagi «mustaqil» huquqlari belgilandi:

- 1) Konstitutsiya miqyosida belgilangan qonunlar qabul qilish;
- 2) Turkiston Respublikasining yerlari, suvlari va zahiralari tasarruf etish va boshqarish;
- 3) Mehnatga haq to‘lash me‘yorlari va lavozimlarni, boshqaruvning federal hukumat sohalaridan boshqa barcha sohalariga mansabdor shaxslarni tanlash, federal hukumatlarga nisbatan o‘z ixtiyoriga ko‘ra nomzodini qaytib olish va nazorat qilish huquqini ta‘sis etish;
- 4) Federal hukumat tomonidan qabul qilingan mahalliy shart-sharoit,

harbiy muassasalar asoslariga nisbatan qo'llanadigan o'zgarishlar;

5) Mahalliy xo'jalik, qo'shnihilik va militsiya masalalari bo'yicha federal vakillar orqali yon mamlakatlar bilan bevosita munosabatda bo'lish;

6) Rossiya Federatsiyasi miqyosida qarz va moliyaviy bitimlar;

7) Federal soliq va to'lovlardan tashqari boshqa soliqlarning o'rnatilishi;

8) Respublikaning maishiy xususiyatlarini hisobga olgan holda fuqarolik va jinoiy sud tizimi va sudlov asoslari, shuningdek, fuqarolik va jinoyat qonunlarining o'zgarishlari;

9) Turkiston Respublikasi miqyosida umumiy va qisman amnistiya;

10) Vakolatxona me'yorlariga nisbatan saylov qonunining o'zgarishlari;

11) Turkiston Respublikasi tarkibiga kiruvchi viloyat va milliy uyushmalarning chegara va vakolatlarini belgilash va ularga o'zgartirish kiritish, o'zaro bahslarning yechimini topish;

12) Turkiston Respublikasi tarkibiga Rossiya Federatsiyasi miqyosida yangi a'zolarning qabul qilinishi va unga ilgari a'zo bo'lganlarning chiqishini tasdiqlash;

13) Turkiston Respublikasi umumiy ma'muriy-hududiy bo'linishi;

14) Turkiston Respublikasi hududida federal hukumat tomonidan ishlab chiqilgan xo'jalikni rivojlantirish rejalariga asoslangan xalq xo'jaligi rejasining mustaqil o'rnatilishi;

15) O'z budjetiga ega bo'lish.

Bu kabi me'yorlar Turkiston ASSRning 1920-yilgi Konstitutsiyasida o'z ifodasini topdi.

Turkiston ASSRning 1920-yil Konstitutsiyasi TASSRning 1918-yil Konstitutsiyasining Turkrespublikasining huquqlari to'g'risidagi ayrim bandlariga aniqlik kiritdi, ayrimlarini chiqarib tashladi. Shunday qilib, TASSRning 1920-yil Konstitutsiyasiga muvofiq, Turkiston Respublikasi quyidagi «mustaqil» huquqlarni amalga oshirishi mumkin edi:

1) Turkiston Respublikasi sarhadlarida joylashgan yer, yer osti boyliklari va suv zahiralari tasarruf qilish;

2) Konstitutsiyada belgilanganidek qonunchilik va boshqaruv;

3) Lavozimlar ta'sis qilish va ish haqi me'yorlarini belgilash, federal hukumatlariga tegishli bo'lmagan boshqaruvning boshqa barcha sohalari mansabdor shaxslarini tanlash va tayinlash;

4) Federal hukumat tomonidan belgilangan soliq va to'lovlardan qat'i nazar soliq va to'lovlarni belgilash;

5) Respublikaning mehnat qiluvchi aholisiga tatbiq qilinadigan sud tizimi va sudlov asoslari huquqiy me'yorlarini belgilash;

6) Turkiston ASSR tarkibiga kiruvchi viloyat va milliy uyushmalar

hududlari chegaralari va vakolatlarini belgilash va o'zgartirish;

7) Turkiston ASSR ma'muriy-hududiy bo'linishini belgilash;

8) Turkiston ASSR miqyosida umumiy va qisman avf etish va amnistiya;

9) Turkiston ASSR budjetini belgilash va tasdiqlash uchun Butunittifoq markaziy ijroiya qo'mitasiga taqdim qilish.

Turkiston ASSRning 1920-yilgi Konstitutsiyasi Turkiston Respublikasining quyidagi huquqlarini chiqarib tashladi:

a) Federal hukumat tomonidan qabul qilingan mahalliy shart-sharoitlarga asoslangan harbiy muassasalarni o'zgartirish huquqi;

b) Mahalliy xo'jalik, qo'shnichilik va militsiya masalalari bo'yicha federal vakillar orqali yon mamlakatlar bilan bevosita munosabatda bo'lish huquqi;

d) Rossiya Federatsiyasi miqyosida qarz va moliyaviy bitimlar huquqi;

e) Turkiston Respublikasi tarkibiga Rossiya Federatsiyasi miqyosida yangi a'zolarining qabul qilinishi va unga ilgari a'zo bo'lganlarning chiqishini tasdiqlash huquqi va boshqa huquqlar.

Turkiston ASSRning 1918-yilgi Konstitutsiyasida mudofaa, tashqi aloqalar, pochta, telegraf, dengiz ishi, temir yo'llar, tashqi savdo, sanoat va moliya federal boshqaruv vakolatlariga mansubligi ko'rsatilgan bo'lsa-da, bu masalalar bilan bevosita Turkiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasiga bo'ysunuvchi maxsus komissarliklar shug'ullangan.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

1. *Turkistonda sovet hokimiyati qanday o'rnatilganligi haqida gapirib bering.*
2. *«Sho'royi Islomiya» qanday tashkilot ekanligi haqida gapirib bering.*
3. *«Sho'royi ulamo» tashkiloti haqida gapirib bering.*
4. *Butunrossiya musulmonlarining II-, III- o'lka qurultoyi hamda ishchi soldat va dehqon deputatlarining III o'lka syezdi haqida gapirib bering.*
5. *Sovet hokimiyati boshqaruv organlari qanday ta'sis etilgan?*
6. *Sovetlarning III o'lka syezdida qanday masalalar ko'rilgan edi?*
7. *O'lka musulmonlarining IV favqulodda syezdida qanday masalalar ko'rildi?*
8. *TASSRning barpo etilishi qanday amalga oshirildi?*
9. *TASSRning 1918-yilgi Konstitutsiyasi qanday ko'rinishda bo'lganligi haqida gapirib bering.*
10. *TASSRning 1920-yilgi Konstitutsiyasida qanday o'zgartishlar qilindi?*

ENG YANGI DAVR DAVLATI VA HUQUQI

XI BOB. 1917–1990-YILLARDA DAVLAT VA HUQUQ

**28-MAVZU: BUXORO VA XIVA XONLIKLARINING
SHO'ROLAR TOMONIDAN BOSIB OLINISHI VA
BOSHQARUV TIZIMI**

1. Xivada sovet hokimiyatining o'rnatilishi va yangi davlat organlarining ta'sis qilinishi.
2. Buxoroda sovet hokimiyatining o'rnatilishi va yangi davlat apparatining tashkil qilinishi.
3. Xorazm Xalq Sovet Respublikasi davlat tuzumi.
4. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi davlat tuzumi.

28.1. Xivada sovet hokimiyatining o'rnatilishi va yangi davlat organlarining ta'sis qilinishi

1917-yil oktabrda Rossiyada amalga oshirilgan harbiy to'ntarish va Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy voqealar, ayniqsa o'lka xalqlarining istiqloq uchun, milliy-ozodlik uchun muqaddas kurashga o'tlanishlari Buxoro amirligi va Xiva xonligi hududidagi xalqlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. 1868-yilda Rossiya bilan Buxoro amirligi va 1873-yilda Rossiya bilan Xiva xonligi o'rtasida imzolangan bitimlarga asosan har ikkala davlat Rossiyaning yarim mustamlakasi – vassallari hisoblanardi. Ular chet el davlatlar bilan mustaqil sur'atda biror-bir sohada aloqa qila olmas edilar.

Buxoro amirligi va Xiva xonligida monarxistik tuzum hukmron edi, ya'ni amir va xon o'z hududlarida cheklanmagan hukmronlik mavqeyiga ega bo'lgan.

Buxoro va Xiva hududlari ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotda juda orqada edi. Bu yerda sanoat ishlab chiqarish munosabatlari to'g'risida so'z ham bo'lishi mumkin emas.

Buxoro va Xiva aholisi asosan dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, kosibchilik va boshqa ishlar bilan shug'ullangan. Bu davlatlarda xalq ommasining iqtisodiy turmush sharoiti haddan tashqari og'ir bo'lgan. Eng yaxshi yerlar, katta-katta bog'lar, sug'orish manbalari bo'lgan ariqlar va quduqlar boylar va ruhoniylar qo'lida edi. Mehnatkash xalq ularga behisob va haddan tashqari har xil og'ir soliqlar to'lagan. Shu boisdan aholining kichik bir guruhi to'q va farovon hayot

kechirib, zeb-ziynatda yashagan bo'lsa, asosiy ko'pchilik qismi qashshoqlik va faqirlikda umr kechirgan.

Mehnatkash omma amir, xon va boylar zulmi, siyosatiga qarshi bir necha bor bosh ko'taradi. Ammo bu harakatlar har doim shafqatsizlarcha bostirildi. 1912–1913-yillarda Xiva xonligidagi turkmanlarning chiqishlari, 1916-yili Jizzax qo'zg'oloni ta'sirida Buxoro amirligining Murg'ob, Vobkent, Yakkatut, G'ijduvon, Bahovuddin, Ziyovuddin, Xatirchi va boshqa muzofotlarida yuz bergan qo'zg'olonlar bunga yorqin misol bo'la oladi. Ayniqsa Xiva xoni Asfandiyorxonning jabr-zulmidan xalq qattiq azob va musibat chekkan, ochlik va qashshoqlik misli ko'rilmagan darajada kuchaygan.

1914–1918-yillarda yuz bergan jahon urushi, 1917-yilda Rossiyada amalga oshirilgan fevral burjua-demokratik inqilobi, undan keyingi oktabr harbiy to'ntarishi, va nihoyat, Turkiston o'lkasidagi milliy-ozodlik va istiqlochlilik harakatlarining oqibatlari natijasida iqtisodiy hayot keskin tus oldi. Har ikkala davlat hududida iqtisodiy tanglik kuchaydi, narxnavo mislsiz darajada ko'tarildi, qashshoqlik, ochlik avj oldi, paxta ekin maydonlari keskin qisqarib ketdi.

Natijada sabr kosasi to'lib-toshgan xalq o'z-o'zidan ixtiyorsiz ko'cha jangiga otilib keta boshladi.

Buxoro amirligi va Xiva xonligida sodir bo'layotgan xalq kurashining mafkuraviy asosini jadidchilik harakati tashkil etdi.

Buxoro va Xiva jadidlari unchalik keskin bo'lmasa-da, isloh qilish tarafdorlari bo'lib maydonga chiqdilar.

Hududiy jihatdan yagona bo'lgan O'rta Osiyoda jadidchilik harakati bir vaqtda paydo bo'lgan bo'lsa-da, o'z oldiga qo'ygan kurash maqsadlari jihatidan ikki xil yo'nalish kasb etgan. Jumladan, Turkiston jadidlari o'z oldilariga bosh maqsad qilib Turkiston o'lkasini Rossiya mustamlakachilaridan ozod qilish va milliy mustaqil davlat tuzishni qo'ygan bo'lsalar, Buxoro va Xiva jadidlari hokimi mutloq, o'z monarxlari bo'lgan amir va xon zulmiga qarshi kurashni bosh maqsad deb bildilar.

Buxoro va Xiva xalqlari mustamlakachilik zulmini o'z boshidan to'liq kechirmadilar. Chunki Rossiyaga yarim mustamlaka, yarim qaram bo'lsa-da, Buxoro bilan Xiva o'z ichki mustaqilligini saqlab qolgan edi. Bu yerda mahalliy boylar va mushtumzo'rlar zulmi kuchli edi. Boylar va amaldorlar amir va xon himoyasida edi. Bugina emas, ko'p hollarda amir va xon zulmi hammasidan ham oshib tushar edi. Mehnatkash xalqning arz-dodini esbitadigan bir kimsa yo'q edi. Xalq ommasi hokimi mutloq monarx — amir va xon o'rniga insofliroq va adolatliroq hukmdorga ega bo'lishni xohlar edi. Xalqning bu intilishi va qiziqishini Buxoro va Xiva jadidlari idrok etdilar va uni yoqlab chiqdilar. Ular shu boisdan ham amir va xonga qarshi kurashni bosh maqsad deb bildilar.

«Yosh turklar» faoliyati Buxoro va Xiva jadidlari faoliyati uchun namuna va o'ldov mezoni bo'ldi. Shuning uchun ular «Yosh turklar»ga taqlid etib o'zlarini «Yosh buxoroliklar» va «Yosh xivaliklar» deb atay boshladilar. «Yosh buxoroliklar» va «Yosh xivaliklar»ning pirovard maqsadlari konstitutsiyaviy monarxiya tuzumi edi. Ular ana shu konstitutsiyaviy monarxiya tuzumi doirasida islohotlar o'tkazish yo'li bilan adolatli va insonparvar jamiyat qurish mumkin, deb ishonardilar.

«Yosh buxoroliklar» va «Yosh xivaliklar» ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi taqozosiga ko'ra xalq ommasini o'rtasida mustahkam tayanch bazaga ega emas edilar. Ular o'zlariga ittifoqchilarni chetdan izladilar va Rossiya timsolida amir va xon zulmidan ozod bo'lish mumkin, degan fikrga borib katta siyosiy xatoga yo'l qo'yidilar.

Rossiyadagi fevral inqilobi Xiva xonligida ham siyosiy jarayonlarning kuchayishiga turtki berdi. Ko'pgina shaharlarda yig'ilishlar, mitinglar va namoyishlar bo'lib o'tdi. 1917-yil 4-aprelda xonlik poytaxtida yosh xivaliklar boshchiligida bo'lib o'tgan namoyishda ko'pchilik ishtirok etdi. Ularga qo'shilgan Xivadagi Rossiya garnizoni askarlari tinch namoyishga xonga qarshi yo'nalish berishga urindilar va uning qatnashchilarini xonga qarshi qurolli qo'zg'olon ko'tarishga da'vat etdilar. Aynan shu tarixiy sharoitda bunday da'vat qilish g'alamislik, nopok maqsadni ko'zlab qilingan bo'lib, yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin edi. Shuning uchun ham osoyishta namoyish qilishga qaror qilgan yosh xivaliklar ularni qo'llab-quvvatlamadilar. Yosh xivaliklar ruhoniylar va qishloq oqsoqollari vakillari kengashida islohotlar talabini ishlab chiqdilar, ular feodal istibdoddan konstitutsion monarxiyaga o'tishni, xon hokimiyatining majlis tomonidan cheklanishini yoqladilar va hokazo. Yosh xivaliklar bunga tinch yo'l bilan, ya'ni xonning bu talabga yon berishi asosida erishishga umid qilgan edilar.

Ular rus podshosi istibdodi bilan uyg'unlashgan mustabid xon zulmi, mutaassiblik, xurofot, xilma-xil soliqning ko'pligidan azoblanayotgan xalqni erkin va farovon turmushga olib chiqish, Vatanni iqtisodiy va madaniy taraqqiy ettirish yo'lida bosh qotirdilar va demokratik islohotlar o'tkazish, mamlakatda adolatli hayotni yo'lga qo'yishda xon hokimiyatiga muxolifatda bo'ldilar. Bu muxolifat taraqqiyparvarlar, asosan, xonlikdagi yirik ulamo va amaldorlardan iborat bo'ldi. Jumladan, Boboovun Salimov islom homiysi shayxulislom, ya'ni qozikalon mansabida edi. U o'z lavozimidan foydalanib Xiva xoni Asfandiyorxonni adolatparvarlikka, xalqqa mehr-shafqatli bo'lishga chaqirdi.

«Turon» gazetasining yozishicha, 1917-yilning 4-aprelida Xiva shahridagi rus askarlari deputatlari sho'rosi va Boboovun Salimov rahbarligidagi «Yosh xivaliklar» namoyishidan cho'chigan Asfandiyorxon 5-aprelda «Yosh xivaliklar» qo'mitasi tomonidan yozilib unga taqdim

etilgan manifestga imzo chekishga majbur bo'ldi. Bu hujjat asosida Xivada xon boshchiligida konstitutsiyaviy monarxiya tuzumi qaror topadi, deb e'lon qilindi. Saylov yo'li bilan deputatlar majlisi va Nozirlar kengashi tashkil topdi.

8-aprelda bo'lgan Majlisning birinchi yig'ilishida deputatlar majlisining raisligiga Boboovun Salimov, Nozirlar kengashining raisligiga esa Husaynbek Matmurodovlar saylandi. Ana shundan so'ng majlis va hukumat butunlay «Yosh xivaliklar» qo'liga o'tdi.

Majlis nomidan e'lon qilingan Manifestga ko'ra xonlikda vaqf, mulk (xususiy) va podsholik yerlari daxlsizligicha saqlanib qoldi, xazinaning kirim va chiqimlari ustidan nazorat o'rnatildi, shariat sudlari davlat ta'minotiga o'tkazildi, yangi usuldagi jadid maktablari ochilishi belgilandi.

Ammo bu g'alaba uzoqqa bormadi. U bor-yo'g'i 2 oy umr ko'rdi. Asfandiyorxon Rossiya Muvaqqat hukumatining Xivadagi vakili general Mir Badalovga suyanan holda 1917-yil iyun oyining boshlarida xon Nozirlar kengashining raisi H. Matmurodov boshliq jadidlarning 17 vakilini qamoqqa oldi. Ularning juda oz qismi qamoqxonadan qochishga muvaffaq bo'ldi. Qolganlari esa otib tashlandi. Jadidlar «shariatga xiyonat qilgan»likda ayblanib ta'qib ostiga olindilar va quvg'in qilindilar.

Xiva xoni Majlisga yangidan «saylov» o'tkazdi. Uning raisi qilib Ortiq Oxun saylandi. Nozirlar kengashining raisi lavozimi esa Bosh vazir deb qayta nomlandi va unga Isoqxo'ja tayinlandi. Bu o'ziga xos davlat to'ntarishi edi.

Boboovun Salimov va boshqa jadidlar yashirin faoliyat yuritishga majbur bo'ldilar.

Asfandiyorxon mamlakatda xalq noroziliklarini bostirish va jadidlarni «tartib»ga chaqirishda rus askarlaridan foydalandi. Harbiy komissar Zaysev xonga yordam uchun jazo otryadlarini tashkil etdi. Xalq ommasining haq-huquqlari rus askarlari tomonidan toptaldi va oyoq osti qilindi. Bu ham yetmagandek, 1917-yilda xonlik hududida ocharchilik avj oldi. May oyida Xiva shahrida «ochlik isyoni» ko'tarildi.

Mamlakatda ana shunday og'ir bir sharoitda 1917-yil sentabrda Junaidxon o'z qurolli to'dalari bilan Xivaga qaytib keladi. U 1916-yildagi qo'zg'olon davrida Afg'onistonga o'tib ketgan edi. Junaidxon xonlikda juda katta o'zgarishlar yasashga muvaffaq bo'ldi.

Junaidxon Xiva xonligiga xavf solib turgan sho'ro hokimiyatiga qarshi bosh ko'tardi.

Asfandiyorxon 1918-yil yanvarida Junaidxon bilan aloqa o'rnatib, xonlikni birgalikda idora qilish hamda bolsheviklarga qarshi kurashish maqsadida uni Xivaga taklif qildi.

Asfandiyorxon Junaidxonni «sardori karim» (qo'shinlar qo'mondoni)

qilib tayinladi. Junaidxon sal vaqt o'tgach, 1918-yil 30-sentabrda qabul marosimi vaqtida Asfandiyorxonni o'ldiradi, uning o'rniga xonning tog'asi, irodasiz sayyid Abdulla To'raxonni xon deb ko'taradi. Abdullaxon nomigagina xon edi, butun hokimiyat to'laligicha Junaidxon qo'lga o'tadi.

Junaidxon vaqtdan foydalanish uchun 1919-yilning aprelida sho'ro hukumatiga sulh tuzish to'g'risida taklif kiritdi. 9-aprelda Taxtaqal'ada RSFSR bilan Xiva xonligi o'rtasida sulh shartnomasi imzolandi. Unda har ikkala tomon ham har qanday harbiy harakatni to'xtatishi, Rossiya sho'ro hukumati Xiva xalqining o'z taqdirini o'zi belgilashini tan olishi, har ikki tomon bir-biriga erkin va xavfsiz suv va quruqlik orqali bordi-keldi, savdo va iqtisodiy aloqalarni yaxshilashga harakat qilishi qayd etildi. Bolshevlarning eng jozibador «millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash to'g'risida»gi shiori tashviqot-targ'ibotchilik maqsadini ko'zlar edi. Shartnomaga asosan Rossiya ana shu shior asosida Xiva xonligi xalqlarining o'z taqdirini o'zi belgilashini rasman tan oldi. Xiva xonligi Rossiya vassalligidan chiqdi. 1873-yilgi Gandimiyon shartnomasi o'z kuchini yo'qotdi. Lekin sho'ro hukumati nafaqat Xiva xalqiga, balki umuman Rossiyaga tobe bo'lgan barcha mamlakatlar xalqlariga ham o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini amalda bermadi. Aksincha, bu xalqlar o'z taqdirini o'zlari «inqilobiy yo'l» bilan hal qilsin, degan vaj-karson bahonada bu davlatlarning ichki ishlariga aralashdi, qurolli harbiy yurishlar qildi va ularni bosib oldi. Xuddi ana shu yo'l Xiva xonligiga nisbatan ham qo'llanildi: birinchidan, bosqinchilik va mustamlakachilikdan iborat bosh maqsad «inqilob» pardasi bilan niqoblendi, targ'ibot va tashviqot ishlari kuchaytirildi. Bolsheviklar o'zlarining asl maqsadlari Xivada davlat to'ntarishi yasashdan iborat bo'lsa-da, uni «xalq inqilobi» nomi bilan niqobladilar. Ikkinchidan, bolsheviklar millatlar, urug'lar va tabaqalararo kelishmovchilik va nizolardan ustalik bilan foydalandilar. Ular o'rtasida qurolli to'qnashuvlarni keltirib chiqardilar, bunday to'qnashuv va qarama-qarshiliklarga sinfiy kurash va inqilobiy harakat tusini berdilar. Aslida esa, butun Turkistonda bo'lganidek, xususan, Xiva xonligida sinflar ham, sinfly kurash ham bo'lmagan. Xiva xonligi tipik agrar mamlakat edi. Ular turli nayranglar bilan taraqqiyparvar jadidlar va oddiy mehnatkash xalqdan «inqilobchilar» yasadilar.

«Taxtaqal'a sulhi» Xiva xonligi uchun o'ziga xos tuzoq rolini o'ynadi, bolsheviklar uchun esa nafasni rostdash uchun imkoniyat yaratdi. 1917-yil dekabr va 1918-yil yanvarida Sho'rolar Amudaryoning quyi oqimi va o'ng qirg'og'idagi To'rtko'l (Petro-Aleksandrovsk), Nukus, Chimboy, Qizil Arvot, Bayram Ali, Tejen, Krasnovodsk, Kazanjiqda o'z hokimiyatlarini o'rnatdilar. Kommunistlar o'zlarining razil maqsadlarini amalga oshirish uchun To'rtko'l shahrini «Inqilob markazi»ga aylantirdilar.

Shoʻrolar oʻzlarining qora niyatli maqsadlarini amalga oshirishda har doim «baynalmilal burch» deb atalmish gʻoya pardasiga yashirindilar. Buning uchun ular oʻzlarini mahalliy xalqni xon, beklar, boy va feodallar zulmidan ozod boʻlishda «yordam» beruvchilar qilib koʻrsatib, amalda «harbiy inqilobiy» harakatni kuchaytirdilar.

1919-yilning oxirlariga kelib Shoʻro hukumatining Xiva xonligini bosib olish boʻyicha amalga oshirgan tayyorgarlik ishlari nihoyasiga yetdi. Bolshevoylar har doim boʻlganidek Xivani bosib olish jarayonida tub yerli aholi oʻrtasida birlik va hamjihatlikning yoʻqligidan, qabila va urugʻlar oʻrtasidagi ziddiyat va qarama-qarshiliklardan foydalandilar. Bu oʻrinda, xususan, Junaidxonga qarshi boʻlgan turkman urugʻ boshliqlari Qoʻshmamedxon, Gʻulomalixon va Yaxshigeldilarning aldanib, 1919-yil noyabrda bolsheviklar tomoniga oʻtishlari xarakterlidir. Xiva xonligi hududlarini bosib olish Moskva va Toshkentdagi Shoʻro hukumati tayyorlagan dastur asosida amalga oshirildi.

Qizil askarlar yovuzlarcha bostirib kirib, 1919–1920-yillarning dekabr-yanvar oylarida Xiva xonligining asosiy yirik markazlari Xoʻjayli, Koʻhna Urganch, Omonqalʼa, Porsu, Iliali, Toshhovuz va boshqalarni egallab oldilar va 1-fevralda Xivaga jangsiz kirib keldilar. Junaidxon Qoraqumga qochib oʻtishga majbur boʻldi. Qizil armiya xonlik poytaxtini egalladi. Asosiy hukmronlik Junaidxon qoʻlida boʻlsa ham, Sayyid Abdullaxon Xivaning rasmiy xoni edi. U hali Xivaga bosqinchilar kirmasidan oldinoq Qizil armiyaning bosh qoʻmondoniga vakil yuborib, urushni toʻxtatishni talab etdi va 2-fevralda taxtdan voz kechdi. Qizil armiya xonlik poytaxti Xivani hech qanday qarshiliksiz egalladi.

RSFSR Markaziy ijroqoʻmi va Rossiya komfirqasi markaziy qoʻmitasining Turkiston komissiyasi va Turkiston harbiy inqilobiy kengashining maxsus vakili G. B. Skalov Xivada Muvaqqat hukumatni tuzdi.

Birinchi kundan boshlab Xivada Rossiya hukumati, komfirqasi va uning Turkkomissiyasi hamda Turkfront harbiy kengashi aʼzolari G. I. Broyda, A. Izmaylov, G. B. Skalov va boshqalar hukmronlik qila boshladilar. V. I. Lenin boshliq bolsheviklar Sankt-Peterburgda davlat toʻntarishi yasab shoʻro hukmronligini oʻrnatish uchun qanday noqonuniy va harbiy toʻntarishni amalga oshirgan boʻlsalar, Xivada ham aynan shu ishlar takrorlandi. Mahalliy oʻziga xos sharoit, tarixiy anʼana va urf-odatlar, xalqning xohish-irodasi umuman eʼtiborga olinmadi. Xonlikda bosh vazir lavozimida ishlagan Davlatmurod Tozamahram otib tashlandi, hukumatning boshqa aʼzolari qamoqqa olindi.

Xorazm Xalq Shoʻro jumhuriyati 1920-yil 27–30- aprelda Xorazm Muvaqqat hukumati tomonidan chaqirilgan Butun Xorazm xalq

vakillarining I qurultoyida tashkil topdi. Uning Nozirlar sho'rosining raisi (Polvonniyoziy Yusupov) va muovini (Boboovun Salimov) hamda 15 ta nozirlari saylandi. Jami 17 ta hukumat rahbarlaridan 11 tasi «Yosh xivalik»lardan bo'ldi. Ular hukumatni milliy manfaat, mahalliy urf-odat va shariat qoidalari va, eng muhimi, mustaqillik asosida boshqarishga harakat qildilar. Bu esa Turkiston va Xivadagi vakolatli firqa va sho'ro rahbarlariga yoqmadi. Shuning uchun bu gal ham «Yosh xivaliklar» firqasiga uyushgan jadidlar hukmronligi o'n oy to'lar-to'lmas, 1921-yil martda sho'ro hukumati va komfirqasi tomonidan ag'darib tashlandi. P. Yusupov hukumati a'zolari qamoqqa olindi. 1920-yilning kuzidayoq hukumat boshlig'ining o'rinbosari va turkman bo'limining 600 jangchisi otib tashlandi.

1921-yil martida chaqirilgan Butun Xorazm qurultoyi Ota Mahsum rahbarligida yangi hukumatni sayladi. Bu hukumat ham kommunistlarning kuzatuvida bo'lib, 1922-yil noyabrda ag'darib tashlandi.

«Yosh xivaliklar» va boshqa milliy rahbarlar hamda ziyolilar sho'ro hukumati va firqasining «birodarlik yordami» mohiyatini va o'zlarining aldanganliklarini tushunib yeta boshladilar. Shuning uchun Ota Mahsum hukumati a'zolarining ko'pchiligi sho'ro hukumati va komfirqaga qarshi milliy istiqolchilarning «bosmachilik urushi» tomon o'tib ketadi.

Kommunistlar rahbarligi va hukmronligida chaqirilgan Xorazm sho'rolarining IV qurultoyi (1923-yil oktabr) Xorazmni Xorazm sho'ro sotsialistik jumhuriyati deb e'lon qiladi va uning Konstitutsiyasini qabul qiladi. Bu mamlakatdagi beqaror ijtimoiy-siyosiy va milliy vaziyatni yanada og'irlashtirib yuboradi. Nihoyat, 1924-yil yanvarida Sho'ro hukumati va kommunistlarga qarshi xalq qo'zg'oloni ko'tarildi. Qo'zg'olon qatnashchilarining soni 10–15 mingga yetdi. Unga hukumatdan haydalgan jadid va boshqa millatparvarlar rahbarlik qildilar. Qo'zg'olon tezda bostirilib, qo'zg'olonchilar tinch muzokara olib borishga hukumatni majbur etsa-da, biroq ular ayovsiz qirildi, ta'qib ostiga olindi.

Shundan so'ng Markaz kommunistlari mahalliy kommunistlarga tayanib, O'rta Osiyoda «milliy davlat chegaralanishi» siyosatini o'tkazish bilan qadim Xorazm mamlakatini parchalash va butunlay yo'q qilishga muvaffaq bo'ldilar.

28.2. Buxoroda sovet hokimiyatining o'rnatilishi va yangi davlat apparatining tashkil qilinishi

Xiva xonligidan keyin Rossiya bolsheviklarining «Sharqdagi siyosati»ni o'zida simab ko'rish navbati Buxoro amirligiga kelgan edi.

1918-yil voqealari Buxoro amirligi Turkiston Avtonom Respublikasi

harbiy hujumi oldda qanchalik himoyasiz ekanligini, bolshevik rahbarlarning amaliy xatti-harakatlari Buxoro bilan tinchlik va do'stlik haqida bergan so'zlariga qanchalik mos kelmasligini ko'rsatdi.

Buxoroni ham Xiva xonligining fojiviy qismati kutayotganini yaxshi tushungan amir shoshilinch ravishda o'z mamlakatining mudofaa qudratini mustahkamlashga urinadi. Buxoroning muqaddas chegaralarini, uning erkinligi va mustaqilligini himoya qilishga qaratilgan bu sa'y-harakatlarni sovet rahbariyati amir hukumati Turkiston Respublikasiga hujum qilishga tayyorlanmoqda, deb ko'rsatishga butun choralar bilan urindi. Haqiqatda esa hamma narsa aksincha edi. Aynan bolsheviklar rejimi suveren Buxoro davlatiga harbiy intervensiya qilish rejalarini mo'ljallab yurardi. O'zining bosqinchilik rejasini yashirish va aholining diqqat-e'tiborini chalg'itish maqsadida bolsheviklar ataylab bu «yolg'on»ni o'ylab chiqargan edi. Bolsheviklarning ana shu bosqinchilik rejasini amalga oshirish uchun qulay sharoit 1920-yilning yozida yetila boshladi.

Bolsheviklar rejimining harbiy jihatdan ancha ustun qo'shinlari 1920-yil 28-avgustdan 29-avgustga o'tar kechasi buxorolik «inqilobiy tuzilmalar» ishtirokida amirlik hududiga shiddat bilan bostirib kirdilar. Ular Qarshi, Kitob, Shahrisabzni bosib olib, amirlik poytaxtiga yaqinlashib qoldilar. Lekin bu yerda bosqinchilar amir qo'shinlarining qat'iy qarshiligiga duch keldilar. Amir qo'shinlari bilan yelkama-yelka tinch aholi ham shaharni himoya qilishga otlandi. Turkfront qo'mondonligi buyrug'i bilan Eski Buxoro samolyotlardan bombardimon qilindi, to'plar va bronepoyezdlardan turib qattiq o'qqa tutildi. Amirlik poytaxti ostonasidagi qonli jang 4 kecha-kunduz davom etdi. 1920-yil 2-sentabrda bosqinchilarning to'xtovsiz zarbalari ostida amirlikning so'nggi tayanchi — Ark mag'lub bo'ldi. Biroq bu g'alabani bosqinchilar osonlik bilan qo'lga kiritmadi.

Amirlik poytaxti bosib olingandan keyin hokimiyat muvaqqat Butunbuxoro inqilobiy qo'mitasi ixtiyoriga o'tdi. Muvaqqat inqilobiy qo'mita darhol Turkkommissiya rahbarligida ilgaridan tayyorlab qo'yilgan Manifestni e'lon qildi. Unda Buxoro davlati «Mustaqil Buxoro Sovet Respublikasi» deb ko'rsatilgan edi. 1920-yil 11-sentabrda inqilobiy yosh buxoroliklar partiyasi tarqatib yuborildi, uning ko'pchilik a'zolari F.Xo'jayev boshchiligida BKP tarkibiga kirishdi. 1920-yil 14-sentabrda BKP MQ Muvaqqat Umumbuxoro inqilobiy qo'mitasi va Xalq Nozirlari Kengashining birlashgan majlisida Abdulqodir Muhitdinov boshchiligidagi Umumbuxoro inqilobiy qo'mitasi — oliy qonun chiqaruvchi organ va Fayzulla Xo'jayev raisligida respublika hukumati — Xalq Nozirlar Kengashi tashkil qilindi.

6-oktabrda amirning yozgi saroyi — Sitorayi Mohi Xosada xalq

vakillarining I Umumbuxoro qurultoyi ish boshladi. Qurultoy Buxoroni xalq sovet respublikasi deb eʼlon qilish haqida qaror qabul qildi. 1921-yil 4-martda Moskvada BXSr bilan RSFSR oʻrtasida Ittifoq shartnomasi va iqtisodiy bitim tuzildi. Bu hujjatlar Xorazm Xalq Respublikasi kabi Buxoro Xalq Respublikasining ham RSFSRga harbiy-siyosiy va iqtisodiy jihatdan qaram boʻlganligini qonun yoʻli bilan mustahkamladi.

Shunday qilib, 1920-yilda Buxoro amirligi va Xiva xonligida amalga oshirilgan harbiy toʻntarish bu mamlakatlar ichki ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonining tabiiy va zaruriy hodisasi boʻlmadi. U Markaz va Toshkentda oldindan ishlab chiqilgan reja asosida sunʼiy ravishda mavjud jamiyat taraqqiyotiga majburan kuch ishlatish yoʻli bilan aralashish boʻldi. Bu ishda bolsheviklarning qurolli kuchlari hal qiluvchi rol oʻynadi. Oʻrta Osiyo xonliklarida roʻy bergan bu toʻntarish bolsheviklarning «jahon inqilobi» deb nom olgan xayoliy va noilmiy gʻoyasini amalga oshirishdan iborat boʻldi. Bu maqsadga erishish uchun bolsheviklar rejimi suveren Xiva va Buxoroning «qoʻzgʻolon koʻtargan xalqi»ga yordam koʻrsatish bahonasi bilan ularga qurolli bosqinchilik qilishdan ham tap tortmadilar.

Qizil Armiya qismlari yordamida amalga oshirilgan toʻntarish oqibatida bu mamlakatlar ijtimoiy rivojlanishining tabiiy evolyutsion jarayoni sunʼiy ravishda uzib qoʻyildi. Dastlabki bosqichda xalq-demokratik koʻrinishida boʻlgan sovet tuzumi bu mamlakatlar xalqlariga majburan tiqishtirildi. Garchi BXSr va XXSR rasman suveren davlatlar boʻlsalar-da, haqiqatda esa ular avvalboshdanoq Sovet davlatiga toʻlatoʻkis qaram boʻlib qolgan edilar.

28.3. Xorazm Xalq Sovet Respublikasi davlat tuzumi

1920-yil 27–30-aprelda Xivada boʻlib oʻtgan xalq vakillarining I Butunxorazm qurultoyi Xiva xonligini bekor etilgan deb eʼlon qildi va mamlakatni Xorazm Xalq Respublikasi deb eʼlon qildi. Qurultoy XXRning Muvaqqat Konstitutsiyasini qabul qildi. U roʻy bergan toʻntarishni va uning natijasida oʻrnatilgan tuzumni antimonarxistik, antifeodal, xalq-demokratik xususiyatiga ega boʻlgan tuzum sifatida aks ettirdi. Ayni vaqtda Konstitutsiyada RSFSRning hokimiyat shakli boʻlgan sovet andozasi qabul qilindi, lekin Xorazmdagi sovetlar oʻz mazmuniga koʻra proletar diktaturasini ifoda etmasdi, u demokratik xususiyatga ega edi. Qurultoy sobiq yosh xivaliklar aʼzosi boʻlgan Polvonniyoz Hoji Yusupov boshchiligida Xalq Nozirlar Kengashini sayladi. Hukumat sobiq yosh xivaliklar, turkman urugʻlari rahbarlari va kommunistlardan tashkil topdi. Qizil askar nayzalari yordamida oʻrnatilgan bu tuzumni oʻz kuchlari bilan saqlab va mustahkamlab boʻlmasligini yaxshi tushungan

Xorazm Xalq Respublikasi rahbarlari RSFSRning ko‘magiga umid qilishga intildi.

1920-yil 13-sentabrda RSFSR bilan XXSR o‘rtasida Ittifoq shartnomasi, shuningdek, harbiy-siyosiy va iqtisodiy bitimlar tuzildi. Bu hujjatlar, bir tomondan, mamlakatdagi to‘ntarish natijasida o‘rnatilgan tuzumni mustahkamlashga yordam bergan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, uning RSFSRga to‘liq qaramligini qonunlashtirdi.

Konstitutsiyada davlat hokimiyatining oliy organi Butunxorazm Sovetlarining qurultoyi ekanligi ko‘rsatilgan. 1921-yilning mayida bo‘lib o‘tgan XXSR Sovetlarining II qurultoyida Konstitutsiyaga kiritilgan qo‘shimchaga binoan Sovetlar Qurultoylari davrida Sovetlarning qurultoyida saylanadigan Markaziy Ijroiya Qo‘mita Oliy qonun chiqaruvchi, ijroiya va nazorat vazifalarini amalga oshiruvchi idora etib belgilangan. Konstitutsiyaga binoan Oliy ijroiya-farmoyish beruvchi idora qilib XXSR Xalq Nozirlar Kengashi belgilangan.

Konstitutsiya VI bo‘lim, XV bob va 87 moddadan iborat edi. Birinchi bo‘lim kirish qismi va III bobdan iborat edi. Ikkinchi bo‘lim XXSR Konstitutsiyasining Umumiy qoidalari deb atalib, respublikaning ijtimoiy-siyosiy tuzumi fuqarolarning huquq va burchlariga bag‘ishlangan edi.

Uchinchi qism davlat hokimiyati va boshqaruvining mahalliy va markaziy organlari, to‘rtinchi qism saylov huquqi, beshinchisi budjet huquqi, oltinchisi gerb va bayroq haqidagi qoidalardan iborat bo‘lgan.

Konstitutsiya RSFSRning 1918-yilgi Konstitutsiyasi asosida qabul qilingan edi. Respublikada xususiy mulk, sohibkorlik va savdo oboroti bilan shug‘ullanishning to‘la ozodligi saqlab qolinishi e‘lon qilindi. «Shaxslarga erkin holda kommertiya ishlari bilan shug‘ullanish huquqi berildi», kommertiya va savdo kompaniyalarini tashkil qilishga qarshilik qilinmadi (Konstitutsiyaning 16-moddasi). Ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulkchilik saqlab qolindi. Xon va uning avlodlariga, amaidorlariga tegishli yerlar musodara etilib, yersiz deliqonlarga bo‘lib berildi. Vaqf yerlari saqlab qolindi. XXSR iqtisodi davlat sektori, kooperativ sektor, yakka xo‘jalikchi dehqon va hunarmandlar sektori, feodal kapitalistik (xususiy) sektorlardan iborat edi.

Oliy Qonunchilik va hokimiyat organi – xalq vakillari Umumxorazm Qurultoyi hamda Umumxorazm Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi va uning Prezidentidan iborat bo‘lib, 4 ming aholidan 1 ta deputat, 100 askarlardan bir vakil tartibida tashkil topdi.

Davlat boshqaruvining oliy organi Xalq Nozirlar Soveti edi. U dastlab yettita nozirlik – harbiy, moliya, davlat nazorati, iqtisodiy, tashqi ishlar, madaniyat va maorif, adliya nozirliklaridan iborat edi. Adliya nozirligida rais va 3 ta a‘zo tarkibida Oliy Inqilobiy sud tuzilib, jinoyatchilarga nisbatan eng oliy jazo – otib o‘ldirishga qadar jazolar tayinlash huquqi

berildi. Umumjamoiy va grajdanlik ishlarini ko'rib hal etish uchun esa, adliya nozirligida Xalq sudi tuzildi. Xiva shahrini qo'riqlash maqsadida ushbu nozirlik tarkibida militsiya boshqarmasi ham tashkil etildi. Yangi mahalliy organlar Kengashlari tuzildi.

Saylovlar ko'p pog'onali bo'lib, tuman ijroiya komitetlariga ikki pog'onali, oliy hokimiyat organlariga esa uch pog'onali saylovlar joriy qilingan. 1923-yilning oktabrida Umumxorazm Sovetlarining IV Qurultoyida XXSR XSSR deb e'lon qilindi. Nozirlar Kengashi vazifasini XSSR MIK xodimlari bajaradi deb belgilandi. Bu ishni amalga oshirish uchun maxsus komissiya tashkil qilindi. Nozirlar Kengashining raisi lavozimi tugatildi va uning vazifasi MIK raisiga yuklatildi.

Qozilar o'rniga yangi sudlar, qishloqlarda esa Sho'rolar Kengashi tuzildi. Qabul qilinayotgan dekretlarning deyarli hammasi uchun asos qilinib shariat qonunlari qabul qilingan edi. Jumladan «Sudxo'rlik ishlarini amalga oshirish to'g'risida»gi dekretga muvofiq sudxo'rlardan 20 foizdan ziyod qarz olgan barcha qarzdorlarning qarzi bekor qilindi. Berilgan kreditning 10 % idan ortiq olgan sudxo'rlarning bir yildan besh yilgacha qamalishi belgilanadi. Syezd qabul qilgan qonunlardan biri «Vaqf yerlari haqidagi qonun» bo'lib, unda machit va madrasalar, diniy tashkilotlarga tegishli barcha mulklar davlat mulki deb e'lon qilindi. Hosilning o'ndan bir qismi davlat solig'i sifatida to'lanishi belgilandi. Mehnatkashlarning mavjud huquq va erkinliklari kengaytirildi, xususiy mulk tugatildi. Mulkdorlarning, ruhoniylarning, aksilinqilobiy kuchlarning saylov huquqlari bekor qilindi.

28.4. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi davlat tuzumi

1920-yilning 23-sentabrda Buxoro Sovetlarining Qurultoyi uning birinchi Konstitutsiyasini qabul qildi. Konstitutsiya RSFSRning 1918-yildagi Konstitutsiyasiga asoslandi. Konstitutsiyada Umumbuxoro xalq deputatlari syezdi oliy hokimiyat organi hisoblanib, 2 ming kishidan bir deputat miqdorida saylangan. Uning sessiyalari doimiy organ bo'lgan. Butun Buxoro Xalq Sovet Respublikasining hukumati Xalq Nozirlari Soveti ustidan nazorat organi hisoblanib, uning muhim qarorlarini tasdiqlagan.

1920-yilning 14-sentabrda Birinchi Xalq Nozirlar Kengashi 9 ta a'zo (xalq komissarlari) tarkibida tuzilgan bo'lib, u Umumbuxoro Ijroiya Komiteti tomonidan rais, uning ikki o'rinbosari hamda xalq nozirlari: adliya, ichki ishlar, harbiy ishlar, maorif, sog'liqni saqlash, mehnat va ijtimoiy ta'minot, savdo va sanoat, soliq, qishloq xo'jaligi hamda davlat nazorati xalq nozirlari tarkibida tuzilgan. (Konstitutsiyaning 31, 38-,39-moddalari). Keyinchalik qishloq xo'jaligi, moliya va iqtisod xalq

nozirlklarini birlashtirib Xalq Xo'jaligi Oliy Kengashi tashkil qilindi. Rais, uning o'rinbosari, uchta bo'lim: 1) Markaziy Moliya boshqarmasi; 2) Markaziy yer-suv boshqarmasi; 3) Savdo va sanoat boshqarmasi tarkibida tuzildi. Ushbu tashkilot Xalq Nozirlar Kengashi, Buxoro Iqtisodiy Kengashi nomlari bilan qayta nomlangan. BXSР viloyat, tuman, kent Sovetlari va ularning ijroiya komitetlari tashkil qilinib, mahalliy boshqaruvni amalga oshirgan.

1923-yilning 23-sentabrida Buxoro MIK qoshida Turkman bo'limi tashkil qilingan. Uni turkmanlardan bo'lgan shaxs boshqargan. Tojiklar ko'pchilikni tashkil qilgan Sharqiy Buxoro alohida huquqiy rejim asosida komissiya orqali boshqarilgan. O'z Nizomiga ko'ra komissiya cheklanmagan harbiy va fuqarolik hokimiyatini amalga oshirgan, sud hokimiyatidan foydalangan. Bundan tashqari Nurota va O'rta cho'lda qozoq va qirg'iz milliy tumanlari, Chorjo'y, Qarshining bir qismimi o'z ichiga olgan Turkman rayonlari tuzilgan.

Buxoroda qozi sudlari tiklanib, 1924-yilda 57 ta qozi sudlari faoliyat ko'rsatgan.

1924-yilda BXSРda sud tuzilishi bo'yicha Nizom qabul qilinib xalq sudlari – qozi sudlari; okrug sudi; Oliy sud tuzilgan. Qozi sudlari ishlarni shariat huquqi asosida ko'rib hal qilgan.

1922-yildan boshlab Buxoro hududida RSFSR qonunlari joriy qilingan. Davlatga qarshi jinoyatlar faqat RSFSR JK va JPK asosida ko'rilgan. 1923-yilda Respublika Prokuraturasi tuzilib, uning boshida adliya xalq komissarining birinchi o'rinbosari turgan. Uning yordamchisi respublika Oliy sudi huzuridagi Prokuror funksiyasini bajargan, viloyat prokurorlari unga bo'ysungan.

1924-yilning 19-sentabrida Umumbuxoro Qurultoyi BXSРni Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasi deb e'lon qildi.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

- 1. Xivada sovet hokimiyatining o'rnatilishi qanday amalga oshirilganligi haqida gapirib bering.*
- 2. Yangi davlat organlarining ta'sis etilishi qanday amalga oshirildi?*
- 3. Buxoroda sovet hokimiyatining o'rnatilishi qanday amalga oshirildi?*
- 4. Yangi davlat apparatining tashkil qilinishi haqida gapirib bering.*
- 5. XXSRning tashkil qilinishi va davlat tuzumi haqida gapirib bering.*
- 6. BXSРning tashkil qilinishi va davlat tuzumi haqida gapirib bering.*

29-MAVZU: O‘ZBEKISTON SSRNING TASHKIL TOPISHI VA 1927-YILGI KONSTITUTSIYASI

1. O‘rta Osiyoda milliy-davlat chegaralanishining o‘tkazilishi va uning ijtimoiy-siyosiy oqibatlari.
2. O‘zbekiston SSRning 1927-yilgi Konstitutsiyasi.
3. 1920-yilning ikkinchi yarmi va 30-yillarning ikkinchi yarmida huquqda yuz bergan o‘zgarishlar.

29.1. O‘rta Osiyoda milliy-davlat chegaralanishining o‘tkazilishi va uning ijtimoiy-siyosiy oqibatlari

Oktabr harbiy to‘ntarishidan so‘ng sho‘rolar hukumati O‘rta Osiyo hududlarida ikki xil kurash yo‘lmi tanlab oldi:

Birinchi yo‘l – istiqloлга, milliy-ozodlikka otlangan tub yerli musulmon aholini zo‘rluk bilan, kuch bilan bostirish, uning rahbarlarini qirib bitirish.

Ikkinchi yo‘l g‘oyaviy-mafkuraviy jabhada olib borildi. Bunda sho‘rolar hukumati va komfirqa keng mehnatkashlar ommasining ongiga tinch kurash vositalari orqali g‘oyaviy-siyosiy, mafkuraviy sohada ta‘sir ko‘rsatish yo‘lidan bordi. Bu yo‘lni amalga oshirish miyati bilan sho‘rolar hukumati Turkistonni parchalab SSSR tarkibidagi muxtor jumhuriyatga aylantirdi: Xorazm va Buxoro «Xalq Sho‘ro jumhuriyatlari»ni tuzdi; Turkiston, Xorazm va Buxoro komfirqasi, kasaba uyushmasi, kommunistik yoshlar tashkiloti (komsomol), pioner tashkiloti va uning qoshida oktabryatlar guruhlari shakllantirildi.

Ana shu juda katta kuch vositasi orqali xalq ommasi ongiga Sho‘rolar va komfirqa rahnamoligida amalga oshirilajak «xalqchil» va dunyoda «eng adolatli va demokratik» sotsialistik, kommunistik tuzumning afzalliklari g‘oyalari to‘xtovsiz singdirib borildi. Bu siyosatning markazida dunyodagi eng adolatli deb atalgan «lenincha milliy siyosat» turdi. Bu siyosatning bosh talabi «millatlarning to milliy mustaqil davlat bo‘lib ajralib chiqishiga qadar o‘z taqdirini o‘zi belgilashi» edi. Ammo, bu bosh talab faqat tashviqot uchungina ishlatiladigan siyosat bo‘lib, amalga oshmaydigan quruq so‘zlardan iborat edi.

«Lenincha milliy siyosat»ning asl maqsadlari nimalardan iborat edi?

Birinchidan, siyosiy sohada O‘rta Osiyoni milliy jihatdan parchalab tashlash, uning milliy mustaqil davlat sifatida shakllanishi va oyoqqa turishini abadul-abad yo‘q qilish, hududiy jihatdan ularni Rossiya Federatsiyasining bo‘linmas tarkibiy qismiga aylantirish.

Ikkinchidan, iqtisodiy sohada O‘rta Osiyo Rossiyaning xom ashyo yetkazib beruvchi bazasi bo‘lib qolishi lozim edi.

Uchinchidan, ma'naviy-mafkuraviy sohada o'lkada «shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat» shiori asosida amalda ruslashtirish siyosati olib borilishi va u kelajakda tub yerli aholining «velikoruslar» bilan qo'shilib, asimilatsiyalashib ketishiga xizmat qilmog'i kerak edi.

Sho'ro hukumati va komfirqa o'zining bu strategik bosh dasturiy maqsadimi juda ustalik, ehtiyotkorlik va ayyorlik bilan, rejali sur'atda, ammo og'ishmay amalga oshirdi.

Komfirqa hukmronligini ifoda etuvchi sho'ro hukumati imperialistlarning «Bo'lib tashla, hokimlik qil» siyosatini yanada ayanchliroq ko'rinishlarda davom ettirdi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad O'rta Osiyo xalqlariga birlashish imkonini bermaslik, ularning birligi, madaniyati, tili va urf-odatlarini parchalash, markazga qaramligini oshirish, ruslashtirishni tezlashtirish va milliy-ozodlik harakati kuchlarini, parokandalashdan iborat bo'ldi. Shu maqsad yo'lida O'rta Osiyoni qayta taqsimlash masalasini birinchi bo'lib 1920-yilning boshida «Turkkommissiya» raisi M. Rudzutak ko'taradi. Uni Lenin ma'qullab, «O'zbekiya», «Kirgiziya», «Turkmeniya» xaritasini tuzish vazifasini topshiradi. Buni amalga oshirish uchun faol firqaviy targ'ibot, tashviqot va tazyiq boshlanadi. Bunga javoban Turkiston birligi uchun kurashayotgan jadid ziyolilari O'rta Osiyo federatsiyasini tashkil etish taklifini o'rtaga tashlaydilar. Xorazm komfirqasining mas'ul kotibi Q.Odinayev Markaz fikriga qarshi bo'lgani uchun ishdan olinadi. Markaz xohish-irodasi firqa orqali mahalliy xalq «xohish-irodasi»ga aylantirilib, uning «talabi»ni qondiruvchi qarorlar qabul qilinadi. O'rta Osiyoda O'zbekiston SSR, Turkmaniston SSR, Qora Qirg'iz (Qirg'iziston) muxtoriyati, O'zbekiston SSR tarkibida Tojikiston muxtoriyati, shuningdek, Qoraqalpoq muxtoriyatini tashkil etish, Turkistondagi qirg'iz (qozoq)larni Qozog'iston SSRga qo'shish rejasi ishlab chiqiladi. Ularning hududi va mulkini aniqlash RKP(b) Markaziy Qo'mitasi O'rta Osiyo byurosining maxsus komissiyasiga topshiriladi. Bu komissiya O'rta Osiyoni avvaldan belgilangan reja bo'yicha milliy-hududiy jihatdan bo'lib chiqadi.

1925-yil 13-fevralda Buxoroda O'zbekiston SSR Sovetlarining I syezdi ochildi. U 17-fevralda «O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining tashkil topishi to'g'risidagi deklaratsiya»ni qabul qildi. Deklaratsiya O'zbekiston SSR tashkil topganligini qonunan rasmiylashtirdi va O'zbekiston SSRning ixtiyoriy ravishda SSSR tarkibiga kirganligini e'lon qildi. Deklaratsiyada qayd qilib o'tilganidek, «shu kundan e'tiboran o'zbek xalqi hududida Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Qashqadaryo, Zarafshon, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarini o'z ichiga olgan bu xalq tarixida birinchi marta ishchi va dehqonlarning

ittifoqdosh O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi ta’ sis etiladi, unga Tojikiston Avtonom SSR kiradi».

1925-yil 13-mayda SSR Ittifoqi Sovetlarining III syezdi Turkmaniston va O‘zbekiston respublikalarining SSR Ittifoqi tarkibiga kirishi to‘g‘risida shu respublikalar «xalqlarining erkin xohishi»ni inobatga olib tasdiqladi.

Shu tariqa, O‘zbekiston ittifoqdosh respublikasining qonunan rasmiylashtirish jarayomi tugallandi va jahon xaritasida SSSR tarkibidagi ittifoqdosh respublika bo‘lgan O‘zbekiston milliy sovet respublikasi paydo bo‘ldi. Shunday qilib, 1924-yilning oxiri bolshevizmning O‘rta Osiyoni milliy-hududiy chegaralash borasidagi siyosati amalga oshirilishi bilan nishonlandi.

Mintaqa xalqlariga majburan tiqishtirilgan bu siyosatni amalga oshirish uchun vaqt va mablag‘ bilan bir qatorda katta kuch-g‘ayrat sarflash talab qilindi. Birinchi davrda — milliy chegaralanish g‘oyasi paydo bo‘lgan 1920-yildan 1924-yilgacha, uni amalda ro‘yobga chiqarish boshlangan paytgacha, uning mafkuraviy, siyosiy, madaniy-ma‘naviy asoslash va shundan keyingi harakatlar uchun zamin tayyorlash mexanizmi ishga tushirildi. «Yagona turkiy millat bo‘lmaganidek, yagona turkiy madaniyat va yagona turkiy til ham yo‘q» degan shiorlar ostida to‘rt yil mobaynida dastlab Turkiston, keyinroq Buxoro va Xorazm respublikalari xalqlari ongiga keng miqyosda tazyiq o‘tkazildi, milliy o‘xshash tuzilmalarning shakllanish jarayonidagi integratsiya sun‘iy ravishda jadallashtirildi. Ikkinchi davr, 1924-yilda bevosita milliy chegaralanish o‘tkazildi, uni boshdan oxirigacha RKP(b) MQ rahbariyati va uning muxtor vakillari rahbarligida O‘rta Osiyo partiya tashkilotlari amalga oshirdilar. Mahalliy xalqlarning xohish-irodasi mutlaqo hisobga olinmadi va ularni o‘rganish mexanizmi ishlab chiqilmadi.

Xalqlarni milliy chegaralash g‘oyalarini amalga oshirish bolsheviklarning taktik ustamonligi bilan muvaffaqiyatli ro‘yobga chiqarildi. Avvalo, bu g‘oyaning dastlabki vazifasi hal etildi — turkiylar birligi mafkurasiga va amaliyotiga sezilarli zarba berildi. Milliy tuzilmalar tashkil etilishi, ularga «milliy davlatchilik» maqomi berilishi bilan Markaz mintaqa xalqlarining diqqatini tashqi dushmandan (ular uchun tashqi dushman Markazning o‘zi edi) ichki muammolarga yo‘naltirishga muvaffaq bo‘ldi.

Lekin bu eng asosiysi bo‘lib, bolsheviklar bu harakat bilan o‘zlarining strategik niyatlarida ham muhim yutuqlarni qo‘lga kiritdilar. RSFSRning Turkiston Avtonomi Respublikasi bilan bir qatorda milliy-hududiy chegaralanishiga huquqiy jihatdan mustaqil Buxoro va Xorazm respublikalarining ham jalb qilinishi, ularning qismlarga bo‘linishi va ular asosida yangi milliy tuzilmalarning tashkil topishi, ularning SSSR

tarkibiga kiritilishi natijasida O'rtasiyoning bu ikki qadimgi davlati dunyoning siyosiy xaritasidan butunlay yo'q qilindi.

Shu davrdan boshlab qadimiy Turkiston hududi bolsheviklar davlatining ikki g'ildirakli aravasiga mustahkam bog'lab qo'yildi.

O'rtasiyo davlatchiligining ming yillik rivojlanish tarixiga putur yetkazildi. Hukmron sulolalarning tez-tez almashishiga, makon-hudud mezonlarining o'zgarishiga qaramay, O'rtasiyo davlatchiligining asosini tashkil qilgan muhit — uning aholisi tarixan turli etnik guruhlardan tashkil topganligi va uning tarqoq holda joylashganligi, uning o'ziga xos bo'lgan xo'jalik, maishiy, diniy, ma'naviy-madaniy hayotining mushtarakligi o'zgarmay qolaverardi. Har bir etnik guruh o'zining muayyan joyiga ega bo'lgani holda bu mushtaraklikning tarkibiy, o'zgarmas teng qiymatga ega bo'lgan qismi bo'lib turaverardi. Endi esa, ittifoqdosh, muxtor respublikalar va viloyatlarning tashkil topishi bilan millatlarni farqlash, tabaqalash joriy etildi.

Shunday qilib, millatning bir qismi o'z ota-bobolari yerida yashab, mehnat qilsa-da, rasmiy ta'rifga ko'ra, «oz sonli millat»ga aylanib qolgan edi, bu esa ularning ongiga ta'sir qilmasdan qolmasdi, o'z huquqlarining qandaydir poymol qilinganligida deb tushunardilar.

Aslida, bolsheviklar andozasidagi milliy-hududiy chegaralanish O'rtasiyo xalqlari o'rtasidagi bo'lajak millatlararo munosabatlar jarayonlari ostiga ma'lum vaqtda portlaydigan mina qo'yish degan gap edi, ular favqulodda vaziyatlarda portlab, turli nizolar va keskin holatlar keltirib chiqarishi muqarrar edi.

Shu bilan birga, yangi tuzilmalarni O'rtasiyo xalqlarining «milliy davlatchiligi» tashkil etilganligi sifatida baholash ham to'g'ri bo'lmas kerak. Chunki SSSR tarkibiga kirish va SSSRning tashkil topganligi haqidagi Shartnomaning imzolanishi, bu yerda RKP(b) MK O'rtasiyo byurosining, O'rtasiyo Iqtisodiy Kengashining va boshqa shunga o'xshash butunittifoq idoralarining saqlanib qolishi bilan davlatga xos bo'lgan hokimiyat vazifalari va vakolatlarining barchasi Markaz ixtiyorida bo'lib qoldi. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning jonli iborasi bilan aytganda, O'rtasiyoda tashkil qilingan bu tuzilmalar davlat bo'lib shakllaninagan (davlatga o'xshash) tuzilmalar edi.»¹ Mazkur tuzilmalar suverenitet va mustaqillikdan batamom mahrum edilar, ular aslida SSSRning ma'muriy-iqtisodiy rayonlari darajasiga tushirilgan bo'lib, tashkil etilayotgan vaqtlaridayoq ularga asosan Markazning inafatlariga xizmat qilish, xom ashyo yetishtirish kabi vazifalar aniq qilib belgilab berilgan edi.

¹ I.A. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. — T., 1997. 61-bet.

29.2. O‘zbekiston SSRning 1927-yilgi Konstitutsiyasi

O‘zbekiston SSR tashkil qilinganidan so‘ng respublika davlat boshqaruvi organlari ittifoq organlari tartibida va ular andozasida tuzildi. Bu ittifoqdosh respublikalarni Markazdan turib boshqarishning eng oson va oddiy, shu bilan birga, takomillashgan mustahkam shakli edi.

Shuningdek, mahalliy hokimiyat organlari va ularning apparati vujudga keltirildi, yangi ma‘muriy-hududiy bo‘linish amalga oshirildi. Oldmiga respublikaning viloyat bo‘linishidan okrug bo‘linishiga o‘tildi, keyin yana viloyat bo‘linishiga qaytildi, tumanlar va qishloq kengashlarining keng tarmog‘i tuzildi. Ma‘muriy-hududiy islohotlar sovetlarni mustahkamlash va ularni aholiga yaqinlashtirish bahonasida o‘tkazilardi. Aslida esa ular kommunistik rejim tomonidan partiya-davlat apparatining cheksiz hukmronligini mustahkamlash maqsadida amalga oshirilar edi.

1927-yil mart oyida O‘zbekiston Sovetlarining II qurultoyi respublika Konstitutsiyasini qabul qildi, bu Konstitutsiya qat‘iyan sinfiy tusda bo‘lib, bolshevikcha ekstremizm mafkurasi bilan sug‘orilgan edi. Konstitutsiyaga muvofiq «mehnatkash bo‘lmagan» qatlamlardan chiqqan ko‘pgina ijtimoiy tabaqalar, dindorlar va boshqalar saylov huquqlaridan mahrum etilgandi. Bu bilan aholining anchagina qismi kommunistik rejim tomonidan davlat qurilishida va ijtimoiy-siyosiy hayotda ishtirok etishdan chetlashtirilgan edi.

Konstitutsiyaga «Mehnatkash va ekspluatatsiya qilinuvchi xalqlar huquqlari» Deklaratsiyasi, «O‘zbekiston SSRni tashkil qilinishi to‘g‘risida»gi Deklaratsiya, SSSR Sovetlari III-syezdining «O‘zbekiston SSRni Ittifoq tarkibiga qo‘shish» to‘g‘risidagi qarori, SSSRning 1924-yilgi Konstitutsiyasi asos qilib olindi. Konstitutsiya 8 bo‘lim, 17 bob, 114 moddadan iborat.

Konstitutsiya O‘zbekiston SSRning tashkil qilinganligini, O‘zbekiston hududida proletariat diktaturasi o‘rnatilganligini, milliy davlat tuzilganligini, xususiy mulk bekor qilinganligini qonunlashtirdi. Shuningdek, Konstitutsiyada O‘zbekiston SSR ishchi va dehqonlarning sotsialistik davlati ekanligi, unda butun hokimiyat ishchi dehqon va qizil askar deputatlari Sovetiga o‘tganligi, asosiy ishlab chiqarish qurollariga nisbatan davlat mulkchiligi belgilanganligi e‘lon qilindi.

Konstitutsiya bo‘yicha O‘zbekiston SSR davlat hokimiyatining oliy organi O‘zbekiston Sovetlar Qurultoyi, qurultoylar o‘rtasidagi davrda Sovetlar Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi, uning sessiyalari orasida MIK Prezidiumi, oliy boshqaruv organi respublika Xalq Komissarlar Soveti, mahalliy davlat hokimiyati idoralari okrug va tumanlarda Sovetlar qurultoyi, qurultoylar o‘rtasidagi davrda Sovetlarning ijroiya qo‘nitalari,

shahar va qo'rg'onlarda Sovetlar sessiyalari o'rtasidagi davrda ularning ijroiya qo'mitalari qishloqlarda qishloq Sovetlari etib belgilangan.

Doimiy ishlab turuvchi O'zbekiston MIK hukumat va boshqa vazirliklarning davlat organlari faoliyatini boshqarib turish, ularning ishlarini muvofiqlashtirish, Konstitutsiya va boshqa qonunlarning bajarilishini nazorat qilib borish bilan shug'ullanishi belgilandi. Konstitutsiyada fuqarolarning huquqiy holati, ularning huquq va erkinliklari ham ko'rsatilgan edi va unda «mehnatkashlar» va «fuqaro» tushunchalari izohlab o'tilgan. Shu bilan birga mehnatkashlarning huquq va erkinliklariga alohida e'tibor berilgan. Konstitutsiya mehnatkashlarga o'z fikrini erkin bildira olish, majlis qilish, birlashmalar tuzish huquqini berdi. Lekin fuqarolarning bu huquqlari hech qanday kafolatlanmadi.

O'zbekiston tarkibiga Tojikiston ASSRning kirganligini inobatga olib, Konstitutsiyaning tegishli boblari, jumladan, gerbi, o'zbek, tojik va rus tillarida yozib qo'yildi.

29.3. 1920-yilning ikkinchi yarmi va 30-yillarning ikkinchi yarmida huquqda yuz bergan o'zgarishlar

O'rta Osiyoda milliy davlatlarning tashkil etilishi huquq sohasida qator o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi. Bu asosan yangi tashkil topgan respublikalarning o'z huquq manbalarini yaratilishi orqali amalga oshirildi.

O'zbekiston SSRning 1927-yilgi Konstitutsiyasi asosida huquqning turli sohalari bo'yicha qator normativ huquqiy aktlar qabul qilingan. Bular O'zbekiston SSRning Grajdanklik kodeksi (1927-y.), Grajdanklik protsessual kodeksi (1927-y.), Nikoh, oila, vasiylik va grajdanklik holatlarini qayd qilish haqidagi kodeksi (1929-y.), Yer-suv kodeksi (1929-y.), Jinoyat protsessual kodeksi (1929-y.) va boshqalardir.

Oila huquqiga oid ayrim muammolarni qal qilish maqsadida adliya xalq komissarligi 1926-yil 25-fevralda «Xotin-qizlarni huquqiy himoyalash to'g'risida»gi yo'riqnomasini qabul qildi. Bunga asosan nikoh ishlarini qozi sudlarida ko'rish ishlari tugatildi. Bu davrda nikohni qayd etish masalalari, mahalliy sharoitni hisobga olgan holda, ayrim qo'shimcha va o'zgartirishlar bilan to'ldirilgan RSFSRning 1918-yilgi oila va nikoh kodeksi asosida hal etilardi.

Oila, nikoh, vasiylik va grajdanklik holati aktlarini qayd qilish haqidagi 1927-yilda ishlab chiqilgan yangi kodeks O'zbekistondagi birinchi oila-nikoh kodeksi edi. Unga ko'ra, nikohga kirishning asosiy shartlari o'zaro rozilik va nikoh yoshiga yetganlik talab qilindi (xotin-qizlar uchun 18 yosh), yaqin qarindoshlar o'rtasida nikohga kirish, ko'p xotinlik qoralandi, shuningdek, nikohga kiruvchilarning diniy, milliy va ijtimoiy

kelib chiqishi bilan bog'liq chegaralanishlar taqiqlandi. Nikoh bekor qilingach mehnatga qobiliyatsiz tomonning uch yil davomida nafaqa olib turishi belgilandi.

Bu davrda qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Sovetlarining I-syezdi tomonidan qabul qilingan «O'zbekiston SSRning tashkil topganligi to'g'risida»gi Deklaratsiya, «Xo'jalik qurilishi haqida»gi, «Hokimiyatni yangi saylangan O'zbekiston SSR Sovetlari MIKga berish to'g'risida»gi qarorlari, shuningdek, O'zSSR Sovetlari MIK va uning Prezidiumi tomonidan qabul qilingan «Quyi davlat idoralarini mustahkamlash to'g'risida»gi Nizomini tasdiqlash haqida»gi, O'zbekiston SSRning 1925–1926-yilgi davlat budjeti rejasi va boshqa aktlarning qabul qilinishini O'zbekistonda yangi huquqiy tizimning paydo bo'lishi va rivojlanishiga olib keldi.

TASSRning 1922-yil 23-noyabrdagi qozi sudlari haqida qabul qilingan Nizomining 14-moddasiga binoan qozi va biy sudlarida, shariat qonunlari va odat qoidalariga asoslanib ish ko'rish jarayonlari yangi huquqning asosiy qoidalariga zid kelmasligi shart qilib qo'yildi. Sovet davlati qishloq joylarida 1925-yilda yer-suv islohotini, shaharlarda esa, uylarni milliyashtirish va ularning egalaridan shahar Sovetlariga olib berish amalga oshirildi.

1922-yildagi Mehnat qonunlari kodeksi qo'llanilib, mehnat huquqining me'yorlari mehnat shartnomasi va jamoa shartnomalari tuzish, dam olish, ish haqi, ish vaqti me'yorlarini tartibga solishga qaratilgan. Bu davrda kasaba uyushmalari jamoa shartnomasining faol ishtirokchisi bo'lib tanildi. Jamoa shartnomasi ishxona ma'muriyati bilan kasaba uyushma tashkiloti o'rtasida bir yil muddatga tuzilib, u ikki xil ko'rinishda bo'ldi: bosh va lokal shartnomalar. Bu shartnomalar muhim huquqiy shakllardan bo'lib, fuqarolarning mehnat jamoalarida ishchi va xizmatchi sifatida faohiyat ko'rsatishlarida katta rol o'ynadi.

O'zbekiston SSR JK 1926-yil 1-iyuldan boshlab kuchga kiritildi. Unga RSFSRning 1924-yildagi «Jinoyat huquqining boshlang'ich qoidalarini» asos bo'lib xizmat qilgan. Ushbu kodeks umumiy va maxsus qismlardan iborat bo'lib, mavjud 292-moddadan 56 tasi umumiy qismga, 236 tasi esa maxsus qismga bag'ishlangan. Umumiy qism 4 ta bo'limdan iborat edi. O'zbekiston SSR JK RSFSR Jinoyat Kodeksidan farqli ravishda boshqarish tartibiga qarshi qaratilgan jinoyatlarni ham juda xavfli jinoyatlar deb hisoblagan. Jinoyat Kodeksida yangi ijtimoiy davlat tuzilishini va uning huquqiy tartiblarini, shuningdek, grajdanlarning huquq va manfaatlarini qo'riqlash maqsadida jazoning og'ir turlari ko'rsatildi.

JPK 1926-yilda qabul qilinib, u 1924-yildagi Ittifoq va ittifoqdosh respublikalar jinoyat sud yuritish asoslariga muvofiq holda ishlab

chiqilgan edi. U o'zgartirish va qo'shimchalar bilan 1929-yilgacha amalda bo'ldi. Kodeks 6 bo'lim 455 moddadan iborat edi.

JPKdan jinoyat sud ishlarini yuritish asoslari, dalillar haqidagi normalar, sudning ushlab turish tartiblari va muddatlari, jinoyat ishini qo'zg'atish tartiblari va dastlabki tergov asoslari kabi qator normalar joy olgan. Shuningdek, kodeksda jinoyat ishlarini xalq sudida ko'rishning tartibi, oblast sudlari va harbiy tribunallarda hamda O'zbekiston SSR Oliy sudida sud ishlarini yuritish asoslari, tartiblari ham o'z ifodasini topgan. Kodeksning so'nggi bo'limida hukmning ijro tartibi, muddatidan ilgari shartli ravishda jazodan ozod qilish tartibi, shuningdek, shartli hukmlarni va muddatidan ilgari shartli ozod qilishlarni bekor qilish tartiblari ko'rsatilgan.

O'zbekiston SSR MIK Prezidiumining 1927-yil 22-oktabr qaroriga asosan GPK respublikaning barcha hududlarida 1928-yil yanvar oyidan boshlab kuchga kiritildi. Kodeks besh qismdan tashkil topgan bo'lib, unda grajdanlik jarayonining asosiy mazmuni, sud daromadlari va xarajatlari, jarimalari, sud jarayoni ishtirokchilarini chaqirishning tartibi va protsessual muddatlar ko'rsatilgan.

GPKning ikkinchi qismida da'vo ishlari bilan bog'liq me'yorlar, uchinchi qismda esa alohida muhim ishlarni hal qilish tartiblari, to'rtinchi qismida sud qarori ustidan shikoyat qilish tartiblari va beshinchi qismida sud qarorlari va ajrimlarining ijrosini ifodalovchi normalar o'z ifodasini topgan.

1930-yillar «qatag'on» qilish siyosati bilan tarixda qoldi. Jinoyat protsessual qonunchiligida «ixchamlashtirish» yuz berdi. O'zbekiston Adliya xalq komissarligi yangi Jinoyat protsessual kodeksini ishlab chiqdi va u 1929-yil avgust oyidan kuchga kiritildi. 1926-yildagi Kodeksdan farqli o'laroq bu Kodeks 175 (455) moddadan iborat edi. Bunda surishtiruv va dastlabki tergov institutlari birlashtirildi. Sud organlari qoshidagi tergov organlari prokuratura organlariga olib berildi. Hatto tergovchi prokurorning ayrim nazorat funksiyalari bilan ham ta'minlandi. Kodeksda jinoyat ishini kuzatish yoki rad etish asoslari alohida ko'rsatib o'tilmagan edi. Bu esa qonunchilikning buzilishiga olib keldi. SSSR MIKning 1934-yil iyuldagi «Umumittifoq Ichki Ishlar Xalq Komissariyatini tashkil qilish to'g'risida»gi qarori bilan Davlat Birlashgan Siyosiy Boshqarmasi (OGPU) huzuridagi sud kollegiyasi tugatilib, davlat jinoyatlari va boshqaruv tartibiga qaratilgan jinoyatlarni tergov qilish SSSR Ichki Ishlar Xalq Komissarligi Davlat xavfsizligi idoralariga berildi. Shu bilan birga SSSR va ittifoqdosh respublikalar Oliy sudlari qoshida ushbu turdagi ishlarni ko'rib chiqish uchun maxsus kollegiyalar tuzildi. Vatanga xiyonat qilish, josuslik, terrorizm, qo'poruvchilik kabi jinoyat ishlari Oliy sudning Harbiy kollegiyasi va harbiy tribunallar sudlovligiga

taalluqli bo'ldi. Bundan tashqari Ichki Ishlar Xalq Komissarligi huzurida jinoyat ishlarini ko'rib chiqish huquqi bo'lgan Maxsus Kengash tuzildi.

SSSR MIK 1934-yil dekabdagi «Ittifoqchi respublikalarning harakatdagi jinoyat protsessual kodekslariga o'zgartirishlar kiritish haqida»gi qaroriga asosan, O'zbekiston SSR MIK ham 1934-yilning 14-dekabrida «Jinoyat protsessual Kodeksining 11-, 93-, 106-, 151-, 167-moddalariga o'zgartirish kiritish va 99-, 166-moddalar bilan to'ldirish haqida»gi qarori qabul qilindi.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

1. *Lenincha milliy siyosatning asl maqsadlari nimalardan iborat edi?*
2. *O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish va O'zSSRning tashkil topishi haqida gapirib bering.*
3. *O'zSSRning 1927-yilgi Konstitutsiyasining qabul qilinishi va ko'rinishi haqida gapirib bering.*
4. *1920-yilning 2-yarmida huquqda qanday o'zgarishlar yuz berdi?*
5. *1930-yillarda huquqda yuz bergan o'zgarishlar haqida gapirib bering.*

30-MAVZU: O'ZBEKISTON SSRNING 1937-YILGI KONSTITUTSIYASI VA «SOTSIALIZM» AQIDAPARASTLIGI

1. Sotsialistik jamiyat va uning mohiyati.
2. O'zbekiston SSRning 1937-yilgi Konstitutsiyasining qabul qilinishi va asosiy qoidalari.
3. 1937-yilgi Konstitutsiya bo'yicha O'zbekistonning hokimiyat va boshqaruv organlari.

30.1. Sotsialistik jamiyat va uning mohiyati

O'zbekistonda «sotsializm» tuzumi o'z mohiyati va yo'nalishi bo'yicha nimalarda namoyon bo'ldi?

Birinchidan, siyosiy jihatdan olganda O'zbekistonda milliy davlat, milliy qo'shim va milliy boshqaruv tizimi tashkil etilmadi. Ularning o'rniga mustamlakachilik siyosati va milliy zulmi ta'minlovchi totalitar tizim o'rnatilib, O'zbekiston amalda Rossiyaning tarkibiy qismiga aylantirildi. To'g'ri, Respublika maqomi berilib, parlament, konstitutsiya, bayroq, madhiya va gerb joriy etildi. Ammo, ularning hammasi «xo'jako'rsinga» qilingan bo'lib, nayrangbozlikdan boshqa narsa emas edi. Chunki respublika va uning xalqiga siyosiy va insoniy huquqlar

berilmay, qattiq nazorat va ta'qib hukm surdi. Garchand rahbarlik lavozimlariga o'zbeklar ham qo'yilgan bo'lsa-da, lekin ular markazning o'ta itoatkor xizmatkorlari edi, xolos. Ularning zimmasiga kommunistik g'oyalarning samaradorligini ta'minlash, turli-tuman boylik va daromadlarni ikki qo'llab markaz xazinasiga topshirish yuklatilgan edi. Siyoni unutmash kerakki, O'zbekiston rahbarlari «zanjirband hukmdorlar» bo'lgan edilar.

Ikkinchidan, ma'lumki, sovet davrida ming yillar mobaynida hukm surib kelayotgan iqtisodiy tizimni tubdan o'zgartirish vazifasi qo'yildi. Bunga binoan xususiy mulkchilik, erkin bozor va savdo-sotiq, erkin ishbiarmonlik va ishlab chiqarish taqiqlandi. Xalqning qo'lidagi yer-suv, boylik, savdo shoxobchalari, sanoat korxonalari, qo'yingchi, tabiatdagi barcha jonli va jonsiz borliq sovet davlatining mulkiga aylantirildi.

Shu tarzda, sovet hukumati bir necha ming yillar mobaynida inson kashf etgan va rivojlantirgan xususiy mulkchilik va erkin bozorni qo'porib tashladi.

«Hammamizga ma'lumki, — deydi Prezidentimiz Islom Karimov, — biz so'nggi 70 yil mobaynida davlatga qaramlik va sig'inish holatida yashadik. Mamlakatdagi barcha boyliklarning, mulkning egasi davlat deb hisoblab keidik. Qaysi masalani olmaylik, davlat manfaati birinchi o'rinda, fuqaro, shaxs manfaati esa deyarli hisobga olinmasligi eski konstitutsiyalarning har qaysi moddasida yaqqol ko'zga tashlanar edi».¹

Darhaqiqat, mamlakatda yagona davlat mulk egaligi hukm surib, hatto odamlarning hayoti va taqdiri ham davlatning qo'lida bo'lgan.

Shunday qilib ko'rdikki, xususiy mulkchilik va unga bog'liq turli sohalarining taqiqlanishi, shaxsiy tashabbus va manfaatdorlikning bo'g'ishishi, majburiy mehnat, ishga yarasha haq to'lamaslik, boqimandalik va «qorin to'ysa bas» degan tuyg'ular qulchilikning iqtisodiy zaminini yaratdi.

Uchinchidan, milliy his-tuyg'ular, o'z-o'zini anglash, vatanparvarlik, g'ururlanish, faxrlanish va boshqa oliy insoniy fazilatlar hibsga olindi. O'z ona yurtiga sodiq kishilar «millatchi, xalq dushmani» va «imperializm ayg'oqchilari» singari qalbaki aybnomalar bilan otildi va uzoq muddatli qamoqqa hukm qilindi. Hatto, ularning oila a'zolari ham qamaldi yoki ta'qib ostiga olindi. Ularning orasida uzoq joylarga surgun qilinganlari ham bor edi. Shu ravishda, milliy g'oya va ma'naviyatga zarba berilib, ulug'millatchilik suvlari bilan sug'orilgan kommunistik g'oyalar kishilar ongiga zo'ravonlik bilan singdirilib borildi.

¹ I.A. Karimov. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. 2-tom. —T., 1996, — 94-bet.

To'rtinchidan, xulosa qilib aytganda, Sho'ro davrida O'zbekistonda milliy davlat va qo'shinni tashkil etishga yo'l berilmay, mustamlakachilik va ulug'millatchilik siyosati amalga oshirildi. Respublika rahbarlari mustaqil ravishda ichki va tashqi siyosatni yurgizishdan mahrum etilib, ular amalda markazning itoatkor xizmatkorlari edi, xolos. O'zbek tiliga davlat maqomi berilmadi, milliy pul joriy etilmadi. Xalq ommasiga siyosiy va insoniy huquqlar berilmay, butun mamlakat «temir panjara» bilan o'rab olindi. Uning siyosiy faoliyati bo'g'ildi va tashqi dunyo bilan aloqa qilishga yo'l berilmadi. Respublika misli ko'rilmagan siyosiy qatag'onni, qattiq nazorat va ta'qiblarni boshidan kechirdi.

30.2. O'zbekiston SSRning 1937-yilgi Konstitutsiyasining qabul qilinishi va asosiy qoidalari

Sho'rolar hukmronligi davrida 30-yillarning ikkinchi yarmiga kelib sobiq Ittifoqda, shu jumladan, O'zbekistonda ham komfirqa rahbarligida «sotsializm asosan g'alaba qozondi» deb haqiqat va mantiqqa zid xulosa chiqarilgan edi.

SSSRning yangi Konstitutsiyasi asosida O'zbekiston SSRning ham «yangi» Konstitutsiyasi tayyorlandi. 1937-yil fevral oyida respublika sho'rolarining favqulodda VI qurultoyi bu Konstitutsiyani tasdiqladi. Qurultoyda O'zbekiston SSR Konstitutsiyasining 14-moddasiga binoan, Qoraqalpog'iston 1937-yilda O'zbekiston SSR tarkibiga muxtor respublika bo'lib kirdi. SSSR va O'zbekiston SSR Konstitutsiyalarida mamlakatda «sotsializm g'alaba qilganligi» haqidagi xulosalar rasmiy xarakterdagi g'irt uydirmadan boshqa narsa emas edi. Bu nechog'lik bema'ni va kulgili xulosa ekanligini mamlakatdagi siyosiy tang vaziyat va amalga oshirilgan yalpi qatag'onliklar ochiq-oydin isbotlaydi.

O'zbekiston SSR Konstitutsiyasining boshidan oyoq har bir qoidasi respublikadagi real hayotiy voqealarga zid va qarama-qarshi edi. Ayniqsa Konstitutsiyada O'zbekiston Respublikasining «mustaqil» ekanligi, sobiq Ittifoqdagi barcha Sho'ro respublikalari orasida «teng huquqli» davlat deb e'lon qilinganligi borib turgan lo'ttibozlikning o'zi edi. O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha sohalarida mustamlaka bo'lib, biror-bir masalada mustaqil harakat qila olmas edi.

Konstitutsiyaga binoan barcha fuqarolarga ularning ijtimoiy kelib chiqishi va qaysi sinfga mansubligidan qat'i nazar, saylov huquqlari berildi. Biroq 1936-yilgi SSSR Konstitutsiyasi va 1937-yilgi O'zbekiston SSR Konstitutsiyasining ko'pgina moddalari, ayniqsa fuqarolarning huquqlari va erkinliklari e'lon qilingan moddalari vaqt o'tishi bilan soxta ekanligi ko'rinib qoldi.

1936-yilning oxirida o'z konstitutsiyasida «keng» huquqlar va erkin-

liklarni e'lon qilgan mustabid tuzum oradan bir necha oy o'tgach ommaviy terrorni avj oldirdiki, u o'zining qonli panjalari bilan O'zbekistonni ham qamrab oldi. Ittifoqning jazo organlari va uning respublikadagi tuzilmalari hech bir aybsiz kishilar ustidan soxta «ishlar»ni to'qib chiqdilar, ommaviy hibsga olishlar uyushtirildi, minglab jamoat arboblari, yirik olimlar, adabiyot va san'at arboblari, xo'jalik kadrlari, ishchilar, dehqonlar, din vakillari va boshqalar sudsiz-so'roqsiz qamoqqa tashlandilar. Kommunistik rejim shu yo'l bilan mamlakatdagi har bir millatning eng ilg'or ziyoli qismini, mustabid tuzum mohiyatini tushunib yetadigan qismini yo'qotishiga harakat qildi. Bu qabihlikni amalga oshirar ekanlar, ular avval o'z kabinetlarida o'tirib o'nlab soxta «aksilinqilobiy tashkilotlar»ni o'ylab topdilar va ularni «fosh etish»ga kirishdilar, go'yo ular imperialistik davlatlarning agentlari bo'lgan emish.

«Qizil terror» o'sha davrda qanchalik ommaviy tus olganligi haqida quyidagi ma'lumotlar dalolat beradi: 1936-yilning oxiridan 1940-yilgacha bo'lgan davrda respublika bo'yicha yozuvchilar, jurnalistlar, davlat, jamoat arboblari va hokazolardan 5.758 kishi qamoqqa olingan, ulardan 4.811 kishi otib tashlangan¹. O'ylab chiqarilgan soxta ayblovlar bo'yicha O'zbekistonda 1937–1939-yillarda hiammasi bo'lib 41 mingdan ziyod kishi qamoqqa olingan, ulardan 37 mingdan ortiq kishi jazolangan, 6 ming 920 kishi esa otib tashlangan².

Shunday qilib, 30-yillarning oxiri butun Ittifoqda bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham mustabid tuzum boshlagan repressiyaning mislsiz beboshliklari, ommaviy «qizil terror»ning vahshiyliklari bilan nishonlandi va o'zbek xalqi tarixida eng fojiviy sahifalarni tashkil etdi.

30.3. 1937-yilgi Konstitutsiya bo'yicha O'zbekistonning hokimiyat va boshqaruv organlari

O'zbekiston SSRning 1937-yilgi Konstitutsiyasida davlat hokimiyatining respublika va mahalliy organlari, sud va prokuratura tizimi ham o'z ifodasini topdi. Uning 1-moddasida O'zbekiston SSR ishchi va dehqonlarning sotsialistik davlati deb e'lon qilingan edi. Shu tariqa yuqorida asl mohiyatli ko'rsatilgan sotsialistik tuzum rasmiylashtirilgan edi.

Yangi Konstitutsiya asosida ishchi, dehqon va qizil askar deputatlari Sovetlari mehnatkashlar deputatlari Sovetlari deb qayta nomlangan edi. Bunda u go'yoki mamlakatda ekspluatator simlar tugatilganligi va ishchilar sinfi bilan dehqonlarning yaqinlashganligi asos qilib ko'rsatilgan edi. Aslida O'zbekiston 30-yillarning o'rtalaridan boshiab Sho'ro

¹ «Правда Востока». 1991, 15– sentabr.

² Q a r a n g: O'zbekistonning yangi tarixi.

istibdodiga qarshi mutlaqo bosh ko'tara olmaydigan mustamlakaga aylantirildi. Respublika hududidagi xalqlar esa insoniy huquqlarning ko'pidan mahrum edilar.

1937-yilgi Konstitutsiyaga binoan Butuno'zbek Sovetlar syezdi, O'zbekiston Sovetlari MIK va uning Prezidiumi o'rniga davlat hokimiyatining yangi oliy organi – O'zbekiston SSRning Oliy Soveti tuzildi. U O'zbekiston SSRda yagona qonun chiqaruvchi organ deb belgilandi. Oliy Sovet Rais, uning uchta o'rinbosarlari, senator va 13 ta a'zolaridan iborat Prezidiumni saylagan. Konstitutsiyada O'zbekiston SSR Oliy Soveti va Prezidiumining xo'jalik, ijtimoiy-madaniy va davlat qurilishiga rahbarlik qilish bo'yicha, jumladan, mahalliy Sovetlarga, davlat boshqaruv organlariga, sud va prokuraturaga rahbarlik qilishi bo'yicha vakolatlari belgilandi.

Oliy Sovet faoliyatining asosiy shakli uning sessiyasi bo'lgan. Oliy Sovetning birinchi sessiyalarida odatda tashkiliy masalalar – mandat komissiyasini saylashdan va uning Oliy Sovetga o'tkazgan saylovlari natijalari haqidagi hisobotini tasdiqlash, Prezidiumni saylash, hukumatni tuzish, doimiy komissiyalarni saylash hal qilingan.

Yangi Konstitutsiya O'zbekiston SSRning Oliy boshqaruv idorasi qilib Xalq Komissarlari Soveti (1946-yildan Ministrlar Soveti)ni belgilagan. Konstitutsiyada davlat hokimiyatining mahalliy idoralari qilib, viloyat, tuman, shahar, qo'rg'on va qishloq mehnatkashlari deputatlari Sovetlari, mahalliy davlat boshqaruv idoralari qilib Sovetlarning ijroiya qo'mitalari belgilangan.

O'zbekiston SSRning Ministrlar Soveti oliy ijro etuvchi va farmoyish beruvchi organ hisoblangan. U ministrlklar va boshqarmalar ishlarini birlashtirgan va yo'naltirib turgan, xalq xo'jalik rejasi va davlat budjetini amalga oshirish, jamoat tartibini saqlash, davlat manfaatlarini himoya qilish va fuqarolar huquqlarini qo'riqlash bo'yicha choralar ko'rgan, Qoraqalpog'iston ASSR hukumati, viloyat Sovetlari ijroiya komitetlari ishlariga rahbarlik qilgan, boshqaruvning tegishli organlarini tuzgan va hokazo.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

1. *«Sotsializm» tuzumining mohiyati va yo'nalishi nimalardan iborat edi?*
2. *Sotsializm tuzumida ijtimoiy-siyosiy tuzumda qanday o'zgarishlar yuz berdi?*
3. *O'zSSRning 1937-yilgi Konstitutsiyaning qabul qilinishi va asosiy qoidalari nimalardan iborat edi?*
4. *1937-yilgi Konstitutsiya bo'yicha O'zbekistonning hokimiyat va boshqaruv organlari qanday tus olgan edi?*

31-MAVZU: IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDA O‘ZBEKISTON DAVLATI VA HUQUQIDA YUZ BERGAN O‘ZGARISHLAR

1. Urushning boshlanishi va O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatining urushga safarbar qilinishi.
2. Urush yillarida davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimidagi o‘zgarishlar.
3. Huquq sohalaridagi o‘zgarishlar.

31.1. Urushning boshlanishi va O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatining urushga safarbar qilinishi

1939-yil 1-sentabrda fashistlar Germaniyasi qo‘shinlarining Polshaga bostirib kirishi bilan Ikkinchi jahon urushi boshlanib ketdi.

Ikkinchi jahon urushini yirik davlatlar o‘rtasidagi ixtiloflar, agressiv kuchlarning dunyoga hukmron bo‘lish uchun intilishlari keltirib chiqardi. Urushning asosiy aybdorlari jahonga hukmronlik qilish da‘vosi bilan maydonga chiqqan Adolf Gitler va Iosif Stalin yurgizgan agressiv siyosat bo‘ldi.

1941-yil 22-iyun tong saharda hujum qilmaslik to‘g‘risidagi shartnomani buzib, fashistlar Germaniyasi Sovet Ittifoqiga xoimona hujum boshladi.

Sovet xalqining fashizmga qarshi urushi boshlandi. Mustamlaka asoratida bo‘lgan barcha respublikalar, shu jumladan, O‘zbekiston ham bu urushda qatnashishga majbur bo‘ldi.

Shu tariqa, Ikkinchi jahon urushi jahondagi 61 mamlakatni, yer shari aholisining 80 foizini, ya’ni 7 milliard kishlni o‘z girdobiga tortdi.

Urushning dastlabki, og‘ir kunlaridanoq sovet xalqi bosqinchilar ustidan g‘alabaga erishishga butun kuchlarini bag‘ishlashga intildilar. O‘zbekiston xalqi mustabid tuzum tarkibida bo‘lganligi uchun bu dahshatli urush g‘am-g‘ussasidan chetda qola olmadi.

O‘zining vatanparvarlik burchini yuksak ado etgan o‘zbek xalqi fashizmdan faqat SSSRni emas, eng avvalo, O‘zbekistonni himoya qilishni, uni yana bir bosqinchidan saqlab qollshni maqsad qilib qo‘ygan edi.

O‘zbekistonliklar fashizmga qarshi jangga safarbar etildilar. O‘rta Osiyo harbiy okrugi front uchun 1941-yil iyundan 1942-yil oxirigacha harbiy safarbarlik asosida 109 ta harbiy qo‘shilma tuzdi, harakatdagi armiyaga va Oliy Bosh qo‘mondonlik qarorgohi rezerviga 86 diviziya va brigada jo‘natdi.

O‘zbekiston hukumati milliy harbiy qo‘shilmalar tuzish tashabbusi

bilan chiqdi. 1941-yil 13-noyabrdan 1942-yil martigacha 14 ta milliy harbiy qo‘shilma, jumladan, 9 ta o‘qchi brigada, 5 ta otlq askarlar diviziyasi tuzilib frontga jo‘natildi.

1941-yili O‘zbekiston aholisi 6,5 million kishidan iborat edi, ulardan urushga yaroqli odamlarning 50–60 foizi, aniqrog‘i 1.433.230 kishi urushga safarbar etildi.

1941-yil oxirigacha 300 ga yaqin korxonalar harbiy izga solindi, jangovar texnika, qurollar, o‘q-dori ishlab chiqarishga moslashtirib qayta qurildi. Shulardan 100 tasi urush bo‘layotgan hududlardan ko‘chirib keltirildi va qayta qurildi. Bundan tashqari yana juda ko‘plab ishlab chiqarish korxonalari, maorif va madaniyat muassasalari, ming-minglab fuqarolar, ota-onasiz qolgan yosh go‘daklar O‘zbekistonga evakuatsiya qilindi, o‘zbek xalqi ularni o‘z issiq bag‘riga oldi.

Urush yili O‘zbekiston gospiitalariga 164382 yarador joylashtirildi, ulardan 87 foizi davolanib chiqdi.

O‘zbekistonliklar orasida mudofaa fondini tashkil etish, front uchun issiq kiyimlar to‘plash harakati keng yoyildi. Mudofaa fondiga 650 million so‘m pul, 22 million so‘mlik qimmatbaho buyumlar va 55 kilogrammga yaqin oltin, kumush va boshqa qimmatbaho metallar to‘plandi. Bu jamg‘arma hisobiga respublikamizda tank kolonnalari, aviatsiya eskadrilyalari, bronepoyezdlar qurilib frontga jo‘natildi. Aholidan issiq kiyimlar tayyorlash uchun jun, terilar yig‘ib olindi. Aholiga davlat zayomi, pul-buyum lotoreyasi sotish hisobiga 4,2 milliard so‘m mablag‘ yig‘ilib g‘alaba manfaatlari yo‘hida foydalanildi.

Xullas, urush yillarida O‘zbekistonning butun moddiy va ma‘naviy kuchlari g‘alaba uchun safarbar etildi, hayot harbiy izga solindi.

31.2. Urush yillarida davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimidagi o‘zgarishlar

Urush sharoitlari davlat apparatida qisman o‘zgarishlar qilishni taqozo etdi. Mamlakat chet el bosqinchilari asoratiga tushish xavfi ostida qoldi. Favqulodda holat vujudga keldi. Shu sababli favqulodda organlar tashkil qilindi yoki ba‘zi davlat organlariga favqulodda vakolatlar berildi.

Bundan tashqari, mavjud hokimiyat va boshqaruv organlari: SSSR Oliy Soveti, SSSR XKS, SSSR Oliy Sovet Prezidiumi, umumittifoq boshqaruv organlari, respublika va mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari harakat qilishda davom etdilar. Biroq ular ham ba‘zi o‘zgarishlarga uchradilar. Masalan, SSSR XKS huzurida Evakuatsiya bo‘yicha kengash tashkil qilinib, uning zimmasiga sanoatni g‘arbiy rayonlardan sharqiy rayonlarga ko‘chirish bo‘yicha va boshqa muhim vazifalar yuklandi. Bundan tashqari, SSSR XKSning ish kuchini hisobga

olish va taqsimlash Komiteti, aholini evakuatsiya qilish bo'yicha Boshqarma, harbiy xizmatchilarning oilalarini davlat ta'minoti va maishiy joylashtirilishi bo'yicha Boshqarma va boshqalar tuzildi. Ittifoqdosh respublikalar va avtonom respublikalar xalq komissarlari sovetlarining, mahalliy boshqaruv organlarining huquqlari kengaytirildi.

Mamlakatning barcha kuchlarini safarbar qilish va uni yagona harbiy lagerga aylantirish maqsadida SSSR Oliy Soveti Prezidumi, VKP (b) Markaziy Komiteti va SSSR XKSning qo'shma qarori bilan 1941-yil 31-iyunda Davlat Mudofaa Komiteti (DMK) tashkil qilindi. Butun hokimiyat ushbu favqulodda davlat organi qo'lida to'plandi. Barcha fuqarolar, partiya, sovet, komsomol va harbiy organlar DMKning qarorlari va farmoyishlarini so'zsiz bajarilishi lozim edi. DMKning tarkibi dastlab 5 kishidan, keyinchalik 9 kishidan iborat bo'ldi. Unga I.V.Stalin rahbarlik qilgan. DMK bosqinchilarni tor-mor etish vazifalari bilan bog'liq barcha masalalar bilan shug'ullangan. U shuningdek, Moskva va Leningrad mudofaasiga ham rahbarlik qilgan. DMK o'z apparatiga ega emas edi. U XKS, xalq komissarliklari, VKP (b) MK apparatlaridan foydalangan holda faoliyat yuritgan. DMK qarorlar loyihalarini tayyorlash, muayyan masalalarni hal qilish, murakkab masalalarni o'rganish va yechish uchun komitetlar, kengashlar, komissiyalar tuzgan. DMKning vakolatli vakillari mavjud bo'lgan. Ular odatda ma'lum masalalarni hal qilish uchun tayinlanganlar. Urush harakatlari ketayotgan shaharlarda shahar mudofaa komitetlari tashkil qilingan. Ularga oblast yoki shaharning partiya birinchi sekretarlari boshchilik qilgan. Ularga, shuningdek, oblast yoki shahar ijro komitetlari raislari, harbiy qo'mondonlik vakillari, ichki ishlar xalq komissarligi boshqarmalari boshliqlari va boshqa shaxslar ham kirgan.

DMK keng huquq ijodkorlik faoliyati bilan shug'ullangan. Uning tomonidan 10 mingdan ortiq qarorlar chiqarilgan. Jumladan, DMKning 1941-yil 17-sentabrdagi «SSSR grajdanlarining umumiy majburiy harbiy ta'limi haqida»gi qarori bilan 1941-yil 1-oktabrdan 16 yoshdan 50 yoshgacha erkaklarning majburiy harbiy ta'limi joriy qilindi. Harbiy ta'lim ishlab chiqarishdan ajralmagan holda amalga oshirildi. Ushbu ta'limni tashkil qilish Mudofaa xalq komissarligi va uning joylardagi organlari zimmasiga yuklandi. Buning uchun Mudofaa xalq komissarligi tarkibida umumiy harbiy ta'lim boshqarmasi tuzildi. Harbiy okruglarda, viloyat, respublika harbiy komissarliklarida umumiy harbiy ta'lim bo'limlari tashkil etildi.

Harbiy holat e'lon qilingan joylarda davlat hokimiyatining mudofaa, jamoat tartibi va davlat xavfsizligini ta'minlash sohalaridagi hamma vakolatlari frontlar, armiyalar, harbiy okruglarning harbiy kengashlariga o'tkazilgan. Harbiy kengashlar bo'lmagan joylarda bunday vakolatlilar

qurolli qo'shilmalarning oliy qo'mondonligiga o'tkazilgan. Ular favqulodda keng vakolatlarga ega bo'lganlar: fuqarolarni mudofaa ishlari uchun mehnat majburiyatlariga, eng muhim xalq xo'jaligi obyektlarini qo'riqlashga va turli tabiiy ofatlarni bartaraf etishga jalb qilganlar va hokazo.

Urush yillarida ittifoqdosh respublikalarning ba'zi huquqlari kengaytirildi. SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1944-yil 1-fevraldagi qonuni bilan ittifoqdosh respublikalarning qurolli qo'shinlar tuzish huquqi tan olindi. 1944-yil mart-oktabr oylarida ittifoqdosh respublikalarning mudofaa xalq komissarliklari tuzildi. O'zbekiston ham bu jarayonlardan chetda qolmadi. Respublikada umumqo'shin tuzilmalaridan tashqari 14 ta milliy qo'shilma va qismlar tashkil etilgan edi. Respublikada tuzilgan ko'pgina jangovar bo'linmalar Ikkinchi jahon urushining hal qiluvchi operatsiyalarida faol ishtirok etdilar va Moskvadan Berlingacha janglar bilan qahramonona yo'lni bosib o'tdilar.

1944-yilda O'zbekiston SSR Oliy Soveti tashqi ishlar xalq komissarligini tashkil etdi va uning xalq komissarini tayinladi.

Urush davrida Qurolli kuchlarni boshqarishda jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. VKP (b) MK va SSSR XKSning Oliy Bosh Qo'mondonligi Qarorgohi tashkil etilgan. So'ngra u Oliy Qo'mondonlik Qarorgohi deb, keyin esa Oliy Bosh Qo'mondonlik Qarorgohi deb qayta nomlangan. Unga dastlab S.M.Timoshenko, 1941-yil 10-avgustdan esa I.V.Stalin boshchilik qilgan. Bu organ tarkibiga Siyosiy byuro a'zolari va Mudofaa xalq komissarliklari rahbarlari kirgan.

1941-yil 10-avgustda Mudofaa xalq komissarligining Bosh shtabi Qurolli kuchlar bosh shtabi deb qaytadan nomlandi va faqat Oliy Bosh qo'mondonga bo'ysundirildi. U Qarorgohning tezkor organi hisoblangan.

1941-yil avgustda Qizil Armiyaning front orti Bosh boshqarmasi tuzilgan. Frontlar, armiyalar, flotlar va flotiliyalar harbiy kengashlari tashkil qilingan.

1941-yil iyulda SSSR Oliy Soveti Prezidiumining Farmoni bilan qurolli kuchlarda harbiy komissarlar instituti joriy qilingan va 1942-yil 9-oktabrda o'z vazifasini bajarib bo'lgan sifatida tugatilgan.

1941-yil iyulda SSSR Oliy Soveti Prezidiumining Farmoni bilan qurolli kuchlarda harbiy komissarlar instituti joriy qilingan va 1942-yil 9-oktabrda o'z vazifasini bajarib bo'lgan sifatida tugatilgan.

1942-yil 30-mayda DMKning qarori bilan Oliy Qo'mondonlik Qarorgohi huzurida partizanlik harakati Markaziy shtabi tashkil qilingan.

Urush yillarida harbiy tribunallar ham tashkil etilgan edi.

31.3. Huquq sohalaridagi o'zgarishlar

Urush sharoiti huquqda ba'zi o'zgarishlar qilishni taqozo etdi.

Fuqarolik huquqi sohasida avvalo shuni aytish kerakki, shaxsiy mulk huquqining ba'zi obyektlariga nisbatan davlat huquqi kengaydi. Masalan, grajdanlar radiopriyomniklarini vaqtincha berishga majbur bo'lganlar, ba'zi mulklarga rekvizitsiya qo'llangan va hokazo.

XKS va VKP (b) MKning 1943-yil 21-avgustdagi qarori bilan sharqiy viloyatlar va respublikalarning xalq komissarlari sovetlari, oblast ijroiya komitetlari va oblast partiya komitetlariga urush vaqtida evakuatsiya qilingan chorva mollarini kolxozlarga qaytarish majburiyatini yukladi.

Majburiyat huquqida fuqarolik-huquqiy shartnomalarni qo'llashning kamayishi va ma'muriy-huquqiy, rejali topshiriqlarning ko'payishi tendensiyasi kuchaydi. Bu avvalo harbiy mahsulotlarga, shuningdek, neft, ko'mir, metall va boshqalarni yetkazib berishga taalluqli bo'ldi. Tabiiyki, urush sharoitida turar-joy ijarasi shartnomasiga alohida e'tibor berildi. SSSR Oliy Sudi Plenumining 1941-yil 23-iyundagi ko'rsatmasi bilan harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini turar-joylardan chiqarib yuborish haqidagi da'volar bo'yicha hamma ishlar to'xtatilgan. SSSR XKSning 1941-yil 5-avgustdagi qarori bilan harbiy xizmatchilar kvartira huquqidan ozod etilgan, ularning oila a'zolaridan esa imtiyozli shartlarda meros huquqida kvartira haqi olinadigan bo'lgan.

Urush yillarida meros huquqida ham qisman o'zgarishlar yuz berdi. SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1945-yil 14-martdagi Farmoni bilan bolalar, er-xotin va qaramoqdagilar bilan bir qatorda mehnatga layoqatli ota-onalar, aka-ukalar va opa-singillar ham meros huquqini oldilar. Buni urushda ko'pdan ko'p merosxo'rlarning qirilib ketganligi talab qilgandi.

Oila huquqi ham jiddiy o'zgarishlarga uchradi. Urush nikohni mustahkamlashga, ko'p bolali oilalarni rag'batlantirishni, tug'ilishni ko'paytirishni talab qildi. Urush sharoitlari yetim bolalar haqida g'amxo'rlik qilish zaruriyatini kun tartibiga qo'ydi.

1941-yil 1-oktabrdan bo'ydoq, beva va bolasiz fuqarolarga soliq joriy qilindi. Homilador ayollar uchun qo'shimcha paykalar berildi. 1943-yilda homiylik, vasiylik va farzandlikka olish haqidagi normativ hujjatlar qabul qilindi. Farzandlikka olishda ularga o'z familiyasini, nasabini berishga ruxsat etildi.

SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1944-yil 8-iyuldagi Farmoni oila huquqiga muhim o'zgarishlar kiritdi. Unga binoan faqat qayd etilgan nikohgina er va xotin o'rtasida huquq va majburiyatlar keltirib chiqaradigan bo'ldi. Nikohsiz tug'ilgan bolalarning onalari tomonidan otalikni o'rnatishni, aliment undirishni talab qilish haqidagi da'volari

hisobga olinmaydigan bo'ldi. Ajralish jarayoni murakkablashtirildi. Endilikda bu faqat sud tartibida amalga oshiriladigan bo'ldi. Farmon homiladorlik uchun beriladigan ta'tilni 63 kalendar ish kunidan 77 kunga uzaytirdi. Homilador ayollar normadan ortiqcha ishlardan ozod qilindilar.

Ko'p bolali va beva ayollarga davlat yordami ko'paytirildi. Ilgari yettinchi bola tug'ilganda davlat nafaqasi berilgan bo'lsa, farmon bo'yicha nafaqa endi uchinchi bola tug'ilishi bilan beriladigan bo'lgan va hokazo.

Mehnat huquqi sohasida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi, mehnat munosabatlarini tartibga solishning favqulodda choralari joriy qilindi.

SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1941-yil 22-iyundagi «Harbiy holat haqida»gi Farmoni harbiy hokimiyatlarga fuqarolarni qator mehnat majburiyatlarini o'tashga jalb qilish huquqini berdi. 1941-yil 26-iyundagi «Ishchi va xizmatchilarning urush vaqtidagi ish vaqti rejimi haqida»gi Farmoni bilan mehnat choralari ko'paytirildi. Sanoat, transport, qishloq xo'jaligi va savdo korxonalarini direktorlari SSSR XKS ruxsati bilan ishchi va xizmatchilar uchun bir kunda 1 soatdan 3 soatgacha ish vaqtini uzaytirish huquqini oldilar. 16 yoshga to'lmagan shaxslar bir kunda 2 soatgacha ish vaqtidan tashqari ishga jalb qilinishlari mumkin edi. Bunday ishlarga olti oylik homilador ayollar va tuqqan ayollar olti oygacha jalb qilinmagan. Ish vaqtidan tashqari ishlarga 1,5 barobar miqdorda haq to'langan. Barcha davlat, kooperativ va jamoat korxonalarini hamda muassasalarida navbatdagi va qo'shimcha ta'tillar bekor qilingan. Faqat 16 yoshgacha ishchilar ta'tildan foydalanishlari mumkin edi. Keksa bo'lganda ham ta'til berilishi mumkin edi. Homiladorlik va tuqqanlik uchun beriladigan ta'tillar ham saqlanib qolgandi. 26-iyundan boshlaboq mamlakatda ishchilar va xizmatchilar uchun ishdan tashqari vaqtda majburiy ishlab berish joriy etildi. Katta yoshdagilar uchun ish kuni olti kunlik ish haftasida 11 soatgacha uzaytirildi. Haqiqatda esa u 12–14 soatga yetar edi. Ta'tilga chiqish bekor qilindi. Bu hol ishchi-xizmatchilarning sonini ko'paytirmasdan turib ishlab chiqarish quvvatlari hajmini taxminan 1/3 ga oshirish imkonini berdi.

Biroq, ishchi kuchining yetishmasligi tobora sezilib bordi. Idora xizmatchilari, uy bekalari, o'quvchilar ishlab chiqarishga jalb qilindi. 1941-yil dekabrda harbiy korxonalarining barcha xodimlari safarbar deb e'lon qilindi va mazkur korxonalariga birlashtirib qo'yildi. Mehnat intizomini buzganlar uchun jazo choralari keskin qo'yildi. Korxonalardan o'zboshimchalik bilan ketib qolganlar 5 yildan 8 yilgacha muddat bilan qamoqqa hukm qilinardi.

Harbiy sanoat va xalq xo'jaligining boshqa sohalaridagi eng muhim korxonalarini va qurilishlarni ishchi kuchi bilan ta'minlash maqsadida SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1942-yil 13-fevraldagi Farmoni bilan

mehnatga yaroqli shahar aholisini urush vaqtida ishlab chiqarish va qurilishda ishlash uchun safarbar qilish zarur deb topildi. Bunga binoan davlat muassasalari va korxonalarda ishlamaydigan 16 yoshdan 55 yoshgacha erkaklar, 16 yoshdan 45 yoshgacha ayollar safarbar qilindi. Farmonda safarbarlikdan ozod etilgan shaxslar doirasi ham ko'rsatilgan edi. Safarbarlikdan bo'yin tovlagan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilib, yashash joyida 1 yilgacha muddatga majburiy mehnatga jalb qilinishlari mumkin edi.

Favquloda, kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni bajarish uchun SSSR XKSning 1942-yil 10-avgustdagi qarori bilan grajdanlarni mudofaa ishlari, yoqilg'i tayyorlash va boshqalarga ikki oygacha muddatga mehnat majburiyatlariga jalb qilish mumkinligi nazarda tutildi. Shu tariqa, harbiy sanoat va bir-biriga bog'liq korxonalar ishchilari urush tamom bo'lguncha safarbar etilgan deb e'lon qilindi. Ilgari ishlamagan, lekin ishga yaroqli bo'lgan aholi ishlab chiqarishda va qurilishda ishlashga safarbar qilindi. Mahalliy hokimiyat organlariga shahar aholisini qishloq xo'jaligi ishlariga tortish huquqi berildi. Kolxozlarda kolxozchilar albatta ishlashi kerak bo'lgan mehnat kuni minimumi amalga oshirildi. Bu SSSR XKS va VKP (b) MKning 1942-yil 13-apreldagi qaroriga binoan, paxta yetishtiriladigan rayonlarda bir yilda 150 ish kunigacha, Moskva, Ivanova oblastlari va qarorda maxsus ko'rsatilgan boshqa oblastlarda 100 ish kunigacha, SSSRning boshqa barcha rayonlarida 120 ish kunigacha qilib belgilangan edi. Shuni o'zi ham ko'rsatib turibdiki, hatto urush yillarida ham asosiy paxta yetishtiruvchi O'zbekistonga nisbatan mustamlaka sifatida qarash, uning aholisini ezish kayfiyatlari aslo so'ngan emas.

Urush yillarida jinoyat huquqining urushdan oldingi normalari harakatda bo'ldi, lekin shu bilan birga yangi normalar ham paydo bo'ldi. Masalan, SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1941-yil 6-iyuldagi Farmoni bilan urush vaqtida aholi orasida vahima tug'diruvchi yolg'on xabarlar tarqatganlik uchun jinoiy javobgarlik o'rnatilib, bunda aybdor deb topilganlarga nisbatan, agar bu harakatlarga qonun bo'yicha og'ir jazo berilishi ko'rsatilmagan bo'lsa, 2 yildan 5 yilgacha turmaga qamash jazosi nazarda tutilgan. SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1943-yil 15-noyabrdagi Farmoni bilan davlat sirlarini oshkor qilganlikda yoki davlat sirlari saqlangan hujjatlarni yo'qotganlikda aybdor bo'lgan mansabdor shaxslarga 10 yilgacha muddatga, xususiy shaxslarga esa 3 yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan. Urush yillarida, shuningdek, sotsialistik mulkni talon-toroj qilganlik uchun jazolarni kuchaytiruvchi qator normativ hujjatlar qabul qilindi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, bu davrda mehnat intizomini buzganlik uchun ham jinoiy javobgarlik kuchaytirildi.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

1. *Urushning boshlanishi va O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatining urushga safarbar qilinishi haqida gapirib bering.*
2. *Urush yillarida davlat hokimiyatida qanday o‘zgarishlar yuz berdi?*
3. *Boshqaruv tizimida qilingan o‘zgarishlar haqida gapirib bering.*
4. *Huquq sohasida qanday o‘zgarishlar yuz berdi?*

32-MAVZU: MUSTABID TUZUM INQIROZI YILLARIDA O‘ZBEKISTON DAVLATI VA HUQUQI (1946–1985-YILLAR)

1. Urushdan keyingi yillarda O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi.
2. «Rivojlangan sotsializm» g‘oyasining mohiyati va tarixiy taqdiri.
3. Davlat tuzumida ma‘muriy-buyruqbozlik tizimining hukmronligi.
4. Huquqdagi o‘zgarishlar.

32.1. Urushdan keyingi yillarda O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi

1939–1945-yillarni o‘z ichiga olgan dahshatli Ikkinchi jahon urushida SSSR g‘oliblar qatoridan joy oldi. Urush O‘zbekiston hududida bo‘lmadi, ammo u mamlakatimiz xalqlari boshiga bitmas-tuganmas kulfat va ofatlar keltirdi.

Dunyodagi barcha mustamlakachi davlatlar singari sho‘rolar davlati ham O‘zbekistonni o‘zining xom ashyo yetkazib beruvchi o‘lkasiga aylantirish siyosatini yuritdi, og‘ir sanoatni rivojlantirishga aytaylab yo‘l bermadi.

O‘zbekistonda sho‘rolar hukumatining rangli va qora metallurgiya, ko‘mir ishlab chiqarish, gaz va neft mahsulotlarini qazib olish, transport va aloqa tarmoqlarini rivojlantirish, kapital qurilishi hamda shaharsozlik kabi sohalarga e‘tibor berganligi yurtimiz boyliklarini tashib ketish, talon-toroj qilish maqsadlarini ko‘zlagan edi.

Yer ostidan qazib olinib va yuz foiz Markazga jo‘natilgan ming tonnalab oltin, uran va boshqa tengi yo‘q qimmatbaho boyliklar va ma‘danlar to‘g‘risida gapirma ham bo‘ladi. Ayniqsa, paxtachilikni rivojlantirish manfaatlarini ro‘kach qilib, 1946–1991-yillar mobaynida O‘zbekistonda kuchli kimyo sanoati vujudga keltirildi.

Eng dahshattisi shundaki, o‘zidan hisobsiz zaharli kimyoviy moddalarni atrofga tarqatuvchi bunday korxonalar necha o‘nlab ajdodlarimizning mehnatlari evaziga qurilgan va gullab-yashnab turgan aholi zich joylashgan vohalar va shaharlarda ataylab joylashtirildi. Bu hol respublika ekologiya vaziyatiga halokatli ta‘sir ko‘rsatdi.

Ish shu darajaga borib yetdiki, hatto gullab-yashnab turgan bog‘u rog‘lar, poliz ekinlari maydonlari keskin qisqarganligidan mamlakat fuqarolari inson organizmi uchun vitaminlarga boy bo‘lgan meva va sabzavotlarni kam iste‘mol qiladigan bo‘lib qoldilar. Yaylovlarning paxta ekiladigan maydonlarga aylantirilganligi natijasida chorva mollari tuyog‘ining umumiy soni keskin qisqarib ketdi. Bu hol o‘z navbatida respublika aholisi uchun juda zarur bo‘lgan go‘sht, sut va sut mahsulotlarini yetishtirishni juda og‘ir ahvolga solib qo‘ydi. O‘zbekistonda 1986-yili (1940-yil bilan taqqoslaganda) aholining o‘shish sur‘atlariga qaraganda paxta tayyorlash bir necha barobar o‘sgani holda sigirlar, qo‘y va echkilarning o‘shish sur‘ati keskin orqada qolgan. Paxta ekin maydonlari kengayishi Amudaryo va Sirdaryo suvlarining Orol dengiziga oqishini keskin kamaytirdi. Orol fojeasi kelib chiqdi.

Sho‘rolar hukumati aholi uchun nihoyatda zarur bo‘lgan sohalar: don mahsulotlari, kartoshka, sabzavot kabi tarmoqlarga ikkinchi darajali soha deb qaradi. Buning oqibatida jannat makon o‘lkamizning qaramligi va tobeligi yanada oshdi.

Paxtachilikni sun‘iy ravishda jadal yuksaltirish mustabid tuzumning O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishdagi ustuvor yo‘li bo‘lib, uning bir tomonlama rivojlanishini mustahkamladi. Bu hol respublika hayotiga ko‘pgina salbiy xususiyatlarni olib kirdi: respublikaning olg‘a tomon rivojlanishi muntazam sekinlashib bordi, iqtisodiyotda buzilish va turg‘unlik jarayonlari boshlandi, ekologiyaga putur yetdi, aholining turmush darajasi va salomatligi yomonlashdi

40-yillar oxiri – 50-yillar boshlarida O‘zbekiston ilmiy va badiiy ziyolilarining ta‘qib qilinishi o‘sha vaqtda SSSRda hukm surgan mustabid tuzumning o‘zboshimchaligi va zo‘ravonligining haqiqiy ko‘rinishi edi. Bu tuzum o‘zining oxirgi yillarini yashayotgan stalinizmning eng qabih ifodasi, uning boshqacha fikrlovchilarga nisbatan qilgan so‘nggi ommaviy qatag‘onlari bo‘ldi. Boshqacha fikrlovchilarning respublikadagi vakillari sifatida o‘z xalqining manfaatlarini aks ettiruvchi, o‘zbek xalqining ma‘naviy merosini, uning tili, madaniyati, asriy urf-odatlarini va an‘analarini saqlash uchun murosasiz kurash olib boruvchi milliy ziyolilar maydonga chiqdi. Ularning vatanparvarlik kayfiyatidagi ko‘pgina vakillari o‘z e‘tiqodlari uchun mustabid tuzum yillarida o‘z ozodligi, baxti va hatto hayotlari bilan tovon to‘ladillar.

1937-yildan 1953-yilgacha respublikada NKVD «uchligi» tomonidan 100 ming kishi qamoqqa olindi va turli muddatlarga ozodlikdan mahrum etildi, ulardan 15 ming nafari otib tashlandi. Stalinizm qurbonlari orasida turli darajadagi rahbar xodimlar, adabiyot va fan arboblari, o‘qituvchilar va jurnalistlar, ishchilar va dehqonlar, turli qatlamlar va millatlarning vakillari bor edi.

Mustaqil fikrlovchi shaxslarga nisbatan qatag'onlar 70–80-yillarda ham stalinizmning dahshatli davridagi kabi ommaviy tarzda va qonli tus olmagan bo'lsa-da, lekin yakka-yakka tartibda ularni ta'qib qilishlar, ular ustidan maxsus «jinoiy ishlar» uyushtirishlar, kommunistik mafkura andozasiga «sig'may» qolgan ayrim shaxslarni ruhiy kasalliklar shifoxonalariga berkitib qo'yish kabi jinoyatkorona ishlar SSSR barbod bo'lgunga qadar muntazam davom etdi.

32.2. «Rivojlangan sotsializm» g'oyasining mohiyati va tarixiy taqdiri

Ikkinchi jahon urushini g'alaba bilan tugallagan SSSR o'zini yanada mag'rur tuta boshladi. Oliy siyosiy rahbariyat fashizm ustidan qozonilgan bu g'alabani «sotsializmning imperializm – kapitalizm ustidan qozongan g'alabasi», marksizm-leninizm-stalinizm g'oyasining «mardonavor tantanasi», kommunistik mafkuraning yengilmas kuchi sifatida izohladilar.

Sovet qo'shinlari fashistlardan ozod qilgan bir qator Yevropa mamlakatlarida (Bolgariya, Vengriya, Germaniyaning bir qismi, Polsha, Ruminiya, Chexoslovakiya va boshqalar) «sovetlarcha» yangi hukumatlar tashkil qilinib, ular «sotsialistik yo'ldan» bora boshladilar. Bu jarayonni kommunistik mafkura rahnamolari «sotsializmning jahon miqyosida g'alabasi», «sotsializmning bir necha mamlakatlarda birdaniga g'alaba qilishi», «sotsialistik tizimning yuzaga kelishi» deb baholadilar. Urushdan keyingi yillardan boshlab kommunistik mafkura o'zining xalqaro va ichki miqyosdagi barcha targ'ibot-tashviqot, ommaviy-siyosiy ishlar olib boruvchi ulkan mexanizmini ana shu g'oyani xalq ommasi ongiga singdirishga safarbar qildi. Natijada urush tufayli bir oz bo'lsa-da susaygan g'oyaviy-siyosiy tazyiqlar, cheklashlar yana avj ola boshladi.

Shunisi hayratlanarliki, har bir tarixiy bosqichda kommunistik g'oyafurushlar yangi-yangi aqidalarni o'ylab topardilar.

50-yillarning oxirlarida «SSSRda sotsializmning to'la va uzil-kesil g'alaba qilgan»ligini KPSS XXI syezdi (1959-y. yanvar-fevral) tantanali ravishda e'lon qildi. Shu bilan birga, siyosiy rahbariyat «80-yillarda sovet xalqi «kommunizmga yashaydi», deb va'da berdi. Hatto, bo'lajak kommunizm kishisining «axloq kodeksi» ham ishlab chiqildi, barcha madaniy-ma'rifiy, ommaviy-siyosiy ishlar xalq ommasini «axloq kodeksi» ruhida qayta tarbiyalashga safarbar qilindi.

Biroq mustabid tuzum o'z mohiyatiga ko'ra unitar (qo'shma) davlat bo'lganligi uchun ham bunday «erkin jamiyatni» yarata olishi mumkin emasdi. 60-yillardayoq jamiyat taraqqiyotida kundan-kunga sekinlashish mexanizmi tobora kuchayib, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda ham beqaror

rivojlanish ko‘zga tashlandi va SSSRda 80-yillarga kelib «va’da qilingan kommunizm» bo‘lmasligi yaqqol sezilib qoldi.

Shu boisdan ham Markaz siyosiy rahbariyati sovet xalqlarini «kommunizmda yashashiga» ishontirgan N.Xrushchevga barcha aybni qo‘yib, «kommunizmga erishish» uchun yana bir bosqich — «rivojlangan sotsializm» bosqichini bosib o‘tish zarurligi, busiz «kommunizmga o‘tib bo‘lmasligi» aytili. Shu asosda «kommunizm g‘oyasi» o‘rniga navbatdagi aqida — «rivojlangan sotsializm» g‘oyasi sovet jamiyatining ijtimoiy-siyosiy hayotiga sun‘iy ravishda kiritildi. Bu partiyaning navbatdagi g‘oyaviy-siyosiy o‘yini, xalq ommasi e‘tiborini mustabid tuzumning illatlari oqibatida yuzaga kelgan, jamiyat taraqqiyotiga, fuqarolarning kundalik hayotiga to‘g‘anoq bo‘layotgan muhim muammolardan chalg‘itishi edi. 60—80-yillarda partiya «rivojlangan sotsializmga» erishish uchun o‘zining barcha imkoniyatlarini ishga soldi, ommaviy axborot, targ‘ibot-tashviqot vositalari xalq ommasi ongiga «rivojlangan sotsializm» bosqichida sotsializm o‘zining eng yuqori «fazasi»ga erishadi, bu davrda sanoat, qishloq xo‘jaligi, fan va texnika, madaniyat-ma‘rifat imkon darajada rivojlanadi, xalqning turmush darajasi muntazam oshib boradi, sovet kishilarining yanga «sotsialistik turmush tarzi» shakllanadi, degan soxta, amalga oshirib bo‘lmaydigan g‘oyalarni singdirishga harakat qildi.

1946—1985-yillar oralig‘ida Markaz ideologlari tomonidan o‘ylab topilgan ana shu xayoliy va noilmiy aqidalar girdobida, butun mamlakatda bo‘lganidek, O‘zbekistonda ham maorif, oliy ta‘lim, ilm-fan, san‘at o‘ta siyosiydashgan holda rivojlanishga majbur qilindi.

60-yillar O‘zbekistonda «rivojlangan sotsializm» bosqichi deb e‘lon qilindi. Jamiyat mamlakat rahbariyatidan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma‘rifiy sohalarida jiddiy sifat o‘zgarishlarni amalga oshirishni kutmoqda edi. Biroq amaida unday bo‘lmadi. Lekin buning o‘rniga siyosiy rahbariyat aqidaparastlikni, ommaviy-siyosiy ishlarni avj oldirdi. Xalq ta‘lim tizimi ham ana shu «girdobga» tashlandi.

Rasmiy hokimiyat soxta proletar baynalminalligini amalda kuchaytirish maqsadida maktablarda rus tili va adabiyotini kengroq o‘qitishga urg‘u berdi. Natijada 60-yillarda O‘zbekiston tarixi, o‘zbek tili va adabiyoti, chet tillari, musiqa va qo‘shiqchilik darslari hajmi keskin qisqardi va ular o‘quv rejasida belgilanganidan haftasiga 16,5 soatga kamayib ketdi. Ulardan bo‘shagan soatlarda esa rus tili va adabiyoti predmeti o‘qitildi.

Umumta‘lim maktablarining faohiyati asosan «rivojlangan sotsializm» g‘oyasini o‘quvchilarga singdirish, ularni «kommunistik ruhda» tarbiyalashdan iborat bo‘ldi. «Kommunistik tarbiya»dan ko‘zlangan maqsad esa yoshlarni «proletar internatsionalizmi»ga, «katta og‘aga» sodiqlik, sinfiylik, partiyaviylik ruhida tarbiyalashdan iborat edi. Milliylik

esa o'zbek maktablari mazmunidan chiqarila boshlandi. Maktablardagi tarbiya Yevropa tarixi misolida olib borildi. Yevropa madaniyati, tarixi amalda baynalminallik namunasi sifatida talqin etildi.

Natijada, o'zbek o'quvchilarida milliy o'zlikni anglash, urf-odat, milliy an'analarga sodiqlik kayfiyatidan ajralish hollari ro'y bera boshiladi. Maktab o'quvchilarining o'quv rejasidagi soatlarini o'zlashtira olmasligi odatiy hol bo'lib qoldi. Bu ularni paxta va boshqa qishloq xo'jalik ishlariga ko'proq jalb qilinishi bilan izohlanadi. O'quv yilining 3–4 oyi ana shunday majburiy tadbirlar bilan band bo'lishga ketar edi. Bu esa o'zbek o'quvchisini jahon standartlaridan ortda qoldirib, zamonaviy fan sohalarini o'zlashtirishga imkon bermasdi. Shu bilan birga, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida o'quv-tarbiyaviy ishlarni mafkuraviy andozalarga solish kuchaydi; mutaxassislik bo'yicha asosiy fanlarni o'qitishni takomillashtirish o'rniga barcha oliy o'quv yurtlarida kommunistik mafkurani shakllantiruvchi KPSS tarixi, marksizm-leninizm falsafasi, siyosiy iqtisod, ilmiy kommunizm, jamiyatshunoslik fanlarini o'qitishni yanada yaxshilash to'g'risida tadbirlar ishlab chiqildi va amalga oshirildi.

O'quv jarayoni uchun muhim bo'lgan demokratik va ijodiy jihatlar inkor etildi. Natijada oliy ta'lim tizimida mas'uliyatsiz, tashabussiz, loqayd, «o'rtamiyona» mutaxassislar tayyorlash mexanizmi yuzaga keldi. Markaziy hukumat siyosiy rahbariyati xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini, hatto ilm-fanni ham mustabid tuzumni mustahkamlash va uni takomillashtirish uchun safarbar qildi.

Ayniqsa, bu davrda ijtimoiy-gumanitar fanlarga nisbatan «zo'ravonlik», ularni kommunistik mafkura «andozasiga» solish yanada kuchaydi. O'zbek xalqining boy o'tmish tarixini, milliy madaniyatini va qadriyatlarini kamsitish, ularni soxtalashtirish aynan shu yillarda avj olgan edi. Qadimiy tariximizni o'rganish, «o'tmishga sajda qilish» deb qoralandi. Ijtimoiy-gumanitar fan olimlariga «rivojlangan sotsializm» davrini, uning «tarixiy ahamiyati»ni, «afzalliklari»ni o'rganish haqida maxsus «ko'rsatma» berildi. Natijada bu yillarda ijtimoiy-gumanitar fan olimlari tomonidan «rivojlangan sotsializmni» madh etuvchi ko'plab ilmiy, ilmiy-ommabop asarlar yaratildi.

Lekin, barcha olimlar ham partiya «ko'rsatmalari»ga amal qilavermasdi, vijdon amri bilan ish tutadiganlar ham yo'q emasdi. O'zbekistonda arxeologiya ilmining otasi Ya. G'ulomov ana shunday olimlar toifasidan edi. Tarixiy yodgorlik sifatida hisobga olingan tepaliklarning joylarda paxta maydonlariga aylantirilishiga, ajdodlarimiz yaratgan madaniy va me'moriy obidalarning qarovsizlik oqibatida vayronaga aylanishiga qarshi turib, respublika siyosiy rahbariyatiga xalqimizning madaniy-ma'naviy boyligini asrab-avaylash zarurligini ochiq aytgan olim edi.

Umuman, urushdan keyingi murakkab va o'ta ziddiyatli yillarda o'zbek xalqi o'zligini, qadimiy milhy madaniyati va qadriyatlarini saqlab qolishga harakat qildi. Lekin bu oson kechmadi. Bu yo'lda o'ziga xos kurashlar va yo'qotishlar sodir bo'ldi. Kommunistik mafkura mahalliy xalqning milliy g'ururini sindirishga urindi. Xalqni milliy madaniyatdan, milliy an'analardan chalg'itish uchun «kommunizm» va «rivojlangan sotsializm» kabi xayoliy aqidalarni o'ylab topdi. Ularni xalq ommasi ongiga singdirish uchun barcha choralardan, vositalardan va usullardan foydalandi. Lekin o'zbek xalqi bularning barchasiga bardosh berdi. Chunki xalq ijtimoiy-siyosiy hayotda muqarrar o'zgarishlar sodir bo'lishiga ishonar edi.

32.3. Davlat tuzumida ma'muriy-buyruqbozlik tizimining hukmronligi

Urushdan keyingi yillarda sho'rolar tuzumining davlat apparatida ma'muriy-buyruqbozlik tizimi uzil-kesil shakllandi. Bu davrda 1917-yil oktabr to'ntarishi natijasida hokimiyat tepasiga kelgan Komfirqa boshqa siyosiy firqalar faoliyatini cheklab qo'ydi, har qanday erkin fikrlashlarga barham berdi va proletariat diktaturasi tizimida (Sovetlar, partiya, kasaba uyushmasi, yoshlar tashkilotlari, kooperativlar va hokazo) yagona rahbarlikka da'vo qilib chiqdi. U endi o'zining siyosiy firqa sifatidagi qiyofasini batamom yo'qotib, ma'muriy organga, zo'rlikka tayanuvchi davlat mashinasini harakatga keltiruvchi eng asosiy richag — motorga aylandi. Davlatning asosiy siyosiy negizini tashkil etuvchi «sovetlar» endi amalda ikkinchi darajali qo'g'irchoq rasmiy bir tashkilotga aylanib qolgandi. Davlatning taqdirini hal etuvchi asosiy kuch KPSS, uning Markaziy Qo'mitasi, Siyosiy Byurosi edi. Ichki va tashqi siyosatga oid barcha masalalar, yillik va besh yillik rejalar, kadrlar tanlash va joy-joyiga qo'yishlargacha dastlab KPSS MK Siyosiy Byurosida hal bo'lardi va so'ng sho'rolarning mas'ul organlari uni shunchaki «ko'rib» tasdiqlar edi. Ish shu darajaga borib yetgandiki, KPSS safidan chiqarilgan xodim o'z ish vazifasidan ketishi u yoqda tursin, u albatta jazolanar edi. Sho'rolar tuzumining tabiatiga xos bo'lgan Komfirqaning bunday rahbarlik ish uslubi shaxsga sig'inish bilan bog'liq ijtimoiy-siyosiy hodisalarnigina keltirib chiqarib qolmasdan, ayni paytda sho'rolar jamiyatining ichidan yemirilishini tezlashtirgan omillardan bo'ldi. Buni O'zbekiston misolida ochiq-oydin ko'rish mumkin. Yuqoridagilarga O'zbekistonning mustamlaka o'ikasi ekanligi e'tiborga olinsa, masala yanada oydinlashadi. Ittifoqning hamma respublikalarida bo'lgani kabi O'zbekistonda ham birinchi rahbarni ko'klarga ko'tarib maqtash, ulug'lash, unga hamdu sanolar o'qish kuchaydi. Odam to'g'risida ularning turmush va mehnat

sharoitlari, sotsial kayfiyati haqida chinakam g'amxo'rlik qilish o'rniga ko'p hollarda siyosiy tilyog'lamalik, rahbarning ko'nglini ovlash, laganbardorlik kabi illatlar avj oldi, mehnatga haq to'lashda tekislik kuchaydi, odamlar o'rtasida mehnatga qiziqish so'nib ketdi. Hamma sohada qo'shib yozishlar odat tusiga kirdi. Oshna-og'aynigarchilik, qarindosh-urug'chilik, poraxo'rlik avjiga mindi. Ijtimoiy adolat mezonlari buzildi. Ommaviy sur'atda unvonlar, nishonlar tarqatish kuchaydi. Odatda, bunday unvon, nishonlar odamlarning haqiqiy mehnat natijalariga qarab emas, balki ularning rahbarlarga «nechog'lik yaqinligi», «sadoqati» evaziga berilardi. Dabdabozlik kuchaydi. Hayotda kamchiliklarni, birinchi rahbarlarning xatolarini tanqid qilish amaliyotiga chek qo'yildi. Matbuot, radio va televideniye O'zbekistonning sho'rolar davrida erishgan «muvaffaqiyatlari»ni tashviqot va targ'ibot qilish bilan band edi. Haqiqiy hayot esa mutlaqo boshqacha edi.

Kommunistik firqaning «lenincha milliy siyosati» ham boshi berk ko'chaga kirib qoldi. Sho'rolar va Komfirqaning milliy siyosatdagi bosh maqsadi rus bo'lmagan boshqa millatlarni millat sifatida yo'q qilib yuborish – asimilatsiyalashdan iborat edi. Bu jarayon, xususan, KPSS XXII syezdining «kommunizm qurish» dasturi qabul qilingach, bevosita kun tartibiga qo'yildi. SSSRda «sotsializm to'la va uzil-kesil g'alaba» qilgach, SSSR xalqlarining yangi tarixiy birligi – sovet xalqi paydo bo'ldi. Bu birlik: «Yagona Vatan – SSSR»; «Yagona til – rus tili»; «Yagona maqsad – kommunizm»; «Yagona mafkura – marksizm-leninizm»ga asoslanadi, degan g'oyalardan kelib chiqib, «Yagona xalq – sovet xalqi!», «Yagona pasport – «Sovet pasporti»ni ilgari surishgacha borib yetildi. Sho'rolar va Komfirqa rahbarlari o'z maqsadlarini hech kimdan yashirgan ham emaslar. «Bizning pirovard maqsadimiz ravshan, – degan edi KPSS MKning Bosh kotibi Yu. V. Andropov. – Bu maqsad, V. I. Lenin so'zlari bilan aytganda, «Millatlarni bir-biriga yaqinlashtirishgina emas, ularni qo'shish hamdir». Bunday shovinistik va ulug' davlatchilik siyosati rus bo'lmagan millatlarni qo'rquv, vahima va tahlikaga solib qo'ydi.

Milliy tahqirlash va kamsitishi ayniqsa kadrlar siyosatida yaqqol ko'zga tashlandi: O'zbekistondagi respublika, viloyat, shahar va tuman firqa va sho'ro tashkilotlarining rahbar xodimlari, bo'lim boshliqlari Moskva «nomenklaturasi»da bo'lib, KPSS Markaziy Komiteti tomonidan tayinlanar va bamisoli qo'g'irchoq edi. Chunki «birinchi rahbar» faqat nomigagina edi, xolos. Asosiy ish mahalliy millatga mansub bo'lmagan ikkinchi rahbar qo'lida edi. Xullas, kadrlar tanlashda O'zbekistonning hech qanday o'rni va roli yo'q edi.

Sho'rolarning O'zbekistonda olib borgan maishiy mustamlakachilik, shovinistik va adolatsiz siyosatining yana bir ko'rinishi – bu ikki xil, bir-biriga qarama-qarshi demografik siyosatda ham yaqqol ko'rindi.

«Yagona suveren respublikalar ittifoqi»ning bir qismi – Rossiyada ko‘p bolali onalarni rag‘batlantirish, O‘rta Osiyoda, O‘zbekistonda esa tug‘ilishni qanday qilib kamaytirish masalasi davlat siyosati darajasigacha ko‘tarildi. Bunday ikki xil demografik siyosatning mohiyati va maqsadi shundaki, mustamlakachi ma’murlar O‘rta Osiyodagi musulmon aholining muttasil o‘shib borayotganligidan qo‘rqib vahimaga tushdilar va ayni zamonda rus aholisining kamayib borayotganidan zorlanib qayg‘urdilar. Xullas, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida sof shovinistik, mustamlakachilik siyosati olib borildi. Milliy nizolar va fojealar avj olib ketdi.

Sho‘rolar hukumati O‘zbekistonda 1946–1990-yillar orasida ongli sur‘atda ikki marta dahshatli qatag‘onliklarni tashkil etdi. Birinchisi, 40-yillarning oxiri – 50-yillarning boshlarida uyushtirilgan bo‘lsa, ikkinchisi 80-yillarda tashkil etildi.

Bularning hammasi ma‘muriy-buyruqbozlik siyosatining natijasi edi.

32.4. Huquqdagi o‘zgarishlar

Urush tugagach, favqlodda qonunlar ham o‘z kuchini yo‘qotdi. Urushdan keyingi yillarda 1937-yilgi Konstitutsiya asosida O‘zbekiston SSRning Jinoyat kodeksi (1959-y.), Jinoyat–protsessual kodeksi (1959-y.), Grajdanklik kodeksi (1963-y.), Grajdanklik–protsessual kodeksi (1963-y.), Nikoh va oila kodeksi (1969-y.), Yer kodeksi (1970-y.), Mehnat qonunlari kodeksi (1971-y.), Suv kodeksi (1972-y.) va boshqa bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. 1977-yilning 7-oktabrida SSSR ning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi. SSSR Konstitutsiyasi asosida ittifoqdosh va avtonom respublikalarning Konstitutsiyalari ishlab chiqildi va qabul qilindi.

O‘zbekiston SSRning navbatdagi Konstitutsiyasi 1978-yil 19-aprelda respublika Oliy Sovetining navbatdan tashqari to‘qqizinchi chaqiriq oltinchi sessiyasida qabul qilindi. Konstitutsiyada davlat hokimiyati, boshqaruv, sud va prokuratura idoralari tizimi asosan saqlab qolingandi.

Konstitutsiya mazmunidan kelib chiqib, «O‘zbekiston SSR Oliy Sovetiga saylovlar haqida» (1978), «O‘zbekiston SSR Ministlar Soveti haqida» (1978), «O‘zbekiston SSR Xalq deputatlari mahalliy Sovetlariga saylovlar haqida» (1979), «O‘zbekiston SSR Xalq deputatlari oblast Soveti haqida» (1980), «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish haqida» qonunlar va boshqa normativ-huquqiy aktlar qabul qilindi.

Sovet hokimiyati yillarida O‘zbekiston SSR boshqa ittifoqdosh respublikalar kabi mustaqil deb e‘lon qilingan bo‘lsada, u amaida tom ma‘nodagi mustaqil davlat emas edi. Uning konstitutsiyasi va boshqa

qonunlari, davlat organlari tizimi, fuqarolarning huquq va burchlari va boshqa qonun-qoidalar SSSRda amalda bo'lgan siyosiy-huquqiy qurilmalarga albatta mos bo'lish kerak edi. O'zbekiston xorijiy davlatlar bilan bevosita siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatish imkoniyatiga ega emas edi. O'zbekistonning taqdiri markazning qo'lida edi.

1962-yilning may oyida Sobiq Ittifoqda Grajdanlik qonunlari Asoslari ishlab chiqilib, kuchga kiritildi. Ushbu asoslarga binoan, O'zSSRning Grajdanlik kodeksi (GK) 1963-yilning 23-martida ishlab chiqilib, 1964-yilning 1-martidan kuchga kiritildi. Ushbu Kodeks O'zSSRda grajdanlik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishga xizmat qildi. O'zSSR GK 46 bob, 631 moddadan iborat bo'lib, uning birinchi bobi umumiy qoidalar, ikkinchi bobi shaxslar haqida edi.

O'zSSR GKning 1-moddasiga binoan O'zSSR grajdanlik qonunlari uch xil munosabatlarni tartibga solardi: 1) mulkiy munosabatlar; 2) mulkiy bo'lmagan, shaxsiy munosabatlar; 3) mulkiy bo'lmagan, lekin mulk bilan bog'langan shaxsiy munosabatlar. GKning 106-moddasiga ko'ra O'zSSRda a) davlat mulki; b) kolxoz va boshqa kooperativ tashkilotlar mulki; d) kasaba uyushma tashkilotlari va shaxsiy mulklar mavjud edi.

Bu kodeks yangi mulk shakli — kasaba soyuz tashkilotlarining mulkchilik shakllarini ham o'rnatdi. Ushbu kodeksda faqat grajdanlarning shaxsiy mulklari to'g'risidagina so'z yuritiladi. Chunki, xususiy mulk bu vaqtda tamomila tugatildi. Shaxsiy mulk ana shu mulklardan hosila hisoblandi.

1968-yilning 27-iyunida Nikoh va oila kodeksi qonunchiligi Asoslari qabul qilindi. Shundan keyin O'zSSR Oliy Kengashi 1969-yilning 6-iyulida yangi Oila va nikoh kodeksini ishlab chiqib, 1-oktabrdan kuchga kiritdi. Bulardan tashqari, O'zSSR Ministrlar Soveti tomonidan 1970-yilning 4-martida tasdiqlangan «Grajdanlik holati aktlarini ro'yxatga olish tartibi to'g'risida hamda vasiylik va homiylik haqida»gi Nizomlarni tasdiqlab, kuchga kiritdi. O'zSSRning bu kodeksi boshqa respublikalarnikidan farq qilib, 6 bobdan iborat edi.

Uning birinchi bobida O'zSSR Nikoh va oila kodeksining vazifalari haqida gap boradi. Ya'ni, oilani mustahkamlash, ozod, erkin xohishirodaga asoslangan nikoh ittifoqi asosida oila munosabatlarini qurish, bolalar tarbiyasi va boshqalar to'g'risida ko'rsatildi. Unga ko'ra, nikoh oilaning asosini tashkil qiladi. Qonun amaldagi (ro'yxatdan o'tmagan holda birga yashash) nikohni tan olmaydi. Faqat grajdanlik holati aktlari idoralarida ro'yxatdan o'tgan nikohgina qonuniy hisoblanadi. Nikoh yoshi 18 yosh qilib belgilangan. Uni pasaytirish hollari ham bo'lishi mumkin edi. Nikohdan oldin va undan keyin ham sovg'a sifatida olingan mulklar er va xotinning o'z mulklari hisoblanadi. Faqat nikoh

davomida birgalikda topilgan mulk ularning umumiy mulkidir.

Nikoh bekor qilinganda, mehnatga layoqatsiz bo‘lib qolgan taraf bir yilgacha nafaqa olish huquqiga ega edi.

1970-yilning 15-iyulidagi Mehnat qonunlari asoslariga ko‘ra O‘zbekistonda 1971-yil 17-dekabrda yangi Mehnat qonunlari kodeksi qabul qilinib, 1972-yil 1-maydan kuchga kiritildi.

O‘zSSRning bu kodeksida, aqliy mehnat talab qiluvchi hamda malaka talab qiluvchi ishlarga 3 oy, ba‘zan 6 oygacha sinov muddati belgilandi. Ma‘muriyat tashabbusi bilan xodimni ishdan bo‘shatayotgan vaqtda FZMK 7 kun ichida ma‘muriyat fikri bilan tanishib, o‘z fikrini bildirishi lozim. Shundan keyin faqat bir oy ichidagina ma‘muriyat xodimni ishdan bo‘shatishi mumkin bo‘lgan. Ushbu kodeksda ayollar va o‘smirlar mehnatining kafolatlari kengaytirildi. Mehnat nizolarini ko‘rib chiqish muddati mehnat nizolari komissiyasida besh kungacha, kasaba uyushmalarining fabrika, zavod mahalliy komitetlari (FZMK)da 7 kungacha, xalq sudlarida 10 kungacha qilib belgilandi.

1968-yilning 13-dekabrda Yer Qonunlari Asoslari qabul qilindi. Ana shu asosida 1970-yilning 25-sentabrda O‘zSSRning Yer Kodeksi ishlab chiqilib, qabul qilindi. Yangi Kodeks kirish qismi, 11 ta bob, 202 moddadan iborat edi. Uning birinchi bobi umumiy qoidalarga bag‘ishlangan. Ikkinchi bobida qishloq xo‘jaligi ahamiyatidagi yerlardan foydalanish bo‘yicha huquqiy masalalar yoritilgan. Uchinchi bobi aholi punktlarining yerlari, to‘rtinchisi – sanoat, transport va boshqa korxonalarining yerdan foydalanish tartiblari, beshinchi bob – davlat, o‘rmon fondining huquqiy holatiga bag‘ishlangan edi va hokazo.

O‘zbekistonda suvdan foydalanishga katta ahamiyat berib kelindi. 1941-yilning 24-martida «O‘zSSR qishloq xo‘jaligida suvdan foydalanish to‘g‘risida»gi olti bobdan iborat qonun qabul qilindi. 1972-yilning 9-iyumidan O‘zbekiston SSRning Suv kodeksi qabul qilinib, 1972-yilning 1-oktabrida kuchga kiritildi. U kirish qism, besh bo‘lim, 29 bob, 136 moddadan iborat edi. Suv qonunchiligining vazifasi – O‘zbekistonda suvdan foydalanishni tartibga solish, suv muhofazasi, irrigatsiya inshootlarini yaxshi holatda tutish edi. Kodeksga ko‘ra, suv – davlat mulki, faqat foydalanishga berilishi mumkin. Yagona davlat suv fondining turlari (klassifikatsiyasi) belgilandi (5-modda). Respublikaning barcha suvlari: yer osti va yer usti suvlariga, bundan tashqari ichki va hududiy suvlarga bo‘linadi. Bularning huquqiy holati bir-biridan farqlanadi. IV bo‘limda suvni rejalashtirish, hisobga olish va qo‘riqlash masalalari yoritilgan.

1958-yilning 25-dekabrda jinoyat qonunlari Asoslari qabul qilindi. O‘zbekiston SSR o‘zining Jinoyat kodeksini 1959-yilning 21-mayida ishlab chiqdi va 1960-yil 1-yanvardan kuchga kiritdi.

Asoslarda koʻzda tutilgan juda koʻp normalar Jinoyat kodeksida aniqlashtirildi. Masalan: OʻzSSR Jinoyat kodeksining 10–moddasida 14–16 yoshgacha qaysi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilash aniqlanib berildi. Unga koʻra, jinoyat sodir etgan vaqtda 16 yoshga toʻlgan shaxslar jinoyat javobgarlikka tortilardi. Faqat odam oʻldirish, qasddan tan jarohati yetkazish, nomusga tegish, oʻgʻrilik, talonchilik uchun 14–16 yoshdan jinoyat javobgarlik belgilandi. 18 yoshgacha boʻlgan shaxslarga nisbatan qanday jinoyat jazolarning qoʻllanilishi mumkinligi jazolarning oz va koʻp muddatlari aniqlashtirildi. Oʻzbekiston SSR Jinoyat Kodeksining tizimiga asos qilib jinoyatning obyekti olingan va ana shu jinoyat tajovuz obyektiga qarab tegishli boblarga ajratilgan. Jinoyat kodeksi umumiy qisim va maxsus qismlardan iborat boʻldi.

Jumladan, uning maxsus qismi quyidagi boblardan iborat boʻldi: Birinchi bob – davlatga qarshi qaratilgan jinoyatlarga, ikkinchi bob – shaxsning hayoti, sogʻligi, ozodligi va qadr-qimmatiga qarshi qaratilgan jinoyatlarga, uchinchi bob – mulkka qarshi jinoyatlarga, toʻrtinchi bob – grajdanlarning shaxsiy mulkiga qarshi jinoyatlarga, beshinchi bob – grajdanlarning siyosiy va mehnat huquqlariga qarshi jinoyatlarga, oltinchi bob – mansabdorlik jinoyatlariga, yettinchi bob – odil sudlovga qarshi qaratilgan jinoyatlarga, sakkizinchi bob – xoʻjalik jinoyatlariga, toʻqqizinchi bob – idora qilish tartibiga qarshi qaratilgan jinoyatlarga, oʻninchi bob – jamoat tartibi va jamoat xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlarga, oʻn birinchi bob – harbiy jinoyatlarga bagʻishlangan edi.

Idora qilish tartibiga qarshi va boshqa sohadagi bir qancha jinoyat turlari oʻz ahamiyatini yoʻqotganligi sababli Jinoyat Kodeksiga 36 ta yangi modda va u kuchga kirgandan soʻng qoʻshimcha 22–modda kiritildi. Shuni aytish lozimki, OʻzSSR Jinoyat kodeksi ozodlikdan mahrum qilish jazosini minimal 3 oydan maksimal 10 yilgacha, alohida ogʻir jinoyatlar uchun 15 yilgacha belgiladi. Bunda 18 yoshga toʻlmagan shaxslarga ozodlikdan mahrum qilish jazosini 10 yildan oshiq belgilash mumkin emas edi. Jinoyat kodeksining ishlab chiqarilishi bilan jinoyat huquqi normalarini takomillashtirish ishlari oxiriga yetmadi, balki rivojlantirildi.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

1. *Urushdan keyingi yillarda Oʻzbekiston ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi qanday ahvolda edi?*
2. *1940–50-yillarda Oʻzbekiston ilmiy va badiiy ziyolilarining taʼqib qilinishi qanday kechganligi haqida gapirib bering.*
3. *Kommunizmga jadal yurish haqidagi xayoliy rejalarini amalga oshirish maqsadida qanday harakatlar qilinganligi haqida gapirib bering.*
4. *«Rivojlangan sotsializm» mohiyati nimalardan iborat edi?*

5. «Rivojlangan sotsializm» bosqichi qanday kechganligi haqida gapirib bering.
6. Davlat tuzumida ma'muriy-buyruqbozlik tizimining hukmronligi qanday amalga oshirildi?
7. Huquqda qanday o'zgarishlar yuz berganligi haqida gapirib bering.

33-MAVZU: O'ZBEKISTONNING MUSTAQILLIK ARAFASIDAGI DAVLAT TIZIMI VA HUQUQI (1985–1991-YILLAR)

1. Qayta qurish siyosati va uning mohiyati.
2. Ijtimoiy-siyosiy hayotning demokratlashuvi, milliy ongning o'sishi va davlat tuzumidagi o'zgarishlar.
3. Huquqiy islohotlar.

33.1. Qayta qurish siyosati va uning mohiyati

80-yillarning o'rtalariga kelib SSSRda tanglik holati keskin kuchaydi, u mamlakat hayotining barcha sohalarini qamrab oldi. Mustabid tuzum sharoitida davlat mulki monopoliyasi va boshqaruvda ma'muriy taqsimlash tizimi hukmronligi tobora kuchayib bordi, natijada ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari, yalpi mahsulot hajmi, mehnat unumdorligi shiddat bilan pasayib ketdi, ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish vositalaridan, mehnat samaralari va shu kabilardan begonalashuvi yanada ortib bordi.

Xalq xo'jaligini tanazzulga olib kelgan chuqur izdan chiqish jarayonlari, xalq ijtimoiy manfaatlarining nazar-pisand qilinmasligi kabi boshqa omillar bilan birgalikda KPSSning ulkan, lekin kutilayotgan natijalarni bermayotgan iqtisodiy siyosati butun ijtimoiy-siyosiy tizimning oqsashini oldindan belgilab berdi. Chunki bu vaqtga kelib, xalqning bunyodkorlik g'ayrati partiya-davlat tuzilmalarining siyosiy hukmronligi bilan butunlay siqib qo'yilgan edi.

Mustabid tuzum ishlab chiqarish samaradorligi, mahsulot sifati, fan-texnika taraqqiyoti bo'yicha birin-ketin mavqeni qo'ldan boy bera boshladi, jahonning ancha rivojlangan mamlakatlariga nisbatan oradagi farq xavfli ravishda ortib bordi. Sovet iqtisodiyoti jahonda bu borada yuz berayotgan yangiliklarga butunlay e'tibor bermaydigan bo'lib qoldi, mutaassibli va puxta emasligi bilan ajralib turdi.

Biroq, asosiy xavf shundan iborat ediki, mehnatga nisbatan qiziqtirish tizimining nuqsonlari odamlar ruhiyatining buzilishiga, boqimandalik kayfiyatlarining avj olishiga olib keldi. Ya'ni, I.A.Karimov so'zlari bilan aytganda, «Markazdan boshqarishning amaldagi tizimi, uning idoralari,

xo‘jalik yuritish uslub va usullari iqtisodiyotining yanada rivojlanishiga sezilarli turtki bo‘lishiga, keskin ijtimoiy muammolarni hal qilishga qodir emasligi yaqqol ayon bo‘lib qoldi»¹.

80-yillarning o‘rtalarida asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha respublika ittifoqda oxirgi o‘rinlardan birini egallar edi. Aholi jon boshiga milliy daromad hosil qilish O‘zbekistonda o‘rtacha ittifoq darajasiga qaraganda ikki baravar kam edi. O‘zbekiston aholisining mamlakatdagi boshqa mintaqalarga nisbatan moddiy va ijtimoiy ne‘matlar bilan ta‘minlanish darajasidagi farq jiddiy ravishda ortib ketgan edi.

Markazning o‘ta xudbinlik asosida, faqat o‘z manfaatini ko‘zlab yuritgan siyosati natijasida mintaqalararo nooqilona aloqalar yuzaga keltirildi, bunday sharoitda O‘zbekistondan uning milliy manfaatlariga zarar yetkazgan holda ko‘proq miqdordagi xom ashyo va chala mahsulotlar olib ketilardi, chetdan esa asosan asbob-uskunalar va tayyor buyumlar keltirilar ediki, bu boshqa ittifoqdosh respublikalar bilan o‘zaro munosabatlarda ziddiyatlarni chuqurlashtirar, joylarda ijtimoiy-milliy tanglikni vujudga keltirardi.

Boshi berk murakkab vaziyatdan chiqish yo‘lini qiyinchilik bilan izlash boshlandi. Nihoyat, 1985-yilning bahorida KPSS MQning aprel plenumi sovet jamiyatini tubdan qayta qurish, uning barcha sohalarini chuqur isloh qilishi yo‘lini e‘lon qildi. «Qayta qurish» sovet jamiyatini rivojlantirishning obyektiv ehtiyoji, unda yashovchi millatlar va xalqlar manfaatleri taqozo etgan hayotiy zarurat sifatida ta‘riflandi.

Avvalgi tugallanmagan islohotlardan farqli o‘laroq 1985-yilda jamiyatni har tomonlama yangilashga o‘tish zarurligi e‘tirof qilindi. Qayta qurishning tarkibiy qismlari sifatida jamiyat hayotini demokratlashtirish va tub iqtisodiy islohotlar o‘tkazishdir, deb e‘lon qilindi.

O‘sha yillardagi partiya-hukumat hujjatlarida jamiyatni «turg‘unlik» illatlaridan tozalashga, uni «inqilobiy yangilash»ga, oddiy inson ehtiyojlariga diqqat-e‘tiborni kuchaytirishga chaqiriqlar yangi kuch bilan yangradi.

Rahbarlikning eskirib qolgan shakllari va usullari, to‘g‘anoqlik va tanglik holatlarining mavjudligi, jamiyatda oshkora tanqidning, fikrlar xilma-xilligining, hokimiyat tuzilmalarida va iqtisodiyotni boshqarishda demokratiyaning, Markaz bilan milliy o‘lkalar manfaatlarida oqilona nisbatning yo‘qligi, inson omilining yetarli darajada hisobga olinmasligi goralandi.

¹ I.A. Karimov. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-tom. –T., 1996, 280-betlar.

Binobarin, siyosat va ijtimoiy munosabatlar sohasida fikr erkinligiga, rahbar lavozimlarga saylashning muqobilligiga yo'l qo'yish, mahalliy sovet organlari vakolatlari va mas'uliyatining kengaytirilishi nazarda tutildi. Xususan, mahalliy sovet organlari sanoat korxonalarining o'zlariga bo'ysunishidan tashqari ular faoliyatini nazorat qilishlari, joylarda keng iste'mol qilinadigan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish imkoniyatlarini qidirib topishlari, ularning sotilishini nazorat qilishlari lozim edi. Davlat tizimini isloh qilishda ustuvorlik milliy respublikalarga ko'proq mustaqillik berilishiga qaratilmog'i kerak edi. Ittifoqdagi mavjud yakkapartiyaviylikning siyosiy va mafkuraviy hukmronligini hech bo'lmaganda cheklash, ekvivalentli bo'lmagan iqtisodiy ayirboshlashga, qishloq xo'jalik va mineral xom ashyo ishlab chiqarishga ixtisoslashtirishga, respublikalar, ayniqsa, O'zbekiston uchun zararli bo'lgan ana shunday iqtisodiy yo'nalishga barham berilishi zarur edi.

Biroq qayta qurish «konsepsiyasi» avvalboshdanoq noilmiy bo'lib, u mag'lubiyatga mahkum edi. Qayta qurish borasidagi dastlabki tajribalarning ko'rsatishicha, mamlakat siyosiy rahbariyati birinchi kundanoq «qayta qurish» mafkurasini anglab yetishda nihoyatda soddalashgan nuqtayi nazar bilan yondashdi. Qayta qurish «konsepsiyasi» «qardosh» ittifoqdosh respublikalarning hayotiy manfaatlari va muammolarini chuqur ilmiy tahlil qilishga, ularni bilishga asoslanmagan edi. O'sha davrda sovet sotsialistik tuzumi iqtisodiy, siyosiy jihatdan ulkan imkoniyatlarga ega deb hisoblandi, tarixiy istiqbol sotsializm tomonida deb qaraldi. Sotsializmga sun'iy ravishda demokratik qiyofa berilib, mustabid tuzumning mavjud yaramas illatlarini «tasodifiy hol», ular uchun «sotsialistik jamiyatda asos yo'q», shuning uchun ularni, ayniqsa, boshqaruv tizimidan olib tashlash kifoya deyildi. Shu bilan birga, sovet iqtisodiyotining, butun xo'jalik tizimining ana shu illatlari kelib chiqishi jihatidan sotsialistik ishlab chiqarish munosabatlarining xususiyatiga, bozor iqtisodiyoti imkoniyatlaridan to'la-to'kis foydalanishni inkor qiluvchi kommunistik mafkura monopoliyasiga bog'liq ekanligi tan olinmadi.

Mamlakatda qaror topgan xo'jalik yuritish tajribasi SSSR rahbariyatiga sotsializm rivojlanib borgan sari mulkchilik munosabatlarining tuzilishi oddiylashadi, uning turli-tuman shakllari bir-biri bilan yaqinlashib qo'shib ketadi, iqtisodiy jarayonlar davlat tasarrufiga o'tadi, deb da'vo qilishlariga imkon berdi. Ana shunga asoslanib markazlashgan rahbarlik usullari uzluksiz kuchayib borishi lozim, degan uzoqni ko'zlovchi xulosa chiqarildi. Bularning hammasi sotsialistik ijtimoiy tuzumning, istisnosiz barcha ishlab chiqarish vositalariga davlat mulkchiligi saqlanib qolgan taqdirdagina, KPSS yetakchiligi hech narsa bilan cheklanmagan sharoitdagina shunday

bo'lishi mumkin edi. Boshqacha aytganda, «qayta qurish» tajribasi faqat partiyaning ijtimoiy-siyosiy rahbarligini mustahkamlashni, jamiyatni sotsialistik asosda tashkil etishni yanada takomillashtirishni, uning faqat qismangina, shunchaki «pardoz berish» tarzida yangilanishini nazarda tutgan edi.

Eskicha uslubda yondashuvlar ta'siri shunga olib keldiki, hatto amaldagi xo'jalik yuritish mexanizmini shunchaki o'zgartirishga qaratilgan oddiy bir konsepsiya ham taklif qilinmagan edi. Mo'ljallangan islohotlarning tub mohiyati va xususiyatlari to'g'risidagi tasavvur ham qaror topmagan edi. Jamiyat hayotini tubdan qayta qurish yo'lidagi asosiy to'siq mustabid tuzum illatlari, sovet iqtisodiyoti samarasizligi, «qayta qurish» ishboshilarining mavjud tuzumni o'zgartirishga qodir emasligi va buni mutlaqo istamasligida edi.

80-yillarning ikkinchi yarmi mobaynida ro'y bergan «qayta qurish» islohotlari turkumi subyektiv tarzda, faqat ichki his-hayajonga asoslanib, ixtiyoriy ravishda shunchaki sinab ko'rishlar va xato usullar bilan tashqi tomondan ta'sirchan bo'lishini umid qilib, aniq ilmiy jihatdan savodli ishlab chiqilgan, siyosiy jihatdan asoslab berilgan dastursiz amalga oshirildi.

I.A.Karimov qayta qurish siyosati davrida iqtisodiyotda ro'y bergan buzilishlarni ta'riflar ekan, bunday deb ta'kidlagan edi: «Inqiroz sabablari va omillarini to'liq tasavvur etmagan, o'zgartirishlarning aniq-ravshan dasturiga ega bo'lmagan butun iqtisodiy siyosat empirik xarakterda bo'lib, avanturadan iborat eksperimentlardan, har tomonga og'ishlardan boshqa narsa emas edi. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish va bozor munosabatlariga o'tishning turlicha yondashuvlarga asoslangan dasturlari loyihalarining ko'pligi islohotlarning aniq maqsadi yo'qligidan, ularni ro'yobga chiqarish muddatlari — «besh yuz kun» deb belgilab qo'yilishi esa zarur o'zgartirishlarning tub mohiyati va nihoyatda murakkabligi to'la anglab yetilmaganligidan dalolat berar edi»¹. Shu bilan birga, iqtisodiyotda, ijtimoiy-madaniy sohada amalga oshirilayotgan, hatto eng yuzaki «qayta qurish» jarayonlari ham odatda shunchaki, oshkora siyosiy tus berilgan jarayonlar edi.

33.2. Ijtimoiy-siyosiy hayotning demokratlashuvi, milliy ongning o'sishi va davlat tuzumidagi o'zgarishlar

«Gorbachyovcha» qayta qurish natijasida mamlakatda yalpi kommunistik senzura zaiflashdi va deyarli yo'q holiga keltirildi, uzoq

¹ I.A. Karimov. O'zbekiston. Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-tom. –T., 1996. 280–281-betlar.

vaqtdan buyon kutib kelingan hurfikrlilik va matbuot erkinligi pallasi boshlandi. «Qayta qurish»ning eng birinchi natijasi «oshkoralik» bo'ldi. Oshkoralik tazyiqi ostida sotsialistik mafkura o'zining «jozibadorligini» tobora yo'qotib bordi. Oshkoralik natijasida sovet jamiyatining ahvolini tahlil qilish va mamlakat oliy darajasidagi siyosiy rahbariyatning yo'l qo'ygan xatolariga birinchi bor ochiqchasiga baho berishga qo'l urildi. Lekin shu bilan birga, «oshkoralik» O'zbekiston uchun o'zining bir qator salbiy tomonlari bilan ham namoyon bo'ldi. 1983-yilda Markaz tomonidan ataylab o'ylab topilgan uydirma asosida O'zbekistonda paxtani terish va qayta ishlashdagi «o'g'irlik», «qo'shib yozish», moliyaviy buzilishlarni tergov qilish bilan markaziy prokuratura va ichki ishlar organlari maxsus shug'ullandi.

«O'zbeklar ishi», «paxta ishi» bo'yicha ba'zi manbalarda 22 ming, boshqasida 30 ming va hatto 48 ming odam hibsga olinganligi ko'rsatiladi. Xullas, o'zbek xalqi boshiga 80-yillarda ommaviy kulfat tushgan edi. Gdlyan va Ivanovlar guruhi O'zbekistonda barcha noma'qulchiliklarni qildilar. 70–80-yillarda O'zbekistonda Komfirqa va sho'rolar hukumatining fidoyi rahbarlari sifatida tanilgan ko'plab arboblarning qamoqxonalarda mislsiz qiynoq va azoblarga sohindilar.

«Qayta qurish» jarayoni avvalboshdanoq asosan siyosiy sohani qamrab oldi.

SSSRning tarkibiy qismi bo'lgan O'zbekiston ham «qayta qurish» girdobiga tortildi, uning «qonunlariga» amal qildi. Jamiyat har tomonlama demokratiyalashuvining e'lon qilinishi eng avvalo sotsialistik xalq hokimiyati va o'zini-o'zi boshqarish rivojlanishidan iborat deb tushunildi. Shuning uchun ham u avvalo sovet saylov tizimini takomillashtirish, deputatlikka nomzodlarning shaxsiy va ishchanlik fazilatlarini erkin va har tomonlama muhokama qilishni ta'minlash orqali amalga oshirilishi lozim edi. Biroq, 1987-yil iyun oyida mahalliy sovetlarga bo'lib o'tgan saylov hali bu jarayon «demokratiyalashuvdan» ancha uzoq ekanligini ko'rsatdi. O'zbekistonda 1987-yil 21-iyunda bo'lib o'tgan saylovda mahalliy sovetlarga 106484 kishi saylangan bo'lib, ulardan 37709 nafari, ya'ni 35,7% ishchilar, 29209 nafari yoki 27,7% kolxozchilar edi.¹ Taajjubligi shundaki, respublika ishchilari tarkibida mahalliy millat vakillarining ulushi doimo ozchilikni tashkil qilganligi ma'lum. Saylangan deputatlar orasida O'zbek millatiga mansub ishchilar ozchilikni tashkil qilgan.

O'zbekistonda saylov tizimini demokratiyalashtirish maqsadida 1990-yil fevral-aprelda respublika Oliy Sovetiga ko'p mandatli okruglar

¹ Q a r a n g: O'zbekistonning yangi tarixi.

bo'yicha eksperiment sifatida saylov o'tkazib ko'rildi. Biroq yakkapartiyaviylik tizimi sharoitida bu yangilik rasmiyatchilikdan nariga o'tmadi. Chunki bu saylovlar Oliy Sovet tarkibini demokratlashtirmadi, aksincha, avval ishlab turgan Oliy Sovetga nisbatan deputatlar orasida ishchilar, kolxozchilar, xotin-qizlar, yoshlar soni kamayib ketdi, avvalgidek davlat hokimiyatining oliy organi deyarli mutlaq partiya a'zolaridan iborat bo'lib qoldi, deputatlarning qariyb 95 %i kommunistlar edi. Lekin, bu saylovda yangilik shundan iborat bo'ldiki, 500 ta saylov okrugining 326 tasida muqobil nomzodlar ko'rsatildi, deputatlik mandatiga bir nechtadan nomzodlar da'vogarlik qildi. Oldingi saylovlarda barcha nomzodlar birinchi turdayoq deyarli 100 foiz ovoz bilan saylangan bo'lsalar, bu safar birinchi turda 368 nomzod zarur ovozlarni to'play oldi, qolgan 132 okrugda esa qayta saylovlar bo'lib o'tdi.

Respublikada tobora kuchayib borayotgan demokratik jarayonlar mustabid tuzum davrida yillar davomida to'planib qolgan salbiy illatlarning yuzaga chiqishiga sabab bo'ldi. 1989-yil may-iyun oylarida Farg'ona, Toshkent viloyatlarida va Andijon shahrida millatlararo mojarolar ro'y berdiki, u respublikada va butun mamlakatda g'oyat darajada katta shov-shuvga sabab bo'ldi hamda respublikada siyosiy vaziyatning keskin tus olishiga olib keldi. Bu mojarolar shunchaki, oddiy bezorilikdan iboratdek ko'rinsa-da, lekin uning zaminida mustabid sovet tuzumi yillarida to'planib, pishib yetilgan, ertami-kechmi «portlashi» kutilgan milliy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy muammolar yotgan edi.

1989-yil 23-iyun kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston Kompartiyasi MKning XIV Plenumida Islom Abdug'aniyevich Karimov O'zbekiston Kompartiyasi MKning birinchi kotibi etib saylandi. O'zbek xalqining milliy o'z-o'zini anglashi kuchayib borayotganligi respublika rahbariyati tomonidan birinchi bor e'tirof etildi hamda xalqning shon-shuhrati va qadr-qimmatini himoya qilish tomon yo'l olindi. Bu yo'lda I. A. Karimov boshliq O'zbekistonning yangi rahbariyati qat'iy mavqeni egalladi. Farg'ona, Bo'ka, Parkent voqealari oshkora ravishda muhokama qilindi va ularning asl sabablari ochib tashlandi. Bu voqealar o'zbek xalqining irodasi bilan sodir bo'lmaganligi, xalqimiz hech qachon boshqa xalqlarga nisbatan dushmanlik kayfiyatida harakat qilmaganligi qadimiy va hozirgi tariximizdan olingan misollar bilan isbotlab berildi.

Ommaviy axborot vositalari tomonidan hamisha ham xolisona yoritib berilmagan ana shu hodisalar o'zbek xalqining milliy o'z-o'zini anglashini kuchaytirib, respublikaning ijtimoiy-siyosiy hayotida burilish boshlanishiga sabab bo'ldi. Respublika ziyolilari va siyosiy kuchlari ana shu tahlikali kunlarda siyosiy va ma'naviy jihatdan yuksak mavqeni egalladilar. Fojianing asl sabablarini ochib tashlash, o'z xalqining shon-

shuhrati va qadr-qimmatini himoya qilish yoʻlidagi oʻzlarining mashaqqatli urinishlarida ular respublikaning eng keskin muammolarini birinchi bor oshkora ravishda muhokamaga qoʻya boshladilar.

Respublikada keng munozaralarga sabab boʻlgan muammolardan biri oʻzbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasi boʻldi.

Ushbu tarixiy hujjatda bunday deb yozilgan edi: «Oʻzbekiston bugun oʻz hududiga mutlaq ega va unda yagona hukmron emasligini tan olib, tashqi muloqotlarda mustaqillik huquqidan mahrum ekanligini eʼtirof etib, jumhuriyat xalqining tub manfaatlari, uning erki va irodasini ifodalab, hokimiyat manbayi xalq ekanligini eʼtirof etib, xalq taqdiri va mulkiga egalik huquqi faqat uning oʻzigagina berilganligini qayd etib, taraqqiyot yoʻlini tanlash faqat xalqning ixtiyorida ekanligini taʼkidlab, xalqaro huquq qoidalari, umuminsoniy qadriyatlar va demokratiya prinsiplariga asoslanib, jumhuriyat Oliy Kengashi Oʻzbekistonni suveren davlat deb eʼlon qiladi.

80-yillarning oxirlaridan boshlab sobiq Ittifoqqa kirgan koʻpchilik respublikalar mustaqillik uchun qatʼiy kurashga oʻtdilar. Ittifoq shartnomasini yangilab, respublikalar huquqini kengaytirishni talab qila boshladilar. Markaz bu muammoga jiddiy eʼtibor bermagach, 1990-yil bahorida Boltiqboʻyi respublikalari, keyinroq Gruziya va Ozarbayjon SSSR tarkibidan chiqqanligini eʼlon qildi. Markaziy hokimiyat Ittifoq shartnomasini yangilash zarurligini eʼtirof etishga majbur boʻldi.

SSSR Oliy Kengashi Ittifoq shartnomasini yangilash xususida maxsus delegatsiya tarkibini tuzdi. 1990-yil iyulda Moskvada Markaz vakillari bilan respublikalar delegatsiyalari oʻrtasida yangi shartnoma matnini tayyorlashga kirishildi. Biroq bir fikrga kelish qiyin boʻldi. Respublikalar oʻz huquqlarini kengaytirish, Markaz esa oʻz hokimiyatini saqlab qolishga urindi. Munozara va muzokaralar uzoq davom etdi. Nihoyat, Markaz Ittifoq bilan respublikalar vakolatlarini farqlab qoʻyish, respublikalar vakolatlarini kengaytirishga rozi boʻldi. 1991-yil iyul oyi oxirlarida Novo-Ogarevoda Mustaqil Davlatlar Ittifoqi tuzish toʻgʻrisida kelishilgan shartnoma loyihasi ishlab chiqildi va uni 20-avgustda imzolashga kelishildi.

Markaziy hokimiyatni saqlab qolish, respublikalarga mustaqillik bermaslikka urinuvchi kuchlar vaqtdan foydalandilar, ular 1991-yil 18 avgustda SSSR vise-prezidenti G. I. Yanayev boshchiligida Favqulodda holat davlat qoʻmitasini tuzdilar. Mazkur qoʻmita SSSR Prezidenti M.S. Gorbachyovni hokimiyatdan noqonuniy yoʻl bilan chetlashtirdi. Sovet xalqiga murojaatnoma, davlatlar va hukumatlar boshliqlariga, BMT Bosh kotibiga murojaat va boshqa qarorlarni eʼlon qildi. Fitnachilarning davlat toʻntarishi qilishga urinishi oqibatida 19–21-avgust kunlari Moskvada fojeali hodisalar roʻy berdi. Fitna Rossiya Federatsiyasi rahbariyati boshchiligida demokratik kayfiyatdagi kuchlar tomonidan

bostirildi. Biroq endilikda mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat yanada taranglashdi. Markaz hokimiyati falaj bo'lib qoldi, KPSS halokatga uchradi. Respublikalar birin-ketin SSSR tarkibidan chiqqanligini e'lon qildilar, SSSR parchalana boshladi.

SSSRning tanazzuliga sabab bo'lgan yuqoridagi jarayonlar bilan bir vaqtda O'zbekistonning markaziy hokimiyat va boshqaruv tizimida ham muhim o'zgarishlar ro'y berdi.

1990-yil 24-martida respublika Oliy Kengashining birinchi sessiyasi muhim tarixiy qaror qabul qilib, O'zbekiston Prezidenti lavozimini ta'asis etgan edi. Prezidentlik boshqaruvining joriy etilishi sovetlar hukmron bo'lgan davlat boshqaruv shakliga barham berib, amalda davlatimizning prezidentlik respublikasi shakliga o'tishini anglatardi. Prezidentlik institutining kiritilishi davlat hokimiyati vakolatlarining yangicha taqsimlanishini taqozo etar edi. Shu munosabat bilan ijroiya-boshqaruv hokimiyatining tizimi takomillashtirildi.

1990-yil 1-noyabrda «O'zbekiston SSRda ijroiya va boshqaruv hokimiyatining tuzilishini takomillashtirish hamda O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida» qonun qabul qilindi. Mazkur qonunga muvofiq, Prezidentlik hokimiyati bilan Respublika Ministrlar Soveti qo'shib, O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasiga aylantirildi. Ijroiya hokimiyat Prezident qo'lida birlashtirildi. U ham hukumat rahbari, ham davlat boshlig'i bo'lib qoldi. Navbatdagi konstitutsiyaviy islohot qadami viloyatlar, shaharlar va tumanlarda davlat hokimiyatining vakillik hamda ijroiya idoralariga rahbarlik qiluvchi hokimlar lavozimini ta'asis etishdan iborat bo'ldi.

33.3. Huquqiy islohotlar

Huquqiy islohotni amalga oshirish Sovet jamiyatining siyosiy tizimini tubdan qayta qurishning bir yo'nalishi, uning ajralmas qismi edi. Jumladan, bu boradagi qonunlardan biri «**Davlat korxonasi (birlashmasi) to'g'risida**»gi qonundur. Mazkur qonun XI chaqiriq SSSR Oliy Sovetining VII sessiyasida 1987-yilning 30-iyunida qabul qilinib, 1988-yil 1-yanvardan kuchga kiritilib, ko'p masalalarni yangi tartibda hal qildi. Masalan, mehnat jamoalarining barcha masalalarda vakolatlari kengaytirildi. Korxonada xo'jalik hisobini mustahkamladi. U 3 bo'lim, 25 moddadan iborat bo'lib, uning birinchi bo'limi xalq xo'jaligining asosiy bo'g'ini sifatida korxonalar (birlashma)ning huquq va burchlari, ikkinchi bo'limi korxonalar (birlashma)ni boshqarish va mehnat kollektivlari to'g'risidagi qoidalardan iborat edi. «**Kooperatsiya to'g'risida**»gi qonun SSSR Oliy Sovetining 1986-yilning 26-may qarori bilan tasdiqlanib, 1-iyuldan boshlab kuchga kiritildi.

Qonun besh bo‘lim, 58 moddani o‘z ichiga olib, unda kooperatsiya va uning mamlakat iqtisodida tutgan o‘rni, davlat va kooperatsiyaning o‘zaro munosabatlari, ularning ayrim turlari va xususiyatlari kabi masalalar belgilandi. Qonunga ko‘ra, kooperatsiya foydali faoliyatning muttasil rivojlanib boradigan ilg‘or shakli ekanligi ko‘rsatilgan. U fuqarolarga o‘z kuchlari va bilimlarini, iste‘dodlari va istaklarini hamda har birining qobiliyatiga muvofiq unumli mehnatga sarflash va ularning mehnatiga qarab haq olishida imkoniyatlar ochib berishi to‘g‘risida gapirilgan.

Yangi qonunchilik Sovet davlati va huquqi tarixida birinchi marta konstitutsiyaviy nazorat qo‘mitasini tuzishni mustahkamladi, ya‘ni konstitutsiyaviy nazoratni vujudga keltirdi. Bu organing tashkil qilinishi va faoliyati maxsus akt – Konstitutsiyaviy nazorat to‘g‘risidagi 1989-yil 23-dekabr qonuni bilan tartibga solindi. Ana shunday qonunlardan yana biri, O‘zSSRning ijara to‘g‘risidagi Nizomidir. Mazkur Nizom O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining 1989-yilning 29-dekabr dagi Farmoni bilan tasdiqlangan va 1990-yil 1-yanvarda kuchga kiritildi. Nizom ikki bo‘lim 33 moddadan iborat bo‘lib, unda ijara bilan bog‘liq umumiy masalalar, ichki ijara, pudrat masalalari va boshqalar huquqiy tartibga solingan. Jumladan, qonunga ko‘ra ijara – shartnoma asosida yer, boshqa tabiiy resurslar, korxonalar, birlashmalar va boshqa mulklarni shuningdek, xo‘jalik faoliyati va o‘zga faoliyatni mustaqil ravishda amalga oshirish uchun ijarachiga muddatli egalik qilish va undan foydalanish maqsadida topshirishidir.

Sud islohotiga ko‘ra, bir necha qonunlar qabul qilindi. Bularga «SSSR Ittifoqi va Ittifoqdosh respublikalarning sud tuzilishi asoslari» to‘g‘risidagi 1989-yil 13-noyabr qonuni, «Sudyalarning maqomi to‘g‘risida»gi 1989-yilning 4-avgustdagi qonuni, «Sudga hurmatsizlik haqida»gi 1989-yilning 2-noyabrdagi qonunlarni ko‘rsatish mumkin. Asoslarga binoan sud tuzilishiga quyidagi yangiliklar kiritildi:

1. Rayon (shahar) xalq sudlari (xalq sudyalari), ana shu sudlar xuzuridagi ma‘muriy sudlarni tuzish va ular zimmasiga ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqishning yuklatilishi.

2. Qonunda o‘lim jazosi berilishi yoki 10 yildan oshiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan ishlarni kengaytirilgan maslahatchilar kollegiyasi sudi tomonidan hal etilishi.

3. Gumon qilingan ayblanuvchi va sudlanuvchi shaxs himoya qilinish huquqiga ega ekanligi, ularning bu huquqi ushlangan yoki qamoqqa olingan yoki aybnoma topshirilgan paytdan boshlab vujudga kelishi.

4. Sudyalarni 10 yil muddatga yuqori xalq deputatlari sovetlari tomonidan saylanishlari.

5. Aybsizlik prezumpsiyasining mustahkamlab qo‘yilishi.

Lekin mazkur davrning oxirlariga kelib mamlakatimizni ulkan

o'zgarishlar va yirik huquqiy islohotlar kutmoqda edi. Bu islohotlar uchun «Mustaqillik Deklaratsiyasi» huquqiy asos bo'lib xizmat qilishi kerak edi. Zero, unda belgilangan quyidagi me'yorlar suveren O'zbekistonning mutlaqo mustaqil va yangi tizimini yaratishni talab qilardi:

1. O'zbekiston SSRning demokratik davlat mustaqilligi respublikaning o'z hududida barcha tarkibiy qismlarida va barcha tashqi munosabatlardagi tanho hokimligidir.

2. O'zbekiston SSRning davlat hududi chegarasi daxlsiz va bu hudud xalqning muhokamasiga qo'yilmay turib o'zgartirilishi mumkin emas.

3. O'zbekiston SSRda davlat hokimiyati uning hududiga kiradigan barcha tarkibiy va bo'linmas qismlari ustidan amalga oshiriladi va shu hududda yashaydigan aholiga taalluqlidir.

4. SSSR Oliy Soveti qabul qiladigan qarorlar O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga muvofiq O'zbekiston SSR Oliy Soveti tomonidan tasdiqlangandan keyingina O'zbekiston SSR hududida kuchga ega bo'ladi.

5. O'zbekiston SSR davlat hokimiyati vakolatiga O'zbekiston SSR ichki va tashqi siyosatiga tegishli barcha masalalar kiradi.

6. O'zbekiston SSR xalqaro huquqning asosiy prinsiplarini tan oladi va hurmat qiladi.

7. O'zbekiston SSR ittifoqdosh respublikalar va boshqa davlatlar bilan o'zining siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa munosabatlarini shartnomalar asosida belgilaydi va amalga oshiradi.

8. O'zbekiston SSR o'zining taraqqiyot yo'lini, o'z nomini belgilaydi va davlat belgilarini (gerb, bayroq, madhiya) o'zi ta'asis etadi.

9. Qoraqalpog'iston Muxtor Sovet Sotsialistik Respublikasi mustaqilligini Muxtor Respublika Konstitutsiyasi ta'min etadl. O'zbekiston SSR uning Asosiy Qonuni va O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi asosida Qoraqalpog'iston MSSR manfaatlarini himoya qiladi.

10. O'zbekiston SSRning qonun chiqaruvchi hokimiyati O'zbekiston SSR davlat mustaqilligini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan qonunlarni ishlab chiqadi, O'zbekiston SSRning siyosiy va iqtisodiy sistemalari tarkibini va qurilishini belgilaydi.

11. O'zbekiston SSR Oliy Soveti umumxalq muhokamasida asosida demokratik huquqiy davlat tuzishga qaror qilganini bildiradi, O'zbekiston SSRda yashayotgan barcha millat va elatlarning qonuniy, siyosiy, iqtisodiy, etnik, madaniy huquqlariga hamda ona tillari rivojlantirilishiga kafillik beradi.

12. Ushbu Deklaratsiya O'zbekiston SSRning yangi Konstitutsiyasini hamda yangi ittifoq shartnomasini ishlab chiqish uchun asosdir.

Bu davrda O'zbekiston SSRning 1978-yilgi Konstitutsiyasiga kiritilgan qator o'zgarishlar ham bo'lajak mustaqil O'zbekistonning konstitutsiyaviy huquqiy asoslarini tashkil qildi, desak xato bo'lmaydi.

Masalan, 1989-yil 20-oktabrida o‘n birinchi chaqiriq O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining o‘n birinchi sessiyasida «O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish» to‘g‘risidagi masala maxsus muhokama etildi. Sessiyada shu masala yuzasidan respublika Oliy Soveti Raisi doklad qildi. Ma‘ruzada O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish haqidagi Qonun davlat mexanizmining hamma bo‘g‘inlari Oliy Sovetga bo‘ysunishini nazarda tutishi alohida ta’kidlandi. Respublika Oliy Sovetiga eng oliy nazorat qiluvchi idora sifatida O‘zbekiston SSRning yuqori mansabdor shaxslarini, shu jumladan, Oliy Sovet Raisini saylash, O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining Raisini, hukumat a‘zolari va boshqa rahbar lavozimdagi kishilarni tasdiqlash yoki tayinlash va zarur bo‘lganda ularni muddatidan oidin lavozimidan chaqirib olish huquqi berildi. Hukumatning bir yilda kamida bir marta Oliy Sovet oldida hisob berishi majburiy qilib qo‘yildi. Shuningdek, Oliy Sovet budjetni nazorat qilish, ministrlar va idoralar ishini tekshirish, deputatlar so‘rovini muhokama qilish masalalarini ham ko‘rib chiqadigan bo‘ldi.

Konstitutsiyaga kiritilgan bu o‘zgartirishlar respublika davlat hokimiyatining oliy idorasiga mustaqil davlat oliy idorasiga xos zarur vakolatlarni berdi. Ayni choqda bu vakolatlar uning ijtimoiy adolat prinsiplari buzilgan hamma joyda zudlik bilan uni tiklashi, jamiyat turmushida yuz berishi mumkin bo‘lgan noxush hodisalarning oldini olish imkoniyatini ham berdi.

Qonun yana shunisi bilan ahamiyatli ediki, O‘zbekiston SSR Oliy Sovetini respublikaning Sovet Federatsiyasida erkin, har tomonlama rivojlanishi uchun kafolat beradigan vakolatlar bilan ham ta‘minladi. Ilgari bu vakolatlarining ko‘pchiligi faqat ittifoq idoralarining huquqi hisoblanar edi. Masalan, 102-moddada ko‘zda tutilgan «mulkchilik munosabatlarini, xalq xo‘jaligini va sotsial-madamiy qurilishni, budjet-moliya sistemasini, mehnatga haq to‘lashni, narx belgilashni, soliq, tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishni, shuningdek, bir qancha boshqa ijtimoiy munosabatlarni qonun yo‘li bilan respublikada tartibga solishi» shular jumlasidandir.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

1. *Qayta qurish siyosati va uning mohiyati haqida gapirib bering.*
2. *Qayta qurishning oqibatlari qanday kechganligi haqida gapirib bering.*
3. *Ijtimoiy-siyosiy hayotning demokratlashuvi va milliy ongning o‘shishi qaysi sohalarida namoyon bo‘lganligi haqida gapirib bering.*
4. *Davlat tuzumida qanday o‘zgarishlar amalga oshirildi?*
5. *Qanday huquqiy islohotlar amalga oshirildi?*

XII BOB. MUSTAQIL O‘ZBEKISTON DAVLATI VA HUQUQI

34-MAVZU: MUSTAQIL O‘ZBEKISTON DAVLATI VA HUQUQINING SHAKLLANISHI

1. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining tashkil topishi.
2. O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risidagi qonuni.
3. 1992-yil Konstitutsiyaning qabul qilinishi, asosiy qoidalari va o‘ziga xos xususiyatlari.
4. Mustaqil va yangi huquqiy tizimning shakllanishi.

34.1. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining tashkil topishi

Sobiq Ittifoqda hukm surgan «qayta qurishi» siyosati uning tarkibiga kirgan ittifoqdosh respublikalarning mustaqillikka chiqishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida qilingan makkorona harakat edi. Davlat to‘n-tarishiga urinish, zo‘ravonlik va tazyiq o‘tkazish siyosatini chuqurlashtirishga intilish bu jarayonning yakuni bo‘ldi. Mustaqillik imkoniyatlarini oldindan payqagan, mamlakat ijtimoiy-siyosiy jarayonlarining borishini to‘g‘ri kuzatib, to‘g‘ri baholay bilgan O‘zbekiston ittifoqdoshlari orasida birinchilardan bo‘lib o‘z mustaqilligini e‘lon qildi. 1991-yil 31-avgust kuni qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi Bayonot O‘zbekiston hukumatining siyosiy yo‘lini to‘la qonunlashtirib berdi. Bu tarixiy hujjatda quyidagi xulosalar ilgari surilgan edi:

- «O‘tmishdan saboq chiqarib va SSR Ittifoqining siyosiy hamda ijtimoiy hayotidagi o‘zgarishlarni e‘tiborga olib,
- xalqaro-huquqiy hujjatlarda qayd etilgan o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqiga asoslanib,
- O‘zbekiston xalqlarining taqdiri uchun butun mas’uliyatni anglab,
- shaxs huquq va erkinliklarining, mustaqil davlatlar o‘rtasidagi chegaralarning buzilmasligi to‘g‘risidagi Xelsinki shartnomalariga qat’iy sadoqatini bayon etib,
- millati, diniy e‘tiqodi va ijtimoiy mansubligidan qat’iy nazar, respublika hududida yashovchi har bir kishining munosib hayot kechirishini, sha’ni va qadr-qimmatini ta’minlaydigan insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishga intilib,
- Mustaqillik Deklaratsiyasini amalga oshira borib, O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Kengashi O‘zbekistonning davlat

mustaqilligini va ozod suveren davlat — O‘zbekiston Respublikasi tashkil etilganligini tantanali ravishda e‘lon qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining o‘z tarkibidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi bilan birga, hududi bo‘linmas va daxlsizdir. O‘zbekiston Respublikasining boshqa davlatlarga hududiy da‘volari bo‘lmay, u o‘z hududi va tabliiy boylıklariga nisbatan oliy huquqqa egadir».

O‘zbekiston parlamentining bu bayonoti o‘zining qonun kuchi bilangina emas, siyosiy mantig‘i, ma‘naviy qudrati, xalqaro huquq normalariga mos kelishi va eng muhimi millat taqdirini hal etadigan tarixiy qadriyat ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Bu hujjat SSSRning 73 yillik hayoti naqadar ayanchli va fojeali ekanligini ko‘rsatadi.

Darhaqiqat, bu mamlakatda inson huquqlari har tomonlama poymol etilganligini, endi bu tuzumda ortiq yashab bo‘lmasligini hayotning o‘zi tasdiqlab turardi. Biroq, mamlakat aholisining aksariyat qismi va ayrim milliy respublikalar rahbariyati ongiga singib qolgan tobelik va mutelik tuyg‘ulari keskin harakat qilishga, o‘z xalqi manfaatini mardona turib himoya qilishga yo‘l qo‘ymas edi. Ammo, o‘sha paytda O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat — O‘sh, Farg‘ona, Qo‘qon, Guliston, Parkent va Bo‘kada yuz bergan mash‘um voqealar, millatlararo nizolarning paydo bo‘lgani, xalq hayotining tahlikali tus olgani ortiqcha kutib turishni taqozo etmas edi. Jarayonlarga o‘z vaqtida yetarli baho berib, zarur xulosaga kelish kerak edi. Shuning uchun ham Farg‘ona voqealari birmuncha izga tushgach, mamlakat aholisining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash, turmush sharoitini va farovonligini oshirish borasida amaliy choralar ko‘rildi. Jumladan:

– aholini qo‘shimcha tomorqalar bilan ta‘minlash, yakka tartibda uy-joy qurishga keng imkon berish, shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarni rivojlantirish, chorvachilik va parrandachilikni taraqqiy toptirish;

– pensiyalar, talabalar va o‘qituvchilarning maoshlarini oshirish, og‘ir ijtimoiy ahvol natijasida kamqonlik kasaliga uchragan homilador ayollarga imtiyozli ovqatlanish, boshlang‘ich simf o‘quvchilariga bepul oziq-ovqat ajratish va shunga o‘xshagan bir qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning markaz bilan hisoblashmay hal etilishi mamlakat aholisiga qanchalik ma‘qul kelsa, ittifoq rahbariyatida shunchalik norozilik tug‘dirar edi.

O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishi qator xorijiy mamlakatlar bilan ikki tomonlama hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi u o‘z taraqqiyot yo‘lini tanlab olganini ko‘rsatar edi.

Bu borada shuni aytish kerakki, O‘zbekistonda bu masalalarning hammasi mustaqil ravishda hal etila borildi, mavjud muammolarni

yechishda ittifoq idoralaridan sezilarli ravishda oldin borildi. Bu xususda inarkazdagilarning birortasi ham O‘zbekistonda amalga oshirilgan ishlarni olqishlab qabul qilmadi. Moskvadagi karomatgo‘ylar aksincha, go‘yo bu – O‘zbekiston Prezidentining o‘zboshimchaligi, bularning hammasi ittifoq ko‘rsatmalariga muvofiq kelmaydi yoki ularga zid deb baho bera boshlashdi.

Shunday bo‘lsada, O‘zbekiston hukumati SSSRda mavjud ijtimoiy-siyosiy jarayonlar borishini boshqalardan ko‘ra tezroq angladi va munosib baholadi. Shuning uchun ham u qat‘iy xulosaga keldi. 1991-yilning 31-avgustida «O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risidagi qonun»ni qabul qildi va ana shu qonun doirasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining bundan keyin O‘zbekiston SSRni O‘zbekiston Respublikasi deb atash, 1-sentabrn Mustaqillik kuni deb e‘lon qilish, O‘zbekiston Konstitutsiyasiga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ittifoqning va uning tarkibiga kiradigan barcha mustaqil davlatlarning oliy qonun chiqaruvchi idoralariga, barcha xorijiy davlatlarga va jahon hamjamiyatiga murojaat qilib, ularni respublikaning davlat mustaqilligi e‘lon qilingan hujjatini tan olishga da‘vat etish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Bu bevosita O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki huquqiy poydevori edi.

34.2. O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risidagi qonuni

«O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida»gi qonuni g‘oyat katta ahamiyatga ega bo‘lganligi uchun bu muhim hujjat haqida batafsil to‘xtash lozim. Mazkur qonun asosida O‘zbekistonning huquqiy holati tubdan o‘zgardi. O‘z mohiyatiga ko‘ra bu hujjat respublika uchun vaqtincha konstitutsiya rolini ham o‘ynaydigan bo‘ldi. 17 ta moddadan iborat bu qonun suveren O‘zbekiston Respublikasining asosiy belgilarini aniqlab berdi.

1-moddada O‘zbekiston Respublikasi o‘z tarkibidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi bilan birga mustaqil demokratik davlat deb e‘lon qilmadi.

2-moddada O‘zbekiston Respublikasining xalqi suveren ekanligi va u respublika davlat hokimiyatining birdan-bir sohibi ekanligi haqida gapiriladi.

3-moddada O‘zbekiston Respublikasi to‘la davlat hokimiyatiga ega, o‘zining milliy davlat va ma‘muriy-hududiy tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil belgilashi qonunlashtirildi.

5-moddada O‘zbekiston Respublikasida Konstitutsiya, uning qonunlari ustun ekanligi va davlat idoralarining tizimi, hokimiyatni

qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatiga ajratish tartibi asosida ko'rilganligi haqida gapirildi.

8-; 12-; 14-moddalar O'zbekiston mustaqilligining iqtisodiy asoslarini izohlab berdi.

13-; 14-moddalarda O'zbekistonning tashqi siyosiy aloqalaridagi mustaqilligi sharhlandi.

15-moddada O'zbekiston Respublikasi hududida inson huquqlari umumiy deklaratsiyasiga muvofiq holda respublika fuqaroligi joriy etilishi, u fuqarolar, millati, elati, ijtimoiy kelib chiqishi, qaysi dinga mansubligidan qat'i nazar, bir xil huquqlarga egaligi va ular respublika Konstitutsiyasi qonunlari himoyasida bo'lishlari qonunlashtirilgan.

16-moddada davlat ramzi bo'lgan gerb, bayroq va madhiya hamda davlat tili haqida gapirilsa, 17-moddada esa O'zbekistonning Qoraqalpog'iston bilan munosabatlari xususida so'z borib, O'zbekiston Qoraqalpog'istonning hududiy yaxlitligini tan olishi haqida fikr yuritiladi, u O'zbekiston tarkibida ekanligi e'tirof etiladi (bu moddada O'zbekiston va Qoraqalpog'iston o'zaro munosabatlari ikki tomonlama tenglik asosida tarkib topishi kerakligi qonunlashtirilgan). Shuningdek, bu moddada Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibidan tegishli qonunlar asosida chiqib ketishi mumkinligi ham e'tirof etilgan.

Bunday Qonunning qabul qilinishi mustaqillik davrida qo'lga kiritilgan yutuqlarning natijasi hisoblanadi. Bu esa huquqiy, iqtisodiy hamda ma'naviy-axloqiy munosabatlar natijasi sifatida eng muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun ham, ushbu Qonunga O'zbekiston SSR Oliy Kengashining 1991-yil 30-sentabr qarori bilan konstitutsiyaviy qonun maqomi berildi.

34.3. 1992-yil Konstitutsiyaning qabul qilinishi, asosiy qoidalari va o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasini yaratish g'oyasi 1990-yil 20-iyunda Mustaqillik deklaratsiyasining qabul qilinishi bilan bevosita bog'liq. Mazkur Deklaratsiya qabul qilingan Oliy Kengashning ikkinchi sessiyasida bu hujjatdagi muhim tamoyillar asosida davlatning yangi Konstitutsiyasi ishlab chiqilishi lozim degan xulosaga kelindi. Sessiya Prezident I. A. Karimov raisligida 64 kishidan iborat Konstitutsiya komissiyasini tuzish to'g'risida qaror qabul qildi. Uning tarkibiga deputatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarning vakillari, davlat hamda jamoat tashkilotlarining, korxonalar, xo'jaliklarning rahbarlari, taniqli huquqshunolar, olimlar va mutaxassislar kirdi. Oliy Kengashning o'ninchi sessiyasida Komissiya tarkibi qisman yangilandi.

Konstitutsiyaviy komissiya 1991-yil 12-aprelda I. A. Karimov raisligida o'zining birinchi majlisiga to'plandi. Konstitutsiya loyihagini yaratish bilan bog'liq barcha tashkiliy va ijodiy jarayonni muvofiqlashtirib borish uchun Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari hamda yetakchi mutaxassislar va olimlardan iborat 32 kishilik ishchi guruhi tashkil etildi. Uning tarkibiga qonun chiqaruvchi idora, bir necha qo'mitalarning raislari, vazirliklar, sud, prokuratura idoralarining rahbarlari, Respublika Prezidenti devoni va Oliy Kengash idorasining mas'ul xodimlari kirdi. Shuningdek, Konstitutsiya loyihasing mo'ljallanayotgan bo'limlarini tayyorlash uchun 6 ta kichik guruhlar tashkil etildi. Kichik guruhlar tarkibiga 50 nafar ilmiy xodim va mutaxassis jalb qilindi.

Loyihaning dastlabki varianti 1991-yil oktabr-noyabrigacha tayyorlab bo'lindi. U muqaddima, olti bo'limga taqsim qilingan 158 moddadan iborat edi. Ushbu loyiha yuzaga kelayotgan paytda mamlakatimiz tarixida tub burilish yuz berdi. 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasi o'zining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi konstitutsiyaviy qonunni va O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida Oliy Kengash Bayonotini qabul qildi. Bu bilan respublika parlamenti mustaqil O'zbekiston Respublikasi, suveren davlat qaror topganligini butun dunyoga e'lon qildi. Qonunda xalq hokimiyatchiligi, demokratik davlatchilik, inson huquqlari muqaddasligi, qonun ustuvorligi, hokimiyat bo'linishi, mamlakatning hududiy yaxlitligi kabi muhim prinsiplar mustahkamlandi. Ushbu ilg'or demokratik g'oya va prinsiplar Konstitutsiya loyihasi mazmuniga ham singdirildi. Shunga qaramasdan dastlabki loyiha hali mukammallik darajasidan ancha yiroq edi. Yanada jiddiyroq va talabchanlik bilan ishlash lozim edi.

1992-yil bahorida loyihaning 149 moddadan iborat ikkinchi varianti ishlab chiqildi. Mamlakat Prezidenti ishtirokida Konstitutsiyaviy komissiyaning navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Majlisda Konstitutsiya loyihasi ustida olib borilgan ishlar to'g'risidagi axborot tinglandi. Ta'kidlanishicha, ishchi guruh O'zbekiston xalq deputatlari, mehnat jamoalari rahbarlari, olimlar va mutaxassislar bilan hamkorlikda loyihaning beshinchi ko'rinishini tayyorladi. Unda o'zbek xalqining tarixiy, milliy va ma'naviy xususiyatlarini imkon qadar to'laroq aks ettirishga harakat qilindi. Qabul qilingan qarorda quyidagilar belgilandi: «Konstitutsiya loyihagini uzil-kesil ishlab chiqish uchun ishchi guruh (komissiya) tuzilsin (uning tarkibi 25 kishidan iborat bo'ldi). Uning zimmasiga quyidagi vazifalar yuklansin:

– huquqiy demokratik davlat barpo etish tajribasini har tomonlama umumlashtirish va uni Konstitutsiya loyihasi hisobga olish;

– O'zbekistonning demografik va ijtimoiy-siyosiy turmush tarzi, uning taraqqiyoti tajribasini hamda deputatlarning, turli ijtimoiy

guruhlarning, milliy-madaniy markazlarning mulohazalari va takliflarini umumlashtirish;

– Konstitutsiyaviy komissiya a’zolaridan tushgan takliflarni ko‘rib chiqish va loyihaga tegishli o‘zgarishlar kiritish».

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining loyihasi puxta ishlovlardan so‘ng Konstitutsiyaviy komissiya qarori bilan 1992-yil 26-sentabrda umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e’lon qilindi.

Umumxalq muhokamasi uch oy davom etdi. Unda mamlakatda yashayotgan turli millat va elatga mansub bo‘lgan barcha katta yoshdagi aholi ishtirok etdi. Matbuotda, radio va televideniye orqali, korxonalar, muassasa hamda tashkilotlardagi yig‘ilishlarda, auditoriyalarda qizg‘in muhokama, bahs-munozaralar bo‘lib o‘tdi. Loyiha Qoraqalpog‘iston Oliy Kengashi sessiyasida, viloyatlar, tumanlar va shaharlardagi faollar yig‘ilishlarida muhokama etildi. Oliy Kengash Rayosati, viloyat hokimliklari taklif va mulohazalarni muntazam ravishda umumlashtirib, yakuniy jadvallar tuzib, ularni Konstitutsiya komissiyasiga yuborib turdilar.

Konstitutsiya komissiyasi dastlab belgilagan ikki yarim oylik muddat mobaynida (1992-yil 26-sentabrdan boshlab) loyiha mehnatkashlar takliflari asosida qayta tuzatilib, 1992-yil 21-noyabrda muhokamani davom ettirish uchun yana ikkinchi marotaba matbuotda e’lon qilindi. Umumxalq muhokamasi ikki bosqichda amalga oshirildi. Bu hol muhokama ishtirokchilarini siyosiy jihatdan faollashtiruvchi qudratli turtki bo‘ldi. Uning maqsadi fuqarolarga ularning muhokamadagi jonbozligi mahsuli va samaralarini aniq ko‘rsatishdan iborat edi.

Umumxalq muhokamasi davomida jami 6 mingdan ortiq taklif va mulohazalar bildirildi.

1992-yil 8-dekabrda 12-chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasi bo‘ldi. Unda «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish haqida»gi masala ko‘rildi.

Sessiya ishtirokchilari yakdillik bilan 6 bo‘lim, 128 moddadan iborat Konstitutsiyani qabul qildilar.

Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasining tarixida birinchi marta xalqaro huquqning hamma tomonidan e’tirof etilgan tamoyillari va me’yorlariga, umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligiga asoslangan real, tub ma’nodagi demokratik Konstitutsiya yaratildi va kuchga kiritildi.

Konstitutsiyaning 1-moddasida «O‘zbekiston – suveren demokratik respublika. Davlatning «O‘zbekiston Respublikasi» va «O‘zbekiston» degan nomlari bir ma’noni anglatadi», deb qayd etildi. Konstitutsiyada O‘zbekiston Respublikasi fuqarolaridan iborat xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbayi, deb ta’kidlandi. O‘zbekistonning butun hududida yagona fuqarolik o‘rnatildi, davlat tomonidan o‘z fuqarolarini himoya qilish va ularga homiylik ko‘rsatish kafolatlandi.

Konstitutsiyada O‘zbekiston Prezidenti butun respublikada davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘i, respublika Qurolli Kuchlari Oliy Bosh qo‘mondoni, deb belgilab qo‘yilgan. Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyot, ijtimoiy va ma‘naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, Oliy Majlis qonunlari, Prezident farmoyishlari va qarorlari ijrosini ta‘minlaydi.

Konstitutsiyada O‘zbekistonning sud tizimi besh yil muddatga saylanadigan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo‘jalik sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi, xo‘jalik sudi va viloyat sudlari, Toshkent shahar sudi, tuman, shahar va xo‘jalik sudlaridan iborat ekanligi va ularning funksiyalari, ish yuritish tartiblari belgilab qo‘yildi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining maqomi, huquqlari va O‘zbekiston bilan o‘zaro munosabatlarining huquqiy asoslari O‘zbekiston Konstitutsiyasida belgilab berildi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasi, xalqaro ekspertlarning ta‘biricha, barcha xalqaro huquq talablariga va normalariga muvofiq keladi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini to‘la darajada ta‘minlaydi va haqli ravishda dunyoda eng demokratik Konstitutsiyalardan biri hisoblanadi.

Konstitutsiyada bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakldagi mulk tashkil etishi, xususiy mulkning daxlsizligi va davlat tomonidan himoyalaniishi ko‘rsatilgan. Asosiy Qonunda O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari, siyosiy firqalar, ommaviy axborot vositalarining tuzilishi va faoliyat yuritishi huquqiy jihatlari asoslab berildi.

Konstitutsiyada O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatini tashkil etish hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipiga asoslanadi, deb belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. U hududiy saylov okruglari bo‘yicha ko‘p partiyaviylik asosida besh yil muddatga saylanadi.

34.4. Mustaqil va yangi huquqiy tizimning shakllanishi

Istiqlolga erishgan O‘zbekiston o‘zining milliy huquqiy tizimini vujudga keltirishga kirishdi. Respublika parlamenti qonun yaratuvchilik faoliyati bilan faol shug‘ullanmoqda.

Mustaqillikning dastlabki yillari 200 ga yaqin qonunlar qabul qilindi. Ular yangilangan jamiyatning siyosiy va davlat tuzilishi, uning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va xalqaro munosabatlarini huquqiy tartibga solishga qaratilgan.

Birinchidan, siyosiy sohaga avvalambor, davlat mustaqilligini huquqiy

jihatdan mustahkamlashga qaratilgan qonunlar kiradi. Bular jumlasiga: 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan «Mustaqillik deklaratsiyasi», 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari haqida»gi konstitutsiyaviy qonun va 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan istiqlolimiz qomusi bo‘lmish — Konstitutsiya kiradi.

Jamiyatning yangi siyosiy tizimini, davlat organlarining tuzilmasini takomillashtirish, respublika hokimiyati bilan mahalliy hokimiyat organlarining vazifalarini aniq belgilab qo‘yishga qaratilgan qonunlar qabul qilindi. Bular Prezidentlik saylovi to‘g‘risidagi (1991), Oliy Kengash va mahalliy Kengashlarga saylovlar haqidagi (1993 va 1994), Oliy Majlis (1994), Vazirlar Mahkamasi (1993), Konstitutsiyaviy sud (1993), Sudlar to‘g‘risida (1993), Oliy xo‘jalik sudi (1993), mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish to‘g‘risidagi (1993) va boshqa bir qator qonunlardir.

Ikkinchidan, inson huquqlari to‘g‘risida muayyan qonunchilik tizimi shakllandi. Bu borada Fuqarolik to‘g‘risidagi (1992) qonun alohida o‘rin tutadi. Chunki fuqarolik har bir shaxsga O‘zbekistonning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va madaniy turmushida mumkin qadar to‘laroq ishtirok imkonini beradi. Bundan tashqari, Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi (1992-yil), Matbuot haqidagi (1992-yil), Saylovlar to‘g‘risidagi (1993, 1994-yil), Jamoat birlashmalari haqidagi (1992-yil), Kasaba uyushmalari to‘g‘risidagi (1993-yil), yoshlar davlat siyosati haqidagi (1993-yil) va boshqa qonunlar Konstitutsiyamizning ikkinchi bo‘limida ko‘rsatilgan fuqarolarning asosiy shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy huquqlarini amalga oshirishning aniq mexanizmini yaratishga qaratilgandir.

Uchinchidan, O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotining amal qilishi uchun huquqiy negiz yaratuvchi qonunlar qabul qilindi. Chunki ijtimoiy yo‘naltirilgan madaniy-ma‘rifiy bozor munosabatlarini tegishli ravishda huquqiy jihatdan ta‘minlamasdan turib bozor xo‘jaligini shakllantirib bo‘lmaydi. Bu qonunlar jumlasiga mulkchilik (1990-yil), xususiyashtirish (1991-yil), korxonalar (1990-yil), tadbirkorlik (1991-yil), banklar va bank faoliyati (1991-yil), korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar (1991-yil), tashqi iqtisodiy aloqalar (1992-yil), chet el investitsiyalari (1992-yil) va ularning huquqiy kafolatlari (1994-yil), valutani tartibga solish (1993-yil), birjalar (1993-yil), auditorlik faoliyati (1993-yil), antimonopolistik faoliyatga qarshi (1992-yil) va boshqa qonunlar kiradi. Mazkur qonunlarda mulkchilik barcha shakllarining teng huquqliligi, mulk egasi huquqining kafolati va himoyalanganligi, turli tashkiliy-huquqiy shaklda xo‘jalik yurituvchi subyektlarni tuzish va ularning faoliyat ko‘rsatish mexanizmi, tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish tamoyillari va tizimi kabi qoidalar o‘z aksini topgan. Bu

qonunlarda O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va milliy-tarixiy xususiyatlari hisobga olingan. Bozor huquqi va qonunchiligi negizini tashkil etuvchi fuqarolik protsessual kodekslari tayyorlandi.

To‘rtinchidan, ijtimoiy va ma’naviy sohada ta’lim (1992-yil), pensiyalar (1993-yil), nogironlar (1992-yil), mehnat qoidalariga o‘zgartirishlar (1993-yil)ga doir huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Beshinchidan, davlat ramzlari to‘g‘risidagi qonunlar, ya’ni Bayroq (1991-yil), Gerb (1992-yil), Madhiya (1992-yil), milliy valuta – «so‘m»ni muomalaga kiritish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilindi. Milliy valuta, bayroq, gerb, madhiya, Konstitutsiya kabi davlat va xalqning ramzlari mustaqillikning muqaddas belgilaridir.

Oltinchidan, tashqi siyosat sohasida ilk bor qonunlar qabul qilindi. Bu – O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatiya vakolatxonalari boshliqlarini tayinlash hamda chaqirib olish tartibi (1992-yil), O‘zbekiston Respublikasining diplomatiya xodimlari uchun diplomatiya daraja va martabalarini belgilash (1992-yil) to‘g‘risidagi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi haqidagi Nizom (1994-yil), O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi va diplomatik vakolatxonalari xodimlarining diplomatik darajalari haqidagi Nizom (1994-yil) kabilar, bir qator ko‘p tomonlama va ikki tomonlama shartnomalarni ratifikatsiya qilish haqidagi parlament qarorlari O‘zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining huquqiy asoslarini tashkil etadi.

Shunday qilib, qabul qilingan bunday muhim qonunlar yurtimizda milliy davlatchilik va huquqiy tizimni barpo etishga, erkin bozor iqtisodiyotini rivojlantirishga, O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi mamlakatlar bilan faol hamkorlik qilishiga qaratilgandir.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

1. *Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining tashkil topishi qanday yuz berdi?*
2. *Mamlakat aholisining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash borasida qanday chora-tadbirlar amalga oshirildi?*
3. *O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risidagi qonun qanday ahamiyatga ega bo‘ldi?*
4. *1992-yilgi Konstitutsiyaning qabul qilinishi jarayoni va o‘ziga xos xususiyatlari haqida gapirib bering.*
5. *Mustaqil va yangi huquqiy tizimning shakllanishini tushuntirib bering.*

35-MAVZU: YANGI JAMIYATGA O'TISH DAVRIDAGI SIYOSIY ISLOHOTLAR

1. O'zbekistonda qonun chiqaruvchi hokimiyatning shakllanishi.
2. Milliy davlat tizimining barpo qilinishi, boshqaruvda yangi usullarning qaror topishi.
3. Mahalliy davlat hokimiyatida tub o'zgarishlar yasalishi.
4. O'z-o'zini boshqarish organlarining yanada rivojlantirilishi.

35.1. O'zbekistonda qonun chiqaruvchi hokimiyatning shakllanishi

Mustaqillik yillarida insonparvar jamiyat, demokratik huquqiy davlat barpo etish yo'lida ulkan ishlar amalga oshirildi. Vakillik hokimiyatini vujudga keltirishning eng demokratik tizimi – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati barpo etildi. Davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimi – prezidentlik respublika boshqaruvi usuli yaratildi.

Mustaqillikning ilk davrida qonun chiqaruvchi davlat hokimiyati – respublika parlamenti niloyatda murakkab sharoitda ishladi. U 1990—1994-yillarda O'zbekiston Respublikasining Oliy Kengashi deb ataldi va shu yillarda 200 ga yaqin qonun va 500 dan ortiq qaror qabul qildi. Oliy Kengash mamlakatimiz tarixida birinchi bor Prezidentni sayladi, O'zbekiston suvereniteti haqida Deklaratsiya, O'zbekistonning davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida tarixiy qonun va boshqa muhim hujjatlarni qabul qildi. Oliy Kengash Davlat mustaqilligining siyosiy-huquqiy asoslarini, ma'naviy negizlarini tayyorladi va amalga oshirdi. Oliy Kengash jamiyatda o'zaro totuvlikni saqlash prinsipini yaxshi anglagan holda faoliyat yuritdi, ochiq, demokratik jamiyat qurish va erkin bozor munosabatlariga o'tishga asos soluvchi muhim qonunlarni ishlab chiqdi va qabul qildi.

Ijtimoiy taraqqiyot, mamlakatning o'ziga xos rivojlanish yo'lidan qat'iy borishi, avvalo, O'zbekistonda oliy davlat hokimiyatlarini tashkil etishning yangicha tamoyillarini ishlab chiqishni taqozo etardi. Ma'lumki, yangi Konstitutsiyaning V bo'limi davlat hokimiyatini tashkil qilish tamoyillarini o'z ichiga oladi. Shu bo'limning XVIII bobi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini shakllantirishga bag'ishlangan va uning 76-moddasida: «O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi», – deb mustahkamlandi.

O'zbekistonda Konstitutsiya talablari asosida izchil ravishda siyosiy islohotlar amalga oshirilar ekan, 1993-yil 28-dekabrda bo'lib o'tgan

mamlakat Oliy Kengashining XIV sessiyasida «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to‘g‘risida»gi, 1994-yil 22-sentabrda bo‘lib o‘tgan XVI sessiyada esa «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to‘g‘risida»gi qonunlar qabul qilindi. Bular demokratik tamoyillarga asoslangan hokimiyat bo‘linishining eng xalqchil va zamonaviy shakllari hisoblanadi. Ayni paytda bu sohada tub islohotlarni amalga oshirish zarurati borligini ham ko‘rsatadi.

Birinchidan, shu vaqtga qadar O‘zbekistonda sobiq ittifoq davrida qabul qilingan ayrim qonun va me‘yoriy hujjatlar hamon amalda edi, ulardan butunlay voz kechish vaqti yetgan. Chunki, mazmun va mohiyati yangilanayotgan davlat va jamiyat uchun mutlaqo mos kelmas va hatto, yangi jamiyat oldida turgan tub maqsadlarni amalga oshirishga monelik qilar edi.

Ikkinchidan, O‘zbekiston o‘z oldiga adolatli huquqiy demokratik davlat qurish, taraqqiyotning bozor iqtisodiyotiga asoslangan yo‘ldan borish va insonparvar fuqarolik jamiyatini shakllantirish vazifasini maqsad qilib qo‘ygan edi. Bu borada rivojlangan mamlakatlar, shuningdek, milliy ozodlik harakatlari orqali mustaqillikka erishgan va taraqqiyot yo‘liga kirgan boshqa qator davlatlar qonunchilik tajribasidan foydalanish lozim edi.

Uchinchidan, mustaqil taraqqiyot yo‘lida vujudga kelayotgan milliy-davlatchilik tizimi har qanday mafkuraviy ta’sirdan xoli, xalqning o‘ziga xos tarixiy, axloqiy-ma’naviy va ruhiy qadriyatlariga mos bo‘lmog‘i lozim edi.

Bunday vazifani Konstitutsiyada belgilanganidek, qonun chiqaruvchi vakillik hokimiyati – Oliy Majlis uddalamog‘i kerak edi. Shuning uchun ham Oliy Kengash XVI sessiyasidan (1994-yil, sentabr) so‘ng O‘zbekistonda yangi qonun chiqaruvchi organ – Oliy Majlisni shakllantirish uchun amaliy choralar ko‘rila boshladi. Sessiya qaroriga muvofiq 1994-yil 25-dekabrda Oliy Majlisga, viloyat, shahar va tuman kengashlariga saylovlar belgilandi.

1994-yil 25-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga birinchi marta ko‘ppartiyaviylik asosida saylov o‘tkazildi. Har bir saylov okrugida ikki-uch nomzod deputatlik uchun kurashdi. Saylovchilar birinchi marta nomzodlarni tanlab olish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Shu tariqa, demokratik yo‘l bilan saylangan Oliy Majlis – yangi parlament o‘z faoliyatining dastlabki ikki yill mobaynida qonun ishlab chiqish va nazorat qilish faoliyatini izchillik bilan takomillashtirdi, hokimiyat qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlarining o‘zaro ijobiy hamkorlik olib borishlariga yaqindan faol ko‘maklashdi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi shu davr mobaynida o‘z faoliyati davomida mazmun mohiyati bilan avvalgi Oliy Kengashdan butunlay farq qiluvchi oliy vakillik davlat organiga aylanib bordi. **Birinchi farq shundaki**, avval ko‘rganimizdek, Oliy Majlisga saylov ko‘ppartiyaviylik

asosida o'tkazildi. Har bir saylov okrugini 2—3 nomzod deputatlik uchun kurashdi. Saylovchilarga amalda ana shu nomzodlardan tanlab olish huquqi berildi. Shunday ko'ppartiyaviylik tamoyili Oliy Majlis ishida ham joriy etildi.

Ikkinchidan, Oliy Majlisga, mahalliy hokimiyat vakillik organlariga saylovlarni tashkil qilishda simfiy yondashuv nodemokratik tamoyil sifatida rad etildi.

Avvalgi saylovlarda Oliy Kengashni shakllantirish jarayonida ishchilar sinfi, kolxozchi dehqonlar, xalq ziyolilarining o'rni va soni oldindan belgilab qo'yilar edi. Buning ustiga, parlamentda va mahalliy kengashlarda vazifasi bo'yicha albatta deputat bo'luvchi o'rinlar ham mavjud edi. Keyingi saylovlarda bunday yondashuvdan voz kechildi.

Oliy Majlis deputatlari turli partiya va harakatlarning vakillaridan iborat nomzodlar orasidan muqobilik asosida saylandi. Respublika fuqarolari saylovlarda, eng avvalo, nomzodlarning ijtimoiy kelib chiqishiga emas, aksincha, ularning ishchanlik va axloqiy sifatlariga, eng muhimi — dasturlarining mazmun-mohiyatiga katta e'tibor berdilar.

Uchinchidan, parlamentning kuchi deputatlarning o'z saylovchilari bilan kundalik munosabatida, yaqin muloqotida ekanligidan kelib chiqib, Oliy Majlis saylovchilar bilan uzviy aloqada bo'ldi. Avvalgi parlamentda bu masalaga uncha e'tibor berilmagan edi. Hayot shuni ko'rsatdiki, saylovchilar Oliy Majlisda qanday qonunlar muhokama qilinayotgani va qabul etilayotganidan xabardor bo'lib turishi, deputat esa hayotning eng dolzarb, qaynoq nuqtalarida aholi bilan birga bo'lishi kerak.

35.2. Milliy davlat tizimining barpo qilinishi, boshqaruvda yangi usullarning qaror topishi

Insoniyat tarixidan ma'lumki, har qanday jamiyatda davlat va boshqaruv, o'sha davlat konstitutsiyasida ko'zda tutilganidek, uning tub maqsadlariga mos bo'lishi kerak. Buni O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi ijtimoiy hayot ham taqozo qila boshladi.

Ma'lumki, 1990-yil 24-martida O'zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta'sis etish hamda O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi (asosiy qonuni)ga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida Qonun qabul qilindi. Unga ko'ra, respublikada Prezident lavozimi ta'sis qilindi. Bunda demokratiya jarayonlarini yanada rivojlantirish, siyosiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, konstitutsiyaviy tuzumni, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va xavfsizligini mustahkamlash, respublika davlat hokimiyati va boshqaruvi oliy idoralarning o'zaro aloqasini takomillashtirish ko'zda tutildi. Shu munosabat bilan respublika Konstitutsiyasi respublika Prezidenti haqidagi yangi — 12-bob bilan to'ldirildi. Ushbu bobda

Prezidentlik boshqaruvi ta'sis etilishiga bog'liq quyidagi qoidalar belgilandi.

Dastlabki konstitutsion qoidada Prezident faoliyatining demokratik taomiliari ko'rsatib berildi. Uning huzurida Prezidentlik Kengashi ishlaydi. Kengashning vazifasi davlat ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini amalga oshirish, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash choralari ishlab chiqishdan iborat edi. Kengash tarkibiga Vazirlar Kengashi Raisi ham kiradi, uning ishida O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Oliy Kengashlarining Raislari ham qatnashish huquqiga ega bo'ldi. Prezident Respublika Konstitutsiyasi va qonunlari asosida hamda ularni ijro etish yuzasidan farmonlar chiqaradi. O'zbekistonda yangi jamiyat qurish borasida tajribalar orttirilishi bilan Prezidentlik boshqaruvi tobora takomillasha boradi. Jumladan, 1990–1992-yillarda Prezidentlik hokimiyati bilan Vazirlar Kengashining ijroiya boshqaruv hokimiyati qo'shib yuborilib, Vazirlar Kengashi Prezident huzuridagi Vazirlar Mahkamasiga aylantirildi. 1990-yil 15-noyabrda Prezident I. Karimov «O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining tarkibini tasdiqlash to'g'risida» Farmon chiqardi. Unda, jumladan, shunday deyiladi:

«O'zbekiston SSRda ijroiya va boshqaruv hokimiyat tuzilishini takomillashtirish hamda «O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish» to'g'risidagi O'zbekiston SSR Qonuniga binoan O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining tarkibi tasdiqlansin».

Prezidentning ushbu farmoni asosida xalq xo'jaligi dehqonchilik sanoati, xalq iste'moli mollari, qurilish-naqliyot, mashinasozlik, yoqilg'i-energetika, umumiy-tisodiyot, moddiy-texnika, madaniyat ishlari komplekslariga ajratilib, uning rahbarlari belgilandi va ular Vazirlar Mahkamasi tarkibiga kiritildi. Prezident ayni bir paytda Vazirlar Mahkamasi Raisi bo'lib qoldi. Bu bilan Prezident va Hukumat apparati birlashtirildi. Shunday qilib, Prezident ikkinchi bosqichda respublikada oliy ijroiya va boshqaruv hokimiyatini amalga oshiruvchi oliy martabali shaxsga aylandi va ayni bir paytda davlat boshlig'i ham hisoblandi. Endilikda u faqat farmonlar emas, balki qarorlar va farmoyishlar ham qabul qiladigan bo'ldi.

Vitse-Prezident lavozimi ham ta'sis etilib, u Vazirlar Mahkamasiga rahbarlik qiluvchi, uning ishini uyushtiruvchi shaxsga aylangan edi. Biroq ikkinchi bosqichda joriy etilgan Vitse-Prezident lavozimi o'zini oqlamadi. Shu boisdan 1992-yil 4-yanvardagi Qonun bilan u tugatilib, O'zbekiston Respublikasining Bosh Vaziri lavozimi ta'sis etildi. U Vazirlar Mahkamasiga rahbarlik qiladi va uning ishini tashkil etadi, deb belgilandi.

O'zbekiston Respublikasining hukumati Bosh Vazirdan, Bosh Vazirning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlaridan, mamlakat vazirlaridan, davlat qo'mitalarining raislaridan, yirik konsernlarning va birlashmalarning rahbarlaridan iborat.

O'zbekiston davlatchiligida qat'iy intizom bor. Uni nazorat qilib boruvchi Konstitutsiyaviy sud mavjud. Dastlab mamlakatda Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi tashkil etildi. Ma'lum muddat o'tgach bu qo'mita Konstitutsiyaviy sudga aylantirildi. Chunki, nazorat qo'mitasining mazmun-mohiyatida voqea-hodisalarni ko'zdan kechirib qo'yish, ularga nazar solib turish ma'nosi yotadi. Sudda esa qat'iy talab va shafqatsiz hukm mavjud. Bunda talab ham, mas'uliyat ham oshadi.

Ijroiya hokimiyati haqida gapirganda yana shuni ham ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida ilgarigi ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga xos bo'lgan xalq xo'jaligi tarmoqlarini boshqaradigan avvalgi vazirlik va idoralar bekor qilindi. Ular bozor munosabatlariga muvofiq holda korporatsiyalar, konsernlar, assosiatseyalar va davlat tasarrufida bo'lmagan xo'jalik yurituvchi boshqa idoralarga aylantirildi.

Bu o'rinda umumdavlat ahamiyatiga molik strategik vazifalarni hal etish, rivojlanishning istiqbolga mo'ljallangan dasturlarini ishlab chiqish, o'zaro bog'liq bo'lgan korxonalarining faoliyatini muvofiqlashtirish uchun turdosh tarmoqlarni yirik xalq xo'jaligi komplekslariga aylantirish tajribasidan foydalanildi. Shuning uchun ham yangi hukumat tarkibiga Tashqi ishlar vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Mehnat vazirligi, Ijtimoiy ta'minot vazirligi va shu kabi boshqa faoliyati asosan aholini ijtimoiy himoya qilishni ta'minlashga, ko'p ukladli iqtisodiyotni rivojlantirishga, tashqi iqtisodiy va tashqi siyosiy faoliyatni muvofiqlashtirishga fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishga, qonunchilik va huquq-tartibotni mustahkamlashga yo'naltirilgan vazirliklar va davlat qo'mitalari kiritildi.

1991-yil 6-sentabrda respublika mustaqilligi hamda hududiy yaxlitligini himoya qilish maqsadida Mudofaa ishlari vazirligi tuzildi. Shu maqsadlarni ko'zlab uning tarkibida 1992-yil yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi milliy gvardiyasi brigadasini ham barpo etish lozim topildi. 1992-yil iyulidan u Mudofaa vazirligiga aylantirildi.

O'zbekistonda Adliya idoralarining mavqeyi va mas'uliyatini oshirish, alohida huquqiy xizmatni yaxshilash, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish maqsadida Adliya vazirligi faoliyatini takomillashtirish tadbirlari belgilandi. Vazirlik mamlakatda huquqqa doir siyosatni o'tkazishda davlat idoralarining faoliyatini muvofiqlashtiradi, boshqa markaziy idoralar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi hamda uning fuqarolari huquqlari va qonuniy manfaatlarining himoya qilinishini ta'minlaydi.

O'zbekiston iqtisodiyoti rivoji bilan shug'ullanuvchi davlat idoralari tizimida tubdan o'zgarishlar qilindi. Mamlakatda 1990-yil dekabrda Davlat reja qo'mitasi Iqtisod komissiyasiga aylantirildi. 1992-yilda shu komissiya negizida Vazirlar Mahkamasi huzurida respublikaning Taraqqiyot istiqbolini belgilash qo'mitasi tashkil etildi, uning avvalgi vazifalari yanada kengaytirildi. 1992-yil 5-avgustida esa ushbu qo'mita va statistika davlat qo'mitasi negizida Vazirlar Mahkamasining Istiqbolni belgilash va statistika davlat qo'mitasi va joylarda uning tegishli idoralari barpo etildi. Bu qo'mita vazifalariga O'zbekistonni taraqqiy ettirishning ustuvor yo'nalishlari va tashqi iqtisodiy aloqalar strategiyasini ishlab chiqish, aholi moddiy farovonligini oshirish va uni ijtimoiy muhofaza etish, yagona statistika siyosatini o'tkazish kabilar kiritildi.

1997-yildan ushbu Qo'mita Makroiqtisodiyot vazirligiga aylantirildi. O'zbekistonda moliya idoralarini boshqarish tashkiliy tuzilmasini va narx belgilash tizimini takomillashtirish tadbirlari belgilandi. Shu boisdan narxlarga doir davlat siyosatini o'tkazish vazifalari Moliya vazirligiga topshirilib, u Davlat narxlar qo'mitasi bilan birlashtirildi.

Xalq xo'jaligini xomashyo, yoqilg'i va boshqa moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlashga ham jiddiy e'tibor berildi. Bu sohaga rahbarlik qiluvchi idoralar takomillashtirildi. 1991-yil fevralida xalq xo'jaligining madaniy xomashyo zaxiralariga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash maqsadida geologiya sohasidagi ilmiy-tadqiqot, ishlab chiqarish va boshqaruv idoralari negizida O'zbekiston SSR Davlat geologiya va madaniy resurslar qo'mitasi tashkil etilib, uning vakolatlari belgilandi.

1992-yil may oyida neft va gaz konlarini har tomonlama va samarali o'zlashtirish, xalq xo'jaligi va aholini gaz, gaz kondensati, neft hamda ularni qayta ishlash mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash, neft va gaz sanoatini boshqarish tuzilmasini takomillashtirish maqsadida shu sohada mavjud bo'lgan ishlab chiqarish birlashmalari asosida O'zbekiston neft va gaz sanoati davlat konserni – «O'zbekneftgaz» tashkil etildi va uning vazifalari tayin etildi.

Konsernlar xalq xo'jaligiga davlat rahbarligi tizimidagi yangi shakl edi. U sanoat sohasida bundan ilgari ham barpo etilgan edi. Bu O'zbekistonning o'z mustaqilligiga erishishi, ittifoq tobeligidagi sanoat tarmoqlarining ham respublikaga betilishi, bozor iqtisodiyotiga o'tilishi, ma'muriy buyruqbozlik usulining cheklana borishi bilan bog'liq bo'ldi. Masalan, 1990-yil oktabrida O'zbekiston SSR Vazirlar Kengashi sanoat tarmoqlari bo'yicha o'zbek davlat konsernlarini tuzish to'g'risida qaror qabul qildi. Qarorga binoan, O'zbekiston Davlat kimyo sanoati, metallurgiya sanoati, mashinasozlik, qishloq xo'jaligi va avtomobil mashinasozligi, radioelektronika (elektrotexnika va asbobsozlik bilan

birga), paxta tozalash sanoati ilmiy-texnikaviy ta'minlash konsernlari tuzildi. Shuningdek, mahalliy sanoat vazirligi tugatilib, O'zbekiston Respublikasi davlat «Mahalliy sanoat» korporatsiyasi tashkil etildi.

Prezidentning 1992-yil 27-oktabrdagi Farmoni bilan ijara kollektiv, hissadorlik tashkilotlarini hamda mulkchilikning boshqa shakllariga asoslangan montaj, ixtisoslashtirilgan qurilish, sozlash, ilmiy-tadqiqot va loyiha tashkilotlarini sanoat va naqliyot korxonalarini ixtiyoriy paychilik asosida birlashtiruvchi «O'zmontaj maxsus qurilish» ishlari xo'jalik assosiyasi tashkil etilib, shunday vazirlik esa tugatildi.

O'zbekiston Respublikasi Don mahsulotlari vazirligi negizida Don mahsulotlari («O'zdonmahsulot») davlat konserni tashkil etilib, uning zimmasiga xalq xo'jaligini va aholini ovqatbop don, un va non, qandolat mahsulotlari, omixta yem bilan ta'minlash, nonvoyxona, makaron tegirmonyorma va omixta yem sanoati korxonalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi vazifalar yuklandi.

Prezidentning 1990-yil 8-dekabrida imzolagan Farmonida shunday deyiladi: «Dehqonchilik-sanoat kompleksida davlat va xo'jalik boshqaruv vazifalarini farqlab qo'yishga oid aniq tadbirlarni amalga oshirish, jamoa xo'jaliklari, davlat xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy mustaqilligini rivojlantirish, bozor munosabatlarini joriy etish uchun shart-sharoit yaratish maqsadida qaror qilaman:

O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligi davlat kooperativ qo'mitasi kengashi va hay'atining O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligi davlat kooperativ qo'mitasini O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligi jumhuriyat vazirligiga aylantirish to'g'risidagi taklifi qabul qilinsin». Shuningdek, Paxtani qayta ishlash va paxta mahsulotini sotish davlat hissadorlik assosiyasi ham tashkil etildi.

Xalq xo'jaligini rivojlantirishda fan va texnikaning ahamiyati katta. Shu sababdan ularni ravnaq toptirish, erishilgan natijalarni amaliyotga tatbiq etish sohasidagi ishlarga ham jiddiy e'tibor berildi. Maxsus Farmonlar bilan O'zbekiston Respublikasi Fan va texnika davlat qo'mitasi, Vazirlar Mahkamasi huzurida esa Oliy Attestatsiya Komissiyasi (OAK) tashkil qilindi. Mamlakat Fanlar akademiyasiga o'zini-o'zi boshqaruvchi mustaqil tashkilot sifatidagi maqom berildi.

Iqtisodiy hayotda bozor munosabatlariga o'tish aholining ijtimoiy himoyalinishini, davlat mustaqilligiga erishish esa milliy va madaniy qadriyatlar ahamiyatini oshirishni talab etadi. Shunday sharoitda ijtimoiy madaniy qurilish sohasida davlat rahbarligini takomillashtirish ham jiddiy ahamiyatga ega. Chunonchi, 1992-yil 5-mayda aholiga savdo xizmatini tubdan yaxshilash, iste'mol bozorini kengaytirish maqsadida respublika savdo vazirligi «O'zbeksavdo» O'zbekiston davlat hissadorlik uyushmasiga aylantirildi.

Aholiga maishiy xizmat ko'rsatishni va bu sohani boshqarishni yaxshilash dolzarb masaladir. Ana shu maqsadlarni nazarda tutib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi aholiga maishiy xizmat ko'rsatish davlat kooperativ markazi va uning joylardagi idoralari o'rniga maishiy xizmat korxonalari va tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi va hududiy uyushmalari tashkil etildi va ularning vazifalari aniq belgilab qo'yildi.

Ommaviy axborot vositalari va tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi televideniye va radio eshittirishlari davlat qo'mitasi 1992-yil yanvar oyidan O'zbekiston davlat teleradio eshittirishlar kompaniyasiga aylantirildi.

Respublikaning tashqi faoliyati masalalari bo'yicha shug'ullanadigan idoralari tizimi ham takomillashtirildi. Jumladan, 1991-yil 7-sentabrda O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tashkil qilindi.

1992-yil 21-fevralda Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tuzildi, o'sha yili 10-avgustda esa O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona qo'mitasi barpo etildi, shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish, xorijiy sarmoyalarni jalb etish va himoya qilish choralari belgilandi. O'zbekiston hududida sayohat sohasidagi yagona siyosatni ishlab chiqib, amalga oshirishni ta'minlaydigan muvofiqlashtiruvchi bosh idora sifatida «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi ham barpo etildi.

1992-yil oxiri va 1993-yil boshida ham bir necha markaziy boshqaruv idoralari tashkil etildi. Ular qatoriga O'zbekiston sanoat va xo'jalik qurilishi davlat korporatsiyasi, O'zbekiston avtomobil naqliyoti davlat hissadorlik korporatsiyasi, O'zbekiston avtomobil yo'llari qurish va foydalanish davlat hissadorlik konserni kabilar kiradi.

Umuman olganda, 1991–1996-yillar yosh mustaqil mamlakatimiz davlat tizimini takomillashtirish va uni butunlay yangi shaklda barpo etish borasida qator ishlar amalga oshirildi.

35.3. Mahalliy davlat hokimiyatida tub o'zgarishlar yasalishi

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng boshqaruvning bu tizimida islohot o'tkazishni taqozo qilgan omil nimadan iborat edi? Avvalo shuni aytish kerakki, bu tizim o'z tarkibiga viloyat, tuman, shahar, shaharlar tarkibidagi tuman, shahar, qishloq, posyolka Kengashlarini oluvchi davlat muassasalari majmuyini tashkil etadi.

90-yillarning boshlariga kelganda bu muassasalar o'zlarining demokratik xususiyatlarini yo'qotgan edi. Mahalliy kengashlar o'ziga xos ravishda KPSS siyosatini hayotga tatbiq etish quroliga, aniqrog'i partiya tashkilotlari rahbarlik qiladigan bir muassasaga aylangan edi.

Bu – birinchidan.

Ikkinchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni «Mahalliy Kengashlar mustaqilligini kengaytirish, hududlar tizimida tub o'zgarishlar yasashni ham talab qila boshladi. Ma'lumki, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi sharoitida hududiy taraqqiyot ko'pincha markazlashtirilgan tarzda qayta taqsim qilinadigan davlat ajratmalari hisobiga amalga oshiriladi. Endilikda yangicha munosabatlarga o'tish jarayonida mahalliy hokimiyat organlari o'z hududining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga bevosita mas'ul qilib belgilanishi kerak edi. Shuning uchun ham O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin respublikada bir qator qonun va rasmiy hujjatlar qabul qilindi. Ular orasida Oliy Kengashning o'n birinchi sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi — Asosiy Qonuni, «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonun (1993, sentabr), «Fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish idoralari haqidagi Qonun (1993, sentabr), «Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlariga saylovlar to'g'risida»gi Qonun (1994, may) kabilar muhim o'rin egallaydi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 99-moddasida ta'kidlanganicha, viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek, shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar.

Konstitutsiyaning 100-moddasiga muvofiq esa mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga: «Qonuniylikni, huquqiy-tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash; hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish; mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'implarni belgilash; budjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish; mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish; atrof-muhitni muhofaza qilish; fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash; normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish» berilgan.

«Mahalliy hokimiyat organlari, — deyiladi 101-moddada, — O'zbekiston Respublikasining qonunlarini, Prezident farmonlarini, davlat hokimiyati yuqori organlarining qarorlarini amalga oshiradilar, xalq deputatlari quyi Kengashlari faoliyatiga rahbarlik qiladilar, respublika va mahalliy ahamiyatga molik masalalarni muhokama qilishda qatnashadilar. Yuqori organlarning o'zlariga berilgan vakolat doirasidagi qabul qilgan qarorlarni quyi organlar ijro etishi majburiydir. Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning vakolatlari muddati — 5-yil».

Ko'rinib turibdiki, xalq deputatlari mahalliy kengashlari davlat

hokimiyatining vakillik idorasi bo'lib, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga rahbarlik qiladilar. Xalq deputatlari mahalliy kengashlari hududlar bo'yicha tuziladi. Xalq deputatlari mahalliy kengashlari deputatlari saylovini o'tkazish tartibi «O'zbekiston Respublikasi xalq deputatlari mahalliy kengashlari deputatlari saylovi» haqidagi Qonun bilan belgilanadi. Xalq deputatlari mahalliy kengashlariga shaharlardagi tuman, shahar, tuman va viloyat kengashlari kiradi.

Yana shuni qayd qilish lozimki, mustaqillik yillarida mahalliy ijroiya hokimiyat tuzilishidagi muhim o'zgarish hokimlik institutining tashkil qilinishidir.

O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan Qonuniga muvofiq viloyat, tuman, shahar hokimi mahalliy hududning oliy mansabdor shaxsi sifatida tegishli hudud ijroiya hokimiyatini boshqaradigan bo'ldi. Joylarda hokimliklar joriy etildi. Respublikaning 12 viloyati va Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan va tegishli Xalq deputatlari kengashlari sessiyasida tasdiqlanadigan hokimlar boshchiligidagi hokimliklar tashkil qilindi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida xalq deputatlari tuman, shahar kengashlari va tegishli hokimlarning faoliyati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonun va Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunlari bilan tartibga solinadigan bo'lindi.

Shuningdek, 163 qishloq tumanlari, 18 shahar tumanlarida, 120 shaharlarda hokimlik idoralari tashkil qilindi.

Hokimlik oldingi Kengash raisligidan yoki birinchi kotiblikdan lavozim va huquqiy maqomi bilan ancha farq qiluvchi institutdir. Hokimlikda endi ko'proq mustaqillik, o'z hududida o'z hukmi va so'zining salmog'ini oshirish, xo'jalik va iqtisodiy boshqaruvda qat'iyat bilan ishlash imkoniyati kengaydi. Hokimlik usulining ixchamligi, buyruqbozlik va qog'ozbozlikning kamayishi, hayotga va ishlab chiqarishga yaqinligi bilan oldingi boshqaruv tizimi an'analari va usullaridan ancha afzalliklarga ega bo'ldi.

Shunday qilib, respublikada davlat hokimiyati barcha organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi qonunlar bazasi vujudga keldi. Ular markaziy, viloyat, shahar va rayonlar darajasidagi davlat hokimiyati va boshqaruv funksiyalarini aniq qilib belgilab berdi. Bu mustaqil milliy davlatchiligimizni ta'minlovchi muhim shartlardan biridir.

35.4. O‘z-o‘zini boshqarish organlarining yanada rivojlantirilishi

Ma‘lumki, mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organi – mahalla tarixi uzoq moziyga borib taqalsa-da, faqat mustaqillik davridagina uning ahamiyati va mohiyati yuksak qadrlana boshladi. Mahallalar, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari faoliyatiga mustaqillik berildi, ularning taraqqiyoti ta‘minlandi, kelajagi kafolatlandi.

O‘zbekistonda «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» siyosiy qurilish dasturining bosh yo‘nalishlaridan biri davlatning bir qancha vakolatlarini mahalliy hokimiyat organlariga, jamoat tuzilmalariga va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich topshirishdan iboratdir. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarishi ilk bor konstitutsiyaviy tuzumning asosi sifatida mustahkamlandi va ularni saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilandi. Birinchi marta konstitutsiya darajasida mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyat huquqiy jihatdan mustahkamlandi.

Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasi ma‘muriy-hududiy bo‘linishining eng quyi pog‘onasida davlat organlari o‘rniga fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari tashkil qilindi. Shuningdek, shaharlardagi mahalla va mavzelerde ham fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari tuzildi. Bu organlar zimmasiga avval davlat organlari amalga oshirib kelgan ko‘pgina vazifalar yuklatildi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarishi organlarini shakllantirishda, bu organlar faoliyatini tartibga solishda huquqiy asoslar o‘rnatildi. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining huquqiy asoslariga quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar kiradi:

- O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risidagi qonunlar;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va farmoyishlari;
- Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari;
- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining nizomlari;
- boshqa normativ-huquqiy hujjatlar.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga asosan davlat hokimiyati organlari bilan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari asosli ravishda ajratildi. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarishi organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish, ularning vazifasi, vakolatlari qonun bilan belgilab qo‘yildi. Keyinchalik bu konstitutsiyaviy prinsiplar yanada rivojlantirildi.

1993-yil 2-sentabrda «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari

to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Ushbu qonun bu organlar faoliyatiga bag'ishlangan ilk normativ-huquqiy hujjat bo'lib, unda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining vazifasi, vakolatlari, fuqarolar yig'ini va rais(oqsoqol)ning vakolatlari, ularning davlat hokimiyati organlari bilan munosabat asoslari belgilab berildi.

O'zbekistonda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tizimini shakllanishi va rivojlanishiga jiddiy e'tibor qaratib kelinmoqda. Xususan, 1999-yil 14-aprelda «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonunning yangi tahriri tasdiqlandi va bu yangi tahrirdagi qonunga ham qo'shimchalar kiritildi.

Mazkur qonunga kiritilgan muhim o'zgarishlardan biri – fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari maqomining yanada aniqlashtirilganidir. Qonunning 7-moddasi Konstitutsiyaning 105-moddasiga moslashtirildi va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tushunchasi quyidagicha aniqlashtirildi: «Shaharchalar, qishloqlar va ovullar, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardagi mahallalar fuqarolarining yig'inlari (bundan buyon fuqarolar yig'ini deb yuritimiz) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridir». 7-moddaning ikkinchi qismida «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi va qonun bilan berilgan o'z vakolatlari tegishli hududda amalga oshiradi», deb belgilandi.

Fuqarolar yig'ini o'zining organlariga ega bo'lib, ular tarkibiga fuqarolar yig'ini kengashi, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar, fuqarolar yig'ini taftish komissiyasi, shuningdek, ayrim hollarda ma'muriy komissiyalar kiradi.

Endilikda fuqarolar yig'ini fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi maqomiga ega bo'lib, fuqarolar yig'ini kengashi, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar, fuqarolar yig'ini taftish komissiyasi, shuningdek, ayrim hollarda ma'muriy komissiyalar fuqarolar yig'ini organlaridir¹.

Yangi tahrirdagi «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonunda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini tuzish hamda fuqarolar yig'ini raisining vakolatlari qayta ko'rib chiqildi va qator aniqliklar kiritildi. Jumladan, kichik korxonalar, xalq hunarmandchiligi sexlari, sartaroshxonalar, poyafzal ta'mirlash va tikish ustaxonalari va aholiga maishiy xizmat ko'rsatuvchi boshqa korxonalarni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish to'g'risidagi masalani hal qilish fuqarolar yig'ini kengashi ixtiyoriga berildi.

¹ Ilgari fuqarolar yig'ini kengashi va barcha komissiyalar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari deb yuritilardi.

Shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yig'ini va shahardagi mahalla fuqarolar yig'inining vakolatlari yanada kengaytirilib, ular qonun hujjatlari bilan berilgan istalgan masalani o'zi qarab chiqish uchun olish va hal etish huquqiga ega bo'ldilar.

Fuqarolar yig'ini kengashiga ilgari sudlangan, surunkali ichkilikbozlikka hamda maishiy turmush sohasida huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazish uchun faxriylardan, xotin-qizlar va yoshlar, madaniyat va din vakillaridan iborat komissiyalar tuzish vakolati berildi.

Shuningdek, fuqarolar yig'ini kengashiga fuqarolar uy-joyidan foydalanish xarajatlarini va kommunal xizmatlar uchun to'lovlarni bank muassasalari orqali hisob-kitob qilib, to'liq va o'z vaqtida to'lashlarini kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarini bilan birgalikda uyushtirishlari va nazorat qilishi, aholi uy-joy kommunal xizmat haqini to'liq to'lashini ta'minlaganligi uchun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga o'tkaziladigan mablag'larni belgilangan tartibda kam ta'minlangan oilalarga uy-joy kommunal xizmatlari hakini to'lashda yordam berishga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining xodimlarini rag'batlantirishga hamda obodonlashtirish ishlarini bajarishga ishlatish huquqi berildi.

Fuqarolar yig'ini raisi(oqsoqoli)ning vakolatlari ba'zi masalalarda yanada kengaytirildi va aniqliklar kiritildi. Jumladan, fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) o'z hududida jamoat tartibini ta'minlashni, shu jumladan fuqarolarning kelishi va ketishini hisobga olishni tashkil etishni, o'smirlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish ishida, voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ko'maklashishni tashkil etishi to'g'risidagi normalar kiritilgan.

Shuningdek, fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) zimmasiga tegishli hududda ro'yxatdan o'tmagan diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatishining, diniy qarashlarni majburiy singdirish hollarining oldini olishga doir ishlarning uyushtirilishi, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etish bilan bog'liq boshqa masalalarning hal etilishi to'g'risidagi vakolatlar yuklatilgan.

Ayni paytda fuqarolar yig'ini kengashida ham bu masalaga doir tegishli vakolatlar saqlab qolingan.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) tomonidan amalga oshiriladigan ayrim fuqarolik holati dalolatnomalarining ro'yxatga olinishi, notarial harakatlarning amalga oshirilishi to'g'risidagi normalar takomillashtirilgan.

«Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonunga asosan (17-modda) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida qonun hujjatlariga

muvofig fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish ishlari bo'yicha respublika kengashi, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar muvofiqlashtirish kengashlari tuzildi.

Qonunning 17-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Oqsoqollar Kengashi tashkil etildi. 1999-yil 6-noyabrda O'zbekiston Oqsoqollar Kengashining ta'sis qurultoyida uning Nizomi tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Oqsoqollar Kengashi fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari – mahallalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi, ularning huquqi, istak va ehtiyojlarini himoya qiluvchi, O'zbekiston Respublikasi hududida jamoatchilik birlashmasi shaklida faoliyat ko'rsatuvchi, mustaqil, o'zini o'zi boshqaruvchi, yuridik shaxs maqomiga, banklarda o'z hisob raqamiga, muhriga, tamg'asiga, ramziy belgilariga, o'z mulki va mustaqil balansiga ega bo'lgan nodavlat notijorat tashkiloti hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oqsoqollar Kengashining asosiy faoliyat yo'nalishi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini har tomonlama muvofiqlashtirish va bu sohada Oqsoqollar Kengashi va Respublika «Mahalla» jamg'armasining faoliyat birligini ta'minlash, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining huquq va vakolatlarini zamon talablariga moslashtirib borish, ushbu organlarning jamiyatdagi tutgan o'rni, roli va ahamiyatini kuchaytirish, ularning rivojlanish dasturlari va mexanizmlarini yaratishga uslubiy yordamlashish va bu sohalarda davlat hamda vakillik organlari, xorijiy tashkilotlar, boshqa korxonalar, Respublika jamoatchilik tashkilotlari bilan hamkorlik qilishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida «Shaharda, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda fuqarolar yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) saylaydi», deb belgilab qo'yilgan.

«Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonunning 7-moddasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tarkibiga kirmaydi, deb belgilandi.

Ushbu norma bu organlar faoliyatida tub burilish yasab, endilikda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'z faoliyatini amalga oshirishda mustaqildirlar.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining asosiy vazifasi fuqarolarni mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilishda mustaqil ravishda faoliyat ko'rishni ta'minlashdir.

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarishiga doir o'z konstitutsiyaviy huquqlarini fuqarolar yig'inlari (vakillar yig'ilishi) orqali amalga oshiradilar.

Shaharchalar, qishloqlar va ovullar, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardagi mahallalar fuqarolarning yig'inlari fuqarolarining o'zini o'zi boshqarish organlaridir.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yuridik shaxs huquqlaridan foydalanadi, belgilangan namunadagi muhrga ega bo'ladi va mahalliy davlat hokimiyati organlarida ro'yxatga olinadi.

«Mahalla» xayriya jamg'armasining 2005-yil yanvarigacha bo'lgan ma'lumoti bo'yicha, hozirda O'zbekiston Respublikasida jami 9944 fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lsa, shulardan 6855 tasi yuridik shaxs maqomiga ega.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi – fuqarolar yig'ini aholi manfaatlarini ifodalash, uning nomidan tegishli hududda amal qiladigan qarorlar qabul qilish huquqiga ega. Respublikadagi jami fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan 114 tasi shaharchalarda, 1339 tasi qishloqlarda, 131 tasi ovullarda, 2219 tasi shaharlarda faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu organlar raislaridan 6289 nafari mehnat haqi bilan ta'minlangan.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga saylov ijtimoiy-siyosiy hayotni, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish hamda olib borilayotgan demokratik islohotlarda fuqarolarning ijtimoiy-huquqiy faolligini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish yo'lida muhim bosqichdir.

2004-yil 29-aprelda «Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Mazkur qonun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tizimida saylovlarni haqiqiy demokratik asosda erkin bo'lishini ta'minlash, fuqarolarning saylash va saylanish huquqini yanada aniq qilib belgilab qo'yish, fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilarini saylashni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.

Shunday qilib, O'zbekistonda shakllanayotgan demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati asoslaridan bo'lgan davlat organlarining ayrim vakolatlari fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga o'tkazish orqali bu organlarni tashkil etilishi, takomillashuvi, huquqiy maqomi va vazifalarining konstitutsiyaviy-huquqiy asosi yaratildi.

Keyingi jarayonlarda davlat boshqaruvini takomillashtirish, amalga oshirilayotgan islohotlardan kutilgan maqsadlarga erishish davlat hokimiyati va boshqaruvi, xususan mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tizimining mavqeyini bundan ham mustahkamlash, ularning tashkiliy-huquqiy faoliyatini muntazam takomillashtirib borishni taqozo qiladi.

O'zbekistonda fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlarini takomillashtirish kundalik hayotimizda demokratiyani chuqurlashtiradi,

davlat rolini asta-sekinlik bilan mahalliy organlar zimmasiga yuklaydi. Bu hozirgi zamon jahon ilg'or tajribalariga mos keladi va dunyoviy davlat tamoyillarini boyitadi.

2006-yilning may-iyun oylarida bo'lib o'tgan fuqarolar yig'inlariga saylovlar to'la-to'kis muqobillik asosida o'tkazilib, bunda har bir yig'inda 3-4 tadan nomzodlar ovoza qo'yildi.

Umuman, fuqarolar yig'inlari saylovi kompaniyasi yakunlarini tahlil qilib aytish mumkinki, yig'inlar raislari va maslahatchilarining bo'lib o'tgan saylovi, shuningdek, kelgusi davrga mo'ljallangan faoliyat dasturlari keng muhokama etilib qabul qilinganligi jamiyatimizni demokratiyalashtirish yo'lida muhim qadam, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish shaklini qaror topdirishi va mustahkamlashning navbatdagi bosqichi bo'lib qoldi.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

1. *O'zbekistonda qonun chiqaruvchi hokimiyatning shakllanishi haqida gapirib bering.*
2. *Oliy Majlis faoliyatining mazmun-mohiyati nimalardan iborat?*
3. *Milliy davlat tizimi barpo qilinishi haqida gapirib bering.*
4. *Boshqaruvda yangi usullarning qaror toptirilishi haqida gapirib bering.*
5. *Mahalliy davlat hokimiyatidagi tub o'zgarishlar haqida gapirib bering.*
6. *O'z-o'zini boshqarish organlari qanday yo'l bilan yanada rivojlantirildi?*
7. *Fuqarolar yig'ini raisining vazifalari va vakolatlari nimalardan iborat ekanligi haqida gapirib bering.*

36-MAVZU: O'ZBEKISTONNING MILLIY-HUQUQIY TIZIMI

1. Davlat organlari tuzilmasining takomillashtirilishi.
2. Inson huquqlari to'g'risidagi qonunlar.
3. Bozor iqtisodiyotini amalga oshirish.
4. Ijtimoiy va ma'naviy hayotning huquqiy kafolatlari.
5. Tashqi siyosat sohasidagi qonunlar.

36.1. Davlat organlari tuzilmasining takomillashtirilishi

O'zbekistonda boshqaruv tizimi tubdan isloh qilindi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishni ta'minlovchi, bozor munosabatlarining faoliyati uchun imkon beruvchi yangi boshqaruv tizimi yaratildi.

Markazlashtirilgan tartibda qayta taqsimlash mexanizmidan bozor

mexanizmiga, qattiq mahkamachilik va ma'muriy-buyruqbozlikdan huquqiy boshqaruvga, iqtisodiy omillar orqali o'zini-o'zi idora etishga o'tildi.

Ma'muriy-buyruqbozlik tizimining o'zagini tashkil etgan Davlat reja qo'mitasi, Davlat ta'minot qo'mitasi, Davlat narxlar qo'mitasi, Davlat agrosanoat qo'mitasi va boshqa qo'mitalar, vazirliklar, ularning ma'muriy apparatlari tugatildi.

Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi tuzildi. Bu vazirlik iqtisodiyotni isloh qilish qoidalari va ustuvorliklari, ularni amalga oshirish mexanizmlari asosida islohotlarni tahlil etish, baho berish, takliflar ishlab chiqish, O'zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish istiqbollarini belgilash bilan shug'ullanmoqda.

Respublika ulgurji va birja savdosi aksiyadorlik uyushmasi tuzildi. Uyushma tarkibiga respublika aksiyadorlik tovar-xom ashyo birjasi, aksiyadorlik birja banki, hududiy aksiyadorlik tijoratchi-vositachi kompaniyalari kiradi. Uyushma tovar ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar va tadbirkorlar uchun tovar resurslari bozorida erkin ishtirok etishga teng imkoniyatlar yaratish, ularga tijorat-vositachilik, savdo va marketing xizmati ko'rsatish ishlarini tashkil etmoqda.

Respublikada moliya va bank tizimi tubdan o'zgardi. Moliya vazirligi respublika budjetini shakllantirish bilan bir qatorda, davlat soliq siyosatini, moliya siyosatini belgilamoqda, valuta ishlarini boshqarmoqda. Bank tizimi isloh etildi. Hagarigi Davlat banki va uning bo'linmalari tugatildi, Markaziy bank, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, Sanoat-qurilish banki, Paxtabank, O'zjamg'armabank, ixtisoslashtirilgan aksiyadorlik-tijorat banklari – «G'allabank», «Tadbirkorbank», «Savdogarbank», xususiy banklar va boshqa banklar tuzildi. Banklarning mustaqilligi va pul muomalasidagi ahvol uchun javobgarligi oshirildi.

Davlat nazorati tizimi tartibga solindi. Davlat soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi tuzildi. Davlat nazorati qo'mitasi, uning joylardagi organlari tugatildi. Prezident devonida nazorat inspeksiyasi, hokimiyatlarda tegishli nazorat inspeksiyalari tuzildi.

Islohotlarni chuqurlashtirish va muvofiqlashtirish maqsadida Prezident huzurida Iqtisodiy islohot, tadbirkorlik va chet el investitsiyalari bo'yicha Idoralararo Kengash tuzildi. Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi tashkil etildi. Bu qo'mita mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish dasturlarini ishlab chiqishda, ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirishda muhim tadbirlarni amalga oshirdi. Qo'mita investitsiya fondlari, fond birjalari, ko'chmas mulk birjalari, auditorlik xizmatlari va boshqa bozor strukturasi tizimlarini tashkil etdi.

O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan aloqasini yo'lga qo'yish

maqsadida respublika tarixida birinchi marta Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tuzildi. Respublikada tashqi aloqalarni ta'minlaydigan yaxlit tizim tarkib topdi. Tashqi iqtisodiy faoliyat erkinlashtirildi.

O'zbekistonning ishlab chiqarish, transport bo'yicha tarmoq vazirliklari tugatilib, ular o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlaydigan uyushmalar, konsernlar, korporatsiyalar va boshqa xo'jalik birlashmalariga aylantirildi. Avtomobil transportida, qurilishda boshqaruv tizimi qayta tuzildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim, Xalq ta'limi, Sog'liqni saqlash, Madaniyat ishlari vazirliklarining tuzilishi, faoliyat va ish yuritish uslublari tubdan o'zgartirildi.

Umummilliy ahamiyatga molik tarmoqlarda, sayohatchilik, transport, madaniyat, kino, televideniye va radio tizimi hamda boshqalarda iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lgan milliy kompaniyalar tashkil etildi.

Shunday qilib, mustaqillik qo'lga kiritilgandan beri o'tgan davrda huquqiy davlat, uning zamonaviy hokimiyat organlari barpo etildi, izchil, ochiq va tadrijiy rivojlanishga ega bo'lgan ijtimoiy-siyosiy tizim yaratildi.

36.2. Inson huquqlari to'g'risidagi qonunlar

O'zbekistonda inson huquqlari to'g'risidagi qonunlar haqida gapirganda, avvalo O'zbekiston Respublikasining Asosiy qonuni – Konstitutsiyaning bu masalada tutgan o'rniga ahamiyat berish lozim.

Konstitutsiyamizning bosh yo'nalishi – insonni va uning hayotini ulug'lashdir. Asosiy Qonunimizning 13-moddasida «O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplariga asoslanadi, ularga ko'ra inson va uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng inson huquqlari bo'yicha rivojlangan demokratik mamlakatlar qo'llayotgan tamoyillarga sodiqligini namoyish etib kelmoqda.

Respublikada mustaqillik yillarida inson huquqi va erkinliklariga doir bir qator xalqaro hujjatlar tan olindi va ular xalq orasida targ'ib qilina boshlandi. «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi», «Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro Pakt», «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro Pakt va fakultativ Bayonnoma» shular jumlasidandir. Ular hozirgi zamon jahon davlatchiligini va jamiyatni demokratlashtirish jarayonida inson huquqlarini mustahkamlashning asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Ayni choqda O'zbekiston inson huquqlariga oid 30 dan ortiq asosiy pakt va Konvensiyaga qo'shilgan.

Mamlakatda inson huquqlari bo'yicha Komissiya faoliyat

ko‘rsatmoqda. 1995-yil 23-fevralda Oliy Majlisning birinchi sessiyasida Oliy Majlisning inson huquqlari bo‘yicha vakili saylandi.

1995-yil 30-avgustida qabul qilingan «Fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzuvchi harakat va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to‘g‘risida»gi qonun ham inson huquq va erkinliklari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini mukammallashtirishda muhim ahamiyatga egadir.

Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq davlat inson huquqlarini muhofaza etishga alohida e‘tibor berganligi bejiz emas. Binobarin, ushbu tushuncha rivojlangan demokratik davlatlarda oliy qadriyat sifatida e‘tirof qilib kelinmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlisning 1996-yil 28-avgustida bo‘lib o‘tgan sessiyasida shu masalaga alohida to‘xtalib, «navbatdagi muhim masala respublikaning qonun hujjatlarini inson huquqlari sohasidagi xalqaro me‘yorlar va standartlarga muvofiq holga keltirishdir.

Jahonda inson huquqlari sohasida 70 standart qabul qilingan. Bu hujjatlarda hukumatning o‘z fuqarolari oldidagi majburiyatlari va ularga nisbatan qilishi shart bo‘lmagan ishlar belgilab berilgan. O‘zbekiston hozirda bu standartlardan 15 tasiga qo‘shilgan.

Oliy Majlisning shu yo‘nalishda faol ish olib borishi talab etilmoqda», — deb ko‘rsatdi.

1996-yil oktabr oyida «Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy Markazini tuzish to‘g‘risida» qabul qilingan Farmon ana shu yo‘lda qo‘yilgan yana bir muhim qadam bo‘ldi. Ushbu Farmon inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishning ta‘sirchan vositasini barpo etishga, respublika fuqarolarida huquqiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Huquqiy madaniyatning yuqori darajada bo‘lishi esa huquqiy demokratik davlatning noyob xususiyatidir.

Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy Markazining maqsadi va vazifalari ushbu farmonda aniq belgilangan. Jumladan, milliy harakat rejasini, shuningdek, Konstitutsiya, qonunlar va inson huquqlari sohasidagi umume‘tirof etilgan xalqaro huquq me‘yorlari qoidalarini amalga oshirish strategiyasini ishlab chiqish; inson huquqlari sohasida O‘zbekiston Respublikasining xalqaro va milliy tashkilotlar bilan hamkorligini rivojlantirish ana shunday vazifalarning muhimidir.

Inson huquqlari va erkinliklarini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar orasida 1997-yil aprelda «Oliy Majlisning inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qabul qilinishi alohida ahamiyatga ega.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, mazkur institut sobiq ittifoq tarkibidan ajralib chiqqan mamlakatlarning ko‘pchiligida, xususan,

Markaziy Osiyo davlatlarida inson huquqlarini himoya qilishning bunday dunyoviy shakli mavjud emas. Mazkur sohada O‘zbekiston o‘z «ittifoqdosh»laridan ancha ilgari ketdi, desak xato bo‘lmaydi. Ushbu qonunda aytilganidek, «Oliy Majlisning inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) mansabdor shaxslar, tashkilotlar va davlat organlarining inson huquqi, erki va qonuniy manfaatlarini davlat tomonidan himoya qilinishini ta‘minlashga ko‘maklashish maqsadida faoliyat ko‘rsatadi».

36.3. Bozor iqtisodiyotini amalga oshirish

O‘zbekistonda bozor munosabatlariga o‘tishning o‘z yo‘li ishlab chiqildi. Bu yo‘lning asosiy qoidalari I. Karimovning «O‘zbekiston – bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li» nomli asarida, respublika parlamentida qilgan ma‘ruza va nutqlarida, parlament qabul qilgan qonunlarda bayon etib berildi.

Bu yo‘lga, birinchidan, xalqaro tajriba asos qilib olingan.

Ikkinchidan, xo‘jalik imkoniyatlari, shart-sharoitlari, yakkahokimlik tizimidan qolgan muammolar hisobga olindi. Umri tugagan mustamlakachilik tuzumidan yakkahokimlik illatlari, ma‘muriy-buyruqbozlik uslubi, direktiv rejalashtirish, «qayta qurish» davrida batamom barbod bo‘lgan iqtisodiyot, izdan chiqqan moliyaviy, narx-navo tizimi, o‘g‘irlik, qotillik avj olgan ijtimoiy muhit meros bo‘lib qolgan edi. Iqtisodiyot nochor ahvolda edi. O‘zbekiston Markazning xom ashyo bazasi, ya‘ni arzon xom ashyo va strategik mineral resurslar yetkazib beruvchi o‘lkaga aylanib qolgan edi. Xo‘jalik tarmoqlarining aksariyati xom ashyoni dastlabki qayta ishlash va yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bilan to‘xtab qolar edi. Qishloq xo‘jaligida paxta yakkahokimligi orqasida respublika oziq-ovqat mahsulotlari bo‘yicha Markazga qaram edi. Aholi turmush darajasi past edi. Agar 1990-yilda Rossiya va Ukrainada aholi 30 foizining daromadi tirikchilik o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan eng quyi darajadan ham kam bo‘lgan bo‘lsa, O‘zbekistonda aholining 70 foizi shunday ahvolda yashardi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish ana shunday vaziyat bilan bog‘langan edi.

Uchinchidan, bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘lini belgilashda mamlakatimizning tarixan tarkib topgan milliy qadriyatlari, xususiyatlari, an‘analari va manfaatlarini hisobga olindi.

O‘zbekistonning bozor munosabatlariga o‘tish yo‘li Prezident I. Karimov asoslab bergan besh tamoyil sifatida nafaqat respublikamizda, shuningdek, jahon jamoatchiligi tomonidan ham ma‘qullandi.

Birinchisi. Qator mamlakatlarning achchiq tajribasi ko‘rsatadiki, iqtisodiyot siyosiy manfaatlarga bo‘ysundirilganda u barbod bo‘ladi. Iqtisodiyot o‘ziga xos bo‘lgan ichki qonunlar asosida rivojlanmog‘i zarur.

Iqtisodiyot, deb ta'kidlaydi I. Karimov, siyosatga nisbatan ustuvor mavqeda bo'lishi lozim. Na siyosat, na mafkura iqtisodiyotni nazorat qilish, unga tazyiq o'tkazmasligi zarur. Ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlarni mafkuradan xoli qilish zarur.

Ikkinchisi. Jahon tajribasi iqtisodiyotni davlat yo'li bilan tartibga solib turish zarurligini ko'rsatadi. Aks holda iqtisodiyot chuqur larzalarga, bo'hronlarga mahkum bo'ladi. «Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlat bosh islohotchi bo'lishi, iqtisodiyot va ijtimoiy turmushning hamma sohalarini o'zgartirish rejalarini tuzib, uni izchillik bilan amalga oshirishi zarur», deb ta'kidlaydi I. Karimov. Milliy iqtisodiyotni shakllantirish, mustaqillikni iqtisodiy jihatdan ta'minlash, uni himoya qilish, jahon xo'jaligi bilan integratsiyaga erishish, xalq manfaatini yuzaga chiqarishda davlat asosiy rol o'ynaydi.

Xo'jalikning bazaviy tarmoqlari – suv xo'jaligi, temir yo'l, avtomobil va havo yo'llari, mudofaa sanoati davlat ixtiyorida bo'lib, ularni boshqarish davlatning muhim vazifasidir.

Uchinchisi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishda qonunlarga rioya etish ustuvor bo'lishi lozim. Negaki, bozor iqtisodiyoti qonunchilikka tayanadi. Uning qoidalari, mezonlari ming yillar davomida yaratilgan. Bozor iqtisodiyoti huquqiy normalar va qoidalarga tayanishi bilan ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan farq qiladi. Yaxlit bozor tizimini yaratish uchun uning turli tomonlariga oid qonunlar yaratilishi hamda ularga rioya qilinishi shart.

Qonun ustuvorligi huquqiy davlat barpo etish zaruriyatidan kelib chiqadi. Qonun oldida hamma barobardir. Barcha ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlar faqat qonun bilan tartibga solinadi, uning barcha qatnashchilari esa huquq normalarini buzganligi uchun javobgardirlar. Huquqiy davlatning mohiyati ma'lum qonunlar tizimi borligi bilan emas, balki ommaning shu qonunlarni bilishi, o'z faoliyatida ularga asoslanishi bilan belgilanadi.

To'rtinchisi. Aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazish. Buning aksariyati iqtisodiy ahvol bilan bog'liq. Birinchidan, O'zbekistonda aholining deyarli to'rt dan uch qismi sho'rolar hokimiyati davrida ham o'zlarining minimal ehtiyojlarini qondirishga qodir bo'lmay, davlat madadiga muhtoj edi. Ikkinchidan, aholi tarkibida davlat va jamiyat o'z himoyasiga olishi zarur bo'lgan bolalar, o'smirlar, qariyalar ko'pchilikni tashkil etadi. Uchinchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida dastlab aholi ijtimoiy jihatdan tabaqalanadi va hlmoyaga muhtojlar qatlami kengayadi. Shu boisdan iqtisodiy islohotlar jarayonida odamlarni, birinchi navbatda himoyaga muhtoj qatlamni oldindan kuchli darajada ijtimoiy himoyalash choralari ko'rish zarurligi inobatga olindi.

Beshinchisi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish puxta o'ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim. Buning sababi shundaki, bozor iqtisodiyoti murakkab tizim bo'lib, uni birdaniga yaratib bo'lmaydi. Aholining mustamlakachi va totalitar tuzumdan qolgan qarashlari va ko'nikmalari bor, ularni birdaniga bozor iqtisodiyotiga moslab o'zgartirib bo'lmaydi. Gap shundaki, sobiq tuzum psixologiyasidan bozor psixologiyasiga o'tish muayyan vaqt hamda yangi iqtisodiy, ma'naviy imkoniyatlar va sharoitlar bilan bog'liq. Bular bosqichma-bosqich yaratiladi. Bu tamoyil bizga meros bo'lib qolgan barcha ilg'or jihatlariga avaylab munosabatda bo'lishni, ya'ni «Yangi uy qurmay turib, eskisini buzma» degan hikmatga rioya etishni taqozo etadi.

O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish uchun iqtisodiyotni tubdan isloh qilishga kirishildi. Avvalo, iqtisodiy islohotlarning quyidagi strategik maqsadlari belgilab olindi: kishilar hayoti va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydigan iqtisodiy tizimni barpo etish; ko'p ukladli iqtisodiyotni yaratish va mulkdorlar tabaqasini shakllantirish, xususiy mulkning davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlash, korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinliklar berish, iqtisodiyotda chuqur strukturaviy o'zgarishlar qilish, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish, jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilib borish; kishilarda yangicha iqtisodiy fikrlashni shakllantirish. Bunday strategik maqsadlarga bosqichma-bosqich erishiladi.

Islohotning birinchi bosqichida bozor munosabatlarining huquqiy paydevori yaratildi. Islohotlar jarayonini huquqiy jihatdan boshqarishning yaxlit tizimi tarkib topdi. Bu tizim hokimiyatning hamma tarmoqlarini — qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatlarini o'zida uzviy qovushtiradi. Iqtisodiy sohaga tegishli bo'lgan 100 ga yaqin qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlarni beshta yo'nalishga bo'lish mumkin.

1. O'zbekistonning davlat mustaqilligi, iqtisodiy mustaqilligining huquqiy negizlarini yaratish, davlatni boshqaruv qoidalarini tartibga soluvchi qonunlar. Ana shu yo'nalishda «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida», «Yer osti boyliklari to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida», «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida», «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida» va boshqa qonunlar qabul qilindi.

2. Mulkchilik munosabatlari va ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantiruvchi qonunlar. Bu yo'nalish doirasida mulkchilik, yer to'g'risida, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, ijara, davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risida va boshqa qonunlar qabul qilindi.

3. Xo'jalik yuritishni tartibga soluvchi qonunlar, ya'ni korxonalar, kooperatsiya, dehqon xo'jaligi, xo'jalik uyushmalari va shirkatlari

to'g'risida qonunlar qabul qilindi. Bular yangi xo'jalik mexanizmining asosiy qoidalarini belgilab berdi. Bozor infrastrukturasi yaratuvchi va uning faoliyatini tartibga solib turuvchi, banklar va bank faoliyati to'g'risida, pul tizimi, tadbirkorlik, sug'urta, birjalar va birja faoliyati to'g'risida qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida va boshqa qonunlar qabul qilindi. Korxonalar bilan davlat o'rtasidagi, korxonalar o'rtasidagi munosabatlarni yo'lga qo'yuvchi, soliq tizimi, monopolistik faoliyatni cheklash, korxonalarining bankrot bo'lishi haqida qonunlar qabul qilindi, xo'jalik protsessual kodeksi ishlab chiqildi, xo'jalik sudi tuzildi.

4. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatini belgilab beruvchi huquqiy normalar yaratildi. Tashqi iqtisodiy faoliyat, O'zbekiston Respublikasining yetakchi xalqaro tashkilotlarga a'zoligi, valutani tartibga solish to'g'risida qabul qilingan qonunlar, xalqaro pakt va bitimlar, ularning O'zbekiston tomonidan imzolinishi mamlakatimiz tashqi aloqalari bobida yangi sahifa ochdi.

5. Inson huquqlari va ijtimoiy kafolatni ta'minlovchi hujjatlar, jumladan, ish bilan bandlik, nogironlarni ijtimoiy himoyalash, fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti asoslari, ta'lim to'g'risida, yoshlarga doir davlat siyosati asoslari to'g'risida, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida qonunlar qabul qilindi.

Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi — Asosiy Qonunning qabul qilinganligi birinchi bosqichdagi qonun chiqarish faoliyatining gultoji bo'ldi. Bu qonunlar o'z umrini yashab bo'lgan eski mustamlakachilik va qaramlikka asoslangan iqtisodiy munosabatlarni va siyosiy tizimni huquqiy yo'l bilan yangi iqtisodiy munosabatlarni va siyosiy tizim bilan almashtirdi.

Islohotlarning birinchi bosqichida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish, ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish borasida katta tadbirlar amalga oshirildi. Mulknii davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish to'g'risidagi Qonunga muvofiq davlat mulkni yangi mulkdorga sotish masalalari bo'yicha 20 dan ortiq maxsus dasturlar yaratildi va amalga oshiriddi. Xususiyashtirish jarayoni umumiy uy-joy fondini, savdo, mahalliy sanoat, xizmat ko'rsatish korxonalarini, qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlash tizimini davlat tasarrufidan chiqarishdan boshlandi. Bu «kichik xususiyashtirish» deb nom oldi. Keyinroq yengil va mahalliy sanoat, transport va qurilish tarmoqlariga qarashli ko'pgina o'rta va yirik korxonalar ijara, jamoa korxonalariga, aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi.

1994-yil 21-yanvarda qabul qilingan iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida va 1994-yil 16-martdagi mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish jarayomini

yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risidagi farmonlar xususiylashtirish jarayoniga yangi turtki bo‘ldi. Korxonalar ochiq turdagi jamiyatlarga aylantirila boshlandi, bu jarayonga aholi va chet ellik investorlar kengroq jalb qilindi. Davlat mulkini sotish bo‘yicha ham kimoshdi savdolari va tanlovlar tashkil etildi.

Kichik xususiylashtirish 1994–yildayoq tugallandi. Davlat ixtiyorida bo‘lgan bir milliondan ortiq kvartira yoki davlat uy-joy fondining 95 foizidan ortiqrog‘i fuqarolarning xususiy mulki bo‘lib qoldi. Bunda har 3 kvartiraning bittasi egalarga imtiyozli shartlar bilan yoki bepul berildi. Urush faxriylari, o‘qituvchilar, tibbiyot xodimlari, ilmiy xodimlar va ijodiy ziyolilar kvartiralarning bepul egalari bo‘lishdi. Davlat mulkini xususiylashtirish boshlangandan to‘ 1994–yil oxirigacha 54 mingga yaqin korxonalar davlat tasarrufidan chiqarildi. Shularning 18,4 mingtasi xususiy mulkka o‘tdi, 26,1 mingtasi aksiyadorlik, 8,7 mingtasi jamoa, 661 tasi ijara korxonalariga aylandi. Har uch korxonaning ikkitasi mulkchilikning davlatga qarashli bo‘lmagan shakliga ega bo‘ldi.

1995–1998–yillarda xususiy va kichik korxonalar soni ikki baravar ko‘paydi, 1997–yilda ularning soni 100 mingdan oshib ketdi. 1994–yilda mamlakat yalpi ichki mahsulotining deyarli yarmi iqtisodiyotning nodavlat sektorida ishlab chiqildi, bu sektorda 4 millionga yaqin kishi ish bilan band bo‘ldi. 1998–yil yakunlariga ko‘ra yalpi ichki mahsulotning 67,7 foizi, tovar aylanmasining 91 foizi iqtisodiyotning nodavlat sektoriga to‘g‘ri keldi. Bu ko‘rilgan tadbirlar ijobiy natijalar bera boshladi. O‘zbekistonda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 1997–yilda 1990–yilga nisbatan 12,7 foizga ortdi. O‘zbekiston mahsulotlari dunyoning 78 mamlakatiga eksport qilinmoqda. 1997–yilda avtomobillar eksporti 7,4 marta, kimyoviy shtapel tola eksporti — 6,8 marta, kiyim-kechak eksporti — 68 foizga oshdi. 1997–yilda tashqi savdo oboroti qariyb 9 milliard AQSh dollariga teng bo‘ldi. Respublikada nodavlat sektorni, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash uchun tadbirkorlikni rivojlantirish, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishga ko‘maklashish fondlari tuzildi.

Qishloqda dehqon (fermer) xo‘jaligini shakllantirishga alohida e‘tibor berildi. 1999–yilda dehqon (fermer) xo‘jaliklarining soni 23 mingdan oshib ketdi, ularning 10 mingdan ortiqrog‘i chorvachilikka ixtisoslashdi. Fermer xo‘jaliklari don, kartoshka, sabzavot–poliz mahsulotlari, go‘sht, sut, tuxum yetishtirishda tobora salmoqli o‘rinni egallamoqda.

Islotlarning birinchi bosqichida narxlar islohoti o‘tkazildi va narxlarni erkinlashtirishda jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi.

Bozor infratuzilmasi – moliya, bank–kredit tizimini, sug‘urta, auditorlik, yuridik firmalarini, birja tizimini yaratish bo‘yicha zarur tadbirlar amalga oshirildi. Bu sohadagi dastlabki qadam – mahsulot yetkazib berishga majburiy davlat buyurtmasining tugatilishi bo‘ldi.

Davlat buyurtmasi tugatilgach, tovar resurslarini markazlashgan tartibda taqsimlashga mutasaddi ta'minot tashkilotlari ham tugatildi. Ularning o'rniga tovarlar bozorini shakllantiruvchi birjalar tizimi tashkil etildi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ishsizlik asosiy muammolardan biriga aylandi, ishsizlar toifasi kengaydi. Bunday sharoitda ishsizlar sonining ko'payishiga yo'l qo'ymaslik tadbirlari ko'rildi. Respublika bo'yicha 225 dan ortiq mehnat birjasini o'z ichiga oluvchi katta tarmoq barpo etildi. Har bir tumanda mehnat birjasi tashkil etildi. Ishsizlarni ro'yxatga olish, ularning kasbini o'zgartirish mexanizmi yaratildi, ishsizlik bo'yicha nafaqa to'lash yo'lga qo'yildi.

Yangi ish o'rinlarini tashkil etishga e'tibor berildi. 1994-yilda Respublikada 205 ming yangi ish o'rinlari tashkil etilgan bo'lsa, 1997-yilda bu ko'rsatkich 391 mingni tashkil etdi.

Iqtisodiy islohotlarning eng muhim yutug'i mamlakatda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, fuqarolar o'rtasida tinchlik va miltatlararo totuvlikning ta'minlangani bo'ldi.

36.4. Ijtimoiy va ma'naviy hayotning huquqiy kafolatlari

O'zbekistonda islohotlar boshlangan dastlabki paytdayoq, uning asl maqsadi insonga munosib turmush sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat deb belgilangan edi.

Islohotlarning birinchi bosqichida aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimida uch yo'nalish yaqqol namoyon bo'ldi. Birinchisi, narxlarning erkinlashtirilishi va pulning qadsizlanishi darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasi muntazam oshirib borildi. Bu sohada 1993-yil yanvarda joriy etilgan yagona tarif jadvali katta ahamiyatga ega bo'ldi. U barcha xodimlarning mehnat haqi miqdorini tarif koeffitsiyentlari orqali, eng kam ish haqi vositasi bilan bevosita o'zaro bog'lash imkonini berdi. Eng kam ish haqini oshirish yo'li bilan aholining o'rtacha ish haqi, pul daromadlari ham o'z-o'zidan ko'tarila bordi.

Ikkinchisi, respublikaning ichki iste'mol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat mahsulotlari asosiy turlari iste'molini muayyan darajada saqlab turish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar aholini ijtimoiy himoyalab turdi. 1992–1994-yillarda non va un mahsulotlari, go'sht va go'sht mahsulotlari, sut, qand-shakar, o'simlik moyi, sovun, bolalarga kerakli mollar, kommunal va transport xizmatlari uchun davlat dotatsiyalarining saqlanib turilganligi aholiga ijtimoiy jihatdan katta yordam bo'ldi.

Uchinchidan, aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy

qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari ko‘rildi. Bular jumlasiga nafaqaxo‘rlar, nogironlar, ko‘p bolali va kam daromadli oilalar, ishsizlar, o‘quvchi yoshlar kirar edi. Aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlari budjet imkoniyatiga bog‘liq ravishda o‘tkazildi.

1994-yilda aholini ijtimoiy himoyalash tizimi takomillashtirildi. Negaki, ilgari faqat respublika budjeti yo‘li bilangina 30 ta soha va yo‘nalishlar bo‘ylab ijtimoiy himoya amalga oshirilardi. Bu esa mablag‘larning sochilib ketishiga olib keldi.

1994-yilda ijtimoiy himoyaning asossiz tenglashtirish tizimidan aniq maqsadli va aholining barcha tabaqalarini qamrab oladigan tizimga o‘tildi. Mahalla orqali bolalar va kam daromadli oilalarga moddiy yordam beriladigan bo‘ldi. 1995-yilda 500 mingga yaqin ehtiyojmand oilalarga mahalla qo‘mitalari orqali 6 milliard so‘m nafaqa berildi. Tajriba bu tizimning hayotiyliigi, to‘g‘riligini tasdiqladi. 1997-yil yanvaridan boshlab bolali oilalarga ko‘rsatiladigan yordam ham mahalla orqali beriladigan bo‘ldi.

Mustaqillik sharofati bilan xalqimiz kommunistik ma‘naviyat zug‘umlaridan ozod bo‘ldi, erkin fikr, milliy tafakkur, milliy tiklanishga keng yo‘l ochildi. Milliy tiklanish o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi, buning uchun xalq dunyoqarashini milliy istiqlol ruhida shakllantirish zarur. Bu, avvalo, ko‘p jihatdan ma‘naviyatga bog‘liq. Shu boisdan mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz ma‘naviy merosini tiklash ishlari boshlanib ketdi. Xo‘sh, ma‘naviy meros nima, uning tiklanishi nimalarda namoyon bo‘lmoqda?

Ma‘naviy meros qadimiy zamonlardan beri ajdodlarimiz, otabobolarimizdan bizgacha yetib kelgan ma‘naviy boyliklar – siyosiy, falsafiy, huquqiy va diniy qarashlar, axloq-odob me‘yorlari, ilm-fan yutuqlari, tarixiy, badliiy va san‘at asarlari majmuyidir. Ma‘naviy qadriyatlar, boyliklar jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida uning ehtiyojlari tufayli yuzaga keladi va o‘sha davr hayotini aks ettiradi. U jamiyat o‘zgarishi bilan yo‘qolib ketmaydi, keyingi avlodlar uchun ma‘naviy meros bo‘lib qoladi.

Mustaqillik yillarida Vatanimiz tarixini yoritish va o‘rganish masalalari firqaviy, sinfiy yondashuvlardan xalos etildi, tarixiy voqealarni xolislik, haqqoniylik, tarixiylik tamoyillari asosida tadqiq qillshga kirishildi. Ibn Sino, Beruniy, Muhammad Xorazmiy, Forobiy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Bobur singari mutafakkirlarning asarlarini nashr etish yo‘lga qo‘yildi. Mustaqillik sharofati bilan Abduxoliq G‘ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Imom al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Burhoniddin Marg‘inoniyning ruhi shod etildi. Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Usmon Nosir kabi Vatanimiz ozodligi yo‘lida shahid ketgan siymolarimiz nomi, hurmati o‘z joyiga qo‘yildi, ularning ma‘naviy meroslari

xalqimizga qaytarildi. YUNESKO qaroriga binoan 1994-yilda Parij, Istanbul va Karochida buyuk falakiyot olimi Ulug'bek tavaludining 600 yillik yubileyi bayram qilinganligi xalqimizning insoniyat sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasining e'tirof etilishi bo'ldi.

Bobomiz Amir Temurning mamlakatimizni jahondagi eng qudratli davlat darajasiga ko'tarish sohasidagi buyuk xizmatlari o'zining haqqoniy bahosini oldi. Amir Temurning nomi tiklandi. 1996-yil mamlakatimizda va jahon miqyosida Amir Temur yili sifatida keng nishonlandi. YUNESKO qarori bilan 1996-yil aprelda Parijda Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlangan tantanalar bo'lib o'tdi. Toshkent, Samarqand, Shahrisabz shaharlarida Amir Temurga haykallar qo'yildi. Temuriylar tarixi davlat muzeyi tashkil etildi. Amir Temur nomi bilan bog'liq tarixiy yodgorliklar ta'mirlandi. 1997-yilda Xiva va Buxoro singari qadimiy shaharlarimizning 2500 yillik bayramlari tantanali sur'atda YUNESKO qaroriga binoan nishonlandi. 1998-yilda ulug' bobokalonlarimiz Imom al-Buxoriy va Ahmad al-Farg'oniyning 1200 yillik to'ylari tantana qilindi.

Respublika Vazirlar Mahkamasi qoshida Din ishlari bo'yicha maxsus qo'mita tuzildi. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar haqida» Qonun qabul qilindi, unda davlatning din va dindorlar vakillariga munosabati o'zining aniq ifodasini topdi. Mustaqillik davrida dinning, eng avvalo, islom dinining milliy va umuminsoniy qadriyat sifatidagi mavqeyi tiklandi, diniy ulamolarning qadr-qimmatini o'z joyiga qo'yildi.

Navro'z bayrami, Ro'za va Qurbon hayitlarining tiklanishi faqat dindorlar uchun qilingan marhamatgina emas, bu aslida xalqimizning qadimiy rasm-rusum, an'ana va udumlari, qadriyatlarimizning tiklanishi, ajdodlar ruhining qayta uyg'onishidir.

Ma'naviyatni rivojlantirish yo'lida qo'yilgan muhim qadamlardan biri 1994-yilda respublikada «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazining tashkil etilishi bo'ldi. Markazning viloyat, shahar va tumanlarda bo'limlari faoliyat ko'rsatmoqda. Ular mahallalar, mehnat jamoalari, o'quv yurtlari, shahar va qishloqlar aholisini ma'naviy-ma'rifiy ishlarga ko'proq jalb etmoqda, aholi o'rtasida ilm-ziyo, ma'rifat tarqatmoqda. Markaz tomonidan nashr etilayotgan «Tafakkur» jurnali aholi orasida keng tarqalmoqda, xalqning milliy uyg'onishi, yoshlarni tarbiyalashda muhim rol o'ynamoqda.

Mamlakatimizda o'zbek tilining ahamiyati va o'rni qayta tiklandi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to'rtinchi sessiyasi 1995-yil 21-dekabrda yangi tahrirda «Davlat tili haqida» Qonun qabul qildi. Qonunda o'zbek tili o'zbek xalqining ma'naviy mulki ekanligi, uning ravnaqi, qo'llanilishi va muhofazasi davlat tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan. O'zbekistonda Oliy davlat hokimiyati, mahalliy

hokimiyat va boshqaruv organlari faoliyati, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning hisob-kitob, statistika va moliya ishlari o'zbek tilida yuritilmoqda. Respublikaning ma'muriy-hududiy birliklari, maydonlari, ko'chalari, geografik nomlarga yagona milliy shakl berildi va o'zbek tilida ifodalandi. Natijada o'zbek xalqining, mustaqil davlatimizning qadr-qimmatini tiklandi va mustahkamlandi. Shuningdek, O'zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha millatlarning tillari, qadr-qimmatini ham o'z o'rniga qo'yilgan.

1991–1992-yillarda O'zbekiston Oliy sudi 1984–1989-yillarda to'qib chiqarilgan «paxta ishi»ni qaytadan ko'rib chiqdi. Sobiq SSSR Oliy sudi tomonidan ozodlikdan mahrum etilgan minglab sobiq rahbarlar va xo'jalik xodimlariga qo'yilgan aybnomalarning asossizligi isbotlandi va adolat tiklandi. 1999-yil Toshkentda «Xotira va qadrlash kuni» munosabati bilan mustaqillik maydonida «Xotira obidasi» va 2000-yil may oyida «Shahidlar xotirasi» maydoni majmuyi yaratildi. Bu mustaqil mamlakatimiz ma'naviy hayotida yuz bergan muhim voqea bo'ldi.

36.5. Tashqi siyosat sohasidagi qonunlar

Mustaqil O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy qoidalari Prezident I.A. Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqol va taraqqiyot yo'li» risolasida ishlab chiqildi va O'zbekistonning Konstitutsiyasida qonunlashtirildi. Respublika tashqi siyosiy yo'lini belgilashda jahon tajribasidan foydalanildi, mamlakatimiz, xalqimizning o'ziga xos tarixiy xususiyatlari va manfaatlari hisobga olindi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy qoidalari quyidagilardan iborat:

– davlatlarning suveren tengligi va chegaralar daxlsizligini hurmat qilish;

– boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;

– nizolarni tinch yo'l bilan hal etish;

– kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik;

– inson huquqlari va erkinliklarini hurmatlash;

– ichki milliy qonunlardan xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari va normalarining ustuvorligini tan olish;

– davlat, xalqning oliy manfaatlarini, farovonligini va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo'stliklarga kirish va ulardan ajralib chiqish;

– tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik;

– davlatlararo teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlik.

Mamlakatimizning jahon xalqlari tinchligi va xavfsizligiga mos bo'lib

tushgan tinchliksevar tashqi siyosati uning jahonda mustaqil davlat sifatida tezda tan olinishini ta'minladi.

Konstitutsiya asosida O'zbekiston Respublikasini xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatida bildiruvchi huquqiy asoslar yaratildi. Quyidagi hujjatlar tashqi aloqalar sohasida asosiylari hisoblanadi:

1996-yilda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi qonun, 1992-yilda qabul qilingan «Diplomatik vakolatxonalar boshliqlarini tayinlash va chaqirib olish to'g'risida»gi qonun, 1992-yilda qabul qilingan «Diplomatik xodimlarning darajalarini o'rnatish to'g'risida»gi qonun; tashqi iqtisodiy sohada esa — 1992-yilda qabul qilingan «Xorijiy sarmoyalar to'g'risida»gi qonun, 1992-yilda qabul qilingan «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi qonun, «Xorijiy sarmoyadorlarning faoliyatini kafolatlash to'g'risida»gi 1994-yilda qabul qilingan qonun.

«Boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik» deb ta'riflangan prinsip O'zbekiston Respublikasining Asosiy Qonunidagi yuqorida gap borgan to'rtta prinsip bilan o'zaro chambarchas bog'liq. O'z mohiyatiga ko'ra, g'oyatda liberal bo'lgan bu prinsip tegishli xususiyatlarga ega. Tashqi siyosatda ana shu prinsipning amalga oshirilishi, eng avvalo, BMT Ustavida (2-moddaning 7-bandi) hamda BMT Bosh Assambleyasining davlatlar ichki ishlariga aralashmaslik to'g'risidagi hamda ularning mustaqilligi va suverenitetini saqlash to'g'risidagi 1965-yilgi deklaratsiyasida qayd etilgan xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsipiga asoslanadi. Bu qoida 1996-yil 26-dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasida o'z ifodasini topgan bo'lib, unda jumladan shunday deyiladi: «O'zbekiston Respublikasi ichki ishlarga aralashishi, mustaqillik va suverenitetni kamsitish hamda davlatlararo munosabatlarni mafkuralashtirishning har qanday ehtimolini istisno etuvchi teng huquqli va o'zaro foydali munosabatlarni barcha davlatlar bilan yo'lga qo'yadi».

1992-yilning 2-mart kundan boshlab BMT hujjatlarida va eng avvalo, uning Ustavida belgilangan prinsiplar va normalar O'zbekiston uchun ham majburiy bo'lib qoldi. Shunga muvofiq ravishda, tashqi siyosatga doir yuqorida ko'rib chiqilgan beshta konstitutsiyaviy prinsipdan tashqari quyidagi prinsiplar O'zbekiston uchun ham qat'iy prinsiplar hisoblanadi:

- ***davlatlarning bir-biri bilan hamkorlik qilishi;***
- ***xalqlarning teng huquqliligi va o'z taqdirini o'zi belgilashi;***
- ***xalqaro huquq bo'yicha majburiyatlarni halol bajarish;***
- ***davlatlarning hududiy yaxlitligi;***
- ***inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilish.***

BMT Ustavining 103-moddasida ta'kidlanadiki, «Tashkilot

A'zolarining ushbu Ustavdan kelib chiqadigan majburiyatlari ularning boshqa biror xalqaro bitimdan kelib chiqadigan majburiyatlariga zid bo'lib qolgan taqdirda, Tashkilot A'zolarining ushbu Ustav bo'yicha olgan majburiyatlari ustun kuchga ega bo'ladi».

BMT Ustavida mustahkamlangan prinsiplar va normalardan keyin xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalari toifasiga ko'p tomonlama xalqaro shartnomalarda belgilangan, shuningdek, urf va odat bo'lib qolgan hamda jahon hamjamiyatining ko'pchilik davlatlari tomonidan tan olingan prinsiplar va normalarni kiritish kerak. Ular yuqorida ko'rib chiqilgan konstitutsiyaviy prinsiplar bilan teng bo'lib, o'z maqomiga ko'ra, yuqori darajadagi qat'iy prinsiplardir. Tashqi siyosatni tartibga solib turish masalalariga doir ichki qonun hujjatlari ham, O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan tuzgan shartnomalari ham ularga zid bo'lishi mumkin emas.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

- 1. Davlat organlari tuzulmasining takomillashtirish qanday amalga oshirildi?*
- 2. Inson huquqlari to'g'risidagi qonunlarning ahamiyati nimalardan iborat ekanligi haqida gapirib bering.*
- 3. O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish yo'lining tamoyillari nimalardan iborat?*
- 4. Iqtisodiy sohaga tegishli qonunlarning yo'nalishlari haqida gapirib bering.*
- 5. Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari qanday amalga oshirildi?*
- 6. Aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari qanday amalga oshirilmoqda?*
- 7. Ma'naviy hayotning huquqiy kafolatlari nimalardan iborat ekanligi haqida gapirib bering.*
- 8. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy qoidalari nimalardan iborat?*
- 9. Tashqi siyosatni amalga oshirishdagi prinsiplar nimalardan iborat?*

37-MAVZU: O'ZBEKISTONDA HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT QURILISHI

1. O'zbekiston demokratiyani yanada chuqurlashtirish yo'lida.
2. Inson huquqlari va erkinliklari kafolatlarining yaratilishi.
3. Sud hokimiyati islohotlari.

37.1. O‘zbekiston demokratiyani yanada chuqurlashtirish yo‘lida

Mustaqillik yillarida davlat hayotining yangi demokratik huquqiy asoslari yaratildi. Davlat tushunchasi, uning ma‘no, mohiyati tubdan o‘zgardi. U islohotlarning bosh tashabbuskori hamda ularni muvofiqlashtiruvchi asosiy kuchga aylandi.

Davlat bozor munosabatlariga vazminlik bilan, puxta o‘ylangan holda, bosqichma-bosqich o‘tishni amalga oshirmoqda.

Yana shuni ham ta’kidlash lozimki, mustaqillik yillarida xalqimizning o‘z xohish-irodasini erkin ifoda etishini ta’minlovchi saylov tizimi shakllandi va qonun bilan mustahkamlandi. Jumladan, dunyoda eng rivojlangan demokratik davlatlarda ham O‘zbekistonda qabul qilingan «Saylovchilar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi qonunga o‘xshash qonunlar yo‘q.

Saylovlar xalqimizning siyosiy saviyasi, faolligi yuksalib borayotganini namoyish etdi. Yana shuni ta’kidlash lozimki, xalqning hayotiy tajribalariga, milliy va madaniy an‘analariga mos tushadigan haqiqiy demokratiya tamoyillari qaror topmoqda. Umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi tobora mustahkamlanmoqda, yangi demokratik mezonlar hayotga tobora chuqurroq kirib bormoqda, inson haq-huquqlari va erki konstitutsiya yo‘li bilan kafolat topmoqda. Millati, dini, siyosiy e‘tiqodidan qat’iy nazar, har bir fuqaro teng huquqqa egadir. Respublikada yashovchi aholi O‘zbekiston o‘zlarining umumiy xonadoni ekanini tobora teran anglamoqda.

O‘zbekiston hududida 120 dan ortiq millat va elat vakillari tinch va ahil yashayotgani quvonarlidir. Yoshlar oliy o‘quv yurtlarida, maktablarda 8 tilda ta’lim olishmoqda, ko‘plab tillarda gazetalar chop etilmoqda, teleko‘rsatuvlar va radioeshittirishlar olib borilmoqda. Respublikada yashovchi millat va elatlarning manfaatmi ifoda etuvchi 100 ga yaqin madaniy milliy markazlar ishlab turibdi.

Fuqarolarning diniy e‘tiqod erkinligi huquqiga amal qilinmoqda, respublikada 14 ta diniy konfessiya faoliyat ko‘rsatmoqda.

Yuqoridagilar shubhasiz islohotlar jarayonida respublikada yangi demokratik siyosiy tizimning asoslari yaratilganini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Ma‘lumki, demokratik tartibot siyosiy hokimiyatni amalga oshirishning keng tarqalgan zamonaviy shaklidir. Unda demokratiya institutlari, siyosiy erkinliklar bo‘lishiga, mehnatkashlarning turli tashkilotlar atrofida birlashishiga imkon beriladi.

Shuning uchun ham O‘zbekiston Parlamenti fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash maqsadida mamlakatda avvalo ko‘ppartiyalilik, oshkoralikni, fuqarolarning jamoat tashkilotlari orqali

huquqlarini ta'minlashga qaratilgan muhim qonunlar qabul qildi. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi, «Jamoat tashkilotlari to'g'risida»gi, «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi, «Kasaba uyushmalari, ular faoliyatining huquqiy kafolatlari to'g'risida»gi qonunlar ana shular jumlasidandir.

Oliy Majlisning 1996-yil dekabrda bo'lgan VII sessiyasida «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi qonun umumxalq muhokamasidan so'ng qabul qilindi. Mazkur qonunda: «Siyosiy partiya – qarashlari, qiziqishlari va maqsadlari mushtarakligi asosida tuzilgan, jamiyat muayyan qismining davlat hokimiyatini shakllantirishdan iborat siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi O'zbekiston fuqarolarining ko'ngilli birlashmasidir», – deyiladi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov 2002-yil 29-avgustda Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to'qqizmchi sessiyasida qilgan ma'ruzasida O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning yettita asosiy ustuvor yo'nalishlarini ko'rsatib berdi. Bular quyidagilardan iborat:

1. Mustaqillikni bundan buyon ham asrab-avaylash, himoya qilish va mustahkamlash.

2. Mamlakatimizda xavfsizlik va barqarorlikni, davlatimizning hududiy yaxlitligini, sarhadlarimiz daxlsizligini, fuqarolarimizning tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash.

3. Bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, kuchli bozor infratuzilmasini yaratish, barqaror va o'zaro mutanosib, mustahkam iqtisodiyotning muhim sharti bo'lgan erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish.

4. Inson huquqlari va erkinliklarini, so'z va matbuot erkinligini, shuningdek, oshkoralikni, jamiyatda o'tkazilayotgan islohotlarning ochiqligini ta'minlaydigan demokratik tamoyillarni so'zda yoki qog'ozda emas, amaliy hayotda joriy qilish.

5. Jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tashkilotlarining o'rni va ahamiyatini keskin kuchaytirish.

6. Sud-huquq sohasini isloh qilish bo'yicha boshlangan ishlarni izchil davom ettirish. Bu sohadagi eng muhim vazifa sud-huquq idoralarning mustaqilligi va ta'sirchan faoliyatini so'zda emas, amalda ta'minlash bo'lmog'i zarurligi.

7. Kuchli ijtimoiy siyosat olib borish.

Prezidentimiz tomonidan ko'rsatib berilgan ushbu ustuvor yo'nalishlar hayotga qadam-baqadam tobora singib bormoqda. Binobarin, O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va adolatli

fuqarolik jamiyatni barpo qilish uchun real konstitutsiyaviy-huquqiy asoslar o'rnatilgan.

Prezidentimiz Islom Karimovning 2005-yil 28-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi qilgan ma'ruzasida jamiyatimizni demokratlashtirish va yangilashning konsepsiyasi, shuningdek, mamlakatimizni 2005-yil va kelgusi davrda modernizatsiya va isloh etish bo'yicha asosiy vazifalar bayon etilib, jumladan quyidagilar ta'kidlanadi: «Bizning asosiy uzoq muddatli va strategik vazifamiz avvalgicha qoladi — bu demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish jarayonlari va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash yo'lidan og'ishmay, izchil va qat'iyat bilan borishdir... Bugun, hamma bo'lmasa ham, lekin ko'pchilik odamlar yaxshi anglaydiki, faqat zamon bilan teng qadam tashlayotgan, tez o'zgarayotgan dunyoning qat'iy shart va talablariga javob berishga intilayotgan mamlakatning kelajagi yorug' bo'lishi mumkin. Shu ma'noda, mustaqillikni mustahkamlash, jamiyatni demokratlashtirish va yangilash biz uchun hamisha birinchi darajali ustuvor maqsad va vazifa bo'lib qolaveradi».

37.2. Inson huquqlari va erkinliklari kafolatlarining yaratilishi

O'zbekiston tarixining mustaqillik yillari avvalgi davrdan farqli o'laroq aynan istiqlol tufayli yurtimizda inson huquqlari va erkinliklari kafolati uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgani bilan alohida ajralib turadi.

Avvalo shuni aytish kerakki, bu O'zbekiston Konstitutsiyasida o'z ifodasini topdi. Unda eng oliy qadriyat sifatida davlat va ijtimoiy tizim emas, balki inson huquqi kafolatlab qo'yildi. Konstitutsiyaning 13-moddasida «O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi», — deb belgilab qo'yildi.

Shuningdek, Konstitutsiyaning ikkinchi bo'limi «Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari» deb atalishining o'zi Asosiy qonunning insonparvarligini ko'rsatadi. Uning har bir moddasida fuqarolikka ega bo'lish va uni yo'qotish asoslari, shaxsiy huquq va erkinliklar, fuqarolarning siyosiy huquqlari, ularning kafolatlanishi o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasi hududida istiqomat qiluvchi fuqarolar hayotning barcha sohalarida — iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy, huquqiy va boshqa munosabatlarda bir-birlari bilan teng huquqqa ega bo'ldilar.

Ayrim shaxslarning foydalanishi lozim bo'lgan imkoniyatlar qonunda belgilanib, ular faqat ijtimoiy adolat prinsiplari asosida bo'lishi ko'rsatib qo'yildi.

Ayniqsa fuqarolarning istagan dinga e'tiqod qilishi yoki qilmasligi qonun bilan kafolatlanib, o'zlarining ixtiyoriga berilgan bo'lib, bu huquqlarning amalga oshirilishi me'yoriy qonunlar bilan mustahkamlandi. Jumladan, fuqarolarning dinga munosabati O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonun bilan tartibga solindi hamda ularning daxlsizligi ta'minlanmoqda.

Istiqloq yillaridagi katta yutuqlardan biri shundaki, O'zbekistonda shaxs erkinligi, inson huquqlarining muhofazasi va kafolati, e'tiqod, mehnat va kasbni erkin tanlash huquqi, ta'lim olish, ijtimoiy muhofaza va boshqa imkoniyatlar qonun bilan himoya qilinadigan bo'ldi. Bu borada shuni ta'kidlash joizki, hozirgi qiyin va ziddiyatli bir paytda mamlakatimizning turli sarhadlariga yaqin joylarda urushlar ro'y berib, qon to'kilib, begunoh odamlar qurbon bo'lib, sarson-sargardon kishilar ko'payib borayotgan bir sharoitda O'zbekistonda inson uchun eng oliy ne'mat – yashash huquqi va osoyishta hayot kechirish huquqi to'la ta'min etildi. Bir so'z bilan aytganda xuddi ana shu murakkab yillarda O'zbekistonda umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligi yanada mustahkamlanib, yangi demokratik jarayonlar odamlar ongi va qalbi orqali o'tkazilib, hayotga tobora chuqurroq kirib bora boshladi.

O'zbekistonda mustaqil davlatchilikning jahon andozalariga mos keladigan, eng ilg'or tajribalar asosida vujudga kelgan zamonaviy usullari joriy qilina boshlandi. Inson huquqlari va erkinliklari ustuvorligini ta'minlashning huquqiy asoslari yaratilishiga kirishildi. Xalqaro miqyosda qabul qilingan tamoyillarga asoslanib faoliyat ko'rsatadigan yangidan yangi huquqiy muassasalar tashkil etildi.

Istiqloq yillarida fuqarolarning huquqlarini aks ettiruvchi, himoya qiluvchi, ularning turli sohalaridagi faoliyatini tartibga soluvchi 300 dan ortiq qonun va parlamentning qonunga tenglashtirilgan qarorlari tizimi vujudga keldi. Bir yarim mingdan ortiq Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilinganligi ayni ana shu tarixan juda qisqa davrda amalga oshirilgan ishlar ko'lamini ko'rsatadi. Ularning aksariyati fuqarolar haq-huquqini muhofaza qilish, bozor munosabatlarini chuqurlashtirish va to'la qaror toptirish asosida fuqarolarning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va siyosiy himoyalashni ta'minlashga qaratilgandir. Endi hamma gap ana shu qonunlar, qarorlar, farmon va farmoyishlarning hayotga to'la tatbiq etilishida, ularning og'ishmay amalga oshirishda qolgan. Bu fuqarolar turli tabaqasi ma'naviy-axloqiy yetuklik darajasidan tortib, ularning tub islohotlar

mohiyatini chuqur anglashi, yangilanayotgan jamiyat tamoyillarini o'zlashtirishi va keng miqyoshi siyosiy tayyorgarligiga bog'liq bo'lgan uzoq muddatli jarayondir.

Inson huquq va erkinliklari kafolatlarining asosiy vazifasi shundan iboratki, birinchidan, inson huquqlarini amalga oshirishni ta'minlash, ularning buzilishiga yo'l qo'yilgan bo'lsa, ularni bartaraf etish; ikkinchidan shu huquqlar bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash siyosatini olib borish.

Fuqarolarning huquqlarini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining «Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari» deb nomlangan X bobi muhim ahamiyatga egadir (43–46-moddalar). Shaxsning huquq va erkinliklarining qonunlar asosida mustahkamlab qo'yilishi, albatta, zarurdir. Bu ishning yarmi bo'lib, eng murakkab tomoni esa insonning huquq va erkinliklarini ishonchli tarzda va samarali tatbiq qilinishidir. Inson huquq va erkinliklarining samarali tatbiq qilinishida tatbiq qiluvchi organlarning faoliyati juda katta ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunga kelib aytish mumkinki, O'zbekistonda bu borada ancha ish qilindi va inson huquqlarini kafolatlovchi o'ziga xos va samarali mexanizm yaratildi. Mazkur mexanizmning asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, bu inson huquqlarini va erkinliklarini ta'minlovchi va kafolatlovchi davlat organlari tizimining tashkil etilishi bo'ldi.

Ikkinchidan, bu inson huquq va erkinliklarini ta'minlovchi va kafolatlovchi ixtisoslashgan nodavlat tashkilotlarining paydo bo'lishiga ko'maklashishdir.

Inson va fuqarolarning huquqlarini va erkinliklarini kafolatlovchi davlat organlari tizimini quyidagi institutlar tashkil etadi: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qiluvchi organlari (asosan sud, prokuratura, ichki ishlar idoralari) va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasi 1-bandida «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishining kafilidir», deb mustahkamlangan.

Insonning huquq va erkinliklarini himoya etish va qonun orqali kafolatlashda parlamentimiz – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'rni va roli benihoyat kattadir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi respublikada amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar yo'nalishini, asosan, davlat hokimiyati va boshqaruv oliy organlari tizimini demokratlashtirish, vakillik organining ijroiya organlariga nisbatan real mustaqilligini ta'minlash, shaxs va fuqarolarni himoyalashda rivojlangan davlatlar

andozalariga yaqinlashish maqsadida yuzaga keldi. Oliy Majlis qonun chiqaruvchi hokimiyatni mustaqil amalga oshirish, davlat hayotining muhim masalalarini hal qilish uchun keng vakolatlarga ega.

Davlatimizda inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish va ular buzilgan hollarda tiklanish tizimi mavjuddir. Bu tizim faoliyati fuqarolarning qonunlarga qat'iy amal qilishdari, ularning jamiyat va davlat oldidagi ijtimoiy va yuridik mas'uliyatini anglab yetishlari, ijtimoiy adolat, insonparvarlik, chinakam demokratizm, qonuniylik, inson, shaxs huquqlarini Konstitutsiya va qonun bilan qat'iy va ishonchli muhofazalanganligi, qonun tomonidan taqiqlanmagan barcha harakatlarning sodir etilishiga ruxsat berilganligi va aybsizlik prezumpsiyasi tamoyillariga tayanadi. Bu tizimni yuqorida ko'rsatilgan institutlar, advokatura va inson huquqlari bo'yicha maxsus milliy institutlar tashkil etadi.

Sud hokimiyati bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi sud tizimi Konstitutsiyada belgilangan moddalarga binoan qabul qilingan (XII bob) «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi (1995-yil 30-avgust) va «Sudlar to'g'risida»gi (2000-yil 14-dekabrda)gi qonunlarga binoan faoliyatini amalga oshiradi.

Bugungi kunda sud organlari oldida turgan asosiy vazifalardan biri – bu davlatimizdagi har bir shaxsning huquq va erkinliklarini qonun asosida himoyalash va kafolatlashdir. Sud organlari jazolovchi organ emas, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qiluvchi organga aylanib, haqiqatan ham mustaqil bo'lib qolishlari lozim.

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda hamda qonuniylik va huquqiy tartibotni ta'minlashda prokuratura organlari muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi (yangi tahriri, 2001-yil 29-avgust) qonuni bilan tartibga solinadi. Konstitutsiya va qonunga binoan prokuraturaning asosiy vazifasi mahalliy hokimiyat boshqaruvi va nazorat idoralari, yuridik va jismoniy shaxslar, jamoat tashkilotlari, mansabdor shaxslar, vazirliklar, davlat qo'mitalari, davlat nazorat organlari va fuqarolarning qonunlarga bir xilda va aniq rioya qilishlari ustidan nazorat etishdir.

Inson huquqlarini himoya qilishda maxsus milliy institutlarning o'rni va ahamiyati juda katta. O'zbekistonda inson va fuqarolar huquqlarini va erkinliklarini himoya qiluvchi tizimga, yuqorida keltirilgan davlat organlaridan tashqari, maxsus tuzilgan va rivojlanayotgan nodavlat tashkilotlari ham kiradi. Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan tashkil etilgan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi shular jumlasidandir.

Shuni ta'kidlash o'rinliki, inson va fuqaro haq-huquqlarini himoya

etishda va ularni ta'minlashda juda ko'p nodavlat tashkilotlar va muassasalar qatnashishi mumkin. Bular turli jamg'armalar, markazlar, boshqa nodavlat tashkilotlari bo'lishi mumkin. Jumladan, «Sog'lom avlod uchun», «Kamolot» jamg'armalari, «Ma'rifat va ma'naviyat» markazi, Ayollar qo'mitalari, Sudyalar, Advokatlar birlashmalari, Kasaba uyushmalar Markaziy Kengashi va Inson huquqlari va gumanitar huquqni o'rganish markazi, shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish mas'alalari bilan shug'ullanayotgan qo'mita va boshqalarni misol sifatida keltirishimiz mumkin.

Inson va fuqarolar shaxsiy huquq va erkinliklarini kafolatlovchi bir qator qonunlar va qonun osti hujjatlari qabul qilingan.

Konstitutsiyadan tashqari, shaxsiy huquq va erkinliklar qator boshqa qonunlarda kafolatlangan. Mazkur qonunlar tizimiga bir qator kodekslar (jumladan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual, Ma'muriy javobgarlik to'g'risida, Fuqarolik, Fuqarolik-protsessual kodekslarini misol qilish mumkin) va amaldagi O'zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida»gi va boshqa qonunlarini alohida ko'rsatishimiz mumkin.

Shaxsning yashash huquqi respublikamiz qonunlari bilan muhofaza etiladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida shaxsning hayotini muhofaza qilishga ustuvorlik berilgan. Uning 97-moddasida qasddan odam o'ldirganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilamb, jazo sifatida 15 yildan 20 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish hamda oliy jazo — o'lim jazosi davlatimizda faqatgina o'ta xavfli jinoyatlar uchun belgilangan edi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 1-avgustda «O'lim jazosini bekor qilish to'g'risida»gi farmoni e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksida mustahkamlangan o'lim jazosi umrbod yoki uzoq muddatli ozodlikdan mahrum etish jazosi bilan almashtirish masalasi kun tartibiga qo'yildi. 2008-yil 1-yanvardan Jinoyat kodeksidan o'lim jazosi chiqarib tashlandi.

Shaxsning yashash huquqining odil va qonuniy kafolatlaridan biri respublikamiz qonunchiligida afv etish va amnistiya huquqiy institutlarining o'rnatilishidir.

Inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya etishda va qonun jihatidan kafolatlashda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining ahamiyati benihoya katta. Mazkur kodeks insonning shaxsiy va shu o'rinda barcha ajralmas huquq va erkinliklarini kafolatlash tizimida o'ziga xos joyni egallaydi. Kodeks bu sohadagi huquq va erkinliklarni ta'minlash va kafolatlash borasida maxsus huquqiy bazani belgilab bergan. Buni kodeksning asosiy prinsiplarida ko'rishimiz mumkin. Masalan, kodeksning 11-moddasi qonuniylik, 12-moddasi

odil sudlov faqat sudlar tomonidan amalga oshirilishi, 16-moddasi tenglik, 17-moddasi shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, 18-moddada fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, 23-moddasida aybsizlik prezumpsiyasi va boshqa shu kabi bir qator insonparvar va demokratik prinsiplar belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 18-moddasiga muvofiq «Jinoyat ishini yuritish uchun mas'uliyatli barcha davlat organlari va mansabdor shaxslar jinoyat protsessida qatnashayotgan fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishlari shart. Hech kim sud qaroriga asoslanmay hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas.

Fuqarolarning shaxsiy hayoti, ularning turar joylari daxlsizligi, o'zaro yozishmalari, telegraf aloqalari va telefon orqali so'zlashuvlarining sir saqlanishi qonun bilan qo'riqlanadi. Erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi – inson huquqlari va erkinliklari orasida ustuvor normalardan biri deb hisoblanadi. Ushbu huquq davlatimiz qonunchiligida o'z aksini topgan. Konstitutsiyamizning 25-moddasida «Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas» deb ko'rsatilgan. Insonning bu ajralmas shaxsiy huquqi huquqning turli sohalari bilan, jumladan, fuqarolik huquqi, ma'muriy huquq, oila huquqi, jinoyat huquqlari normalari bilan muhofaza qilinadi.

1991-yildan boshlab respublikada siyosiy sohaga oid bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi. Bular jumlasiga: «Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasida «Jamoat birlashmalari to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi referendumi to'g'risida»gi, «Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatlarining kafolatlari to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi va boshqalar kiradi.

Konstitutsiyaning VIII bobida fuqarolarning siyosiy huquq va erkinliklarini ta'minlovchi va kafolatlovchi bir nechta moddalar (32–35) mavjud. Bundan tashqari, davlatimiz Asosiy Qonunida shaxsning siyosiy huquqlarini kafolatlovchi yana bir guruh normalar majmuyi mavjud. Bu XIII bobda belgilangan jamoat birlashmalariga tegishli normalardir. Konstitutsiyaning 58-moddasiga muvofiq, davlat jamoat birlashmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etishi uchun teng imkoniyatlar yaratib beradi.

Sudlar tomonidan huquq va erkinliklarni kafolatlash bevosita O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasida o'z aksini topgan. «Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya

qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi».

Bu norma O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 30-avgustda «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi qonunida to'la rivojlantirilgan. Har bir fuqaro davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari yoki mansabdor shaxslarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlari (qarorlari) bilan o'z huquqlari yoki erkinliklari buzilgan deb hisoblasa, shikoyat bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasida izchil amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlarda mulk va mulkchilikni huquqiy kafolatlash masalasi markaziy o'rinni egallaydi. O'zbekistonda inson huquq va erkinliklarini himoyalovchi iqtisodiy-huquqiy kafolatlar tizimi negizini O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi tashkil etadi. Jumladan, Kodeksning 1-modda 1-qismiga muvofiq «Fuqarolik qonun hujjatlari ular tomonidan tartibga solinadigan munosabatlar ishtirokchilarining tengligini e'tirof etishga, mulkning daxlsizligiga, shartnomaning erkinligiga, xususiy ishlarga biron-bir kishining o'zboshimchalik bilan aralashishga yo'l qo'yilmasligiga, fuqarolik huquqlari to'sqinliksiz amalga oshirilishini, buzilgan huquqlar tiklanishini, ularni sud orqali himoya qilishni ta'minlash zarurligiga asoslanadi».

Inson va fuqarolar iqtisodiy huquq va erkinliklarini ifodalovchi tamoyillardan yana biri ularga tegishli mulkning daxlsizligi mustahkamlanganligi bilan belgilanadi.

Bu tamoyil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36–53-moddalarida o'z aksini topdi. Chunonchi 53-moddaning ikkinchi qismiga muvofiq, «Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkdan mahrum etilishi mumkin».

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 1-moddasida mulkning daxlsizligi belgilangan bo'lsa, uning 164-moddasida «mulk huquqi muqaddasdир» deb tasdiqlangan.

Hozirgi vaqtda iqtisodiy munosabatlarni isloh qilishning huquqiy asoslarini tashkil etuvchi bir qator qonunlar va qonuniy hujjatlar qabul qilindi. Misol sifatida O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik, Soliq, Bojxona, Fuqarolik-protsessual va Jinoyat Kodekslarini, mulkchilik, tadbirkorlik, korxonalar, kooperatsiyalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, ijara, garov, monopolistik faoliyatni cheklash, dehqon xo'jaligi, sug'urta, kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish sohasidagi

bir qator qonunlarni ko'rsatish mumkin. Bu kodeks va qonunlar fuqarolik huquqiy munosabatlari ishtirokchilarining tengligi, mustaqilligini belgilab, ularning tashabbuskorligiga keng yo'l ochib berdi.

Insonlarning ijtimoiy huquq va erkinliklarni himoyalash va kafolatlashning huquqiy asosini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va yuqorida tilga olingan qonunlar bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi, «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi, «Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi, «Davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi, «Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida»gi, «Ta'lim to'g'risida»gi va boshqa qonunlari ham tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasida aholini kam ta'minlangan qismini davlat o'z himoyasiga olgan. Bu esa ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish hamda ijtimoiy davlat barpo etish kabi strategik maqsadlarni amalga oshirishning salmoqli asosi bo'lib hisoblandi. Shuningdek, bu sohada qabul qilingan qator normativ hujjatlar davlatimizning ijtimoiy sohada olib borayotgan odilona siyosati mahsulidir. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 25-yanvarda «Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo'naltirilgan tarzda qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish to'g'risida»gi farmoni qabul qilindi. Unda bolali oilalarga ijtimoiy yordamni aniq berilishini kuchaytirish, aholini ijtimoiy muhofaza qilish borasidagi chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarish mustahkamlandi.

O'zbekiston fuqarolarining qonunchilikda belgilangan demokratik ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va shaxsiy huquqlari jahondagi ma'rifatli, rivojlangan mamlakatlarda hukm surayotgan andozalarga mos tarzda amalga oshirilmogda. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda insonning demokratik huquqlariga oid yuzdan ortiq qonun hujjatlari qabul qilindi, inson huquqlari to'g'risida qonunchilik majmuasi shakllandi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil, insonparvar davlat sifatida inson huquqlariga oid 60 dan ortiq xalqaro shartnoma va konvensiyalarga a'zodir. Masalan, «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi», «Bolalar huquqlari to'g'risida konvensiya», «Fuqarolik va siyosiy huquqlar bo'yicha xalqaro pakt» va hokazolar shular jumlasidandir.

37.3. Sud hokimiyati islohotlari

O'zbekistonda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishda sud hokimiyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham mamlakat mustaqillikka erishganidan so'ng bu borada katta ishlar amalga oshirildi.

O'tgan tarixan qisqa davrda sud hokimiyatini mustahkamlash, sud

islohotlarini izchillik bilan o'tkazish masalalari hamisha davlat rahbarining diqqat markazida bo'lib keldi.

«Sud islohotini chuqurlashtirish, hokimiyatning uchinchi, mustaqil va qaram bo'lmagan tarmog'i sifatida butun odil sudlov tizimini demokratlashtirish – huquqiy davlatni mustahkamlashning yana bir muhim yo'nalishidir ... Sud jazolovchi organdan oddiy odamlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qiluvchi organga aylanib, haqiqatan ham mustaqil bo'lib qolishi lozim», – deb uqtiradi I.A.Karimov.

Ko'rinib turibdiki, sud ahamiyatining, uning obro'yining jiddiy ravishda oshirilishi zarurligi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, bu masala ayniqsa, sudlarning faoliyatida asosiy mazmuni tashkil etishi zarurligi Prezident tomonidan qayta-qayta ta'kidlandi. Sud kishilarning huquqlari va manfaatlarini himoya qiluvchi hokimiyatga aylanishi zarur. Buning uchun u mustaqil harakat qilishi kerak. Xalq maslahatchilari haqiqiy, odil, tajribali, hurmatga sazovor shaxslar bo'lishi kerak.

Sud tizimi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik Sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasining Oliy Sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasining xo'jalik Sudi, viloyat sudlari, Toshkent shahar sudi, tuman, shahar xo'jalik va harbiy sudlaridan iborat.

2000-yil 14-dekabrda qabul qilingan «Sudlar to'g'risida»gi Qonunning yangi tahririga ko'ra yuqorida sanab o'tilgan sudlar ixtisoslashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan sudlar ixtisoslashuvining joriy etilishi, ya'ni umumiy yurisdiksiyali sudlarning fuqarolik ishlarini ko'rib chiqadigan va jinoyat ishlarini ko'rib chiqadigan sudlarga ajratilishi sud tizimini isloh qilishidagi jiddiy qadam bo'ldi. Bu holat, tabiiyki, fuqarolar huquq va erkinliklari himoyasi kafolatlanishini yanada kuchaytiradi, sudlarda ishlarning sifatli va o'z vaqtida ko'rib chiqilishini to'laroq ta'minlaydi.

Sud hokimiyati qarorlarining bajarilishi majburiydir va bu qoida qonun bilan belgilangan. Qonun davlat organlari, jamoat birlashmalari, tashkilotlar, mansabdor shaxslar hamda fuqarolarning sud hukmiga bevosita bo'ysunishlarini talab qiladi. Hamma davlat organlari, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar sud hokimiyati qarorlarining amalga oshishida sudga yordamlashishlari shart va majburiydir.

Huquqiy demokratik insonparvar davlatni barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayomida yangi tizim – huquq tarmoqlarini birlashtirishni va ular o'rtasidagi munosabatni uyg'unlashtirishni ta'minlovchi Konstitutsiyaviy sud yuzaga keldi. Bu tizimning vujudga kelishi demokratik davlat uchun ulkan voqeadir.

Konstitutsiyada sud hokimiyati mustaqilligining mustahkamlanishi odil sudlovni amalga oshirishda keng imkoniyatlar ochdi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi sho'rolar davri konstitutsiyalaridan keskin farq qiladi. Ularning birortasida sud hokimiyati degan so'z uchramaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq sud hokimiyati davlat hokimiyatining mustaqil tarmog'i hisoblanadi va unga O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida, inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarda e'lon qilingan fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sud yo'li bilan himoya qilish vazifasi yuklatilgan. Boshqacha qilib aytganda, sud hokimiyatining eng asosiy ijtimoiy vazifasi inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida sud hokimiyati uchun alohida XXII bob ajratilgan bo'lib, bu bobda «Sud hokimiyati» mohiyatini ochib beruvchi qator me'yorlar berilgan hamda sud faoliyatini tashkil qilish, sudlov tizimini belgilash kabi masalalar o'z yechimini topgan.

Sud hokimiyati davlat hokimiyatining alohida tarkibiy qismi bo'lib, u qonunchilik va ijro hokimiyati, siyosiy partiya hamda jamoat birlashmalaridan mustaqil ravishda harakat qiluvchi hokimiyat tarmog'idir.

Respublikamiz o'z davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, sud hokimiyati o'z faoliyatini jamiyatda ijtimoiy adolatni o'rnatish, qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini muhofaza etishga qaratdi. Zero, sud hokimiyati haqida gapirganimizda tarixga qisqacha nazar solish maqsadga muvofiqdir. Sababi, totalitar tuzum paytida sud hokimiyati sobiq sho'ro tuzumining jazolovchi organi sifatida xizmat qilar edi. Mustaqillik sharofati bilan sud hokimiyati mutlaqo yangi tus oldi. Mamlakatimizda sud-huquq sohasida o'tkazilgan islohotlar natijasi o'laroq sud inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi organga aylandi. «Sudlarning jmoiy, fuqarolik va xo'jalik ishlari bo'yicha ixtisoslashuvi amalga oshirildi. Qonunchilikka binoan sud ishlarini apellatsiya va kassatsiya tarzida ko'rib chiqish institutlari joriy etildi, tergov-surishtiruv va kishilarni hibsdan saqlash muddatlari sezilarli darajada qisqartirildi, ishlarni sudlarda ko'rib chiqishning qat'iy muddatlari belgilandi»¹.

¹ I.A. Karimov. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. / O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. –T., «O'zbekiston», 2005. 46–47-betlar.

Bugungi kunda sud hokimiyati davlat hokimiyatining mustaqil tarmog'i ekanligi to'g'risidagi nuqtayi nazar to'la qaror topdi, desak hech ham mubolag'a bo'lmaydi.

Sud hokimiyati organlari sudyalarning faqat Konstitutsiya va qonun talablariga bo'ysunish tamoyiliga asoslanib, o'z mustaqilligini ta'minlaydi. Ular odil sudlovni amalga oshirish faoliyati bo'yicha hech kimga hisobdor emaslar.

Faqat Konstitutsiya asosida tashkil qilingan sud hokimiyati qonun asosida sud ishlarini adolatli olib borishda, xalq vakillarining yordamiga tayanib, jmoiy va fuqarolik ishlarni ko'rib chiqish, tekshirish va boshqa ishlar bo'yicha hukm chiqarish yoki qaror qabul qilish huquqiga ega.

Shunday qilib, sud va faqat sud o'ziga berilgan vakolatlar doirasida odamlarga hamda shu orqali jamiyatga va jamiyatda bo'ladigan jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkaza oladi. O'zbekistonning ijtimoiy va davlat tuzumiga asoslangan, ma'muriy-hududiy bo'linishiga muvofiq yagona sud tizimi mavjud.

Albatta, yuqoridagi holatlar sud-huquq tizimidagi ijobiy jarayon hisoblanadi. Ammo sudlarning mustaqilligini, erkinligini va qolaversa, ularning jamiyat va davlat hayotidagi obro'yini mustahkamlash uchun bular yetarlimikan? Albatta, bu sohada ham amalga oshirilishi lozim bo'lgan bir qator masalalar mavjuddir. Bu haqda Prezidentimiz I.A.Karimov 2005-yil 28-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida qilgan ma'ruzasida shunday deydi: «Bu muammolar birinchi galda, sudlarning haqiqiy mustaqilligi va erkinligini ta'minlash bilan bog'liqdir. Jinoiy va protsessual qonunchiligimizning dastlabki tergov va sudgacha bo'lgan jarayon ustidan sud nazoratini kuchaytirish bilan bog'liq ayrim qoidalarni qaytadan ko'rib chiqish zarurati vujudga keldi. Boshqa demokratik davlatlar kabi O'zbekistonda ham shaxsni ushlab turish, hibsga olish, shuningdek, boshqa protsessual majburiy choralarni qo'llash uchun sanksiya berish huquqlarini ham sudlarga o'tkazish kerak, deb o'ylayman»¹. Ozigina vaqt o'tib, matbuotda e'lon qilingan «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmomi bu borada tashlangan muhim qadam bo'ldi. Ushbu Farmonga asosan jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarni qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi 2008-yil 1-yanvardan e'tiboran sudlar vakolatlariga o'tkazilishi belgilandi.

¹ I.A. Karimov. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. / O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. –T., «O'zbekiston», 2005. 43–44-betlar.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

1. *O'zbekistonda qanday yangi demokratik huquqiy asoslar yaratildi?*
2. *O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari nimalardan iborat?*
3. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida huquqiy davlatning qanday belgilari mustahkamlangan?*
4. *Inson huquqlari va erkinliklari kafolati uchun qanday zarur shart-sharoitlar yaratilgan?*
5. *Inson huquqlarini kafolatlovchi mexanizmning o'ziga xos va asosiy elementlari nimalardan iborat?*
6. *1991-yildan boshlab siyosiy sohaga oid qanday qonun hujjatlari qabul qilindi?*
7. *Sud hokimiyati islohotlari qanday amalga oshirilmogda?*
8. *Sud hokimiyati ijtimoiy ahamiyatga ega qanday vakolatlarni amalga oshiradi?*

38-MAVZU: O'ZBEKISTONDA SIYOSIY, IJTIMOYIY BARQARORLIKNING TA'MINLANISHI

1. Aholini kuchli ijtimoiy himoyalash — davlat siyosatining bosh yo'nalishi.
2. Millatlararo totuvlikning amalga oshirilishi.
3. Milliy xavfsizlikni ta'minlash.

38.1. Aholini kuchli ijtimoiy himoyalash — davlat siyosatining bosh yo'nalishi

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, jamiyatda bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayomida aholini ijtimoiy himoyasini ta'minlash davlat siyosatining bosh yo'nalishi bo'lib qoldi. Binobarin, mamlakatda o'tkazilayotgan barcha islohotlarning asl maqsadi insonga munosib turmush sharoitlarini vujudga keltirishdir.

Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan, jahon tan olgan besh tamoyilning muhim qismi aholini kuchli ijtimoiy himoyalash ekanligi ham shu bilan bog'liqdir.

O'zbekiston hukumati ana shu besh tamoyil asosida o'tish davrida aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan zarur choralar ko'rdi. Bu choralar odamlarning turmush darajasini keskin pasayib ketishining oldini olishda muhim rol o'ynadi hamda respublikada osoyishtalik va barqarorlikni saqlash omili bo'ldi.

Masalan, mustaqillikning dastlabki murakkab, iqtisodiy tanglik

yillarida odamlarning turmush darajasini normallashtirish maqsadida davlat yo'li bilan boshqarishning ko'pdan ko'p usullari va uslublaridan foydalanildi. Jumladan, miqdori doimo o'zgartirib turilgan ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar, turli nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari tarzidagi bevosita pul to'lovlari, imtiyozlar va turli dotatsiyalar tarzidagi to'lovlarni joriy qilish usuli keng qo'llanildi.

1991–1996-yillarda eng kam ish haqi va pensiyalardan soliq olinmaydigan bo'ldi. Korxonalarining o'z xodimlariga ijtimoiy yordam ko'rsatish sohasidagi xarajatlaridan bir qismi budjet mablag'lari hisobidan qoplab turildi. Keng iste'mol mollari va xizmatlarning ko'pgina qismi bo'yicha narxlardagi tafovutlarning o'rni qoplandi. Shu bilan birga qo'shimcha ijtimoiy imtiyozlar ham joriy qilindi. Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilari va yolg'iz pensionerlar uchun bepul nonushtalar, 2 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun bepul ovqat, maktab o'quvchilari va talabalar uchun ovqatning arzonlashtirilishi kabi imtiyozlar berildi. Shuningdek, ko'pgina toifadagi fuqarolarga turar-joyi shaxsiy mulk qilib bepul berildi, ba'zi turdagi kommunal xizmatlar haqini to'lashda yengilliklar joriy etildi va hokazo.

Mustaqillik yillarida narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi keskin ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirish ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimidagi eng ustun yo'nalishlardan biri bo'lib keldi va hozirgi kunda ham shunday bo'lib qolmoqda. Bu yo'nalish aholining barcha tabaqalarini istisnosiz qamrab oldi va islohotlarning dastlabki davrida keng miqyosda qo'llanildi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, istiqlol yillarida eng kam ish haqi va boshqa to'lovlar odatda, oldindan ko'paytirib kelindi, narx-navo o'zgarishi bilan bog'lab olib borildi, bu esa aholining to'lov qobiliyati saqlanib qolishini ta'minladi va turmush darajasining keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymadi.

Daromadlar miqdorini o'zgartirish orqali aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimida 1993-yilda joriy etilgan yangi Yagona tarif setkasi ham aholi ijtimoiy himoyasida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu chora barcha toifadagi xodimlarning ish haqi miqdorlarini tarif koeffitsiyentlari orqali eng kam ish haqi vositasi bilan bevosita o'zaro bog'lash imkonini berdi.

Natijada ish haqini oshirish yo'li bilan aholining o'rtacha ish haqi, pul daromadlari o'z-o'zidan osha bordi. Shu bilan birga respublikaning ichki iste'mol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat va nooziq-ovqat mollari asosiy turlari iste'molini muayyan darajada saqlab turish chora-tadbirlari ko'rilganligi ham aholini ijtimoiy jihatdan himoyalashning ikkinchi eng muhim yo'nalishi bo'ldi.

Respublikada narx-navoni erkinlashtirish sohasida qo'shni mamlakatlarga nisbatan birmuncha mo'tadil siyosat o'tkazilganligi iste'mol bozorini himoyalash zaruratini keltirib chiqardi. Bu O'zbekiston rubl mintaqasida turgan bir paytda nihoyatda muhim edi. Aksariyat respublika ehtiyojlari uchun valutaga xarid qilingan un, o'simlik moyi, qand-shakar va boshqa taqchil mahsulotlar respublika tashqarisiga olib chiqib ketilishi hollari yuz berdi.

Iste'mol bozori barbod bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun O'zbekistonda ishlab chiqarish yaxlit tizimini vujudga keltirishga hayotiy muhim masala sifatida qaraldi, mahsulotlarni tashqariga olib chiqib ketilishini bojxonalar orqali qat'iy nazorat qilish va yuqori boj to'lovlari joriy etish yo'li bilan amalga oshirildi. Dastlab, murakkab bir paytda iste'mol mollarni sotib olish uchun bir marta, so'ngra esa ko'p marta ishlatiladigan kuponlarni muomalaga kiritish, kundalik zarur tovarlarning cheklangan turlarini me'yorlangan tarzda sotishni tashkil etish ko'zda tutilgan edi. Bu tizim o'zini to'la oqladi. U bozorni pishiq-puxta himoya qilibgina qolmay, savdo tarmog'iga barcha zarur oziq-ovqat mahsulotlarini va kundalik xarid mollarni muntazam ravishda chiqarib turishni ta'minlash, ularni iste'mol qilish hajmlarini kamaytirmaslik imkonini berdi.

O'tish davri qanchalik murakkab bo'lmasin, bu tizim respublikaning barcha aholisiga hayotiy muhim mahsulotlarni iste'mol qilish va xizmatlardan bahramand bo'lish sohasida ishonchli ijtimoiy kafolatlarni ta'minlab berdi.

1992–1996-yillarda non va go'sht mahsulotlari, sut, qand-shakar, o'simlik moyi, kir sovun, bolalarga kerakli ayrim mollar, kommunal va transport xizmatlari uchun dotatsiyalar qisman saqlab qolindi. Shu tufayli daromad darajasi turlicha bo'lgan oilalar bulardan bir qadar foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi. Islohotlarning dastlabki bosqichida sobiq Ittifoqning ko'pgina mamlakatlarida aholining asosiy qismi yoppasiga qashshoqlashgan bir paytda O'zbekistonda amalga oshirilgan tadbirlar muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ldi. Odamlarning islohotlarni jadallik bilan olib borishga ishonchini kuchaytirdi.

Aymi vaqtda respublikada iste'molchilarning manfaatlarini himoya qilishning mutlaqo yangi tizimiga o'tishga tayyorgarlik ishlari olib borildi. Yangi tizimning mohiyati ichki narxlarni jahon narxlari darajasiga tez tenglashtirib olish va aholining daromadlarini shunga muvofiq ravishda oshirishni ko'zda tutadi. Bunday islohot sharoitida ijtimoiy himoyaning yangidan-yangi shakllarini qidirib topishni taqozo etadi. Jumladan, milliy valutani muomalaga kiritish, uning ichki almashuvini ta'minlash sohasida amalga oshirilgan tashkiliy va iqtisodiy chora-tadbirlarning ko'rilishi ayniqsa katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Mamlakatda ichki bozorni, xalqimiz manfaatlarini faqat baquvvat

milliy valutagina himoya qilishi mumkin, degan qat'iy xulosaga ko'ndi. Buning uchun milliy valutamiz, asosan, o'zimizda ishlab chiqarilgan zarur miqdordagi tovar bilan, keng eksport faoliyati hisobiga to'plangan salmoqli valuta-zaxiralari bilan mustahkamlangan bo'lishi kerak edi.

Milliy valuta joriy etilgach, islohotlar birinchi bosqichining oxirlariga kelib (1995-yil), oziq-ovqat mahsulotlarini me'yorlangan tarzda sotishdan butunlay voz kechish va erkin narxlarga o'tish imkoniyati tug'ildi.

Me'yorlash tizimiga barham berish tadbirlari aholi ta'minotini yomonlashtirmasdan, unchalik qiyinchiliklarga yo'l qo'ymasdan o'tkazildi. Erkin narxlarga esa «esankirashlarsiz» o'tishga muvaffaq bo'lindi. Buni O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlar birinchi bosqichining muhim natijasi deb baholash mumkin.

Mustaqillikning dastlabki davridan boshlab aholining kam ta'minlangan qismini qo'llab-quvvatlash borasida ko'rilgan chora-tadbirlar, ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri bo'ldi.

«Biz, — degan edi I. Karimov, — aholining ijtimoiy jihatdan nochor tabaqalari — pensionerlar, nogironlar, ko'p bolali va kam daromadli oilalar, ishsizlar, o'quvchi yoshlar, shuningdek, qayd etilgan miqdorda daromad oluvchi kishilarni himoya qilish davlatning muqaddas burchidir, degan qoidaga asoslanib ish tutdik».

Ish haqini oshirish bilan birga barcha toifadagi maktablarning muallimlari, bolalar uylari, maktabgacha va maktabdan tashqari muassasalar tarbiyachilari, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining professor-muallimlari va ilmiy xodimlari, ijodiy va tibbiy xodimlarni ijtimoiy himoyalash va ularning mehnatini rag'batlantirish maqsadida ularga qo'shimcha moddiy ne'matlar — kvartira haqi va kommunal to'lovlar sohasida imtiyozlar berildi, yakka tartibda uy-joy qurib olish uchun yer uchastkalari birinchi navbatda ajratiladigan bo'ldi.

Nogironlar va qariyalarni sog'lomlashtirish, ularning sanatoriya va kurortlarda dam olishlarini tashkil etish borasida ham ma'lum ishlar amalga oshirildi.

Yana shuni aytish o'rinliki, mustaqillik yillarida o'quvchi yoshlarni ijtimoiy himoyalashga, ularga ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qib, bilim olish uchun zarur sharoit yaratishga ham doimo e'tibor berildi. Oliy o'quv yurtlari talabalarining, texnikumlar va hunar-texnika bilim yurtlari o'quvchilarining, aspirantlarning stipendiyalari keyingi 5 yil mobaynida bir necha marta oshirildi. Bundan tashqari, yoshlarni ijtimoiy himoyalashning boshqa shakllari — ovqat narxining bir qismini qoplaydigan qo'shimcha to'lovlar, maktab oshxonalari va tamaddi xonalari qo'shimcha xarajatlarining bir qismini budjet mablag'lari hisobidan

qoplash, jamoat transportida arzon haq to‘lash va boshqa yengilliklar joriy etildi. Milliy an‘analarni nazarda tutib, birinchi bor nikohdan o‘tayotgan kelin-kuyovlar uchun mebel va gilam mahsulotlari sotib olishning imtiyozli tartibi belgilandi.

Biroq ayrim joylarda haqiqiy ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar chetda qolib, muhtoj bo‘lmagan oilalar ham moddiy yordam ola boshladi. Shunday sharoitda ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda, yangicha yo‘l tutish zarur bo‘lib qoldi. Shu munosabat bilan ommaviy-ijtimoiy himoyalash tartibidan ishonchli ijtimoiy kafolatlar va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimiga o‘tish maqsadga muvofiq deb topildi. Bunday yangi tartib avvalo adolat tamoyiliga rioya qilishni talab qilardi. Bu qoidaning mohiyati shundan iboratki, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishiga haqiqatan ham muhtoj bo‘lgan kishilarni aniqlash, ularga yordam uyushtirish lozim edi. Buni aniqlash albatta adolat bilan ish tutishni taqozo qiladi. Bu borada hokimlar, mahalla qo‘mitalarining mas‘uliyati oshirildi. Ular aholining moddiy yordamga muhtoj qismini aniqlashda bunday yordamni uyushtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlarini joriy etishga haqli bo‘ldilar. Chunki vazifa g‘oyat murakkab va mas‘uliyatli edi.

«Biz ijtimoiy himoyalashning asossiz tenglashtirish tizimidan qat’iyan voz kechib, Sharqda necha ming yillar davomida qaror topgan ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga, turmush tarzi va dunyoqarash xususiyatlariga muvofiq keladigan o‘z yo‘limizni tanlab oldik», – deb yozgan edi I. Karimov o‘zining «O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida» kitobida.

Shunga binoan 1994-yilga kelib O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash tizimi tubdan o‘zgartirildi. Ijtimoiy ko‘mak berishning mutlaqo yangi ilg‘or tizimi shakllantirildi. Bu tizimning mohiyati shundan iboratki, mamlakatimizning kelajagi hisoblanmish bolalar va kam daromadli oilalar bu yordamdan bahramand bo‘luvchi asosiy kishilar bo‘lib qoldi. Endi hamma nafaqalar va moddiy yordam faqat oila orqali yetkazib beriladigan bo‘ldi. Oila asosiy mavqega ega bo‘ldi. Bunday yondoshuv umuminsoniy qadriyatlarga, milliy an‘analarga va ruhiyatga mos keladi, fuqarolar jamiyatining ijtimoiy tashkiloti tizimida oila egallaydigan o‘rniga muvofiq keladi.

Ijtimoiy ko‘maklashuvning yangi tizimida farzand tug‘ilganda, bir yo‘la beriladigan to‘lovlar saqlab qolinishi bilan birga nafaqalar va imtiyozlarning quyidagi turi ham amalga oshiriladigan bo‘ldi. Masalan, birinchidan, bola boquvchi onalarga to‘lanayotgan nafaqaning miqdori ko‘paytirilibgina qolmay, uning muddati ham uzaytirildi. Ilgari bunday yordam bir yarim yilgacha to‘langan bo‘lsa, endi bu muddat ikki yilgacha uzaytirildi. Ishlovchi onalar ham, ishlamaydigan onalar ham, bu

nafaqadan foydalanadigan bo'ldilar, masalan 1995-yil ijtimoiy himoyaga ajratilgan mablag'ning 3 foizi onalarga ikki yoshgacha farzandlarini parvarish qilish uchun ajratildi. Boshqa davlatlardan farqli o'laroq O'zbekistonda bu nafaqa ish haqining eng oz miqdoriga bog'liq qilib qo'yildi. Bu avvalboshdanoq pulning qadrsizlanishi oshganda nafaqalarning ana shu turining indeksatsiyalanishini ta'minlaydi. Bolalarga betiladigan yigirmadan ziyod turli nafaqalar o'rniga 1994-yilning sentabridan boshlab barcha bolali oilalar uchun yagona nafaqa joriy etildi. Masalan, 1995-yilda ijtimoiy himoyaga ajratilgan mablag'ning 51 foizi oilalarga, ularning farzandlariga ikki yoshga to'lgunlaricha parvarish qilish uchun ajratildi.

1996-yil 1-apreldan 16 yoshgacha bo'lgan bolalari bor oilalar uchun nafaqalar ota-onasining va umuman oilaning daromadlari miqdoridan qat'i nazar, barcha oilalarga to'lana boshladi. Boshqacha aytganda, 16 yoshgacha bo'lgan bolalar, turli dastlabki omillar va sabablardan qat'iy nazar, to'g'ridan to'g'ri davlat yordami beriladigan obyektga aylanib bormoqda.

Davlat tomonidan bolalarni boqish va tarbiyalashga qilinadigan sarfxarajatlarning bir qismini oilalarga kompensatsiya tarzida berib turildi, ayni vaqtda ota-onalarning mas'uliyati kuchaytirildi. Beshta va undan ko'proq bolali oila uchun nafaqaning eng ko'p miqdori avvaliga eng kam ish haqining yarmi miqdorida, 1996-yilga kelib eng kam ish haqining to'la stavkasi darajasida belgilab qo'yildi.

1994-yil 24-avgustda Prezidentning «Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi.

Shu Farmonga ko'ra 1994-yilning oktabridan davlat kam daromadli oilalarga faol yordam bera boshladi, mana shunday oilalarga moddiy yordam joriy etildi. Respublikada kam daromadli oilalarga nafaqa tayin etilishi aslida misli ko'rilmagan ish, zamonaviy ijtimoiy himoya tizimini vujudga keltirish edi. Bunday yordam odamlarga yaqin turadigan mahalla yig'inlarida amalga oshiriladigan bo'ldi. Masalan, 1995-yilda 500 mingdan ortiq ehtiyojmand oilalarga mahalla komitetlari orqali jami 6 mlrd. so'm moddiy yordam berildi.

1996-yil 10-dekabrda bolali oilalarga ijtimoiy yordam berilishini kuchaytirish, aholini ijtimoiy himoya qilish borasidagi chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarishda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining roli va mas'uliyatini oshirish maqsadida «Bolali oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to'g'risida» yana bir muhim Farmon qabul qilindi. Unda 1997-yil 1-yanvardan boshlab fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish yig'inlari orqali yordamga muhtoj, bolali oilalarga bolalarning soniga qarab eng oz ish haqining 50 foizidan boshlab 175 foizigacha nafaqalar beriladigan bo'ldi. Bu borada ijtimoiy

adolat tamoyillariga og‘ishmay rioya etish, keng oshkoralik va ochiqlikni ta‘minlash, ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanishga erishish lozimligi qayd qilindi. 1997-yilda 16 yoshgacha bo‘lgan farzandi bor oilalarga nafaqa to‘lash uchun 9,6 milliard so‘m sarflandi.

Aholining kam ta‘minlangan qatlamlarining davlat tomonidan moddiy ta‘minlash doimiy ravishda takomillashtirib borilmoqda. 1997-yil sentabr oyidan boshlab, har yili 1-sinf o‘quvchilariga bepul o‘quv anjomlari, darsliklarni berish joriy etildi, kam ta‘minlangan oilalarning boshlang‘ich sinflarda o‘qiydigan bolalariga bepul qishki issiq kiyimlar berish yo‘lga qo‘yildi. Hukumat tomonidan ayrim toifadagi fuqarolar va oilalar uchun belgilangan ayrim imtiyoz, kafolat va qo‘shimchalarning ro‘yxati mavjud.

Serfarzand va kam ta‘minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalash tizimi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Kam ta‘minlangan oilalarga va ko‘p bolali muhtoj oilalarga moddiy yordam to‘lovlarini moliyalashtirishning asosiy manbasi Respublika va mahalliy budjet vositalaridir. Kam ta‘minlangan oilalarga 1998-yilda to‘langan nafaqalarning umumiy miqdori 3 mlrd. so‘mni tashkil qildi, 16 yoshgacha bo‘lgan farzandli oilalarga to‘langan nafaqalar — 15,6 mlrd. so‘mni tashkil qildi.

1998-yilda 36 % bolali oilalar nafaqa olishdi. O‘rtacha nafaqa miqdori bitta oilaga deyarli 1483 so‘mga to‘g‘ri keladi yoki (1996-yilga nisbatan) besh barobar o‘sdi. 1998-yilda mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari orqali Respublikadagi 700 ming yoki umumiy oilalarning 11,8 foiziga kam ta‘minlangani uchun moddiy yordam ko‘rsatildi. Ko‘rsatilgan moddiy yordam miqdori har oilaga hisoblaganda har oyda 1730 so‘mdan ortiqni tashkil etadi.

Bu borada yana shuni aytish kerakki, davlatimiz mustahkamlana borgan sari uning xalqparvarlik siyosati yanada kuchayib bordi. 1995-yil 20-dekabrda qabul qilingan «Aholining omonatlardagi va davlat sug‘urtasi bo‘yicha pul mablag‘larini indeksatsiya qilish to‘g‘risida»gi Farmomi ana shunday insonparvar siyosatning yorqin dalili bo‘ldi. Farmonga binoan 1992-yilning yanvariga qadar jamg‘arma bankiga pul qo‘ygan millionlab fuqarolarning mablag‘lari yana qadrlandi. Farmon asosida Vazirlar Mahkamasi maxsus qaror qabul qildi. Mazkur Farmon va qaror vatanimizda yashayotgan bironta keksayu yoshni befarq qoldirmadi. 5 milliondan ortiq omonatchilar o‘z pullarini qaytarib oladigan bo‘ldi.

Shuni alohida aytish kerakki, mustaqillikning birinchi kunidan boshlab, hukumatimiz ijtimoiy hayotni yaxshilashga qaratilgan har bir chora— tadbirni o‘z vaqtida amalga oshirib, xalq oldida bergan va‘dasini qat‘iy ravishda bajarib keldi.

Indeksatsiyalangan pul mablag‘larining 1996-yil 1-iyuldan fuqarolarga

qaytarila boshlagani ham ushbu insonparvar siyosatning yorqin namunasidir.

1994-yilga kelib aholining real pul daromadi mamlakat bo'yicha 1989-yilga nisbatan qariyb 2 barobar pasayib ketdi.

1997—99-yillarda davlatning daromad siyosati mamlakat umumiy iqtisodiy rivojlanishi darajasini hisobga olgan holda aholi daromadini ko'paytirish, inflatsiya darajasini tushirish, qishloq xo'jaligidagi islohotlarni chuqurlashtirish, tadbirkorlikning barcha turlarini, o'rta va kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan.

38.2. Millatlararo totuvlikning amalga oshirilishi

Mustaqillik yillarida ko'p millatli respublikada fuqarolar o'rtasida tinchlik va millatlararo totuvlik saqlanganligi O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lidan rivojlanishida qo'lga kiritilgan katta yutuqlardan biridir.

Mamlakat rahbariyati milliy masalani oqilona, qonun yo'li bilan hal qilish, millatlararo mojarolarni tinch hal qilish chora-tadbirlarini ko'rdi. Bu borada hukumat eng avvalo konstitutsiyaviy talablar asosida ish tutdi. Aholining barcha tabaqasi va turli millat vakillari diqqatini bir nuqtaga qaratdi. Qonun oldida hammani teng qilib qo'ydi. Har bir fuqaro qalbida yagona zamin, yagona makon, yagona vatan uchun javobgarlik hissini kuchaytirdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasida «O'zbekiston xalqini millatidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi»,— deyiladi.

Mazkur moddada qayd etilgan qoida jahondagi biror bir konstitutsiyada uchramaydi. Unda Konstitutsiya darajasida «O'zbekiston xalqi» tushunchasining ta'rifi bayon etilgan. O'zbekistonda tug'ilgan, uning zaminida yashab, mehnat qilayotgan har bir kishi, millati va irqiy mansubligidan, diniy e'tiqodidan qat'iy nazar, mamlakatimizning teng huquqli fuqarosi bo'lishga munosibdir.

O'zbekiston fuqarolari, o'zlarining nasl-nasabi, irqi, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqa holatlaridan qat'iy nazar, O'zbekiston xalqini tashkil etadi.

Konstitutsiya O'zbekiston xalqini tashkil etuvchi barcha millat va elatlarning urf-odatlarini va milliy an'analarini hurmat qilishni kafolatlaydi.

Mazkur moddada mustahkamlangan O'zbekiston fuqarolarining milliy tengligi tamoyili inson huquqlariga oid barcha xalqaro hujjatlarga, jumladan O'zbekiston Respublikasi nomidan uning Prezidenti imzolagan «Yangi Yevropa uchun Parij Xartiyasi» talablariga to'la mos keladi.

Mazkur prinsip mamlakatimizdagi tinchlik, siyosiy barqarorlik va millatlararo totuvlikning huquqiy kafolati bo'lib xizmat qilmoqda.

Ana shu talablardan kelib chiqib mamlakatda millatlararo munosabatlarni takomillashtirishga qaratilgan amaliy choralar belgilandi. Shuni aytish lozimki, mamlakatda millatlararo munosabatlarni takomillashtirishda tilning o'рни va roli benihoyadir. O'zbekistonda o'zbek tili davlat tili maqomini oldi, bu o'z navbatida uning mamlakatda yashovchi fuqarolar o'rtasida millatlararo aloqalar vositasiga aylanishiga imkon berdi.

Ma'lumki, 1989-yil oktabrda Oliy Kengash sessiyasida o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan edi. Davlat manfaatlarini nuqtayi nazaridan bunday zarur chora respublikada istiqomat qilayotgan rusiyzabon aholi tomonidan bir xil qabul qilinmadi. Ularning ruhan tayyor emasligini hisobga olib mamlakat rahbariyati til Dasturini amalga oshirishda shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymadi, unga hayot taqozosi asosida o'zgartirishlar kiritib bordi.

Mamlakatda muntazam sur'atda til siyosati haqida tushuntirishlar olib borildi, mavjud vaziyatni hisobga olib, zaruriyatga qarab ish yuritish, hujjatlarni rasmiylashtirish, turli ma'muriy-idoraviy munosabatlarda rus tili va boshqa millatlar tillaridan foydalanila boshlandi. Shuning uchun bu masala 1995-yil 21-dekabrda Oliy Majlis IV sessiyasi kun tartibiga kiritilib, «O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida Qonun qabul qilindi. Ushbu Qonunning 4-moddasida «O'zbekiston Respublikasida davlat tilini o'rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo'lish ta'minlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi», — deb yozib qo'yildi.

Bu qoida millatlararo do'stlik munosabatlarini yaxshilashga xizmat qila boshladi. Mamlakatda milliy-madaniy markazlarni tashkil qilish asosida tub aholi bo'lmagan xalqlar milliy an'analari, madaniyatlari va boshqa o'ziga xos jihatlarini rivojiga keng yo'l ochib berdi.

1989-yilda Madaniyat vazirligi qoshida mamlakat millatlararo Madaniyat Markazi tashkil etildi. Uning tarkibida 12 ta, jumladan Qozoq, Koreys, Arman, Ozarbayjon, Tojik madaniyat markazlari faoliyat ko'rsata boshladi.

Vaqt o'tgani sayin ularning soni orta bordi. Xususan, 1995-yilga kelib mamlakatda ularning soni 80 tadan oshdi. Bunday rivojlanish o'z navbatida ularning faoliyatini muvofiqlashtirishni taqozo qilardi. Shu maqsadda 1992-yil yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi «Baynalmilal madaniyat» Markazi tashkil qilindi. Milliy-madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularga ko'maklashish uning asosiy vazifasi qilib belgilandi. Shu bilan bir qatorda davlat organlari va jamoat tashkilotlariga

O‘zbekiston hududida yashovchi milliy guruhlarining ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga doir masalalarni o‘rganishda yordam berishi lozim deb, ta’kidlanadi.

Markaz faoliyatidagi muhim yo‘nalish umumxalq bayramlariga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishda faol ishtirok etish bo‘ldi. Jumladan, respublikada o‘tkaziladigan an’anaviy «Navro‘z» bayramida nafaqat mahalliy millat vakillari, balki respublikada yashayotgan barcha millat vakillari qatnashadilar, bu bayramga chuqur hurmat bilan qaraydilar. O‘z navbatida mahalliy aholi ham ruslarning milliy bayrami bo‘lmish «Maslennisa», «Rojdestvo», tatarlarning «Sabanto‘y» va boshqa qator xalqlarning milliy bayramlarida faol ishtirok eta boshladilar.

Bu bir jihatdan ma’lum bir xalqning milliy bayramini, o‘ziga xos an’ana va urf-odatlarini o‘rganishga, shu tufayli o‘z dunyoqarashlarini boyitishga yordam beradi. Ikkinchidan, o‘zaro hurmat va yaqin qardoshlik asosida umumiy xonadon – yagona vatan tuyg‘usini kuchaytiradi. Uchinchidan, mamlakatda sog‘lom, ma’naviy-ruhiy iqlimning barqaror bo‘lishini ta’minlaydi.

Mustaqillik yillarida «Baynalmilal madaniyat» Markazi tomonidan amalga oshirilgan ishlarning yana bir yo‘nalishi bu 1994-yili boshlangan birinchi «Xalq ijodiyoti» festivali bo‘ldi. Bu festival O‘zbekiston mustaqilligining uch yilligi munosabati bilan tashkil etildi va u har ikki yilda bir marta o‘tkazishga qaror qilindi.

O‘zbekistonda qardosh xalqlar ijodkorlari bilan uchrashuvlar, ular ijodiga bag‘ishlangan kechalar o‘tkazish odat tusiga kirdi. Keyingi yillarda O‘zbekiston kunlarining Qozog‘istonda o‘tkazilishi, Qozog‘iston kunlarining O‘zbekistonda o‘tkazilishi, qozoq va o‘zbek xalqi o‘rtasidagi qardoshlarcha aloqaning yanada ravnaq topishiga katta hissa qo‘shdi. Rus madaniyat Markazi Rossiyaning O‘zbekistondagi elchixonasi bilan hamkorlikda S. Ya. Yesenin tug‘ilgan kunining 100 yilligini, Qozoq madaniyat Markazi Qozog‘istonning O‘zbekistondagi elchixonasi bilan birgalikda buyuk qozoq shoiri Abay tavalludining 150 yilligini, milliy istiqloq uchun tolmas kurashchilar Turor Risqulov, Sultonbek Xojanovlarning 100 yilligini, Qirg‘iz madaniyat Markazi Qirg‘izistonning O‘zbekistondagi elchixonasi bilan birgalikda «Manas» eposining 1000 yilligini keng nishonladilar.

Bu sanalar o‘z navbatida o‘zbek xalqining ham katta bayramiga aylandi. Milliy madaniyat markazlari, mamlakat fanlar akademiyasi va boshqa qator oliy o‘quv yurtlari ishtirokida ilmiy-amaliy konferensiyalar o‘tkazildi.

Ukraina milliy madaniy Markazi «Taqdirimiz—yagona» mavzuyida davra stoli tashkil etdi. Atoqli rus shoiri S. Yesenin yubileyiga bag‘ishlangan kecha ishtirokchilari «O‘zbekiston – umumiy uyimiz» mavzuyida suhbat o‘tkazdilar.

Shuningdek, turli millatga mansub ijodkorlar asarlarining ko'rgazmalarini tashkil qilishga katta e'tibor berildi.

O'zbekistonda o'tkaziladigan «Turkiston — umumiy uyimiz» mavzuidagi kechalar, uchrashuvlar xalqlar o'rtasidagi do'stlik va ahillikni kuchaytirishda katta rol o'ynamoqda.

Xullas, bugungi kunda O'zbekistonda 80 dan oshiq milliy-madaniy Markazlar xalqlar o'rtasidagi chinakam inoqlikni tarbiyalashda katta rol o'ynab, ularning xalqlar o'rtasida obro'-e'tibori tobora osha bordi.

38.3. Milliy xavfsizlikni ta'minlash

Istiqlol yillarida mamlakatda davlat mustaqilligini mustahkamlash, uning hududida barqarorlikni ta'minlash asosiy vazifa sifatida hamisha mamlakat hukumatining diqqat-e'tiborida bo'ldi. Shu davr mobaynida O'zbekistonda milliy xavfsizlikning keng qamrovli konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Milliy xavfsizlikni ta'minlash masalalari mustaqillikning birinchi kunlaridanoq mamlakat hududiy yaxlitligini saqlash, davlat suverenitetini himoya qilish, fuqarolar tinchligi va milliy barqarorlikni ta'minlash tamoyillari o'rtaga tashlandi. Bir qator xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlash yo'li tutildi. Lekin, milliy xavfsizlik masalasi davlat siyosati va uning uzoq yillarga mo'ljallangan strategiyasi sifatida ilk bor mamlakat Oliy Majlisining 1995-yil 24-fevralda bo'lib o'tgan birinchi sessiyasida Prezident I. Karimov tomonidan aniq va batafsil yoritib berildi. Unda jahonda yuz bergan yangi siyosiy-iqtisodiy voqeelikdan so'ng, davlatlararo munosabatlar muxoliflikka emas, balki xalqaro-huquqiy me'yorlarga mos yangi tartibotga asoslangan bo'lishi kerakligi to'g'risidagi g'oya ilgari surildi. Milliy xavfsizlikning keng qamrovli konsepsiyasini ishlab chiqish, uning huquqiy asosini belgilovchi qonunlar yaratish zarurligi ko'rsatib berildi.

Ana shu ko'rsatmalardan kelib chiqib mamlakatimizda ilk marta 1996-yil 24-aprelda Oliy Majlisning beshinchi sessiyasida ma'qullangan to'rt bo'lim, yigirma sakkiz moddadan iborat bo'lgan «Milliy xavfsizlik to'g'risida»gi Qonun loyihasi muhokama qilindi. Milliy xavfsizlik tizimini shakllantirish, milliy xavfsizlikni ta'minlash borasidagi vazifalar va ularni amalga oshirish prinsiplarini huquqiy normalarda belgilab beradigan butunlay yangicha hujjat sifatida ko'rib chiqildi. 1997-yil avgust oyida Oliy Majlisning IX sessiyasida O'zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik konsepsiyasi qabul qilindi.

«Milliy xavfsizlik to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni mamlakatimizda o'ta murakkab va serqirra ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun mo'ljallangandir.

1995-yil mayda Prezident Islom Karimov «O‘zbekiston Respublikasining milliy xavfsizlik kengashi to‘g‘risida» Farmon qabul qildi. Ushbu Farmonga ko‘ra, birinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi birinchi sessiyasining qarorlariga muvofiq milliy xavfsizlik masalalari bo‘yicha davlat siyosatini ishlab chiqish va muvofiqlashtirish lozim, deb topildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida milliy xavfsizlik kengashi, xavfsizlikni ta‘minlash sohasida davlatning ichki va tashqi siyosati masalalari bo‘yicha maslahat organi tashkil etildi.

Shubhasiz, yuqoridagilar O‘zbekistonda milliy xavfsizlikni ta‘minlash va barqarorlikni saqlab turishning ishonchli omili bo‘lib xizmat qildi.

Ayniqsa, O‘zbekistonda bugungi kunda milliy xavfsizlikni, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta‘minlanishi mamlakatda Prezident I. Karimov tomonidan olib borilayotgan ichki va tashqi siyosatning natijasi deb bilmok kerak.

Davlatimiz rahbarining BMT, EXHT va boshqa bir necha o‘nlab tashkilotlar minbarlaridan turib, shuningdek, davlat tashriflari chog‘idagi uchrashuvlar va suhbatlarda mintaqaviy mojarolar, xalqaro terrorizm xavfi xususida bildirgan butunlay yangi g‘oyalari keyinroq, ya‘ni 1997-yili yaxlit strategik konsepsiya – «**O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, taraqqiyot kafolatlari va barqarorlik shartlari**» nomli asar sifatida dunyoga keldi. Xalqaro jamoatchilik e‘tirofini qozongan ushbu kitob **jahon siyosatida favqulodda yangilik sifatida qabul qilindi va dunyoning bir necha o‘nlab mamlakatlarida tarjima qilinib, nashr etildi.**

Prezident Islom Karimov o‘z asarida Yer yuzidan «sovuq urush» vasvasasi yo‘qoldi, biroq endi mamlakatlararo, mintaqaviy nizolar, ma‘lum bir hududlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar butun dunyo taqdirini belgilaydigan ulkan xavfga aylanishi mumkin, degan tashvishni bildirgan edi. Afg‘oniston voqealari va Tojikistondagi xunrezliklar misolida gapirib, bunday salbiy hodisalar Yer sharining turli mintaqasida turli shakllarda va turli maqsadlarda yuz berishi mumkinligini, bular qanday shaklda va maqsadlar yo‘lida vujudga kelmasin inson va insoniyat, odam va olam taqdiriga tajovuz ekanligini, u bilan mutlaqo murosa qilib bo‘lmasligini ko‘rsatib o‘tgan edi. Jumladan, u «**Urush jamiyat va davlatning holatiga falokatli ta‘sir ko‘rsatadi. Bu – urushning tabiiy yo‘ldoshi bo‘lgan iqtisodiy vayronagarchilikdagina emas, balki millatning kelajagi uchun muhim ahamiyat kash etuvchi boshqa sobalarda ham namoyon bo‘ladi. Qanday bo‘lmasin, vatandoshlar o‘rtasida nifoqni avj oldirish, o‘z uylarini tashlab ketishga majbur bo‘lgan qochoqlar oqimi, jamiyatda jinoyatchi unsurlarning ko‘payishi, urushni pul topishning yagona manbayiga aylantirish, millatning genofondiga putur yetkazish,**

yosh avlodni hatto boshlang'ich ta'lim olish imkoniyatidan ham mahrum qilish shu xalqning kelajagini ta'minlay oladi deyishga kimning ham qurbi yetadi yoki vijdoni yo'l qo'yadi», degan muammoni o'rtaga tashladi.

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasini davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinligini himoya qilish maqsadida Mudofaa ishlari vazirligi va Milliy gvardiyani tuzish zarur ekanligi dastlab Ohy Kengashining 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida»gi bayonotida ko'rsatilgan. Bu bayonot xuddi shu kuni qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonunda huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Qonunda suveren respublikaning Mudofaa ishlari vazirligi hamda Milliy gvardiyani tuzish huquqi bilan birga muqobil xizmatni tashkil qilish, shuningdek, O'zbekiston hududida joylashtirilgan sobiq SSSR Qurolli Kuchlarini boshqarish masalalarida harbiy siyosatni amalga oshirish huquqi ko'zda tutilgan edi. Ushbu hujjatlar O'zbekiston Respublikasining o'z Qurolli Kuchlarini tuzishida huquqiy asos bo'ldi.

«O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonunni bajarish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 6-sentabrdagi Farmoniga asosan Mudofaa ishlari vazirligi tashkil qilindi.

Mudofaa vazirligi Bosh shtabi va boshqarmasi hamda ularning joylardagi quyi bo'linmalari tuzildi.

Mudofaa vazirligi zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatildi:

- a) harbiy safarbarlik tadbirlari;
- b) Milliy gvardiya tuzish va ta'lim berish;
- d) fuqarolar mudofaasini amalga oshirish;
- e) harbiy bilim yurtlarini komplektlash;
- f) oliy o'quv yurtlaridagi harbiy kafedralar va muntazam harbiy tay-yorgarlik maktablarini boshqarish;
- g) muqobil xizmatni tashkil qilish;
- h) urush qatnashchilari va baynalminalchi jangchilar bilan ishlash;
- i) harbiy xizmatga chaqirish, qo'shinlarni joylashtirish, harbiy mashqlar o'tkazishni muvofiqlashtirish, qo'shin va harbiy obyektlarni yangi joyga ko'chirib joylashtirish;
- j) harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini huquqiy va ijtimoiy himoya qilish;

k) yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va hokazolar.

Ittifoq inqirozga yuz tutayotgan bir paytda va mustaqil suveren davlatimiz qurilishining dastlabki bosqichlarida Mudofaa ishlari

vazirligining tashkil qilinishi O‘zbekiston Respublikasi hududida davlat harbiy mashinasi barbod bo‘lishining oldini oldi va boshqa davlatlar hududida xizmat qilayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari ijtimoiy himoya qilinishini ta’minladi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining vujudga kelishida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 14-yanvardagi Qarori katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Ushbu Qarorga muvofiq, mamlakat hududida joylashgan sobiq Ittifoq Qurolli kuchlarining barcha qismlari, qo‘shimlari, harbiy o‘quv yurtlari, muassasa va tashkilotlari O‘zbekiston Respublikasi tasarrufiga olindi va ular moddiy-texnika va mablag‘ bilan ta’minlanadigan bo‘ldi. Shu tarzda mustaqil mamlakat Qurolli Kuchlarini barpo etishning dastlabki tashkiliy davri yakunlandi. 1993-yil 29-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq 14-yanvar «Vatan himoyachilari kuni» deb e’lon qilindi.

Respublika tasarrufiga olingan harbiy tuzilmalarga rahbarlik qilish Mudofaa ishlari vazirligiga yuklatildi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 3-iyuida bo‘lib o‘tgan 12-chaqiriq 10-sessiyasi mamlakat Qurolli Kuchlarini tuzishda muhim voqea bo‘ldi. Sessiyada «Mudofaa to‘g‘risida», «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida» va «Muqobil xizmat to‘g‘risida»gi muhim harbiy qonunlar, shuningdek, harbiy qasamyodning yangi matni va qasamyod qildirish tartibi qabul qilindi. Mustaqil O‘zbekiston Qurolli Kuchlarining boshqaruvini yanada takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan Mudofaa ishlari vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga aylantirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining huquqiy bazasini yaratishdagi birinchi bosqichning yakunlanishi 1992-yil 8-dekabrda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 11-sessiyasiga to‘g‘ri keldi. Bu sessiyada davlatning Asosiy qonuni – O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi. Konstitutsiyaning 26-bobi mudofaa va xavfsizlik masalalariga bag‘ishlangan. Konstitutsiyaning 125-moddasida «O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O‘zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi. Qurolli Kuchlarining tuzilishi va ularning tashkil etish qonun bilan belgilanadi», deyilgan. Shuningdek, shu bobning 126-moddasida «O‘zbekiston Respublikasi o‘z xavfsizligini ta’minlash uchun yetarli darajada qurolli kuchlarga ega», deb ko‘rsatildi.

Davlatimizning harbiy sohasidagi tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlari 1996-yil 26-dekabrda qabul qilingan «O‘zbekiston

Respublikasi tashqi siyosati faoliyatining asosiy tamoyillari» haqidagi Qonunda mujassamlangan.

Shunga asosan bu qonunda «O‘zbekiston hech qanday harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmaydi va harbiy-siyosiy blokga transformatsiya qilingan vaqtda har qanday xalqaro tashkilotlardan chiqish huquqini o‘z ixtiyorida qoldiradi» deb qonuniy rasmiylashtirgan. Qonunning ahamiyati va kerakliligi yaqqol ko‘rinib turibdi. Bu qonun O‘zbekistonning tinchliksevarlik siyosatini, uning dunyo hamjamiyatida integratsiyaga intilishini yana bir bor ko‘rsatmoqda.

Qurolli Kuchlarning huquqiy asoslarini yanada rivojlantirishda 1997-yil 29-avgustda tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizligi konsepsiyasi» haqidagi O‘zbekiston Respublikasi qonuni alohida ahamiyatga egadir.

Bu konsepsiyada diniy ekstremizm, millatlararo va etnik ziddiyatlarning kuchayishi, qurollarning, jumladan yadro qurolining tarqalishi, xalqaro terrorism, uyushgan jinoyatchilikning avj olishi, narkotik moddalarning tarqalishi hamda ekologik tanazzul ko‘rinishidagi mintaqaviy va yalpi tahdid mavjudligi ta’kidlanadi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, Konsepsiya davlatning muhim vazifalaridan biri milliy xavfsizlikning samarali tizimini yaratish, O‘zbekistonning mintaqaviy va yalpi xavfsizlikni ta’minlovchi kollektiv hamkorlik tizimiga kirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Qurolli Kuchlarining eng muhim vazifalari milliy harbiy mutaxassislarni tayyorlash va armiyani texnik jihatdan jihozlashdan iborat. Ana shulardan kelib chiqib, so‘nggi paytlarda O‘zbekistonda Qurolli Kuchlar uchun yuksak malakali ofitserlar tayyorlaydigan bir qancha harbiy o‘quv yurtlari tashkil etildi. Armiyani texnik jihatdan jihozlashni mustahkamlash chora-tadbirlari ko‘rilmogda.

Umuman O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari – bu harbiy tuzilmalar, harbiy o‘quv yurtlari va boshqa harbiy qismlardan iborat, davlat tomonidan tashkil qilingan va ta’minlangan bo‘lib, ular urush va harbiy mojarolarning oldini olish, O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini, hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayot kechirishini va xavfsizligini ta’minlashga qaratilgandir.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari davlatni himoya qilishda butun mudofaa tizimining asosini tashkil etuvchi yadro hisoblanib, o‘z tarkibiga quyidagilarni oladi: Quruqlikdagi qo‘shinlar, Harbiy-havo va havo hujumidan mudofaa qo‘shinlari, Maxsus qo‘shinlari, Milliy gvardiya brigadasi, Chegara va ichki qo‘shinlar, Milliy xavfsizlik xizmati, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va boshqa vazirliklarga, idoralarga qarashli harbiy qismlar.

Ouruqlikdagi qo‘shinlar Qurolli Kuchlarining eng ko‘p sonli turi bo‘lib,

boshqa qo'shin turlarining birgalikdagi harakati bilan tajovuzni qaytarish, zarur bo'lganda esa dushmanni tor-mor qilishga mo'ljallangan.

Harbiy havo va havo hujumidan mudofaa qo'shinlari Qurolli Kuchlarining manyovrli turlaridan biri. Ular quruqlikdagi jang maydonida bo'layotgan yirik operatsiyalarning borishi va yakuniga ta'sir qilish, mamlakat havo chegaralarini qo'riqlash, quruqlikdagi va havodagi dushmanga zarba berish imkoniyatiga ega. Undan tashqari O'zbekiston Respublikasining hududini, uning havo chegaralarini, eng muhim davlat va sanoat obyektlarini hamda qo'shin guruhlarini havo hujumidan ishonchli mudofaa qilish vazifasi yuklatilgan.

Milliy gvardiya O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tarkibiy qismidir. Bu gvardiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 23-yanvardagi qaroriga binoan, respublika Qurolli Kuchlari qismlari negizida tuzildi. Milliy gvardiyaning asosiy vazifasi: O'zbekiston Respublikasining davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligi hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini muhofaza etishdir. Gvardiya tarkibi fuqarolarni majburiy harbiy xizmatga chaqirish va armiya xizmatiga o'z ixtiyori bilan borishni birgalikda muvofiqlashtirish asosida to'planadi. Gvardiya zimmasiga bir qancha o'ziga xos vazifalar, jumladan, davlat tantana marosimlarida ishtirok etish yuklatilgan. Shu maqsadda gvardiya tarkibida faxriy qorovul rotasi tuzilgan. Shuningdek, gvardiya zimmasiga alohida muhim davlat obyektlarini qo'riqlash vazifalari ham yuklatilgan.

Maxsus qo'shinlar esa jangovar harakatlarni operativ ta'minlash masalalarini hal etish uchun mo'ljallangan.

1999-yilgacha Chegara qo'shinlari Milliy Xavfsizlik xizmati tarkibida bo'lishgan. 1999-yil 13-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan O'zbekiston Respublikasi Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo'mita tashkil etildi. Qo'mita davlat boshqaruvining markaziy organi hisoblanib, chegaraga doir siyosatni amalga oshirishni, davlat chegaralarini himoya qilish va qo'riqlashni tashkil etishni ta'minlaydi.

Ichki qo'shinlar Ichki Ishlar vazirligi tarkibida tashkil qilingan. Ularning asosiy vazifalari militsiya organlari bilan birgalikda shaharlarda, aholi yashaydigan joylarda, toifalangan xalq xo'jaligi korxonalarida va boshqa jamoat joylarida jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning huquqiy va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, tashkilotlar, idoralar, muassasalarni jinoyatchilikdan va boshqa jamiyatga qarshi harakatlardan muhofaza qilishga qaratilgan.

Milliy xavfsizlik xizmati, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va boshqa vazirliklar va tashkilotlarning harbiy tuzilmalarining asosiy vazifasi milliy xavfsizlikni ta'minlashning o'ziga xos vazifalarini bajarish, tabiiy va

texnogen tUSDagi favqulodda vaziyatlarni oldini olish, ularning oqibatlarini tugatish va inson hayotini ta'minlovchi xalq xo'jaligi korxonalarini qo'riqlash hisoblanadi.

Armiya mamlakat budjetidan ajratiladigan mablag' hisobiga ta'minlanadi. Har yili mudofaaga ajratiladigan mablag' miqdori Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadi. Qurollar, harbiy texnika, butlovchi qismlar va boshqa ashyolarni ishlab chiqarish, yetkazib berish va ta'mirlash, mudofaani zarur oziq-ovqatlar bilan ta'minlash, shuningdek, mudofaa manfaatlariga xizmat qiluvchi ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va qurilish ishlarini amalga oshirish, rivojlantirish va saqlash to'liq hajmda davlat buyurtmasiga kiritiladi.

Qurolli Kuchlarga Oliy boshqaruvni Prezident amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasiga muvofiq Prezident mamlakat Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh Qo'mondoni hisoblanadi. «Mudofaa to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, Prezident mamlakat mudofaa qobiliyatini ta'minlash, qurolli tajovuz bo'lgan hollarda davlat suvereniteti, hududiy yaxlitligi va mustaqilligini himoya qilish yuzasidan zarur chora-tadbirlar qabul qiladi, mudofaa vazirini tayinlaydi. Qurolli Kuchlarning qurilish, ularni strategik qo'llash rejasi, shuningdek, safarbarlik rejasini tasdiqlaydi. Qurolli Kuchlarga jangovar harakatlarni olib borish to'g'risida qaror qabul qiladi va buyruq beradi.

Qonunchilikda Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, Mudofaa vazirligi, boshqa vazirlik va idoralar, davlat hokimiyati mahalliy organlari va boshqarmalarining mudofaa sohasidagi vakolatlari, shuningdek, korxonalar, muassasa, tashkilot va fuqarolar majburiyatlari aniq belgilab berilgan. Masalan, mudofaa, harbiy qurilish, harbiy xizmatchilar va ular oila a'zolarini ijtimoiy-huquqiy himoyalash masalalari bo'yicha qonun aktlarini amalga oshirishda parlament nazoratini o'rnatish Oliy Majlis zimmasiga yuklatilgan.

Vazirlar Mahkamasi vakolatlariga mudofaani ta'minlash bo'yicha o'ziga bo'ysunadigan barcha tuzilmalar faoliyatiga rahbarlik qilish, Qurolli Kuchlarni qurollar, harbiy texnika va boshqa moddiy vositalar bilan ta'minlash, mudofaa va Qurolli Kuchlar ehtiyoji uchun moddiy texnika resurslari, oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa buyumlarning hajmini, harbiy va muqobil xizmatga chaqirilishi lozim bo'lgan respublika fuqarolarining soni hamda ularning harbiy va muqobil xizmatni o'tash tartibini belgilash, harbiy xizmatga chaqirish hamda haqiqiy muddatli xizmatdagi harbiy xizmatchilarni zahiraga chiqarish, harbiy majburiyatlilarni yig'ilishga chaqirish, safarbarlik va harbiy xizmatdan bo'shatish to'g'risida qarorlar qabul qilish kabilar kiradi.

Mudofaa vazirligi Qurolli Kuchlarni davlat boshqaruvining markaziy organi hisoblanadi. Vazirlik Qurolli Kuchlarning ahvoli va kelgusidagi

taraqqiyotiga, jangovar tayyorgarligi va intizomiga to'liq javobgar. U mudofaa sohasi va harbiy qurilishda ishlab chiqilgan davlat siyosatining Qurolli Kuchiarda amalga oshirilishini ta'minlaydi. Mudofaa rejalari va konsepsiyasi loyihasi, Qurolli Kuchlarning qurilishi va taraqqiyoti, qurollar va harbiy texnika taraqqiyotining davlat dasturlari, mudofaa ehtiyojlari uchun ajratiladigan mablag'lar bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi va Vazirlar Mahkamasi muhokamasiga taqdim etadi. Mudofaa va harbiy qurilish sohalarida ilmiy tadqiqotlar tashkil qiladi va o'tkazadi, harbiy texnika va boshqa ashyolar yaratish, ishlab chiqarish va ta'mirlash uchun davlat buyurtmalarining bajarilishini nazorat qiladi.

Davlat harbiy strategiyasini shakllanishi va aniq yo'nalishlarini belgilashda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining I sessiyasi muhim hissa qo'shdi. Bu sessiyada mamlakatimiz Prezidenti I A. Karimov tomonidan birinchi marta milliy xavfsizlikning eng muhim (asosiy) to'qqiz tamoyili shakllantirib berildi. O'zbekistonning jahon hamjamiyati va davlatlararo xavfsizlik tizimidagi faoliyati, davlatlararo bitimlar mustahkam tizimini yaratish va unga so'zsiz amal qilish, tashqi siyosatni mafkuradan to'la xoli etish, qo'shilmaslik harakatida hamda MDH davlatlarining kollektiv xavfsizlik tizimida ishtirok etish, Markaziy Osiyo davlatlari bilan har tomonlama o'zaro hamkorlikni chuqurlashtirish, milliy xavfsizlik tizimini yaratish hamda jamiyatning ijtimoiy-ruhiy, ma'naviy va axloqiy, madaniy va tarixiy ildizlariga tayanish shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ta'riflab berilgan milliy xavfsizlik tamoyillari davlatimiz harbiy strategiyasining huquqiy asosini yakunlovchi hujjat bo'lmish harbiy doktrina asosini (negizini) tashkil etdi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, harbiy doktrina hatto sobiq Sovet Ittifoqida ham yo'q edi. Bu O'zbekiston harbiy siyosatini huquqiy asosini, strategik maqsad va g'oyalari ko'rsatadi.

Yosh suveren davlat bo'lmish O'zbekiston o'zining mustaqillik yillari mobaynida tashqi siyosat, davlatlararo munosabatlar, urush va tinchlik muammolarining prinsipial yangi nuqtayi nazari va masalalariga tayanadigan, milliy xavfsizlikning umumdavlat konsepsiyasining tarkibiy qismi bo'lgan hamda mamlakatning mudofaa siyosatining asosini tashkil etgan harbiy Doktrinani ishlab chiqdi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi sessiyasida 1995-yil 30-avgustda qabul qilindi.

Harbiy Doktrina harbiy qurilishning asosi, harbiy sohani isloh qilish va harbiy-texnik siyosatning istiqbollarini ishlab chiqish hamda harbiy bilim, harbiy san'at va ofitser kadrlarni tayyorlashni yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi.

Amaldagi O'zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasining asosiy g'oyalari rivojlantira borib, dunyoda, mintaqada va mamlakatda ro'y

berayotgan geopolitik vaziyatni hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi ishlab chiqildi va qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizligi konsepsiyasining prinsiplar o‘rinlariga, mamlakat va mintaqaning xavfsizligi, tinchligi va barqarorligiga tahdid solayotgan kuchlarni chuqur o‘rganishga asoslangan holda Mudofaa doktrinasi harbiy qurilish, ishonchli mudofaani, davlatning hududiy yaxlitligi va xavfsizligini ta‘minlashga doir asosiy tamoyillarni belgilab beradi.

Qabul qilingan doktrina mutlaqo mudofaaviy xususiyatga ega bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining tinchlikparvar siyosati ifodasidir. Doktrinada umumiy xavfsizlik tamoyilidan kelib chiqqan holda, Markaziy Osiyo davlatlarining mintaqada tinchlik va barqarorlikni saqlash borasidagi sa‘y-harakatlarni birlashtirish zarurligi ta‘kidlanadi.

Doktrinada vazirlik va idoralarning, davlat va nodavlat tashkilotlari va muassasalarning mamlakat mudofaa salohiyatini ta‘minlash borasidagi o‘rni va ma‘suliyati belgilab berilgan. Doktrina qoidalarini amalga oshirish Vatanimizning har bir fuqarosi uchun muqaddas burchdir.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

1. Aholini kuchli ijtimoiy himoyalash yuzasidan qanday zarur choralar amalga oshirilmoqda?
2. O‘quvchi yoshlarning ijtimoiy himoyalash qanday amalga oshirilmoqda?
3. 1994-yil 24-avgustdagi («Kam ta‘minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid tadbirlar to‘g‘risida»gi) Prezident Farmonining ahamiyati nimalardan iborat?
4. Millatlararo totuvlik choralari qanday amalga oshirilmoqda?
5. Milliy xavfsizlik borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
6. Mudofaa vazirligi vazifalari nimalardan iborat ekanligi haqida gapirib bering.
7. O‘zbekiston Qurolli Kuchlarining eng muhim vazifalari nimalardan iborat?

39-MAVZU: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISINING IKKI PALATALI BO‘LIB SHAKLLANISHI

1. O‘zbekistonda parlament islohoti, uning maqsadi, sabablari va huquqiy asoslari.
2. O‘zbekiston ikki palatali parlamentining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi.

3. Ikki palatali parlamentda qonun chiqarish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari.
4. «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunining qabul qilinishi zaruriyati, uning mohiyati va ahamiyati.

39.1. O'zbekistonda parlament islohoti, uning maqsadi, sabablari va huquqiy asoslari

Istiqlol yillarida ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida, shu jumladan, davlat qurilishi sohasida amalga oshirilgan tub islohotlar O'zbekistonda ikki palatali professional parlament tizimiga o'tish uchun zarur zamin yaratdi. «Professional parlament turli toifalar, siyosiy partiya va harakatlar vakillari vositasida jamiyatdagi mavjud siyosiy-ijtimoiy qarashlarni o'zida aks ettiradi... Maqsad shuki, ular dunyo tajribasini, qaysi mamlakatda qanday qonunlar bor, ularning qanday afzal jihatlari mavjud, bugungi zamon nimani talab qilmoqda – barchasini o'rgansin, ibratli jihatlarni hayotga tatbiq etsin»¹.

Yurtboshimiz ilgari surgan jamiyatimizni demokratlashtirish va yangilash konsepsiyasida mamlakatimizni modernizatsiya va isloh etishda parlamentning vakolat va huquqlarini kengaytirish, uning roli va ta'sirini kuchaytirish muhim o'rin tutadi². Chunki parlament taraqqiyotning o'zbek modelida hokimiyatning boshqa tarmoqlari – ijroiya va sud hokimiyati bilan birga alohida ahamiyat kasb etadi. Parlament hokimiyat vakolatlarini taqsimlash tizimida o'ziga xos mutanosib va barqaror muvozanatga erishish vazifasini o'taydi.

Parlament islohoti XXI asr boshida O'zbekiston demokratik davlatchilik taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Mustaqil va kuchli qonun chiqaruvchi hokimiyatsiz demokratik huquqiy davlatni tasavvur etib bo'lmaydi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan parlament islohotining asosiy maqsadlari quyidagilardan iboratdir:

- ikki palatali tizimga o'tish;
- hokimiyat vakolatlarini taqsimlash tizimida parlamentning roli va ta'sirini kuchaytirish;

¹ I.A. Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.8. – T., «O'zbekiston», 2000, 483-b.

² Q a r a n g: I.A. Karimov. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. –T., «O'zbekiston», 2005, 96-b.

- qonun chiqarish jarayonini demokratiashtirish;
- qabul qilinayotgan qonunlar sifati va samaradorligini oshirish;
- jamiyatni demokratlashtirish va yangilashning, «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati»ga o‘tishning mustahkam qonuniy asoslarini yaratishdan iboratdir.

Parlament islohotining asosiy sabablari sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Mamlakatda professional parlamentga o‘tish uchun real siyosiy va boshqa shart-sharoit yuzaga keldi. Mustaqillikning dastlabki yillarida deputatlar doimiy asosda ishlashlari uchun obyektiv sharoitlar mavjud emas edi. Bugungi kunda parlamentda professional asosda faoliyat ko‘rsatishga tayyor siyosatchi, huquqshunos va qonun ijodkorlarining tegishli kasbiy tayyorgarlikka ega yetarli qatlami shakllandi.

2. Sovetlarga xos soxta vakillik tizimi tamoman eskirdi va O‘zbekistonda, xorijiy parlamentarizm tajribasidan ijodiy foydalangan holda, qonunchilik hokimiyati qaror topdi, milliy parlament an‘analari rivojlandi.

3. Ko‘ppartiyaviylik tizim va zamonaviy parlamentarizmga xos xususiyatlar, ya’ni partiyalar fraksiyalari tashkil topdi.

4. Elektorat – tegishli siyosiy madaniyat ruhida tarbiyalangan saylovchilar shakllandi.

5. Ikki palatali parlamentga o‘tish uchun tegishli huquqiy asoslar yaratildi.

6. Ikki palatali parlament tashkil topishi qonun ijodkorligi faoliyatiga mintaqalarning ta’sir doirasini kuchaytiradi, qabul qilinadigan qonunlar sifatini yaxshilaydi, qonunchilik faoliyati demokratlashtirilishiga olib keladi.

7. Hokimiyatning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi tarmoqlari o‘rtasida imkon qadar kuchlarning barqaror muvozanati o‘rnatiladi.

Ikki palatali parlament tashkil etilishining g‘oyadan real voqelikka aylanishi uchun 2002-yil 27-yanvarda umumxalq referendumini o‘tkazildi. Referendum natijalari asosida «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to‘g‘risida»gi Konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi. Hajm jihatdan ixcham va muxtasar faqat 10 moddadan iborat konstitutsiyaviy qonun ikki palatali parlament huquqiy poydevorining ilk tamal toshi va bu boradagi konstitutsiyaviy qonunchilikning asosi bo‘ldi. Ushbu konstitutsiyaviy qonun «O‘zbekistonning qonun chiqaruvchi oliy organi – ikki palatali parlamentning tuzilishi, tarkibi, faoliyat yuritish asoslarini, ...eng muhimi – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati poydevorini shakllantirish bo‘yicha qonunchilikni takomillashtirishning

asosiy yoʻnalishlarini tasdiqlab berdi»¹. Bu yoʻnalishda, jumladan, «Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi toʻgʻrisida»gi, «Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati toʻgʻrisida»gi konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilindi. Mazkur konstitutsiyaviy qonunlar Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining moddalariga tegishli oʻzgartishlar va qoʻshimchalar kiritish uchun asos boʻldi.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan oʻzgartishlar asosan uning beshinchi boʻlimi XVIII–XX va XXIII boblariga taalluqlidir. Jami Konstitutsiyaga kiritilgan 32 moddadagi oʻzgartishlar va qoʻshimchalardan 14-moddasi XVIII bobdagi Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining huquqiy maqomiga bagʻishlangan. Ushbu oʻzgartirish va qoʻshimchalarni olti guruhga boʻlib koʻrib chiqish mumkin.

Birinchi guruh oʻzgartirish va qoʻshimchalar Konstitutsiyaning 76-moddasiga oid boʻlib, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi maqomi va tarkibiga taalluqlidir.

Ikkinchi guruh oʻzgartishlar va qoʻshimchalar Konstitutsiyaning 77, 81, 82, 84, 87, 88-moddalariga kiritilgan boʻlib, Oliy Majlisning ikkala palatasiga – Qonunchilik palatasi va Senatga taalluqlidir.

Uchinchi guruh oʻzgartishlar va qoʻshimchalar Konstitutsiyaning 78-moddasiga taalluqli boʻlib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlariga bagʻishlangandir.

Toʻrtinchi guruhga oid 79, 80, 85 va 86-moddalarga kiritilgan oʻzgartishlar va qoʻshimchalar Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining mutlaq vakolatlariga, palatalarning tarkibi va ularni saylash tartibi hamda Qonunchilik palatasi Spikeri va Senat Raisi vakolatlariga bagʻishlangandir.

Beshinchi guruh oʻzgartishlar va qoʻshimchalar Konstitutsiyaning «Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti» deb nomlangan XIX bobining 93, 95, 97 va 98-moddalariga taalluqlidir. Bu moddalarda Prezidentning Oliy Majlis palatalari bilan oʻzaro munosabatlari mustahkamlangan.

Oltinchi guruh oʻzgartishlar va qoʻshimchalar Konstitutsiyaning oltinchi boʻlimi 127-moddasiga oid boʻlib, Konstitutsiyaga oʻzgartishlar kiritish tartibiga bagʻishlangandir.

Shunday qilib, 2002-yil 27-yanvardagi umumxalq referendum natijalari asosida qabul qilingan uch konstitutsiyaviy qonun va 2002-yil 24-apreldagi Konstitutsiyaning XVIII, XIX, XX va XXIII boblariga

¹ I.A. Karimov. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T., «Oʻzbekiston», 2005, 36-b.

kiritilgan tuzatish va qo‘shimchalar O‘zbekistonda ikki palatali parlamentga o‘tishning zarur huquqiy asoslarini yaratdi. Ularda Oliy Majlis palatalarining maqomi, shakllantirish tartibi, vakolatlari, o‘zaro munosabatlari, a‘zolarining huquqiy holati hamda boshqa davlat organlari bilan aloqalari va hamkorlik qilish mexanizmlari mustahkamlab qo‘yilgan.

Parlament islohotining konstitutsiyaviy asoslarini tashkil etgan qonunlar qoidalari yana bir qator muhim normativ-huquqiy aktlar bilan yanada rivojlantiriladi. So‘z yangi tahrirdagi «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi, «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to‘g‘risida»gi va «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to‘g‘risida»gi hamda «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a‘zosining maqomi to‘g‘risida»gi, va nihoyat, «Xalq deputatlari mahalliy Kengashi deputatini, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatini va Senati a‘zosini chaqirib olish to‘g‘risida»gi qonunlar haqida ketmoqda. Bu qonunlarda mamlakatimizda ikki palatali parlamentni shakllantirish va faoliyatining zarur huquqiy asoslari yaratildi. Mana shunday jiddiy qonunchilik asosida O‘zbekistonda 2004-yil oxiri va 2005-yil boshida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati shakllantirildi va o‘z faoliyatini boshladi.

2005-yil 28-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisi bo‘lib o‘tdi. Qo‘shma majlisda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov jamiyatni demokratlashtirish va yangilashning, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishning asosiy vazifalari to‘g‘risida ma‘ruza qildi. Ushbu dasturulanal ma‘ruzada **«davlat qurilishi va boshqaruvi sohasidagi eng muhim vazifa bu qonunchilik hokimiyati bo‘lmish mamlakat Parlamentining roli va ta‘sirini kuchaytirish, hokimiyatning qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari o‘rtasida yanada mutanosib va harqaror muvozanatga erishishdan iborat»¹**, – deb alohida ta‘kidlandi.

39.2. O‘zbekiston ikki palatali parlamentining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi

Yurtboshimiz o‘zbek parlamenti – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining vakolat va huquqlarini kengaytirishning ikki asosiy yo‘nalishini ko‘rsatib berdi.

¹ I.A. Karimov. Biz tanlagan yo‘l demokratik taraqqiyot va ma‘rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. T.P. –T., «O‘zbekiston», 2003, 218-b.

Birinchi yo‘nalish — Prezident vakolatlarining bir qismini parlamentning yuqori palatasi — Senatga o‘tkazish.

Ikkinchi yo‘nalish — doimiy asosda ishlaydigan quyi — Qonunchilik palatasini shakllantirish, uning vakolat va huquqlarini kengaytirish.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan o‘zgartirishlar, Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasi to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy qonunlar va ularning Reglamentlari haqidagi qonunlar parlament vakolatlarini qonuniy asosda kengaytirdi.

Konstitutsiyamizning 76-moddasiga muvofiq, «O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy vakillik organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi». O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan — Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddatlari — besh yildir.

Shunday qilib, ushbu moddada O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining mohiyati, funksiyalari va huquqiy tabiati belgilab berilgan.

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organidir. Oliy Majlismi vakillik organi sifatida tavsiflay turib, u O‘zbekiston xalqining vakilligini amalga oshirishini ta’kidlash lozim.

«O‘zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin» (Konstitutsiyaning 10-moddasi). Oliy Majlisda asosiy siyosiy partiyalar va jamiyatning ta’sirga ega kuchlari taqdim etilgan.

Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi mamlakatimizning qonun chiqaruvchi organidir. Oliy Majlis O‘zbekiston Respublikasining qonun chiqaruvchi hokimiyatini siymolantiradi, unga oliy yuridik kuchga ega normativ-huquqiy aktlarni chiqarish vazifasi yuklangan. U chiqaradigan normativ-huquqiy hujjatlar, ya’ni qonunlar, kodekslar boshqa biror davlat organi tomonidan o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin emas.

Shu bilan birga, qonun chiqaruvchi organ bo‘lmish O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi davlat hokimiyatining hamma vakolatlariga ega emas. U sud va ijroiya hokimiyati organlarining o‘rnini bosmasligi, o‘zining konstitutsiyaviy vakolatlari doirasidan chiqmasligi va boshqa davlat organlari mustaqil ravishda hokimiyatni amalga oshiradigan masalalarga aralashmasligi shart.

Konstitutsiyaning 77-moddasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tarkibi va shakllanish tartibini belgilab bergan.

Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi O‘zbekiston fuqarolari saylaydigan 120 deputatdan tashkil topadi. Qonunchilik palatasi deputatlari quyidagicha saylanadi:

birinchidan, huquqiy bir mandatli saylov okruglari bo'yicha;
ikkinchidan, ko'p partiyalilik asosida;
uchinchidan, besh yil muddatga;

to'rtinchidan, majoritar saylov tizimi bo'yicha, ya'ni saylanish uchun ovoz bergan saylovchilar sonining nisbiy ko'pchiligi talab qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining deputatlari saylovini tayyorlash va o'tkazish tartibi «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida» (yangi talirir)gi qonun va unga muvofiq chiqariladigan boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining vakolat ko'rsatish muddati besh yildir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati esa hududiy vakillik palatasi bo'lib, yuz nafar Senat a'zosidan (senatorlardan) iboratdir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda — olti kishidan saylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n olti nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birinchi majlislari tegishincha Qonunchilik palatasiga saylovdan keyin ikki oydan kechiktirmay va Senat tarkib topganidan keyin bir oydan kechiktirmay Markaziy saylov komissiyasi tomonidan chaqiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi majlislari sessiyalar davrida o'tkaziladi. Sessiyalar, qoida tariqasida, sentabrning birinchi ish kunidan boshlab kelgusi yilning iyun oyi oxirgi ish kuniga qadar o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati majlislari esa zaruratga qarab, lekin yiliga kamida uch marta o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining majlislari, agar ular ishida barcha deputatlar, senatorlar umumiy sonining kamida yarmi ishtirok etayotgan bo'lsa, vakolatli hisoblanadi. Konstitutsiyaviy qonunlarni qabul qilishda esa barcha deputatlar, senatorlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati majlislarida, shuningdek, ularning organlari majlislarida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Bosh vazir, Vazirlar Mahkamasining a‘zolari, Respublika Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo‘jalik sudi raislari, Bosh prokurori, Markaziy banki boshqaruvining raisi ishtirok etishlari mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va uning organlari majlislarida Senat Raisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati va uning organlari majlislarida Qonunchilik palatasi Spikeri ishtirok etishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati alohida-alohida majlis o‘tkazadilar. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlislari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qasamyod qilganda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan nutq so‘zlaganda, chet davlatlarning rahbarlari nutq so‘zlaganda o‘tkaziladi. Palatalarning kelishuviga binoan qo‘shma majlislar boshqa masalalar yuzasidan ham o‘tkazilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining birgalikdagi vakolatlari. O‘zbekiston Konstitutsiyasining 78-moddasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi quyidagi yigirma yo‘nalishdagi vakolatlari belgilab qo‘yilgan:

– O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish;

– O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonunlarini qabul qilish, ularga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish;

– O‘zbekiston Respublikasining referendumini o‘tkazish to‘g‘risida va uni o‘tkazish sanasini tayinlash haqida qaror qabul qilish;

– O‘zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish;

– O‘zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyati organlarining tizimini va vakolatlarini belgilash;

O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularning O‘zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqishi haqidagi qarorlarni tasdiqlash;

– boj, valuta va kredit ishlarini qonun yo‘li bilan tartibga solish;

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish;

– soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni joriy qilish;

– O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy-hududiy tuzilishi masalalarini qonun yo‘li bilan tartibga solish, chegaralarini o‘zgartirish;

– tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, ularning nomini hamda chegaralarini o‘zgartirish;

- davlat mukofotlari va unvonlarini ta’ sis etish;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vazirliklar, davlat qo‘mitalari va davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzish hamda tugatish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash;
- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasini tuzish;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko‘rib chiqish va tasdiqlash;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili va uning o‘rinbosarini saylash;
- O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining hisobotini ko‘rib chiqish;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug‘ilganda urush holati e‘lon qilish to‘g‘risidagi farmonini tasdiqlash;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e‘lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning amal qilishini uzaytirish yoki tugatish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash;
- xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish.

Shu bilan birga, Oliy Majlis palatalari Konstitutsiyada nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirishi mumkin.

Palatalarning birgalikdagi vakolatlariga kiradigan masalalar, qoida tariqasida, avval O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida, so‘ngra Senatida ko‘rib chiqiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari. Konstitutsiyamizda Oliy Majlis palatalarining faqat o‘zlariga xos mutlaq vakolatlari ham mustahkamlab qo‘yilgan. Masalan, Konstitutsiyamizning 79-moddasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining to‘rt yo‘nalishdagi mutlaq vakolatlariga quyidagilar kiritilgan:

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi spikeri va uning o‘rinbosarlarini, qo‘mitalarning raislari va ularning o‘rinbosarlarini saylash;

- O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to‘g‘risidagi masalalarni hal etish;

- o‘z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib qoidalari bilan bog‘liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish;

- siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek, davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining mutlaq vakolatlari. Konstitutsiyamizning 80-moddasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

Senatining oʻn toʻrt yoʻnalishdagi mutlaq vakolatlariga quyidagilar kiritilgan:

– Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisini va uning oʻrinbosarlarini, qoʻmitalarning raislari va ularning oʻrinbosarlarini saylash;

– Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudini saylash;

– Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudini saylash;

– Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan Oʻzbekiston Respublikasi Oliy xoʻjalik sudini saylash;

– Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan Oʻzbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qoʻmitasining raisini tayinlash hamda uni lavozimidan ozod etish;

– Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning oʻrinbosarlarini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish toʻgʻrisidagi farmonlarini tasdiqlash;

– Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Oʻzbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish toʻgʻrisidagi farmonlarini tasdiqlash;

– Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan Oʻzbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish;

– Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish;

– Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan amnistiya toʻgʻrisidagi hujjatlarni qabul qilish;

– Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati aʼzosini daxlsizlik huquqidan mahrum etish toʻgʻrisidagi masalalarni hal etish;

– Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, Oʻzbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qoʻmitasi raisining, Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi raisining hisobotlarini eshitish;

– oʻz faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib qoidalari bilan bogʻliq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish;

– siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek, davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish kiradi.

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati oʻz vakolatlariga kiritilgan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladi. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qarorlari Qonunchilik palatasi deputatlari yoki Senat aʼzolari

umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, Konstitutsiyada nazarda tutilgan hollar bundan mustasnodir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi qonun loyihalarini tayyorlash va dastlabki ko'rib chiqish ishlarini olib borish, shuningdek, qonunlarning va Qonunchilik palatasi qarorlarining ijrosini nazorat qilish uchun o'z vakolatlari muddatiga Qonunchilik palatasi deputatlari orasidan qo'mitalarni saylaydi. Qonunchilik palatasi qo'mitalari faqat deputatlardan tashkil topadi. Ular Qonunchilik palatasi faoliyatida katta rol o'ynaydilar.

Qo'mitalar qabul qiladigan qarorlar, aksariyat hollarda, Qonunchilik palatasi qabul qiladigan qarorlarning taqdirini oldindan belgilab beradi.

Qonunchilik palatasining qo'mitalari odatda partiya fraksiyalarining mutanosib vakilligi asosida tashkil qilinadi. Qonunchilik palatasida ko'pchilikka ega partiyalar qo'mitalarda ham ko'pchilik ovozga ega bo'ladilar. Qoidaga ko'ra, katta fraksiyalarning vakillari qo'mitalarga boshchilik qiladilar, chunki ular Qonunchilik palatasida yetakchi o'rinlarga egadirlar.

Qonunchilik palatasining qo'mitalari har doim qonun loyihalarini oldindan muhokama qiladilar. Ularning fikri va xulosasisiz loyiha Qonunchilik palatasi kun tartibiga qo'yilishi mumkin emas. Bunday oldindan ko'rib chiqish qonun loyihasining taqdiriga katta ta'sir ko'rsatadi.

Qonunchilik palatasining qo'mitalari qonun loyihalariga tuzatish kiritish huquqiga egadirlar. Ular qonun loyihalariga aniqlik kiritish, maromiga yetkazish uchun qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlariga qaytarishi, ekspertizalar tayyorlashi mumkin. Qonunchilik palatasi qo'mitalarining ishtirokisiz qonun chiqaruvchilik jarayonini tasavvur etib bo'lmaydi.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida quyidagi 10 ta qo'mita tuzilgan:

1. Budjet va iqtisodiy islohotlar qo'mitasi;
2. Qonunchilik va sud-huquq masalalari qo'mitasi;
3. Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo'mitasi;
4. Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi;
5. Sanoat, qurilish va savdo masalalari qo'mitasi;
6. Mehnat va ijtimoiy masalalar qo'mitasi;
7. Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi;
8. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari masalalari qo'mitasi;
9. Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi;
10. Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitasi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Senat muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tayyorlash, qonunlar va Senat tomomidan qabul qilingan qarorlarning ijrosini nazorat

qilish uchun o'z vakolatlari muddatiga senatorlar orasidan qo'mitalarni saylaydi. Hozirgi kunda Senatda 6 ta qo'mita tashkil etilgan:

1. Budget va iqtisodiy islohotlar qo'mitasi.
2. Qonunchilik va sud-huquq masalalari qo'mitasi.
3. Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi.
4. Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi.
5. Tashqi siyosat masalalari qo'mitasi.
6. Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati, zarurat bo'lgan taqdirda, muayyan vazifalarni bajarish uchun deputatlar, senatorlar orasidan komissiyalar tuzadi.

Shunday qilib, qonunchilik hokimiyati bo'lmish mamlakat Parlamentining roli va ta'sirini kuchaytirishning zarur huquqiy asoslari yaratilgan. Endilikdagi asosiy vazifa Parlamentning vakolat va huquqlarini hayotga izchil tatbiq etishdan iboratdir.

39.3. Ikki palatali parlamentda qonun chiqarish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekistonda ikki palatali parlamentni barpo etishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

birinchidan, parlament o'z vakolatlarini samarali amalga oshirishi, har tomonlama asosli va puxta qonunlar qabul qilishi uchun zarur bo'lgan o'zaro muvozanat va cheklovlar tizimini yaratish;

ikkinchidan, Qonunchilik palatasi o'z faoliyatini doimiy professional tarzda olib borishini nazarda tutgan holda, parlamentning qonun ijodkorligi borasidagi ishining sifatini keskin oshirish;

uchinchidan, Senat asosan mahalliy Kengashlar, hududlarning vakillaridan iborat bo'lishini hamda vakillik vazifasini bajarishini inobatga olib, umumdavlat va hududiy manfaatlarining mutanosibligiga erishish;

to'rtinchidan, aholining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy hayotidagi ishtirokini yanada kengaytirish.

Ana shu maqsadlarning barchasi mamlakatimizni modernizatsiya va isloh etishda uzoqni ko'zlaydigan «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» degan tamoyilni o'zida ifoda etadi¹.

2004-yilning oxiri va 2005-yilning boshida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tuzildi va o'z faoliyatini boshladilar. O'tgan sal kam bir yil davomida quyi palata bo'lmish Qonunchilik palatasi professional doimiy asosda qonun ijodkorligi bilan shug'ullanmoqda.

¹ I.A. Karimov. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T., «O'zbekiston», 2005. 38–39-betlar.

Qonunchilik tashiabbusi huquqiga ega subyektlarning faolligi oshdi. Zamonaviy parlamentarizmning demokratik ko'rsatkichi bo'lmish siyosiy partiyalar fraksiyalarining roli va ahamiyati sezilarli darajada o'sdi.

Har bir siyosiy partiya xalqning ma'lum qatlami manfaatlarini ifodalovchi siyosiy kuch va o'z a'zolarining maqsad va intilishlarini qonun loyihalarida to'liq aks ettirish uchun intilmoqda. Partiyalar o'z saylovchilari bilan doimo muloqotda bo'lib, ularni parlamentdagi partiya fraksiyasi tomonidan qonunchilik borasida qilayotgan ishlaridan xabardor qilmoqdalar. Qonunchilik palatasida O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi o'zini oppozitsiyaviy (muxolifatdagi) partiya deb e'lon qildi. Parlamentda qizg'in bahslar va tortishuvlar tabiiy holga aylandi.

Har qaysi deputat o'z vakolati va mas'uliyatini teran his qilgan holda, qonun loyihalarining muhokamasi vaqtida o'z fikr-mulohazasini dadil bildirmoqda. Parlamentda g'oyalar, yondashuv va karashlar xilma-xilligi yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Qonunchilik palatasida qonun loyihalari shoshilmasdan, atroflicha muhokama qilinmoqda. Qonunlar puxta va ishchanlik muhitida uch o'qishda ko'rib chiqilmoqda va qabul qilinmoqda. O'tgan davrlardan farqli o'laroq, «vaqtni tejash» maqsadida bir necha kun ichida o'nlab qonunlarni ko'rib chiqishga barham berildi. Shunday qilib, Qonunchilik palatasi professional parlament sifatida faoliyat yuritmoqda.

Qonunlar Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, o'n kundan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining yuqori palatasi bo'lmish Senatga yuborilmoqda. Senat ham Oliy Majlisning hududiy vakillik palatasi sifatida o'z faoliyatini samarali boshladi. O'tgan majlislarda Senat o'z vakolatlari doirasida bir qator muhim qonun va boshqa masalalarni ko'rib chiqdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati o'z vakolatlari doirasida qonun ijodkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun zarur huquqiy asoslar yaratilgan. Qonun chiqarish jarayonining huquqiy asoslarini quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etadi:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
2. «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonun;
3. «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonun;
4. «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida»gi Qonun;
5. «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to'g'risida»gi Qonun;
6. «Qonun loyihalarining umumxalq muhokamasi to'g'risida»gi Qonun;

7. «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi Qonun va oshqalar. Ikki palatali parlament sharoitida qonun chiqarish jarayoni to'rt bosqichda amalga oshirilmoqda.

Birinchi bosqich: qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirish va qonun loyihalarini Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritish.

Qonun loyihasi Qonunchilik palatasiga qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari tomonidan kiritiladi. Qonunchilik tashabbusi huquqiga ega subyektlar doirasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 83-moddasida ko'rsatilgan. Qonunchilik tashabbusi huquqiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, o'z davlat hokimiyatining oliy vakillik organi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi, Bosh prokurori egadirlar. Qonunchilik tashabbusi huquqi ushbu subyektlar tomonidan qonun loyihagini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish orqali amalga oshiriladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlariga qonun loyihalarini Qonunchilik palatasiga kiritish uchun talablar ortdi. Qonun loyihagini Qonunchilik palatasiga kiritishda qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari lozim:

birinchidan, qonun loyihasing konsepsiyasi bayon etilgan tushuntirish xati;

ikkinchidan, o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi, shuningdek, qonun loyihasi kiritilishi bilan bog'liq qonunlarni o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risidagi qonun loyihasi;

uchinchidan, o'zgartirilishi, qo'shimchalar kiritilishi, o'z kuchini yo'qotgan deb topilishi yoki qabul qilinishi lozim bo'lgan qonunosti hujjatlarining ro'yxati;

to'rtinchidan, moddiy xarajatlarni talab qiladigan qonun loyihalari uchun moliyaviy-iqtisodiy asoslar;

beshinchidan, davlat daromadlarini kamaytirish yoki davlat xarajatlarini ko'paytirish, shuningdek, Davlat budjeti moddalari bo'yicha o'zgartirishlarni nazarda tutuvchi qonun loyihalari yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining xulosasi. Agar ushbu xulosa bo'lmasa, qonun loyihasi qonunchilik tashabbusi huquqi subyektiga qaytariladi.

Agar qonun loyihasi kollegial organ bo'lgan qonunchilik tashabbusi huquqi subyektini tomonidan kiritilganda tegishli kollegial organning Qonunchilik palatasidagi ushbu qonun loyihasi bo'yicha qonunchilik tashabbusi huquqi subyektini vakili ko'rsatilgan qarori ham taqdim etilishi lozim.

Qonun loyihasi Qonunchilik palatasining Devonida ro'yxatga olingan kundan e'tiboran Qonunchilik palatasiga kiritilgan hisoblanadi.

Ikkinchi bosqich: qonun loyihalarini Qonunchilik palatasida muhokama qilish va qabul qilish. Ushbu bosqich qonunchilik jarayonining markaziy bo'g'inlaridan biri hisoblanadi.

Qonunchilik palatasiga kiritilgan qonun loyihasi Qonunchilik palatasi Spikeri tomonidan mas'ul qo'mitaga topshiriladi. Mas'ul qo'mita qonun loyihasini dastlabki tarzda muhokama qiladi va uni Qonunchilik palatasida birinchi o'qishda ko'rib chiqishga tayyorlaydi. Buning uchun mas'ul qo'mita qonun loyihasining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, konstitutsiyaviy qonunlari va qonunlari talablariga muvofiqligi hamda qonun loyihasini kiritishning qonunda va Qonunchilik palatasi Reglamentida belgilangan tartibga qay darajada rioya etilganligini aniqlaydi hamda tegishli qaror qabul qiladi va o'n to'rt kun ichida Qonunchilik palatasi Kengashi muhokamasiga taqdim etadi. Kengash esa mas'ul qo'mita qonun loyihasini olgan kundan e'tiboran ikki oy ichida:

birinchidan, qonun loyiliasini Qonunchilik palatasi birinchi o'qishda ko'rib chiqishi uchun kiritish to'g'risidagi qaror loyihasini;

ikkinchidan, mas'ul qo'mitaning mazkur qonun loyihasini qabul qilish yoki rad etish zarurligi asoslantirilgan xulosasini ilova qilgan holda Kengash muhokamasiga taqdim etadi;

uchinchidan, qonun loyihasini birinchi o'qishda ko'rib chiqish uchun Qonunchilik palatasi majlisi kun tartibi loyihasiga kiritish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Qonun loyihasi Qonunchilik palatasida, qoida tariqasida, uch o'qishda ko'rib chiqiladi. Birinchi o'qishda qonun loyihasini qabul qilish zarurati, qonun loyihasining konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga va qonunlariga muvofiqligi, shuningdek, qonunni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar va moliyalash manbalari to'g'risidagi masalalar muhokama qilinadi. Qonunchilik palatasi birinchi o'qishda qabul qilingan qonun loyihasini umumxalq muhokamasiga qo'yish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

Ikkinchi o'qishda qonun loyihasi Qonunchilik palatasi tomonidan moddama-modda muhokama qilinadi va ovoz beriladi. Maromiga yetkazilgan qonun ikkinchi o'qishda qayta ko'rib chiqilgandan so'ng loyiha ikkinchi o'qishda qabul qilinadi.

Qonunchilik palatasi Kengashi qonun loyihasini qonun sifatida qabul qilish maqsadida ovoz berish uchun loyihaning uchinchi o'qishini tayinlaydi. Uchinchi o'qishda qonun loyihasi uni muhokama qilmay to'raligicha ovozga qo'yiladi. Bunda qonun loyihasiga tuzatishlar kiritishga va moddalarni muhokama qilishga yo'l qo'yilmaydi. Agar

qonun loyihasi Qonunchilik palatasi tomonidan uchinchi o'qishda qabul qilinmasa, u rad etilgan hisoblanadi va tegishli qaror bilan rasmiylashtiriladi hamda qonun loyihasini kiritgan qonunchilik tashabbusi huquqi subyektiga yuboriladi.

Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi yoki konstitutsiyaviy qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qonun, agar unga deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovoz bergan bo'lsa qabul qilingan hisoblanadi.

Qabul qilingan qonunlar Qonunchilik palatasining tegishli qarorlari va boshqa tegishli materiallar bilan birgalikda Qonunchilik palatasi Spikeri tomonidan Senatga ko'rib chiqish uchun o'n kun ichida yuboriladi.

Shunday qilib, qonun loyihalarini tayyorlash va muhokama qilish Qonunchilik palatasiga ko'chdi. Qonunlar jahon parlamentarizmi talablari va an'analoriga mos ravishda tayyorlanmoqda. Qonun loyihalari muhokamasida siyosiy partiyalar fraksiyalari va deputatlar tomonidan qizg'in bahs-munozaralar olib borilmoqda. Qonun loyihalarini uch o'qishda muhokama qilinishi natijasida qonunlarni qabul qilish muddati uzaydi. Qonunlarni qabul qilishda «yetti o'lchab – bir kesish lozim» degan xalq naqliga rioya qilinmoqda. Deputatlik har kasblar kabi professional faoliyatga aylanmoqda.

Uchinchi bosqich: U qonunlarni Senatda muhokama qilish va ma'qullash. Ushbu bosqich bizning qonun ijodkorlik faoliyatimizda yangilikdir. Bu borada ham ilk tajriba to'plandi.

Qonunchilik palatasida qabul qilinib, yuborilgan qonun Senatda ro'yxatga olinadi va Senat Raisi tomonidan mas'ul qo'mitaning xulosasi Senat Kengashiga taqdim etiladi. Kengash qonunni Senat majlisining kun tartibi loyihasiga kiritish-kiritmaslik haqida qaror qabul qiladi. Senatning majlislarida qonunni ko'rib chiqish ma'ruzachining mas'ul qo'mita xulosasi o'qib eshittirishdan boshlanadi. Qonun Senat tomonidan senatorlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan ma'qullanadi. Senat tomonidan ma'qullangan qonun imzolanishi va e'lon qilinishi uchun Senat qarori bilan birgalikda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga yuboriladi.

Senatning qonunni rad etish to'g'risidagi qarorida rad etish vajlari ko'rsatilishi kerak. Unga bir vaqtning o'zida qonunga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish zarurligi to'g'risidagi, shuningdek, kelishuv komissiyasi tuzish haqidagi takliflar bayon etilishi mumkin. Senatning qonunni ma'qullash yoki rad etish to'g'risidagi qarori mazkur qaror qabul qilingan kundan e'tiboran o'n kun ichida Qonunchilik palatasiga yuboriladi.

Senat tomonidan rad etilgan qonun yuzasidan Senat va Qonunchilik palatasi yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun Senat a'zolari va Qonunchilik palatasi deputatlari orasidan tenglik asosida kelishuv komissiyasini tuzishi mumkin. Kelishuv komissiyasining har bir palatadan ko'rsatilgan a'zolari o'z tarkibidan ko'pchilik ovoz bilan komissiyaning ham raisini saylaydi. Kelishuv komissiyasi qonunning yagona matnini ishlab chiqish maqsadida Senatning har bir e'tirozini alohida-alohida ko'rib chiqadi. Kelishuv komissiyasi ishining yakunlari yuzasidan kelishmovchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflarni o'z ichiga olgan xulosa qabul qilinadi.

Kelishuv komissiyasining takliflari qabul qilingan taqdirda, qonun Qonunchilik palatasida odatdagi tartibda qayta ko'rib chiqiladi va u ma'qullash uchun Senatga yuboriladi. Agar Senat ilgari rad etilgan qonunni qayta ko'rib chiqishda uni kelishuv komissiyasining tahririda ma'qullamasa, qonun rad etilgan hisoblanadi va u Qonunchilik palatasiga qaytariladi.

Agar Senat tomonidan rad etilgan qonunni qayta ko'rib chiqish vaqtida Qonunchilik palatasi uni kelishuv komissiyasining tahririda qabul qilmasa va Senatning qonunni rad etish to'g'risidagi qaroriga rozi emasligini bayon etsa, qonun avval bayon qilingan tahrirda ovozga qo'yiladi. Agar Qonunchilik palatasi deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan qonunni takroran ma'qullasa, qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga imzolash va e'lon qilish uchun o'n kun ichida yuboriladi.

To'rtinchi bosqich: qonunlarni imzolash va e'lon qilish.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan va Senati tomonidan tasdiqlangan qonun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga imzolash va e'lon qilish uchun yuboriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonun o'ttiz kun ichida imzolanadi va e'lon qilinadi. Prezident qonunni o'z e'tirozlari bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqlidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qaytarilgan qonun bir oy muddat ichida Qonunchilik palatasi tomonidan qayta ko'rib chiqilishi lozim hamda qayta ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha qabul qilingan qonun o'n to'rt kun ichida Senatga yuboriladi. Prezident tomonidan qaytarilgan qonunni qayta ko'rib chiqishda Qonunchilik palatasi quyidagi uch qarordan birini qabul qilishli mumkin:

- birinchidan, qonunni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining takliflari va mulohazalarini inobatga olgan holda qabul qilish;
- ikkinchidan, qonunni bundan buyon ko'rib chiqmaslik;
- uchinchidan, qonunni avvalgi qabul qilingan tahrirda ma'qullash.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qaytarilgan va Qonunchilik palatasi tomonidan ma’qullash uchun Senatga qaytadan kiritilgan qonunni Senat ko‘rib chiqib, uni ma’qullash yoki rad etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Agar qonun avvalgi qabul qilingan tahririda tegishincha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a‘zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko‘pchilik ovozi bilan ma’qullansa, qonun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan o‘n to‘rt kun ichida imzolanishi va e‘lon qilinishi kerak.

Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senat tomonidan ma’qullanib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan va qonunda belgilangan tartibda rasmiy nashrlarda e‘lon qilingach, yuridik kuchga ega bo‘ladi. Qonunlarning va boshqa normativ-hujjatlarning matbuotda e‘lon qilinishi ular qo‘llanilishining majburiy shartidir.

39.4. «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunining qabul qilinishi zaruriyati, uning mohiyati va ahamiyati

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov 2006-yil 9-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida» konstitutsiyaviy qonun loyihasini muhokama uchun kiritdi.

Ushbu qonun loyihasida mahalliy davlat hokimiyati faoliyatini demokratlashtirish masalalari o‘z ifodasini topgan.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, Prezidentimiz O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14 yiliga bag‘ishlangan tantanali marosimda qilgan ma’ruzalarida ko‘rsatib o‘tgan quyidagi 3 ta asosiy omil ushbu qonunni qabul qilish zarurligini keltirib chiqardi.

Bular:

Birinchidan, yurtimizda olib borilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish va davom ettirish maqsadida amalda o‘zini oqlagan bosqichma-bosqich rivojlanish yo‘lidan izchil borib, islohotlarning bir bosqichi oxiriga yetishi bilan ularni yangi bosqichga ko‘tarish zaruratini ta’kidlash lozim.

Ikkinchidan, mustaqillik davrida siyosiy partiyalarning amaliy tajribasi, siyosiy nufuzi ortgani va ancha pishib yetilganini hisobga olgan holda, ularning faoliyat samaradorligini oshirish va hayotimizda hal

qiluvchi siyosiy kuchga aylantirish uchun qonuniy yo‘l-yo‘riqlarni yaratib berishni bugun zamonning o‘zi talab qilayotganini qayd etish zarur.

Uchinchidan, hozirgi kunda xalqimizning siyosiy yetukligi va ijtimoiy faolligi tobora ortib borayotganini inobatga olishimiz va shunga qarab siyosat olib borish zaruratini unutmashimiz kerak.

Mustaqil O‘zbekistonimiz o‘zining mustaqillik yillarida milliy davlatchilik sohasida qo‘lga kiritgan yutuqlari ana shunday qonun qabul qilinishi uchun to‘liq shart-sharoitlar yaratib berdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bu yutuqlar nimalarda o‘z aksini topdi?

Davlat hokimiyatini shakllantirishda xalq vakillik instituti to‘liq qaror topdi, saylov tizimi takomillashdi, referendum qarorlari amalga oshmoqda. Endilikda jamiyatning har bir a‘zosi davlat hokimiyatini vujudga keltirish uning irodasiga bog‘liq ekanligini, davlat hokimiyati bevosita fuqarolarning saylovlardagi faol ishtiroki natijasida shakllanishini to‘liq anglab yetdi. Davlat hokimiyatini shakllantirish ko‘ppartiyaviylik asosida, nomzodlar uchun muqobilikning ta‘minlanganligi holatida o‘tkazilishi yo‘lga qo‘yildi.

Davlat hokimiyati organlari va mansabdor shaxslarning konstitutsiyaviy tamoyillariga og‘ishmay faoliyat yuritish mexanizmi muntazam takomillashib bormoqda. Har bir hokimiyat tarmoqlari tizimida o‘z faoliyatini samarali tashkil qillish uchun huquqiy baza to‘liq yaratildi va yanada rivojlantirilmoqda:

Bosh vazir mas‘uliyati yanada oshirildi;

– Mahalliy davlat hokimiyati faoliyatida hokimlarning rahbarlik mavqeyi ko‘tarildi;

– Qonun chiqaruvchi hokimiyat ikki palatali tizimga o‘tkazilib, professionallik asosida faoliyat yurita boshladi;

– Senatning shakllantirilishi mahalliy ma‘muriy hududlar manfaatlarini har tomonlama hisobga olish imkoniyatini vujudga keltiradi;

– Sud-huquq islohotlari inson manfaatlari asosida amalga oshirildi va bu islohotlar chuqurlashtirilmoqda;

Yuqoridagilar bilan bir qatorda mazkur qonunning qabul qilinishini hozirgi vaqtda O‘zbekistonda to‘liq qaror topib borayotgan demokratiyaning quyidagi umume’tirof etilgan tamoyillari ham talab qilmoqda, desak aslo yanglishmaymiz:

Xo‘sh, demokratiyaning qanday tamoyillari buni talab qilmoqda? Bular:

– xalqning erkin xohish-irodasi;

– hokimiyat organlarining saylab qo‘yilishi;

– tayinlash yo‘li bilan shakllanadigan davlat organlarining saylab qo‘yiladigan organlar oldida hisob berishga burchliligi;

– fuqarolarning teng huquqliligi;

- inson huquqlarining ustuvorligi;
- saylanadigan organlarning saylovchilarga bo‘ysunishi;
- hokimiyat tarmoqlarining taqsimlanganligi.

Shu o‘rinda Prezidentimizning «**jamiyatda demokratiya qay darajada ekanligini belgilovchi uchta mezon bor**» – degan fikrlarini ham eslatib o‘tmoqchiman. Bular:

- xalq qarorlar qabul qilish jarayonlaridan qanchalik xabardorligi;
- hukumat qarorlari xalq tomonidan qanchalik nazorat qilinishi;
- oddiy fuqarolar davlatni boshqarishda qanchalik ishtirok etishi.

Hozirgi kunda umumxalq muhokamasiga taqdim etilgan yuqoridagi Konstitutsiyaviy qonun loyihasining zarurligini ana shular taqozo qiladi.

Mazkur Konstitutsiyaviy qonun qanday maqsadlarni ko‘zlaydi?

- mamlakatda ijtimoiy, siyosiy faollikni yanada oshirish;
- ijtimoiy-siyosiy islohotlarni hamda siyosiy, iqtisodiy va gumanitar qurilishning maqsadli vazifalarini bajarishda, ijro etuvchi hokimiyat tomonidan ichki va tashqi siyosatni amalga oshirishda siyosiy partiyalarning tashabbuskorligi, roli, ta’siri hamda mas’uliyatini kuchaytirish;

- hokimiyatning vakillik va ijro etuvchi organlarini shakllantirishda siyosiy partiyalar va harakatlarning faol ishtiroki uchun zarur tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratish;

- hukumat tuzilmalarining, markazdagi va joylardagi davlat hokimiyat organlarining mamlakat parlamentida o‘z vakillariga ega bo‘lgan siyosiy partiyalar, mahalliy vakillik organlaridagi partiya guruhlarida hisob berishini belgilab beradigan va ta’minlaydigan samarali huquqiy mexanizmlarni yaratish.

Konstitutsiyaviy qonun loyihasi 8 ta moddadan iborat bo‘lib, uning 1-moddasida «Ushbu qonunning maqsadi davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirishdan iborat» deb ko‘rsatilgan.

2-modda Qonunchilik palatasida siyosiy partiyalarning fraksiyalariga bag‘ishlangan. Unda quyidagilar qayd etilgan:

Siyosiy partiya fraksiyasi hu –

- siyosiy partiyadan ko‘rsatilgan deputatlar tomonidan partiya manfaatlarini Qonunchilik palatasida ifodalash maqsadida tuziladigan va belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan deputatlar birlashmasidir.

- siyosiy partiyalarning fraksiyalari blokka birlashishi mumkin va bu qonunda nazarda tutilgan huquqlarni amalga oshirishda ularning mustaqilligini cheklab qo‘ymaydi.

- siyosiy partiyadan ko‘rsatilgan va Qonunchilik palatasiga **saylangan deputat** faqat shu partiya fraksiyasining a’zosi bo‘lishi mumkin.

Parlamentdagi ko‘pchilik:

- Qonunchilik palatasida ko‘pchilik o‘rinni egallagan siyosiy partiya fraksiyasi;
- o‘zlarining maqsadli dasturiy vazifalarining yaqinligi yoki o‘zaro mosligidan kelib chiqqan holda blok tuzayotgan bir necha siyosiy partiyalar fraksiyalari va saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan saylangan deputatlar.

Parlamentdagi muxolifat:

- Yangitdan shakllantirilgan hukumatning tutgan yo‘li (kursi) va dasturi yoki uning ayrim yo‘nalishlariga qo‘shilmaydigan siyosiy partiyalar fraksiyalari, shuningdek, saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan saylangan deputatlar.

Parlamentdagi muxolifatning qo‘shimcha huquqlari:

- Qonunchilik palatasi mas‘ul qo‘mitasining tegishli masala bo‘yicha ma‘ruzasi bilan bir vaqtda qonun loyihasi muqobil tahririni kiritish;
- muhokama etilayotgan masalalar yuzasidan o‘zining alohida fikrini Qonunchilik palatasi yalpi majlisining bayonnomasiga kiritish;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan rad etilgan qonun bo‘yicha kelishuv komissiyasida o‘z vakillarining kafolatli ishtirok etishi.

Parlamentdagi muxolifatning qonun bilan kafolatlangan huquqlari parlament ko‘pchiligi tomonidan kamsitilishi mumkin emas.

3-inodda Qonunchilik palatasi Spikerining o‘rinbosarlarini saylash tartibini belgilaydi:

- Siyosiy partiyaning Qonunchilik palatasida tuzilgan fraksiyasi o‘z vakili Qonunchilik palatasi Spikeri o‘rinbosari lavozimlaridan birini egallashida kafolatli huquqqa ega;
- Qonunchilik palatasi Spikerining o‘rinbosarini saylash uchun siyosiy partiya fraksiyasi, qoida tariqasida, o‘z fraksiyasi rahbarining nomzodini taqdim etadi;
- taqdim etilgan nomzod saylanmagan taqdirda, fraksiya boshqa nomzodni taqdim etish huquqiga ega;
- Qonunchilik palatasi Spikerining o‘rinbosari Qonunchilik palatasi qo‘mitalaridan birining tarkibiga saylanishi mumkin.

4-modda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirini tayinlash tartibini belgilaydi:

- O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining mansabdor shaxslari saylanganidan va organlari shakllantirilganidan keyin bir oy ichida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalarining har biri va saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan saylangan deputatlar bilan maslahatlashuvlar o‘tkazilgandan

so'ng O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati tasdiqlashi uchun kiritiladi;

– O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozini olgan nomzod O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri etib tasdiqlangan hisoblanadi;

– Agar ovoz berish vaqtida O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi yoki Senatida Qonunchilik palatasi deputatlari yoki Senati a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozini ololmasa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti siyosiy partiyalar fraksiyalari va saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan saylangan deputatlar bilan qo'shimcha maslahatlashuvlar o'tkazganidan so'ng O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri lavozimiga nomzodni yana ikki marta taqdim etish huquqiga ega;

– O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi yoki Senati taqdim etilgan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini uch marta rad etgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri vazifasini bajaruvchini tayinlaydi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini yoki uning palatalaridan birini tarqatib yuboradi;

– O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, Senati tarqatib yuborilgan taqdirda, yangi saylov tarqatib yuborish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch oy ichida o'tkaziladi.

5-moddada O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirini lavozimidan ozod qilish tartibini ko'rsatib bergan:

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan quyidagi hollarda lavozimdan ozod qilinadi:

a) Bosh vazirning iste'fo berish to'g'risidagi arizasiga binoan;

b) Bosh vazir o'z vakolatlarini bajarishi mumkin bo'lmay qolgan taqdirda;

d) O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi tarkibida uning normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz berganda, shuningdek, Vazirlar Mahkamasi bir necha marta O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlariga zid qarorlar qabul qilgan taqdirda;

e) Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalarining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ko'rib chiqishi uchun taqdim etgan tashabbusiga binoan. Agar zarur asoslarga ega bo'lgan bunday tashabbusni parlamentning yetakchi siyosiy partiyalar fraksiyalari qo'llab-quvvatlasa va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senatida ovozga

qo'yilganda tegishincha Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a'zolari umumiy soni uchdan ikki qismidan ko'prog'ining ovozi o'sa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazirni lavozimdan ozod qilish to'g'risida qaror qabul qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining lavozimdan ozod qilinishi bir vaqtning o'zida O'zbekiston Respublikasi hukumatining iste'foga chiqishiga sabab bo'ladi.

6-moddada viloyat, Toshkent shahar hokimini tayinlash va tasdiqlash tartibini quyidagicha belgilaydi:

– Viloyat va Toshkent shahar hokimi nomzodlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlaridagi partiya guruhlarining har biri bilan maslahatlashuvlar o'tkazilgandan so'ng tegishli xalq deputatlari Kengashlariga tasdiqlash uchun taqdim etiladi;

– Viloyat yoki Toshkent shahar hokimi nomzodi tegishli xalq deputatlari Kengashi deputatlari umumiy sonining ko'pchilik ovozi o'lgan taqdirda, tasdiqlangan hisoblanadi;

– Agar ovoz berish vaqtida viloyat va Toshkent shahar hokimi nomzodi tegishli xalq deputatlari Kengashi deputatlari umumiy sonining ko'pchilik ovozi o'lolmasa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ko'rsatilgan lavozimlarga nomzodlarni partiya guruhlarini bilan qo'shimcha maslahatlashuvlar o'tkazganidan so'ng bir oy ichida yana ikki marta taqdim etish huquqiga ega;

– Tegishli xalq deputatlari Kengashi taqdim etilgan viloyat va Toshkent shahar hokimi nomzodlarini uch marta rad etgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti viloyat va Toshkent shahar hokimi vazifasini bajaruvchini tayinlash hamda tegishli xalq deputatlari Kengashini tarqatib yuborish huquqiga ega. Bunda xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlariga saylov tarqatib yuborish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch oy ichida o'tkaziladi;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlarining qaroriga muvofiq hokim nomzodi bo'yicha farmon qabul qiladi.

7-moddada Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari deputatlarining viloyat va Toshkent shahar hokimi faoliyati ustidan nazorat qilish vazifalarini ko'rsatib beradi.

Nazorat qilish vazifalarining samaradorligini oshirish maqsadida xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar Kengashlarining partiya guruhlariga viloyat va Toshkent shahar hokimi lavozimiga tasdiqlangan shaxslarning qoniqarsiz faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga asosli xulosalar taqdim etish tashabbusi huquqi beriladi.

Agar bunday tashabbus yetakchi partiya guruhlari tomonidan qo‘llab-quvvatlansa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bu tashabbusni xalq deputatlari Kengashi muhokamasiga kiritadi va muhokama natijalariga muvofiq qaror qabul qiladi.

Va nihoyat 8-modda ushbu Konstitutsiyaviy qonunning kuchga kirishini 2008-yil 1-yanvardan deb belgiladi.

Biz ko‘rib o‘tgan ushbu Konstitutsiyaviy qonun tabiiyki, Konstitutsiyaga tegishlicha o‘zgartirishlar kiritilishini taqozo qiladi. Shu sababli 2 qonun loyihasi aynan «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga (89-moddasiga, 93-moddasi: 15-bandiga, 102-moddasi: ikkinchi qismiga) tuzatishlar kiritish to‘g‘risidadir.

Mavzuni takrorlashga oid nazorat savollari

1. *O‘zbekistonda parlament islohoti va uning maqsadi haqida gapirib bering.*
2. *Parlament islohotlarining asosiy sabablari nimalardan iborat?*
3. *O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan o‘zgartirishlar va ularning ahamiyati haqida gapirib bering.*
4. *O‘zbekiston ikki palatali parlamentining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi nimalardan iborat?*
5. *O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining birgalikdagi vakolatlari nimalardan iborat?*
6. *O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari nimalardan iborat?*
7. *O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining mutlaq vakolatlari nimalardan iborat?*
8. *Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida nechta va qanday qo‘mitalar tuzilgan?*
9. *Hozirgi kunda Senatda nechta va qanday qo‘mitalar faoliyat yuritmoqda?*
10. *Ikki palatali parlamentning qonun chiqarish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?*
11. *Qonun chiqarish jarayonining huquqiy asoslarini qanday normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etadi?*
12. *«Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunining qabul qilinishi zaruriyati nimalardan iborat bo‘ldi?*
13. *«Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunining mohiyati va ahamiyati nimalardan iborat?*

MUNDARIJA

Kirish	3
O'zbekiston davlati va huquqi tarixi fanining maqsad-vazifalari, predmeti va o'rganish uslublari	5

Birinchi bo'lim

QADIMGI DAVR DAVLATI VA HUQUQI I BOB. ILK DAVLATLARNING TASHKIL TOPISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

1-mavzu: O'zbekiston hududidagi qadimgi davlatlarning tashkil topishi xususiyatlari

1.1. Insomiyat tarixida jamiyat ustidagi qurilmalarning paydo bo'lishi va ilk davlatlarning tashkil topishi	12
1.2. O'zbekiston hududidagi ilk davlatlarning paydo bo'lish shart-sharoitlari, sabablari va xususiyatlari	18
1.3. Ilk voha davlatlarning barpo etilishi va rivojlanishi	24
1.4. O'zbekiston hududidagi dastlabki davlatlarning ijtimoiy-siyosiy tuzumi	27

2-mavzu: Qadimgi davlatlarning rivojlanishi va ijtimoiy-siyosiy tuzumi

2.1. Ahamoniylar hukmronligi davrida ijtimoiy-siyosiy tuzumdagi o'zgarishlar	28
2.2. Makedoniyalik Iskandar va Salavkiylar davrida ijtimoiy-siyosiy tuzum xususiyatlari	31
2.3. Kushon davlatining ijtimoiy-siyosiy tuzumi va boshqaruvi	35

3-mavzu: Qadimgi davrda huquqning asosiy belgilari

3.1. O'zbekistonda huquqning kelib chiqishi va manbalari	37
3.2. «Avesto» – qadimgi davrning asosiy huquqiy manbayi	37
3.3. Qadimgi davrda mulkiy munosabatlarning tartibga solimishi	39
3.4. Nikoh va oila huquqi	41
3.5. Jinoyat va jazo masalalari hamda sud ishlarining yuritilishi	41

Ikkinchi bo'lim

O'RTA ASRLAR DAVLATI VA HUQUQI II BOB. ILK O'RTA ASRLAR DAVLATI VA HUQUQI

4-mavzu: Eftalitlar davlati va huquqi

4.1. Eftalitlar davlatining tashkil topishi	46
4.2. Iqtisodiy va ijtimoiy tuzumining asosiy belgilari	47
4.3. Hokimiyat va boshqaruv ishlarining tashkil qilinishi	48

5-mavzu: Turk xoqonligining ijtimoiy-siyosiy tuzumi

5.1. Turk xoqonligining o'rnatilishi va VI–VII asrlarda Xorazm, So'g'd va Farg'ona davlatlari	50
--------------------------------------------------------------------------------------------------------	----

5.2. Turk xoqonligining ijtimoiy va davlat tuzumi	52
5.3. Ilk o'rtta asrlarda O'zbekistonda huquqning asosiy belgilari	54

III BOB. ARABLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA DAVLAT VA HUQUQ

6-mavzu: Arablar istilosi va Movarounnahrning ijtimoiy-siyosiy tuzumi (VII–VIII asrlar)

6.1. Turkiston yerlarining arablar tomonidan bosib olinishi va ijtimoiy-iqtisodiy tuzumda yuz bergan o'zgarishlar	58
6.2. Arab xalifaligi hukmronligi davrida Movarounnahrning davlat tuzumi	61

7-mavzu: Islom huquqining asosiy belgilari va xususiyatlari

7.1. Islom huquqining vujudga kelishi va rivojlanish xususiyatlari	63
7.2. Islom huquqi manbalari	66
7.3. Shariat bo'yicha mulkiy munosabatlarning tartibga solinishi	69
7.4. Shariatda nikoh-oila va meros huquqi	71
7.5. Shariatga binoan jinoyat huquqi va sud ishlarini yuritish tartibi	75

IV BOB. RIVOJLANGAN O'RTTA ASRLAR DAVLATI VA HUQUQI

8-mavzu: Somoniylar davlati va huquqi

8.1. Somoniylar davlatining tashkil topishi	79
8.2. Somoniylar davlati ijtimoiy tuzumining asosiy belgilari	80
8.3. Somoniylar davlati hokimiyati va boshqaruvining tashkil etilishi	82
8.4. Somoniylar davlatining huquqiy tizimi	84

9-mavzu: G'aznaviylar davlati va huquqi

9.1. G'aznaviylar davlatining tashkil topishi	86
9.2. G'aznaviylar davlatining ijtimoiy va davlat tuzumi	87

10-mavzu: Qoraxoniylar davlati va huquqi

10.1. Qoraxoniylar davlatining tashkil topishi	89
10.2. Ijtimoiy-siyosiy tuzumi xususiyatlari	90
10.3. Boshqaruvning tashkil etilishi	92
10.4. Qoraxoniylar davlati huquqining asosiy belgilari	93

11-mavzu: Saljuqiylar davlati va huquqi

11.1. Saljuqiylar davlatining tashkil topishi	94
11.2. Saljuqiylar davrida yer egaligi shakllari va munosabatlari	96
11.3. Saljuqiylar davlat tuzumi	97
11.4. Saljuqiylar davrida huquq masalalari	98

12-mavzu: Xorazmshohlar davlati va huquqi

12.1. Xorazmshohlar davlatining tashkil topishi	99
12.2. Xorazmshohlar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi	101

12.3. Xorazmshohlar davrida hokimiyat va boshqaruv, sud, politsiya hamda harbiy ishlarning tashkil etilishi	102
12.4. Xorazmshohlar davlati huquqining asosiy belgilari	105

V BOB. O‘ZBEKISTONDA HUQUQ MANBALARI VA ULARNING RIVOJLANISHI

13-mavzu: O‘zbekistonda huquq manbalari va ularning rivojlanishi

13.1. Huquq manbalariga umumiy tavsif	106
13.2. Movarounnahr fiqh maktabi	107
13.3. «Hidoya» – tarixiy-huquqiy manba	109

VI BOB. MO‘G‘ULLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA DAVLAT VA HUQUQ

14-mavzu: Mo‘g‘ullar hukmronligi davrida davlat va huquq (1219–1370-yy.)

14.1. Mo‘g‘ullar istilosi va Chig‘atoy ulusining tashkil topishi	111
14.2. Mo‘g‘ullar hukmronligi davrida O‘zbekistonning ijtimoiy tuzumi	113
14.3. Chig‘atoy ulusida hokimiyat va boshqaruvning amalga oshirilishi	115
14.4. Huquqdagi o‘zgarishlar	116

VII BOB. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVLATI VA HUQUQI

15-mavzu: Amir Temur va temuriylar davlati va buquqi

15.1. XIV asrda Movarounnahrda markazlashgan davlatning tashkil topishi	119
15.2. Temur va temuriylar davrida Movarounnahr ijtimoiy tuzumining asosiy belgilari	122

16-mavzu: Amir Temur davlatida bosbqaruv tizimi

16.1. Amir Temur davlatining markaziy hokimiyat va boshqaruv organlari	125
16.2. Davlatning harbiy-boshqaruv tizimi	129
16.3. Mahaliy boshqaruvning amalga oshirilishi	130
16.4. Sud va politsiya hokimiyatining tashkil etilishi	131

17-mavzu: Amir Temur va temuriylar davlatida huquq manbalari

17.1. Huquq manbalariga umumiy tavsif	133
17.2. «Temur tuzuklari»da davlat huquqi masalalarining tartibga solinishi	135

**VIII BOB. XVI ASR – XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA
DAVLAT VA HUQUQ**

18-mavzu: Shayboniylar davlati va huquqi

18.1. Shayboniylar davlatining tashkil topishi	140
18.2. Shayboniylar davlatining ijtimoiy tuzumi	142
18.3. Shayboniylar davlati boshqaruvining tashkil etilishi	144
18.4. Shayboniylar davlati huquqining asosiy belgilari	146

19-mavzu: Ashtarxoniylar davlati va huquqi

19.1. Ashtarxoniylar hukmronligining o'rnatilishi	153
19.2. Ashtarxoniylar davrida ijtimoiy-siyosiy tuzumda yuz bergan o'zgarishlar	155
19.3. Ashtarxoniylar davlati huquqining asosiy belgilari	157

20-mavzu: Buxoro xonligining ijtimoiy-siyosiy tuzumi va huquqiy tizimi

20.1. Buxoro xonligining tashkil topishi	159
20.2. Buxoro xonligining ijtimoiy tuzumi	160
20.3. Buxoro xonligi davrida markaziy va mahalliy hokimiyat hamda boshqaruv organlari	163
20.4. Buxoro xonligi huquqining asosiy belgilari	165

21-mavzu: Xiva xonligining ijtimoiy-siyosiy tuzumi

21.1. Xiva xonligining tashkil topishi	170
21.2. Xiva xonligining ijtimoiy tuzumi	171
21.3. Xiva xonligining davlat tuzumi	174
21.4. Xiva xonligi davrida davlat huquqining asosiy belgilari	176

22-mavzu: Qo'qon xonligi davlatchiligi va huquqi

22.1. Qo'qon xonligining tashkil topishi	177
22.2. Qo'qon xonligi ijtimoiy tuzumi xususiyatlari	181
22.3. Qo'qon xonligi markaziy va mahalliy boshqaruvning tashkil etilishi	183
22.4. Qo'qon xonligi davrida davlat huquqining asosiy belgilari	185

IX BOB. O'ZBEK XONLIKLARIDA HUQUQ MANBALARI

23-mavzu: O'zbek xonliklarida huquqning asosiy manbalari va belgilari

23.1. Majma' al-arqam – huquq manbasi	188
23.2. Majma' al-arqamda mulk egaligi shakllariga oid ma'lumotlar	189
23.3. Majma' al-arqamda boshqaruv organlari va devonlar haqida	189

Uchinchi bo'lim

**YANGI DAVR DAVLATI VA HUQUQI
X BOB. XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASRNING
BOSHLARIDA DAVLAT VA HUQUQ
24-mavzu: Chor Rossiyasining istilosi va mustamlakachilik tizimining
o'rnatilishi**

24.1. Chor Rossiyasining istilosi va Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi	192
24.2. Mustamlaka o'lkaning ijtimoiy tuzumi	194
24.3. Mustamlaka boshqaruv organlarining ta'sis qilinishi	196
24.4. Turkiston general-gubernatorligida politsiya va sud organlari	199

**25-mavzu: Buxoro amirligida Rossiya imperiyasi protektorati
(homiyligi)ning o'rnatilishi va ijtimoiy-siyosiy tuzumi**

25.1. Buxoro amirligi ustidan Rossiya protektoratining o'rnatilishi	201
25.2. Ijtimoiy tuzumda yuz bergan o'zgarishlar	202
25.3. Davlat tuzumi	205

**26-mavzu: Xiva xonligining Rossiya imperiyasi protektorati (homiyligi)
davrida ijtimoiy-siyosiy tuzumi**

26.1. Xiva xonligi ustidan Rossiya protektoratining o'rnatilishi	207
26.2. Ijtimoiy tuzumi	209
26.3. Davlat tuzumi	210

27-mavzu: XX asr hoshlarida Turkistonning ijtimoiy-siyosiy tuzumi

27.1. Turkistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishi	212
27.2. Sovet hokimiyati va boshqaruvi organlarining ta'sis qilinishi	217
27.3. TASSRning barpo etilishi va 1918, 1920-yillardagi konstitutsiyalari	220

To'rtinchi bo'lim

**ENG YANGI DAVR DAVLATI VA HUQUQI
XI BOB. 1917–1990-YILLARDA DAVLAT VA HUQUQ
28-mavzu: Buxoro va Xiva xonliklarining sho'rolar tomonidan bosib
olinishi va boshqaruv tizimi**

28.1. Xivada sovet hokimiyatining o'rnatilishi va yangi davlat organlarining ta'sis qilinishi	226
28.2. Buxoroda sovet hokimiyatining o'rnatilishi va yangi davlat apparatining tashkil qilinishi	232
28.3. Xorazm Xalq Sovet Respublikasi davlat tuzumi	234
28.4. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi davlat tuzumi	236

**29-mavzu: O'zbekiston SSRning tashkil topishi va 1927-yilgi
Konstitutsiyasi**

29.1. O'rta Osiyoda milliy-davlat chegaralanishining o'tkazilishi va uning ijtimoiy-siyosiy oqibatlari	237
--------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-----

29.2. O'zbekiston SSRning 1927-yilgi Konstitutsiyasi	241
29.3. 1920-yilning ikkinchi yarmi va 30-yillarning ikkinchi yarmida huquqda yuz bergan o'zgarishlar	242
30-mavzu: O'zbekiston SSRning 1937-yilgi Konstitutsiyasi va «sotsializm» aqidaparastligi	
30.1. Sotsialistik jamiyat va uning mohiyati	246
30.2. O'zbekiston SSRning 1937-yilgi Konstitutsiyasining qabul qilinishi va asosiy qoidalari	247
30.3. 1937-yilgi Konstitutsiya bo'yicha O'zbekistonning hokimiyat va boshqaruv organlari	248
31-mavzu: Ikkinchi jahon urushi davrida O'zbekiston davlati va huquqida yuz bergan o'zgarishlar	
31.1. Urushning boshlanishi va O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatning urushga safarbar qilinishi	250
31.2. Urush yillarida davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimidagi o'zgarishlar	251
31.3. Huquq sohalaridagi o'zgarishlar	253
32-mavzu: Mustabid tuzum inqirozi yillarida O'zbekiston davlati va huquqi (1946–1985-yillar)	
32.1. Urushdan keyingi yillarda O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi	257
32.2. «Rivojlangan sotsializm» g'oyasining mohiyati va tarixiy taqdiri	258
32.3. Davlat tuzumida ma'muriy-buyruqbozlik tizimining hukmronligi	261
32.4. Huquqdagi o'zgarishlar	263
33-mavzu: O'zbekistonning mustaqillik arafasidagi davlat tizimi va huquqi (1985–1991-yillar)	
33.1. Qayta qurish siyosati va uning mohiyati	267
33.2. Ijtimoiy-siyosiy hayotning demokratlashuvi, milliy ongning o'sishi va davlat tuzumidagi o'zgarishlar	271
33.3. Huquqiy islohotlar	274
XII BOB. MUSTAQIL O'ZBEKISTON DAVLATI VA HUQUQI	
34-mavzu: Mustaqil O'zbekiston davlati va huquqining shakllanishi	
34.1. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining tashkil topishi	279
34.2. O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi qonuni	281
34.3. 1992-yil Konstitutsiyaning qabul qilinishi, asosiy qoidalari va o'ziga xos xususiyatlari	282
34.4. Mustaqil va yangi huquqiy tizimning shakllanishi	285
35-mavzu: Yangi jamiyatga o'tish davridagi siyosiy islohotlar	
35.1. O'zbekistonda qonun chiqaruvchi hokimiyatning shakllanishi	288

35.2. Milliy davlat tizimining barpo qilinishi, boshqaruvda yangi usullarning qaror topishi	290
35.3. Mahalliy davlat hokimiyatida tub o'zgarishlar yasalishi	295
35.4. O'z-o'zimi boshqarish organlarining yanada rivojlantirilishi	297

36-mavzu: O'zbekistonning milliy-huquqiy tizimi

36.1. Davlat organlari tuzilmasining takomillashtirilishi	303
36.2. Inson huquqlari to'g'risidagi qonunlar	304
36.3. Bozor iqtisodiyotini amalga oshirish	306
36.4. Ijtimoiy va ma'naviy hayotning huquqiy kafolatlari	311
36.5. Tashqi siyosat sohasidagi qonunlar	314

37-mavzu: O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurilishi

37.1. O'zbekiston demokratiyani yanada chuqurlashtirish yo'lida	317
37.2. Inson huquqlari va erkinliklari kafolatlarining yaratilishi	319
37.3. Sud hokimiyati islohotlari	326

38-mavzu: O'zbekistonda siyosiy, ijtimoiy barqarorlikning ta'minlanishi

38.1. Aholini kuchli ijtimoiy himoyalash – davlat siyosatining bosh yo'nalishi	330
38.2. Millatlararo totuvlikning amalga oshirilishi	336
38.3. Milliy xavfsizlikni ta'minlash	339

39-mavzu: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikki palatali bo'lib shakllanishi

39.1. O'zbekistonda parlament islohoti, uning maqsadi, sabablari va huquqiy asoslari	348
39.2. O'zbekiston ikki palatali parlamentining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi	351
39.3. Ikki palatali parlamentda qonun chiqarish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari	358
39.4. «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunining qabul qilinishi zaruriyati, uning mohiyati va ahamiyati	364

**Haydarali Meliyevich Muhamedov
Ozod Tillaboyevich Husanov
Berdiboy Meliyevich Muhamedov**

O‘ZBEKISTON DAVLATI VA HUQUQI TARIXI

Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma

Muharrir *Sh. Bo‘tayev*
Rassom *Sh. Odilov*
Texnik muharrir *U. Kim*
Musahhah *G. Azizova*
Komputerda sahifalovchi *H. Safaraliyev*

67.3(50')

M96

Muhamedov, Haydarali Meliyevich.

O'zbekiston davlati va huquqi tarixi: Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'l./H.M. Muhamedov, O.T. Husanov, B.M. Muhamedov; O'zR oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi.— T.: «Tasvir» nashriyot uyi, 2009. —384 b.

I. Husanov, Ozod Tillaboyevich.

II. Muhamedov, Berdiboy Meliyevich.

BBK 67.3(50')ya722)

Bosishga ruxsat etildi 19.08.2009-y. Ofset qog'ozi. Bichimi 60x90 1/16.
Shartli hosma tabog'i 23,5. Nashriyot-hisob tabog'i 24.
1200 nusxada chop etildi. Buyurtma № 20.

«Tasvir» nashriyot uyi.

700000, Toshkent sh., Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.

«START-TRACK PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi
Manzil: Toshkent shahri, 8-mart ko'chasi, 57-uy.